


**ADHAMJON  
ASHIROV**



# **ETNO LOCIYA**



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

**ADHAMJON ASHIROV**

# ETNOLOGIYA

*O'quv qo'llanma*

*Ikkinchи nashr*

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi  
tomonidan oliy ta'lif muassasalarining 5110600 – tarix  
ta'lifi yo'nalishi bakalavrлari uchun  
o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan

TOSHKENT  
«YANGI NASHR»  
2014

UO'K: 39(075)

63.5

A93

**Ashirov, Adhamjon**

Etnologiya: oquv qo'llanma / A. Ashirov; mas'ul muharrirlar: U. Abdullayev, G. Fuzailova; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika un-ti. – Toshkent: «Yangi nashr», 2014. – 544 b.

**KBK 63.5**

ISBN-978-9943-22-139-0

**Mas'ul muharrirlar:**  
*tarix fanlari doktori, professor U. Abdullayev,  
tarix fanlari nomzodi, dotsent G. Fuzailova*

**Taqribchilar:**  
*tarix fanlari doktori, professor S. Agzamxodjayev,  
tarix fanlari nomzodi, dotsent H. Rahmatillayev,  
tarix fanlari nomzodi, dotsent T. Salimov*

Qo'llanmada etnologiya fanining tarixi, tadqiqot mavzusi, etnologik ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash, tahlil qilish usullari va uning nazariy muammolari yoritilgan. Unda sayyoramizning etnik manzarasi, turli xalqlarning etnologik tavsifi, turli mintaqalarda yashovchi xalqlarning etnomadaniy o'ziga xosligi, ularning antropologik, geografik va lingvistik tasnifiga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, turli mintaqalarda yashovchi etnoslarning urf-odat va marosimlari, milliy qadriyatlari, etnomadaniyati borasida ham qiziqarli ma'lumotlar bayon qilingan.

Qo'llanma oliy ta'lif muassasalarida ijtimoiy-gumanitar yo'nalişda tahsil oluvchi talabalar, jahon xalqlari etnologiyasi bilan qiziquvchi keng kitobxonlar ommasi uchun mo'ljallangan.

ISBN-978-9943-22-139-0

© «IQTISOD-MOLIYA», 2008  
© «YANGI NASHR», 2014



## MUNDARIJA

Uqtirish xati .....	7
Muqaddima .....	9

### BIRINCHI QISM. ETNOLOGIYANING UMUMIY MUAMMOLARI

#### I BOB. ETNOLOGIYANING IJTIMOIY FANLAR TIZIMIDA TUTGAN O'RNI. UNING ASOSIY TUSHUNCHALARI VA O'ZIGA XOSLIGI

1-§. Etnologiyaning fan sifatida shakllanish tarixi .....	14
2-§. Etnologiya fani predmeti .....	34
3-§. Etnologiya metodlari .....	44
4-§. Etnologiyaning boshqa fanlar bilan aloqalari .....	53
5-§. O'zbekistonda etnologiya fani: yutuqlar, muammolar va rivojlanish istiqbollari .....	60

#### II BOB. ETNOLOGIYANING ASOSIY YO'NALISHLARI VA MAKTABLARI

6-§. Evolyutsionizm va diffuzionizm.....	69
7-§. Sotsiologiya maktabi va funksionalizm.....	87
8-§. Etnopsixologiya maktabining shakllanishi .....	96
9-§. Etnologiyadagi yangi konsepsiylar .....	103

#### III BOB. ETNOS MUAMMOSI BILAN BOG'LIQ QARASHLAR VA NAZARIYALAR

10-§. Etnos va etniklik .....	115
11-§. Primordializm va konstruktivizm .....	133
12-§. Etnogenez va etnik tarix .....	139

## **IV BOB. DUNYONING ETNIK MANZARASI VA ETNOSLAR KLASSIFIKATSIYASI**

13-§. Yer yuzi aholisi etnik tarixi.....	145
14-§. XX asrdagi etnodemografik jarayonlar .....	150
15-§. Dunyo aholisining geografik va antropologik klassifikatsiyasi.....	156
16-§. Lingvistik klassifikatsiyalash.....	163

## **V BOB. ETNOS VA MADANIYAT**

17-§. Madaniyat va uning etnik funksiyasi.....	169
18-§. Etnik madaniyat.....	174
19-§. Zamonaviy dunyo madaniyati va etnik madaniyat .....	178
20-§. Milliy madaniyat. An'ana, urf-odat va marosimlar .....	182
21-§. O'zbek milliy mentaliteti.....	189

## **IKKINCHI QISM. JAHON XALQLARINING ETNOLOGIK TAVSIFI**

### **VI BOB. AVSTRALIYA VA OKEANIYA XALQLARI**

22-§. Avstraliya va tasmaniya xalqlari.....	198
23-§. Okeaniya xalqlarining tarixiy-etnik tavsifi .....	214
24-§. Polineziya va Yangi Zelandiya xalqlari .....	218
25-§. Mikroneziya va Melaneziya xalqlari .....	226

## **VII BOB. OSIYO XALQLARI ETNOLOGIYASI**

26-§. Osiyo xalqlarining tarixiy-etnologik tavsifi .....	235
27-§. G‘arbiy Osiyo xalqlari .....	247
28-§. Markaziy Osiyo xalqlari .....	261
29-§. Janubiy Osiyo xalqlari .....	309
30-§. Janubi-Sharqiy Osiyo xalqlari .....	323
31-§. Sharqiy Osiyo xalqlari .....	334
31. 1. Xitoy va xitoy xalqi .....	334
31. 2. Koreya va koreyaliklar.....	349
31. 3. Mo‘g‘uliston va mo‘g‘ullar.....	363
31. 4. Yaponiya va yaponlar.....	369

## **VIII BOB. AFRIKA XALQLARI**

32-§. Afrikaning tarixiy-etnologik tavsifi .....	383
33-§. Shimoliy Afrika xalqlari .....	392
34-§. G‘arbiy va Markaziy Afrika xalqlari .....	400
35-§. Sharqiy Afrika xalqlari .....	408
36-§. Janubiy Afrika xalqlari .....	413

## **IX BOB. AMERIKA XALQLARI ETNOLOGIYASI**

37-§. Amerika xalqlarining tarixiy-etnologik tavsifi ...	425
38-§. Shimoliy Amerikaning tubjoy aholisi etnografiyasi .....	433
39-§. Markaziy Amerika xalqlari.....	458
40-§. Janubiy Amerika xalqlari.....	467
41-§. Amerikaning zamonaviy etnik qiyofasi .....	476

## **X BOB. YEVROPA XALQLARI**

42-§. Yevropa aholisining tarixiy-etnologik tavsifi.....	483
43-§. G'arbiy Yevropaning roman-german va anglo-saks xalqlari.....	489
44-§. Yevropaning slavyan xalqlari .....	506
45-§. Janubiy va Shimoliy Yevropa xalqlari.....	518
Ilovalar .....	526

## UQTIRISH XATI

**Q**'uv qo'llanmaning asosiy maqsadi ijtimoiy-gumanitar yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarga etnologiyaning asosiy tadqiqot mavzusi va muammolari hamda zamonaviy tadqiqot uslublari borasida dastlabki bilimlarni berish va ularni kelgusidagi mustaqil ilmiy faoliyatlarida zarur bo'ladi-gan darajadagi etnologik ma'lumotlar bilan tanish-tirishdir. Shu bois qator yangi ma'lumotlar asosida qayta ishlangan ushbu kitobning ikkinchi nashrida zamonaviy etnologiya fanining asosiy yo'nalish va maktablari, etnos nazariyasi bilan bog'liq ustuvor nazariy metodologik qarashlar, dunyo xalqlari klassifikasiyasi, madaniyat va uning funksiyalari, etnomadaniyat muammolariga va tarixiy tadqiqotlarda etnologik yondashuv qo'llanishiga jiddiy e'tibor qaratil-gan. Bulardan tashqari qo'llanmada etnologiya tarixi, fan tarzida shakllanish bosqichlari, tadqiqot ob'ekti va muammolari, asosiy yo'nalish va maktablariga bat afsil to'xtalib o'tilgan. Shuningdek, kitobda an'ana-viy va zamonaviy etnomadaniy jarayonlar hamda etnos, etniklik muammosi doirasida primordialistik, konstruktivistik maktablarning o'zaro bahs-munozaralari ilmiy tarzda tahlil qilinishi bilan birga jahon xalqlari etnologiyasi, dunyoning turli mintaqalarida yashovchi xalqlarning etnografik xususiyatlari borasida qiziqarli va rang-barang yangi materiallar bayon qilingan.

Shubhasiz, bo'lg'usi tarixchilarining zamonaviy etnologiya fani muammolarini mukammal tarzda an'glab yetishlari uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

**Ijtimoiy-gumanitar soha vakillarini tayyor-lashda qo'llanmaning o'rni.** Mazkur o'quv qo'llanma tanishtiruv xarakteriga ega bo'lib, talabalar

va keng kitobxonlar ommasini etnologiya fanining nazariy-metodologik muammolari bilan tanishtiradi. Oxirgi ma'lumotlarga ko'ra, ona sayyoramizda hozirgi kunda 7 milliarddan ortiq aholi 200 dan zi-yod mamlakatlarda yashaydi. O'z navbatida mazkur mamlakatlarda yashovchi aholi juda ko'plab xalqlar, qabila va boshqa etnik jamoalarga (turli hisob-kitob-larga ko'ra taxminan 2,5 mingdan 7,5 mingtagacha) bo'linadi. Shu bois ham kitob muallifi dunyo xalqlarining etnik tarixi, ularning etnomadaniy taraqqiyoti va zamonaliviy ko'rinishlari borasidagi ma'lumotlarni berish bilan cheklandi. Mazkur nashrning eng muhim vazifasi kitobni mutolaa qiluvchi har bir o'quvchini zamonaliviy etnologiya fani tadqiqot mavzulari bilan tanishtirish barobarida yosh tadqiqotchilarni dala-etnografik materiallar yig'ish va to'plangan material-larni mustaqil tarzda qayta ishslash, tahlil qilishga ham o'rgatadi.

Qo'llanmani yaratish jarayonida S. V. Lurening «Tarixiy etnologiya» (M.: 1998), A. P. Sadoxinning «Etnologiya» (M.: 2000), E. E. Pimenova mas'ul muharrirligida chop etilgan «Etnologiya asoslari» (M.: 2007), V. A. Kozmina va V. S. Buzinlar ma'sul muharrirligida 2014-yil nashr etilgan «Etnologiya (Etnografiya)» (M.: 2014) va I. Jabborovning «Jahon xalqlari etnologiyasi» darsliklaridan (T.: 2008) foydalanildi. Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, qo'llanmaning «Jahon xalqlarining etnologik tavsifi» nomli 2-qismini yozishda prof. I. Jabborovning «Jahon etnologiyasi asoslari» nomli darsligi muhim metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun mo'ljallangan mazkur o'quv qo'llanmada ba'zi juz'iy kamchiliklar ning uchrashi tabiiydir. Shu bois mutaxassis olimlar, peshqadam pedagoglar va zukko kitobxonlardan amaliy taklif va mulohazalar kutib qolamiz.

## MUQADDIMA

XXI asr o'zbek xalqi o'z tarixi va milliy an'analarni o'rganish borasida yangi zarvaraqlarni muhrlamoqda. Ayniqsa, mamlakatimiz istiqlolga erishgandan keyin xalqimizning o'zligini anglashi, milliy qadriyatlar, tarixiy an'analarga bo'lgan e'tiborning ortishi natijasida o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi muammosi dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Qolaversa, uzoq yillar davomida ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan beba ho merosimizning, milliy qadriyatlarimiz va urf-odatlarimizning qaytadan jonlanishi hamda ularning jamiyat hayotiga olib kirlishi ham etnologik tadqiqotlar dolzarbligining oshishiga sabab bo'lmoqda. Boshqa tomondan esa aynan keyingi o'n yilliklarda dunyo miqyosida kechayotgan ulkan globallashuv jarayonlari va turli tarixiy-etnografik mintaqalararo kommunikatsiya tizimining takomillashuvi etnomilliy an'analarga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Qolaversa, o'tgan XX asr tarix sahifasiaga nafaqat fan-texnika taraqqiyoti asri, balki turli-tuman mojarolar va milliy-etnik nizolar asri bo'lib ham kirib keldi. Shu bois ham hozirda zamonaviy etnologiya fani oldida tarixiy, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda shaxs va jamoa munosabatlari, sivilizatsion jamiyatda milliy madaniyatlarning o'rni va ahamiyati hamda ularning saqlanib qolish omillari, etnomilliy mojarolarning paydo bo'lish sabablari, mazkur voqealarda etnik omilning o'rni kabi muammolarni o'rganishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Dunyo davlatlarining aksariyati yer yuzidagi eng yirik xalqaro tashkilot – Birlashgan Millatlar Tashkilotining a'zosi bo'lib, ular orasida o'zining katta hududi va ko'p millionli nufuziga ega mamlakatlar

(Xitoy, Hindiston, Braziliya va boshqalar) bilan birga kichik mamlakatlar (Afrikada – Jabuti, Ispaniya va Fransiya chegarasida – Andorra, Venesuela yaqinida – Trinidad va Tobago kabi mamlakatlar) ham mavjud. Aynan mazkur mamlakatlarda turli etnoslar istiqomat qiladi. Shubhasiz, yer yuzida yashovchi barcha xalqlar va millatlarning o'ziga xos jihatlarini tadqiq qiluvchi fan tarmog'i ijtimoiy fanlar tizimida etnologiya fani tarzida ma'lum va mashhurdir.

Etnologiya so'zi qadimgi yunon tilidan olingan bo'lib, *etnos* – *xalq*, *logos* – *fan* degan ma'nolarni bildirib, yer yuzida yashovchi xalqlarni o'rganuvchi fan tarmog'iga nisbatan qo'llaniladi. Maxsus adabiyotlardan ma'lumki, etnologiya etnos hayoti bilan bog'liq barcha muammolarni tadqiq qiladi. Lekin bu o'rinda u xalq hayotini aynan qaysi yo'nalishda va qanday nuqtai nazardan o'rganadi? degan savol paydo bo'ladi. Ushbu savolga javobni mazkur kitob orqali bilib olishimiz mumkin.

O'z navbatida shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, etnologiyaning fan sifatida shakllanganidan boshlab to bugungi kungacha asosiy tadqiqot ob'ekti bilan bog'liq muammolar yechimi borasida dunyo olimlari orasida umumiyl yakdil fikrlar mavjud emas. Chunonchi, ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarda etnologiya atamasi o'rniga ijtimoiy yoki madaniy antropologiya atamasini qo'llash keng tarqalgan. To'g'ri, etnologiya fani turli xalqlar va millatlarning hayot tarzini tafsiflash bilangina cheklanmaydi, balki uning tadqiqot ob'ekti va predmeti xalq hayoti bilan bog'liq kengroq soha va yo'nalishlarni qamrab oladi.

XX asrning so'nggi choragidan boshlab fanning tadqiqot ob'ekti va metodlarida ham jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Endilikda etnologik yo'nalishda tadqiqot olib borayotgan mutaxassislar nafaqat arxaik turmush tarzi sohiblari bo'lgan xalqlarni, bal-

ki zamonaviy industrlashgan millatlar va madaniyatlarni ham tadqiqot ob'ekti tarzida o'rganishga jiddiy e'tibor qaratmoqdalar. Shuningdek, hozirda ko'plab kichik mahalliy madaniyatlar ham tadqiqotchi olimlar diqqatini tortmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda etnologlar tomonidan tarix, arxeologiya, sotsiologiya, folklorshunoslik, madaniyatshunoslik va boshqa ko'plab ijtimoiy fanlar yutuqlari asosida tadqiqotlar olib borilib diqqatga sazavor ilmiy ishlar bajarilmoqda. Olimlarimiz tomonidan respublikamizning turli tarihiy-etnografik mintaqalari etnologiyasi, o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi, xalqimizga xos bo'lgan etnomilliy an'analar va zamonaviy etnomadaniy jayayonlarni o'rganishga e'tibor qaratilmoqda. Lekin, afsuski, an'anaviy va zamonaviy jamiyatning o'ziga xos xususiyatlari, zamonaviy etnologiya fanining dolzarb muammolari, yangi maktablar va nazaryalar tahlili, dunyo madaniyati evolyutsiyasida etnik omilning o'rni, madaniyatlarning tarixiy xilma-xilli-gi, antropogenez va etnogenez jarayonlar, milliy-etnik madaniyatning sivilizatsion jarayonlardagi o'rni va ahamiyati kabi muammolarni yoritib beruvchi hamda ularni yosh avlod tafakkuriga singdiruvchi darsliklar va o'quv qo'llanmalar hanuz yetishmaydi. Shu bois ham mazkur kitobda yuqorida bayon etilgan muammolarni yaxlit bir tizimli tarzda umumlashtirgan holda talabalarga yetkazishga harakat qilindi.

Xullas, mazkur kitobda zamonaviy etnologiya fanining mazmun-mohiyati, tadqiqot ob'ekti va metodlari hamda jamiyat hayotida mazkur fanning tutgan o'rni va amaliy ahamiyati keng qamrovli mambalar, maxsus ilmiy adabiyotlar va yangi materiallar asosida tahlil etilgan.

Maxsus adabiyotlar va darsliklardan ma'lumki, *etnologiya – etnos hayoti va u bilan bevosita bog'liq ja-*

*rayonlar to‘g‘risida tizimli bilimlarni beruvchi fandir.* Mazkur muammolarni atroficha o‘rganish, shubhasiz, ma’naviy yetuk va malakali mutaxassislarni tayyorlashda muhim amaliy ahamiyatga ega.

Umuman olganda talaba mazkur fanni o‘zlashtirish natijasida:

***Bilishi lozim:***

- Etnologiya fanining tarixi va zamonaviy holatini;
- Etnologiyada qo’llanadigan tasniflar mezonlari asosida dunyo xalqlarini tavsiflashni;
- Jahon xalqlari madaniyati tarixi va mintaqaviy o‘ziga xosligini.

***Qo’llashi zarur:***

- Etnografik iboralarni professional darajada;
- Tarixiy tadqiqotlarda etnografik manbani.

***Ega bo‘lishi kerak:***

- Ma’lum bir xalq madaniyatining asosiy komponentlari haqida bilimlarga;
- Etnografik matnlar yaratish malakasiga.

# BIRINCHI QISM

ETNOLOGIYANING  
UMUMIY MUAMMOLARI

# I BOB

## ETNOLOGIYANING IJTIMOIY FANLAR TIZIMIDA TUTGAN O'RNI. UNING ASOSIY TUSHUNCHALARI VA O'ZIGA XOSLIGI

1-§. Etnologiyaning fan sifatida shakllanish tarixi.

2-§. Etnologiya fani predmeti.

3-§. Etnologiya metodlari.

4-§. Etnologiyaning boshqa fanlar bilan o'zaro aloqalari.

5-§. O'zbekistonda etnologiya fani: yutuqlar, muammolar va rivojlanish istiqbollari.

### 1-§. Etnologiyaning fan sifatida shakllanish tarixi

**E**tnologiyaning paydo bo'lish tarixi. Har qanday fanning fan sifatida shakllanishi insonlar ehtiyoji bilan bog'liqdir. Shubhasiz, bu holat etnologiya uchun ham taalluqlidir. Insoniyatning tarixiy taraqqiyoti davomida yashab o'tgan barcha etnoslar o'ziga xos turmush tarzi, urf-odat va an'analarini bilan bir-biridan ajralib turgan. O'tgan mingyilliklar mobaynida tarix fanida yig'ilgan bilimlar shundan dalolat beradiki, yer yuzida garchi turfa xil rasm-rusmlar va urf-odatlarga ega xalqlar yashashlariga qaramay, ularning barchasi tabiatning uzviy bir qismi tarzida rivojlangan va aynan tabiiy-geografik hamda xo'jalik munosabatlari bilan bog'liq holda o'ziga xos etnomadaniy an'analariga ega.

Eng qadimgi davrlardan boshlab kishilar nafaqat o'zlarining, balki tevarak atroflari va uzoq yurtlarda yashovchi el-uluslarning madaniyati, an'analariga ham qiziqqanlar. Ular to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lishga harakat qilganlar. Antik davr mualliflari ko'plab empirik materiallarni yig'ishga, turli-tuman xalqlarning xo'jalik va madaniy belgilariga qarab tavsiflashga intilganlar. Lekin ularning asosiy qismi, asosan, jangchilar, sayyoohlar, elchilar va boshqa mamlakatlarda turli maqsadlarda bo'lgan kishilarning xotiralari yoki bo'lmasa o'zga yurtlar to'g'risidagi turli-tuman rivoyatlarga asoslanib ma'lumotlar bergenliklari bois ko'pincha mazkur ma'lumotlar umumiy yoki mavhumiy xususiyat kasb etgan.

Etnologiya – xalqlar to'g'risidagi mustaqil fan sifatida XIX asr o'rtalarida paydo bo'lgan. Mazkur fanning aynan shu davrda paydo bo'lishining o'ziga xos sabablari mavjud. Avvalo, bu davrda dunyo qit'alari orasida iqtisodiy, madaniy aloqalarning jadallahushi sabab bo'lgan bo'lsa, boshqa tomondan mazkur davrdagi mustamlakachilik siyosati ham turtki bo'lgan. Chunonchi, yangi-yangi mustamlaka-larga ega bo'lish yoki bosib olingan hududlarni oson boshqarish siyosati hamda mustamlakachi davlatlarning o'z mustamlakalarini osonlik bilan boshqarishga intilishlari u yerlarda yashovchi mahalliy xalqlar to'g'risida bat afsil ma'lumotlarga ega bo'lishni talab qilar edi. Qolaversa, buyuk geografik kashfiyotlarning amalga oshirilishi dunyoning turli mintaqalari orasida o'zaro etnomadaniy taraqqiyotdagi farqlarni, boshqa ellarda yashovchi etnik guruhlarning o'ziga xos etnopsixologiyasi va ularning etnik o'zlikni anglash mexanizmi, tarixning ma'lum davrlarida u yoki bu xalqning tutgan o'rni, sivilizatsiyalar va madaniyatlar taraqqiyoti hamda tanazzulida etnik omilning o'rni kabi muammolarni paydo qildi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan muammolar va savol-larning yechimi tarzida fanda qator yangi nazaryalar va konsepsiylar yaratildi. Bu esa etnologiyaning dast-labki ilmiy maktablari va yo'nalishlari paydo bo'lishi-ga sabab bo'ldi. Keyinchalik mazkur ilmiy maktab va yo'nalishlar asosida xalqlar to'g'risidagi maxsus fan—*etnologiya* shakllangan. Etnologiya fanining nomi ham boshqa ko'plab ijtimoiy-gumanitar fanlar kabi yunoncha — *etnos* (*xalq*) va *logos* (*fan*) so'zlaridan olingan bo'lib, «*xalq to'g'risidagi fan*» degan ma'noni bildiradi<sup>1</sup>. «Etnos» so'zi ilk bor qadimgi grek tilidagi manbalarda uchraydi. Taxminan miloddan avvalgi VI – V asrlarda bu so'z kelib chiqishi grek bo'lмаган urug' va qabilalarga nisbatan qo'llanilgan. Mazkur ibora rim madaniyati va lotin tilida ishlatilgan aynan shu ma'noda.

XVIII asr oxirlariga qadar etnos tushunchasi ni-hoyatda chegaralangan tarzda iste'molda bo'ldi. Faqat XIX asrdan e'tiboran bu atama ilmiy adabiyotlarda «*xalq*» («narod») ma'nosida keng qo'llanila boshlagan.

XIX asrgacha «etnologiya» iborasi maxsus fanga nisbatan emas, balki onda-sonda turli etnografik jarayonlarni tavsiflash maqsadidagina ishlatilgan.

«Etnologiya» atamasi fanga ilk marotaba 1784-yilda A. Shavann tomonidan olib kirilgan. Lekin oxirgi yillardagi tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, maz-kur fan 1774-yil yozma manbalarida alohida fan tar-mog'i, ya'ni «etnografiya» ko'rinishida davlatlar tarixini xalqlar tarixidan farqlash maqsadida qo'llanilgan<sup>2</sup>. Aynan etnologiya iborasi nemis olimi A. Shavann

---

<sup>1</sup> R. H. Winthrop. Dictionary of Soncepts in Sultural Anthropology. N. Y., Westport, Sonnecticut, L., 1991. – P. 101.

<sup>2</sup> Фермойлен Х. Ф. Происхождение и институционализация понятия Volkerkunde (1771 – 1843) (Возникновение и развитие понятий «Volkerkunde», «Ethnographie», «Volkskunde» и «Ethnologie» в конце XVIII и начале XIX веков в Европе и США // Этнографическое обозрение. 1994. № 4. – С. 101.

qalamiga mansub bo'lib, u 1787-yilda etnologiyani antropologiya – odam haqidagi umumiy fanning qismi tarzida qo'llagan. Keyinchalik 1830-yilda fransuz olimi *Jan Jak Amper* tomonidan «antropologik» (ijtimoiy) fanlarning umumiy tasnifini ishlab chiqishda xalqlar va ularning madaniyati to'g'risidagi yangi fanning nomlanishi tarzida qo'llanilgan. Mazkur atama Yevropa davlatlariga juda tezlik bilan yoyilgan.

Umuman etnologiya mustaqil fan sifatida bir qator etnologlar jamiyatları (1839-yil Parijda Fransiya etnologlar jamiyati; 1842-yil Amerika etnologlar jamiyati; 1843-yil London etnologlar jamiyati, keyinchalik (1871-yil) Buyuk Britaniya va Irlandiya Qirollik antropologiya institutiga birlashgan, 1869-yil Germaniyada antropologiya, etnologiya jamiyati; 1871-yilda esa Italiya antropolog va etnologlar jamiyati)ning tuzilishi bilan rasman tasdiqlangan<sup>1</sup>. Aynan bunday ilmiy jamiyatlarning tuzilishi yangi fanning shakllanishiga asos bo'ldi va uning jamiyat hamda ilmiy muhitdagi o'rnini belgilab berdi. Shuningdek, bu davrдан boshlab «Buyuk Britaniya va Irlandiya Qirollik antropologiya instituti jurnalı» (Journal of Royal anthropological institute of Great Britain and Ireland), «Inson» (Man), «Antropologiya xabarları va savolları» (Notes and queries on anthropology), Germaniyada «Etnologik jurnal» (Zeitschrift fur Ethnologie), Avstriyada «Antropos» (Anthropos), AQShda «Amerika antropologi» (American anthropologist) kabi ilmiy jurnallar nashr etila boshlandi. Keyinchalik, XX asr boshlaridan boshlab etnologiya fani universitetlarda alohida kafedra va fakultetlar tarzida kiritildi. Biroq, shundan keyin turli ilmiy maktablar va yo'nalishlar o'rtasida mazkur fanning ijtimoiy fanlar tizimidagi o'rni, tadqiqot mavzusi borasidagi masalalar ustida

<sup>1</sup> Лурье С. В. Историческая этнология. Учебное пособие для вузов. – М., Аспект Пресс, 1998. – С. 5.



keskin munozaralar bo'lgan va bu bahslarning ayrimlari hatto bugungi kunga qadar davom etib kelmoqda. Qizg'in bahs-munozaralarga sabab bo'lib kelayotgan muammolardan biri fanning mazmuni va nomlanishi borasidagi masaladir.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, bugungi kunga kelib ayrim mamlakatlarda mazkur fan «etnologiya» yoki «etnografiya» deb nomlansa, qator g'arb mamlakatlarida ushbu fanni «madaniy antropologiya» yoki «ajtimoiy (sotsial) antropologiya» deb yuritish an'ana-ga aylangan. Ma'lumki, yaqin o'tmishda sobiq Ittifoqda bu yo'nalish «etnografiya» deb nomlanib, mazkur sohada ilmiy tadqiqotlar olib borgan institut va ilmiy tadqiqot markazlari ham shu atama bilan yuritilar edi. Biroq o'tgan asrning 90-yillaridan e'tiboran ushbu fanga nisbatan «etnografiya» atamasi bilan birga «etnologiya» atamasi ham qo'llaniladigan bo'ldi.

**Etnografiya** yunoncha bo'lib, «etnos» – *xalq*, «grafiya» – *tavsiflash* degan ma'nolarni anglatadi. Mazkur fanning metodologik masalalariga bag'ishlangan qator ishlardan ko'rindaniki, «etnologiya» va «etnografiya» tushunchalarini aynan bir tushunchalar tarzida qabul qilish ham to'g'ri emas. Negaki, agar an'anaviy «etnografiya» u yoki bu etnos (*etnik birlik*) ga oid bo'lgan materiallarni to'plab, tizimlashtirib va ularni ko'proq tavsiflab bersa, «etnologiya» etnos haqidagi barcha ma'lumotlarni nazariy-metodologik jihatdan tahlil qiladi va bu xususda umumiy xulosalar chiqaradi. Demak, «etnologiya» tushunchasi «etnografiya» tushunchasiga nisbatan nafaqat kengroq, balki etnografiya etnologiyaning ma'lum bir qismi, deb aytish mumkin. O'z navbatida shuni ham ta'kidlash joizki, har bir mamlakatda mazkur fanning paydo bo'lish tarixi va nomlanishi o'ziga xos tarixga ega.

**Yevropada etnologiya maktablarining shaklanishi.** Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, Yevropada etnologiya mustaqil fan tarzida dastlab Fransiyada «Parij etnograflar jamiyat» ning tuzilishi bilan o'z tasdig'ini olgan. XIX asrning ikkinchi yarmida Yevropadagi boshqa yirik davlatlar kabi Fransiya siyosiy doiralari tomonidan mustamlakachilik siyosatining kuchayishi va mustamlakalarni boshqarish mexanizmining murakkablashuvi qaram xalqlar to'g'risida kengroq ma'lumotlarga ega bo'lishni, ularning milliy xususiyatlari, o'tmish tarixi, turmush tarzi, madaniyati va an'analari haqida batafsilroq ma'lumot olishni

talab qilgan. Shu bois etnologiya bu yerda «*etnografiya*» deb yuritilgan. Fransiyada mazkur atama XIX asr oxirigacha ilmiy muomalada bo'lgan. XX asr boshlarida fransuz tadqiqotchilari tomonidan etnografiyaga tarixiy va nazariy materiallarni jalb etgan holda izlanishlar olib borilishi natijasida etnografiya etnologiyaga aylangan va hozirda fransuz olimlari tomonidan, asosan, etnologik tadqiqotlar olib boriladi.



Jeyms Freyzer  
(1854 – 1941)

Xalqlar to'g'risidagi fan – etnologiya tarzida shakllangan mamlakatlardan yana biri Germaniyadir. 1789-yil Germaniyada yevropalik bo'lмаган xalqlar va ularning madaniyatlarini o'rganuvchi «*Volkerkunde*» deb yuritiluvchi ilmiy maktabga asos solingan. XIX asrning 30-yillarida nemis sayyoohlari va tadqiqotchilari tomonidan barcha xalqlarga nisbatan «*etnologiya*» atamasini qo'shib tadqiq qilish rasm bo'lgan. XIX asr o'rtalariga kelib esa «*Volkerkunde*» va «*etnologiya*» iboralari bir xil ma'noda, ya'ni in-

soniyat madaniyatini tadqiq qiluvchi fan tarzida qo'llanilgan. Qizig'i shundaki, nemislarda ba'zida hozirda ham mazkur atama etnologiyaga sinonim tarzida qo'llaniladi. Bundan tashqari nemislarda xalqlar to'g'risidagi *Volkskund* (xalqshunoslik) degan yirik yo'naliish ham mavjud bo'lib, bunda, asosan, nemis tilida so'zlashuvchi xalqlar va ularning madaniyati o'rjaniladi. XX asrning so'nggi choragidan boshlab Germaniyada etnologik yo'naliishda olib borilayotgan tadqiqotlar ancha samarali natijalar bera boshlagan. Ayniqsa, bu borada Maks Planka nomidagi Etnologiya va antropologiya ilmiy tadqiqot instituti tomonidan olib borilayotgan izlanishlar alohida e'tiborga sazovordir.



Edvard Taylor  
(1832 – 1917)

Ingliz tilida so'zlashuvchi xalqlar orasida etnologiyaning fan sifatida shakllanishi bir-muncha boshqacharoq tarzda kechgan. Avvalo, inglizzabon mamlakatlarda xalqlar to'g'risidagi fan antropologiyaning bir qismi sifatida o'rjanilgan. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, antropologiya insoniyat tabiatiga oid biologik fan tarzida paydo bo'lishini ayrim tadqiqotchi olimlar O. Gosmanning 1596-yilda aynan shu nomdag'i

kitobining nashr etilishi bilan bog'laydilar.

XVIII asrda dunyo miqyosida mustamlakachilik siyosati va irqchilik hamda demografik jarayonlarning kuchayishi antropologiyaning juda tezlik bilan rivojlanishiga olib kelgan. Natijada XIX asrga kelib Yevropa mamlakatlarida «orqada qolgan» ibtidoiy xalqlarni o'rjanuvchi qator antropologik jamiyatlar tuzila boshlagan. 1906-yilda ingliz etnologiya makta-

bining asoschilaridan biri J. Frezer tomonidan «Ijtimoiy antropologiya» nomli yangi yo'nalishga asos solindi. Mazkur yo'nalish orqali mashhur ingliz tadqiqotchisi o'zining mustaqil maktabini yaratgan va u o'z qarashlarini «madaniy antropologiya» nomi bilan yuritiluvchi E. Taylor qarashlaridan ajratib olishga muyassar bo'ldi. Darhaqiqat, «ijtimoiy antropologiya» iborasi dunyo bo'yicha juda tezlikda tarqalgan va keyinchalik etnologiyaning inglizcha sinonimiga aylangan. Hozirda ham ayrim «ijtimoiy antropologiya» maktabi vakillari o'zlarining ilmiy izlanishlarini turfa xil madaniyatlar sohiblari bo'lgan ayrim etnik guruhlarni o'rganishga qaratadilar.



*Lewis Morgan  
(1818 — 1881)*

**AQShda etnologiya fani taraqqiyoti.** Amerikada dastlabki etnologlar jamiyati 1842-yilda tuzilgan bo'lsa-da, Yevropaning boshqa mamlakatlariga qaraganda AQShda etnologiya maktablari amalda birmuncha kechroq shakllangan. Negaki, Amerika aholisining etnik rang-barangligi va uzoq yillar mobaynida mazkur qit'ada davom etgan irqchilik siyosati natijasida Amerikada jismoniy antropologiyaning irqiy va madaniy farqlarigina tadqiq qilingan.

O'z o'rnida shuni ham aytib o'tish kerakki, mazkur yo'nalishga mashhur olim Genri Lyus Morgan tomonidan asos solingan bo'lib, uning ibtidoiy jamiyatda urug'chilik, oila-nikoh munosabatlari tiplari tasnifi, insoniyat tarixini davrlashtirish mavzularidagi sodda tadqiqotlari bir necha o'n yillar mobaynida Amerika etnologlari uchun muhim tadqiqot mavzulari bo'lib xizmat qilgan. XX asr o'rtalarida Frans Baosning sa'y-harakati bilan Amerika olimlari ilmiy yo'nalishlarini birmuncha chuqurlashtirgan va tad-

qiqotchilar tomonidan xalqlarning madaniyatidagi farqli xususiyatlarga jiddiy e'tibor qaratila boshlangan. Frans Baos tomonidan bu yo'nalishga «madaniy antropologiya» (keyinchalik esa mazkur yo'nalish har qanday etnologik tadqiqotlarga nisbatan qo'llanila boshlandi, yoki boshqacha qilib aytganda, «etnologiya»ning amerikacha nomlanishi bo'ldi – A. A.) nomi berilgan.

### **Rossiya etnologiya maktabining shakllanishi.**

Rossiyada etnografiya yo'nalishidagi dastlabki tadqiqotlarga 1846-yil Rus geografiya jamiyatining tuzilishi natijasida asos solingan. Ushbu jamiyatning asosiy maqsadlaridan biri Rossiyaning mustamlaka mintaqalari tabiatni, tabiiy boyliklari, o'tmish tarixini tadqiq etishdan tashqari mazkur mintaqalarda yashovchi xalqlarning etnik xususiyatlarini, milliy qadriyatlarini o'rGANISH bo'lgan. Ayniqsa, Rossiya imperiyasi ma'murlarining Sibir, O'rta Osiyo, Kavkazga bo'lgan qiziqishlari natijasida mazkur hududlarni

o'rGANISH uchun tashkil etilgan qator kompleks ekspeditsiyalarga hukumat tomonidan moliyaviy ko'mak berilishi mustamlaka xalqlar turmush tarzi, milliy an'analarini va etnografiyasiga oid muhim ma'lumotlarning yig'ilishiga sabab bo'lgan.

Rus etnografiyasi maktabining shakllanishiда mashhur sayyoh va tadqiqotchi olim Mikluxa-Maklayning xizmati beqiyosdir. U o'z tadqiqotlarida insoniyating ajdodlari bir ekan-



*Mikluxa-Maklay  
Malakka yarim orolida  
(1874–75-yillar).*

ligini, turli irqlar va xalqlar orasida jiemoniy hamda psixologik farq mavjud emasligini isbotlashga harakat qilgan. Olimning yozishicha, xalqlar orasidagi farqlar ularning tabiiy va ijtimoiy sharoitlari bilan izohlanadi. Mikluxa-Maklay o'z hayotining ko'p davrini Yangi Gvineya papuaslari va Okeaniya xalqlari orasida o'tkazib ularning turmush tarzi, moddiy va ma'nnaviy madaniyatini o'rganish orqali irqchilik nazariyasiga qarshi ishonarli dalillar yig'ishga tuyassar bo'lgan.

Sobiq sovetlar davrida mazkur fan, asosan, tavsifiy xarakterga ega bo'lganligi bois etnografiya deb yuritilgan. Qolaversa, bu fan ham boshqa qator ijtimoiy-gumanitar fanlar singari sovet mafkurasi uchun xizmat qilgan. Bu davrda mamlakatda, asosan, yagona sovet xalqi yaratish to'g'risidagi g'oya ustun bo'lganligi bois etnograf olimlar ham o'zlarining tadqiqotlarida e'tiborlarini ko'proq sovetlar davri etnografiyasini o'rganishga qaratganlar. Umuman olganda, bu davrdagi ko'plab tadqiqotlar maxsus siyosiy buyurtmalar xarakterida bo'lib, etnik rivojlanishning barcha jarayonlarini yoritib bera olmas edi. Ayniqsa, bu davrda etnik tarix, etnik ong, etnik o'zlikni anglash, etnomilliy qadriyatlar, etnomadaniyat, etnoslararo jarayonlar kabi etnologiyaning asosiy muammolarini tadqiq qilish ma'lum ma'noda cheklangan edi. Lekin o'z o'rniда shuni ham e'tirof etish kerakki, Mikluxa-Maklay nomidagi Etnografiya instituti (hozirgi Etnologiya va antropologiya instituti – A. A.) nafaqat ittifoq miqyosida, balki dunyo miqyosida ham mazkur yo'nalishda yirik tadqiqotlar olib borgan ilmiy markazlardan biri hisoblanadi.



*Frans Boas  
(1858 – 1942)*

**O'zbekiston hududidagi dastlabki etnografik manbalar.** O'zbek xalqining etnografiyasini haqidagi ilk ma'lumotlar arxeologik yodgorliklar, ilk yozma manbalar va turli qadimiy tarixga oid materiallardan ma'lum.

Qadimgi davrlarda, o'rta asrlarda Amudaryo va Sirdaryo bo'yalarida yashagan xalqlar etnologiyasini o'rganishda zardushtiylik dinining muqaddas kitobi – «Avesto», qadimgi turkiy bitiklar va so'g'diy yozuvlar, Abu Rayhon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'ati-turk», Abu Bakr Narshaxiyning «Buxoro tarixi», Sharofiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» hamda «Nasabnomai o'zbek», Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma», Hofiz Tanish Buxoriyning «Abdullanoma», Abulg'oziy Bahodirxonning «Shajarai turk», Muhammad Solihning «Shayboniynoma» kabi asarlari katta ahamiyatga ega.

**Rossiya imperiyasi va sovet davrida mam-lakatimiz hududida olib borilgan etnografik tadqiqotlar.** XIX asrning 70 – 80-yillariga kelib O'rta Osiyo xalqlarining antropologiyasi, milliy-etnik tuzilishi, an'anaviy xo'jalik faoliyati, moddiy va ma'naviy madaniyatini o'rganish borasida ma'lumotlarni toplash bo'yicha aniq dastur ishlab chiqilgan.

1870-yilda Samarqand, Buxoro, Urganch bo'yicha uyushtirilgan ilmiy ekspeditsiya (N. N. Karazin, N. E. Simanov)lar o'z davri uchun muhim etnografik ma'lumotlarni toplash imkonini bergan.

O'rta Osiyo Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingach, o'zbek xalqi etnografiyasini o'rganishga jiddiy e'tibor qaratilgan. Ayniqsa, 1895-yilda Toshkentda Arxeologiya havaskorlari Turkiston to'garagining tashkil etilishi natijasida o'zbek xalqining etnografiyasiga oid ilmiy materiallar yig'ilash boshlandi. Shuningdek, Sattorxon Abdug'afforov, Mirzo Barot, Mul-



Nalivkin oilasi davrasida

la Qosimov, Muhammad Vafo, G. Arandrenko, L. S. Berg, V. L. Vyatkin, M. F. Gavrilov, A. D. Grebenkin, A. A. Divayev, I. I. Ibrohimov, A. V. Kaulbars, P. E. Kuznetsov, D. N. Logofet, N. A. Mayev, A. E. Snesarev, M. S. Andreyev, A. A. Semenov, A. F. Petrovskiy, A. P. Shishov, V. N. Nalivkin, N. P. Malitskiylarning tadqiqotlarida o'zbek xalqining etnik tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, geosiyosiy joylashuvi, o'zaro ichki va tashqi aloqalari, an'anaviy turmush tarzi va madaniyatiga oid ko'plab ilmiy materiallar to'plangan.

XX asrning birinchi choragida respublikamiz hududida etnografik tadqiqotlarni o'tkazishda yosh Turkiston Respublikasining fan va maorif tashkilotlari ancha jonkuyarlik ko'rsatgan. 1921-yilda mahalliy hokimiyat tomonidan o'z davrining mashhur etnograf olimlaridan tashkil topgan «Turkiston tub aholisining maishiy turmushini o'rganish ilmiy komissiyasi»

faoliyat yuritgan. Aynan mazkur komissiya ishtirokida mashhur elshunos tadqiqotchi olim A. A. Divayev rahbarligida Sirdaryo viloyati, O'rta Osiyo xalqlari etnografiyasining bilimdonlaridan biri M. S. Andreyev boshchiligidagi Samarqand viloyatida yashovchi el-uluslar etnografiyasi va boy folklor namunalarini o'rganish borasida etnofolkloristik ekspeditsiyalar uyushtirilgan.

1928 – 1930-yillarda yirik o'zbek folklorshunoslari G'ozi Olim Yunusov va Hodi Zaripovlar hamda mashhur rus etnografi L. P. Potapovlar tomonidan o'zbek xalqi madaniyati, etnografiyasi va folklorini o'rganish borasida uyushtirilgan maxsus ekspeditsiyalar jarayonida ham mahalliy aholi etnografiyasi bo'yicha juda boy materiallar yig'ilgan.

XX asrning 20 – 30-yillariga qadar etnografiya muammolari bilan ko'proq rusiyzabon olimlar shug'ullangan bo'lsalar, 30-yillar oxiriga kelib T. Mirzayev, M. A. Bikjanova, Sh. Inog'omov, T. Mirg'iyosov, M. Yusupov, H. Husanboyev, G. Alimov, A. Boltayev, M. Saidjonov kabi mahalliy mutaxassis-etnograflar avlodni shakllangan. Bu davrda yaratilgan tadqiqotlar muzeylarda va ilmiy markazlarda bajarilgan bo'lib, asosiy ilmiy natijalar turli jurnallarda maqolalar tarzidagina e'lon qilingan.

O'sha yillarda etnograf va tarixchilar o'zbek hamda qoraqalpoq xalqlari va ular ajdodlarining kelib chiqish muammosini faol o'rganishga kirishganlar<sup>1</sup>. Natijada qator kompleks ekspeditsiyalar va tadqiqotlar bajarilgan. Bu borada ayniqsa mashhur arxeolog va elshunos olim S. P. Tolstov boshchiligidagi Xorazm arxeo-etnografik ekspeditsiyasi muhim o'rinni egallaydi. Mazkur ekspeditsiya tarkibida o'zlarining dastlabki ilmiy izlanishlarini olib borgan T. A. Jdanko, K. L. Zadixina, I. Jabborov, S. Kamolov, G. P. Snesarev kabi

<sup>1</sup> Doniyorov A. O'zbekiston etnografiyasi tarixidan lavhalar (XX asrning 20 – 80-yillari). – T.: Yangi asr avlodni, – 2003. – B. 7.

tadqiqotchilar keyinchalik mashhur etnograf olimlar bo'lib yetishishgan. Ular Xorazm vohasida yashovchi xalqlar – o'zbeklar, qoraqalpoqlar, turkmanlar va qozoqlarning madaniyati va turmushiga oid ko'plab fundamental asarlar yaratishdi.



*K. L. Zadixina.  
(1907–1969)*

Xorazm ekspeditsiyasi tadqiqotlari, bir tomonidan, O'zbekiston etnograflari uchun mintaqaga xalqlarining etnogenezi, xo'jalik o'tmishini, moddiy va ma'naviy madaniyati tarixini, turmushi va urf-odatlarini tadqiq etishdek murakkab masalalarni hal etish imkoniyatini yaratdi. Ikkinchi tomonidan, etnografik tadqiqotlar va xulosalar orqali tarixchilarning tadqiqotchilik amaliyoti uchun muhim tarkibiy qism hisoblangan

ijtimoiy institutlar va oilaviy tarkiblarni tarixiy asoslash uchun qulay imkoniyatlar va muhim ilmiy asoslar yuzaga keldi.

1943-yil O'zR FA Tarix va arxeologiya instituti tarkibida Etnografiya bo'limining tashkil etilishi respublikada etnografik ilmiy izlanishlarni jonlantirib yubordi, deb aytish mumkin. Bu davrda tadqiqotchilar tomonidan, asosan, tarixiy va zamonaviy etnografiya hamda o'zbeklarning etnik muammolari yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borildi.

1950 – 1953-yillar mobaynida Farg'ona vodiysini o'rganish bo'yicha tashkil etilgan ekspeditsiya jarayonida Namangan va Farg'ona viloyatlari qishloq aholisi turmushida sovet davrida yuz bergan o'zgarishlar sovet davri mafkurasi nuqtai nazaridan o'rganilgan.

1960 – 1970-yillarda o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi, etnik tarkibi hamda mintaqadagi qator

subetnoslar bo'yicha K. Shoniyofov, T. Fayziyev, B. Ahmedov, I. Ermatov, B. Karmishyeva kabi tadqiqotchi olimlarning qator fundamental monografiyalari nashr qilinishi o'zbek xalqi etnografiyasida etnogenez va etnik tarix yo'naliشining jonlanishiga sabab bo'ldi. Shuningdek, bu davrda o'zbekistonlik qator olimlar (K. Sh. Shoniyofov, O. A. Suxareva, I. M. Jabborov, M. A. Bikjonova va boshq.) «Jahon xalqlari» turkumi-da chiqqan «*O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlari*» nomli ikki tomlik fundamental asarning (M.:1962) yozilishida faol qatnashdilar.



*O. A. Suxareva  
(1903–1983)*

XX asrning 70-yillaridan boshlab O'zbekistonning ayrim mintaqalari aholisining etnik tarkibidagi o'zgarishlar haqidagi ma'lumot beruvchi viloyatlar bo'yicha etnografik xaritalar tayyorlandi (Sh. Inog'omov, K. Shoniyofov, X. Toshev, B. Aminov va boshqalar). O'zbekistondagi ishchilar sinfining hayoti va turmushidagi o'zgarishlar haqida etnografik tadqiqotlar (F. Oripov, Sh. Muzaffarov, K. Zadixina, R. Qurbongaliyeva, T. Toshev,

H. Ismoilov va boshqalar) paydo bo'ldi. Bu davrda o'zbeklarning ijtimoiy hayoti va an'anaviy turmush tarziga bag'ishlangan qator asarlar yaratildi (I. Jabborov, S. Mirhosilov, M. Ro'ziyeva va b.).

O'tgan asrning 70 – 80-yillarida sobiq sovet tuzumining mafkuraviy tazyiqi tufayli o'zbek xalqi etnologiyasini o'rganishda susayish jarayoni yuz berdi. Mamlakatda, asosan, yagona sovet xalqi yaratish to'g'risidagi g'oya ustun bo'lganligi bois etnograf olimlar ham o'zlarining tadqiqotlarida ko'proq sovetlar davri odamlari etnografiyasini o'rganishga qarat-

ganlar. Sovetlar davrida barcha ijtimoiy fanlar kabi etnografiya fani ham kommunistik mafkura ga bo'ysundirildi. Ushbu yo'nali shida bajarilgan tadqiqotlar kommunistik mafkura prizmasidan o'tkazildi. Lekin shunga qaramasdan, K. Shoniyo佐ov va H. Ismoilovlarning «O'zbeklar moddiy madaniyatidan etnografik lavhalar» (1981), S. S. Gubayevaning «Farg'ona vodiysi aholisi va uning etnik tarkibi» (1983), X. Toshevning «Zarafshon o'zbeklarining ijtimoiy turmushi va xo'jaligi» (1987), T. Toshboyeva va M. Savurovlar ning «O'zbek oilasi turmushidagi an'anaviylik va zamonaviylik» (1989) kabi asarlari e'lon qilindi.

**Mustaqillik yillarida etnologiya fani.** XX asr davomida etnologiya yo'nali shida boy empirik va nazariy materiallar yig'ildi. XX asrning birinchi yarmida bajarilgan akademik tadqiqotlarda ko'proq o'tmishta aylanayotgan an'anaviy urf-odatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni yozib olishga diqqat-e'ti-

bor qaratilgan bo'lsa, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab mavjud vaziyat o'zgardi va etnologik materiallarning amaliy qimmati oshdi.

Yurtimiz mustaqillikka erish ganidan keyin etnologiya fani ham yangi bosqichga ko'tarildi. Ayniqsa, etnogenez va etnik tarix muammolari bo'yicha qator tadqiqotlar yaratildi. Bu sohada etnologiya fani darg'alaridan biri



*Iso Jabborov*




*Karim Shoniyo佐ov  
(1924– 2000)*

akademik Karim Shoniyofovning qator fundamental tadqiqotlari va monografiyalari alohida e'tiborga molikdir. Zahmatkash va fidoyi olim K. Shoniyofov o'zining qariyb yarim asrlik ilmiy faoliyati mobaynida O'rta Osiyo mintaqasida yashovchi o'zbeklar va boshqa qardosh xalqlar etnogenezi va etnik tarixini izchil o'rgandi. Natijada bu mavzu doirasida bir necha yirik monografiyalar va yuzdan ortiq ilmiy maqolalar yaratdi. Olimning «O'zbek-qarluqlari» (T.: 1964), «O'zbek xalqining etnik tarixiga oid» (T.: 1974), «O'zbek xalqining moddiy madaniyatidan etnografik lavhalar» (T.: 1981), «Qang' davlati va qang'lilar» (T.: 1990), «Qarluq davlati va qarluqlar» (T.: 1999), «O'zbek xalqining shakllanish jarayoni» (T.: 2000) kabi fundamental monografiyalari boy tarixiy manbalar, ko'pdan-ko'p folklor-etnografik ekspeditsiyalarning materiallari asosida yaratilgani bilan muhim ahamiyat kasb etadi.



K. Shoniyofov o'zining o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixiga oid fundamental tadqiqotlari orqali o'zbek xalqi etnik tarixini o'rganishda yangi ilmiy yo'nalishga asos soldi. Tarixiy va etnografik ma'lumotlarni arxeologiya, antropologiya, numizmatika, folklorshunoslik va tilshunoslik kabi yondosh fanlar yutuqlari bilan qiyosiy o'rganish va muammoni yoritishda muayyan ilmiy xulosalarga kelish O'zbekiston etnologiyasi fanida Karim Shoniyofov asos solgan yangi yo'nalishning muhim bir xususiyatidir. Shuning uchun ham akademik olimning tadqiqotlari nafaqat respublikamizdagi ilmiy ja moatchilik tomonidan yaxshi kutib olingan, balki xo-



rijlik mutaxassislar tomonidan ham e'tirof etilgan.

Etnogenез va etnik tarix muammosini tadqiq etishda akademik A. Asqarovning ham xizmatlari katta. Taniqli olim etnogenez va etnik tarix muammosiga bag'ishlangan tadqiqotlarida birinchilardan bo'lib tarixiy va arxeologik, etnografik va antropologik manbalarga hamda adabiyotlarga asoslanib, o'zbeklarning shakllanish jarayonini bir necha bosqichlarga bo'lib tadqiq qiladi va qator nazariy-met-

odologik hamda ilmiy konseptual xulosalar chiqargan. Muallif keyingi yillardagi tadqiqotlarida etnogenez va etnik tarix muammosi yuzasidan jiddiy shug'ullanib etnos nazariyasiga oid bir qator ilmiy anjumanlar va seminarlar tashkil etdi hamda bu borada o'zining qator ilmiy-nazariy hamda metodologik qarashlarini ilgari surdi.

Shuningdek, bu davrda xalqimizning moddiy va ma'naviy madaniyatini, oilaviy va jamoaviy hayotini, etnoslararo jarayonlarni o'rganish borasida samarali ishlar bajarildi. Xususan, o'zbek oilasi tarixi (O. Bo'riyev), to'y va motam marosimlari (H. Ismoilov, Q. Nasriddinov), an'anaviy uy hunarmandchiligi (X. Toshev va M. O'rakov), o'zbeklar orasidagi mahalla va qo'ni-qo'shnichilik an'analari (Z. Orifxonova), qadimiy diniy e'tiqodlar va ularning o'zbek xalqi turmush tarzidagi izlari (A. Ashirov), etnoslararo jarayonlar (U. Abdullayev) mavzulari doirasida qator ilmiy monografiya va risolalar e'lon qilindi. Shu bilan birga O'zbekistonning tarixiy etnografik mintaqalari – Toshkent

shahri (Z. Orifxonova, G. Zunnunova) Buxoro vohasi (A. Jumayev, M. Qurbanova), Farg'ona vodiysi (Sh. Abdullayev, U. Abdullayev, V. Haqliyev, A. Ashirov, N. Azimova, H. Rahmatullayev, A. Sarimsoqov, Z. Isoqov, B. Tursunov), Janubiy O'zbekiston (O. Bo'riyev, Q. Nasriddinov, F. Rahmonov, G. Toshyeva, S. Tursunov, A. Qayumov, B. Ubaydullayeva, S. Davlatova, M. Ibragimova), Nurota vohasi (A. Tog'ayev, F. Tolipov, G. Yo'doshyeva, T. Salimov) etnologiyasini tadqiq etish borasida samarali natijalarga erishildi.

O'zbekistonda etnografiya va etnologiya fanining tarixshunosligi (A. Doniyorov, D. Hoshimova), mazkur fanni oliy o'quv yurtlarida o'qitish bo'yicha qo'llanma va risolalar (I. Jabborov, O. Bo'riyev, T. Salimov, B. Isoqov), etnologiya atamalarining qisqacha lug'ati (O. Bo'riyev va T. Xo'jamberdiyev)ga doir nashrlar chop qilindi.



Etnologiya sohasida mamlakatimiz mustaqilligi yillarda erishilgan eng katta yutuqlardan biri O'zRFA Tarix instituti bilan RFA Etnologiya va antropologiya instituti o'zaro hamkorligida 2011-yil Moskva shahrida nashr qilingan «O'zbeklar» nomli tarixiy etnografik monografiyanı keltirish mumkin. Mazkur nashr mamlakatimiz olimlarining xorijlik olimlar bilan olib borgan tadqiqotlarining

o'ziga xos sarhisobi bo'lib, unda o'zbeklarning etnik tarixi, moddiy va ma'naviy tarixi, xo'jalik mashg'ulotlari hamda oilaviy marosimlariga oid ko'plab yangi materiallar bayon qilingan. Kitobda qadimgi davrlardan hozirgi vaqtgacha bo'lgan o'zbeklar tarixi va

o'zligining rivojlanishiga ta'sir qilgan jarayonlar yoritilgan. Bu holat bevosita yurtimizda etnologiya fani jahon fani bilan o'zaro uyg'un tarzda rivojlanayotganligidan dalolat beradi.

Umuman olganda mazkur nashrni mamlakatimiz olimlarining istiqlol yillarda olib borgan eng yirik fundamental tadqiqotlaridan biri tarzida baholash mumkin.

Hozirgi kunga kelib respublikamizning qator ilmiy maskanlarida mazkur yo'nalishda tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, O'zR FA Tarix instituti etnologiya bo'limi, O'zMUDA «Arxeologiya va etnologiya» kafedrasи, TerDU va Qarshi DU da Etnologiya ilmiy markazi faoliyat olib bormoqda. Mamlakatimiz bo'yicha doimiy va mavsumiy ilmiy ekspeditsiyalar uyushtirilmoqda. O'zbekiston etnologiyasining dolzarb muammolariga bag'ishlanib bir qator xalqaro va mintaqaviy anjumanlar (1999, 2000, 2004, 2005, 2008, 2010, 2013) tashkil etildi. Etnologiya fanining so'nggi natijalariga bag'ishlangan «Akademik K. Shoniyo佐 o'qishlari» turkumida ilmiy konferensiyanı har ikki yilda doimiy tarzda o'tkazish yaxshi bir an'anaga aylanib ulgurdi.

Mamlakatimiz etnologlari Rossiya, Belgiya, AQSh, Angliya, Fransiya, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Turkiya, Xitoy, Markaziy Osiyo respublikalari etnologlari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatganlar.

Xulosa qilib aytganda, hozirda etnologik tadqiqotlar jamiyat hayotining turli sohalarida muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etib bormoqda. Etnolog olimlarning bilimi va maslahatlaridan siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy sohalardagi muammolarni hal etishda keng miqyosda foydalanilmoqda. Fanning yutuqlari kommunikatsiya tizimida, xalqaro savoda, diplomatiyada va boshqa qator sohalarda samarali qo'llanilmoqda. So'nggi yillarda etnologiyaning

ko'plab boshqa yondosh fanlar bilan doimiy aloqasining samarasi sifatida etnopsixologiya, etnolingvistika, etnodemografiya, etnomadaniyat, etnopedagogika, etnofolkloristika kabi yangi yo'nalishlar paydo bo'ldi. Xullas, etnologiya, aytish mumkinki, bugungi kunga kelib yangi bir rivojlanish bosqichiga ko'tarildi.

## **2-§. Etnologiya fani predmeti**

Har bir fan o'zining tadqiqot predmeti xosligi, uning tadqiq etish uslublari bilan boshqa fanlardan farqlanib turadi. Etnologiya fan sifatida paydo bo'lgandan to hozirgi kunga qadar xalq va xalqlarning madaniy o'ziga xosligi uning asosiy tadqiqot ob'ekti bo'lgan.

Yer yuzida shunday mamlakatlar borki, ularning aholisi asosan bitta millatdan (misol uchun, Islandiyaning asosiy aholisini islandlar; Albaniyada – albanlar; Yamanda – yaman arablari, Yaponiyada – yaponlar) tashkil topgan. Biroq bugungi kunda aynan bitta millatli yoki monoetnik mamlakatlar juda kam hisoblanadi. Juda ko'plab mamlakatlarning etnik kompozitsiyasi yoki, boshqacha aytganda, etnik tarkibi birmuncha murakkab hisoblanadi. Misol uchun, bir millatli hisoblangan Fransiya aholisini asosiy aholisi bo'lgan fransuzlardan tashqari bretonlar, elzaslar, korsikanlar va boshqa yevropa xalqlari hamda Jazoir va boshqa Afrikadagi fransuz koloniylaridan ko'chib kelgan aholi tashkil qiladi. Etnik tarkibiga ko'ra xilma-xil bo'lgan mamlakatlar tarixdan ma'lum. Misol uchun, Rim imperiyasi, sosoniyalar, Amir Temur davlatlari; bugungi kunda – Hindiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Indoneziya Respublikasi.

Aynan mazkur mamlakatlarda yashovchi xalqlar turmush tarzi va madaniyatini tadqiq qilish etnologiya fanining asosiy tadqiqot ob'ekti hisoblanadi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, millat, millatlar va xalqlar hamda kishilar jamoasining boshqa shakllari ijtimoiy hayotning ma'lum bir muhim tomonini aks ettiradi. Aynan shu bois ham jiddiy ilmiy qiziqishga sabab bo'lgan va buning natijasida XIX asr o'rtalariga kelib maxsus fan tarmog'i – etnologiya paydo bo'lgan.

Muxtasar tushuntirilsa, mazkur fan doirasida turli xalqlarning etnogenezi va etnik tarixi, an'anaviy va zamonaviy etnomadaniy jarayonlar, moddiy va ma'naviy madaniyat muammolari hamda etnoslararo jarayonlar tadqiq qilinadi. Demak, fikrimizcha, etnologiya asosiy tadqiqot ob'ekti sifatida etnos bilan bog'liq quyidagi jihatlarni o'rganadi (Etnologiya predmetini ma'lum bir tartibda bayon qilishda biz fanda an'anaviy tarzdagi qarashlardan yangi noan'anaviy qarashlar tomon harakatlanishni ma'qul deb bildik):

- etnogenez va etnik tarix muammolari;
- etniklik va etnik guruhlar muammosi;
- etnoslarning zamonaviy hayoti (ularning aktual faoliyati);
  - xalqlarning moddiy madaniyati;
  - xalqlarning e'tiqodiy qarashlari, milliy marosim va urf-odatlari;
  - turli xalqlarning qarindoshlik tizimi: qarindosh-urug'chilik aloqalari va qo'ni-qo'shnichilik munosabatlari;
  - sotsial guruhlar (tabaqalar, sinflar, institutlar);
  - xalqlarning ijtimoiy va siyosiy tuzilmalari (oilaviy munosabatlar va hokimiyat munosabati);
  - turli xalqlarga xos tarbiya an'analari tizimi;
  - bir xalq madaniyatining turli komponentlari orasidagi o'zaro aloqa va bog'liqlik muammolari;
  - u yoki bu xalq madaniy xususiyatlari dinamikasi (madaniyo'zgarishlar);
  - turli xalqlarning etnopsixologiyasidagi o'ziga xosliklar;

- turli xalqlarning hayot tarziga moslashishi, ularning tabiiy muhitga moslashishi;
- etnos qadriyatlarini taqqoslash;
- turli xalqlarni dunyo xaritasida taqqoslash;
- madaniyatlararo muloqotlarning o'ziga xos xususiyatlari;
- etnoslarning paydo bo'lishi va bo'linib ketishi sabablari;
- xalqlarning joylashuvi;
- etnoslar bilan bog'liq sodir bo'ladigan demografik jarayonlar;
- etnos vakillarining iqtisodiy munosabatlari;
- etnolingvistika va etnomadaniyat muammolari;
- an'ana va marosimlarning paydo bo'lishi, taraqqiyotiva innovatsiya hamda transformatsiyalashuvi.

Ushbu ro'yxatni yanada davom ettirish mumkin. Biroq mazkur ro'yxatning o'zi ham etnologiyaning tadqiqot ob'ekti ko'p qirrali ekanligidan dalolat bera-di. Qolaversa, ushbu ma'lumotlar etnologiyaning asosiy manbai yozma manbalar hamda moddiy yodgorliklar bo'lgan an'anaviy tarix fanidan birmuncha kengroq ekanligidan darak berib turibdi. Shuningdek, etnologiyada insoniyat tarixining dastlabki yozma madaniyati shakllanganigacha bo'lgan davrda yashagan va o'zlarining alohida yozuvlariga ega bo'lgan xalqlar – etnoslar asosiy tadqiqot ob'ekti tarzida o'rganiladi.

Oldingi qismlarda ta'kidlaganimizdek, XIX asr oxirida Yevropada etnologiyaning asosiy mavzusi ibridoiy sharoitda yashayotgan «primitiv» xalqlar bo'lgan. Bu xalqlar misolida yevropalik tadqiqotchilar go'yoki o'zlarining qaysidir ma'noda uzoq o'tmish-dagi «tirik ajodolari»ni his qilganliklari bois ushbu xalqlar yevropalik tadqiqotchilarni ko'proq qiziqtirgan. Shuning uchun ham yevropaliklar «orqada qolgan» xalqlarga nisbatan «primitiv», ya'ni «birinchisi»

degan iborani qo'llaganlar. Bu borada «birinchi» xalqlar to'g'risida XIX asrdagi etnologiya maktabalarining yirik namoyandalari hisoblangan Lyuis Genri Morganning «*Qadimgi jamiyat*», Eduard Taylorning «*Ibtidoiy madaniyat*» kabi mashhur asarlari paydo bo'lgan. Shuningdek, nemis etnologiyasining asoschilaridan bo'lgan Teodor Vayts va Adolf Bastianlarning tadqiqotlari ham «ibridoiy xalqlar»ga bag'ishlangan bo'lib, ular mazkur xalqlarni «madaniy rivojlangan xalqlar», ya'ni Yevropa xalqlari bilan o'zaro qiyosiy tarzda o'rganishga e'tibor qaratishgan.

O'tgan yuz yillikda mazkur fan doirasida olib borilgan tadqiqotlar tufayli etnologiya oliy o'quv yurtlari o'quv predmetiga aylangan va dunyoning ko'plab mashhur universitetlarida maxsus fan sifatida o'qitila boshlandi. Buning pirovardida etnologiyaga yangicha qarashlar bilan qurollangan fan namoyandalari – nazariyotchi etnologlar kirib kelgan<sup>1</sup>. Shu bois etnologiyaning mavzusi ham takomillashib borgan va fandagi mavjud ba'zi qarashlar hamda g'oyalar jiddiy tanqid ostiga olingan va hattoki ularning ayrimlari keyinchalik butkul ilmiy muomaladan chiqib ketishiغا olib keldi.

Etnologiyada tanqidga uchragan ayrim qarashlar to'g'risida to'xtalganda, avvalo, xalqlarning ibridoiy va sivilizatsiyalashgan tarzda bo'linishiga oid qarashlar jiddiy tanqid ostiga olinganini ta'kidlab o'tish joizdir. Yangi avlod tadqiqotchilarining ta'kidlashlaricha, «ibridoiy» deb atalgan xalqlar ham xuddi «sivilizatsiyalashgan» deb hisoblangan yevropaliklar singari o'zlarining tarixi va madaniyatiga ega bo'lgan. O'z navbatida ular, oldingi tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, insoniyat tarixining dastlabki bosqichlari ga taalluqli emas va mazkur jamoalar ham boshqa

<sup>1</sup> Садохин А. П., Грушевицкая Т. Г. Этнология. Учебник для высших учебных заведений. – М., Academa, 2000. – С. 16.

xalqlar kabi ibtidoiylikdan yiroq xalqlar hisoblana-di. Inchunun, bu borada ularni faqatgina atrofdagi olamga bo'lgan munosabati borasidagina ibtidoiy deb aytish mumkin. Bunday qarash dastlab mashhur nemis etnolog olimi Rixard Turnvald (1869 – 1954) tomonidan bildirilib, uning fikricha, «ibtidoiy xalq» tushunchasini tahlil qilish as-nosida bir omil o'ta muhimdir. Bu omil tabiatni o'zlashtirish-dagi bilim, malaka va mehnat qurollari hamda moslama-lardir. R. Turnvaldning fikri-chi, «ibtidoiy» atamasini ya-shash va ovqatlanish uchun eng oddiy mehnat qurollaridan foydalangan va atrofdagi olam to'g'risida juda kam bilimga ega bo'lgan qabilalarga nis-batan qo'llash joizdir. Bunday texnik qurollanish va tabiiy qonunlarni bilish me'yorlar-idan kelib chiqib qaraydigan bo'lsak, Turnvald ayt-ganidek, «tabiatni bo'ysundirgan odamlar» hozirgi zamonaviy industrlashgan jamiyatga qaraganda haqiqatdan ham ko'proq tabiatga bog'liq bo'lgan. Biroq bu o'rinda ikkinchi mulohaza paydo bo'ladi. Ya'ni, agar insonlarning tabiatdan mustaqil bo'lib yashashlariga qaramay, bugungi zamonaviy kishilar ikkinchi bir ko'rinish – texnikaga bog'lanib qolishiga sabab bo'ladi. Shu bois ayrim etnologlar yuqoridagi mulohazaga asoslanib, etnologiyada «ibtidoiy xalqlar» iborasini qoldirishni, lekin bunda tabiatdan uzilma-gan va o'zlarining ijtimoiy me'yorlarini saqlab qolgan jamoalar hamda madaniyatlarni anglash g'oyasini il-gari surganlar.

O'z navbatida boshqa bir olimlar guruhi esa «ibti-doiy xalqlar» iborasining qo'llanishiga qat'iy qarshi



chiqqan. Chunki fanda bunday iboraning qo'llanishi shubhasiz unga qarama-qarshi bo'lgan «madaniy xalqlar» atamasining paydo bo'lishini taqozo etadi va bu esa birinchi guruhga kiruvchi xalqlarning tahqirlanishiga sabab bo'ladi» deb ta'kidlaydilar. Darhaqiqat, sayyoramizning turli mintaqalarida yashovchi xalqlar, etnik guruhlar hayotiga, o'tmishtarixiga, turli-tuman sivilizatsiyalar va madaniyatlar taraqqiyotiga nazar tashlar ekanmiz, o'zining tarixiy taraqqiyotida madaniyatiga ko'ra biror-bir rivojlanishga erishmagan insonlar jamoasini topish juda mushkul. Hatto tosh davri odamlari to'g'risida gapiradigan bo'lsak, ular ham dastlab toshdan yasalgan mehnat qurollarini rivojlantirib borganliklari tarixiy arxeologik manbalardan ma'lumdir.

XVII – XIX asr tadqiqotchilari ta'kidlaganlaridek, sayyoramizda ibridoiy insonlar mavjud emas. Har bir etnik jamoa yoki xalq o'ziga xos madaniyat sohibidir. Shu tufayli bugungi kunda «madaniyatli xalq», «madaniyatsiz xalq» degan iboralarni qo'llash o'rinsizdir. Faqatgina madaniyatning turli ko'rinishlari to'g'risida gapirish mumkin. Shuning uchun ham aynan turli madaniyatlarning o'ziga xos xususiyatlari va turfa xil etno-milliy madaniyatlar etnologiyaning asosiy tadqiqot predmetlaridandir. Qolaversa, keyingi vaqtarda etnologiyada lokal (mahalliy) madaniyatlarni tadqiq qilish borasida ancha samarali tadqiqotlar bajarilmoqda.

Shu bilan birga turli olimlar tomonidan «ibridoiy xalqlar» atamasi o'rniqa qator boshqa tushunchalar va atamalar tavsiya qilingan bo'lib, tadqiqotchilar fikricha, mazkur ibora etnologiyaning yangi mavzusi doirasiga ko'proq to'g'ri kelar ekan. Turli davrlarda etnologiyaga «arxaik madaniyat», «industrilashtirishgacha bo'lgan jamiyat», «an'anaviy jamiyat», «yozuv-siz jamiyat», «qabilaviy ittifoq» va shu kabi nomlar

tavsiya qilingan. Shubhasiz, mazkur iboralarning har biri ma'lum bir etnik madaniyatning o'ziga xos tomonlarini ifodalaydi. Shu bois garchi ulardan biorrtasi ham «ibridoiy xalqlar» atamasiga almashtirilmagan bo'lsa-da, zamonaviy etnologiyada ularning barchasi qo'llaniladi.

**Etnologyaning zamonaviy muammolari.** O'tgan XX asrning oxirgi choragida etnologiyada yangicha yo'nalishlarning paydo bo'lishi mazkur fan doirasida bajarilayotgan tadqiqotlarning ham mazmunan, ham mohiyatan o'zgarishiga sabab bo'ldi. Aynan shu davrdan boshlab tadqiqotchilar tomonidan an'anaviy ko'rinishni olgan uzoq yurtlardagi o'ziga xos egzogamik madaniyatlar emas, balki zamonaviy jamiyatlarni o'rganishga ko'proq e'tibor qaratila boshlandi. Natijada qator yangi nazariyalar va maktablar paydo bo'ldi va tadqiqotchilar tomonidan etnologiyaning o'ziga xos yangi yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar bajarila boshlandi. Jumladan, g'arbiy Yevropa etnologiyasida ijtimoiy etnologiya, huquqiy etnologiya, siyosiy etnologiya, diniy etnologiya, xo'jalik (iqtisodiy) etnologiyasi shakllandi va istiqbolli rivojlanib bormoqda.

Boshqacha aytganda, zamonaviy etnologiya fani bir nechta asosiy vazifalarni bajaradi. Etnologyaning vazifalari orasida birinchi va uning boshqa funksiyalariga asos bo'ladigan eng muhim qismi bu ilmiy bilishga xizmat qilishdir. Etnologiya fani etnik voqelikni anglash bilan birga turli tarixiy davrlardan tortib to bugungi kungacha bo'lgan davrda dunyoning etnik manzarasiga oid bilimlarni shakllantiradi hamda yer sharining turli hududlaridagi etnik jarayonlarning xarakterli o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qiladi. Etnologlar etnoslarning paydo bo'lishi, tuzilishi va rivojlanish qonuniyatlarini hamda ularning kelajakdagagi hayoti bilan bog'liq tendensiyalarni

ilgari surishga harakat qiladi. Aynan mazkur bilimlar asosida etnologiya o'zining nazariy qarashlarini takomillashtiradi va ularni tarixda va hozirdagi etnik jarayonlar xarakterini aniqlashtirishda foydalanadi. Etnologik ma'lumotlarsiz, misol uchun, mustamla-kachilikdan ozod bo'lgan yangi dunyo mamlakatlarda immigrant millatlarning shakllanish jarayonini, yoki ayrim mamlakatlarda davlatchilikning shakllanish muammolarini hal qilib bo'lmaydi. Etnologiyaning boshqa muhim vazifasi har bir etnosning o'zligini anglashdagi ehtiyojini qondirishdan iborat.

Umuman olganda etnologiya sohasida shu kunlarda tadqiqot olib boruvchi yoki ushbu fanga qiziquvchi kishilar:

- insoniyat o'zini o'rab turgan tevarak-atrofni qanday tarzda tasavvur etadi?
- odamlar tasavvurida moddiy olamdagи predmetlar qanday ma'no kasb etadi?
- ushbu qarashlarning o'zgarish jarayoni qanday kechadi?
- madaniyatlararo munosabatlar an'anaviy va zamonaviy madaniyatlarga qanday ta'sir o'tkazadi?
- dunyoning etnik manzarasi o'zida nimani aks ettiradi va bu manzaraning o'zgarishi qanday mexanizmlar asosida kechadi?
- u yoki bu madaniyat vakillari dunyoda sodir bo'ladigan o'zgarishlarga qay tarzda moslashadi va, o'z navbatida, u yashayotgan jamiyatning moslashishi qanday prinsiplarga asoslanadi?
- zamonaviy industrial jamiyatda milliy-etnik madaniyatlarning roli va o'rni qanday?
- har qanday holatda etnos vakillari tafakkurida nima o'zgarmaydi yoki nima butkul unutilishi, yoinki o'zgarishi mumkin va, o'z navbatida, bu jarayon qanday kechadi?
- madaniyatlarning o'zining ichidagi o'zaro bog'liqlik va o'zaro aloqalar qay tarzda yuz beradi?

– etnik madaniyatda barcha tizimni mustahkam ushlab turuvchi va jamiyat hayotida sodir bo'ladigan qizg'in o'zgarishlar jarayonida himoya qiluvchi mustahkam o'zgarmas qism mavjudmi? degan savollarga javob izlaydilar.

Shubhasiz, mazkur muammolarning aksariyati oxirgi o'n yilliklardagina etnoglarning tadqiqot muammosiga aylandi, deb aytish mumkin. Bu borada ayniqsa G'arb mamlakatlarida so'nggi o'n yilliklarda etnologiya fani «postmodernizm» falsafasiga asoslangan bo'lib, bunda bevosita ijtimoiy guruhlar orasidagi etnoslararo jarayonlarni tadqiq qilish asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi. Shuningdek, lokal va global jarayonlarni tadqiq qilishda tadqiqotchilar tomonidan tadqiqiy tanlanish, ya'ni jamiyat hayotidagi barcha jarayonlarni emas, balki etnos va madaniyatning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda eng muhim deb hisoblangan qarashlargina tadqiq qilinmoqda. Boshqacha aytadigan bo'lsak, bajarilayotgan so'nggi tadqiqotlarda asosiy e'tibor insoniyatning rivojlanish bosqichlari, ya'ni uning yerda paydo bo'lgandan to hozirgi davrgacha bo'lgan tarixiy yo'lining global miqyosdagi tavsifiga emas, balki muammoiy tanlanish asosidagi tadqiqotlarga qaratilmoqda. Zero, bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda etnologiya yo'nalishida bajarilayotgan ilmiy tadqiqotlarning aksariyati jamiyat hayotida aynan muhim va dolzarb deb e'tirof etilgan ijtimoiy muammolar doirasida amalga oshirilmoqda.

G'arbiy Yevropa, AQSh, Kanada, Yaponiya, Hindiston, Avstraliya va boshqa qator mamlakatlarda etnologiya fani (ijtimoiy yoki madaniy antropologiya) asosan universitetlar va muzeylarda taraqqiy etgan. Universitetlarda sohaga oid maxsus kollejlar va departamentlar mavjud. Ko'p hollarda etnologik (ijtimoiy-antropolologik) tadqiqotlar turli fondlar va hukumatlar tomonidan moliyalashtiriladi. Sohaga oid eng

so'nggi tadqiqotlar natijalarini o'zida aks ettiradigan ommabop va mashhur jurnallar tarzida Vashington shahrida Amerika antropoglari assotsiatsiyasi tomonidan chop etiladigan «*American anthropologist*» («Amerika antropologiyasi») jurnalni, Parij shahrida Oliy amaliyot maktabi tomonidan nashr qilinadigan «*L'Homme*» («Inson») va Mikluxa-Maklay nomidagi Etnologiya va antropologiya institutining ilmiy nashri «*Этнографическое обозрение*» («Etnografik sharh») jurnallarini misol sifatida keltirib o'tish mumkin.

Yurtimizda esa mustaqillikdan keyin respublikamizning turli tarixiy-etnografik mintaqalari, jumladan, Farg'ona vodiysi, Janubiy O'zbekiston, Buxoro va Xorazm kabi tarixiy-etnografik mintaqalari etnologiyasi va bu mintaqalarda yashovchi aholining o'ziga xos etnomadaniyatidagi lokal xususiyatlar, moddiy va ma'naviy madaniyatidagi transformatsion jarayonlar, etnoslararo jarayonlar, mamlakatimiz hududida istiqomat qiluvchi turli diasporalar\* va irredentlar\*\* etnologiyasi, an'anaviy va zamonaviy etnomadaniy jarayonlar, zamonaviy shahar muhitida an'anaviy milliy qadriyatlarning saqlanib qolish omillari, zamonaviy etnik jarayonlar kabi ko'plab mavzularda tadqiqotlar bajarilmoqda. Bir so'z bilan aytganda etnologiyaning tadqiqot mavzusi doimiy ravishda kengayib bormoqda va bu esa ma'lum ma'noda fan-

\* Diaspora (diaspora – lotincha – «joylashuv»; inglizcha – diaspora) torma'noda – Babilon tomonidan Isroi podsholigini (mil. avv. 6 asr) bosib olingandan so'ng tashkil qilingan yashash joylari, keyinchalik esa Falastindan tashqarida dunyo bo'yicha barpo etilgan yashash joylariga aytilgan; b) keng ma'noda u yoki bu etnik guruhning tarixiy etnik vatanidan ajralgan holdagi yashash manzillariga nisbatan aytildi. Misol uchun, koreys diasporasi, irland diasporasi.

\*\* Biror-bir etnik guruh yoki etnos o'zining milliy-etnik hamda siyosiy-davlat uyushmasi bilan chegara mintaqada yashasa irredenta deyiladi. Masalan, O'zbekistondagi qirg'izlar, turkmanlar va tojiklar diaspora bo'la olmaydi, ular irredentlar deyiladi. Yoki aksincha O'zbekistonga qo'shni mamlakatlarda yashovchi o'zbeklar ham irredentlar deyiladi.

ga mukammal ta'rif berish imkonini cheklamoqda. To'g'ri, bugungi kungacha turli uslubiy qarashlar va g'oyalar asosida etnologiyaga berilgan o'nlab ta'riflar mavjud bo'lib, ular etnologiyaning ayrim muhim tomonlarini qamrab olgan. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, *etnologiya – turli etnik guruhlarning shakllanish va rivojlanish jarayonini, ulardagi etnik o'zlikni anglash, madaniy boshqaruv shakllari, jamoaviy munosabatlar qonuniyatları, shaxslararo aloqalar hamda ijtimoiy muhitni o'rganuvchi fandir.*

Shubhasiz, mazkur ta'rifi etnologiyaga berilgan eng maqbul va mazkur fanning barcha xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan yakuniy mukammal ta'rif deb aytib bo'lmaydi. Kelgusi avlod tadqiqotchilar tomonidan etnologiyaning yanada mukammal va barcha mutaxassislar tomonidan e'tirof etiladigan ta'rifi yaratilsa ajab emas.

### **3-§. Etnologiya metodlari**

Har bir fan zaruriy bilimlarni jalg etgan holda aniq tadqiqot ob'ektini o'rganishga qaratilgan bo'ladi. Lekin har bir fandagi bilim ob'ektining o'ziga xosligi tadqiqotchilar oldiga tadqiq qilinayotgan ob'ektga oid to'liq va aniq ma'lumotlarga ega bo'lish talabini qo'yadi.

Ma'lumki, dala kuzatuvlari jarayonida yozib olin-gan xalqlar hayoti borasidagi turli-tuman ma'lumotlar, yorqin faktlar, qiziqarli materiallar va ma'lumotlar etnologiya fanini to'liq aks ettirmaydi. Odatta, fan qachonki manbalar tahliliga oid aniq tavsiflangan tadqiqot metodlariga ega bo'lib, etnoslarning tarixiy va zamонавиy hayotlari tavsifi berilgandagina shakllanadi. Fanning eng muhim funksiyasi – yangi ishonarli bilimlarni qo'lga kiritishdir. Etnologiyada

ham xuddi boshqa fanlardagi kabi ko'plab va turli-tuman metodlar qo'llaniladi. Xususan, ular yangi bilimlarga ega bo'lish maqsadida qo'yilayotgan muammo darajasi va xarakteriga ko'ra farqlanadi. Ko'plab holdarda bu savollarga umumiy-falsafiy shaklda javob berilishi maqsadga muvofiqdir.

Etnologiya fani tadqiqot metodlari yuqori umumilmiy kategoriylar guruhiga kiradi. Ayniqsa, bu fan tarmog'ida *tarixiy* va *tuzulmali-funksional metod* keng tarqalgan. Tarixiy uslubda o'rganilayotgan ob'ektning paydo bo'lishi, shakllanishi, rivojlanishi va hayot tarzidagi o'zgarishlar jarayoni asosida o'rganiladi. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, XIX va XX asrda etnologiyadagi tarixiy yondashuv evolyutsionizm oqimi, ya'ni uning miqdoriy o'sishi asos bo'lgan bo'lib, unda madaniyat ko'rinishlari *sodda evolyutsion* tartibda (masalan, turarjoylar – ibtidoiy g'orlar va chaylalardan to zamonaviy ko'p qavatli uylargacha) talqin qilinadi. Har qanday etnologik tadqiqotning asosiy maqsadi faqat etnos, madaniyat ko'rinishlari yoki ijtimoiy institutlarning kelib chiqish tarixini aniqlash bilangina chegaralangan. Etnosni tadqiq qilishga qaratilgan tarixiy yondashuvda tarixiylik keng hamda ko'ptomonlama talqin qilinadi.

Zamonaviy etnologiyada ilmiy tahlil uchun turli-tuman materiallar: tadqiqotlar natijasi va etnograf olimlarning turli dala yozuvlari, sayohatchilarning safarnomalari, kuzatuvlari, folklor namunalari va badiiy matnlar, etnosotsiologik va etnopsixologik materiallar, publitsistik matnlar, rasmiy hujjatlar, tarixiy va ijtimoiy-siyosiy adabiyotlardan foydalaniladi. Bulardan tashqari tadqiq etilayotgan etnos vakillari bilan bevosita muloqot jarayonida ularning turli holatlarga bildirgan ta'sirlari, bahs-munozaralar va suhbatlarda bildirgan fikr-mulohazalari va dalillarining mantiqiyligi, tevarak-atrofdagi turli

ko'rinishlarni izohlash yo'llari va shaxsiy xulq-atvollarini kuzatuv natijalari ham muhim rol o'ynaydi. Shubhasiz, bunday ma'lumotlarni yig'ish tadqiqotchi uchun ma'lum metodlarni o'zlashtirishni talab qiladi. Bugungi kunda zamonaviy etnologiyada o'ziga xos etnologik tadqiqot metodlari majmui shakllangan bo'lib, ularga dala tadqiqotlari, yozma manbalarni o'rganish, xalq og'zaki ijod namunalarini to'plash, sotsiologik va statistik materiallar (avvalo turli davrlarda bajarilgan aholini ro'yxatga olish materiallari) ni tahlil qilish kiradi.

XX asrdagi etnologik tadqiqotlarda funksional yoki tizimli-funksional metod muhim o'rinni tutgan. Uning mohiyati xalqlar (qabila yoki boshqa jamoa) hayotida u yoki bu madaniyat ko'rinishi va ijtimoiy institatlarning o'rni (ahamiyat, ta'siri, yoki boshqacha aytganda, funksiyasi)ni aniqlashtirishdan iborat.

Strukturaviy yo'nalishga o'rganilayotgan ob'ektning tuzilishini aniqlashtirish, keyinchalik esa undagi va u bilan bo'ladigan ijtimoiy munosabatlar tizimi kiritiladi.

Tizimli funksional metod tarafdorlari dastlab o'rganilayotgan ob'ektning tarixiy aspektini rad etib, o'zlarining diqqat-e'tiborlarini, asosan zamonaviylikni o'rganishga qaratganlar va birinchi navbatda amaliy ahamiyatga molik bo'lgan tadqiqotlar natijalariga urg'u bergenlar. Biroq keyinchalik tarixni sinchiklab o'rganish ham tizimli-funksional metodning ajralmas qismiga aylandi. Umuman olganda, hozirda etnologik tadqiqotlarda yozma manbalar, xalq og'zaki ijodi, qiyosiy tilshunoslik, arxeologik tadqiqotlardan foydalanish hamda dala tadqiqotlaridan foydalanish metodlari keng qo'llanilmoqda.

XX asrning 70-yillaridan boshlab etnologik tadqiqot uslublarida jiddiy o'zgarish sodir bo'ldi. Chunonchi, ketma-ket kuzatuv o'rniga kuzatuvchining ishtiroki

mustahkam o'rin egallay boshladi. Bu esa tadqiqotchining o'rganayotgan etnik tizimga birmuncha izchil kirib borishiga imkoniyat yaratdi.

*Yozma manbalarni o'rganish* etnologiyaning eng muhim metodlaridan biri bo'lib, uning qimmati o'rganilayotgan xalq va uning madaniyati to'g'risida aniq va to'laqonli ma'lumotlar berishi bilan ajralib turadi. Yozma manbalar nafaqat etnologiya uchun, balki tarix fani uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Yozma manbalar, asosan, insonning ijtimoiy faoliyati, aniqrog'i, kishilarning o'zaro munosabatlari natijasi o'laroq yaratilgan va o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni, tarixiy voqealarni aks ettirgan manbalardir. Yozma manbalarga, odatda, ma'lum bir xalq vakillari hisoblangan mualliflar tomonidan o'zlarining yoki boshqa xalqlarning tarixi hamda madaniyati to'g'risida yozib qoldirilgan qo'lyozma asarlar, tarixiy manbalar kiradi. Shuningdek, yozma manbalarga oliy va mahalliy hukmdorlar mahkamasidan chiqqan rasmiy hujjatlar (yorliqlar, farmonlar, inoyatnomalar va boshqalar), tarixiy, geokosmografik hamda biografik asarlar ham kiradi. Yozma manbalar doimiy ravishda bir necha avlod tadqiqotchilari uchun qiziqarli manba bo'lib xizmat qilgan.

Odatda, biror-bir xalqning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarini o'rganishda rasmiy hujjatlar, moliyaviy hisobot daftarlari va yozishmalarning ahamiyati benihoyat kattadir. Rasmiy hujjatlar ijtimoiy-siyosiy hayotni ma'lum yuridik shaklda bevosita va ko'p hollarda aynan qayd etilganligi bilan ham qimmatlidir. Lekin ayni vaqtda ba'zan ularning orasida, soxtalari ham uchrab turishini unutmaslik lozim. Shuning uchun ham mazkur manbalardan foydalanylinda o'ziga xos diqqat-e'tibor va ehtiyyotkorlik talab qilinadi. Hujjatlar ustida ish olib borilganda, aniqrog'i undan biror-bir ijtimoiy-siyosiy jarayonni

talqin etishda foydalanilganda bir hujjat bilan chegaralanmaslik, o'xhash hujjatlarni qiyosiy tahlil etib o'rghanmoq zarur. Qolaversa, hozirgi kunda bunday tarixiy-madaniy yozuvlar etnologlar qiziqadigan yagona manba turi bo'lib hisoblanmaydi. Ayni kunda turli davrlardagi xalqlarning hayoti va madaniyatiga bag'ishlangan har xil yozma manbalar mavjud bo'lib, ularning ko'p qismi hozirgacha batatsil o'rghanilmagan. Bunday yozma manbalar jumlasiga sayyoohlar va geograflarning safarlari to'g'risidagi xabarnomalari, o'tkazilgan turli-tuman ekspeditsiyalar hisobotlari, matroslar va askarlarning yozuvlari, elchilarining hisobotlari, savdogarlarning safarnomalari, oddiy xalq vakillarining davlat rahbarlariga yozgan maktublari va shu kabi bir qator yozma materiallalar kiradi.

Etnologiya uchun xalqning tarixiy tafakkurini aks ettiruvchi *xalq og'zaki ijodi* namunalari ham muhim manba hisoblanadi. Xalq og'zaki ijodiyoti madaniyatning eng qadimgi sohalaridan bo'lib, uning ildizi insoniyatning eng qadimgi tarixiga borib taqaladi.



*Xalq og'zaki ijodi namunalarini  
yozib olish jarayoni*

Og'zaki adabiyotning ayrim namunalari qadimgi yunon tarixchilari va Tabariy, Ma'sudiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn al-Asir kabi Sharq olimlarining asarlari orqali bizgacha yetib kelgan. Qayumars, Jamshid va Siyovush haqidagi afsonalar, To'maris va Shiroq haqidagi qissalar ham shular jumlasidandir. An'anaviy urug'-jamoaviy munosabatlar, xo'jalik munosabatlarini, umuman olganda, turkiy xalqlarga xos milliy-etnik qadriyatlarni tadqiq qilishda «Go'ro'g'li», «Alpomish» kabi dostonlar, shuningdek, xalq ertaklari, rivoyatlar, marosim qo'shiqlari, matal va topishmoqlarning o'rni benihoyat kattadir. Yozma adabiyotdan avval paydo bo'lgan bu xalq durdonalari turli ijtimoiy qatlam vakillari hisoblangan kishilarning turmush tarzi, ma'naviy qiyofasi, urf-odatlari, ayniqsa, uzoq o'tmish davrlardagi ijtimoiy munosabatlar to'g'risida qimmatli ma'lumotlar beradi. Qolaversa, etnologik tadqiqotlar jarayonida o'tkazilgan tajriba qo'ni-qo'shni bo'lib yashagan xalqlarda ham ayrim hollarda tarixiy tafakkurning shakllanishi tubdan boshqa-boshqa bo'lishi mumkinligidan dalolat beradi. Ajdodlari ko'chmanchi yoki yarim ko'chmanchilikda chorvachilik bilan shug'ullangan xalqlar hatto hozirgi kungacha o'zlarining ajdodlari shajarasini yaxshi bilishlari bilan birga ularning qaysi uruqqa va shu urug'ning qaysi shahobchasiga mansubligi, ajdodlari qayerdan kelganligidan tortib ularning an'anaviy mashg'ulot turlarigacha biladilar. Bunday qimmatli manbalar ko'pincha og'zaki ijod orqali ajdodlardan avlodlarga o'tib saqlanib keladi. Xalq og'zaki ijodiga oid materiallar bugungi ulkan globallahuv va zamonaviy etnik jarayonlar ta'sirida jadal sur'atlar bilan yo'qolib bormoqda. Hatto yaqin kelajakda bunday manbalarning ayrimlari butkul yo'qolib ketish xavfi mavjud.

Etnologiyada tarix va etnomadaniyatni tadqiq qilishda arxeologik materiallardan ham keng foydala-

niladi. Arxeologik moddiy (ashyoviy) manbalar deyilganda insoniyatning dastlabki ajodolari yashagan makonlardan topilgan mehnat va urush qurollari, ular dafn etilgan joylar, keyingi taraqqiyot jarayonida qurilgan bino va inshootlar (qal'a va qasrlar, hammomlar va karvonsaroylar, hunarmandchilik ustaxonalari hamda suv inshootlari va shu kabilar)ning qoldiqlari hamda uy-ro'zg'or va zeb-ziynat buyumlari tushuniladi. Yozma va og'zaki manbalarga qaragan-da arxeologik moddiy ashylolar birmuncha ishonchliroq hisoblanadi. Ular yordamida ma'lum bir tarixiy voqeanning aniq vaqtini yoki moddiy madaniyat qurolining tarqalish davrini ko'rsatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu metodning yuqori sifatliligi bugungi kunda arxeologik materiallarni zamонави shaklda o'rganish va baholash mezonlariga asoslanadi. Jumladan, hozirda arxeologik materiallarni o'rganishda statistik metodlardan keng tarzda qo'llanilmoqda. Shuningdek, oxirgi yillarda etnoarxeologiya kabi yo'nalish ham jadal rivojlanib bormoqda. Deskreptiv (tavsifiy) statistikani qo'llash arxeologik materiallar zaxirasini to'laligicha ochishga ko'maklashsa, analitik statistika esa arxeologik materiallarning tipologiyasi va ilmiy gipotezalarni tekshirish imkonini beradi. O'z navbatida mazkur ma'lumotlarning tahlili va talqini hamda ilmiy qimmati etnologiyaga oid nazariyalar, g'oyalar, konsepsiylar va madaniyat modellarining paydo bo'lishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Etnologik tadqiqotlardagi muhim metodlardan yana biri *qiyosiy tilshunoslik metodidir*. Bu uslubning mohiyati turli tillardagi ma'lum so'zlarni taqqoslashdan iboratdir. Bu, o'z navbatida, o'zaro yaqin qarindosh tillarning aloqalari chegarasi va ularning qarindoshlilik va bog'liqlik darajasini aniqlash imkonini beradi.

Etnologiyaning fan sifatida shakllanganiga garchi juda qisqa fursat o'tgan bo'lsa-da, o'tgan davr mobaynida juda ko'plab statistik materiallar yig'ildi.

Ayniqsa, yig'ilgan materiallar ichida eng muhimlari dan biri aholini ro'yxatga olishga oid turli yillardagi ma'lumotlar hisoblanadi. Mazkur materiallardan foydalanish jarayonida tadqiqotchi o'zini qiziqtirgan keng doiradagi savollarga javob topishi mumkin. Shuningdek, bunday materiallarning qimmati na faqat ularning turli yillarda bajarilganligi bilan, balki ularning ma'lum bir tizimlashtirilgan tartibda amal ga oshirilganligi bilan ham ahamiyatlidir. Aholini ro'yxatga olish bilan bog'liq hujjatlar ma'lum yo'nali shlarga oid savollar majmui va ularning javoblari dan iboratdir. Bunday turkum materiallar orasida ijtimoiy-demografik savollar majmui: jinsi, yoshi, ij timoiy mavqeい, ma'lumoti, kasbi, uy-joyi turi, mazkur hududda yashash vaqt va shu kabi savollar muhim ahamiyatga ega. Bunday ma'lumotlarni olish – tadqiqotchi uchun umumiy etnik manzarani o'rganishda va bir nechta aholi manzillari ro'yxati materiallarini taqqoslash orqali etnik jarayonlarning dinamikasini ko'rsatib berishda muhim ahamiyatga molik.

Etnologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanishida bevosita xalqning hayotini o'rganish yoki, etnologlar tili bilan aytganda, *dala tadqiqotlari* muhim ahamiyat kasb etadi. Dala tadqiqotlari metodining shakllanishi mustamlaka xalqlar, ularning xo'jaligi, ijtimoiy tuzilmalari, e'tiqodi, urf-odatlari to'g'risida kengroq ma'lumotlarga ega bo'lishga qiziqish tufayli shakllangan bo'lib, bu, o'z navbatida, o'sha davrdagi mustamlakachilik siyosati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Chunki, mustamlakachilar o'z koloniyalarini va u yerlardagi aholini boshqarishlari uchun doimiy ravishda bunday ma'lumotlarga ehtiyoj sezganlar.

Dala tadqiqotlari metodi tadqiqotchiga o'rganilayot gan etnik muhitda uzoq muddat bo'lishlikni va bevosita o'sha muhitga ko'nikishlikni talab qiladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, tadqiqotchi uchun, odatda, mavjud tadqiqot ob'ektida statsionar ishslash muddati

bir etnik yildan kam bo'lmasligi kerak. Etnolog-tadqiqotchi uchun dastlabki 2 – 3 oy tanishish va yangi muhitga moslashish davri hisoblanadi. Shundan keyin u etnik jamoaning yoki uning bir qismi hayotini yil mobaynida kuzatadi. Albatta, dala tadqiqotlari jayronida tadqiqotchi tomonidan maxsus daftар yuritiladi va ushbu daftarga tadqiqotchi xalq hayoti bilan bog'liq eng muhim ma'lumotlarni qayd qilib boradi.

Dala tadqiqotlarining qonuniyligi va samarali bo'lishligi tadqiqotchi tomonidan o'rganilayotgan etnos orasida uzoq muddat yashashni talab qiladi. Bunga biz amerikalik olim A. Morgan va rus etnografi Mikluxa-Maklaylarning tadqiqotlarini yorqin misol sifatida keltirishimiz mumkin. Morgan Amerikadagi hindularning irokez qabilasi orasida uzoq muddat yashagan bo'lsa, Mikluxa-Maklay Yangi Gvineya papuaslari orasida yashab juda boy etnografik materiallar to'plagan olim hisoblanadi. Statsionar tarzda dala tadqiqotlari metodlarining o'ziga xos yutug'i shundaki, etnologlar xalq kundalik turmush tarzining bevosita ishtirokchisi bo'ladi. Hozirgi kunda etnologiyada mazkur metodning mavsumiy yoki shoshilinch tarzda o'tkaziladigan metodlaridan foydalaniladi. Bu metodda tadqiqotchi ma'lum bir tarixiy-etnografik hududda yashovchi aholini oldindan belgilangan reja asosida o'rganadi. Bu metod tadqiqotchi uchun qulay bo'lgan davrda o'tkaziladi. Lekin bunday tarzda tadqiqotlar olib borish etnosning hamma mavsumdag'i hayotini ham batafsil o'rganish imkonini bermaydi.

Dala tadqiqotlari metodlari etnolog uchun moddiy va ma'naviy madaniyat to'g'risida ham ma'lumotga ega bo'lish imkonini beradi. Fotosuratlar, chizmalar, sxemalarda moddiy ma'naviyat ob'ektlari: etnosning mehnat qurollari, uy-joylari, uy-ro'zg'or anjomlari, kiyim-kechaklari va shu kabi moddiy madaniyat namunalari aks etadi. Zamonaviy texnika vositasida (raqamli videokamera va raqamli fotoapparat, audio

yozuvlar) va an'anaviy dala yozuvlarida xalq ma'naviy hayotining ob'ektlari va ko'rinishlari (an'analar, mafrosimlar, urf-odatlar, folklor qo'shiqlari va shu kabilalar) aks etadi. Ba'zida dala tadqiqotlari jarayonida ayrim moddiy va ma'naviy madaniyat namunalari muzeylar kolleksiyasi uchun yig'iladi.

Etnologiyada tadqiqotlarning an'anaviy uslublari o'rganilish aspekti rang-barang va tadqiqot vositalari boy bo'lsa-da, ularda dasturlashtirish hamda ma'lumotlarni rasmiylashtirish kamligi bilan ajralib turgan. Ma'lumotlar yig'ishning an'anaviy usullariga *kuzatuv*, informator bilan *intervyu* (suhbat), *muzey kolleksiyalari* yig'ish va ularni tavsiflash, ommaviy axborot vositalari va boshqa manbalardan ma'lumotlar yig'ish kiradi. Shuningdek, an'anaviy metodlarga informatsiyani qayta ishslash – kartoteka va hujjatlar to'plamini tuzish, tipologizatsiya, kartografiyalash va boshqa shu kabi uslublar taalluqllidir. Etnologiyadagi yangi zamонавиy uslublar ma'lumotlar bazasini statistik uslublardan foydalanilgan holda maxsus kompyuter dasturlari (misol uchun, SPSS programasi) yordamida ma'lumotlarni aniq tahlil qilishida o'zining aniq tahliliy faktlarga asoslanishi bilan ajralib turadi. Aynan etnologiyaga *miqdorning* (statistik jadval va shu kabilar ko'rinishida) jalb etilishi etnosni strukturaviy modellashtirish metodini qo'llash imkonini ham yaratdi. Shuningdek, noan'anaviy metodlariga *davriy nashrlarni statistik tahlili* (kontent-analiz deb yuritiluvchi) va ekspert baho va boshqa shu kabi yana ko'plab uslublarni kiritish mumkin.

#### **4-§. Etnologiyaning boshqa fanlar bilan aloqalari**

Etnologiyaning asosiy ob'ekti hisoblangan etnos o'z rivojlanish asnosida iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy

va madaniy sohalarda faoliyat olib boradi. Etnos faoliyatining yo'nalishlarini mazkur madaniyat va jamiyatni o'rganuvchi boshqa fanlar ham o'rgandi. *Antropologiya, madaniyatshunoslik, arxeologiya, sotsiologiya, politologiya, geografiya va etnografiya* kabi fanlar o'z tadqiqot mavzulari jihatidan etnologiyaga yaqin turuvchi yondosh fanlar hisoblanadi.

Etnologiyaning mazkur fanlar bilan doimiy aloqasi turlicha bo'lib, ularning har biri bilan ma'lum muammolar va savollar doirasidagina o'zaro munosabatga kirishadi.

Etnologiyaga nisbatan yaqin fan antropologiyadir. Har ikki fan ham irqlarning kelib chiqishi va ularning yer yuzi bo'yicha tarqalishi, tarixiy-madaniy rivojlanish jarayonida insonlarning jismoniy qiyofasining o'zgarishi, etnoslarning antropologik tuzilishi kabi savollarga javob izlaydi. Hozirgi kunda ijtimoiy, madaniy, psixologik, strukturaviy, simvolik antropologiya kabi mustaqil ilmiy yo'nalishlarning mavjudligi bois bular orasidagi munosabatda ma'lum noaniqliklar mavjud.

Ba'zi tadqiqotchilar «etnologiya» va «antropologiya» atamalarini o'zaro sinonim deb izohlaydilar. Bizningcha, bunda ular antropologiyada etnogenez va demografik jarayon hech qachon tadqiqot ob'ekti bo'lмаганligini biroz nazardan chetda qoldiradilar.

**Antropologiya insoniyatning biologik va jismoniy tabiatи haqidagi fan** hisoblanadi. Lekin zamonaviy fanlar tizimida «etnologiya» va «antropologiya» atamalari orasida qat'iy o'rnatilgan chegara mavjud emas. Shu bois ham antropologiyaning madaniy, ijtimoiy, psixologik, strukturaviy, simvolik kabi gumanitar tarmoqlari borasida so'z yuritilganda ular o'zaro bog'liqlikda qo'llaniladi. Shuningdek, ko'plab xorijiy mamlakatlarda antropologiyaning turli

yo nalishlarida tadqiqotlar olib borgan mutaxassislar ni antropolog ham, etnolog ham deb yuritishadi. Garchi aynan mazkur fan tarmoqlari orasida ma'lum bir chegarani belgilash va maxsus lug'atlarda etnologiya va antropologiya atamalariga sharhlar berilishiga qaramay bugungi kundagi fan amaliyoti bu farqlar ni deyarli inkor qiladi. Antropologiya taraqqiyotiga oid har qanday tadqiqotda har qanday antropologiya maktabi vakillarini muallifning xohish-istagiga ko'ra etnolog, deb ham aytish mumkin. Boshqa tomon dan etnologiyaning tarixi va nazariy muammolariga oid tadqiqotlar antropologiya tarixini xuddi o'zining mavzusi tarzida tahlil qiladi. Lekin shunga qaramay etnologiya va antropologiya atamalarining sinonim ekanligiga bitta ma'noda bahslashish mumkin. Etnologiya tadqiqot maydoniga ko'ra antropologiyadan keng hisoblanadi. Etnogenet muammosi, etniklik va etnik guruhlar muammolari, dunyo xalqlarining joylashuvi, demografik jarayonlar antropologiya tadqiqot ob'ekti bo'limgan va aynan mazkur muammolarni o'rgangan mutaxassislar antropologlar, deb yuritilmaydi. Agar shunday ekan, antropologiyani shartli ravishda etnologiyaning qismi sifatida ko'rib chiqish mumkin.

*XIX asrning birinchi yarmida etnologiyaning tadqiqot mavzusi doirasiga jismoniy antropologiya ham kirgan. Jumladan, bu «Parij etnologlar jamiyatining nizomida ham aks etgan bo'lib, unda etnologiyaning tadqiqot mavzulari doirasiga «insoniyat irqining tomonlari, jismoniy o'ziga xos tuzilishi, aqliy qobiliyati va ruhiyati hamda tarixi, an'analari va tilini o'rganish» kirishi ta'kidlangan. XIX asr o'rtalaridan boshlab etnologiya va antropologiya fanlarini o'zaro mustaqil ikki fan, deb qarash paydo bo'ldi. Natijada bu qarash tarafдорлари etnologiyani xalqlar to'g'risidagi fan, antropologi-*

yani inson to'g'risidagi fan deb talqin qilgan. Aynan shu kabi qarash natijasida Germaniyada «Antropologiya, etnologiya yozma tarixgacha bo'lgan tarix jamiyati» (1869), Italiyada – «Italiya antropologiya va etnologiya jamiyati» (1871) kabi jamiyatlar tuzilgan. XIX asr ikkinchi yarmidan boshlab ushbu qarashlarga qarama-qarshi bo'lgan qarashlar, ya'ni etnologiya antropoligiyaning tarkibiy bir qismi, deb hisoblovchi mulohozalar ham paydo bo'lgan (Angliyada 1871-yilda 1843-yili tuzilgan «Etnologiya jamiyati» va 1863-yilda tashkil qilin-gan «Antropologiya jamiyat» lari qo'shilib «Buyuk Britaniya va Irlandiya antropologiya Qirollik instituti»ga aylantirilgan<sup>1</sup>.

Etnos tabiiy rivojlanish oqibatidagina emas, balki bu bilan bir vaqtida ijtimoiy madaniy jarayonlar natijasida ham shakllanadi. Shu bois, etnologiyada etnik jarayonlarni o'rganish chog'ida ijtimoiy va madaniy jarayonlar ham tadqiq qilinadi. Ijtimoiy va madaniy jarayonlarni tadqiq qilishda esa sotsiologiyaning o'rni beqiyosdir.

Sotsiologiya dastlab odamlarning faoliyati va birlgiligidagi hayot tarzini o'rganuvchi fan tarzida shakllangan. Uning tadqiqot predmeti ijtimoiy guruhlar va qatlamlar, ijtimoiy tuzilma hamda ijtimoiy institutlar hisoblanadi. Sotsiologiyaning markaziy kategoriysi – jamiyat, ya'ni bir umumiy hududda birlgilikda yashovchi va faoliyat ko'rsatuvchi insonlar o'zaro munosabatlarining aloqasi shakllarini o'rganadi. Ijtimoiy munosabatlarning ushbu elementlari etnologiya uchun ham ilmiy qiziqish uyg'otadi. Lekin etnologiya buni boshqacharoq tarzda tadqiq qiladi. Etnologiyada ijtimoiy munosabatlar sohasida madaniyatning ijtimoiy dinamikasi, etnoslarning ijtimoiy differensiyasi, turli xalqlarning etnik jihatdan o'zlarini ong tizimi-

---

<sup>1</sup> Этнография и смежные дисциплины. – М., 1994. – С. 68.

da idrok etishi, etnik psixologiyaning o'ziga xosligi va shu kabilar tadqiq qilinadi. Boshqacha aytganda, etnologiya turli etnik muhitlardagi ijtimoiy jarayonlar va ko'rinishlarni hamda ijtimoiy guruhlardagi etnik jarayonlarni o'rganadi. Aynan mazkur hollarda etnologiya bilan sotsiologiyaning o'zaro aloqasi namoyon bo'ladi.

Sotsiologiya va etnologiyaning jamiyat ko'rinishlariga bo'lgan qiziqishi juda ham yaqin bo'lganligi bois XX asrning 30-yillarida ushbu ikki fanning o'zaro kesishgan nuqtasida yangi ilmiy yo'nalish – *etnosotsiologiya* paydo bo'ldi. Etnosotsiologiya asoschisi nemis olimi Rixard Turnvaldning fikricha, sotsiologiya amaliy fan bo'lib, zamonaviy industrial mamlakatlardagi ijtimoiy va etnik jarayonlar o'rtasidagi o'zaro aloqani o'rganadi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, g'arb mamlakatlari-dagi adabiyotlarda etnologiya, madaniy antropologiya va ijtimoiy antropologiya bir fanning turlicha nomlanishi degan qarashlar keng tarqalgan. Haqiqatdan ham shundaymi? Ushbu savolga javob berishdan avval mazkur uch yo'nalish to'g'risida aniq va yetarli ma'lumotlarni to'liq anglab yetmoq zarur.

*Madaniy antropologiya* insonning jismoniy tuzilishidagi o'zgarishlarni o'rganuvchi jismoniy antropologiyadan farqli ravishda insoniyat madaniyatining shakllanish jarayonini o'rganuvchi yo'nalish sifatida paydo bo'lgan. Madaniy antropologiyaning etnologiya bilan aloqasi to'g'risida gapirganda, avvalo, bu fan etnologiyaning tavsifiy dala materiallaridan o'zining konsepsiyalarini tekshirish va isbotlash maqsadida foydalanishini ta'kidlash kerak. O'z navbatida, nazariy xulosalar chiqarishda etnologiya madaniy antropologiya ma'lumotlariga tayanadi.

*Ijtimoiy antropologiya* va etnologiya aloqalari birmuncha boshqacharoq xususiyatga ega. Ijtimoiy an-

tropologiyaning tadqiqot yo'nalishi dunyo xalqlari-dagi ijtimoiy jamoalarning o'ziga xos tomonlarini o'rganishga qaratilgan. «*Ijtimoiy antropologiya*» atamasi ilk bor ingliz etnologiyasining asoschisi Jeyms Frezer tomonidan ilmiy muomalaga olib kirlgan. U mazkur yo'nalishni insoniyatni o'rganuvchi jismoniy antropologiyaga qarama-qarshi tarzda joriy qilgan. Ijtimoiy antropologiya etnologiyaga nisbatan sotsiologiyaga yaqin bo'lib, ularning har ikkisining ham tadqiqot mavzusiga etnik jamoalar kirmaydi.

Demak, etnologiya, antropologiya va sotsiologiya fanlari o'zaro tutash tadqiqot ob'ektiga ega, lekin ularning har biri ushbu predmetning o'ziga xos tomonlarini boshqa fanlar yutuqlari va ilmiy xulosalaridan foydalangan holda tadqiq qiladi.

Etnologiyaga eng yaqin va qarindosh fan *etnografiya* hisoblanadi. Tarixiy-etnografik adabiyotlardan ma'lumki, etnografiya mustaqil fan tarzi-da bundan bir yarim asr muqaddam maydonga kel-gan. Dastlab mazkur fanning maqsadi turli xalqlar to'g'risidagi ijtimoiy-madaniy materiallarni yig'ish va tasniflash bo'lgan.

«Etnografiya» atamasi turli mamlakatlarda turli-cha ma'nolarda qo'llanilgan. Ko'p hollarda u etnos to'g'risidagi nazariy-metodologik umumlashgan xulosalarni o'zida mujassamlashtirgan etnologiyadan farqli ravishda tavsify xarakterdagi tadqiqotlarga nisbatan qo'llanilgan. Muxtasar aytadigan bo'sak, zamonaviy etnologiya fani etnografiyaga konseptual ilmiy apparat beradi. Etnografiya ko'pincha tavsify ma'lumotlarni mujassamlashtiruvchi fan bo'lsa, etnologiya nazariy xalqshunoslik hisoblanadi.

Bu bo'linish mazkur fanning tavsify (etnografiya) va nazariy (etnologiya) qismlarga bo'linishiga oid qarashlarga asoslangan. Bundan tashqari, biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, nemislarda etnologiya nemis et-

nosi va boshqa etnoslar to'g'risidagi fanlarga bo'lindi. Birinchi holatda «**Volkskunde**» iborasi nemis tilida so'zlashuvchi xalqlar (nemislar, avstriyaliklar, shveytsariyaliklar)ni etnografik o'rganish va tavsiflashda qo'llanilgan bo'lsa, «**Volkerkunde**» iborasi nemis tilida so'zlashmaydigan boshqa xalqlarni etnologik nuqtai nazardan o'rganishda foydalaniłgan atama hisoblanadi.

Etnografiya dastlab yevropalik olimlar tomonidan yevropalik bo'limgan xalqlarning madaniy turmush tarzi va ijtimoiy sohalardagi farqini bayon qiluvchi tavsifiy fan sifatida amalda bo'lishi mazkur fan ni «orqada qolgan» xalqlarni o'rganuvchi fan degan tushunchalarining paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Bunday qarashlarning noto'g'ri ekanligi o'z vaqtida isbotlangan bo'lib, bugungi kunda har bir xalqning etnografiyasini ilmiy tarzda o'rganish dolzarb muammolardan biri ekanligi o'z isbotini topib ulgurgan haqiqatdir. Hozir dunyo miqyosida kechayotgan ulkan globallashuv jarayonida barcha etnoslar o'ziga xos milliy-etnik xususiyatlari, ularning boshqa etnolardan farqli hisoblangan jihatlarini saqlab qolishga harakat qilmoqda.

Etnologiyaning boshqa fanlar bilan o'zaro munosabati natijasida poleetnografiya, etnopsixologiya, etnolingvistika va etnomadaniyat kabi qator fan tarmoqlari vujudga kelgan. *Poleetnografiya* – xalqlarning o'ziga xos madaniy turmushidagi farqlarni arxeologik materiallar asosida o'rganuvchi fan; *etnolingvistika* – turli tillarning kelib chiqishini etnik jarayonlar bilan bog'liqlikda o'rganuvchi soha; *etnopsixologiya* esa etnos va shaxsning ruhiy holatiga etnik jarayonlarning ta'sirini tadqiq qiladi.

Etnologiya, madaniyatshunoslik va sotsiologiya fanlari o'zining tadqiqot predmeti borasida tutash

nuqtaga ega, lekin ularning har biri bu predmetning yangi tomonlarini boshqa fan yutuqlarini jalb etgan holda o'rganadi.

## **5-§. O'zbekistonda etnologiya fani: yutuqlar, muammolar va rivojlanish istiqbollari**

Mustaqillik yillarda mafkuraviy tazyiqlardan holi bo'lgan boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar kabi etnologiya fani sohasida ham, garchi ma'lum qiyinchiliklar bilan bo'lsa-da, bir qator ilmiy-nazariy va metodologik tadqiqotlar amalga oshirildi. Tadqiqotlar nafaqat mazmun va mohiyati bilan, balki ularga nazariy metodologik jihatdan yondashuvlar ham o'zgarganligini ko'rsatmoqda. Tarixan qisqa davr mobaynida erishilgan eng muhim natijalar sifatida tadqiqot mavzularining kengayishi va ilmiy izlanish samadorligi oshganligini kuzatamiz. Tadqiqot ob'ekti va predmetiga, balki uning metod va nazariyalariga ham yangicha qarash natijasi o'laroq «etnomadaniy jarayonlar», «etnoslararo jarayonlar», «zamonaviy jamiyatda milliy-etnik jarayonlar», «etnopsixologiya», «etnoslararo kommunikatsiya», «gender muammo-lari» va etnologiyaning boshqa zamonaviy yo'naliшlarida ko'plab tadqiqotlar amalga oshirildi. O'tgan qisqa davr mobaynida etnolog tadqiqotchilar «bir xillik» andozasidan ozod bo'ldilar va «madaniyat», «madaniy meros», «mentalitet», «milliy ruh» kabi tushunchalarining sof milliy shakliga va mazmuniga qaytdilar. Qolaversa, fanning asosiy tadqiqot ob'ekti bo'lgan etnos nazariyasi jihatlari, etnogenez va etnik tarixga oid yangi nazariy-metodologik konsepsiylar va qarashlar yaratildi.

Shuningdek, mustaqillik yillarda xalqimiz moddiy va ma'naviy madaniyati, oilaviy va jamoaviy hayoti,

diniy e'tiqodlari va marosimlarini tadqiq etish borasida jiddiy tadqiqotlar bilan birga fanda qo'ni-qo'shnichilik an'analari, etnoslararo jarayonlarni tadqiq qilishga qaratilgan yangi yo'nalishlarga asos solindi. Bajarilgan tadqiqotlarning samarasi o'laroq qator monografiyalar va risolalar e'lon qilindi. Bu o'rinda o'zbek elshunos olimlari I. Jabborov, H. Ismoilov, O. Bo'riyev, A. Ashirovlarning o'zbeklarning oilaviy turmush an'analari, to'y tantanalar, dafn marosimlari hamda milliy qadriyatlariga oid tadqiqotlari (Jabborov I. «O'zbeklar an'anaviy turmushi va madaniyati» – T.; 2004. Ismoilov H. «O'zbek to'ylari» – T.; 1994.: Bo'riyev O. va boshqalar. «O'zbek oilasi tarixi». – T., 1995.: Nasriddinov Q. «O'zbek dafn va ta'ziya marosimlari». – T.; 1996.: Ashirov A. «Avesto»dan meros marosimlar» – T.; 2001. ) nashr etildi.

Etnologiyaning boshqa fanlar bilan aloqasining samarsi tarzida etnoarxeologiya, etnopsixologiya, etnolingvistika, etnodemografiya, etnofolkloristika kabi yangi yo'nalishlar paydo bo'ldi va, eng muhimi, fanning nomi ham etnologiya deb o'zgartirildi. Umuman, respublikada etnologik yo'nalishda olib borilayotgan tadqiqotlarning asosiy yutuqlari quyidagilarda mu-jassamlashgan:

– Avvalo keyingi o'n yillikda etnologiyaning nazariy metodologik muammolari borasida dastlabki ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Bunda tadqiqotchilar tomonidan fanning nafaqat nazariy muammolari, balki zamonaviy etnologiya maktablari va atamalariiga oid yangi materiallarning e'lon qilinishi o'zbek etnologlarining zamon bilan hamnafas tadqiqotlar olib borayotganliklarini ko'rsatadi.

– Etnogenetik jarayonlar doirasida akademiklar K. Shoniyozov va A. Asqarov tomonidan o'zbek xalqining shakllanish jarayoni va uning nazariy-metodologik muammolariga oid qator fundamental tadqiqotlar

e'lon qilindi. Mazkur mavzu doirasida O'zR FA Tarix institutida doimiy ilmiy seminar tashkil etilganligi va bu sohada respublikamizning ko'zga ko'ringan bir qator olimlarining ilmiy tadqiqotlari e'lon qilinayotganligi ham ushbu yo'nalishning rivojlanayotganligidan dalolat beradi.

– Mutaxassis olimlar nafaqat tarixiy-etnografik tadqiqotlar mavzularini, balki dastlabki professional etnograflar kabi «an'anaviy zamonaviylik»ni va bugungi kunda muhim, deb e'tirof etilayotgan ijtimoiy-madaniy innovatsiyalar, an'anaviy jamiyatning zamonaviy hayotini ham tadqiq qilmoqdalar.

– Hozir etnologik yo'nalishda bajarilayotgan tadqiqotlarda an'anaviy madaniyatni tadqiq qilishgagina emas, balki zamonaviy polietnik jamiyatni o'rganish, ayniqsa an'anaviy mahalla institutining zamonaviy jamiyatda tutgan o'rni, mahalla tizimida zamonaviy etnomadaniy jarayonlarning roliga katta e'tibor qaratilmoqda. Mazkur yo'nalishda Toshkent mahallalari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalarini dastlabki yutuqlar sifatida qayd etish mumkin.

– Zamonaviy etnologiyaning tadqiqot mavzusi va o'rganish maydoni ancha keng bo'lib, unga yaqin bo'lgan sotsiologiya, madaniyatshunoslik, psixologiya, antropologiya, folklorshunoslik kabi fanlar bilan o'zaro tutashishi natijasida etnopsixologiya, etnomadaniyat, etnofolkloristika, etnosotsiologiya kabi yangi sohalar paydo bo'ldi va ushbu yo'nalishlar respublikamizning bir qator oliy o'quv yurtlarida maxsus fan tarzida o'qitilmoqda. Ularning ayrimlari bo'yicha o'quv qo'llanmalari ham yaratildi (masalan, Etnomadaniyat. O'quv qo'llanma. T., Adolat.; 2003. Jabborov I. Jahon xalqlari etnologiyasi. O'quv qo'llanma. T., 2005.; Ashirov A., Atadjanov Sh. Etnologiya. O'quv qo'llanma – T.; Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007., A. Doniyorov,

A. Ashirov, O. Bo'riyev. Markaziy Osiyo xalqlari etnografiyasi, etnogenezi va etnik tarixi. T.: «Yangi nashr», 2011).

– Keyingi vaqtarda yetakchi olimlar yosh tadqiqotchilar bilan birga xorijiy mutaxassislar ishtirokida respublikamizda etnologiyaning dolzarb mavzulariga bag'ishlangan ilmiy anjumanlar hamda festivallarni o'tkazish yaxshi bir an'anaga aylanib ulgurdi. Bu borada «Akademik Karim Shoniyozov o'qishlari» turkumida doimiy faoliyat ko'rsatuvchi ilmiy anjumanning tashkil etilganligi va mazkur konferensiya materiallarining muntazam nashr etib borilayotganligi ham amalga oshirilayotgan ijobiy ishlarning natijasi, deb aytish mumkin<sup>1</sup>. Lekin sohada qator yutuqlarga erishilganiga qaramay hanuz yechilishi lozim bo'lgan muammolar mavjudki, ularni chetlab o'tib ma'lum bir ijobiy natijalarga erishish mumkin emas.

– Zamonaviy o'zbek etnologiyasi oldidagi muammojar to'g'risida fikr yuritadigan bo'sak, avvalo, shuni ta'kidlash kerakki, hanuz ayrim tadqiqotlar tavsifiy xarakter kasb etmoqda. Etnologik yo'nalishda bajarilgan har qanday tadqiqot ma'lum bir amaliy ahamiyatga ega bo'lishi va uning natijalaridan bugungi va ertangi kun amaliyotida foydalanish lozim.

Yuqoridagi fikr-mulohazalarga xulosa tarzda aytish mumkinki, bugungi kunda o'zbek etnologiyasi dolzarb va ijtimoiy jihatdan ahamiyatli bo'lgan quyidagi muammolarni yechishi lozim:

<sup>1</sup> Bu borada batafsilroq qarang: «O'zbekiston etnologiyasi: yangicha qarashlar va nazariy-metodologik yondashuvlar» mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiallari. T., 2004; Markaziy Osipyoda an'anaviy va zamonaviy etnomadaniy jarayonlar. T., 2005. 1-va 2-qismlar; «Etnologiya fanining dolzarb muammolari» mavzusidagi ilmiy anjuman materiallari. – Namangan, 2007. Etnos va madaniyat: an'anaviylik va zamonaviylik. «Akademik Karim Shoniyozov o'qishlari» turkumida etnologlarning V Respublika ilmiy konferensiysi materiallari. T.: «Fan», 2010.

– Etnologiya sohasida tadqiqotlar olib borayotgan mutaxassislar o‘zaro hamkorlikda fanning kelgusidagi istiqbolli yo‘nalishlarini belgilab olishlari zarur. Bunda o‘zbek etnologiyasi rivojlangan mamlakatlar fani bilan hamohang rivojlanishi va, o‘z navbatida, o‘zining maktablari va konsepsiyasiga ega bo‘lmog‘i kerak. Metodologik muammolarga sifat jihatdan yangicha yondashuvni tashkil etish barobarida an’naviy usullar bilan birga noan’naviy usullardan ham foydalanish zarur. Nazariy-metodologik tadqiqotlarga jiddiy e’tibor qaratilmas ekan, bajarilgan har qanday tadqiqot amaliy ahamiyat kasb etmaydi va ilmiy qimmatga ega bo‘lmagan tavsifiy tadqiqotdan nariga o‘tmaydi. Qolaversa, bugunning zamonaviy muammlarini etnolog tadqiqotchi nigohi bilan tadqiq qilish, olib borilgan har bir tadqiqot jamiyatning ma’lum bir sohasi uchun amaliy natija bermog‘i lozim. Shundagina etnologik tadqiqotlarga jamiyatda qiziqish ortadi va uning amaliy qimmati oshadi.

– Respublikamizda mazkur yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan mutaxassislar tomonidan etnos nazariyasi, etnogenez va etnik tarixga bag‘ishlangan sifat jihatidan yuqori ilmiy xulosalarga asoslangan tadqiqotlarni yaratish zarur. «O‘zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi»ning majmuaviy muammo si mamlakatimiz ilmiy muammolarining markazida turganligiga hamda xalqimiz etnogenezi va etnik tarixining turli jihatlari jiddiy o‘rganilayotganiga qaramay, murakkabligi bois uni tugallangan deb bo‘lmaydi va u arxeolog, antropolog, etnograf, tarixchi, tilshunos va boshqa soha olimlarining jamoaviy fikr-mulohazalarini kutmoqda. Bu borada birinchi qadam sifatida mamlakatimizda va chet ellarda etnogenez bo‘yicha mavjud barcha adabiyotlarni imkon qadar o‘rganib chiqish, maxsus tahlil etish va bu tahlilga eng yangi arxeologik, antropologik, tilshunoslik,

etnografik va boshqa ma'lumotlarni qo'shish lozim. Tadqiqotchilar tomonidan o'zbek xalqi geneseologiyasi, etnodemografiyasi, etnopsixologiyasi, milliy mentalitetiga va, umuman olganda, etnos muammosi bilan chambarchas bog'liq tadqiqotlarga, shuningdek, etnik jarayonlarning nazariy-metodologik konsepsiyanini shakllantirish, madaniy antropologiya, etnoekologiya kabi yo'naliishlarga jiddiy e'tiborni qaratish hamda etnologik atamalar va atamalarga oid lug'atlarni nashr etish maqsadga muvofiqdir.

– Etnologiyada asosiy tadqiqot ob'ektlaridan biri bo'lgan moddiy va ma'naviy madaniyat ko'rinishlari, xalqning an'anaviy turmush tarzi bilan bog'liq marosimlar va urf-odatlarni tavsify etnografik tarzda yoritishdan chekinib, ma'lum bir nazariy-metodologik konsepsiya asoslanib, ularning genezisi, o'ziga xos xususiyatlari, tub mohiyatiga e'tibor bergen holda etnologik nuqtai nazardan tadqiq etish zarur.

– Dunyo miqyosida ulkan globallashuv jarayoni va yangi texnologik davr bo'lgan bugungi kunda etnosning o'rni va ahamiyati, zamonaviy etnomadaniy jarayonlarni, etnoslararo kommunikatsiya va globallashuv jarayonlarida milliy xususiyatlarning saqlanib qolish omillarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

– XX asrda ijtimoiy-siyosiy hayotda bo'lgan o'zgarishlar turli etnik guruqlar va etnoslarni hamda turli-tuman madaniyatlarning o'zaro qorishishiga olib keldi. Natijada etnomadaniy aloqalarning kuchayishi respublikamiz hududida yashovchi mahalliy subetnoslar va turli-tuman diasporalar moddiy va ma'naviy turmush tarzida ulkan o'zarishlarga sabab bo'ldi, deb aytish mumkin. Shu bois bugungi kunda millatlararo, etnosiyosiy, etnoijtimoiy, etnomadaniy munosabatlar jiddiy tadqiqotlar bajarilishini talab qilmoqda. Hozirda, avvalo, turli etnoslar va diasporalar zich yashayotgan etnoslararo aloqalar, etnom-

adaniy o'zaro ta'sir va madaniyatlarning bir-biriga kirib borishi; milliy xususiyat va mentalitet; etnoslararo ziddiyatlar va nizolar sabablari va ularning ehtimoli; millatchilik va milliy separatizm; milliy siyosat va hokazo kabi dolzarb masalalarni ishlab chiqish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

– Oliy o'quv yurtlarida etnologiya fanining o'qitilishi sifat jihatdan takomillashtirish va bu sohada tadqiqot olib borayotgan nazariyotchi olimlar bilan amaliyotchi pedagoglar o'zaro hamkorlikda yangicha ruhdagi darsliklar yaratishlari lozim. Bu sohada, ayniqsa, g'arbda keng rasm bo'lgan madaniy antropologiya yoki ijtimoiy antropologiyaga oid darsliklar va o'quv qo'llanmalaridan ham bevosita foydalanish kerak. Eng muhim ishlardan yana biri mazkur soha uchun universitetlar o'quv dasturlaridagi dars soatlarini ko'paytirish va ijtimoiy fanlarga ixtisoslashtirilgan «Etnologiya» kafedralari yoki ilmiy markazlarini tashkil etish va etnik antropologiya, etnik sotsiologiya, etnodemografiya, etnoiqtisodiyot, etnogeografiya, etnopedagogika, etnopsixologiya, etnolingvistika kabi yo'nalishlarda kurslar tashkil etish zarur.

– Zamonaviy jamiyatda millatlararo munosabatlар eng muhim muammolardan biriga aylanayotgan bir paytda polietnik jamiyatni, milliy-etnik munosabatlarni, uning tarixiy asoslariyu, bugungi holati hamda istiqbollarini etnologik yo'nalishda tadqiq qilish ham muhim ahamiyatga egadir. Qolaversa, O'zbekiston hududidagi nafaqat turli etnik yoki etnografik guruahlarni tadqiq qilish, balki ijtimoiy guruahlarni va turli madaniy muhitlar muloqotining jamiyat hamda xalqlar turmushiga ta'sirini ham tadqiq qilish kerak.

Umuman olganda, aytish mumkinki, etnologiya insoniyat va uning faoliyatining turli jihatlarini tadqiq qiluvchi fan bo'lishi bilan birga mazkur fan jamiyat hayotida hech qanday me'yoriy o'lchovlar bilan

o'lchab bo'lmaydigan qator o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ta'kidlab o'tish joiz. *Birinchidan*, etnologiya fani insonlarning dunyoda madaniyatlar xilma-xilligini anglashga bo'lgan doimiy ehtiyojini qondirish missiyasini bajaradi. Bu esa insonlarning ma'naviy boy va hayot faoliyatining samarali bo'lishiga olib kelishi shubhasizdir. *Ikkinchidan*, etnologiya insoniyat faoliyati, jamoat tartibi va ijtimoiy-siyosiy institutlar faoliyatining tarixiy-madaniy mazmunini tadqiq qilish asosida tarixiy tajriba, madaniy (hamda biologik) munosabatlar (individual yoki jamoaviy) umuman jamiyat hayotiga, shu jumladan, siyosat va boshqaruvga qanday ta'sir etishini tadqiq qiladi. *Uchinchidan*, etnologiya bilan ko'pincha tadqiqotchilar avvalo o'zlarining shaxsiy qiziqishlari doirasidan kelib chiqib mashg'ul bo'ladilar va bu jarayonda moddiy qiziqish yoki qandaydir ijtimoiy buyurtma birinchi darajali muhim ahamiyat kasb etmaydi.

### **Seminar mashg'uloti rejasি:**

1. Etnologiyaning fan sifatida shakllanish tarixi.
2. Evropa va AQShda etnologiya fanining shakllanish tarixi.
3. O'zbekistonda etnologiya fanining shakllanish tarixi.
4. Etnologiyaning tadqiqot predmeti va asosiy metodlari.
5. Etnologiyaning boshqa fanlar bilan aloqalari.
6. Etnologiyaning zamonaviy jamiyatdagi o'rni va amaliy ahamiyati.

### **Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Yevropada dastlabki etnologik jamiyatlar qachon tashkil topgan?
2. Etnologiya fanida qanday tadqiqot usullari qo'llaniladi?

3. Etnologiyaning antropologiyadan farqli xususiyatlari haqidagi gapirib bering?

4. Etnografik dala tadqiqotlari qanday tashkillashtiriladi?

5. Nima uchun zamonaviy dunyo hamjamiyati etnografik tadqiqotlarga ehtiyoj sezmoqda?

### **Adabiyotlar:**

1. *Ashirov A., Atadjanov Sh. Etnologiya (O‘quv qo’llanma).* – T.: «IQTISOD-MOLIYA» nashriyoti, 2008.

2. *Губогло М. Н. Идентификация идентичности. Этносociологические очерки.* – M., 2003.

3. *Doniyorov A., Ashirov A., Bo‘riyev O. Markaziy Osiyo xalqlari etnografiyasi, etnogenezi va etnik tarixi.* – T.: «Yangi nashr», 2011.

4. *Jabborov I. Jahon etnologiyasi asoslari.* – T.: O‘qituvchi, 2008.

5. *Jabborov I. O‘zbek xalqi etnografiyasi.* – T., 1994.

6. *Леви-Строс К. Структурная антропология.* – M., 1983.

7. *Лурье С. В. Историческая этнология.* – M., 1998.

8. *Орлова Э. А. Введение в социальную и культурную антропологию.* – M., 1994.

9. *Основы этнологии: Учебное пособие / Под ред. проф. В. В. Пименова.* – Москва, Изд-во МГУ, 2007.

10. *Этнология (Этнография. Учебник для бакалавров. ред. В. А. Козьмина, В. С. Бузина).* – Москва, Изд-во Юрайт, 2014.

## **II BOB**

### **ETNOLOGIYANING ASOSIY YO'NALISHLARI VA MAKTABLARI**

- 6-§. Evolyutsionizm va diffuzionizm.*
- 7-§. Sotsiologiya maktabi va funksionalizm.*
- 8-§. Etnopsixologiya maktabining shakllanishi.*
- 9-§. Etnologiyadagi yangi konsepsiylar.*

#### **6-§. Evolyutsionizm va diffuzionizm**

XIX asr o'rtalariga kelib etnologiyada etnomadaniy materiallar asosida o'ziga xos talqin beruvchi yangi yo'nalishlar, konsepsiylar va maktablar paydo bo'ldi. Ularning ayrimlari qat'iy ilmiy yo'nalishga taalluqliliği va tizimlashgan shakli bilan ajralib turganligi bois juda qisqa muddatda ommalashib ketgan. Shubhasiz, fandagi bunday mashhur oqimlar va maktablar qatoriga *evolyutsionizm*, *diffuzionizm*, *strukturalizm*, *etnologiyaning tarixiy Amerika maktabi*, *funktionalizm*, *madaniy revalitalizm* kabilar kiradi.

Dastlabki etnologik nazariya – evolyutsionizmning rasman shakllanishi XIX asr o'rtalaridagi umummetodologik dasturlar va kashfiyotlarning amalga oshirilishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Bunday qarashlar orasida o'sha davr fanida rivojlanish qoidalarining tasdiqlanishi muhim ahamiyat kasb etgan bo'lib, bunga ko'ra dunyodagi har qanday o'zgarish ichki detirminizm (narsa va hodisalarning sababiy bog'lanishi)ga asoslanadi. Mazkur nazariya asosida dastlab

tabiiy fanlardagi ko'plab jarayonlarga izoh va tavsiflar berilgan. Tabiiy fanlardagi bunday qarashlar yakuni tarzda XIX asrda evolyutsionalizm g'oyasining yaratilishi va oxir-oqibat uning g'alabasiga sabab bo'ldi. Xullas, dunyodagi barcha mamlakatlarda etnologiya «evolyutsionizm» nomini olgan dunyoqarash yo'naliishi asosida shakllandi.

Evolyutsionizm nazariyasi tabiiy fanlarda keskin burilish yasashi bilan birga inson va madaniyatlar to'g'risida mashhur g'oyani etnologiya faniga ham olib kirdi. Ma'rifikatparvarlik davri mutafakkirlaridan o'zlariga meros tarzda olgan etnologiya asoschilari ilmiy bilishning asosiy masalasi o'rganilayotgan voqelikni evolyutsion rivojlanishning ob'ektiv qonuniyatini aniqlashtirishga qaratganlar. Shu bois ko'plab evolyutsionistlar asarlarini tabiiy fanlarda erishilgan kashfiyotlardan ilhomlanib yaratganlar.

Darhaqiqat, evolyutsionizm g'oyasi asosida o'sha davr yangi fani – yangi astronomiyadagi koinotning dastlab tumanlilikdan (XVIII asr oxirida Emmanuel Kant va Per Simon Laplas tomonidan yaratilgan) yaratilishiga oid nazariya; ingliz olimi Charlz Layel va nemis Aleksandr Gumboldtning geologik va geografik nazariyalari; tilshunoslikda zamonaviy yevropa tillari qadimgi protohindoyevropa tillari asosida shakllanishiga oid qarashlari; biologiyada esa XIX asrning 50-yillarida Charlz Darvinnинг «Turlarning tabiiy tanlanish asosida paydo bo'lishi» (1859) nomli asarida 1lgari surilgan fundamental kashfiyotlari asosida shakllangan. Shunday qilib, evolyutsionizm tarafdarlari o'zlarining asosiy qarashlari, vazifalarini insoniyat madaniyati rivojlanishida umumiy qonuniyatlarning kashf etilishi va asoslanishida, turli xalqlar madaniyatlarining rivojlanishida, deb bilganlar. Evolyutsionizm tarafdarlari bir vaqtning o'zida turli mamlakatlardan chiqqan bo'lib, evolyutsion

## Evolyutsionizmning mashxur namoyandalari

- *Edvard Bennet Taylor* (*E. B. Tyler*, 1832 – 1917)
- asosiy tadqiqoti – «*Ibtidoiy madaniyat*» («*Primitive culture*») kitobi 1871-yilda chop etilgan.
- *Lyuis Genri Morgan* (*L. H. Morgan*, 1818 – 1881)
- asosiy ishi – «*Qadimgi jamiyat*» («*Ancient Society*») nomli kitobi 1877-yilda nashr etilgan.
- *Jeyms Frezer* (*J. Frazer*, 1854 – 1941) – muhim ishi – «*Oltin shox*» («*The Golden Bough*») asari – 1890-yilda nashr etilgan.
- *Djon Mak – Lennon* (*J. F. MacLennan*, 1827 – 1881) – asosiy ishi – «*Patriarxat nazariya*» («*The Patriarchal Theory*») – 1881-yilda e'lon qilingan.
- *Adolf Bastian* (*A. Bastian*) asosiy tadqiqoti – «*Etnologiya asoslari*» («*Allgemeine Grundzuge der Ethnologie*») nomli asari 1881-yilda chop etilgan.
- *Logann Baxofen* (*J. Bachofen*, 1815 – 1887) asosiy ishi – «*Matriarxat*» («*Das Mutterrecht*») nomli kitobi 1897-yilda e'lon qilingan.
- *Dj. Labbok* (*J. Lubbock*)ning «*Sivilizatsiyaning kelib chiqishi*» («*The Origine of Civilization*») nomli mashhur kitobi 1870-yilda chop etilgan.

Evolyutsion nazariya tarafdarlaridan Angliyada – Gerbert Spenser, Edvard Taylor, J. Frezer, Germaniyada – Adolf Bastian, Teodor Vayts, Genrix Shurts, Fransiyada – Sharl Leturno, Amerikada – Lyuis Genri Morganlar mashhur bo'lgan.

Buyuk ingлиз олими Edvard Bernet Taylor etnologiyadagi evolyutsionistik maktabning asoschisi hisoblanadi. U o'zining 1865-yilda nashr etilgan «*Insoniyatning qadimgi tarixi haqida tadqiqot*» nomli kitobida evolyutsionistik g'oyalalarini, jumladan, insoniyat

madaniyatining ibtidoiylikdan zamonaviy sivilizatsiyagacha bo'lgan tarixiy rivojlanish bosqichlarini, xalqlar orasidagi o'zaro farq irqiy farqqa asoslanmasdan, balki xalqlar madaniyati rivojlanishining turli pillapoyalari hamda xalqlar madaniyatining o'zaro aloqasi va vorisligi kabi g'oyalar bilan bog'liq, deb hisoblagan. Taylor o'zining evolyutsionistik konsepsiyasini «*Ibtidoiy madaniyat*» (1871) nomli fundamental asarida bayon qiladi<sup>1</sup>.

Mazkur asarda olim madaniyatni olg'a siljituvchi taraqqiyot g'oyasini har tomonlama rivojlanitirgan holda J. de Mestraning «*Tubanlashish g'oyasi*»ga qarama-qarshi qo'ygan. J. de Mestra ilgari surgan g'oya mohiyatiga ko'ra, madaniyatning ilk bosqichlarida yerda yarim sivilizatsiyalashgan odamlar yashaganlar va ularning keyingi rivojlanishi ikki yo'ldan borgan. Bu jarayonda bir guruh kishilar yovvoyilik tomon orqaga ketgan bo'lsa, boshqa bir jamoa sivilizatsiyalashgan jamiyat sari taraqqiy qilgan, deyildi. Taylor esa tarixiy va tabiiy katalizator natijasida madaniyatdagi regressiv o'zgarishlarni rad etmagan holda insoniyat tarixida madaniyatning evolyutsion rivojlanishi asosiy yo'naliш, deb qat'iy ta'kidlaydi.

U o'z mulohazalarini evolyutsionizmning «*insoniyat tabiatning bir bo'lagi bo'lganligi uchun ham tabiiy qonuniyatlar asosida rivojlanadi*», degan g'oya asosida shakllantirgan. Shu boisdan ham barcha insonlarning psixologiyasi va intellektual qobiliyati o'xshash, ularda madaniyatning bir xil xususiyatlari ko'rish mumkin, kishilarning rivojlanishi ham o'xshash qonuniyatlarga asoslanadi. Tayloring fikricha, madaniyatning turli shakllari bosqichma bosqich rivojlanishida ularning har biri shubhasiz o'tmisht bilan bog'liq bo'liq bo'lgani holda kelajakning shakl-

<sup>1</sup> Qarang: Taylor E. B. Primitive culture. V. 1 – 2. L., 1871. Тайлор Э. Б. Первобытная культура. – М., 1989.

lanishida muhim rol o'ynaydi. Taraqqiyotning mazkur ketma-ketligi barcha xalqlar, shu jumladan, eng orqada qolgan xalqlardan tortib sivilizatsiyalashgan xalqlargacha barchasini o'zaro yagona uzluksiz bir tizimga birlashtiradi.

Taylor uchun madaniyatning barcha ko'rinishlari dan ko'ra ko'proq ibtidoiy odamlarning diniy e'tiqodlari birmuncha ko'proq qiziqish uyg'otgan va u bu borada dinning paydo bo'lishi to'g'risidagi animistik (lotincha *animus, anima* – ruh, Jon) g'oyani ishlab chiqqan. Ibtidoiy odamlarning diniy e'tiqodlarini o'rganish asnosida muallif ularga insoniyat va uning madaniyati uyg'unligi nuqtai nazaridan yondashgan. Uning fikricha, «yovvoyi odamlar»ning e'tiqodlari va marosimlari turli-tuman mazmunsiz qorishmadan emas, balki o'zaro ketma-ketlikka va mantiqiy asosga ega bo'lgan urf-odatlardan iborat. Eng muhimi, bularning barchasi zaminida, olim ta'kidlaganidek, «Ilohiy zotga e'tiqod» yoki, boshqacha tarzda aytganda, ruh va jonga ishonch g'oyasi mujassamlashgan. Taylor o'z qarashlari asosida «animizm» nazariyasini shakllantirgan. U animizm ildizlarini ibtidoiy odam tasavvuridagi tush, tush ko'rishning o'ziga xos xususiyati, kasallik, o'lim kabilarning sabablarini izohlash bilan bog'laydi va ularni tushuntirish asosida ibtidoiy odamlar tasavvuridagi «har bir odamda Jon bo'lib, ular inson tanasini vaqtinchalik (tush ko'rish vaqtida) yoki butunlay (vafot etganda) tark etadi», degan g'oyani asos qilib olgan. O'z navbatida Jon to'g'risidagi bunday qarash keyinchalik dunyoviy dinlarda ham rivojlangan. Ibtidoiy odamlarning magik fikrlash qoidasi asosida har bir narsaning joni va ruhi mavjudligi to'g'risida tasavvurlar paydo bo'lgan va natijada hayvonlar hamda tabiiy kuchlarning ruhi, boshqa olam-dagi hayotga ishonch, tabiatdagi ilohlar va oxir-oqibatda yagona tangri taologa bo'lgan e'tiqod shakllangan, deb ta'kidlaydi.

Э. Б. Тайзор  
ПЕРВОБЫТНАЯ  
КУЛЬТУРА



Taylorning evolyutsionistik qarashlari etnologiyadagi dastlabki «inqilobiy» qarashlardan biri edi. Evolyutsionistlar qarashlarining muhim jihatlaridan biri shundaki, mazkur nazariya tarafdorlari ilk bora tarixiy jarayonlarning yaxlitliligi va madaniyat taraqqiyotining progres-sivligi to'g'risidagi izchil konsepsiyanı ilgari surishgan. Biroq evolyutsionizm konsepsiysi, shu jumladan, Taylor qarashlarining kam-

chiligi borasida birmuncha kechroq bo'lsa-da, qator tanqidiy fikrlar bayon etilgan.

Taylor qarashlarining izdoshlari boshqa qator mamlakatlarda ham mavjud edi va shu bois juda tez muddatda evolyutsionizm etnologiyada yetakchi nazariyaga aylangan.

Evolyutsionizm qator ingliz sotsial antropologlari, xususan, Jon Lyobbok («Tarixgacha bo'lgan vaqt», 1865)<sup>1</sup>, Jon Mak Lennon («Ibtidoiy nikoh», 1865 )<sup>2</sup> Genri Meyn («Ibtidoiy huquq», 1861 )<sup>3</sup>larning metodologik qarashlari uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qildi. Ayniqsa, bu borada ingliz antropologi J. Frezer-ning asarlari juda ham mashhur bo'ldi<sup>4</sup>.

<sup>1</sup> Lubbock J. Prehistoric times, as illustrated by ancient remains, and the manners and customs of modern savages. L., 1865.

<sup>2</sup> McLennan J. F. Primitive marriage: An inquiry into the origin of the forms of capture in marriage ceremonies. Edinburgh, 1865.

<sup>3</sup> Maine H. S. Ancient law: Its connections with the early history of society and its relation to modern ideas. L., 1861; Мэн Г. С. Древнее право, его связь с древней историей общества и его отношение к древнейшим (бу о'rinda – «современным») bo'lishi kerak. – Ред. ) идеям. СПб., 1873.

<sup>4</sup> Frazer G. G. The golden bough. V. 1 – 2. L.. 1890; O'sha muallif. Золотая ветвь. – М., 1980; O'sha muallif. Folklore in the Old Testament. L., 1923; O'sha muallif. Фольклор в Ветхом завете. – М., 1985.

Etnologiyada evolyutsionizm klassiklaridan biri ingliz faylasufi, biolog, psixolog va sotsiologi *Gerbert Spenserdir*. Spenser (1820 – 1903) evolyutsionizm g'oyasini, asosan, bir tomonlama tahlil qilgan. Uning fikricha, ibtidoiy jamiyat vakillari jismonan, aqlan va ruhiy jihatdan taraqqiy etmaganlar. Qolaversa Spenserning evolyutsionistik qarashlari ma'lum ma'noda irqchilik xarakterida bo'lgan.

Etnologiyada evolyutsionizm maktabi taraqqiyotida amerikalik olim *Lyus Genri Morgan* (1818 – 1881) ning ulkan xizmatlari bor.

Morgan havaskor olim va intuzist-tadqiqotchi bo'lgan. U o'zining qariyb 40 yillik faoliyatini dastlab AQShdagi hindu qabilasi – irokezlarni, so'ngra boshqa Amerika hindularini va o'zga yurtlardagi xalqlarni o'rganishga bag'ishlagan.

Darhaqiqat, Morgan yoshligidan hindu irokezlar hayoti bilan yaqindan tanish bo'lgan va hatto hindularning seneka qabilasi tomonidan o'g'il qilib olin-gan. Keyinchalik esa turli hindu qabilalar hayotini tadqiq qilish maqsadida ko'plab ilmiy safarlar yuushtirgan.

Jumladan, u amerikalik etnografiya maktabining tashkilotchilari orasida birinchilardan bo'lib maxsus ilmiy etnografik dala tadqiqotlari o'tkazgan olim hisoblanadi. Shuningdek, u etnologiyada birinchi bo'lib anketalash metodini qo'llagan, amerikalik sav-dogorlar, missionerlar va diplomatlarga ibtidoiy jamiyatdagi urug'chilik va oilaviy munosabatlarni o'rganish maqsadida ko'plab mamlakatlarga savolnoma anketalar yuborgan.

Morganning barcha qarashlari va turfa xil g'oyalari ni atroficha tavsiflash ancha mushkul. Uning etnik muammolarga oid asosiy qarashlari «*Qadimgi jamiyat*» (1877) nomli asarida mujassamlash-

gan<sup>1</sup>. Mazkur asarda Morgan etnologiyaning asosiy uch muhim muammosini, ya’ni insoniyat tarixida urug’chilik jamiyatining o’rni va ahamiyati, oilaviy-nikoh munosabatlarining shakllanish tarixi hamda insoniyat tarixini davrlashtirish muammosini batafsil tahlil qilgan.

Muallif o’zining «Qadimgi jamiyat» kitobida irokezlarning o’ziga xos jamoaviy tuzumini rekonstruksiya qilish asnosida ibtidoiy jamoa tuzumi asosan urug’chilik bo’lgan, degan xulosaga keladi. Morganning fikricha, insoniyat tarixini ikkita katta davrga bo’lish mumkin. Birinchisi, bu qabila va urug’larga asoslangan ilk – ijtimoiy jamoalar davri; ikkinchisi, hududiy va mulkchilik asosidagi so’nggi – siyosiy uyushmalar davri hisoblanadi. Morganning qarashlariga ko’ra, urug’chilik Osiyo, Yevropa, Afrika va Avstralaliyadagi qadimgi jamiyatlar uchun deyarli bir xil kechgan.

Xalqlarning urug’chilik jamoalarini tadqiq qilishda Morgan evolyutsion-tarixiylik prinsipini asos qilib olgan. U urug’chilikning qoldiqlarini Avustraliya qabilalari turmush tarzidan izlaydi. Urug’chilikning rivojlangan shakllarini jamoa taraqqiyotining yuqori pillapoyalaridan, ya’ni irokezlar orasidan izlagan. Urug’chilikning yakuniy shakli (patriarxat)ni u antik davrdagi yunonlarga xos, deb hisoblaydi. Ushbu vaziyatda uning ona urug’ining ota urug’iga aylanshi, mulkiy munosabatlarning o’rnatalishi va uning meros tarzda o’tkazilishi to’g’risidagi g’oyasi etnologiya uchun muhim va qimmatli hisoblanadi.

Hozirgi kunga kelib Morganning ko’plab qarashlari (urug’ ma’nosini mutloqlashtirish urug’ va nikoh munosabatlari tizimining noto’g’ri talqini, ayrim oila shakllarining xato rekonstruksiya qilinishi va

<sup>1</sup> Morgan L. H. Ancient society, or researches in the lines of human progress from savagery through ararism to civilization. Chicago, 1877.

shu kabilalar) deyarli eskirib jiddiy e'tirozlarga sabab bo'lganiga qaramay uning etnologiya fani taraqqiyotidagi o'rni beqiyosdir.

Nemis etnologiyasida evolyutsionizm nazariyasi rivojlanishida mashhur olim Genrix Shurts (1863 – 1903)ning katta o'rni bor. U o'z tadqiqotlarida madaniyat va uning ibtidoiy jamiyatdan to davlatchilik paydo bo'lgungacha bo'lgan davrdagi evolyutsiyasini tadqiq qilgan. U o'zining «Yosh darajalari va erkaklar uyushmalari» (1902) nomli mashhur kitobida birinchilardan bo'lib jamoat uyushmalarida yosh darajalarining tutgan o'rnini, ibtidoiy jamoalarda yashirin erkaklar uyushmalarining o'rnini yoritib berdi hamda hayvonlarni xonakilashtirish «o'yin», «ermak» natijasi tarzida sodir bo'lgan degan fikrni bildirgan<sup>1</sup>.

Avstriyada etnolog-evolyutsionistlar maktabining shakllanishida Julius Lippert (1839 – 1909) ning xizmatlari katta bo'lib, u boshqa evolyutsionist olimlardan farqli ravishda insonlar moddiy sharoiti evolyutsiyasiga jiddiy e'tibor qaratgan. Lippert dunyo xalqlari etnologiyasining turli yo'nalishlariga bag'ishlangan ko'plab monografiya va maqolalar muallifidir. Uning kitoblari dunyoning ko'plab tillariga tarjima qilingan<sup>2</sup>.

Xullas, evolyutsionistik maktab jamiyatning progressiv rivojlanish g'oyalari asosida insoniyatning rivojlanishi va uning madaniyati to'g'risidagi dastlabki tizimli konsepsiyani ilgari surgan.

**Evolyutsionizmning asosiy g'oyalari.** Klassik evolyutsionistik nazariya tarafдорлари, avvalo, insoniyat madaniyatining taraqqiyoti bilan bog'liq universal manbalar va qonuniyatatlarni yaratishga harakat qilganlar.

<sup>1</sup> Schurtz H. Altersklassen und Mannerbimde. Berlin, 1902.

<sup>2</sup> Qarang: Липперт Ю. История культуры. СПб., 1894.

– Evolyutsionizm tarafdorlari zamonaviy jamiyatda yashashlariga qaramay o‘z yozuvlariga ega bo‘lmagan xalqlarni qadimiyat qoldig‘i tarzida talqin qilishgan. Ularning madaniyatlarini o‘rganish «ibridoiy jamoa» madaniyatini yaxlit tarzda rekonstruksiya qilish imkonini beradi, deb hisoblaydilar.

– Tabiatda umumiy insonlar jamoasi mavjud. Shu bois barcha odamlar taxminan bir xil aqliy qobiliyatga ega. Ko‘pincha insonlar o‘xhash vaziyatlarda taxminan bir-biriga yaqin qarorlar qabul qiladilar. Bu vaziyat dunyoning barcha qismlarida insoniyat madaniyatining rivojlanishi umumiyligi va bir xil ekanligini aniqlaydi. Bu o‘rinda turli madaniyatlar o‘rtasidagi aloqalarning mavjudligi yoki mavjud emasligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etmaydi.

– Kishilik jamiyatida uzlusiz taraqqiyotning o‘rni bor, ya’ni soddalikdan murakkablikka o‘tilgani kabi madaniyatda ham xuddi jamiyatdagi singari asta-sekin o‘zgarishlar, miqdoriy o‘sish yoki kamayish yo‘lida pastdan yuqoriga qarab doimo uzlusiz rivojlanib boradi.

– Madaniyatning har qanday ko‘rinishi ilk davridan ma’lumdir. Uning keyingi shakllari qayta paydo bo‘ladi va oldingi ko‘rinishlar asosida shakllanadi. Bunda madaniyat rivojlanishi ko‘p pog‘onali va dunyodagi barcha xalqlar uchun yagona bo‘lgan bosqichlar asosida bo‘ladi.

– Xalqlarning madaniy farqi ularning rivojlanish darajasi bilan bevosita bog‘liqdir.

Evolvutsionizmning yuqoridagi asosiy tamoyillarini etnolog-sharhlovchilar muhim g‘oyaviy va amaliy xulosalarga aylantirganlar. Agar hamma xalqlar bir xil taraqqiyot yo‘lidan borsa, uning yuqori nuqtasida Yevropa madaniyati hamda sivilizatsiyasi turgan. Shu bois sayyoramizdagi barcha xalqlar va elatlar

oxir-oqibatda yevropa madaniyati bilan umumlashishi lozim. Qolaversa, yevropaliklar kolonial imperiyalarini barpo etishlari orqali mustamlaka xalqlarning madaniy taraqqiyotga erishishlariga ko'maklashadilar, degan g'ayriilmiy xulosaning ham paydo bo'lishiga sabab bo'lgan.

XIX asr oxirlarida etnologiya yo'nalishida to'plangan ilmiy materiallar evolyutsionizmning haqiqiy hayotga to'g'ri kelmasligini va kamchiliklarini ko'rsata boshlagan. Jumladan, evolyutsionizm tarafдорлари madaniyatdagi miqdoriy o'zgarishlardangina kelib chiqib madaniyat va uning tarkibiy qismlarining qayta tug'ilishi kelajakda paydo bo'ladigan barcha madaniyatlarning insoniyat tarixining bosqichlari bilan bog'lanishini taxmin qilgan holda tushuntirib bera olmadi. Ular hatto bunga harakat ham qilib ko'rma-ganlar. Yangi etnografik ekspeditsiyalar materiallari ko'pincha evolyutsionistik qarashlarni rad etgan va bu borada boshqacha qarashlarga zarurat sezар edi. Shu bois yangi antievolyutsionistik nazariyalar va maktablar paydo bo'lgan. Evolyutsionizmdan haf-salasi pir bo'lgan ayrim etnolog va antropologlar hatto o'zlarining nazariy xulosalaridan ham voz kechib, faqat *empirik* tadqiqotlarga olib borganlar.

**Diffuzionizm.** XIX asr so'nggi choragiga kelib etnologiya taraqqiyotida yangi davr boshlangan. Agar oldinlari bevosita etnografik kuzatuvlari ko'proq sav-dogarlar, missionerlar va sayyoohlar tomonidan bajarilgan bo'lsa, keyinchalik etnologiyaga oid amaliy tadqiqotlarni maxsus tayyorlangan mutaxassislar oldindan ishlab chiqilgan dasturlar asosida olib borganlar. Bu esa, o'z navbatida, fanda yangi qarashlar va nazariyalarning paydo bo'lishiga hamda etnologiyada evolyutsionizmning yakka hukmronlik mavqeining susayishiga olib kelgan. Qolaversa, bu

davrda evolyutsion metod asosida izohlash mushkul bo'lgan qator muammolar paydo bo'lgan.

Evolyutsionizmning inqirozi diffuzionistik matabning shakllanishiga olib kelgan. Etnologiyadagi diffuzionistik g'oyalarning asosiy maqsadi madaniyat yoki madaniyatning alohida ko'rinishlarini ma'lum bir makonda tarqalishi, ularning kelib chiqish hududlarini aniqlash va turli hududlar bo'ylab yoyilish yo'llarini hamda usullarini qayta tiklashni ko'rsatib berish hisoblangan.

«*Diffuziya*» tushunchasi aslida fizikadan o'zlashtirilgan bo'lib, fizikada mazkur ibora «yoymoq», «kirib kelmoq» ma'nolarini anglatgan. Etnologiyada diffuziya deganda xalqlarning o'zaro aloqasi – savdo, ko'chish, bir xalqning ikinchisini bosib olishi natijasida yuzaga keladigan madaniy ko'rinishlarning tarqalishi tushunilgan. Diffuzionizm ilmiy yo'naliш tarzida diffuziyaning tarixiy jarayonlarning asosiy mazmunini madaniyatlararo o'zaro aloqalar natijasida boshqalardan o'zlashtirish va ular birendan ikkinchisiga ko'chishini e'tirof etishidir. Evolyutsionistik nazariya tarafдорлари томонидан o'xshash madaniyatlarning o'zaro o'xshash sharoitlarda mustaqil tarzda paydo bo'lishi va rivojlanishiga oid g'oyalaliga qarshi diffuzionistlar ma'lum geografik mintaqalarda madaniy ko'rinishlarning paydo bo'lishi va bir markazdan boshqa hududlarga tarqalishiga oid o'ziga xos ilmiy qarashdagi g'oyani ilgari surgani bilan farqlanadi.

## **Diffuzionizmning mashhur vakillari**

*Fridrix Rattsel (F. Ratzel, 1844 – 1904)* – asosiy ishi «*Antropogeografiya*» («*Anthropogeographie*») nomli asari bo'lib u 1882-yilda chop etilgan;

*Erland Nordensheld (E. Nordenskiold, 1877 – 1938)ning asosiy tadqiqoti «Qiyosiy etnografik tadqiqot» («Comparative Ethnographical Studies») dir, u 1919-yilda e'lon qilingan;*

*Robert Grebner (R. Graebner, 1877 – 1934) – muhim asari – «Etnologiya uslubii» («Methode der Ethnologie») 1905-yilda nashr etilgan;*

*Vilgelm Schmidt (W. Schmidt, 1868 – 1954) – V. Koppersom (W. Koppers) bilan hammualliflikda nashr etilgan «Tarixiy madaniy etnologiya metodlariga oid muhim kitob» («Handbuch der Methode der kulturhistorischen Ethnologie») – 1937-yilda chop etilgan;*



*Fridrix Ratsel  
(1844–1904)*

*Leo Frobenius (L. Frobenius, 1873 – 1938)ning asosiy asari «Madaniyat haqidagi tabiiy-ilmiytal'limot» («Die natur wissenschaftliche Kulturlehre») bo'lib, u 1899-yili nashr etilgan.*

*G. Eliot Smit (G. Elliot Smith)ning asosiy tadqiqoti – «Madaniyat» («Sulture. The Diffusion controversy») asaridir. Mazkur asar*

*1928-yilda e'lon qilingan.*

Etnologiyada diffuzionizmning asoschisi sifatida Myunxen universiteti professori *Fridrix Rattsel* e'tirof etiladi. U ilk bora madaniyat ko'rinishlarini turli madaniy hududlar va mamlakatlar bo'yicha tarqalish qonuniyatiga e'tibor qaratgan. Evolyutsionistlarda «madaniyat ko'rinishlari mavhum bo'lib, o'z-o'zidan paydo bo'ladi» degan qarash ustuvor edi.

Rattsel o'z qarashlari «Antropogeografiya» (1882), «Xalqshunoslik» (1885) va «Yer va hayot» (1891) nomli ko'p jildlik asarlarida mujassamlashtirdi. Jumladan,

u «Antropogeografiya» asarida moddiy madaniyat namunalari (etnografik buyumlar va ularning atamalari) geografiyasining turli xalqlarda tarqalishi bilan bog'lab tadqiq qilgan. Rattselning fikricha, tabiiy muhit ta'sirida shakllangan madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro farq ushbu xalqlarning bir-birlari bilan doimiy etnomadaniy aloqalari ta'siri natijasida asta-sekinlik bilan silliqlanib boradi. Rattsel o'z tadqiqotlari-da bir xalqning boshqa xalq tomonidan qo'shib yoki bosib olinishi, turli irqlarning o'zaro birikishi, etnomadaniy savdo aloqalari va ularning turli shakllariga alohida ahamiyat qaratadi va ularni bat afsil tahlil qiladi. Aynan mana shunday aloqalar natijasidagi na madaniyat keng hududlarga yoyilishi mumkin. Amaliyotda esa bu til va irq xususiyatlaridan muhim-roq bo'lgan etnografik ashyolarning tarqalishi shakli-da namoyon bo'ladi.

Irqlar doimo o'zaro qo'shilib boradi va shuning uchun ham deyarli barcha irqlar hozirda aralash holda yashashini kuzatish mumkin. O'z navbatida shuni ham alohida ta'kidlab o'tish joizki, xalq hayotida til etnik belgi tarzida irqqa nisbatan birmuncha mustahkam hisoblanadi, lekin vaqtlar o'tishi bilan o'zaro etnomadaniy aloqalar natijasida u ham ma'lum ma'noda o'zgaradi yoki bir til ikkinchisiga o'zaro yaqinlashadi. Moddiy madaniyat ashyolari esa boshqa madaniyat ko'rinishlariga qaraganda o'zing shakli va tarqalish hududini birmuncha ko'proq namoyon etadi. Rattselning fikricha, xalqlar hayotida sodir bo'lgan turli xil etnojtimoiy o'zgarishlar yo'q bo'lib ketgan holda etnografik predmetlar qanday bo'lsa shundayligicha qoladi va shuning uchun ham madaniyatni ilmiy o'rganishda etnografik ashyolarning o'rni beqiyosdir.

Rattsel g'oyalari nafaqat nemis xalqshunoslik fani, balki qator yevropa mamlakatlari etnologi-

ya fani taraqqiyotiga ham katta ta'sir qildi. Rattsel «Xalqshunoslik» (1885 – 1888) nomli asarida juda katta miqdorda yig'ilgan va tizimlashtirilgan materiallari asosida insoniyat madaniyatining tabiat bilan bevosita bog'liqligini isbotlab berishga harakat qilgan. Bunda u tabiat taraqqiyotida geografik faktorni mutloqlashtiruvchi geografik determinizm tarafdoi bo'limgan va tarixiy taraqqiyot faktorini e'tirof etgan. Aynan bu qarashi uchun ayrim mualliflar uni ayblaganlar. Rattselning *madaniy hududlar* borasidagi qarashlari keyingi ko'plab etnologik tadqiqotlarga asos bo'lgan va keyinchalik *xo'jalik-madaniy tiplar* hamda *tarixiy-etnografik viloyatlar* nazariyalari tarzida mashhur bo'lgan.



*Leo Frobenius  
(1873–1938)*

Rattselning shogirdi hisoblangan *Leo Frobenius* (1873 – 1938) etnolog, arxeolog va folklorshunos olim sifatida shuhrat qozongan. U birinchi marta diffuzionizm nazariyasi asosida *madaniyat morfologiysi* nomli konsepsiyasini va *madaniy doiralar* nazariyasini yaratgan olimdir.

U Germaniyaning Frankfurt-na-Mayn shahrida Madaniy morfologiya institutiga asos solgan bo'lib, hozirda mazkur institut uning nomi bilan yuritiladi. Shuningdek, u tomonidan chiqarilgan «Paydeuma»

jurnali hozirda ham nashr qilinadi.

Leo Frobenius Afrika va boshqa mintaqalarda yashovchi xalqlar madaniyati bo'yicha mutaxassis bo'lib, Afrika, Avstraliya va Okeaniya xalqlari madaniyatini tadqiq etish borasida 12 marta ekspeditsiya uyushtirgan va olib borgan ilmiy tadqiqotlari asosida Afrikaning etnik xaritasini yaratgan. O'z

navbatida shuni ham uqdirib o'tish joizki, mazkur xarita bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Afrikashunos olim o'z ekspeditsiyalarining materiallarini va ularning nazariy xulosalarini 1888-yilda nashr etilgan «Afrika madaniyatining kelib chiqishi» nomli monografiyasida bayon qilgan. Uning fikricha, madaniyat misli tirik organizm bo'lib, undagi o'zgarishlar hayotning umumiy qonunlari bilan chambarchas bog'liqdir. Olim tomonidan Afrika va Melaneziya xalqlari madaniyatlarini o'zaro taqqoslab o'rganish asnosida madaniyatdagi o'zgarishlar alohi-da elementlarning tarqalishi emas, balki bir butun yaxlit madaniyat ko'rinishlariga bog'liq butun yaxlit tizim hisoblanadi, degan xulosoga kelingan.

O'z navbatida shuni ham unutmaslik kerakki, muallifning madaniyatning kelib chiqishiga oid mu-lohazalarida ayrim mifologik qarashlarni ham kuza-tish mumkin. Chunonchi, u madaniyatni misoli tirik organizm tarzida tasavvur qiladi va madaniyat ham xuddi tirik organizm kabi dunyoga keladi, turli yosh bosqichlarini bosib o'tib, oxir-oqibatda umrini tugatib barham topadi, degan g'oyani ilgari surgan. Bunda muallifning fikrcha, madaniyat odamlar tomonidan yaratilmaydi, balki o'z-o'zidan rivojlanib boradi. Leo Frobenius qarashiga ko'ra, insoniyat madaniyatning yaratuvchisi emas, balki uning mahsuli yoki ob'ekti hisoblanadi. Lekin madaniyat insonlar tomonidan yaratilmasa-da, u odamlarsiz yashay olmaydi va keng miqyosda tarqalishi ham mumkin emas. Insonlar madaniyatni yaratuvchisi emas, balki uzatuvchisidir.

Fronbeniusning fikricha, har bir madaniyat o'zi-ga xos xususiyatga ega. Qolaversa, u madaniyatni ijtimoiy muhitdan tashqarida, mistik ko'rinish tarzi-da talqin qiladi va uni ikkiga, ya'ni erkak va ayloga bo'ladi. Mashhur olim qarashlarini ekspeditsiyalar jarayonida yiqqan dala materiallari orqali isbotlash-

ga harakat qiladi. Jumladan, u Afrikada olib borgan tadqiqotlariga asoslanib, Afrika madaniyatini ikki-ga – telluruit – efiopiya – patriarchal va xtonik – xamitik – matriarxatga bo'ladi.

Nemis tilli xalqlar orasida diffuzionizmning ko'zga ko'ringan yirik namoyandalaridan biri *Robert Grebner* bo'lgan. Uning fikricha, evolyutsionistlar turli xalqlar madaniyatlaridagi o'xshash xususiyatlarning sabablarini elementar g'oyalari yoki tabiiy sharoit bilan bog'liq bo'lganmi? degan qarashni isbotlash uchun asoslarini ishlab chiqmagan. Shu bois Grebner etnologiyaning asosiy muammozi madaniyatning tarixiy-madaniy aloqalariga yoki mustaqil kelib chiqishi-ga oid tadqiqotlar metodini ishlab chiqishga qaratgan. U asosiy qarashlarini 1905-yilda nashr etilgan «*Etnologiya uslubi*» nomli kitobida mujassamlagan.

*Robert Grebner* Frobenius va Rattsel qarashlari asosida madaniy qarashlarga suyangan holda ibtidoiy jamoa davri tarixini rekonstruksiya qiluvchi nazari-yani yaratgan. U o'z qarashlarini isbotlash maqsadi-da yer yuzidagi barcha xalqlarning davlatchilikkacha bo'lgan madaniyatini oltita yirik madaniy doira yoki madaniy guruhlarga bo'lib chiqqan. Grebner olib borgan ilmiy izlanishlari natijasida insoniyat tarixida hech qanday takroriy holatlar bilan bog'liq qonuniyat mavjud emas, degan xulosaga kelgan. Madaniyatdagi etnik jarayonlarning takrorlanishi juda kam uchray-digan holatdir. Shubhasiz, bu o'rinda etnologlar ko'plab o'xshash holatlarga emas, balki yagona ko'ri-nish bilangina to'qnashadilar.

O'ziga xos Diffuzionizm maktabi Daniyada ham shakllangan. Bu mamlakatda ushbu mактабнинг yirik namoyandalari – Kay Birket-Smit va Knut Ras-mussenlar bo'lgan. Ular XX asrning dastlabki chora-gida Grenlandiya, Alyaskaga qilgan doimiy ekspeditsiyalari jarayonida eskimoslarni maxsus o'rgangan.

L. Frobenius va F. Rattsellarning tadqiqot metodi va nazariyalarini jalg qilgan holda ular eskimos madaniyatini tarixiy shakllanishiga oid yig'ilgan boy materialarni tahlil qilganlar.

Diffuzionizmga oid mulohazalarni yakunlar ekanmiz xulosa tarzida shuni ta'kidlash kerakki, mazkur oqim turli mamlakatlarda turlicha taraqqiy etganiga qaramay, ularning umumiy jihatlari tarzida quydagilarni e'tirof etishimiz mumkin:

– Madaniyat ma'lum bir geografik hududda paydo bo'ladi va keyinchalik boshqa mintaqalarga tarqaluvchi misoli tirik organizm tarzida tasavvur etiladi.

– Har bir madaniyat o'zining paydo bo'lish hududi va tarqalish mintaqasiga ega. Ushbu madaniyat markazlarini izlab topish va tadqiq qilish etnologiyaning asosiy vazifasidir.

– Madaniyat rivojlanishining asosiy omillari o'zlashtirilgan xususiyatlar va aralash madaniy elementlar hisoblanadi. O'zaro qorishgan madaniyatlar nafaqat moddiy madaniyat, balki ma'naviy madaniyat ko'rinishlari hisoblangan miflar, e'tiqodlar, odatlar va boshqa shu kabilarni ham jalg etadi.

– Har bir madaniyat ko'rinishi bir marta paydo bo'ladi; uning tarqalish manzarasini tasavvur qilish orqali turli ko'rinishi va dastlabki paydo bo'lgan hududini aniqlash mumkin.

Diffuzionizmning asosiy g'oyasi – madaniyatning o'zlashtirilishi, kirib kelishi g'oyasi qonuniy va nati-jali bo'lgan. Evolyutsionistlarning madaniyatni abstrak tahliliga oid evolyutsionistik talqinidan farqli tarzda diffuzionistlar turli xalqlar madaniyatlarining geografik aniqliligi hamda aloqadorligi to'g'risidagi qarashni ilgari suradilar. Bu borada turli madaniyatlarni taqqoslab tahlil etuvchi yo'lni mukammal yo'l sifatida bayon qilganlar.

## 7-§. Sotsiologiya maktabi va funksionalizm

Yevropa mamlakatlari etnologiya fanida diffuzionizm maktabi bilan bir vaqtida sotsiologiya maktabi shakllangan va bu maktab ilmiy jihatdan qaraganda diffuzionizmga nisbatan birmuncha sermahsul bo'lgan. Agar evolyutsionizm asoschilari etnologiyaning asosini insonda, diffuzionistlar esa madaniyatda deb bilgan bo'salar, sotsiologiya maktabi vakillari jamiyatda, deb hisoblaganlar. Ushbu yo'nalish vakillarining bunday xulosaga kelishlarining boisi ular orasida «jamiyatni oddiy individlarga kiritib bo'lmaydi», degan qarash ustuvor edi.

### Sotsiologiya maktabining mashhur vakillari.

*Emil Dyurkgeym (1858 – 1917)* – uning asosiy ishlari: «*Jamoaviy mehnatning bo'linishi*» (1893), «*Sotsiologik metod qoidalari*» (1895), «*Diniy hayotning oddiy shakllari*»<sup>1</sup>.

Sotsiologiya maktabi vakillarining ta'kidlashlaricha, jamiyat odamlar orasidagi o'zaro ongli aloqalari nati-jasida tashkil topgan. Bu maktab vakillari etnologiyaning asosiy predmeti sifatida jamiyatni bildilar. Sotsiologiya maktabi vakillari jamiyatga odamlarni o'zaro bog'lab turuvchi

kuchga ega bo'lgan axloqiy (moral) aloqalar tizimi sifatida qaraydi.

U XIX asrning oxirgi o'n yilligida etnologiyada yangi yo'nalish – sotsiologiya maktabiga asos soldi. Emil

<sup>1</sup> Qarang: Durkheim E. De la division du travail social. – P., 1893; O'sha muallif. Les regies de la methode sociologique. – P., 1895; O'sha muallif. О разделении общественного труда. – М., 1991; O'sha muallif. Метод социологии. – М., 1991.

Dyurkgeym «L'Annee sociologique» nomli jurnal chop ettirdi va uning atrofida fransuz sotsiologiya maktabi shakllangan, deb aytish mumkin.

*Dyurkgeym sotsiologiyasi jahon etnologiyasida yangi nazariy yo'nalishlarning shakllanishiga, jumladan, Britaniya funksionalizmining shakllanishiga turtki bo'ldi. U etnologik tadqiqotlarda tizimlilikni olib kirdi, ya'ni har bir sotsial hodisaga bu konsepsiaga ko'ra ijtimoiy aloqa sifatida qaraladi, ular ijtimoiy ehtiyoj orqali hayotga kirib keladi va jamiyat funksiyasining foydali bo'lishiga xizmat qiladi.*

Dyurkgeym evolyutsionistlarga qarama-qarshi turgan holda, *kishilik jamiyatini* insonlarning atrof-muhit sharoitiga moslashuvining tadrijiy bosqichi emas, balki *sotsial faktlarni* o'rganish metodi yordamida tadqiq etish lozim bo'lgan, yopiq statistik tizim deb qaraydi. U jamiyatni sotsiologik faktlar orqali tadqiq qilish g'oyasini ilk marotoba taklif etgan va fanga ijtimoiy tur atamasini olib kirgan. O'z navbatida Dyurkgeym madaniyatni tasniflashda eng sodda jamoa – ibtidoiy jamoani asos qilib oladi.

Olimning fikricha, mazkur jamoa o'z taraqqiyoti davomida murakkab jamoaviy tizimni bosib o'tib urug'ga aylanadi. Keyinchalik undan qator jamoa, elat, xalq kabi yangi jamoa va uyushmalar paydo bo'ladi. Dyurkgeymning mulohazalariga ko'ra har qanday jamoa ibtidoiy jamoaning murakkablashgan shakli hisoblanadi.

Shunday qilib Dyurgeymning asosiy qarashlari quyidagilarda mujassamlashgan:

– jamiyatni sotsial faktlarni o'rganish orqali tadqiq qilish lozim. *Sotsial faktlar* – bu, alohida individ-

larga nisbatan tashqi munosabat, ularning sub'ektiv xohish-istiklariga tobe bo'lмаган va bu xohishlarga nisbatan majburlovchi kuchga ega bo'lgan ijtimoiy hayotdagi hodisalardir;

– insonning ongi ikki shaklda mavjud: individual va jamoaviy. Bunda jamoaviy tasavvurlar jamiyat mustahkamligini ta'minlaydigan «**jamoaviy tasavvurlar**» ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bunda madaniyatning va, shu jumladan, dinning ham vazifasi kollektiv ong orqali jamiyatni birlashtirish hisoblanadi;

– *sotsial faktlarning* kattagina qismi jamoaviy tomonidan qabul qilingan, jamoaviy holatni qamrab oladigan – e'tiqod, intilish, guruuhlar marosimi kabilarda namoyon bo'ladi.

Dyurkgeym g'oyalari uning qator shogirdlari tomonidan davom ettirilgan bo'lib, ularning eng mashhurlari M. Moss, K. Levi Stross, M. Grene, L. Levi Bryullpardir.



*L. Levi Bryul  
(1857 – 1939)*

Fransuz sotsiologiya maktabi vakillari orasida Lyusen Levi Bryul g'oyalari alohida diqqatga sazovor g'oyalardan biri hisoblanadi. U o'z qarashlarini «Ibtidoiy tafakkur» (1930) nomli asarida batafsil izohlashga harakat qilgan<sup>1</sup>. U Dyurkgeymdan farqli tarzda «ibtidoiy xalqlarning mantiqqacha bo'lgan tafakkuri» nomli nazariyani yaratgan.

Sotsiologiya maktabi vakillari jamiyatga odamlarni o'zaro bog'lab turuvchi kuchga ega bo'lgan axloqiy (moral) aloqalar tizimi sifatida qaraydi.

Levi Bryul E. Dyurkgeymning jamoaviy tasavvur konsepsiysi tarafdori hisoblanadi va bunday tasav-

<sup>1</sup> Levy-Bruhl L. La mentalite primitive. – P., 1922; O'sha muallif. Первобытное мышление. 1930.

vurni insonning shaxsiy hayotiy tajribalari asosida emas, balki ijtimoiy muhit, tarbiya, ijtimoiy fikr, urfodat va marosimlar orqali paydo bo'ladi deydi hamda uni rivojlantirib mantiqsiz tafakkur konsepsiyasini ishlab chiqqan. Uning fikricha, *mantiqqa tayanmagan tafakkur umuman olganda ibtidoiy odamni hozirgi davr kishisidan ajratadi, bunday tafakkurda sub'ekt va ob'ekt, sabablar va oqibatlar o'tasida chegara yo'q.*

Levi Bryul ta'kidlashicha, ibtidoiy odam tevarak atrofdagi hodisalarini tushuntirishga javob izlamaydi yoki bu hodisalarini u asl holida qabul qilmaydi, sirli kuchlar to'g'risidagi, narsalarning magik xususiyatlari to'g'risidagi butun emotsiyalarini jamlagan holda hodisalarini bir-biri bilan bog'lamaydi.

Xullas, XX asrning 20 – 30-yillarida mustamlaka xalqlar orasida yig'ilgan etnografik materiallar shuni ko'rsatdiki, ibtidoiy odamlarning «mantiqqacha tafakkuri», asosan, diniy sohada namoyon bo'ladi, amaliy hayotda esa ularning voqelikka ongli (ratsional) qarashi yevropaliklar tafakkuridan farq qilmaydi. Yevropaliklarning tafakkuri ham diniy, mafkuraviy yoki ma'naviy hayotda Levi Bryul yozgan afsungar va shomonlarning aqlga zid keluvchi (irratsional) tafakkuridan kam farq qiladi.

Sotsiologiya maktabining yana bir yirik vaki Marsel Moss (1872 – 1950) dir. U Fransiyada etnologiyani alohida fan sohasi darajasiga ko'tardi. Olim «maqsadli sotsial faktlar» konsepsiyasini ishlab chiqdi. Bu konsepsiya amalda qo'llangan tadqiqotlardan biri «Soug'a haqida ocherk» (1925)dir. Unda arxaik jamiyatlarda in'om etish murakkab hodisa bo'lib, «berish – olish – qaytarish» formulasida aks etadi. Har bir akt (harakat) muqarrar va ularga markaz (fokus)dagi kabi jamiyatning barcha asosiy institutlari kiradi: ijtimoiy darajalar tizimi, diniy tasavvurlar, iqtisodiy aloqalar.

Umuman olganda, sotsiologiya maktabining asosiy g'oyalari quyidagilarda aks etgan:

– har bir jamiyatda mazkur jamiyatning muhim asosini tashkil etuvchi «jamoaviy tasavvurlar» mavjud;

– har bir jamiyatda o'zining *axloq-odob me'yorlari* (ma'naviyati) mavjud hamda u o'zgaruvchan va o'zgarishlarga boy (dinamik)dir;

– madaniyatning funksiyasi jamiyatni erkinlashtirish va odamlarni yaqinlashtirishdan iborat;

– bir jamiyatdan ikkinchisiga o'tish qiyin bir jarayon bo'lib bu ravon tekis tarzda emas, balki sakrash yo'li bilan amalgalashadi.

**Funksionalizm.** Etnologiyada sotsiologiya maktabi g'oyalari taraqqiyotining mantiqiy davomi tarzida funksionalizm shakllangan. Agar diffuzionizmning vatani Germaniya, sotsiologiya maktabining vatani Fransiya bo'lsa, funksionalizm Angliyada paydo bo'lgan va XX asrning 20- yillariga kelib etnologiyadagi yetakchi oqimlardan biriga aylangan.

Etnik jarayonlarni tadqiq qilishda funksionalizmning farqli xususiyati shundan iboratki, mazkur yo'nalish tarafdorlari madaniyatni o'zaro aloqador umumlashgan xususiyatlardan tashkil topgan, deb hisoblaydilar. O'z navbatida, shuni ham alohida ta'kidlab o'tish joizki, funksionalizm tarafdorlari uchun madaniyatning tarixiy o'zgarishi muammosi muhim ahamiyat kasb etmagan. Ular uchun madaniyat qanday harakatlanadi? Qanday vazifalarini bajaradi? Va qanday tarzda mahsulot beradi? degan muammolar yechimini izlab topish dolzarb hisoblangan.

*Funksionalizmning mashhur namoyandalari.* – R. Turnvald (R. Thurnwald, 1869 – 1954) – asosiy kitobi – «Kishilik jamoasining ijtimoiy asosi» («Die

menschliche Gesellschaft in ihren soziologische Grunlagen») bo'lib, 1931-yilda nashr etilgan.

– *B. Malinovskiy* (*B. Malinovski, 1884 – 1942*) – asosiy asari «Madaniyatning ilmiy nazariyasi» («A Scientific Theory of Sulture») deb nomlanib, 1944 -yilda chop etilgan.

– *A. Radkliff Braun* (*A. Radkliff Braun, 1881 – 1955*) – asosiy tadqiqoti – «Primitiv jamoaning tuziliishi va funksiyasi» («Structure and Function in Primitive Society») – 1952-yil nashr etilgan.

Ilk marotoba funksionalistik nazariya nemis etnologi Rixard Turnvald tomonidan yaratilgan. Biroq Germaniyada funksionalizm keng ommalashmagan va Germaniyaga qo'shni bo'lgan Angliyada mashhur ilmiy maktab tarzida shakllangan hamda ijtimoiy va madaniy antropologiya taraqqiyotida o'ziga xos o'runga ega bo'lgan. Shubhasiz, mazkur yo'naliqhing yirik namoyandalaridan biri mashhur olim Bronislav Malinovskiydir.



*B. Malinovskiy (o'rtada) Trobpiant orolining mahalliy aholisi orasida*

*B. Malinovskiy* (1884 – 1942). Bronislav Malinovskiy etnologiyadagi mashhur klassik olimlardan biri. U Krakov shahrida tug'ilgan va tahsil olgan. Yangi Gvineya va Melaneziyada etnografik dala tadqiqotlarni olib borgan. 1927 – 1938-yillar mobaynida London iqtisodiyot maktabida ishlagan, 1938-yil AQShga immigrant bo'lib ketgan va umrining oxiri (1942-yil) gacha Yel universitetida ishlagan.

Malinovskiy madaniyatga oid empirik nazariyani yaratgan. Olim o'zining nazariyasini yaratish jarayonida oldingi tadqiqotchilarni dala etnografik ekspeditsiyalar o'tkazmaganlikda va faqatgina muzey materiallarini o'rganish bilan chegaralanib qolganlikda tanqid qilgan. Shubhasiz u olib borgan dala tadqiqotlari jarayonida juda ham qiziqarli ilmiy xulosalarga kelgan. Malinovskiyning kuzatishicha, etnologiya ko'pincha qandaydir psixologik gipoteza yoki faqatgina biror buyum yoki premetni tavsif qilish bilangina cheklanib qolmasligi lozim. Uning fikricha, tashqi kuzatuv ko'pincha anglashilmovchilikka olib kelishi mumkin. Shu bois ichki xususiyatlarni chuqur anglamasdan turib madaniyatni yaxlit tarzda tushunib bo'lmaydi. Bu o'rinda ma'lum bir buyumni nafaqat tavsiflash, balki u qanday yaratilgan, qay tarzda va qanday vaziyatda ishlatish mumkin, ushbu ashyo kimga tegishli va kim tomonidan ishlatilishini ham tadqiqotchi anglay bilishi lozim. Mashhur ingliz tadqiqotchisi etnologiya fanining tavsifyi xususiyatiga qarshi bo'lib, bu faqatgina madaniyatning ayrim xususiyatlarinigina aks ettiradi, degan xulosaga kelgan.

Malinovskiyning madaniyat nazariyasiga oid qarashlari 1944-yilda ingliz tilida nashr etilgan «*Madaniyatning ilmiy nazariyasi*» nomli kitobida bayon qilgan. Uning fikricha, madaniyat faqatgina insonlarga xos biologik xususiyat bo'lsa-da, insonlar ham tirik jonzotlar hisoblanadi. Shu bois u o'zining



qondirish usullari bilan izohlash mumkin. Shu bois ham madaniyat moddiy va ma'naviy madaniyatga bo'linadi.

O'z navbatida B. Malinovskiy antropologiya va etnologianing muhim vazifalarini, jumladan, dunyo madaniyatlarini tadqiq qilishni asos qilib olgan dastlabki etnologik maktab vakillari qarashlari borasida ham o'zining munosabatini bildirib o'tgan. Ayniqsa, u mashhur olim E. Tayloring «qoldiqlar metodi»ni jiddiy tanqid ostiga olgan. Uning fikricha, ushbu uslub asosida tadqiqotlar olib borgan ko'pgina olimlar har bir narsa yoki ko'rinishdan qoldiqli xususiyatlarni izlaganlar. Aslida esa har doim ham qoldiqli ko'rinishlar emas, balki madaniyat ko'rinishlari bo'lib, undagi eski ko'rinishlar o'rnini yangilari egallagan. Malinovskiyning fikricha, qoldiqli ko'rinishlar etnologiya faniga jiddiy zarar yetkazgan va u madaniyat ko'rinishlarining o'zaro funksional bog'liqligi munosabatlarga ziddir. Olimning tasdiqlashicha, madaniyatda hech qanday ortiqcha, tasodifiy yoki qoldiqli ko'rinish bo'lmaydi. Madaniyatdagi barcha ko'rinish yoki holat ma'lum bir funksiyani bajaradi. Agar unday bo'limganda edi bunday ko'rinishlar allaqachonlar

iste'moldan chiqib ketgan bo'lar edi. Jumladan, qandaydir bir urf-odat bir jarayonda qo'llanilar ekan, demak u nimagadir zarur. Qolaversa, B. Malinovskiy diffuzionistlarni ham tanqid ostiga oladi. Uning fikricha, diffuzionistlarning katta xatolaridan biri mazkur oqim tarafdorlari madaniyatni tirik bir organizm tarzida emas, balki jonsiz buyumlar majmuidan iborat deb hisoblaganliklaridir.



*A. Radcliffe Braun  
(1881 – 1955)*

Alfred Radcliffe Braun Kembrij universitetida o'qigan. Universitetdagi o'qishni tugatgandan so'ng Avstraliyada Andaman orollaridagi aborigenlar orasida va Afrikada etnografik tadqiqotlar o'tkazgan. Kapshtadta, Sidney universitetlarida ishlagan. Ilmiy faoliyatining oxirgi 20 yilini Oksfordda olib borgan. 30-yillar oxiridan boshlab Buyuk Britaniya Qirolligi etnografiyasi instituti prezidenti bo'lgan.

Alfred Radcliffe Braun Riversning shogirdi bo'lib, fanda *ingliz strukturalizmi yoki strukturaviy funksionalizm* degan yangi yo'nalishni olib kirgan. Bu yo'nalishning o'ziga xosligi shundaki, u jamiyat hayotini, odamlar ongi va munosabatlari hamda madaniyatini funksional va strukturaviy tahliliga oid qarashlarni umumlashtiradi. Radcliffe Braun o'zining asosiy qarashlarini 1950-yilda chop etilgan «*Etnologiya va sotsial antropologiya metodi*» va 1952-yilda e'lon qilingan «*Madaniyatning tarixiy va funksional talqini*» hamda «*Primitiv jamoaning tuzilishi va funksiyasi*» nomli kitoblarida ifoda etgan.

Radcliffe Braun qarashlariga ko'ra, insonni o'rganuvchi asosiy fan antropologiya bo'lib, uch asosiy yo'nalishga – odam biologiyasi, qadimiy arxeologiyasi.

ya va etnografiyaga bo'linadi. Etnografiya esa, o'z navbatida, etnologiya va sotsial antropologiyadan tashkil topgan bo'lib, ularning har biri o'ziga xos maxsus uslublariga egadir.

Etnologiya deb u alohida xalqlarni aniq tarixiylik prinsiplari asosida o'rganuvchi, ularning ichki taraqqiyoti, o'zaro madaniy aloqalarini tahlil etuvchi fanga nisbatan qo'llashni tavsiya etgan. Muallifning qarashicha, etnologiyaning asosiy metodi yozma manbalar asosida insoniyat madaniyatini tarixiy rekonstruksiya qilishdir.

Uning fikricha, ijtimoiy antropologiya insoniyat madaniyatini o'rganishda umuman boshqacha yo'nalishni aks ettiradi. Uning vazifasi aniq bir xalqlar madaniyatini rekonstruksiya qilish emas, balki xalqlarning ijtimoiy va madaniy taraqqiyotidagi umumiy qonuniyatlarni izlab topishdir. Ushbu fan tabiiy fanlarning induktiv va analogik metodlaridan foydalanadi.

Induktiv metodning mohiyati materiallarni ajratib tanlab olish va umumlashtirish bo'lib, bu madaniy ko'rinishlarni o'rganishga taalluqlidir.

## **8-§. Etnopsixologiya maktabining shakllanishi**

Ma'lumki, XX asrning 30-yillarigacha Amerikada etnologiya mashhur olim Frans Boas maktabi ta'sirida rivojlangan.

Frans Boas g'oyalari bir necha o'n yillar oldin nafaqat psixologik antropologiya, balki madaniy antropologiyaning qator dastlabki asosiy magistral yo'nalishlari uchun asosiy pillapoya bo'lib xizmat qilgan. Boasni tadqiqotchilar zamonaviy etnologiyaning me'mori, deb hisoblaydilar. U, avvalo, evoly-

utsionistlarning kishilik jamoasi, ijtimoiy institutlar, madaniy quyidan yuqoriga qarab taraqqiy etib bora-di, degan ta'limotiga keskin qarshi chiqqan.



*Frans Boas  
(1858 – 1942)*

Boas o'zidan oldingi tadqiqotchilar mavhum yoki noto'g'ri xulosalar-ga kelgan va shu bois etnologiyani yangidan yaratmoq zarur degan xulosaga kelgan. U yangidan etnografik materiallar yig'ish uchun oldingi tadqiqotchilardan ko'proq dala ekspeditsiyalari tashkil etish va ular asosida yangi konsepsi-yalar yaratish zarur, deb hisobla-gan. Bu borada Amerika makta-bining vakillari o'zlarining dala tadqiqotlarini o'tkazish jarayonida ko'plab psixologik uslublardan foydalangan. Natijada psixologik antro-poliyaga oid ko'plab ma'lumotni yig'ishga muyassar bo'lingan. Psichoantropologik nazariyaga bo'lgan ehti-yoj natijasida etnopsixologiya maktabi taraqqiy etadi.

Etnologiyada psixologik yo'nalish o'z taraqqiyoti jarayonida o'zining konseptual vorisligini saqlagan holda bir necha marotaba nomini almashtirgan. Maz-kur yo'nalish dastlab Frans Boasning tarixiy maktabi, keyinchalik Shaxs va Madaniyat maktabi, undan keyin «milliy xarakter»ni tadqiq qilish, XX asrning 60- yillardan boshlab to hozirgi kungacha esa psi-xologik antropologiya yoki etnopsixologiya nomi bilan yuritiladi.

Etnopsixologiya maktabi namoyandalarining ta'kidlashlaricha, «madaniyat» mavhum tushunchadan ko'ra kengroqdir, lekin bu borada birinchi o'rinda individ, shaxs turadi. Shu bois, ularning fikricha, har bir xalq madaniyatini tadqiq qilishda individ va shaxsni o'rganishdan boshlamoq joiz.

Dastlabki etnopsixologik konsepsiya etnologlar tomonidan emas, balki psixologlar, aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, Abram Kardiner (1891 – 1981) tomonidan yaratilgan. U o'z qarashlarini «*Individ va uning jamoasi*» (1937) va «*Jamiyatning psixologik chegarasi*» nomli asarlarida etnopsixologiya matabining asosiy g'oyalarini bayon qilgan. Uning fikricha, insonning shaxsiy xususiyatlari u tug'ilgandan keyingi dastlabki vaqtandoq shakllana boshlaydi. Bu shakllanish tashqi ta'sirlar va, ayniqsa, jamiyatdagi o'ziga xos bola parvarishlash usullari: ovqatlantirish, yo'rgaklash, ko'tarish, keyinroq esa yurishga, gapirishga va ozodalikka o'rgatish kabilalar orqali amalga oshadi. Shuning uchun ham inson ruhiyatining shakllanishi, asosan, 4 – 5 yoshgacha davom etadi va undan keyin mustahkamlanadi va butun umr deyarli o'zgarishsiz qoladi. Kardiner «asosiy shaxslar» tushunchasiga urg'u berdi.

Nafaqat Kardiner, balki AQSh etnopsixologiya matabining R. Linton, E. Sepir, R. Benedikt, M. Midkabi asoschilarini ham etnik farqlanish va madaniyatlarni dinamikasini «muhim shaxslar tarkibi» nazariyasi bilan bog'lab tushuntirishga harakat qilganlar. Jumladan, atoqli etnolog Rut Benidikt o'zining «Madaniyat namunalarini» (1934), «Janubiy G'arb madaniyatining psixologik tiplari» (1928), «Shimoliy Amerikadagi madaniyatlarning konfiguratsiyasi» (1932) kabi asarlarda turli madaniyatlarda o'ziga xos shaxslar jamoasi mavjudligi haqidagi qarashlarini bayon etgan. Kardiner tasavvuriga ko'ra, insonning shaxsiy qarashlari tug'ilgandan keyingi dastlabki kunlardandoq shakllana boshlaydi. Bu bevosita unga tevarak-atrof-dagilarning munosabatlari asosida shakllanadi. Bolalik davrida bo'lgan munosabat uning kelgusidagi hayot faoliyatida o'ziga xos iz qoldiradi.

Etnopsixologiya mакtabining nazariy-metodologik yo'nalishi madaniyat va shaxsning o'zaro ta'sirini aniqlashdan iborat bo'lgan. Ularning nazariyasiga ko'ra har bir madaniyat o'ziga xos shaxslar tipining egasidir va bolalar tarbiyasini o'rganish shaxs va madaniyat o'rtasidagi munosabatlar orqali shakllanadigan milliy xarakterni ochib berishda muhim vosita hisoblanadi.

XX asrning 30 – 40-yillariga kelib shaxs bilan madaniyat munosabati tushunchasi etnologiyaning dolzarb va asosiy muammosiga aylandi hamda tobora ko'proq etnolog olimlarning e'tiborini torta boshlagan edi. Mazkur muammo bo'yicha o'z nazariyalarini ilgari surgan olimlar ikki oqimni tashkil etdi: birinchi oqim vakillari «inson xarakteri faqat tarbiya natijasida shakllanadi» degan nazariyani ilgari survuchi Boasning madaniy deatamasizmi tarafdarlaridir (R. Benidikt, M. Mid), ikkinchi oqim tarafdarlari esa «neofreydizm (ya'ni turli madaniyat shaxs tiplari) – umumlashgan asosdagi cheklangan variatsiyaning natijasidir», – degan g'oya tarafdarlaridir (A. Kardiner, R. Linton, I. Xollouel).

Etnopsixologiya mакtabining rivojlanishida, shubhasiz, Boasning shogirdi M. Midning katta xizmatlari bor. U ustozining turli madaniylardagi tarbiya usuli shaxslar va ularga xos faoliyatlarni keltirib chiqarishi haqidagi fikrini quvvatlaydi hamda inson xulq-avori, faoliyati, shaxsiy xususiyatlarini biologik omil (irq) bilan emas, madaniyat bilan bog'liqligi haqida ilmiy xulosaga keladi.

M. Mid Samoa Admiralteystva (1928 – 1929, 1965 – 1967) orollari, Yangi Gvineya (1930 – 1933), Indoneziyaning Bali (1936 – 1940) orolida va boshqa hududlarda uzoq vaqt etnografik tadqiqotlarini olib bordi. Mazkur dala tadqiqotlari ma'lumotlari asosidagi

«Samoada balog‘atga yetish», «Uch ibtidoiy jamoalar-da jins va ehtiros», «Gvineyada voyaga yetish» kabi asarlari bilan M. Mid butun dunyoga tanildi.



*Margarid Mid  
(1863 – 1931)*

Mid fikriga ko‘ra, bolalar birinchi navbatda, atrofdagilar-ning xatti-harakatiga taqlid qilib ijtimoiy inson sifatida rivojlanadilar. Taqlid shakllaridan biri o‘yin hisoblanadi. O‘yinlarda ko‘pincha bolalar kattalarga taqlid qiladilar. Bola kattalarni kuzatib, loydan pirog

yasaydi, bog‘bon yoki dehqonga havas qilib belkurak bilan yer chopishga harakat qiladi. Bolalar o‘yini oddiy taqliddan to‘rt-besh yoshli kattalarga o‘xshab bajaradigan murakkab harakatlargacha tadrijiy yo‘lni bosib o‘tadi.

Buni Mid boshqalar rolini qabul qilish, ya’ni bosh-qalarga o‘xshashga o‘rganish, deb atagan. Xuddi shu bosqichda bolalarda o‘z shaxsi to‘g‘risida tuyg‘u paydo bo‘ladi.

Margarid Mid o‘zining faoliyati davomida 40 dan ortiq asar yozgan. U bir necha ilmiy jamiyatlar, xususan, Amerika antropologlar jamiyati raisi bo‘lgan. Mid vafotidan so‘ng 1978-yilda Amerika Prezidentining Ozodlik medali bilan mukofotlangan. Margarid Midning asosiy dala yozuvlari hozirda AQSh Kongressi kutubxonasida saqlanadi.

Etnopsixologik qiyofa tushunchasiga ham ko‘p tadqiqotchilar o‘z ta‘riflarini berib o‘tgilanlar. Masalan, rus tadqiqotchisi S. I. Korolyov shakllangan etnik qiyofa «ma’lum darajada muhofaza qiluvchi mexanizm

rolini o'yнaydi. U xuddi elakdek, yot narsalarни ajratib, uni yo qabul qiladi yoki uni shu xalqda mavjud bo'lgan normalar asosida qayta ishlab beradi, yoxud inkor qiladi», – deb ta'rif bergan. Bu ta'rifni biroz boshqacharoq talqin etadigan bo'lsak, etnoslarning psixologik qiyofasi – ularning atrofdagi vogelikni, hodisalarни o'ziga xos ravishda idrok, tafakkur, tasavvur qilishi ularga bo'lgan munosabatning urf-odat, an'analar, xarakter tarzida namoyon bo'lishidir.

Har bir xalqning psixologik qiyofasiga mos tarzda madaniyati, oilaviy va ijtimoiy munosabatlar tizimi, yosh va jinslar o'rtasidagi farqlanish, diniy e'tiqodga nisbatan munosabat va shu bilan bog'liq harakatlar, kayfiyatlar hozirgi davrda esa siyosiy jarayonlarga munosabatlar ham shakllanadi.

Muayyan bir etnik guruhlar ma'lum bir tarixiy rivojlanish bosqichida o'ziga xos ruhiy-axloqiy xislatlarga ega bo'lib boradi va bu hol ularning madaniyatiga ham kuchli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, biz ruhiy-axloqiy xislatlarimiz va shunga bog'liq turmush tarzimiz bilan xuddi shu makonda bir asr oldin yashagan o'z ajdodlarimizdan ancha farq qilamiz.

XX asrdagi AQSh etnopsixologiya maktabining asosiy xususiyatlari madaniyatni shaxs orqali tush-untilishga intilish, insonning bolalik davriga, ayniqsa, go'dakning ruhiy-jinsiy shakllanishiga kuchli qiziqish, jamiyat rivojlanishida ijtimoiy-iqtisodiy omillarning o'rniga yetarli baho bermaslik va psixik omillarni mutlaqlashtirishda mujassamlashgan.

AQSh etnopsixologiya maktabining fan oldidagi xizmatlari etnografiyaning psixologiya va psixiatriya bilan yaqinlashuvida, etnografiyaga loyihalangan testlarni qo'llash orqali bolalik davrini qiyosiy tadqiq qilishni rivojlantirishda namoyon bo'ladi.

XX asrning 60 – 70-yillariga kelib etnopsixologik tadqiqotlar hududi sifatida «madaniyat va shaxs»ni

sotsial-madaniy sistema bilan bog'liq tarzda o'rganish yana dolzarb muammoga aylandi.

Psixologik antropologiya sohasida nemis olimi I. Eybl-Eybesfeldt, italiyalik V. Lantanari, gvatemalalik A. Mendea-Dominige kabi olimlar faol tadqiqot olib borib, etnopsixologiya rivojlanishiga muhim hissa qo'shgan. Ular etnopsixologiyaning amalda dunyo fanlari tizimida mustahkam o'rin olishida ham muhim rol o'yнagan.

Psixologik antropologiya insonni bashariyatning va alohida madaniyatning bir bo'lagi sifatida tadqiq qilar ekan, turli sotsial va madaniy tizimlarda a'lo darajadagi hamfikrlik va hamjihatlik vujudga kelishi uchun keng yo'l ochadi. Bu esa davrimizga xos bo'lgan iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy, milliy va diniy muammolar globallashayotgan zamonda ko'plab muammolarni hal qilishning samarali vositasidir.

Jahon etnologiyasida etnopsixologiyaning o'rni haqidagi fikrlarimizni yakunlar ekanmiz, ilg'or mammakatlarning iqtisodiy-ijtimoiy muammolarni yechishda etnopsixologik tadqiqotlar natijasidan samarali tarzda foydalanganligini ta'kidlab o'tish joiz.

Xalqimiz moddiy va ma'naviy madaniyatining ajralmas qismi sanalgan uning e'tiqodi, urf-odatlari, uy-joyi, kivim-kechagiyu taomlarini o'rganish bilan bir qatorda ana shu o'ziga xos moddiy va ma'naviy madaniyatning shakllanishida katta ahamiyatga ega bo'lgan xulq-atvori va ruhiyatini tadqiq etish ham muhimdir.

Faqat etnopsixologik tadqiqotlar bilangina biz tariximizning keyingi davrida xalqimiz ruhiyati va xulq-atvorida paydo bo'lgan loqaydlik, boqimandalik, mas'uliyatsizlik, millatparvarlik va vatanparvarlik tuyg'ularidan uzoqlashish kayfiyatlari, tashabbuskorlik va tadbirkorlikning sustligi kabi salbiy xislatlarning vujudga kelganlik sabablarini ochishimiz, jonkuyarlik, tashabbuskorlik, vatanparvar-

lik va boshqa shu kabi fazilatlarni rivojlantirishning yo'llarini topishimiz mumkin.

Jahon tarixiga nazar soladigan bo'lsak, inglizlarda-  
gi kuchli tadbirkorlik, tashabbuskorlik va tarbiyadagi  
qattiqxo'llik xislati, nemislardagi o'ta mas'uliyatlilik  
va o'ziga ishonch hislari, yaponlarning millatparvarli-  
gi va jamoa manfaatini e'zozlashlari, fransuzlarda-  
gi doimo yangilikka va erkin fikrlashga intilish bu  
xalqlar yashayotgan yurtlarni dunyoda eng taraqqiy  
etgan mamlakatlarga aylantirgan.

## **9-§. Etnologiyadagi yangi konsepsiylar**

Keyingi yarim asr davomida etnologiya fanida  
ko'plab yangi nazariy-metodologik qarashlar hamda  
g'oyalar paydo bo'ldi. Shubhasiz, bunday qarashlar-  
ning paydo bo'lishi dunyo miqyosida siyosiy jara-  
yonlarning o'zgarishi bilan bog'liqidir. Ayniqsa, Ik-  
kinchi jahon urushidan so'ng mustamlakachi imperi-  
yalarning yemirilishi etnologiyaning taraqqiyotiga  
sezilarli ta'sir qildi, deb aytish mumkin. Yevropada-  
gi yirik davlatlarning mustamlakalardan mahrum  
bo'lishi mazkur mamlakatlarda etnologiyaga bo'lgan  
qiziqishning ma'lum ma'noda susayishiga va, o'z  
navbatida, etnologik tadqiqotlar uchun ajratiladigan  
mablag'ning kamayishiga sabab bo'ldi. Etnologiyaga  
amaliy qiziqishning kamayishi ayrim mamlakatlar-  
da (masalan, Niderlandiyada) qator ilmiy tadqiqot  
institutlarining yopilishiga olib kelgan bo'lsa, bosh-  
qa mamlakatlarda (xususan, Buyuk Britaniya va  
Fransiyada) etnologiyaning fanlar tizimidagi o'rni va  
ahamiyati ma'lum ma'noda pasaygan. Biroq bu jara-  
yonlar Yevropa mamlakatlari etnologiyasida keyingi  
davrda hech qanday yangi qarashlar va nazariyalar  
yaratilmagan degan mulohazani bildirmaydi. Bu

davrda Yevropa etnologlari tomonidan etnologiya sohasida bir qator yangi nazariyalar yaratildi. Jumladan, mashhur fransuz olimi Levi Strossning strukturaviy antropologiya maktabini misol tarzda keltirish mumkin. Levi Strossning nazariy-metodologik qarashlari o‘zining originalligi va ilmiyligi bilan etnologiya va boshqa qator ijtimoiy fanlar taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan.



*Levi Stross  
(1908 – 2009)*

Levi Strossning ilmiy-nazariy merosi ko‘p tarmoqli bo‘lib, unga insonparvarlik yo‘nalishidagi mantiqiy-madaniy g‘oyalari; o‘z yozuvlariga ega bo‘lmagan jamoalarni o‘rganishda strukturaviy antropologik yondashuv; miflarning strukturaviy xususiyatini modellashtirish orqali ularning ichki mohiyatini tiklashga qaratilgan original uslub (mazkur uslub mutaxassislarga Shimoliy va Janubiy Amerika hindulari mifologiyasi tizimini yagona semiotik arxitektonikasini namoyish qilish imkonini bergen); qator etnologik yo‘nalishlardagi konseptual yondashuvlar – qon-qarindosh va sotsial jamoalar tizimi, yo‘zuvsiz jamiyatlar tasnifi kabi yo‘nalishlarni kiritish mumkin.

Levi Stross o‘zining madaniyatshunoslikka oid qarashlarida etnologiyani inson haqidagi fanning markaziga qo‘ygan bo‘lib, uning paydo bo‘lishi va rivojlanishini insonparvarlikning yangi bosqichi taraqqiyoti tarzida tavsiflagan. Shuningdek, u yozuv-siz jamiyatlar sivilizatsiyasini o‘rganish asnosida insonning tabiat bilan munosabatlarini o‘rganishdagi yangi sahifalarni boyitgan. Levi Stross o‘zining «*Tarix va irqlar*» nomli tadqiqotida rivojlanish g‘oyasini bir yo‘nalishdagi tarixiy evolyutsiya tarzida talqin

qilish xato mulohaza bo'lib, bu noto'g'ri talqinlar o'z navbatida irqchilikka sabab bo'lishi va g'arbcha tur-mush tarzi natijasida an'anaviy «ibridoiy» madani-yatlarni hamda ularning asriy an'alarining vayron bo'lishiga olib kelishini isbotlab bergan. Mashhur fransuz antropologining fikricha, hech qanday sivilizatsiyalar jahon sivilizatsiyasi maqomiga da'vogarlik qila olmaydi. Jahon sivilizatsiyasi jahon miqyosida turli madaniyatlarning o'zaro kelishuvi va bu jara-yonda har bir madaniyat o'ziga xos xususiyatlarni saqlagan holdagini bo'lishi mumkin.

Aynan XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ingлиз олими Макс Гулкман (1917 – 1975) томонидан «Neofunktsonalizmning Manchester mактаби» nomi ostida mashhur bo'lgan yo'nalishga asos solingan. Rodney Nidxem (1923-yilda tug'ilgan) томонидан ijtimoiy strukturalizmning yangi konsepsiysi yaratil-gan. Fransuz etnologlari XX asrning ikkinchi yar-midan boshlab, garchi ma'lum ma'noda Levi Stross qarashlari ta'sirida bo'lishlariga qaramay, Moris Go-



*Levi Stross Brazilyada*

dile, Klod Melissolar tomonidan tarixiy materializmga asoslangan qarashlarini shakllantirishga harakat qilganlar.

XX asrning 50-yillaridan boshlab Yevropa mamlakatlari dagi etnologiya fani amerikalik olimlar qarashlari ta'sirida rivojlangan. Chunki, aynan mazkur davrda AQShda madaniy antropologiya juda ham rivojlangan. Masalan, 40 – 50-yillar oraliq‘ida AQShda etnolog mutaxassislar tayyorlovchi kollej va universitetlar soni ikki baravarga ko‘paygan. Mazkur fanga bo‘lgan qiziqishning ortishini ikki muhim vaziyat bilan izohlash mumkin. Birinchidan, AQShda madaniy antropologiya talabalarning umumiyligi ta’lim olishlarida muhim rol o‘ynagan ijtimoiy-gumanitar fan hisoblangan. Ikkinchidan, Ikkinchi jahon urushidan keyin jahon siyosiy maydonidagi vaziyatning o‘zgarishi AQShda etnologiya fanining taraqqiyotiga ham ma’lum ma’noda o‘zining ijobiy ta’sirini o’tkazgan. Amerikalik olimlar tomonidan ozod bo‘lgan uchinchi dunyo mamlakatlari uchun tavsiya qilingan madaniy relyavitzm konsepsiysi dunyoning yangi tartib-qoidasi tarzida qabul qilingan. Madaniy relyativizm bilan birga neoevolyutsionizm g‘oyalari ham sezilarli darajada tarqalgan.

XX asrning 80-yillariga kelib ijtimoiy biologiya maktabining qisqa muddatli taraqqiyot davri bo‘lgan. Biroq tez orada mazkur yo‘nalish fandagi o‘zining yetakchilik mavqeini madaniy ekologiyaga bo‘shatib berdi va mazkur nazariya bugungi kungacha Amerika madaniy antropologiyasida yetakchilik mavqeini saqlab kelmoqda. Tadqiqotchi olimlar bu oqimni funksionalizm, strukturalizm va neoevolyutsionizm bilan birga Amerika madaniy antropologiyasidagi asosiy yo‘nalishlar sirasiga kiritadilar.

Keyingi o‘n yilliklarda Amerika etnoglari orasida Klifford Girts (1926) va Rixard Terner (1920 –

1983)larning qarashlari asosida shakllangan yangi germenevtika yo'nalishi ancha mashhur bo'lib bormoqda. Mazkur yo'nalish tarafdarlari, asosan, ijtimoiy kommunikatsiyada simvollar va simvollarning zamonaviy madaniyatlardagi ma'naviy-axloqiy ahamiyatini tadqiq qilishni maqsad qilib olgan. Bu borada Terner simvollarning pragmatik aspektiga ko'proq e'tibor qaratadi va simvollar ijtimoiy jarayonlarda faol kuch tarzida namoyon bo'ladi degan xulosaga kelgan. Ternerdan farqli tarzda Girts simvolarning ijtimoiy hayotdagi o'rni va ularning inson hissiyoti va ruhiyatiga bo'lgan ta'sirini muhim, deb hisoblaydi. Girts etnologlar empirik ma'lumotlarni tavsif qilish bilangina chegaralanib qolmasdan, mazkur madaniyat sohiblarining qarashlari va harakatlari tub mohiyatini aniqlashlari zarur degan g'oyani ilgari surgan.

XX asr oxiri – XXI asr boshlariga kelib dunyoning turli mamlakatlarida tadqiqotlar olib borayotgan etnologlar orasida informatsion, intellektual va tashkiliy aloqalar kuchaydi. Etnik chegaralar va milliy ilmiy maktablar turfa xilligiga qaramay, ilmiy maktablar rivojlanmoqda. Aynan mana shunday maktablardan biri bu – *postmodernizmdir*. Postmodernizm tushunchasi ilk bora XX asrning 60-yillarida arxitekturada qo'llanilgan va shundan boshlab zamonaviy dunyo (modern) inqirozi bilan bog'liq intellektual harakatni anglatuvchi yo'nalish tarzida keng yoyilgan. Fanda postmodernizm, avvalo, yaqin vaqt targacha ustuvor bo'lib turgan ilmiy-metodologik yo'nalish va dunyoqarashni tanqid qilishni anglatadi. Shu ma'noda *postpozitivizm*, *postmarksizm*, *poststrukturalizm*, *dekonstruktivizm* kabi ko'plab nazariyalarni misol tarzda keltirish mumkin.

Postmodernizm g'oyasi ayniqsa Amerika madaniy antropologiyasida mashhur bo'lgan bo'lib, bu yo'nalishda tadqiqotlar olib borgan mutaxassislar mazkur

oqimni tanqidiy antropologiya, deb yuritadilar. Qis-qacha qilib uning mohiyatini quyidagi tezislarda bavon qilish mumkin:

1) Madaniy (sotsial) antropologiya qat’iy ma’nodagi fanni anglatuvchi so’z emas, balki adabiy ijod mahsuli hisoblanadi; antropolog mualliflar o’zlarining tadqiqotlarini ilmiy tasdiqlamaydilar, balki badiiy uslubni qo’llagan holda o’quvchini ishontirishga harakat qiladilar. Aynan bu mavzuda bajarilgan mashhur ishlardan biri Klifford Girtsning «Hayot va mashg’ulotlar: antropolog misoli muallif» (1988) nomli kitobi hisoblanadi. Aynan mazkur kitobda u B. Malinovskiy, R. Benedikt, K. Levi Stross kabi o’z fanining klassiklari bo’lgan olimlarning mualliflik uslublarini tahlil qiladi va ularning ko’plab «kashfiyotlari» badiiy konstruksiya mahsulidir degan xulosaga keladi.

2) Antropolog dala tadqiqotlari jarayonida maxsus ilmiy moslama yordamida mavjud vogelikka aniq tashxis qo’yish imkoniyatiga ega emas. Har bir tadqiqotchi, avvalo, inson sifatida o’zga madaniyat vakillari orasida ko’rgan-kechirganlarini va kuzatganlarni o’z madaniyatidan kelib chiqib tahlil qiladi. Aynan shu muammo tufayli zamonaviy xorij etnologiyasida juda ko’plab adabiyotlar mavjud bo’lib, bular sirasiga Djona Van Maanenning «Dala hikoyalari. Etnografiya yozuvlari haqida» (1988), Pol Rabinovning «Marokashdagi dala ishlari haqida mulohozalar» (1977) kabi kitoblarini kiritish mumkin<sup>1</sup>.

XX asrning 90-yillariga kelib ko’plab g’arb olimlari postmodernizm o’zining «jo’shqin» tanqidlari bilan asrlar davomida fanda ustuvor bo’lgan ustunlarga jiddiy zarar keltirishini va hatto uning yo’q bo’lib ketishiga ham sabab bo’lishini e’tirof qildilar<sup>2</sup>.

<sup>1</sup>Qarang: *Van Maanen J. Tales of the field. On writing ethnography*. Chicago, 1988. *Rabinow P. Reflections on field work in Marocco*. Berkley, 1977.

<sup>2</sup>Основы этнологии: Учебное пособие / Под ред. проф. В. В. Пименова. – М.: Изд-во МГУ, 2007. – С. 34.

Etnologiyaning kelgusidagi istiqbolli mavzulari to'g'risidagi mutaxassis olimlar orasida kechayotgan babs-munozaralarda ko'plab tadqiqotchilar germenevtik antropologiyani fanning istiqbolli yo'nalishi, deb ta'kidlamoqdalar. Bunga sabab mazkur yo'nalish tarafdorlari «madaniyat ob'ektini tadqiq qilish sub'ekti, asosan, yevropalik tadqiqotchilar bo'lishi kerak, yevropalik bo'lмаган jamoalar bunda tadqiqot ob'ektigina bo'lishi mumkin», degan g'oya asosida shakllangan evrosentirizm g'oyasidan butkul voz kechishdi. Ular sayyoramizning har qaysi mintaqasida yashovchi tadqiqotchi tadqiqot sub'ekti bo'lishi mumkin va, o'z navbatida, yevropa madaniyati tadqiqot ob'ekti tarzida tadqiq qilinishi mumkin degan g'oyani ilgari suradi. Qolaversa, hozir alohida madaniyatlarning o'zaro yaqinlashuvi va birlashuvi jarayoni ularning yagona global madaniy tizimda birlashishlariga sabab bo'lmoqda. Shu bois hozir etnologiya fanida boshqa madaniyatlarni nafaqat tadqiqot ob'ekti tarzida tadqiq etish, balki tarixiy-madaniy jarayonlar muammolariga ham alohida e'tibor qaratilmoqda va mazkur yo'nalishlar doirasi-dagi mavzular fanning istiqboldagi yo'nalishlari, deb e'tirof etilmoqda.

Zamonaviy etnologiyada nafaqat «orqada qolgan» etnik birliklar, balki zamonaviy taraqqiy etgan industriplashgan jamiyatlar ham tadqiq qilinmoqda. Qolaversa, aynan oxirgi yillarda olib borilayotgan samarali amaliy tadqiqotlar va etnologiyaning turli yondosh fanlar bilan o'zaro tutashishi natijasida *etnosotsiologiya*, *etnopsixologiya*, *etnolingvistika*, *etnodemografiya* kabi o'zaro tutash yangi yo'nalishlar paydo bo'ldi. Etnologiyada ko'proq insoniyat va uning madaniyatini tadqiq qilishga va ularni ilmiy analitik tarzda tahlil etishga e'tibor qaratilmoqda.

XX asr milliy g'oyalar, harakatlar va milliy-etnik nizolar avj olgan davr hisoblanadi. Xalqlarning tarixiy-madaniy taraqqiyotining doimiy o'sib borishi etnoslararo jarayonlarni va milliy-ozodlik harakatlari ning birmuncha avj olishiga sabab bo'lgan, deb aytish mumkin. Bu jarayonlarning aniq natijalari tarzida Norvegiya, Irlandiya, Polsha, Finlandiya, Boltiqbo'y davlatlarining milliy mustaqillikni qo'lga kiritishdi, Markaziy Yevropada va Bolqonda Birinchi jahon urushidan keyin Avstriya – Vengriya imperiyasi o'rnila qator milliy davlatlarning barpo bo'lishiga olib keldi. Ayniqsa, Ikkinchisi jahon urushidan keyin yirik kapitalistik mamlakatlarning o'z mustamlakalaridan mahrum bo'lishi, Janubi-Sharqiy Osiyoda, Hindixitoyda, Afrikada qator mustaqil davlatlarni yuzaga keltirdi. Shuningdek, 1991-yildan keyin sobiq ittifoq o'rnila 15 ta mustaqil davlatlarning paydo bo'lishi ham ma'lum ma'noda milliy-etnik muammolar bilan chambarchas bog'liqdir. Muxtasar qilib aytganda, mazkur ma'lumotlar etnik omillarning muhim ahamiyat kasb etayotganligidan dalolat beradi. O'z navbatida, yuqorida tahlil etilgan ko'plab etnologik nazariyalardan qay biri tarixdagi etnik jarayonlarni sharhlab tushuntirishda eng maqbولي hisoblanadi? degan savol paydo bo'lishi tabiiydir. Bu borada ayrim tadqiqotchilar tarixdagi etnik jarayonlarni izohlashda eng maqbولي turli etnologik, sotsiologik va madaniyatshunoslikka oid maktablar orasidan sintez qilib olingen tarixiy etnologiya, deb hisoblaydilar<sup>1</sup>.

XX asr oxiriga kelib dunyo etnik manzarasining keskin tarzda o'zgarib borishi tadqiqotchi olimlarning etnologiyaning tadqiqot ob'ekti muammosiga yana qayta murojaat qilishlariga sabab bo'lmoqda. Yevropa va Shimoliy Amerikadagi turli-tuman muammolar natijasida paydo bo'lgan ko'p sonli diasporalar, emi-

<sup>1</sup> Лурье С. В. Историческая этнология... – С. 38.

grantlar va qochoqlar rivojlangan davlatlarning etnik tarkibini jiddiy o'zgartirib yubordi hamda mahalliy avtoxton etnoslar orasida kamsonli etnik jamoalar o'zlarining mustahkam mavqeini topishiga sabab bo'ldi. Boshqa tomondan esa Farbiy Yevropadagi integratsion jarayonlar qator yangi etnik muammolarning paydo bo'lishiga olib keldi.

Yangi tarixiy vaziyat va jamiyat hayotidagi muammolar etnologiyaning tadqiqot hududining kengayishiga sabab bo'lmoqda. Hozirgi kunda etnologiya yangi mavzularining kirib kelishi tadqiqotchilarga fan ichida mustaqil tadqiqot mavzularini va yo'naliшlarini ajratib ko'rsatish imkoniyatini bermoqda. Jumladan, G'arbiy Yevropa etnologiyasida bugungi kunda *iqtisodiy etnologiya, sotsial etnologiya, huquqiy etnologiya, siyosiy etnologiya, diniy etnologiya* kabi yo'naliшlar mustaqil tarzda taraqqiy etib, rivojlanib bormoqda.

Xulosa qilib aytganda etnologiya fanining kelgusidagi asosiy tadqiqot ob'ektlari tarzida quyidagilarni ko'rsatishimiz mumkin:

- etnik antroplogiya (xalqlarning etnogenezi va antrofizik taraqqiyoti muammolarini tadqiq etadi);
- etnik sotsiologiya (etnik guruhlar rivojlanishining sotsial aspektlari va mavjudligini, ularning o'zlikni anglash va o'z-o'zini anglash shakllari, etnik guruhlar orasidagi aloqalar shakllarini tadqiq qiladi);
- etnik psixologiya (etnik stereotiplarning shakllanishi, etnik ong va etnik o'zlikni anglash muammolarini o'rganadi);
- iqtisodiy etnologiya (etnoslarning xo'jalik yuritish va iqtisodiy muammolarini tahlil qiladi);
- etnodemografiya (mazkur yo'naliшning asosiy vazifasi xalqlar sonining o'sib borishi dinamikasi va demografik jarayonlarni o'rganishdir);

- etnogeografiya (xalqlarning geografik joylashuvi, ularning taraqqiyotida hududiy omilning tutgan o'rni va etnik hududlar va etnik chegaralar muammolarini tahlil qiladi);
- etnopedagogika (turli etnoslardagi ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi).

G'arb mamlakatlarda hozir etnologiya fani «postmodernizm» falsafasiga asoslangan bo'lib, bunda asosiy e'tibor ijtimoiy guruhlar orasidagi jarayonlarga qaratiladi. Shuningdek, fanda lokal va global jarayonlarni o'rganishda tadqiqotchilar tomonidan tadqiqiy tanlanish, ya'ni jamiyat hayotidagi barcha jarayonlarni emas, balki etnos va turli-tuman madaniyatlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda eng muhim, deb hisoblangan ko'rinishlar bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Boshqacha tarzda aytadigan bo'lsak, so'nggi yillarda bajarilayotgan tadqiqotlarda asosiy e'tibor insoniyatning rivojlanish bosqichlari, ya'ni paydo bo'lganidan to hozirgi davrgacha bo'lgan tarixiy yo'lini global miqyosdagi tavsif qilishga emas, balki muammoviy tanlanish asosidagi tadqiqotlarga ko'proq e'tibor qaratilmoqda.

Demak, yuqorida mulohazalarga yakun yasab umumlashma tarzida shuni ta'kidlash mumkinki, postmodernizm g'oyasi bilan boyitilgan etnologiya fanining bugungi kundagi asosiy vazifasiga etnomadaniy munosabatlarni hosil qiluvchi etnosning o'zining ichidagi va etnoslararo jarayonlarni tadqiq qilish kiradi. Tadqiqotchilar oxirgi paytlarda etnik madaniyatlarga va ularning lokal xususiyatlariga, odamlarning kundalik turmush tarziga ko'proq e'tibor qaratmoqda. Eng muhimi hozir bajarilayotgan ko'plab etnologik tadqiqotlar amaliyotda qo'llanilmoxda va rivojlangan mamlakatlarda bajarilayotgan

ilmiy tadqiqotlarning aksariyati jamiyat hayotida aynan muhim va eng dolzarb, deb e'tirof etilgan ijtimoiy muammolar doirasida amalga oshirilayotganligi yuqoridagi fikrlarimizga yanada oydinlik kiritadi.

### **Seminar mashg'uloti rejasi:**

1. Evolyutsionizm va diffuzionizm. Evolyutsion matabning shakllanish tarixi.
2. Antievolyutsionizm: diffuzionizm, sotsial matab.
3. F. Boasning Amerika tarixiy matabi va uning etnologiya hamda madaniy antropologiyaning keyingi taraqqiyotiga ta'siri.
4. Etnopsixologiya matabining shakllanishi.
5. Etnologiyadagi yangi zamonaviy konsepsiylar.

### **Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Evolyutsionizm matabining shakllanish tarixi borasida nimalarni bilasiz?
2. Etnologiyada birinchi marta anketa metodini kim qo'llagan?
3. Aynan etnologiyadagi dastlabki matab vakillarining ilmiy kamchiliklari nimalardan iborat edi?
4. Strukturaviy antropologiya haqida ma'lumot bering?
5. Zamonaviy etnologiya maktablari borasida nimalarni bilasiz?

### **Adabiyotlar:**

1. Беглик А. А., Резик Ю. В. Социокультурная антропология. Историко-теоритическое введение. – М., 1998.
2. Краткий этнологический словарь. – М.: Фонд “Социальный мониторинг”, 1995.

3. Культурная антропология: Учебное пособие / Под ред. Ю. Н. Емелянова, Н. Г. Скворцова. – СПб., 1996.
4. Основы этиологии: Учебное пособие / Под ред. проф. В. В. Пименова. – М.: Изд-во МГУ, 2007.
5. Садохин А. П., Грушевицкая Т. Г. Этиология. Учебник для высших учебных заведений. – М., Academa, 2000.
6. Этнология. Учебник для высших учебных заведений. Под ред. А. П Садохина. – М., 2000.
7. J. B. Sole. Anthropology For the Nineties. N. Y, L.: The Free Press, 1988.
8. George W. Stocking. Polarity and Plurality: Franz Boas as Psychological Anthropologist. In: New direction in Psychological Anthropology. Theodor Schwartz, Geoffry M. White, Satherine A. Lutz (eds. ) Sambridge: Sambridge University Press, 1994.
9. Jabborov I. Jahon xalqlari etnologiyasi asoslari. – T., 2007.
10. Этиология (Этиография): учебник для бакаларов // Под ред. В. А. Козьмина, В. С. Бузина. – М., Изд. Юрайт, 2014.

## **III BOB**

### **ETNOS MUAMMOSI BILAN BOG'LIQ QARASHLAR VA NAZARIYALAR**

*10-§. Etnos va etniklik.*

*11-§. Primordializm va konstruktivizm.*

*12-§. Etnogenез va etnik tarix.*

#### **10-§. Etnos va etniklik**

Insoniyat tarixi – bu nafaqat davlatlar, buyuk shaxslar va g'oyalar tarixi, balki xalqlar tarixi ham bo'lib, kishilar bir necha ming yillik faoliyati mobaynida davlatlarga asos solgan, ular orasidan buyuk arboblar yetishib chiqqan, ko'plab madaniyatlar va tillarni yaratib, sharafli ishlар va jangu jadallar qilgan, shuningdek, buyuk kashfiyotlar yaratgan, qahramonlik va, aksincha, fojiali ishlarni amalga oshirgan<sup>1</sup>. Qolaversa, inson biologik mavjudot – tabiatning bir qismi bo'lishi bilan birga kishilik jamiyatidagi evolyutsion taraqqiyot natijasida hamda ijtimoiy omillarning ta'siri tufayli muayyan ijtimoiy guruhlar va jamoalarga bo'linadi. Mana shunday asosiy jamoalardan biri fanda etnos deb yuritiladi.

Biz yashayotgan ona zaminda turli-tuman xalqlar o'zlarining milliy-etnik madaniyati va an'analari bilan boshqalardan ajralib turadi. O'z navbatida har bir

<sup>1</sup> Этиология. Учебник для высших учебных заведений. Под ред. А. П Садохина. – М., 2000.

etnik birlik o'ziga xos shakllanish va etnik rivojlanish tarixiga ega. Har bir xalq, son jihatidan katta yoki kichik bo'lishidan qat'i nazar, o'zida takrorlanmas xususiyatlarni mujassam etgan, o'ziga xos tarixiga ega. Hatto aytish mumkinki, insoniyat tarixi ana shunday kichik xalqlar tarixidan ham ibtido oladi.

Qo'llanmaning ushbu qismida etnos muammosi yuzasidan nazariy-metodologik qarashlar va ilmiy farazlarga bat afsil to'xtalib o'tishdan avval har bir fan sohasidagi tadqiqotlar ilmiy-metodologik ishlanma-larga asoslanishi lozimligini va, o'z navbatida, mavjud tarixiy muammolar yechimining to'g'riliqi, uning nazariy asosi bilan belgilanishini alohida ta'kidlab o'tmoq joizdir. Bu o'rinda etnologiyani ramziy tarzda ulkan bir daraxt, deb tasavvur qilsak, nazariy-metodologik tadqiqotlar uning ildizini tashkil etadi. Zero, ildiz qanchalik baquvvat, chuqur ketgan bo'lsa, daraxt shunchalik barq urib yashnaydi. Shu bois hozirgi etnologik tadqiqotlarni nazariy-metodologik qarashlar bilan boyitish va fanning turli mavzulari doirasida bajarilayotgan tadqiqotlarga ilmiy konsepsiyalarni asos qilib olmoq zarur. Chunki nazariy xulosalarsiz yoki tarixiy dalil-isbotlarsiz muammoning tadqiq etilishi ayrim hollarda salbiy oqibatlarga olib kelishi, ya'ni milliy nizolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Endi esa etnologiyanig asosiy tadqiqot ob'ektlari dan biri bo'lgan etnos va etniklik borasida biroz keng-roq to'xtalib o'tsak.

**Etnos** (yunon. – *xalq*; ingl. – *ethnos*; nem. – *ethnos*) – tabiiy-tarixiy jarayonlar natijasida tarkib topgan kishilar guruhidir<sup>1</sup>. Ma'lumki, insoniyat biologik mavjudot, tabiatning bir qismi bo'lishiga qaramay kishilik jamiyatidagi evolyutsion taraqqiyot natijasida hamda ijtimoiy omillar tufayli muayyan ijtimoiy birliklar va

---

<sup>1</sup> Краткий этнологический словарь. Москва: Фонд “Социальный мониторинг”, 1995.

jamoalarga bo'linadi. Yer yuzida yashovchi turli ijtimoiy-siyosiy jamoalar orasida o'zbek tilida xalq, ilmiy adabiyotlarda etnos, deb yuritiluvchi kishilar jamoasi alohida ajralib turadi. «Etnos» atamasi maxsus adabiyotlarda paydo bo'lganiga garchi ancha vaqt bo'lgan bo'lsa-da, lekin alohida kishilar guruhini anglatuvchi ibora tarzida faqatgina XX asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran etnogenez va etnik tarix, umuman, etnik jarayonlarga qiziqishning kuchayishi natijasidagina yanada keng ilmiy iste'mol doirasiga kirdi<sup>1</sup>.

Shubhasiz, mazkur ibora bugungi kunga kelib ijtimoiy fanlar tizimida o'zining munosib o'rnini topdi, deb aytish mumkin. Hozirda ushbu atamani nafaqat etnologlar, balki faylasuflar, tarixchilar, siyosatshunoslar, sotsiologlar, psixologlar va hatto iqtisodchilar ham doimiy ravishda keng qo'llamoqdalar va mazkur muammo bilan bog'liq o'zlarining turli-tuman qarashlarini bayon qilmoqdalar<sup>2</sup>.

Etnos tushunchasi etnologiya fanida juda ko'p qo'llaniladi. Zero, ayrim tadqiqotchilarning fikricha, fanning bosh tadqiqot ob'ekti ham etnosning o'zidir. Etnos kishilik taraqqiyotining ma'lum bir bosqichida paydo bo'lgan.

Etnos atamasi dastlab yunon tilidagi manbalar-da yunon bo'lмаган xalqlarga nisbatan qo'llanilgan. Aynan shu ma'noda mazkur ibora Rim madaniyati va lotin tilida ham uchraydi. XVIII asr oxiriga qadar etnos atamasi nihoyatda chegaralangan holda qo'llanilgan. Faqat XIX asrdan e'tiboran bu atama ilmiy adabiyotlarda «xalq» (narod) ma'nosida qo'llanila boshlangan. Garchi etnologiya fanida etnos iborasi anchadan buyon ishlatilayotgan bo'lishiga qaramay, faqat XX asr oxirida dunyo bo'yicha etnogenez va etnik

<sup>1</sup> Qarang: Этнология. Учебник для высших учебных заведений. Под ред. А. П. Садохина. – М., 2000. – С. 78.

<sup>2</sup> Рыбаков С. Е. Философия этноса. – М., 2001. – С. 5.

tarix hamda etnik jarayonlarga qiziqishning ortishi natijasidagina u alohida kishilar jamoasini anglatuvchi maxsus atama sifatida qo'llanila boshlangan.

Etnos atamasi juda keng va, aksincha, tor ma'nda ham ishlatiladi: dunyo xalqi, O'zbekiston xalqi, Amerika xalqi, viloyat xalqi. Boshqa kichik bir kishilar guruhiga nisbatan ham «xalq» iborasi qo'llaniladi. Etnologiya fanida etnosni belgilovchi bir qancha alomatlar mavjud: *hudud, til, iqtisod, madaniyat, tarixiy qismatining umumiyligi, ong sezimi, etnosning uyushqoqligi ma'lum bir davlat doirasi-da bo'lishi, o'z etnik nomi (etnonimi)ga ega bo'lishi, diniy e'tiqodning umumiyligi* va boshqa shu kabi alomatlar.



*S. M. Shirokogorov  
(1887 - 1939)*

O'zining metodologik yondoshuvi va tadqiqot aspektidan kelib chiqib zamonaviy fanda etnos bilan bog'liq turli qarashlar va maktablar shakllangan. Bular qatoriga: 1. Mashhur turkiyshunos olim L. N. Gumilyevning passionar nazariyasi. 2. Nazariyotchi

rus akademigi Yu. V. Bromleyning dualistik konsepsiysi. 3. N. N. Shebaksarov va S. A. Arutyunovning etnos bilan bog'liq informatsion konsepsiysi. 4. G. E. Markova va V. V. Pimenovalarning tizimli-statistik yoki komponentli nazariyasi. Demak, aytish mumkinki, hozirgi kunga qadar etnos tushunchasi ta'rifi bo'yicha ham fanda yagona fikr mavjud emas. XX asrning 20-yillarida rus emigrant S. M. Shirokogorov tomonidan etnosga ilk bora quyidagicha ta'rif berilgan edi. «*Etnos – bir tilda so'zlashuvchi, kelib chiqishi bir ekanligini tan oluvchi, urf-odatlar majmuasi*

*III bob. Etnos muammosi bilan bog'liq qarashlar va nazariyalar  
hamda umumiy turmush tarziga ega bo'lgan kishilar  
guruhidir<sup>1</sup>.*

XX asrning 60 – 70-yillariga kelib etnos nazariyasiga oid qarashlarda yangi bosqich boshlangan. Sobiq ittifoq nazariyotchilaridan P. Kushner (Knishyev), S. A. Tokaryev, N. N. Shebaksarov, Yu. V. Bromley, V. I. Kozlovlar etnosning o'ziga xos ta'rifini keltirdilar. Ayniqsa, bu borada Yu. V. Bromleyning fikrlari e'tiborga sazovordir. Uning «Etnos va etnografiya», «Etnografiyaning zamonaviy muammolari», «Etnos nazariyasidan ocherklar» kabi qator asarlarida etnos nazariyasiga doir mavjud ilmiy qarashlar tahlil qilingan hamda ijodiy rivojlantirilgan. Natijada nazariy etnografiyada «bromley konsepsiysi» yoki «Etnosning dualistik nazariysi», deb ataluvchi konsepsiya paydo bo'ldi. Bu konsepsiya uning 1983-yilda nashr etilgan «Очерки теории этноса» (Etnos nazariyasidan ocherklar) nomli monografiyasida to'laligicha o'z ifodasini topgan<sup>2</sup>.

Keng ma'nodagi etnos yoki etnoijitmoiy tuzilmaga ta'rif berar ekan Yu. V. Bromley yozadi: «Etnik ko'rinishning ijtimoiy-iqtisodiy holat bilan mustahkam aloqadorligini alohida ta'kidlash kerak, ya'ni ular o'zaro bog'liqdir. Etnos agar yagona (umumiy) bir davlat tarkibida mavjud bo'lsa, ushbu o'zaro aloqadorlik yanada muhimdir. Bu holatda tarkib topayotgan o'ziga xos tuzilma nafaqat hududiy-siyosiy, balki ijtimoiy-iqtisodiy umumiylilikka ham ega bo'ladi». Umuman olganda Bromleyning fikricha, *etnos – aniq bir hudud, til, kelib chiqish, madaniyat umumiyligi, o'zini-o'zi etnik anglash va o'z etnik nomi (etnonimi) ga hamda o'ziga xos turmush tarziga ega bo'lgan kishilar guruhidir*<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> Широкогоров С. М. Этнос. Исследование основных принципов изменения этнических и этнографических явлений // Известия восточного факультета Дальневосточного университета. Т. 1. – Шанхай, 1923. – С. 13.

<sup>2</sup> Бромлей Ю. В. Очерки теории этноса. – М., 1983. – С. 34.

<sup>3</sup> Bromley Yu. B. O'sha asar. – 35.



*Yu. V. Bromley  
(1921—1990)*

Yu. V. Bromley tomonidan ilgari surilgan konsepsiyaning xarakterli jihatni shundaki, muallif etnos tushunchasini bir vaqtning o'zida ham tor ma'noda, ham keng ma'noda tushunmoq kerak, degan fikrni o'rtaga tashladi. Olim tor ma'nodagi etnos tushunchasini ayni vaqtda «etnikos», keng ma'nodagi etnos tushunchasini esa «etnoijtimoiy tuzilma», deb ham ataydi.

Uning fikricha, tor ma'nodagi etnos yoki etnikos – bu o'ziga xos barqaror madaniyat (xususan til), psixika hamda etnik o'zini-o'zi anglash va o'z etnik nomiga (etnonimiga) ega bo'lgan kishilarning tarixan tarkib topgan guruhidir. Keng ma'nodagi etnosga yoki etnoijtimoiy tuzilmaga nafaqat hududiy-siyosiy, balki ijtimoiy, iqtisodiy umumiylit ham kiradi. Bunga misol tarzida o'zbek xalqini oladigan bo'lsak, mazkur nazariya tarafdarlarining qarashlariga ko'ra, butun yer yuzida yashovchi o'zbeklar – etnikos bo'lsa, O'zbekiston hududida yashovchi o'zbeklar esa – etnoijtimoiy organizm hisoblanadi.

Etnos tarixining muhim bosqichlaridan biri uning shakllanish jarayonidir. Agar etnos shakllanishi ni-hoyasiga yetgan bo'lsa, unga keyinroq qo'shilgan etnik komponentlar shakllangan etnos tarkibini o'zgartirib yubora olmaydi, balki uning tarkibiga etnografik guruh tarzda uzoq vaqlar yashab, ma'lum bir tarixiy voqelik ta'siridan so'ng etnos tarkibiga singib ketadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, etnosning muhim alomati uning tili hisoblanadi. Til ko'pincha xalq shakllanishining sharti yoki etnogenezining yakuniy bosqichi. Lekin ba'zi hollarda ayrim etnoslar turli

tillarda so'zlashuvchi xalqlardan ham tarkib topishi mumkin. Bunday hollarda til etnosga xos muhim xususiyat, etnik mansublik belgisi rolini bajaradi. Qolaversa, shuni ham unutmaslik kerakki, turli etnoslar bir tilda so'zlashishlari ham mumkin. Inglizlar va avstraliyaliklar bir tilda – ingliz tilida so'zlashadilar. Shuningdek, aynan mazkur tilda AQSh aholisi, kanadaliklarning katta qismi, Yamayka oroli, yangi zelandiyaliklar, irlandlar va Markaziy Amerika aholisi so'zlashadi. Lekin amalda ular turli etnoslar hisoblanadi. Demak, aytish mumkinki, til har doim ham etnosning shakllanishida hal qiluvchi alomat bo'la olmas ekan.



Etnosning shakllanishida etnosga xos moddiy va ma'naviy madaniyat ham muhim o'rinn tutgan. Bu, avvalo, ma'lum bir xalqqa xos milliy-etnik alomatlari, urf-odatlar, marosimlar, xalq san'ati, axloq-odob me'yorlari va shu kabilar hisoblanadi. Shuningdek, etnosga xos xususiyatlarga ma'naviy madaniyat, din ham kiradi.

Etnosning shakllanishidagi eng muhim alomatlardan biri mazkur etnosga mansublikni idrok etish, ya'ni etnik o'zlikni anglash hissi ham kiradi. Etnik o'zlikni anglash hissi mazkur xalqqa tegishli fuqarolar tomonidan o'zlarining kelib chiqish tarixi va tarixiy taqdirlari umumiyligi to'g'risidagi tasavvurlar asosida shakllanadi. Hatto misol uchun ma'lum bir qism o'zbeklar, ruslar, yahudiylar, armanlar, polyaklar turli mamlakatlarda yashasalar-da, o'zlarini tarixiy vatanlaridagi etnik jamoalari bilan bog'laydilar. Bundan tashqari har bir etnik jamoaga

mansub kishilar o'zlarini boshqa guruhga mansub odamlardan «biz» va «ular» degan antitezis asosida ajratib talqin qiladilar.

Respublikamiz mustaqillikka erishganidan so'ng o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi muammosini o'rghanish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etdi va ko'plab mualliflarning mazkur muammo doirasida bajarilgan tadqiqotlari e'lon qilindi. Biroq elshunos olim K. Shoniyo佐ov haqli tarzda ta'kidlaganidek, mazkur mavzuda istiqloldan keyin bajarilgan dastlabki tadqiqotlarda mualliflar masalani to'g'ri ko'tarib chiqqan bo'lsalar-da, lekin etnik nazariyaga e'tibor bo'lмагanligidan qo'yilgan masalani to'g'ri hal qilib bera olmaganlar<sup>1</sup>.

Bu borada o'ziga xos nazariy-metodologik qarashlarni mujassamlashtirgan ilk jiddiy fundamental tadqiqot tarzida akademik K. Shoniyo佐ov tadqiqotlарini e'tirof etish joizdir. Mashhur o'zbek elshunos olimi Markaziy Osiyodagi etnik jarayonlarning tarixiy ne-gizlariga asoslanib, o'zbek xalqi shakllanish jarayoniga oid jiddiy mulohazalar va tarixiy asoslarga ega nazariy metodologik konsepsiyasini ishlab chiqqan tadqiqotchilardan biridir. Muallif murakkab etnik jarayonlar borasidagi metodologik mulohazalari va konseptual qarashlarini «O'zbekistonda ijtimoiy fanlar» jurnalining 1996 va 1998-yillardagi sonlari-da e'lon qilgan «*O'zbek xalqi etnogenezining ayrim nazariy masalalari*» va «*O'zbek xalqi shakllanish jarayonining ayrim masalalari*» nomli maqolalarida batafsil bayon qilib bergan. Akademik olim mazkur tadqiqotlarda nafaqat *etnos* muammosiga, balki etnologiya fanining nazariy-metodologik asosini tashkil etuvchi *etnik birlik, qabila, qabila ittifoqi, elat, xalq, etnografik guruh (subetnos) va etnik guruh, etnik jarayon* kabi tushunchalarni birinchi marta o'zbek ti-

<sup>1</sup>Shoniyo佐ov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. – T., 2001.

lida izohlagan va ularning asl mazmuni hamda mohiyatini etnos nazariyasi prinsiplari asosida yoritib bergen.

Etnos muammosi doirasida etnologiyaga yondosh sohadagi tadqiqotchilar tomonidan bajarilgan ilmiy izlanishlar borasida gapirganda atoqli tarixchi va arxeolog olim akademik A. Asqarov tadqiqotlarining alohida o'rni bor. Olimning so'nggi yillarda olib bor-gan tadqiqotlarida o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi muammosi yuzasidan jiddiy shug'ullanib, etnos nazariyasiga oid qator ilmiy-nazariy hamda metodologik qarashlarni ilgari surdi. Jumladan, muallif o'zbek xalqining etnogenezini so'nggi bronza davridan boshlab to IX – X asrlargacha bo'lgan tarixiy davrni o'z ichiga qamrab olgan to'rt tarixiy bosqichga bo'lib davrlashtirish va mazkur muammoni yetti qismdan iborat nazariy va ilmiy metodologik asosda yoritish lozim deb uqtiradi.

Akademik A. Asqarovning fikricha, *etnos – bu biologik hosila emas, balki ijtimoiy hodisadir. U kishilik taraqqiyotida ma'lum bir bosqichning hosilasidir. Etnos o'zining shakllanish jarayonida, ya'ni etnogenet bosqichida va undan keyin ham har xil tarixiy sabablarga ko'ra, uning tarkibiga yangidan-yangi etnik qatlamlar qo'shilib boradi*<sup>1</sup>. Etnos nazariyasi borasida mashhur turkiyshunos olim L. N. Gumilyev esa, aksincha, *etnos ijtimoiy emas, balki bio-geografik hosiladidir. Etnos biosferaning tarkibiy qismi bo'lgani bois undagi qonuniyatlarga bo'ysunadi, deb ta'kidlaydi*<sup>2</sup>.

Shuningdek, ayrim mualliflar (ayniqsa L. N. Gumilyev va Yu. V. Bromley) etnos odamlar ijtimoiy halyotining birmuncha universal shakli bo'lgan va bo'lib

<sup>1</sup> Asqarov A. O'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixining ba'zi bir nazariy va ilmiy metodologik asoslari // O'zbekiston tarixi. – 2002. № 4. – B. 54 – 60.

<sup>2</sup> Гумилев Л. Н. Этносфера. История людей и история природы. – М., 1993. – С. 41.

qoladi, har bir kishi u yoki bu etnosga tegishli, degan g'oyani ilgari surgan. O'z o'rniда hozir dunyo fanida etnos nazariyasiga muqobil qarashlar va konsepsiylar mavjudligi yoki zamonaviy G'arb va Yevropada-gi ayrim maktab vakillari etnos nazariyasini keskin tanqid qilayotganligi, hatto ba'zi nazariyotchi tad-qiqotchilar ushbu nazariyani butkul rad etishlarini ta'kidlab o'tish o'rinnidir. Ayrim qarashlarga ko'ra, ko'plab odamlar o'zlarini u yoki bu etnosga tegishli, deb hisoblamaydilar. Ularning ijtimoiy o'ziga xosligi, o'z navbatida, davlatga yoki diniy jamoaga mansubligiga qarab ham aniqlanadi. Umuman olganda, so'nggi vaqtarda modernizmdan keyingi falsafaga asoslangan zamonaviy etnologiya fanida etnosga quyidagicha ta'rif beriladi: *Etnos – bu umumiy nom(etnonim)ga, madaniyatda umumiy o'xshashliklarga ega bo'lgan, jamoaviy tarixiy tafakkurga va kelib chiqishi tarixini umumiy mifologik tarzda tasavvur etuvchi, o'zlarini ma'lum bir hudud bilan bog'liq hamda hamfikr, deb biluvchi kishilar guruhidir.* Chunonchi, bunda oldinги nazariyalarga asos bo'lgan hududiy va tarixiy jayronlar bilan bog'liq tarzdagi ob'ektiv ma'lumotlar emas, balki sub'ektiv jihatlar: jamoaviy tafakkur, mifologiya, tasavvur etish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Millat** (lot. *natio* – *xalq*, ing. – *nation*, nem. – *nation*) atamasi qadimda va o'rta asrlarda, asosan, kelib chiqishi bir bo'lgan, iqtisodiy va siyosiy jihatdan umumiylig kasb etgan ma'lum bir guruh kishilarga nisbatan qo'llanilgan. Yangi davrda, ayniqsa, XVIII asr yakunida bo'lgan Buyuk Fransuz inqilobidan keyin fransuz, ingliz va G'arbiy Yevropa xalqlari til-larida millat atamasi ma'lum bir davlat fuqarolariga nisbatan, ya'ni etnik ma'noda qo'llanila boshlagan. Markaziy va Sharqiy Yevropada milliy davlatchilik taraqqiyoti biroz kechroq boshlanganligi bois millat iborasi bir hududda yashagan hamda til-madaniy

munosabatlar umumiyligiga ega bo'lgan, ya'ni etnik ma'noda qo'llanila boshlangan. Shu bois millat nazariyasi o'rnini bosgan. Millatning yangi ilmiy konsepsiyasining muallifi fransuz olimi E. Renan hisoblanadi. U ilk bora 1877-yil etatik va etnik talqinlarni umumlashtirishga hamda millat iborasining dastlab qo'llanilishi O'rta asrlar Yevropasida milliy davlatchilikning paydo bo'lish jarayoni bilan bog'liq, deb talqin qilgan. Millat, uning fikricha, avvalo, ma'lum bir guruh kishilarning birgalikda yashashga, oldingi ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan an'analarni saqlab qolishga bo'lgan harakat hamda umumiylar qasid yo'lida birlashishiga aytiladi. E. Renandan so'ng ijtimoiy fanlar tizimida millat iborasi bilan bog'liq qator nazariy-metodologik qarashlar bayon qilingan bo'lsa-da, lekin ularning birortasi mukammal nazariya tarzida shakllanmagan va umum tomonidan e'tirof etilmagan.

Sovet davrida millat atamasiga rivojlangan sinfiylikka xos etnos tipi, deb ta'rif berilgan. Millat iborasining paydo bo'lishi feudal tarqoqlikning yuzaga kelishi va kapitalizmning maydonga chiqishi bilan bog'liq tarzda yuz bergen xo'jalik va boshqa aloqalarning rivojlanishi, ona tilida ijod qiluvchi ziyorolar va adabiyotchilarning ko'payishi, milliy-etnik o'zlik hissining kuchayishi, milliy davlatchilikni qurish harakatining avj olishi bilan bog'liqidir. Yevropadagi dastlab paydo bo'lgan millatlar markazlashgan davlatlar hududida, ya'ni bir yoki bir necha etnik munosabatlari yaqin bo'lgan xalqlar orasida shakllangan. Masalan, fransuz millati shimoliy fransuzlar va provansallardan tashkil topgan.

Millat iborasi G'arbiy Yevropa tillarida «bir davlat fuqarolari jamoasi» mazmunini anglatuvchi siyosiy ma'noni anglatgan. So'nggi o'n yilliklarda millat iborasi bilan bog'liq an'anaviy qarashlarda inqilobiy o'zgar-

ishlar yuz berdi, deb aytish mumkin. Ayniqsa bu borada Mikluxa-Maklay nomidagi Etnologiya va antropologiya instituti direktori V. Tishkovning tadqiqotlari alohida diqqatga sazovordir. Uning fikricha, millat tasavvurdagi tuzilma bo'lib, jamoaviy harakatlarga asos bo'ladi va qat'iy voqelikka aylanadi<sup>1</sup>.

O'z navbatida V. A. Tishkov mikon va zamon hamda bugungi kunda dolzarb bo'lib turgan terrorizm, ekstremizm, millatchilik, separatizm, diasporalar, kam sonli milliy guruhlar tushunchalarini «ijtimoiy antropologiya» nuqtai nazaridan tahlil qiladi. Uning fikricha, turli-tuman mahalliy qarama-qarshiliklar tarixiy va etnik muammolardan emas, balki «zamonaviy muammolarga oid ijtimoiy makondagi zamonaviy ishtirokchilarning zamonaviy ixtiloflari»dan paydo bo'ladi va, o'z navbatida, bu vaziyatda milliy adovat va agressiya sun'iy tarzda ataylab avj oldiriladi<sup>2</sup>. Bizningcha, bunday keskin qarash sovetlar tuzumidan keyingi sobiq ittifoq olimlari orasida, garchi dastlabki yangicha qarash bo'lsa-da, lekin muammoning to'liq yechimini anglatuvchi mukammal javob emas, balki birmuncha bahsli, lekin e'tiborga sazovor konstruktivistik mulohazadir.

**Etnografik guruh** (ing. – *ethnographical group*; nem. – *ethnographische Gruppe*; rus. – *этнографическая группа*). Etnologiya fanida etnos iborasi bilan birga «etnografik guruh» (sub etnos), etnik guruh iboralari ham keng qo'llaniladi. Etnografik guruh – ma'lum bir etnosning (elatning yoki millating ajralmas qismi, uning tarkibidagi bo'linmalar-



V. A. Tishkov

<sup>1</sup> Тишков В. А. Реквием по этносу... – С. 24.

<sup>2</sup> Тишков В. А. Реквием по этносу... – С. 31.

dan biri) qismi bo'lib, o'zining ayrim xususiyatlari: til lahjasи, xo'jalik faoliyati va turmush tarzining ba'zi tomonlari bilan farq qilgan. Etnografik guruh, odatda, bir qabilaning, elatning yoki millatning etnik hududining kengayishi, ya'ni bir guruhning ikkinchi bir xalq bilan aralashib, boshqa yerga borib, shu yerdagi xalq tarkibiga kirib, u bilan birga yashab qolishi natijasida vujudga keladi. Masalan, oktabr to'ntarishidan oldingi davrda o'zbeklar tarkibidagi qipchoqlar, quramalar etnografik guruh hisoblangan. Ba'zi vaqtarda etnografik guruh o'z elidan, xalqidan ajralib, boshqa bir etnik birlikka qo'shilishi natijasida ham vujudga kelgan. Bu xildagi etnoslarning katta qismi asrlar davomida o'z xususiyatini saqlab kelib, mahalliy xalqning ichida yashab, ularning urf-odatlari va madaniyatini qabul qilib, asta-sekin unga aralashib borgan. Ammo bularning ma'lum qismi o'z tilini, o'zligini va moddiy madaniyatlaridagi ba'zi xususiyatlarini saqlab qolganlar. Bunga misol qilib o'zbeklar tarkibidagi arablar, eroniylarni ko'rsatib o'tish mumkin.

**Etnik guruh** (ing. – *ethnic group*; nem. – *ethnische Gruppe*) – aniq bir xalqning (qabila, qabila ittifoqi, elatning) parchalanib, alohida qismlarga bo'linib ketishi natijasida vujudga keladi. *Etnografik guruhdan etnik guruhning farqini quyidagicha izohlash mumkin: o'z xalqidan (qabila, elat) ajralib chiqqan guruh boshqa xalq tarkibiga kirib, uzoq muddat yashab, shu xalqning tili, xo'jalik faoliyati, urf-odatlari, turmush tarzini qabul qilib, unga batamom singib, o'zlarini shu xalq nomi bilan ataydigan bo'lib qoladi.* Ammo shu bilan bir qatorda bu guruh o'z etnik nomining o'tmishda qaysi qabila, elatga mansub ekanligini, ba'zi an'analarini saqlab qolgan bo'ladi. Masalan: qipchoqlar XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida o'zbek xalqining tarkibida (o'z lahjalari, turmush tarzi, madaniy hayotidagi ba'zi xususiyatlarini saqlab

qolganliklari tufayli) etnografik guruh bo'lgan bo'lsalar, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, turkman, boshqird va boshqa xalqlar tarkibida ular (qipchoqlar) etnik guruh hisoblangan. Shunga o'xshash, qang'li, uyshun va bir qancha boshqa qabilaviy nomlar ham yuqorida eslatilgan xalqlar tarkibida mavjud bo'lgan. Bular o'z etnik nomlari bilan qaysi xalq ichida bo'lsalar o'sha xalq (qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, turkman, boshqird va boshqalar) nomlari bilan atalganlar.

Ajralib chiqqan etnik qism, boshqa etnoslarga qo'shilmasdan o'zi mustaqil etnik guruh bo'lib qolishi ham mumkin. Vaqt o'tishi bilan uning tarkibiga ayrim (qipchoq bo'lмаган) etnik guruhlar qo'shilib, yirik qabila ittifoqini tashkil qiladi. Bunga XIII – XIV asrlarda Dashti Qipchoqda yashagan qipchoq etnik guruhi misol bo'la oladi.

Taniqli olim K. Shoniyofovning ta'kidlashicha, qipchoq etnosining asosiy o'zagidan ajralib chiqqan guruhlardan biri qoraqalpoq, qang'li, durut va boshqa etnik guruhlarni o'z tarkibiga qabul qilib, yirik qabila ittifoqini tashkil qilgan edi.

Ma'lumki, vaqt o'tishi bilan etnik birlik kishilarining bir qismi ajralib, boshqa yerga, boshqa tabiiy muhitga borib o'rナashib, shu joydagи etnosga qo'shilib, turmush tarzini birmuncha o'zgartirib, yerli xalqning tilini qabul qilib unga aralashib qolish hollari ham oz bo'lмаган. Agar shunga o'xshash etnik guruh boshqa xalq tarkibiga kirib, etnik birlikning asosiy shartlariдан biri bo'lgan etnik nomini (etnonimini) va ba'zi boshqa belgilarini saqlab qololsa, unda bunday etnik guruh o'zining burungi etnik birligiga taalluqli bo'лади. Vaqt o'tishi bilan boshqa etnik uyushmaga kirgan etnik guruh o'z tilini, madaniyatini, o'zligini batamom unutib yuborgan taqdirda, bunday guruh (oldingidan) boshqa etnos kishilari bo'lib qoladilar. Boshqacha aytganda, ma'lum etnik guruh oldingi etnik birligidan

ajralib, mutlaqo boshqa etnik birlik tarkibiga kirib, unga singib, o'zlarini shu etnos (qabila, elat, millat) kishilari hisoblaydilar. Misol uchun halaj qabilasini olaylik. Bu qabilaning asosiy qismi ilk o'rta asrlarda Yettisuvda yashagan. Milodiy VI – VII asrlarda bularning ma'lum qismi ajralib hozirgi Afg'oniston hududiga borib ornashgan. Vaqt o'tishi bilan ular bu hudud aholisining tilini, urf-odatlarini, turmush tarzini qabul qilib, o'z etnik nomlarini unutib, XIII asrdayoq boshqa nom bilan gilzoy, deb ataladigan bo'lib qolgan edilar.

Ayrim etnik guruuhlar boshqa etnik birlikka kirib, unga aralashib singib ketgan bo'lsalar ham, o'z etnik nomlarini asrlar mobaynida saqlab qolganlar. Qashqadaryoning o'rta oqimlarida major nomi bilan ataluvchi etnik guruh yashaydi. Ma'lumki, majorlar Vengriya davlatining asosiy xalqidir. Bularning ilk ajdodlari ugro-fin tilida gapiruvchi xalqlar bo'lib, Sirdaryo quyi oqimlaridagi cho'llarda va Ural tog' oldi rayonlarida yashaganlar. Milodiy IX asrda majorlarning katta bir qismi xazarlarning siquviga bardosh bera olmay, g'arbg'a siljib, hozirgi Vengriya hududiga borib ornashganlar. Bu yerda ular slavyanlashib, elat va keyinchalik millat bo'lib shakllanadilar. Qadimgi yerlarida qolganlari esa til jihatidan turklashib totor, boshqird va o'zbeklar tarkibiga kirib, batamom singib ketganliklariga qaramasdan qadimgi etnik nomlarini (major etnonimini) bizgacha saqlab kelgan.

Zamonaviy etnologiya va sotsiologiya fanlarida etnik guruhga birmuncha boshqacharoq ta'rif beriladi. Chunonchi, sotsiolog E. Giddensning yozishicha, etnik mansublik ma'lum bir guruhni boshqasidan ajratib turadigan madaniy urf-odatlar va dunyoqarash bilan xarakterlanadi. Etnik guruh a'zolarini o'zlarini madaniyat va boshqa jihatlardan boshqa ijtimoiy hamjamiyatlardan farqli, deb hisoblaydilar va jami-

yatdagi boshqa guruhlar tomonidan ham shunday qabul qilinadilar. Etnik guruhlarni farqlash uchun ko'plab turli tavsiflar mavjud, lekin bunda, asosan, til, tarix yoki kelib chiqishi, din, kiyinish tarzi va bezaklariga ko'proq e'tibor beriladi.

Ko'pchilik zamonaviy jamiyatlar ko'plab etnik guruhlardan tashkil topgan. Chunonchi, Buyuk Britaniyada irlandiyalik, osiyolik, italiyalik, gretsiyalik va boshqa mamlatlardan kelgan muhojirlar shular jumlasidandir. Etnologiyaning nazariy metodologik muammolari borasida so'z yuritganda etnik va etnoslararo jarayonlarga ham to'xtalib o'tish joizdir. Etnologiyada «etnik jarayonlar» deganda u yoki bu etnos (etnik birlik) bilan bog'liq kechayotgan barcha o'zgarishlar tushuniladi. Ya'ni «etnik jarayonlar» tu-shunchasi keng ma'nodagi tushuncha bo'lib, etnos bilan bog'liq genetik, lingvistik, psixologik, xo'jalik-iqtisodiy va madaniy o'zgarishlarni qamrab oladi. Etnik jarayon ikki xil ko'rinishda, ya'ni bo'linib ketisha hamda birlashishga moyil jarayonlarda namoyon bo'ladi. Etnik jarayonlarning birinchi ko'rinishi uchun ilgari bo'linmasdan kelgan etnosdan bir necha etnik guruhlarning yoki uning ma'lum bir bo'lagining ajralib chiqib, alohida mustaqil etnosning tashkil topishi xarakterlidir.

Birlashtiruvchi etnik jarayonlar esa, aksincha, turli mustaqil etnoslarning o'zaro yaqinlashuvi (integratsiyalashuvi), birikishi (konsolidatsiyalashuvi) va aralashib, qorishib ketishi (assimiliatsiyalashuv) holatlarida namoyon bo'ladi. Taniqli o'zbek elshunos olimi U. S. Abdullayevning fikricha, etnik jarayonning bu ko'rinishi mazmun-mohiyati bilan turli mustaqil etnoslar orasidagi munosabatlardan iborat ekan, u holda bu jarayonlarni yaxlit holda etnoslararo jarayonlar, deb tushunish va atash xato bo'lmaydi. Bundan kelib chiqadigan nazariy xulosa shuki, et-

*III bob. Etnos muammosi bilan bog'liq qarashlar va nazariyalar noslararo jarayonlar etnik jarayonlarning o'ziga xos birlashtiruvchi ko'rinishidir.*

Shuni ham alohida ta'kidlash zarurki, elshunoslik fanida «etnoslararo munosabatlar» (rus tilidagi «межетнические отношения») tushunchasi bir vaqtning o'zida ham tor ma'noda, ham keng ma'noda qo'llaniladi. Bu tushuncha keng ma'noda turli etnoslar orasidagi o'zaro munosabatlarga nisbatan, tor ma'noda esa har xil etnosga mansub kishilarning yakka tartibdagi mu-loqotlariga nisbatan ishlatiladi.

Holbuki, elshunoslар tomonidan «millatlararo» atamasidan ko'ra ko'proq «etnoslararo» atamasi qo'llanib kelinadi. Negaki, etnologiya fanining tadqiqot predmeti nafaqat millat, balki etnosning barcha tarixiy shakllari (urug', qabila, elat, xalq) hisoblanadi.

**Etniklik va muammoning zamonaviy fandagi talqini.** XX asrning 60-yillariga kelib g'arbdagi ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasiga, aniqrog'i ijtimoiy (madaniy) antropologiyaga ingliz tilidan yangi «ethnicity» – *etniklik* iborasi kirib kelgan. Aslida mazkur ibora fanda birmuncha oldinroq yaratilgan bo'lsa-da, lekin o'z davrida mazkur atama keng ilmiy iste'molga kirmaganligi bois 1975-yilda tadqiqotchi olimlar N. Gleyzer va D. Moynixanlar o'zlarining tadqiqotlarida «etniklik»ni «yangi tushuncha» tarzida qo'llaganlar<sup>1</sup>.

*Etniklik* etnik guruhning farqli xususiyati, o'zlikni anglatuvchi o'ziga xos kategoriya tarzida qo'llanilsa-da, lekin mutaxassislar mazkur iboraning asl mazmuni borasida hali hanuz yakdil umumiy xulosaga kelmag'anlar. M. Benksning yozishicha, «ko'p yillar mobaynida «etniklik» antropologiya va sotsiologiyaning asosiy tushunchalaridan biri bo'lgan bo'lsa-da, lekin fanda qo'llanilishiga ko'ra boshqa tushunchalar-ga qaraganda ma'no jihatdan birmuncha bahsli tush-

<sup>1</sup> Glaser N., Moynichan D. P. Intiroduction//Ethpicity: Theory and Experience/ Ed. bu N. Glaser, D. P. Moynichan. Sambrige, 1975. – P. 1.

uncha hisoblangan». Qolaversa, rus faylasuf-nazariyotchi olimi S. E. Ribakov ta'kidlaganidek, «etnos»siz «etniklik»ni va o'z navbatida «etniklik»ni bilmasdan turib «etnos»ni izohlash mushkul<sup>1</sup>.

Umuman olganda etniklik, avvalo, zamonaviy jamiyatlarning polietnik xususiyatiga qaratilgan bo'lib, *etniklik* deganda g'arb olimlari etnik guruhlarning madaniy xususiyatlari yig'indisini tushu-



*Fredrik Bart*

nadilar. Etniklikni tadqiq qilishda norvegiyalik olim Fredrik Bartning xizmatlarni alohida ta'kidlab o'tish joiz. U birinchilardan bo'lib etniklikni keng ilmiy asosda tahlil qilishga harakat qilgan va «etnik guruhga tegishli bo'lgan tavsiifni etnik hudud (chegara) tashqarisidagi madaniy material yig'indisiga kiritib bo'lmaydi. Etnik guruhlar (yoki etnoslar), avvalo, ushbu guruuh a'zolarining o'zları

muhim, deb hisoblagan xususiyatlar orqali aniqlanadi va bu xususiyatlar o'z navbatida etnik o'zlikni anglashda asos bo'ladi», – deb yozgan<sup>2</sup>.

N. N. Mikluxa-Maklay nomli Etnologiya va antropologiya instituti direktori V. I. Tishkov etniklik muammosining «an'anaviy madaniy tiplar» klassifikatsiyasi tarzida tahlil qilinishiga keskin qarshi chiqadi va etniklikni «madaniy gibridlik» tarzida talqin qiladi. Uning fikricha, muammoning bunday tarzda hal qilinishi «insonni etniklikda emas, balki insondagi etniklikni tadqiq qilish» imkonini beradi<sup>3</sup>.

<sup>1</sup>Q a r a n g : Рыбаков С. Е. Этничность и этнос // ЭО. 2003. – № 3. – С. 3.

<sup>2</sup>Barth F. Introduction // Ethnic Groups and Boundaries: The Social Organisation of Sulture Difference / Ed de F. Barth Bergen, Oslo, London, 1969. – P. 9 – 17.

<sup>3</sup>Тишиков В. А. Этнология и политика. – М., 2001. – С. 233.

Etniklikni konstruktivistik yo'nalishda tadqiq qiluvchi olimlarning fikricha, etniklik – madaniy xarakter majmuasiga asoslanadi, ya'ni qaysidir etnik guruh garchi boshqa etnik guruhlardan qondosh-urug'chilik jihatdan farqlansa-da, ammo etniklikda qondosh urug'chilik yoki boshqa ob'ektiv mezonlardan ko'ra madaniy munosabatlar muhim rol o'ynaydi. Ummuman olganda, *etniklik muayyan etnik guruhga mansub madaniy xususiyatlar majmui*, ya'ni boshqacharoq tarzda aytadigan bo'lsak, *etniklik – bu madaniy farqlarning ijtimoiy uyushmasi shaklidir*<sup>1</sup>.

Konstruktivistik qarash tarafidori bo'lgan ko'plab tadqiqotchilar orasida «etniklikning yuzaga kelishida, avvalo, «biz va ular» degan o'ziga xos ikkilik munosabati bo'lishi lozim. Agar bunday munosabat bo'lmasa etniklik ham bo'lmaydi», degan qarash ustuvordir<sup>2</sup>.

Umuman olganda, dunyo miqyosida, ayniqsa, g'arb mamlakatlarida hozirgi davrgacha etnos va etniklikka oid ko'plab nazariyalar va konsepsiylar yaratilgan bo'lsa-da, ularni etnik fenomenni anglash nuqtai nazardan ikki guruhga – primordialistik va kontsaktiv nazariyalar asosida umumiylashtirish mumkin.

## 11-§. Primordializm va konstruktivism

XX asrning so'nggi choragidan boshlab etnos, etniklik muammosi doirasida tadqiqotlar olib borgan etnologlar, ijtimoiy va madaniy antropologlar, faylasuflar, sotsiologlar, psixologlar, tarixchilar orasida ikki yo'nalish, ya'ni o'ziga xos metodologik maktabi va qarashlariga ega bo'lgan mustaqil ikki qarama-qarshi – *primordialistik va konstruktivistik* oqim paydo

<sup>1</sup> Тишкиов В. А. О феномене этничности // ЭО. 1997. № 3. – С. 6.

<sup>2</sup> Скворцов Н. Г. Проблема этничности в социальной антропологии. СПб., 1997. – С. 61.

bo'lgan. Ushbu ikki ilmiy maktab orasida doimiy o'zaro ilmiy bahs bo'lgan bo'lib, ular o'rtasidagi qiziqarli va keskin munozaralarni konstruktivistik mактабнинг yirik namoyandalaridan biri bo'lgan amerikalik antropololog *J. Komoroff* nazariy oppositsiyani, mohiyatan o'zaro munozarali pragmatik va xolislik asosidagi klassik dixitomiyasi tarzida tavsiflaydi<sup>1</sup>.

*Primordializm* ingliz tilidagi «primordial – «boslang'ich», «dastlabki», «azaliy» degan so'zdan olingan bo'lib, mazkur yo'nalishning mashhur namoyandalari qatoriga K. Girts, R. Gambino, U. Konnoro, Yu. V. Bromley, E. Styuard, P. Van den Berg kabi mashhur tadqiqotchilarini kiritish mumkin. Bu yo'nalish tarafdarlarining ta'kidlashlaricha, etnos yoki etniklik tabiatda yoki jamiyatda ob'ektiv asosga ega bo'lgan aniq fenomendir. Sovetlar davrida yaratilgan etnos nazariyasining asosiy manbai va tarkibiy qismiga 1913-yilda I. Stalining millatga bergen (etnik kontekstda talqin qilingan – A. A.) ta'rifi asos bo'lgan. Bunga ko'ra «millat kishilarning tarixiy tarkib topgan guruhi bo'lib, u madaniyatlar umumiyligi asosida namoyon bo'ladi-gan umumiy til, hudud, iqtisodiy hayot va ruhiy jamlanma asosida paydo bo'ladi». Lekin etnos nazariyasini nomi bilan mashhur bo'lgan konsepsiya yaxlit bir butun tizimli qarash tarzda ilk marotaba XX asrning 20-yillarida, aniqrog'i, 1923-yilda Xitoyning Shanxay viloyatida yashagan rus emigrant S. M. Shirokogorov tomonidan bildirilgan. Aynan u fanga «etnos» tu-shunchasini olib kirgan tadqiqotchidir.

Keyinchalik I. Stalin va S. Shirokogorov ishlarda etnos(millat)ga berilgan ta'rif P. Kushner, S. Tokarev, N. Sheboksarov, V. Kozlov tadqiqotlarida ma'lum ma'noda takomillashtirilgan. Darhaqiqat,

<sup>1</sup> Комороф. Дж. Национальность, этничность, современность: политика самосознания в конце ХХ века // Этничность и власть в полиэтнических государствах. – М., 1994. – С. 34.

yuqorida nomi zikr etilgan olimlarni ma'lum ma'nda sobiq sovetlar davridagi «etnos nazariyasi»ning hammualliflari deb aytish mumkin. Lekin bu nazariya taraqqiyotida Yu. Bromleyning xizmatlari katta bo'lib, u tomonidan o'tgan asrning 80-yillarida etnos nazariyasi yanada takomillashtirildi va materialistik fundamentdagi yaxlit bir tizimli konsepsiya darajasidagi nazariya ko'rinishiga ega bo'ldi. Qolaversa, xalqni (etnosni) o'rganishga oid bir qancha nazariy masalalarni, jumladan, etnik birlik tushunchasi, etnik birlikning davrlarga bo'linishi, etnik alomatlar va boshqa masalalar borasida qator yangi qarashlar bildirildi.

O'z navbatida, ta'kidlab o'tish kerakki, etnos nazariyasi doirasida sovet davri olimlari ayrim masalalarda umumiy bir fikrga kelishgan bo'lsalar ham, bir qancha masalalar bu davrda ochiq qolgan. Shu o'rinda, aytib o'tib joizki, markaz olimlari etnos nazariyasi haqida ko'pincha umumiy fikr-mulohazalar qilib, Rossiya imperiyasi tarkibidagi millatlar, elatlarga xos etnogenetik xususiyatlarga yetarli darajada ahamiyat bermaganlar. Qolaversa, «etnos» nazariyasi keyinchalik g'arb va rossiyalik ayrim tadqiqotchilar tomonidan jiddiy tanqid ostiga olindi. Jumladan, konstruktivizm tarafdarlaridan biri bo'lgan antropolog V. A. Tishkov etnos nazariyasining asosiy taqrizchilaridan biri bo'lib, etnos bilan bog'liq nazariy-metodologik qarashlarni noan'anaviy usulda tahlil qilish asnosida keskin tanqid qilgan mualliflardandir. Nazariyotchi olim tarixiy-ijtimoiy vogelikni insoniyat tasavvuri natijasi tarzida tahlil etadi va etnosni tarixchilar, sotsiologlar, etnograflar, ommaaviy axborot vositalari vakillari tomonidan yaratilgan sun'iy ijtimoiy tuzilma, deb hisoblaydi. Uning fikricha, aslida ushbu «aqliy tuzilma» o'rnida jamiyat va madaniyatda ob'ektiv mavjud hamda o'zaro farqli ko'rinishlardan iborat bo'lgan, o'z-o'zini boshqaruv

kontinumi va strukturaviylikka harakat qiluvchi mozaik, lekin o'ziga xos madaniy xilma-xillilik mavjud. Muallif etnos nazariyasini «reviziya» qilish asnosida mantiqqa zid xulosalarni ham bayon qiladi. Jumladan, olimning fikricha, millat tasavvurdagi tuzilma bo'lib, jamoaviy harakatlarga asos bo'ladi va qat'iy vogelikka aylanadi.

O'z navbatida V. A. Tishkov makon va zamon hamda bugungi kunda dolzarb bo'lib turgan terrorizm, ekstremizm, millatchilik, separatizm, diasporalar, kam sonli milliy guruhlar tushunchalarini «ijtimoiy antropologiya» nuqtai nazaridan tahlil qiladi. Uning fikricha, turli-tuman mahalliy qarama-qarshiliklar tarixiy va etnik muammolardan emas, balki «zamonaviy muammolarga oid ijtimoiy makondagi zamonaviy ishtirokchilarning zamonaviy ixtiloslari»dan paydo bo'ladi va, o'z navbatida, bu vaziyatda milliy adovat va agressiya sun'iy tarzda ataylab avj oldiriladi<sup>1</sup>.

Odatda, konstruktivistlar o'zlarining nazariy-metodologik qarashlaridan tashqarida bo'lgan yoki ularga qarama-qarshi mulohazalar bildirgan har qanday qarashni primordializmga kiritadilar va, o'z navbatida, o'zlarining qarashlarini zamonaviy fan in'ikosi bo'lgan yagona ilg'or ta'limot tarzida talqin qiladilar. Ular primordialistik qarashni «ilmiy xatoliklar majmui», deb hisoblaydi. Shu o'rinda muammo doirasi-dagi haqiqiy holat qanday? degan savol tug'ilishi tabiiydir. Bu borada rus akademigi S. E. Ribakov ikki oqimga badiiy ta'rif berib, «tarixiy primordializm darraxtning yirik shoxlariga, konstruktivism esa daraxtning alohida yakka shoxiga o'xshaydi», – deb yozadi<sup>2</sup>.

**Konstruktivism.** XX asrning 70 – 80-yillariga kelib dunyo miqyosidagi ijtimoiy-siyosiy hayotda etnik muammolar muhim ahamiyat kasb eta boshla-

<sup>1</sup> Тишков В. А. Реквием по этносу... – С. 31.

<sup>2</sup> Рыбаков С. Е. Философия этноса. – С. 98.

di – etnos va etniklikka oid konstruktiv qarash keng miqyosda ommalasha boshladi. Natijada etnos, etniklikka oid konstruktiv maktab shakllandi. Mazkur yo'naliш ayniqsa AQShda va boshqa qator imigrantlar davlati hisoblangan mamlakatlar (Kanada, Avstraliya) etnologiyasida rivojlangan. Aynan mazkur mamlakatlarda konstruktivistik nazariyaning keng ommalashishi ma'lum ma'noda mazkur davlatlarda mahalliy hindular va Avstraliya aborigenlari dan tashqari etnik guruhlarning tabiiy ildizi mavjud emasligi bilan bog'liqdir.

Madaniyat diffirensiyasi asosida paydo bo'ladi gan etniklik muammosini izohlashda konstruktiv nazariyaga ko'ra etnik hissiyot va uning asosida paydo bo'ladi gan tasavvurlar hamda doktrinalar si-yosatchi, olim va yozuvchilar tomonidan ongli tarzda yaratilgan aqliy tuzilma (konstrukt)dan iborat. Konstruktivizm tarafдорлари etnosning ong sezimi va tilni muhim ramziy simvol, deb biladi va bular asosida etnik rang-baranglik mavjud, deb hisoblaydi. Shu bois ular til va ong sezimiga alohida e'tibor qaratadi.

**Konstruktivistik** qarashning nazariy-metodologik asoslari AQShlik antropolog J. Komoroff tadqiqotlari da bayon qilingan. Biroq dunyo fanida konstruktivistik qarash birmuncha oldinroq tarqalgan bo'lib, bu borada ilk marta «plyuralistik jamiyat» muammosini ishlab chiqqan M. Smit va F. Bartlarning konsepsiylarida qator mulohazalar bayon qilingan. M. Smit etnologiya uchun an'anaviy qarashlar asosida ijtimoiy tuzilish bevosita madaniy farqlardan kelib chiqadi, deb hisoblasa, F. Bart o'ziga xos «kopernikcha o'zgarish» qilib, «*madaniy farqlar ijtimoiy tuzilma va o'zaro harakatlar natijasidir*», – deb ta'kidlaydi.

F. Bart etnik o'zlikni anglashni etniklikning muhim alomatlari sirasiga kiritmaydi. Etnik o'zlikni angash orqali shaxs o'zining etnik rolini namoyon

qiladi va o‘zini ma’lum bir guruh a’zosi tarzida tasavvur etadi. Shu bois ular etniklikni aniqlashda etnosga xos madaniyatdan ko‘ra uning hozirgi davrdagi farqli va guruhiy chegarasiga xos madaniy tavsifini hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi, deb hisoblaydilar. O‘z navbatida, shuni ham aytib o‘tish joizki, konstruktivistik qarash tarafдорлари bo‘lgan g‘arblik va rossiyalik tadqiqotchilar etnos va millatning tarixiylik prinsiplari asosida paydo bo‘lganligini butkul rad etadilar va bugungi kundagi zamonaviy etnoslar, jumladan, Markaziy Osiyo millatlari (milliy respublikalar ham) uzoq muddatli rivojlanish natijasida emas, balki sovet hokimiyatining mahalliy rahbarlari va ziyolilari ko‘magida sun‘iy ravishda barpo bo‘lgan degan g‘oyani ilgari suradilar. Bizningcha, bu fikr tarixiy voqelikdan ko‘z yumishga, etnomilliy tarixdan voz kechishga qaratilgan bo‘lib, mavjud nazariya hamda qarashlarning noto‘g‘ri, qolaversa noo‘rin qo’llanishidir.

J. Komoroff ta’kidlashicha, «konstruktivizm – bu nazariya emas, balki siyosiy va madaniy o‘zlikni anglash, insoniyat faoliyatining mahsuli ekanligini tasdiqlovchi tavsif bo‘lib, konstruktivizm soyasida ko‘plab qarashlar yashiringan. Konstruktivizm to‘g‘risida primordialist-faylasuf S. Ribakov jamiyatda hech qanday yagona konstruktivistik nazariya mavjud emas va umuman bu o‘rinda «nazariya» iborasini ishlatish haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi, deb yozadi. Uning fikricha, ushbu yo‘nalish tarafдорлари o‘zaro tabiatan etniklikning mavjud emasligi to‘g‘risidagi umumiy tezis atrofidagina birlashadi.

Xullas, etnologiyada, umuman, ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida hozirgi kunga kelib etniklikka oid yagona mukammal konsepsiya mavjud emas. Bizningcha, yaqin kelajakda etniklikka oid tadqiqotlar yanada bahsli tarzda davom etadi va balki hozirgi mavjud qarashlar asosida yangi nazariyalar yaratilsa ajab emas.

## 12-§. Etnogenez va etnik tarix

**Etnogenez** (yunoncha *ethnos* – *xalq* va *genesis* – *tug'ilishi*, *kelib chiqish*; ingl. – *ethnogenesis*; nem. – *ethnogenose*) – etnosning kelib chiqishidir. Tarix fani-dagi mavjud ilmiy metodologik ishlanmaga ko'ra etnogenez, deb ilgaridan mavjud bo'lgan bir necha etnik komponentlar asosida yangi etnos-elatning vujudga kelishiga aytildi. «Etnogenez» tushunchasi fanga ilk marotaba XX asrning 20-yillarida N. Ya. Marri tomonidan kiritilgan.

Har bir xalqning tarixi uning etnogenez va etnik tarixi bilan uzviy bog'liqdir. Etnogenez va etnik tarix xalq tarixinining ma'lum bosqichlarida vujudga kelib, ma'lum bir etnosning elat, xalq bo'lib shakllanguniga qadar davom etadigan tarixiy va etnomadaniy jarayondir. Odatda, biror-bir xalqning etnogenezini, uning etnik qatlamlari tarkibini aniqlamay turib, u xalq haqida, u tarkib topgan hudud va uning davlatchiligi to'g'risida ilmiy tasavvur yaratish mumkin emas.

Akademik olim K. Shoniyofovning mulohazalariiga ko'ra, etnogenez jarayonida etnosni belgilovchi – *hududiy, til va etnomadaniy birlik, ijtimoiy-iqtisodiy va xo'jalik, etnik nom(etnonim) hamda o'zlikni anglash birligi, siyosiy uyushma birligi, din umumiyligi* va boshqa qator etnik alomatlar muhim ahamiyat kasb etadi<sup>1</sup>. Ushbu etnik alomatlar va belgilarning barchasi sodir bo'lgandagina etnos – xalq shakllanadi, ya'ni etnogenez jarayoni yakunlanadi. Ammo amalda bu etnik alomatlar barchasi etnogenez jarayonida, ya'ni muayyan bir vaqtda hozir bo'lishi yoki bir davrda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin bo'lмаган. Jumladan, ma'lum bir xalqning tashkil topishida til birligi bosh rol o'ynagan bo'lsa, ikkinchi bir elatning

<sup>1</sup> Shoniyofov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. – T., 2001.

shakllanish jarayonida xo'jalik, uchinchisida esa moddiy madaniyat yetakchi belgi bo'lgan. Bu bora-da akademik A. Asqarov etnik alomatlarni etnosga xos etnik belgilari va omillar, deb yuritadi va etnosni uyushtiruvchi mazkur zaruriy ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy omillar hamda etnik belgilarga *hududiy birlik, ijtimoiy-iqtisodiy xo'jalik birligi, etnomadaniy birlik, til birligi, etnik nom birligi, o'zlikni anglash birligi va nihoyat siyosiy uyushma (politicheskaya kontsalidatsiya)*larni kiritadi. Olim etnik alomatlar alohida olingan qisqa bir davrda yuz bermaydi, balki uzoq davom etgan etnogenetik jarayon davomida bi-rin-ketin tarkib topib boradi, deb ta'kidlaydi.

Maxsus ilmiy adabiyotlarda ko'rsatilishicha, etnogenez jarayonining ikki usuli mavjud: 1) Tub yerli (avtoxton) etnik komponentlarning o'zaro yaqinlashuvi, ularning qo'shilib, birgalikda taraqqiy etib borishi; 2) Shakllangan yoki shakllanayotgan etnik birlikka boshqa hududlardan ko'chib kelgan komponentlarning mahalliy aholiga qo'shilishi. Odatda, yangi etnosning shakllanishi jarayonida, ya'ni etnogenez bosqichida va undan keyin ham har xil tarixiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy sabablarga ko'ra, uning tarkibiga yangi-yangi etnik qatlamlar qo'shilib boradi. Yangi etnos vujudga kelgach, oldingi etnik komponentlar alohida etnik birlik sifatida asta-sekin yo'qolib tarix maydonidan batamom chiqib ketadilar (masalan, saklar, massagetlar, toxarlar va boshqalar) yoki qisman (etnik tarkibi o'zgargan holda) saqlanib qoladilar.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, yangi etnik birlikning shakllanish jarayonining oxiriga yetishi bilan ham etnik jarayon to'xtab qolmaydi. Shakllangan etnik birlikka turli davrlarda yangi-yangi komponentlarning qo'shilishi yoki undan ajralib chiqib ketish hol-lari etnik birlik shakllangandan keyin ham davom



*L. N. Gumileyev  
(1912 – 1992)*

etadi. Darhaqiqat, dunyoda hech bir xalq yo'qki, u o'z etnogenez jarayonining ilk bosqichlaridan to millat darajasiga ko'tarilgunigacha boshqa etnik qo'shilmalarisiz rivojlangan bo'lsa. Jumladan, o'zbek xalqining etnogenezi bunga yaqqol misoldir. O'zbek xalqi etnogenezining ilk bosqichlaridan to xalq sifatida shakllanib bo'lguniga qadar uning asosiy tarkibini tashkil etgan avtoxton sug'diy-xorazmiy va qadimgi turkiy qatlamlardan tashqari o'ziga turli davrlarda har xil miqdorda mahalliy va tevarak-atroflardan kelib qo'shilgan etnik guruhlarni singdirib borgan. Demak, sayyoramizdagi barcha xalqlar kelib chiqishi jihatidan ko'p etnik qatlamlidir.

Etnogenezni tadqiq qilishda (ayniqsa uning dastlabki bosqichlarini) etnologiya, etnik antropologiya, arxeologiya, etnolingvistika, folklor materiallarini jalb qilgan holdagi kompleks yondashuv talab qilinadi.

Etnogenezga oid bugungi kunda turli-tuman qarashlar va konsepsiylar mavjud. Jumladan, ayrim

mutaxassislar (L. N. Gumilyev) etnosni biofizik voqe-lik, deb biladilar va shu bois etnogenez tizimini tabiiy jarayonlar bilan bog'liq, deb hisoblaydilar. Mazkur konsepsiaga ko'ra, etnos biosferaning tarkibiy qis-mi bo'lgani uchun undagi qonuniyatlarga bo'ysunadi, etnogenez esa biosferada sodir bo'ladigan jarayonlar-ning bir qismi hisoblanadi<sup>1</sup>.

Akademik A. Asqarovning fikricha, «har bir xalq tarixi uning etnogenezi va etnik tarixi bilan uzviy bog'liq. Etnogenez va etnik tarix esa tarix fanining bosh masalasidir». Uning yozishicha, xalq tarixining etnogenez qismi uning elat, xalq bo'lib shakllanguni-ga qadar bo'lgan tarixidan iborat. Qachonki, etnik belgilar va alomatlarning barchasi sodir bo'lganida-gina etnos – xalq shakllanishi o'z nihoyasiga yetadi. Shakllangan etnosning bundan keyingi tarixi fanda etnik tarix nomi bilan yuritiladi<sup>2</sup>. Akademik olim-ning bunday qarashlari etnogenez va etnik tarix muammosi doirasida etnologiya fanida bildirilgan chuqur mushohadali qarashlardan biri ekanligini e'tirof etgan holda, shuni ham ta'kidlash kerakki, bu borada boshqacha qarashlar ham ilgari surilgan. Jumladan, akademik K. Shoniyofovning fikricha, et-nik tarix – o'rganilayotgan xalqning ibtidoiylikdan boshlab, bir qancha tarixiy bosqichlarni o'tib to bizga-cha davom qilib kelgan katta davrni qamrab oladi. Boshqacha aytganda, etnik tarix tushunchasi etnos-ning qadimda va ilk o'rta asrlarda mavjud bo'lgan ildizlarini, ularning alohida etnik jamoa (etnik birlik) bo'lib shakllanish davrini hamda etnosning keyingi taraqqiyot tarixining (to millat bo'lib shakllanishiga qadar) o'tgan davrini o'z ichiga oladi. Biroq har ikki muallif ham etnos – xalqning shakllanishi millatning

<sup>1</sup> Гумилев Л. Н. Этногенез и биосфера земли. – Л., 1990.

<sup>2</sup> Asqarov A. O'zbek xalqi etnogenez va etnik tarixining ba'zi bir nazariy va ilmiy metodologik asoslari // O'zbekiston tarixi. 2002. – № 4.

shakllanishiga to'g'ri kelmaydi, degan umumiy xulosaga keladilar. Har ikki muallifning fikricha ham millatning shakllanishi etnogenetik jarayon kabi uzoq davom etadigan tarixiy jarayon bo'lib, millat etnik tarixning eng yuqori cho'qqisi, kamolot bosqichiki, bu bosqichga ko'tarilgan xalq davlati millat nomi bilan yuritiladi, aniq hududiy chegarada muomalada bo'lgan umumxalq – millat tili davlat tili maqomi darajasiga ko'tariladi, o'zlikni anglash darajasi esa fuqarolarning hayot mazmuniga, kundalik turmush tarziga aylanadi.

### **Seminar mashg'ulotlari rejasi:**

1. «Etnos» va «etniklik» tushunchalarining mohiyati hamda bu boradagi zamonaviy qarashlar.
2. O'zbekiston etnologiyasi etnos va etniklik nazariysi.
3. Primordializm va konstruktivizmnинг asl mohiyati hamda mazkur nazariyalar doirasida bajarilgan zamonaviy qarashlar tahlili.

### **Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Etnos nazariyasi ilk bora kimning qaysi asarida bayon qilingan?
2. Etnos nazariyasi doirasida mashhur etnograf olim Yu. Bromley tomonidan qanday konsepsiya ilgari surilgan?
3. Etnos nazariyasining muhim kamchiliklari nimalardan iborat edi?
4. Zamonaviy etnologiyada etniklik nazariyasi borasida nimalarni bilasiz?
5. Etniklik borasida akademik V. Tishkov qanday fikr bildirgan?

### **Adabiyotlar:**

1. Бромлей Ю. В. Очерки теории этноса. – М., 1983.
2. Shoniyo佐 K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. – Т., 2001.
3. Asqarov A. O'zbek xalqi etnogenet va etnik tarixi. – Т., 2008.
4. O'zbekiston etnologiyasi: yangicha qarashlar va yondashuvlar. – Т., 2004.
5. Markaziy Osiyoda an'anaviy va zamonaviy etnomadaniy jarayonlar. 1-qism. – Т., 2005.
6. Рыбаков С. Е. Философия этноса. – М., 2001.
7. Алексеев В. П. Этногенез. – М., 1986.
8. Гумилев Л. Н. Этногенез и биосфера земли. – Л., 1990.
9. Тищков. В. А. Реквием по этносу: исследования по социально-культурной антропологии. – М., 2003.
10. Этнология (Этиография): учебник для бакаларов// по ред. В. А. Козьмина, В. С. Бузина. Москва, Изд. Юрайт, 2014.

## **IV BOB**

### **DUNYONING ETNIK MANZARASI VA ETNOSLAR KLASSIFIKATSIYASI**

*13-§. Yer yuzi aholisining etnik tarixi.*

*14-§. XX asrdagi etnodemografik jarayonlar.*

*15-§. Dunyo aholisining geografik va antropologik klassifikatsiyasi.*

*16-§. Linguistik tasnif.*

#### **13-§. Yer yuzi aholisi etnik tarixi**

**Y**er yuzida aholi sonining muttasil ko‘payib borishi, ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi, jamoat uyushmalarining murakkablashib borishi va madaniyat taraqqiyoti doimiy tarzda yalpi ko‘chib o‘tish(migratsiya)ning ko‘payishiga, alohida xalqlar va ularning turli mintaqalardagi butun bir guruhlar orasidagi o‘zaro xo‘jalik-madaniy munosabatlarining kuchayishiga va o‘zaro qorishib ketishiga sabab bo‘lmoqda. Yevropa, Osiyo va Shimoliy Amerika xalqlari etnik tarixida IV – IX asrlarda yuz bergen xalqlarning «buyuk ko‘chishi» nomini olgan jarayon muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan mazkur davrda slavyanlarning Sharqiy Yevropada joylashishi, germanlarning Markaziy va Shimoliy Yevropaga tarqalishi hamda ularning Britaniya orollariga kirib borish jarayoni yuz bergen. IV asr so‘nggida Yevropaga xunlar kirib kelgan va Dunay havzasida etnik qorishgan

aholidan yirik davlatni barpo qilganlar. Xunlarning izidan Yevropaga xazarlar, avarlar, qipchoqlar, bolgarlar kabi boshqa turkiy xalqlar kirib keldilar. Bolgarlarning bir guruhi Volga daryosi bo'ylab ko'tarilgan va ulardan bir qismi chuvashlar hamda tatarlar etnogenezida muhim rol o'ynagan bo'lsa, boshqa bir guruhi esa 679-yili Dunaydan o'tib janub tomon yoyilgan hamda bolgar xalqiga o'z nomini bergan. VIII – IX asrlarda Janubiy Ural tog'laridan O'rta Dunay irmog'iga G'arbiy Sibirda yashovchi xant va mansilarga yaqin bo'lgan majorlar (madyarlar) kelib joylashganlar. Turkiy xalqlar milodning I ming yilligining ikkinchi yarmida yalpi tarzda Janubiy Sibir va Markaziy Osiyoga ko'chib o'tganlar. VI asr va VII asr boshlaridan arablar tomonidan ko'plab mamlakatlarning bosib olinishi natijasida uning Old Osiyo va Shimoliy Afrika mamlakatlariga tarqalishi hamda u yerlarda yashovchi mahalliy aholi bilan qo'shilish jarayoni boshlangan.

II ming yillikning birinchi yarmida Osiyo va Yevropa mamlakatlari etnik tarixiga mo'g'ullar bosqini jiddiy ta'sir qildi. XIII asrda Chingizzxon qo'shini tarkibida mo'g'ullar bilan birga ko'plab turkiy qavmlar ham bo'lgan. Natijada kelib chiqishi har xil bo'lgan turli-tuman etnoslarning o'zaro qo'shilishi natijasida Markaziy Osiyo, Sharqiy Yevropa hamda Kavkaz orti hududlarida qator yangi etnoslar tashkil topdi.

Dunyoning etnik tarixida buyuk geografik kashfiyotlarning ham ta'siri katta bo'lgan. XVI – XIX asrlarda amalga oshirilgan geografik kashfiyotlar natijasida ko'plab yevropaliklar Amerika, Avstraliya va Okeaniyaga ommaviy tarzda ko'chib o'tganlar. Mazzkur migrantsion jarayonlarda dastlab ispanlar va portugallar, keyinroq gollandlar, fransuzlar va, ayniqsa, inglizlar asosiy rolni o'ynaganlar. Ushbu xalqlardan ajralib chiqqan ko'plab guruuhlar o'zlarining asl

vatanidan va ona xalqidan ajralganlaridan so'ng yangi yerlarda yangi etnik jamoalarga asos soldilar. Mazkur etnik jamoalarning tashkil topishida ayrim holarda kolonial mamlakatning mahalliy aholisi muhim rol o'ynagan bo'lsa, boshqa holatlarda Yevropadan kelgan emmigrantlar asosiy rolni o'ynagan. Chunki ular tomonidan ko'pincha mahalliy aholi butkul qirib tashlangan yoki o'zlarining asl etnik vatanlaridan quvib chiqarilgan.

Birinchi yo'ldan Meksika, Markaziy va Janubiy Amerikadagi ko'plab davlatlar aholisining shakllanishi yuz bergan bo'lsa, etnik rivojlanishning ikkinchi yo'lidan Kanada, AQSh, Argentina, Urugvay, Avstraliya va Okeaniya va Yangi Zelandiya hamda Gayava aholisi shakllangan. Amerika qit'asidagi ayrim mamlakatlarda, ayniqsa, Karib havzasini mamlakatlari, Venesuela, Braziliya va Gayana etnik tarixida yevropalik emmigrantlar va mahalliy hindular bilan birga Afrikadan bo'lgan qullar ham muhim rol o'ynagan. Umuman olganda, XVI asr va XX asr boshlarida dunyo miqyosida mustamlakachilik tuzumining avj olishi ham dunyo etnik manzarasining o'zgarishiga sabab bo'lgan. Qolaversa, aholi sonining intensiv o'sib borishi va yangi yerlarning o'zlashtirilishi ham turli tarixiy-etnografik mintaqalar orasida etnomadaniy aloqalarning avj olishiga sabab bo'lgan.

Tarixdan ma'lumki, insoniyat tarixida aholi sonining o'sishi murakkab va nomutanosib bo'lgan: «demografik portlashlar» davri aholi sonining keskin kamayib ketish davrlari bilan doimiy almashinib turgan. Aholi sonining o'sishi yoki kamayishi o'ziga xos tarixiy, ijtimoiy va biologik sabablar bilan bog'liq bo'lgan. XX – XXI asrlarda yer yuzida odamlar soni juda tezlik bilan o'sib bormoqda. Bunga 50 yil oldin yer yuzi aholisi hozirgiga qaraganda ikki baravar kam bo'lganligi va aholining qariyb yarmidan ko'pi 25

yoshga yetmasdan vafot etganligi yorqin misol bo'la oladi.

Ming yillar mobaynida dunyo aholisi juda sekin darajada ko'payib borgan, bunga sabab insoniyat tarixning ilk bosqichlarida tabiatga ma'lum ma'noda qaram bo'lgan. Qadimgi davrlarda va o'rta asrlarda tug'ilish keskin baland bo'lishiga qaramay doimiy kasalliklar, epidemiyalar, urushlar o'lim sur'atining o'sib borishiga olib kelgan. Shu bois aynan mazkur davrda dunyo miqyosida tug'ilish ko'rsatkichi o'lim-dan ustun turgan.

Paleolit davri yakunida (taxminan 15 ming yil oldin) yerdagi odamlarning umumiyligi soni taxminan 3 mln. atrofida bo'lgan. Kishilik jamiyati o'z tarixining mazkur bosqichida odamlar hozirgi yashayotgan hududining uchdan bir qismida yashar edilar. Yer yuzining boshqa mintaqalarida odamlar juda kam uchragan. Bu ma'lum ma'noda qadim ajdodlarimizning xo'jalik turmush tarzi (terib-termachilik, ovchilik, baliqchilik) bilan bog'liq bo'lib, mazkur holat odamlarning keng mintaqalarda bir-birlaridan uzoqda yashashlariga majbur qilgan.

O'n ming yil oldin Yaqin Sharqda yashagan odamlar jamoasining o'troq turmush tarziga o'tishlari va dehqonchilik hamda chorvachilikning keng yoyilishi odamlarning tabiatga qaramligini nisbatan kamaytirgan va ular sonining o'sishiga sabab bo'lgan. Ushbu novatsiyalar natijasida 4 – 5 ming yil avval yer yuzidagi aholi taxminan 25 mln kishiga ko'paygan. Bu davrda ona zaminimizning asosiy aholisi Qadimgi Misr, Mesopotamiya, Hindiston, Xuanxe va Yantszi daryolari oralig'ida hamda Markaziy Osiyo hududida yashagan. Insoniyatning bundan keyingi etnik tarixi xo'jalik munosabatlarining takomillashuv jarayoni (agrotexnikaning yaxshilanishi, yangi mehnat qurollarining yaratilishi, hayvonlarni xonakilashtirish) bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Ushbu omillar

natijasida yer yuzidagi kishilar soni sezilarli darajada ko'payib borgan. Antropologlar va etnologlarning taxminiy hisob-kitoblariga ko'ra eramizning boshlarida, ya'ni bundan ikki ming yil oldin yer yuzi aholisi 150–200 mln. kishiga yetgan. Lekin hali hanuz sayyoramizdagi aksariyat mintaqalarni o'zlashtirilmagan hududlar tashkil qilar edi. Arxeolog va paleontolog mutaxassislarning fikrlaricha, bu davrda asosiy aholining 70 foizi Osiyoda yashagan.

Milodiy eraning oxirgi XIX asri mobaynida yer yuzi aholisi 10 barobar ko'paygan bo'lsa-da, aholining ko'payish jarayoni tarixning barcha davrlarida ham bir xil tarzda kechmagan. Ayrim davrlarda aholi soni urushlar, kasalliklar va epidemiyalar ta'sirida keskin kamayib ketgan bo'lsa, boshqa davrlarda intensiv tarzda aholi sonining o'sib borishi kuzatilgan. Misol uchun XVI asrda yer yuzida o'lat epidemiyasining ommaviy tarzda tarqalishi natijasida ona zamin aholisining to'rtdan bir qismi qirilib ketgan. Shu bois eramizning birinchi ming yilligida yer yuzi aholisi faqatgina 1,5 baravarga ko'paygan xolos. I mingyillikdan II mingyillikka o'tish arafasida sayyoramizning asosiy aholisi Janubiy Osiyoda (79 mln. ), Xitoyda (66 mln.) yashagan va ular umumiyligi aholining 55 foizini tashkil qilgan. Bu davrda Yevropada Fransiya, Italia va Ispaniya kabi mamlakatlar aholisi eng ko'p bo'lgan mamlakatlar hisoblangan.

II mingyillik o'rtalariga kelib yer yuzi aholisi 1,6 barobar ko'paygan. Ayniqsa bu davrda Yevropa aholisi juda tez sur'atda ko'payib borgan bo'lsa-da, lekin eng ko'p odam yashagan mamlakat oldingi davrlardagidek Xitoy hisoblanib, bu mamlakatda jami 110 mln. odam istiqomat qilar edi. Shuningdek, Yaponiya aholisi ham juda tez sur'atda ko'payib borgan. Jumladan, Yaponiya aholisi 1000-yilda 4,5 mln. bo'lgan bo'lsa, 1500-yilda 17 mln. ga etgan. Yevropada esa eng ko'p odam yashagan mamlakat Fransiya bo'lib,

mazkur mamlakatda jami 15 mln. kishi istiqomat qilgan.

XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab butun dunyo bo'yicha aholi keskin ko'paygan. Shu bois mazkur davrni «birinchi demografik portlash» davri, deb aytish mumkin. Agar 1500-yildan 1750-yilgacha aholi soni taxminan 300 mln. kishiga ko'paygan bo'lsa, 1750-yildan 1900-yilgacha 910 mln. ga ko'paygan. Aholi sonining intensiv o'sib borish jarayoni XIX asrning ikkinchi yarmiga taalluqli bo'lib, bu davrda o'lim, ayniqsa, bolalar o'limi kamaygan, odamlarning o'rtacha yashash yoshi oshgan.

XX asr boshiga kelib eng ko'p aholi yashaydigan mamlakatlar Xitoy (475 mln.), Janubiy Osiyo (290 mln.) va Rossiya (130 mln.) bo'lgan. Keyingi o'rinnarda AQSh (76 mln.), Yaponiya (45 mln.), Germaniya (43 mln.), Fransiya (41 mln.), Indoneziya (38 mln.), Buyuk Britaniya (37 mln.) kabi mamlakatlar turgan. Qolgan mamlakatlarda birmuncha kam miqdorda aholi istiqomat qilgan.

#### **14-§. XX asrdagi etnodemografik jarayonlar**

XX asrda yer yuzi aholisi jadal sur'atda ko'payib borgan. Ona zaminda istiqomat qilayotgan odamlar soni 3 mlrd. dan oshgan, yoki amalda 3 baravarga ko'paygan. Bunda Lotin Amerikasi (6,1 barobar) va Afrika mamlakatlarida (4,7 barobar) ko'paygan bo'lsa, Yevropa aholisi (1,7 barobar) va sobiq SSSR aholisi (2,1 barobar) nisbatan kam ko'paygan. Bunday nomutanosiblikning asosiy sabablari migratsion jarayonlar (aholining ommaviy ravishda bir hudud-dan ikkinchisiga ko'chib o'tishi natijasida Shimoliy va Lotin Amerikasi, Avstraliya va Yangi Zelandiya aholisi jiddiy tarzda ko'paygan), XX asrda bo'lib

o‘tgan jahon urushlari, ikkinchi jahon urushidan keyin rivojlanayotgan davlatlarda aholi sonining tabiiy tarzda juda tezlik bilan ko‘payishi bo‘lgan. Yer yuzi aholisi 1 mlrd. ga taxminan 1820-yilda, 2 mlrd. ga 1927-yilda (oradan 107 yil o‘tgandan keyin), 3 mlrd. ga 1959-yilda (32 yildan keyin), 4 mlrd. ga 1974-yil (14 yildan keyin), 5 mlrd. ga 1987-yil (13 yildan keyin), 6 mlrd. ga 1999-yil (12 yildan keyin) etgan. BMTning aholishunoslik fondi ma’lumotlariga ko‘ra, 2011-yil 1 oktyabrda dunyo aholisi nufuzi 7 milliard, 2014-yil 1-yanvarda esa 7 mlrd 137 mln. 577 ming 750 kishi bo‘ldi. 2013-yilda ona sayyoramizdagi aholi 77 mln. 630 ming 563 kishiga, ya’ni boshqacha aytganda, 1,1 foizga oshgan. Aholi sonini oshishida avalgi yillardagi kabi Hindiston (15,6 mln.) Xitoy, Nigeriya, Pokiston va Efiopiya kabi mamlakatlar yetakchi bo‘lgan. Aholishunoslik bo‘yicha shug‘ullanuvchi mutaxassislar fikricha, dunyo aholisi 2015-yilda 8 milliard bo‘lishi kuzatilmoqda.

XXI asrning dastlaki o‘n yilligida yer yuzidagi ikki mamlakat aholisi: Xitoy – 1,2 mlrd. va Hindiston 1 mlrd. dan ortiqni tashkil etdi. To‘qqizta davlat (AQSh, Indoneziya, Rossiya, Braziliya, Yaponiya, Nigeriya, Pokiston, Meksika, Filippin)da 100 mln. odam istiqomat qilmoqda.

Hozirgi kunda dunyoda o‘z suverenitetiga va doimiy aholisiga ega bo‘lgan 225 mamlakat mavjud. Barcha mamlakatlarda yashovchi kishilar soni bir xil me’yorda bo‘lmagan. Yuqorida nomlari zikr etilgan mamlakatlarda yer yuzidagi jami aholining qariyb 60%i yashagan. Shu bilan birga 62 ta yirik mamlakatlarda (aholisi soni 10 mln. dan oshiq bo‘lgan) yer yuzidagi aholining qariyb 95%i istiqomat qiladi. Dunyoda aholisi soni juda ham kam bo‘lgan 38 ta «mitti» mamlakatlar ham mavjud bo‘lib, ularda jami hisobda 1 mln. ga yaqin aholi yashaydi.

*Aholisi nufuzi 80 milliondan  
ortiq bo'lgan mamlakatlar*

<b>Nº</b>	<b>Mamlakatlar</b>	<b>Aholi soni</b>	<b>O'sish ko'rsatkichi</b>
1	XXR	1 354 790 000	▲ 0,481
2	Hindiston	1 227 150 000	▲ 1,312
3	AQSh	314 705 000	▲ 0,899
4	Indoneziya	237 641 326	▲ 1,040
5	Braziliya	199 321 000	▲ 1,102
6	Pokiston	190 291 000	▲ 1,551
7	Nigeriya	170 123 000	▲ 2,553
8	Bangladesh	161 083 000	▲ 1,579
9	Rossiya	143 180 000	▲ 0,013
10	Yaponiya	127 368 000	▼ -0,077
11	Meksika	114 975 000	▲ 1,086
12	Filippin	103 775 000	▲ 1,873
13	Vietnam	91 519 000	▲ 1,054
14	Efiopiya	91 195 000	▲ 3,179
15	Misr	83 688 000	▲ 1,922
16	Germaniya	81 305 000	▼ -0,200

Etnik jarayonlarga XX asr 30-yillar birinchi yar-mida yuz bergan iqtisodiy inqiroz va dunyoning yirik davlatlaridagi siyosiy o'zgarishlar ham sezilarli darajada ta'sir qilgan. XX asrning 30-yillariga kelib dunyo bo'yicha aholining yillik o'sish darajasi 1% ga kamayib ketgan. Jumladan, 1935-yilda Fransiyada tug'ilish o'limdan kamayib ketgan. Shuningdek, AQSh aholisining tabiiy o'sishi ham pasaygan, bu davrda Osiyo aholisining yillik o'sishi esa 30% ga kamayib ketgan. Faqatgina Lotin Amerikasi davlatlarida aholining yillik o'sishi kamaymagan bo'lib, bu hududda aholining yillik o'sishi 1,8% ga ko'paygan.

XX asrdagi etnik jarayonlarga ta'sir qilgan sabablardan eng muhimlaridan biri, shubhasiz, ikkinchi jahon urushi bo'lgan. Aynan mazkur urush natijasida qariyb 50 mln. kishi qurban bo'lgan. Urush yillarida faqat Amerika va Avstraliya aholisigina ko'paygan. Ayniqsa, Lotin Amerikasi mamlakatlariiga urushdan so'ng vayron bo'lgan G'arbiy Yevropadan ko'chib borgan emmigrantlar hisobiga 2,5% ga ko'paygan.

XX asrning 50-yillarida dunyo miqyosidagi etnik jarayonlar oldingi o'n yilliklardan tubdan farq qilgan. Bu davrda sodir bo'lgan eng muhim o'zgarishlardan biri «demografik portlash» bo'lib, oldingi davrlardan umuman farqli bo'lgan. Mazkur yillarda, garchi tug'ilish kamaygan bo'lsa-da aholi o'rtacha yoshining o'sishi va o'limning kamayishi hisobiga aholi soni ortib borgan. Ayniqsa, 60-yillar boshlariga kelib dunyo bo'yicha o'lim 2 % ga, ayrim Janubiy Amerika mamlakatlari, Afrika va Osiyoda 3% ga kamaygan. Natijada 1950 – 1983-yillar davomida aholi soni deyarli ikki baravarga ko'paygan. Shu bilan birga ko'plab Yevropa mamlakatlarda aholi soni 25% ga ko'paygan.

Oxirgi o'n yilliklarda Osiyo aholisining o'sishi, garchi sekin tarzda bo'lsa-da, pasayib bormoqda (60-yillarda 2,2% bo'lgan bo'lsa, 80-yillar boshiga kelib 1,8% bo'lgan). Arab mamlakatlarda, Pokiston, Malayziya va Filippin kabi mamlakatlarda aholining sonini o'sishi an'anaviy tarzda yuqori bo'lib qolmoqda. Umuman olganda, mazkur mintaqadagi aholi sonining ko'payishi umumiy aholi o'sishining qariyb 60% iga to'g'ri keladi.

Lotin Amerikasi mamlakatlarda o'lim sur'atining jiddiy tarzda kamayishi mazkur mintaqani ikkinchi jahon urushidan keyin aholi soni ortishi bo'yicha dunyo miqyosida birinchi o'ringa chiqishiga sabab bo'lgan. Biroq mazkur mintaqada 60-yillardan boshlab tug'il-

ish sur'ati jiddiy tarzda kamaya boshlagan va bu aholi sonining o'sish darajasiga ta'sir qilgan hamda aholi soni oldingi 20 yil darajada saqlanib qolgan.

Afrika mamlakatlarida etnik jarayonlar birmuncha boshqacha tarzda kechgan bo'lib, bu yerda urushdan keyin eng ko'p tug'ilish va o'lim ko'rsatkichini kuzatish mumkin. Faqatgina 60-yillardan boshlab o'lim sur'ati ma'lum ma'noda kamaya boshlagan. Birroq mazkur mintaqaga tug'ilishning ko'pligi bois aholi sonining o'sishi bo'yicha dunyo miqyosida yetakchi o'rinnarda turgan. 60-yillardan boshlab Afrika aholi sonining yillik ko'payishi bo'yicha Lotin Amerikasi mamlakatlaridan o'tib ketgan. Afrika mamlakatlari ning oxirgi o'n yilliklardagi aholisining yillik ko'payish sur'ati 15 mln. kishini tashkil etadi.

Zamonaviy etnologiyada etnoslarni tasniflash prinsiplari turli-tumanligi bilan farqlanib turadi; etnologiyadagi zamonaviy nazariyalar etnologiya va unga yondosh bo'lgan qator fanlarning ma'lum bir etnos yoki etnik guruhning boshqasidan farqli xususiyatlarini anglatuvchi me'yorlar asosida yaratilgan. Qolaversa nazariyalar bajarilayotgan u yoki bu tad-qiqotning maqsadidan kelib chiqib ham turfa xil bo'lishi mumkin. Tasniflashning ayrim me'yorlari birinchi navbatda xalqlarning etnik mansubligiga, ularning shakllanish tarixiga asoslansa, avvalo tilshunoslikning tarixiy-qiyosiy usullari, antropologiya, moddiy va ma'naviy madaniyat borasidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlar katta ahamiyat kasb etadi. Boshqa me'yorlar etnik mansubligidan mustasno bo'lgan turli xalqlar va ularning guruhlariga tegishli boshqa xususiyatlar tahlilidan hamda etnik aloqalar o'rnatalilagini yoki mavjud emasligidan kelib chiqib belgilanadi. Xalqlarni tasniflashda avvalo xo'jalik yuritish me'ylari asos qilib olingan bo'lib, bunda birinchi navbatda tabiiiv-geografik muhitga asosiy ahamiyat berilgan,

etnik va madaniy an'analar esa ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo'lgan. Bu ijtimoiy munosabatlar taraqqiyoti darajasidagi xalqlar guruhiga, shuningdek, diniy mansubligi bilan ham bog'liq bo'lgan.

Ushbu antropologik me'yorlardan kelib chiqqan holda barcha xalqlar geografik, antropologik, til belgilari va xo'jalik yuritish an'analariga ko'ra tadqiq qilinadi hamda turli tarzda tasniflanadi.

*Yer yuzi aholisining so'nggi 263 yildagi nufuzi*

Yillar	Afrika	Osiyo	Yeropa	Mar. Jan. Amerika	Shim. Amerika	Okeaniya
1750	106 000	502 000	163000	16 000	2 000	2 000
1800	107 000	657000	203000	24 000	7 000	2 000
1850	111 000	809000	276000	38 000	26 000	2 000
1900	133 000	947000	408000	74 000	82 000	6 000
1950	221 214	1398488	547 403	167 097	171 616	12 812
1955	246 746	1 541 947	575 184	190 797	186 884	14 265
1960	277 398	1701336	604 401	218 300	204 152	15 888
1965	313 744	1899424	634 026	250 452	219 570	17 657
1970	357 283	2143118	655 855	284 856	231 937	19 443
1975	408 160	2397512	675 542	321 906	243 425	21 564
1980	469 618	2632335	692 431	361 401	256 068	22 828
1985	541 814	2887552	706 009	401 469	269 456	24 678
1990	622 443	3 167 807	721 582	441 525	283 549	26 687
1995	707 462	3 430 052	727 405	481 099	299 438	28 924
2000	795 671	3 679 737	727 986	520 229	315 915	31 043
2005	887 964	3 787 508	724 722	558 281	332 156	32 998
2013	1023023	42 23457	733423	600323	401023	35002

## **15-§. Dunyo aholisining geografik va antropologik klassifikatsiyasi**

Har bir fan tarmog'i mazkur fanning asosiy tad-qiqot predmeti to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish va ularni tizimlashtirish hamda klassifikatsiyalash-dan boshlanadi. Lekin klassifikatsiyalash barcha uchun umumiyligi va turli maqsadlarni o'zida qamrab olgan bo'lmog'i hamda o'z tabiatiga klassifikatsiya qilinayotgan ob'ektining tuzilishini to'liq aks ettir-gan holda mayjud prinsiplar va dasturlarga mos kel-mog'i zarur. Odatda, klassifikatsiyalash natijasida qator yangi qonunlar va qonuniyatlar, nazariyalar va konsepsiylar yaratiladi. Bu ma'noda etnologiya fani ham mazkur mulohazalardan mustasno emas.

Dunyo xalqlarini ma'lum bir tarzda etnik tasnif-lash talab qilganligi bois, yuqorida ta'kidlab o'til-ganidek, ular *geografik joylashuviga, antropologik tuzilishiga, til guruhiiga, xo'jalik an'analariga hamda diniy e'tiqodiga ko'ra tasniflanadi*.

XIX asr oxirida nemis olimlari (L. Frobenius, F. Grebner va boshqalar) va keyinchalik amerikalik antropologlar (K. Uissler, A. Kryober) dunyo mintaqalarini madaniy rivojlanish – «madaniy mintaqalar», hududlarga bo'lishni ishlab chiqqanlar. So-biq sovet ittifoqi etnografiyasida ushbu ilmiy an'ana «xo'jalik madaniy tiplari», «tarixiy-madaniy viloyatlar» kategoriylarida o'z aksini topgan. Bu borada rus etnograflari V. G. Bogoraz, S. P. Tolstov, M. G. Levin, N. N. Sheboksarov ishlarini alohida ta'kidlab o'tish joizdir. To'g'ri, bugungi kunda bunday tasniflanish, ayrim g'arb olimlari tomonidan jiddiy tanqid ostiga olinishiga qaramay, hali hanuz ilm olamida butkul o'z mavqeini yo'qotgan, deb aytib bo'lmaydi. Shu bois biz quyida ushbu tasniflashga biroz kengroq to'xtalib o'tamiz.

Geografik klassifikatsiya etnologiyaga ham xos xususiyat bo'lib, unda xalqlarning bevosita yashayotgan mintaqalari bilan bog'liq tarzda talqin qiladi.

Geografik tasniflash natijasida turli xalqlar yashagan shartli geografik mintaqalar nomi paydo bo'ladi. Xuddi shunday tarzda «Markaziy Osiyo xalqlari», «Sharqiy Yevropa xalqlari» kabi nomlar paydo bo'lgan. Bunday tarzda xalqlarni geografik umumlashtirib tasniflash faqatgina geografik tasniflash uslublari, etnik prinsiplar bilan ma'lum ma'noda mos kelgan taqdirdagina bajariladi. Xalqlarni bu tarzda tasniflash prinsiplari garchi fanda keng qo'llanilishiga qaramay, xalqlarning kelib chiqishi, ularning shakllanishi, xo'jalik yuritish an'analari, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti muammolariga javob bermaydi. Biroq xalqlarni turli hududlar bo'yicha umumlashtirish va etnoslarni turli hududlar bo'yicha taqsimlagan holda tasniflash imkonini beradi. Shu bois bunday tasniflash yordamchi xususiyat kasb etadi va xalqlarni guruhlashtirishdagi boshqa me'yorlar bilan mos kelgandagina, ya'ni boshqacha aytganda, katta-katta mintaqalar misolidagina qo'llaniladi. Xalqlarni klassifikatsiyalash ichki viloyatlardan voz kechishni talab qiladi.

Yer yuzidagi barcha mamlakatlar tomonidan qabul qilingan yagona geografik tasniflash mavjud emas. Bu borada eng sodda bo'linish tarzida *Australiya va Okeaniya xalqlari*, *Osiyo xalqlari*, *Amerika xalqlari*, *Afrika xalqlari*, *Yevropa xalqlari* deb bo'linishni kelтирishimiz mumkin. Umuman olganda dunyo xalqlari quyidagi geografik ko'rinishda tasniflanadi:

**I. Avstraliya va Okeaniya.** 1) Avstraliya va Tasmaniya, 2) Melaneziya, 3) Polinezija 4) Mikroneziya.

**II. Osiyo.** 1) G'arbiy (yoki Old) Osiyo, 2) Janubiy Osiyo, 3) Janubi-Sharqiy Osiyo, 4) Sharqiy Osiyo, 5) Markaziy Osiyo.

**III. Amerika.** 1) Shimoliy Amerika, 2) Markaziy Amerika, 3) Janubiy Amerika.

**IV. Afrika.** 1) Shimoliy Afrika, 2) Janubiy Afrika.

**V. Yevropa:** 1) Sharqiy Yevropa, 2) Janubiy Yevropa, 3) G'arbiy va Markaziy Yevropa, 4) Shimoliy Yevropa.

**Xo'jalik-madaniy tiplar** – jahon xalqlarining ibtidoiy jamiyat davri (qadimgi tosh, bronza va temir asrlari)dagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, turlicha tabiiy sharoitda joylashishi va moslashishi ularning hayotida turli tipdagi xo'jalik-madaniyatlarni vujudga keltirgan edi. Xo'jalik-madaniy tiplar dastavval muayyan jamiyatda ustuvor ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lib, har bir tarixiy davrda kishilarning tevarak-atrofdagi muhit bilan aloqa xarakterini belgilaydi.

Mazkur tiplar kishilarning mashg'uloti va ishlab chiqarish qurollari, turarjoylari va uy-ro'zg'or jihozlari, taomlari va kiyim-kechaklari, transport vositalari va boshqa tiplarga qarab, muayyan jamiyatning ijtimoiy tuzumini ham aniqlash mumkin. Ma'naviy madaniyat xususiyatlari, asosan, urf-odatlarda, tasviriy san'atda, e'tiqodi va folklorida yorqin namoyon bo'ladi. Xo'jalik-madaniy tiplarning birligi va o'zaro bog'liqligi muayyan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va bir-biriga yaqin geografik muhit bilan bog'liq bo'lib, o'zgaruvchan xarakterga ega.

Eng qadimgi davrlarda paydo bo'lgan etnoslarning xo'jalik-madaniy tipi issiq tropik va subtropik iqlimli o'lkalardagi ovchilik, terib-termachilik va sohillarda baliqchilikdir. Namli tropik va subtropik joylarda ikkinchi xo'jalik-madaniy tipi ichki issiq iqlimdagi qo'l mehnatlari dehqonchiligi tarqalgan bo'lib, bunga qisman ovchilik-terimchilik va baliqchilik xo'jaliklari ham yordamchi hisoblangan. Iqtisodiyot va texnika taraqqiyotida yangi sifat yaratgan uchinchi xo'jalik-madaniy tipi motiga dehqonchilik bilan chorvachilik qo'shilishi natijasida paydo bo'lgan edi.

Keyingi davrdagi fan-texnika taraqqiyoti butun jahondagi an'anaviy xo'jalik-madaniy tiplarga jiddiy o'zgartirishlar kiritdi. Yevropa va Amerikadagi eng rivojlangan mamlakatlarda aholining ko'pchiligi industrial sohaga jalb etildi, an'anaga aylanib qolgan qishloq xo'jaligi o'rniga yuksak taraqqiy etgan tovar dehqonchiligi va intensiv chorvachilik, plantatsiyali qishloq xo'jaligi paydo bo'lgan edi. XX – XXI asr boshlarida an'anaviy xo'jalik-madaniy tiplar barham topa boshladi va saqlanib qolgan belgilari yangi mazmun bilan boyidi.

**Xalqlarning antropologik klassifikatsiyasi.** Vatanimizda va xorijda e'tirof etilgan ilmiy an'anaga ko'ra antropologiya fan sifatida insoniyatning kelib chiqish tarixini, uning evolyutsiyasi, irqlarning kelib chiqishini hamda turli xalqlarning morfologik va jismoniy xususiyatlarini o'rganadi. Antropologik tasniflashda turli etnik guruhlar va xalqlarning madaniy xususiyatlari emas, balki biologik xususiyatlariga va genetik-qarindoshlik prinsiplariga asosiy e'tibor qaratiladi. Biroq genetik aloqadorlik prinsiplari insonlarni ma'lum bir tasniflarga bo'lish imkonini bermaydi. Shu bois etnologiyada turli xalqlar orasidagi qon-qarindoshlik aloqalari tarixini tahlil etishda ko'plab uslublardan foydalilaniladi. Ko'pincha etnologlar antropologik klassifikatsiyaning asosini tashkil qiluvchi etnoslarning irqiy farqlarini asos qilib olishadi.



Insoniyat biologik tuzilish jihatdan umumiylikka ega va yer yuzidagi barcha insonlar bir biologik turga mansubdir. Lekin dunyoning mavjud etnik manzara-si turli mintaqalarda yashayotgan insonlar tana tuzilishi, rangi, soch turi, yuz-qiyofasiga ko'ra rang-barang, ya'niki antropologik tuzilishiga ko'ra turli-tuman ko'rinishga ega. Insonlar orasidagi o'zaro farqli xususiyatlar irqiy tasniflash orqali tahlil qilinadi. Irqiy tasniflashda insonning soch shakli, uchlamchi soch qoplami, teri tuzilishi, sochning rangi, ko'z rangi, bo'yli, tananing proporsiyasi, tana bosh qismining tuzilish shakliga ko'ra farqlanadi. Umuman olganda, *irqlar* deb genetik qon-qarindoshlik munosabatlari asosida tashqi tana tuzilishiga ko'ra o'xshash bo'lgan hududiy birlashgan kishilar guruhiya aytildi. Antropologik jihatdan hozirgi xalqlar vatanimiz va xorijiy antropologiya fanida to'rtta katta irqqa – negroid (afrikan), yevropoid (yevroosiyo), mongoloid (osiyo-amerika) va avstroloid (okeaniya) irqlariga bo'linadi.

Irqlarga xos umumiylilik muhim to'rt xususiyati bilan ajralib turadi.

1. Barcha populyatsiyalar jismoniy tipdag'i qarindoshlik bilan chegaralangan.

2. Jismoniy ko'rinishlardagi umumiylilik irlsiyat qonuniyatiga asoslanadi.

3. Populyatsiya uchun biologik tarix umumiyligi xos.

4. Xar bir irq uchun ma'lum bir geografik mintaqaga xos bo'ladi.

Umuman olganda irqlarning farqli xususiyatlari sifatida quyidagi irqiy alomatlarni ko'rsatish mumkin.

*Yevropoid* irqiga mansub kishilarning terisi oq yoki bug'doyrang, sochlari turli-tuman to'g'ri va to'lqin-simon, ko'pincha mayin bo'lib o'sadi va yuz hamda tanani jun qoplagan bo'ladi. Burni tor, lablari o'rtacha

yoki kichik hajmda bo'ladi. Ko'zлari turli-tuman rangda va bosh miya suyaklari oldinga bo'rtib chiqmagan.

*Austroloidlar* terisining rangi qoramtil, sochlari qora to'lqinsimon, jingalak va qattiq, yanoq va bosh suyaklari oldinga chiqqan, burunlari katta, lablari qalin bo'ladi. Yuzlari va tanasi jundor.

*Mongoloidlarda* esa teri rangi sariqroq yoki to'q bug'doymang, sochlari esa to'g'ri shaklda qattiq bo'ladi. Soch va ko'zlarning rangi qora yoki to'q jigarrang, erkaklarda soqol va mo'ylov biroz kechroq chiqadi va ko'pincha siyrak bo'ladi. Yuzi keng va yanoq chanog'i qattiq chiqadi, burun esa unchalik katta bo'lmaydi. Amerikaning mongoloid aholisida teri rangi sariq rangda bo'ladi.

*Negroidlarning* sochi qora, tim qora rangda, jingalak va ko'pincha qattiq hamda shakliga ko'ra to'g'ri bo'ladi. Soqol va mo'ylovlari xuddi mongoloidlarnikiga o'xshash tarzda yomon o'sadi. Ko'zлari ba'zida qisiq bo'ladi. Burunlarining kengligi juda katta bo'lib, deyarli balandligi bilan teng bo'lgan. Yuzlari kichkina va tor ko'zлari esa yevropaliklarnikiga o'xshash keng ochiq bo'ladi.

*Irqlarning tarqalish mintaqasi.* Yevropoidlar bugungi kunga kelib nafaqat Yevropada joylashgan, balki ular Shimoliy Afrikaning barcha hududida (jazoirliliklar va misrliklar), Osiyoning g'arbida (turklar va arablar), Sibirda ruslar va deyarli barcha Kavkaz mintaqasida, O'rta Osiyoda, Iroq, Afg'oniston va Hindistonda ham keng tarqalgan. Oxirgi 400 yil ichida Shimoliy Amerika va Janubiy Amerika mamlakatlarining asosiy aholisini yevropoid irqiga mansub kishilar tashkil qilgan.

Yevropada so'nggi paleolit va mezolit davridanoq mahalliy tabiiy sharoitga moslashgan yevropoid irqining ikki tipi shakllangan. Bular: oq tanli, malla rang sochli, ko'k ko'zli blandinlar bo'lmish shimoliy yev-

ropoid tip va qora to'lqin sochli, qora ko'zli oq badan bryunetlardan iborat janubiy yevropoid tipini tashkil qiladilar. Mazkur irqiy guruhlar oralig'ida turgan o'rta tip (shoten) har ikki tipning ham belgilarini saqlab qolgan. Keyinchalik Yevropaga kirib kelgan mo'g'ullar ayrim etnoslarda o'z izini qoldirgan. Bunga Skandinaviyada yashovchi mongoloid belgilariga ega bo'lgan loparlar misol bo'la oladi.

*Negroidlar* hozirgi kunga kelib Afrikada yashashadi, Tinch okeanining ko'plab orollarida, o'z navbatida ularning ko'plari Amerika qit'asiga mustamlakachilik tuzumi davrida majburan qul qilib olib kelingan va ularning avlodlari hozirda ham Amerikada ko'plab istiqomat qiladilar.

*Astroloidlar* ko'p xususiyatlariga ko'ra negroid-larga o'xshash bo'lib, Avstraliya va Melaneziyada yashashadi.

*Mongoloidlar* (osiyo shoxi) Xitoy, Vietnam, Yaponiya, Indoneziya va Filippinda yashashadi. Ularga qozoqlar, qirg'izlar va Uzoq Sharq hamda Shimolning mahalliy xalqlari ham kiradi.

Mazkur to'rtta katta irq taxminan 25 ta kichkina irqlar (ularni ba'zida etnogenetik shahobchalar yoki lokal irqlar ham deb aytishadi) ga bo'linadi. Katta va kichkina irqlar orasida oraliqdagi irqlar ham mavjud. Misol uchun, negroidlar va yevropoidlar orasida – efiopiyaliklar va mulatlar; mongoloidlar va astroloidlar orasida Janubiy Osiyo irqi – yaponlar va shu kabilarni ko'rsatish mumkin. Efiopiyaliklarning yuzlari ularning qo'shnilarini bo'lgan arablar bilan bir xil shaklda bo'lsa-da, terilarining rangi qora, negroid irqi terisiga o'xshash o'ta yorqin emas. Yaponlarda bir vaqtning o'zida astroloidlarga, mongoloidlarga va yevropoidlarga xos alomatlarni kuzatish mumkin.

Umuman olganda, irqiy farqlarni ma'lum bir guruh yoki jamiyat a'zolari tomonidan muhim deb hi-

soblanadigan jismoniy farqlanish tarzida tushunish lozim. Masalan, tana rangi bu ma'noda ko'pincha muhim deb hisoblanadi, soch rangi esa bunday deb hisoblanmaydi. Irqchilik – ma'lum tashqi qiyofaga ega bo'lgan shaxslarga ma'lum tug'ma insoniy va axloqiy xususiyatlar xos, deb hisoblashdir. I rqchi – bu ma'lum turdag'i insonlarga xos bo'lgan ustunlik yoki kamchilikning biologik izohi mavjudligiga ishonuvchi kimsadir.

## **16-§. Lingvistik klassifikatsiyalash**

Sayyoramizda yashovchi turli-tuman xalqlarning shakllanishida va ularni farqlashda til ham muhim ahamiyat kasb etadi. Til birligiga qarab ayrim xalqlar, etnik guruhlar aniqlanibgina qolmay, ko'pincha til asosida nom ham beriladi. Dunyo xalqlarining til boyligi juda boy va o'z navbatida juda ham murakkab hisoblanadi. Biroq lingvistik klassifikatsiya bir qator kamchiliklardan ham xoli emas. Jumladan, lingvistik tahlil orqali bir necha tillarda so'zlashuvchi xalqlarni (misol uchun yahudiyarni), yoki oldingi tillaridan farqli tilda so'zlashuvchi etnoslarni (misol uchun irlandlarni) tasniflash me'yorlariga solish qiyindir. Shunga qaramay lingvistik klassifikatsiyalashning ko'plab ijobiy jihatlari mavjud. Avvalo, bunday klassifikatsiyalashni qo'llash natijasida yoki umumiyl kelib chiqishiga ega bo'lgan xalqlar yoki uzoq muddat doimiy madaniy-lingvistik aloqada bo'lgan xalqlar bir guruhg'a kiradi.

Lingvistik tasnif tarixiy-qiyosiy o'rganish orqali aniqlanadi. Qolaversa, etnoslarning turli klassifikatsiyalari orasida etnosning tiliga qarab tasniflash muhim tasniflashlardan biri hisoblanadi. Shunki aynan lingvistik tasniflash orqali ma'lum bir

xalqlarning etnik yaqinligi, u yoki bu madaniyatning umumiy asosga ega ekanligi borasida birmuncha aniq tasavvurlar beradi.

Dunyo xalqlari til birligi, boyligi va murakkabligiga ko'ra farqlanib turadi. Tadqiqotchi olimlar tomonidan yer yuzida turli etnik guruhlar va jamoalar so'zlashuvchi 6 mingdan ortiq tillar mavjudligi aniqlangan<sup>1</sup>. Sayyoramizdagi ayrim davlatlardaagina (ko'plab Yevropa mamlakatlarida) bitta tilda gaplashishsa, ayrim mamlakatlarda (Nigeriya va Rossiyada) 100 dan ortiq tillarda so'zlashishadi.

Hozirda ayrim tillar kelib chiqqan hududidan tashqaridagi keng hududlar bo'ylab yoyilgan. Bu borada misol uchun arab tilini olib ko'radigan bo'sak, arab tili paydo bo'lgan vaqtida (VII asrdan oldin) undan faqat Arabiston yarim orolining janubidagina yashovchi qabilalar foydalangan bo'lsa, hozir bu tilda Shimoliy Afrika va Janubi-Sharqiy Osiyoda joylashgan juda ko'p xalqlar so'zlashadilar. Yoki ingliz tilini olsak, dastlab unda Britaniya orolining aholisi so'zlashgan bo'lsa, hozir Yevropa va Shimoliy Amerika aholisining beshdan bir qismi, Avstraliya va Yangi Zelandiya xalqlari asosan shu tilda so'zlashadilar. Asl vatani Pireney yarim oroli bo'lgan ispan tili keyinchilik butun Lotin Amerikasiga tarqalgan.

Xalqlarni tilga qarab tasniflash mezonlari asosan ikki – til va etnik mansublik prinsiplariga asoslanadi. Umuman olganda, til insoniyat madaniyatining asosini tashkil etadi. Chunki til tufayli aynan insonga xos maxsus ramzlar orqali ma'lumot uzatiladi. Tilning taraqqiyoti madaniyat taraqqiyoti bilan uzviyligida borgan va yakunida inson shakllangan.

U yoki bu tillarning qon-qarindoshliligi etnologiya uchun ushbu tillarda so'zlashuvchi madaniyatlarning va xalqlarning yaqinliligini namoyon qilishi bilan ham ahamiyatlidir.

<sup>1</sup> Садохин А. П. Этнология. – М., 2000. – С. 104.

Dunyo xalqlari orasidagi turli til oilalari borasida tadqiqotchi olimlar o'rtasida umumiy qarash mavjud emas. Biroq oxirgi yillardagi ilmiy tadqiqotlar nati-jalari asosida dunyo xalqlari tillarini quyidagi til oilalariga bo'lish mumkin:

Hindoyevropa tillar oilasi – eng ko'p sonli va eng keng tarqalgan til oilasi hisoblanadi. Mazkur oilaga kiruvchi tillarda dunyo aholisining 45 foizi so'zlashadi. Hindoyevropa oilasiga kiruvchi xalqlar Yevropaning katta qismida, Tojikiston, Eron, Afg'oniston, Janubiy Osiyoning shimoliy, janubiy va markaziy hududlarida, Amerika va Avstraliyada yashaydi. O'z navbatida, hindoyevropa tillar oilasi 10 ta guruhga: slavyan, boltiq, nemis, kelt, roman, grek, alban, eron, hindooriy va arman tillar guruhiga bo'linadi.

Kartvel til oilasiga mansub kishilar kam sonli bo'lib, faqatgina Gruziya hududidagina yashashadi.

Dravidlar oilasi (dunyo aholisining 4 foizi) ga Hindistonning janubida va Shri-Lankaning sharqi-da yashovchi aholi kiradi. Ushbu til oilasi ham 4 guruhga: markaziy, janubiy, shimoli-sharqiy va shimo-li-g'arbiyga (darvit tillarining boshqacha klassifikat-siyasi ham bor) bo'linadi.

Oltoy tillar oilasi (dunyo aholisining 6 foizi). Mazkur tillarda Yevroosiyoning bir-biridan uzilgan min-taqalari – Bolqondan tortib Yapon orollarigacha, Shimoliy muz okeani qirg'oqlaridan tortib Markaziy Osiyo cho'llarigacha bo'lgan hududlarda yashovchi turli xalqlar so'zlashadilar. Ushbu oila 5 ta guruhga: turkiy, mo'g'ul, tungus, manjur va koreys tillaridan iborat.

Afraosiyo tillari (semit-xamit) oilasi (dunyo aholisining 5 foizi) Shimoliy va Shimoli-Sharqiy Afrikada, Arabiston yarim orolida va unga tutash bo'lgan shi-moliy mamlakatlarda: Suriya, Livan, Iordaniya, Iordan daryosining g'arbiy qirg'og'ida, Iroqda hukmron

hisoblanadi va 4 ta guruhni: semit, barbar, chad va kushit tillarini birlashtiradi.

Nigero-kordofan oilasida so'zlashuvchi xalqlarga (dunyo aholisining 6 foizi) G'arbiy, Markaziy, Sharqiy va Janubiy Afrikada yashovchi aholi kiradi. Ushbu til oilasi – kongo va kordofan tillariga bo'linadi.

Nigero-kordofan tillarida so'zlashuvchi xalqlar yashaydigan mintaqaning shimoliy hududlarida nil-saxara oilasida gaplashuvchi xalqlar (dunyo aholisining 6 foizi) yashashadi va ular 9 guruhga: Sharqiy Sudan, Markaziy Sudan, bertlar, kunama, saxar, songai, fur, mabang, komuelarga bo'linadi.

Kamsonli Shimoliy Kavkaz oilasi (dunyo aholisining 0,1 foizi)ga abxaz-adigeylar va nax – dog'istonliklar kiradi.

Hindoyevropa til oilasidan keyingi aholi soniga ko'ra eng ko'p tarqalgan tillar oilasiga sino-tibet tillar oilasi kiradi. Bu tilda dunyo aholisining 23 foizi so'zlashadi. Bu til oilasi Sharqiy, Markaziy, Janubi-Sharqiy Osiyo aholisi va Janubiy Osiyoning shimoliy mintaqalarida yashovchi aholiga mansub. Turli olimlar xitoy-tibet tillar oilasini turli guruhlarga bo'ladi. Ba'zi bir tasnifiy bo'linishga ko'ra ushbu guruhga 13 ta til: xitoy, tibet-birma, kachin, bodo-garo, midju, digaro, miri, jimal, lepcha, shimoliy himolay, nevari, gurung va sharqiy himolay tillari kiradi.

Avstroosiyon tillari oilasi (dunyo aholisining 1,6 foizi) Janubi-Sharqiy, Janubiy Osiyoda yashaydi va 5 guruhga: mon-kxmer, asliy, nikobar, kxasi, munda tillariga bo'linadi.

Myao-yao tillari oilasiga kiruvchi aholining (dunyo aholisining 0,2 foizi) tarqalish hududi juda ham tor bo'lib, Sharqiy Osiyoning janubiy rayonlari va Janubi-Sharqiy Osiyoning shimolidagi xalqlar orasida yoyilgan bo'lib, myao va yao degan tillarga bo'linadi.

Janubi-Sharqiy Osiyoda paratay tillari oilasiga kiruvchi xalqlar (dunyo aholisining 1,4 foizi) yashaydi. Ayrim tasniflashlarga ko'ra ushbu oila 6 guruh tillar: tay, kim-suys, ong-be, li, lakk, gelaolardan iborat.

Janubi-Sharqiy Osiyoda, Okeaniyada va Tayvanda avstroneziya tillari oilasiga kiruvchi xalqlar yashaydi (dunyo aholisining 5 foizi). Dunyo xalqlarining zamonaviy klassifikatsiyasiga ko'ra ushbu oila 6 guruhga: g'arbiy avstroneziy, sharqiy avstroneziy, atayal, tsou, payvan (oxirgi 3 tasi Tayvandagi kamsonli guruh hisoblanadi) tillariga bo'linadi.

Avstraliya tillari oilasi Avstraliya qit'asida saqlanib qolgan kamsonli xalqlarni birlashtiradi. Ushbu til oilasi 22 guruhga bo'linadi.

And tillar oilasi (dunyo aholisining 0,3 foizi) hindularning eng yirik oilasi hisoblanadi. Chunki bu tilda Amerika hindularining eng yirik qabilalaridan birikechua qabilasi gaplashadi. Ushbu til oilasiga And tog'i atrofida yashovchi xalqlar kiradi va 6 guruh: urarina-vaorani, kauapanapa-saparo, shimoliy, kechua, aymara, janubiyga bo'linadi.

Jahon xalqlari tillarini klassifikatsiyalash borasida dunyo tilshunoslari tomonidan qator mulohazalar bildirilgan bo'lib, bunday tarzda klassifikatsiyalashni keng ilmiy jamoatchilik tomonidan to'la e'tirof etilgan qarash, deb bo'lmaydi. Jumladan, hali hanuz barcha olimlar ham turkiy, mo'g'ul va tungus-manjur tillarining genetik umumiyligini tan olmaydilar. Koreys va yapon tillarini izolyatsiyalashgan tillar, deb hisoblovchilar ham bor. Shuningdek, Afrika va Amerika xalqlari tillarini tasniflash borasida ham yakuniy umumiy xulosaga kelinmagan.

**Seminar mashg'uloti rejasি:**

1. Etnoslarni klassifikatsiyalashga oid asosiy yo'nalishlar.
2. Etnos va irq. Turli xalqlarga xos irqiy alomatlar.
3. Etnologiyadagi lingvistik klassifikatsiyalash.
4. Xo'jalik-madaniy tiplarga oid tasniflash.

**Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Dunyo xalqlari etnologiya fanida qanday tasniflanadi?
2. Lingvistik tasniflashning xo'jalik an'analariga ko'ra tasniflashdan qanday farqli jihatlari bor?
3. Zamonaviy dunyo xalqlarini tasniflashda qanday uslublar keng qo'llanilmoqda?
4. Xo'jalik-madaniy tiplar konsepsiyasining mohiyatida nima mujassamslashgan?
5. O'zekistonning tarixiy-etnografik mintaqalarini sanab bering?

**Adabiyotlar:**

1. Имс. Р. Ф. Введение в этнографию. – Л., Университет, 1991.
2. Народы и религии мира: Энциклопедия. – М., 1998.
3. Основы этнологии: Учебное пособие // Под ред. проф. В. В. Пименова. – М.: Изд-во МГУ, 2007.
4. Садохин А. П., Грушевицкая Т. Г. Этнология. Учебник для высших учебных заведений. – М., Academa, 2000.
5. Этнология (Этнография): учебник для бакалавров// Под ред. В. А. Козьмина, В. С. Бузина. – М.: Изд. Юрайт, 2014.
6. Greenberg J. H. Language in the American. Stanford, 1987.
7. Ruhlen M. A guide to world languages. Vol. 1: Classification. London, 1987.
8. Swadesh M. The origin and diversification of language/ London, 1972.

## V BOB

### ETNOS VA MADANIYAT

17-§. Madaniyat va uning etnik funksiyasi.

18-§. Etnik madaniyat.

19-§. Zamonaliv dunyo madaniyati va etnik madaniyat.

20-§. Milliy madaniyat. An'ana, urf-odat va marosimlar.

21-§. O'zbek milliy mentaliteti.

### 17-§. Madaniyat va uning etnik funksiyasi

Insoniyat tarixining o'tgan davri mobaynida tad-qiqotchilar tomonidan sivilizatsiyalar va turli-tuman madaniyatlar taraqqiyotiga oid juda boy va ancha sermahsul materiallar yig'ilganiga hamda bu borada ilm ahli orasida ko'plab bahs-munozaralar bo'lib o'tganiga qaramay hali hanuz fanda madaniyat atamasining yagona mukammal ta'rifi mavjud emas. O'z navbatida, shuni ham aytib o'tish kerakki, mazkur holat aytarli darajada ajablanarli ham emas. Chunki ijtimoiy fanlar tizimida tabiiy fanlardagidek doimo ham yagona tizim doirasida mujassamlashgan qarashlar bo'lavermaydi. Qolaversa, «madaniyat» atamasining o'zi ham turli darajadagi va shakldagi voqeliklarni aks ettiruvchi ko'plab fenomenlardan tashkil topgan. Shu bois mazkur fenomenlarni yagona bir shaklda bayon qilish jiddiy ish hisoblanadi.

“Madaniyat” tushunchasini “jamiyat” tushunchasi-dan farqlash mumkin, lekin ular orasida uzviy aloqa mavjud. Madaniyat shu jamiyatdagi odamlar tur-mush tarzi, urf-odat va rasm-rusumlar, shuningdek, ular ishlab chiqaradigan moddiy noz-ne’matlarga alo-qadr tushuncha. “Jamiyat” esa umumiylardan madaniyatga mansub bo’lgan individlarni o’zaro bog’lab turadigan aloqalar tizimidir. Birorta ham madaniyat jamiyat-siz yashay olmaydi, shuningdek, birorta ham jamiyat madaniyatsiz mavjud bo’la olmaydi. Madaniyat bo’lmasa biz to’la ma’nodagi “odam” bo’la olmas edik. Uzoq yillar mobaynida xalq turmush tarzi yuzasidan tadqiqotlar olib borgan ko’plab olimlar tomonidan madaniyat iborasiga ta’rifu tavsiflar berilgan bo’lib, ko’pincha madaniyat deyilganda – *insoniyat faoliyati davomida yaratilgan barcha yutuqlar tushuniladi*. Odatda «madaniyat» iborasi odamlar turmush tarzi bilan bog’liq tarzda izohlanadi.

Madaniyat atamasi lotincha «cultura» so’zidan olingan bo’lib, u dastlab qishloq xo’jalik ekinlari yoki uy parrandalari va hayvonlarni madaniylashtirish jarayoniga nisbatan qo’llanilgan. XVI asr boshlariga kelib esa ushbu so’zning dastlabki ma’nosini kengay-gan va qishloq xo’jaligidan insoniyat taraqqiyotiga, uy parrandalari madaniylashtirilishidan ongning madaniylashishiga nisbatan ham qo’llanila boshla-gan. Biroq madaniyat so’zining bunday talqini umum tomonidan to XVIII asr oxiri – XIX asr boshlariga qa-dar qabul qilinmagan.

XIX asr boshlariga kelib «madaniyat» so’zi «sivi-lizatsiya» so’zining sinonimi tarzida yoki unga qara-ma-qarshi tarzda qo’llanilgan. O’z navbatida, shuni ham aytib o’tish kerakki, «sivilizatsiya» so’zi lotincha *civilis* (fuqaro) so’zidan olingan bo’lib, XVIII asr oxirida fransuz va ingliz tillarida insoniyatning ilgarilab boruvchi jarayoni – yovvoyilik, mustamlakachilik va

fuqarolik jamiyati tomon harakati yo'nalishiga aytildigan. Fransuz va ingliz tilida «madaniyat» va «sivilizatsiya» so'zlarining sinonim tarzida qo'llanilishi XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida fransuzlar va ingizlar orasida insoniyat taraqqiyoti ilgarilab boruvchi taraqqiyot ekanligiga va ularning jamiyati mazkur taraqqiyot bosqichining yuqori nuqtasiga tegishli ekanligiga ishonch hissini tug'dirgan.

Germaniyada «madaniyat» atamasining qo'llanilish tarixi birmuncha boshqacharoq tarzda kechgan bo'lib, bu yerda «sivilizatsiya» iborasi salbiy ma'no kasb etgan bo'lsa, «madaniyat» so'zi ijobiy ma'noni bildirgan. Nemislar «sivilizatsiya» so'zini «burjuacha» sun'iy kamtarlik, «madaniyat» so'zini esa intellektual, badiiy yoki ma'naviy faoliyat tarzidagi insoniyat faoliyatiga nisbatan qo'llaganlar.

Madaniyat – insonga biologik jihatdan tegishli bo'lмаган (genetik jihatdan bog'liq bo'lмаган – A. A.) va kishilarning hayot faoliyati natijasida yaratiladigan ko'rinishdir. Madaniyatning bunday kompleks talqini ma'lum ma'noda etnomadaniyat iborasiga ham javob beradi. *Etnomadaniyat* esa – bu ma'lum etnosga xos bo'lgan xususiyatlarni saqlab qolish maqsadida o'zlashtirilgan ko'rinishlar majmuidir. *An'anaviy xalq madaniyati* deyilganda etnosning tarixiy-ma'naviy ehtiyojlari asosida vujudga kelgan, ularning aqliyijodiy faoliyati asosida taraqqiy etgan, mingyilliklar mobaynida yig'ilgan ajdodlar qarashlari, tajribalari, orzu-istaklari, an'analari va qadriyatlarini o'zida mu-jassamlashtirgan, ajdodlardan avlodlarga meros tarzda o'tib, asrlar osha sayqallashib, mukammallahish kelayotgan bebaho meros tushuniladi.

Maxsus ilmiy adabiyotlardan ma'lumki, etnologiya o'tmishdagi va zamonaviy jamoalar, ular orasidagi o'zaro munosabatlarni hamda turli xalqlar va etnik guruhlarning madaniy o'ziga xosligini tavsifu tahlil

qiladi. Bu borada agar Yevropa ilmiy maktabi namoyandalari o'zlarining qarashlarida ko'pincha turli xalqlar to'g'risidagi tushunchalar va jamiyat to'g'risidagi nazariyalarga e'tibor qaratgan bo'lsalar, amerika maktabi namoyandalari esa asosiy tadqiqot ob'ekti tarzida madaniyatni tadqiq etganlar va ushbu maktabning yirik namoyandalari (F. Boas, K. Uissler, A. Kryober, Dj. Myordok va boshqalar) o'zlarining tadqiqotlarida ekstrosentristik talqinlardan butunlay voz kechishga harakat qilganlar.

Hozirgi rivojlangan jamiyatda o'zga bir etnik jamoata'sirisiz mustaqil rivojlangan biror-bir etnos yoki etnik guruhni topish qiyin. Ayniqsa buyuk o'zgarishlar va informatsion-kommunikatsiya asri bo'lgan XXI asrda turli etnik guruhlar va madaniyatlararo hamkorlikning rivojlanishi va globallashuvning kuchayishi natijasi o'laroq madaniy o'ziga xosliklarga qiziqish ortib bormoqda. Zamonaviy xalqlardagi madaniy xilma-xillik ko'payib bormoqda va har bir xalq o'ziga xos madaniy xususiyatlarini saqlab qolishga harakat qilmoqda.

Ijtimoiy va madaniy o'zgarishlar doimo insoniyat evolyutsiyasining muhim qismlaridan biri bo'lib kelgan. Shu bois ayrim konsruktivistik olimlar etnosni bir marta va yakuniy tarzda shakllangan etnos tarzda talqin qilish birmuncha xato mulohazadir, deb ta'kidlamoqdalar.

Etnik madaniyatlarning tadqiqa oid zamonaviy qarashlarda, asosan, etnografik va tarixiy tahlilga, sotsiologiyaga, lingvistikaning nazariy asoslari va muhim yangi ilmiy natijalariga asoslaniladi. Bunda madaniyat ramzlar va ma'nolar tizimi tarzida talqin qilinadi va bu o'zining talqini hamda izohini talab etadi. Shubhasiz mana shunday metodologik talqinda evolyutsionistik nazariyalar o'rnini konstruktivistik konsepsiylar egallay boshlagan.

Ko'plab ijtimoiy-gumanitar fanlarda madaniyatning funksional vazifasi borasida qator mulohazalar bildirilgan. Mazkur mulohazalarning e'tiborga sazovorlariga zamonaviy madaniyatning quyidagi asosiy funksiyalarini ko'rsatib o'tish mumkin:

- **instrumental** – atrof-muhitni yaratish va qayta yaratish funksiyasi;
- **inkulturatsiya** – insonning o'zini yaratish va qayta yaratish funksiyasi;
- **me'yoriy** – jamoaviy hayotni tashkil etish tizimi ni yaratish funksiyasi;
- **ramziy** – «anglatuvchi», ya'ni nomlar, ismlarni yaratish va buning natijasida insonlar aqliy hamda emotsiyonal harakatlarni qiladilar. Agar qaysidir biorr-bir buyum yoki ko'rinishga nom berilmagan va u insonlar tomonidan nomlanmagan bo'lsa, demak, bunday narsa yoki holat ular hayotida mavjud emas;
- **idrok etish** – bu funksiya insonlarga dunyoning manzarasini yaratish imkonini beradi va shu bois ham ramziy funksiya bilan chambarchas bog'liq;
- **kommunikativ** – bu funksiyada etnomadaniy an'analar ajdodlardan avlodlarga o'tkaziladi.

Umuman olganda, mazkur funksiyalar ham og'zaki tarzda, ham axborot almashuvi tarzida, ham og'zaki bo'lмаган usullar va atributlar orqali amalga oshiriladi. Etnomadaniy an'analarning uzatilishida ko'pincha til muhim ahamiyat kasb etmaydi va bunda ramziy tavsiif kasb etuvchi imo-ishora, marosimlar, rituallar, simvollar, kiyim-kechaklar, ovqatlar va shu kabilar katta ahamiyatga ega.

Madaniyatning mazkur etnik funksiyalari asosiy maqsad – shaxsni psixologik himoyalashga xizmat qilgan, unga olamda o'zini idrok etish va mana shunday xavfsiz hamda ishonchli turmush tarziga ega bo'lish imkoniyatini bergen. Etnik madaniyatda etnosga xos himoya mexanizmi bo'lgan.

## 18-§. Etnik madaniyat

Odatda, biror-bir kishi hayoti davomida bir ijtimoiy guruuhdan boshqasiga, bir davlatdan ikkinchisiga o'tib yashashi mumkin, lekin har qanday holatda ham u o'zining etnik mansubligidan voz kechmaydi. Bu esa o'z navbatida uni o'ziga xos tarzda idrok etishga va unga ma'lum bir me'yoriy o'lchov asosida hayot faoliyatini yuritishga majbur etadi. Shu bois ham moslashuvchi mexanizmning muhim qismi etnik madaniyat hisoblanadi. Etnik madaniyat etnosga xos madaniy xususiyatlardan majmuidan tashkil topgan.

Etnik madaniyat shakllanishining muhim alo-matlari va ma'lum bir umumiy qiziqishlar doirasida birlashgan insonlar guruhining paydo bo'lishi bilan bog'liqdir. Bunday ehtiyojlarda umumjamoaviy qiziqishlar aks etadi va mazmunan ushbu jamoa a'zolaring individual qiziqishlaridan kelib chiqadi. O'z navbatida bu ko'rinishdagi ehtiyojlar o'ziga xos alohida shaxslararo qiziqishlarni namoyon qiladi va jamoaning umumiylar harakatlari asosida qondirilishi mumkin. Etnologik, tarixiy, sotsiologik va madaniyatshunoslikka oid tadqiqotlarda jamoaning hayot faoliyati alohida ajralib turadi. Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, har qanday jamoa ma'lum bir tabiiy-tarixiy sharoitda, makon va zamon holatida yashaydi.

Etnos madaniyatining umumiylig'indisiga mazkur etnos hayotida mavjud bo'lgan madaniy xususiyatlarning barcha shakllari, usullari va natijalari kiradi. Etnik madaniyatga etnik an'analar, simvollar, moddiy madaniyat (turarjoylar, kiyim-kechaklar, oziq-ovqatlar), folklor namunalari (epos, musiqa, raqs va boshqalar) kiradi. Shuningdek, bunga ino-ethnik madaniyatlardan o'zlashtirilgan ko'rinishlar va umumdunyoviy madaniyat xususiyatlari, qo'nini-

qo'shni va qarindosh etnoslarga xos hududiy madaniy ko'rinishlar ham taalluqlidir.

Etnosning umumiy madaniyatidan farqli tarzda, etnik madaniyatda etnosning o'zi va uning qo'nishnilari tomonidan e'tirof etiladigan madaniyatgina tushuniladi. Etnik madaniyat ko'rinishlari ma'lum bir etnosga xos bo'lmasdan, balki bir necha etnoslarga taalluqli bo'lishi mumkin. Misol uchun chорvadorlarning uyi bo'lgan o'tov turkiy xalqlar orasida turli nomlar bilan yuritsa-da, ularning shakli va tuzilishi qozoqlar, qirg'izlar, qoraqalpoqlarda deyarli bir xil va ular uyni o'zlarining etnik madaniyatlarining ajralmas qismi tarzida e'tirof etadilar.

**Etnik madaniyatni shakllantiruvchi omillar.** Etnik madaniyat etnos hayot tarzining deyarli barcha sohalarida: tilida, bola tarbiyasida, kiyim-kechaklarda, uy-joylar qurilishida, ish faoliyatida, uy xo'jaligida va, albatta, folklorlarda namoyon bo'ladi. Etnik madaniyatning shakllanishiga tabiiy sharoit, til, diniy e'tiqod va etnosning ruhiy-ma'naviy boyligi ham ta'sir qiladi. Qolaversa, etnik madaniyatning muhim elementi xalqning nomi – etnonimi hisoblanadi.

**Geografik omil.** Geografik omil etnosning paydo bo'lishi va uning mavjudligini ta'minlovchi zaruriy omillardan biri hisoblanadi. Tabiiy sharoitlar ta'siri bilan bog'liq ko'rinishlarni etnik madaniyatning turli ko'rinishlarida, oddiy mehnat qurollaridan tortib toki etnonimgacha topish mumkin. Jumladan, tabiiy iqlim sharoiti bilan bog'liq tarzda kiyim-kechaklar tikib kiyiladi, uy-joylar quriladi, qishloq xo'jalik ekinlari ham ob-havoga qarab ekiladi va, hatto, transport vositalari ham ko'pincha tabiiy iqlim bilan bog'liqdir.

Geografik muhit (tuproq, relef, o'simlik dunyosi, tabiat, issiqlik va shu kabilalar)ga xos xususiyatlar etnos ma'naviy madaniyatining shakllanishiga, uning ruhiyatiga ham ma'lum ma'noda ta'sir qiladi.

Bu esa, shubhasiz, xalqlarga xos milliy xususiyatlar-da, urf-odatlarda, rasm-rusumlarda namoyon bo'la-di. Masalan, tropik mintaqalarda yashovchi xalqlar dehqonchilik an'analaridagi ko'plab mavsumiy o'ziga xosliklar shimol xalqlari turmush tarzida umuman uchramasligi mumkin. Yoki O'zbekistonning sersuv mintaqalaridagi dehqonchilik an'analari lalmi yer-lardagi dehqonchilik yuritish madaniyatidan ma'lum darajada farqlanadi. Misol tariqasida aytsak, Far-g'ona vodiysi dehqonchiligi Xorazm vohasi dehqon-chiligidan farqlanadi.

Geografik muhit etnik nomlarda ham aks etadi. Aynan etnik hudud landshafti odamlar tafakkurida ona zamin tuyg'usini paydo qiladi. Landshaftning ayrim ko'rinishlari tashqi ko'rinish tarzida (yaponlarda sakura, gollandlarda lola, ruslarda oq qayin) yoki joy nomlari tarzida (yaponlarda Fudziyana tog'i, induslarda Ganga daryosi, o'zbeklarda Amudaryo va Sirdaryo) etnik mansublik belgisiga aylanadi. Ba'zida hatto etnonimlarning o'zi ham geografik muhit bilan bog'langan bo'ladi. Jumladan, dengiz bo'yida yashov-chi chukchalar o'zlarini «dengiz odamlari» deb atashadi.

**Lingvistik omil.** Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, har bir etnik madaniyatning shakllanishida mazkur etnosning tili muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan til-dagi farqlar tufayli ham bugungi kunda dunyoning etnik manzarasi rang-barang ahamiyat kasb etgan. Hozir tadqiqotchi olimlar tomonidan jami 2000 dan ortiq tirik tillar ro'yxatga olingan. Etnolingvistikada dunyo tillari bir necha tillar oilasiga bo'lib o'rganiladi. Bular, hind-yevropa xalqlari tillari, semit-xamit tillari, kavkaz tillari, ural tillari, chukotka-kamchatka xalqlari tillari, xitoy-tibet tillari, oltoy tillari, avstro-osiyo tillari oilalariga bo'linadi. Mazkur til guruhlari ichida hind-yevropa tillari oilasi eng kattasi bo'lib,

o'ziga dunyoning turli mintaqalarida yashovchi 150 dan oshiq xalqlar gaplashuvchi qariyb 100 ga yaqin tillarni birlashtirgan. Umuman olganda, hozirda Yer yuzining qariyb 60 foizidan ko'proq aholisi 10 ta eng yirik tillar oilasida so'zlashadilar.

**Diniy omil.** Etnik madaniyatning shakllanishida din ham ma'lum bir amaliy ahamiyat kasb etadi. Massalan, bugungi Belgiya davlatining asosiy aholisi ikki xalqdan, ya'ni german tillaridan birida gaplashuvchi flamandlar va fransuz tilida so'zlashuvchi vallonlar-dan tashkil topgan. Shu bois bu holat ba'zan ayrim muammolarni keltirib chiqarishi ham tabiiydir. Lekin mazkur ikki xalq ikki avtonomiyada yashasalar-da, ular Belgiyaning yaxlitligiga amalda katta xavf tug'dirmaydilar. Belgiyada yashovchi ushbu ikki xalq va ular istiqomat qiluvchi ikki avtonomiya o'rta-sida azaldan juda ham mustahkam aloqa o'rnatilgan bo'lib, ushbu aloqalar umumiyligi diniy e'tiqod, ya'ni katoliklikka e'tiqod qilish asosiga qurilgan. Tarixdan ma'lumki, 1815-yilgi Vena kongressi qaroriga ko'ra Belgiya Gollandiya qirolligi tasarrufiga o'tgan. Lekin oradan 15 yil o'tib belgiyaliklar – flamandlar va vallonlar diniy e'tiqodlari umumiyligi asosida o'zaro birlashib Gollandiyaga qarshi qo'zg'olon ko'targanlar va mustaqil bo'lganlar. Bu o'rinda shunisi ajablanarlik, flamandlarning ona tili vallonlar tilidan ko'ra gollandlarga yaqin hisoblanadi, lekin ularni vallonlar bilan yagona din birlashtirgani bois ular gollandlarga qarshi vallonlar bilan birga kurashganlar.

Bu o'rinda yana bir boshqa qiziqarli misolni keltirib o'tsak. Yevropada yashovchi xorvatlar va serblar, garchi bir tilda gaplashishsa-da, lekin amalda boshqa-boshqa xalqlar hisoblanadilar. Chunki ularni diniy e'tiqodlari bir-birlaridan ajratib turadi. Xorvatlarning asosiy qismi katoliklar bo'lishsa, serblar provaslav hisoblanadi. Aynan mazkur omil asosida

etnik madaniyat shakllangan bo'lib, bunda xorvatlar ko'proq G'arbiy Yevropa ta'sirida taraqqiy etsalar, serblar doimo Rossiyaga mo'ljal oladilar. Shu bois ikki xalq orasida o'zaro mojarolar paydo bo'lgan.

## **19-§. Zamonaviy dunyo madaniyati va etnik madaniyat**

XX asr so'nggida kechgan zamonaviy sivilizatsion jarayonlar etnomadaniyat dinamikasini tubdan o'zgartirib yubordi va buning natijasida dunyo bo'yicha keng rasm bo'lgan ommaviy madaniyatlar shakllandı, deb aytish mumkin. Ommaviy madaniyat jamiyatdagi barcha qatlamlar hamda etnik guruhlarda tarqalish shartlari bilan birga o'ziga xos mexanizmni ham yaratgan, deb aytish mumkin. Aynan shu sababli ommaviy madaniyat – madaniyatdagi umumdunyoviy xususiyatlar – kitoblar, filmlar, radio va televidenie, kiyim-kechaklar, raqs, sport va shu kabilarni yaratish imkoniyatlari paydo bo'lgan. Ommaviy madaniyat yalpi savodsizlikka barham berish, alohida hududlarning madaniy izolyatsiyasini bartaraf etishda muhim ahamiyatga ega. Lekin, o'z navbatida, shuni ham alohida ta'kidlab o'tish joizki, hatto ommaviy madaniyatda ham etnik madaniyatdan kirib kelgan etnik xususiyatlarni uchratish mumkin. Bu o'rinda, aytish joyiz ingliz tilida popular culture (популярная культура) va mass culture (массовая культура) farqlanadi. Biz "ommaviy madaniyat", deb ataydigan hodisa "mass culture"ga to'g'ri keladi. Qolaversa, xalq orasida keng tarqalgan milliylik ommaviylikdir va har qanday ommaviylik milliylikdir. (Bir hududda yashovchi boshqa millat vakillari orasida ham keng tarqalgan narsa ommaviy hisoblanishini hisobga olsak, ommaviylik milliylikka

nisbatan kengroq tushuncha. Milliylik esa unga nisbatan xususiy hol hisoblanadi. Demak, milliylik ommaviylikdan tashqarida bo'lishi mumkin emas.)

Sanoqli kishilarga dahldor xususiyat millatniki bo'lolmagani kabi, ommaviy ham emas. Binobarin, bu o'rinda "mass culture"ni "olomon madaniyati" yoki "tijoriy madaniyat" shaklida ifodalash mumkin. Zero, taqlid, "yulduz"lar kulti, ularga ko'r-ko'rona ergashish, irratsionallik, didning keskin tushishi kabi belgilar olomonga xosdir. Ommaviy madaniyat millatning o'ziga xosligi, turmush tarziga hamohang shaklda tadrijiy rivojlansa, olomon madaniyati millat tanlamaydi, har qanday o'ziga xoslikni uyg'otib, korporativ va siyosiy manfaatlarga xizmat qiladi. Lekin, shu bilan birga, ommaviy madaniyatning shaxsni passiv shakllantirishi bilan bog'liq qarama-qarshi jihatlari ham mavjud.

**Dunyo madaniyati.** Ommaviy madaniyatgina zamonaviy dunyoviy madaniyat – shahar tipidagi yevropa madaniyatining har bir hududga xos milliy xususiyatlari bilan uyg'unlashgan ko'rinishlari majmuiga aylandi. U doimo milliy madaniyatlar (kiyim-boshlar elementlari – poncho, sombrero; oziq-ovqatlar – dunyo miqyosida xitoy restoranlarining yoyilishi; shampans vinosi; adabiyotlar – bugungi kunda butun dunyo bo'yicha Osiyo, Afrika, Lotin Amerika mualliflarining asarlarini sevib o'qimoqdalar; san'at va shu kabilar) ni ma'lum ma'noda ommaviylashtirib boradi.

Zamonaviy jamiyatda amalda sof etnik madaniyatlarni uchratish amrimahol. Hozirda har bir madaniyatda etnik jihatdan neytral (umumdunyoviy) va etnik xususiyatlar bilan bezatilgan madaniyatlar ni uchratish mumkin. Agar bundan 10 – 20 yillar avval dunyo xalqlarini umumjahon madaniyatiga (avvalo turmush tarzida) qo'shish jarayoni avj olgan bo'lsa, bugungi kunga kelib ongli tarzda har bir

xalq o'z an'anaviy moddiy va ma'naviy madaniyatini saqlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirmoqda. Bu madaniyatning markazida turgan munosabatlar stereotipi ma'naviy qadriyatlarda yorqin namoyon bo'ladi.

Amerikalik mashhur antropolog F. Boas yer yuzidagi har bir madaniyat taraqqiyoti borasida madaniy plyuralizm prinsipiiga amal qilgan va u har bir madaniyat o'ziga xos rivojlanish yo'liga ega, deb hisoblaydi. Boasning yozishicha, har bir madaniyatni tarixiy ko'rinish shakli tarzida anglash mumkin. Ona zamindagi har bir madaniyat doimiy taraqqiyotda bo'lib keladi va ularning rivojlanish bosqichlari to hozirgi kungacha davom etib kelayotgan jarayondir. Shu bois ayrim oldingi tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan primitiv madaniyatlarning turg'unligi to'g'risidagi qarashlar hayotdagi mavjud faktlarga to'g'ri kelmaydi. Chunki har qanday turg'un, deb hisoblangan madaniyatda ham rivojlanib borayotgan urf-odatlar va ko'rinishlarni uchratish mumkin. Mashhur antropolog olimning ta'kidlashicha, qaysidir bir hindu qabilasining madaniyati rivojlangan Yevropa xalqlari madaniyatidan-da murakkabroq ko'rinishga ega. Odatda, ularning biri yozma adabiy merosga ega bo'lsa, ikkinchisida bunday ko'rinish mavjud emas. Shubhasiz, bu madaniyatlararo o'zaro farqdan o'zga narsa emas.

Boas madaniyatni tadqiq qilishda, turli-tuman urug'lar va xalqlar madaniyatlarini o'rganishda yaxlit bir tizimli konsepsiya va umumiy nazariya qo'llash mumkin emas degan muhim g'oyani ilgari surgan. U «biz butun insoniyat madaniyati taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini yaratishdan avval lokal madaniyatlarning rivojlanish jarayonini to'liq anglab yetmog'imiz zarur», – deb yozgan edi. Shu bois Boas butun umri davomida, garchi bu fanning asosiy maq-

sadi bo'lmasa-da, ma'lum bir tarixiy-geografik mintaqadagi madaniyatni har tomonlama o'rganishga undagan.

Boasning fikricha, madaniyat insonlarning voyaga yetish jarayonida o'zlashtiriladigan va o'zlari ning madaniy xususiyati, deb e'tirof etadigan munosabatlari yig'indisidir. Qolaversa, uning fikricha, til, dunyoqarash, e'tiqod va hatto milliy ehtiroslar ham xalqqa tegishli bo'lgan jamoaviy hayotni va xalq tarixini to'liq anglatmasligini etnologik ma'lumotlar tasdiqlaydi. Shunday qilib, Boasning mulohazalarini *ijtimoiy determinizm* prinsiplariga asoslangan bo'lib, har bir madaniyatning ichki xususiyatlari, uning uzatuvchilarini tadqiq qilish orqali namoyon bo'la-di, degan g'oya asosiga qurilgan edi. Madaniyatlar orasidagi farqlar yoki o'xshash xususiyatlar ularning geografik joylashuvi yoki tabiiy sharoitiga bog'liq bo'lgan. Qolaversa, madaniyatlar rivojlanishining ma'lum bosqichidagi o'xshashliklar yoki farqli xususiyatlar madaniy farqlar kelgusida ham saqlanib qoladi, degan xulosani anglatmaydi. Umuman olganda, ushbu mulohazalarning aksariyati keyingi davr etnologiyasi uchun asos bo'lgan.

Amerika hindulari orasida uzoq muddat dala tadqiqotlari olib borgan Boas har bir madaniyat ko'rinishini umumiy madaniyat konteksti, ya'ni uning bir qismi tarzda tushunmoq kerak, degan xulosaga kel-gan. Aynan Boas madaniyatni yaxlit o'zaro ichki tuzilmalarning bog'liqligidan tashkil topgan bir tizim tarzida tadqiq qilish borasidagi dastlabki tadqiqotlar ga asos solgan. Bir madaniyatdan ikkinchi madaniyatga o'zlashtirilgan elementlar mexanik jarayonni anglatmaydi va madaniy aloqalarning natijasi mahsuli emas.

## 20-§. Milliy madaniyat. An'ana, urf-odat va marosimlar

Tarixiy etnologiya fani etnografiyadan, ya’ni xalqlar turmush tarzi, moddiy va ma’naviy madaniyatini tafsiflashdan boshlangan. XX asrda mutaxassis olimlar va tadqiqotchilar tomonidan, asosan, ma’lumotlarni yig‘ish ishlari bajarilgan. Ayniqsa, bunga aynan mazkur davrda dunyo bo‘yicha olib borilgan mustamlaka-chilik siyosati ham bevosita ko‘maklashgan bo‘lib, bu siyosat mustamlaka mamlakatlarning madaniyati, turmush tarzi va umuman milliy xususiyatlaridan batafsil xabardor bo‘lishni taqozo etar edi.

Tadqiqotchilar tomonidan ma’lum darajada faktik materiallar yig‘ilgandan keyin etnologik yo‘nalishdagi tadqiqotlarda yig‘ilgan materiallarni umumlashtirish va ma’lum bir nazariy-metodologik konsepsiya suyangan holda tahlil qilish jarayoni boshlandi.

Zamonaviy etnologiya fanida tadqiqot mavzusi yanada chuqurlashtirilgan holda dunyodagi eng yirik etnoslardan tortib eng mitti xalqlarni yanada izchil o‘rganishga va ularning an’anaviy hamda zamonaviy turmush tarzi, madaniyatini bilishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Umuman olganda, insoniyatning bir necha ming yillik tarixi davomida turli-tuman madaniyatlar mavjud bo‘lgan. Har bir madaniyat, shubhasiz, ma’lum bir etnos yoki etnik jamoa ta’sirida shakllanadi. Xilma-xil etnomadaniyatlar ichida olimlar an’anaviy (arxaik) madaniyatni alohida ajratib ko‘rsatishadi. An’anaviy madaniyat deyilganda biz turli etnos namoyandalarini, ya’ni bir necha avlod vakillari tomonidan bir necha asrlar mobaynida yig‘ilgan va bir avlodning o‘rgatilishi natijasida unutilib ketmagan urf-odatlarni tu-shunamiz.

Har bir milliy-etnik madaniyat o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi va o'ziga xoslik turli-tuman narsalarda namoyon bo'lishi mumkin. Har bir etnik madaniyat o'ziga xos mantiqqa ega va aynan mazkur mantiq asosida mazkur madaniyatga xos asosiy o'zgarmas va ikkinchi darajali o'zgaruvchan xususiyatlarni izohlash mumkin.

An'anaviy milliy madaniyatni yaxlit va ko'p qirrali hodisa sifatida o'rganish, uning tuzilishi, asosiy ko'rinishlari, shakllarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Shu bois biz etnomadaniyat evolyutsiyasi va umumqabul qilingan madaniyat tasnifidan kelib chiqib, xalq madaniyatining asosiy sohalariga to'xtalib o'tamiz. Holbuki, etnomadaniyat va uning tarkibiy qismi bo'lgan an'anaviy xalq madaniyat tizimining tarkibiy qismida: xalq donishmandligi, xalq falsafasi, xalq e'tiqodi, xalq pedagogikasi, xalq odatlari, xalq ijodi, xalq o'yinlari, dam olish madaniyati, xalq pazandachiligi, milliy liboslar, xalq me'morchiliği, xalq amaliy san'ati, xalq tabobati, xalq turmush madaniyati kabi ko'plab sohalarni ajratsa bo'ladi.

An'anaviy xalq madaniyatining barcha sohalarida avlodlarning dunyoqarashlari, falsafiy tushunchalari o'z aksini topganligi uchun etnomadaniyat tarkibida xalq donishmandligiga alohida e'tibor berish lozim. Buning sababi shundaki, xalqning g'oya, fikr, bilim, dunyoqarashini ifoda etgan etnomadaniyat ko'rinishini xalq falsafiy donishmandligisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, xalq madaniyatining falsafiy-g'oyaviy mazmuni qanchalik chuqr bo'lsa, uning shakli ham shuncha baquvvat, ijtimoiy ahamiyati kuchli, umri ham boqiy bo'lar ekan.

Xalq madaniyati deyilganda keng ma'noda etnosning hayotidagi barcha qadriyatlar tushunilsa ham uning tub ma'nodagi negizini xalq an'analari hosil qiladi.

Etnologiya fanida «marosim», «urf-odat», «an'ana», «bayram»lar fanning asosiy tadqiqot ob'ekti tarzida keng qo'llaniladi. Chunki har bir xalqning shakllanish jarayoni bilan birga unga xos va mos milliy-etnik an'analar, urf-odatlar, marosimlar, bayram va sayllar shakllanib, taraqqiy etib boradi. Ular kishilar turmush tarzining muhim bir bo'g'ini tarzida tarkib topadi.

Etnologiya fani shakllangan davrdan boshlab milliy an'analarни, rasm-rusumlar va urf-odatlarni xalq madaniyatining fenomeni tarzida o'rganish dolzarb muammolardan biri sanalib kelingan. Ayniqsa, respublikamizda milliy qadriyatlarimizga va ma'naviy merosimizga davlat miqyosida e'tibor berilayotgan tarixiy bir jarayonda mutaxassis olimlar tomonidan an'anaviy marosimlarimizni tadqiq qilishda ularning yozma tavsifini berish bilangina cheklanib qolmasdan, balki qadimiylar tarixga ega bo'lgan milliy marosimlarimizning xalq turmushi va an'anaviy madaniyatda tutgan o'rni, ularning genezisi va o'ziga xos xususiyatlari hamda saqlanish omillari borasidagi tadqiqotlar muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etib bormoqda. Lekin, afsuslar bilan aytish joizki, hali hanuz etnologiya, madaniyatshunoslik, folklorshunoslik va xalq turmush tarzi bilan shug'ullanuvchi fanlar doirasida yuqoridaq atamalarning ta'rifi va tafsifi hamda farqli xususiyatlari borasida mukammal nazariy-metodologik qarashlar ishlab chiqilmagan. Shu bois ba'zi hollarda ayrim tadqiqotlarda «marosim» va «urf-odat», «an'ana» va «bayram» kabi qator atamalarni sinonim tarzda ishlatalish yoki izchil farqlanmagan holda qo'llash holatlari ham uchramoqda. Shubhasiz bu o'rinda «marosim», «urf-odat», «an'ana» va «bayram» atamalarining qanday o'xshash va farqli xususiyatlari mavjud? degan savol tug'ilishi tabiiydir. Bizningcha, ushbu atamalar bir-biri bilan chambar-

chas bog'liq, ammo bir-biridan keskin farq qiluvchi tushunchalardir.

*An'ana* – tarixiy taraqqiyot jarayonida tabiiy va ijtimoiy ehtiyojlar asosida vujudga keladigan, ajdoddalaridan avlodlarga meros bo'lib o'tadigan, kishilar madaniy hayotiga ta'sir o'tkazadigan madaniy hodisadir. *An'ana* o'ziga xos ijtimoiy qoida tarzida kishilar ongiga singgan, (umum yoki ma'lum guruh tomonidan) qabul qilingan tartib va qoidalar majmuasi hisoblanadi<sup>1</sup>.

*Urf-odat* tushunchasi esa o'ta keng bo'lib, u o'z ichiga xalq hayotining barcha tomonini – oddiy kundalik udum, rasm-rusum, irim-sirimlar, o'zaro muomala tarzi hamda barcha marosimlarni butunicha qamrab oladi. Marosim tushunchasi esa nisbatan tor tushuncha bo'lib, u shu xalq hayotining ma'lum sohalarida omma tomonidan qabul qilingan, ko'pincha ramziy xarakterga ega bo'lgan va ma'lum kishilar majmui tomonidan maxsus uyuşhtiriladigan namoyishlardan iborat<sup>2</sup>.

Shuningdek, *marosim* – inson hayotining moddiy va ma'naviy turmushining talab va ehtiyoji bilan yuzaga kelgan va keladigan hodisadir. Har qanday marosim u yoki bu xalqning ma'lum bir tarixiy taraqqiyoti bosqichidagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy rivojlanish darajasini ko'rsatuvchi assosiy belgilarni o'zida mujassamlashtirgan holda vujudga keladi va yashaydi<sup>3</sup>. Boshqacha aytganda, marosim umum tomonidan qabul qilingan ramziy harakatlaraga ega bo'lgan hayotiy tadbirdir.

*Urf-odat* kishilarning turmushiga singib ketgan, ma'lum muddat takrorlanib turuvchi xatti-harakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qui-

<sup>1</sup> Qoraboyev U. O'zbek xalqi bayramlari. – T.: Sharq, – 2002. – B. 8.

<sup>2</sup> Sarimsoqov B. Marosim folklori. – T.: Fan, 1986. – B. 12.

<sup>3</sup> Sarimsoqov B. Marosim folklori // O'zbek folklori, ocherklar T., 1988. – B. 152.

daları ko'nikmasidir. Demak, ushbu marosim va urf-odatga berilgan qisqacha qaydlardan ham ko'riniib turibdiki, urf-odat tushunchasi xalq hayotining barcha sohasini o'z ichiga qamrab olsa, marosim tushunchasi hayotning muayyan sohalarigagina aloqador, xolos. Urf-odat bir vaqtning o'zida bir shaxs yoki bo'lmasa ko'pchilik tomonidan bajarilishi shart bo'lgan qoida bo'lsa, marosim belgilangan shaxslar tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan xatti-harakatdir<sup>1</sup>. Jumladan, kichikning kattaga birinchi salom berishi yoki ko'pchilikka kamchilikning salom berishi, yoinki mehmonlarga alohida hurmat ko'rsatish, bayram arafasida yaqinlari, keksa qariyalar, qo'ni-qo'shnilar holidan xabar olish kabi ko'rinishlar o'zbeklarga xos milliy urf-odatlardir.

Motam marosimida sochlarni to'zg'itib qayg'uli ahvolda motam aytimlarini aytib yig'lash motam marosimida ishtirok etayotgan ayrim kishilarningina vazifasiga kirgan.

Urf-odatlar bilan marosim orasidagi o'zaro farqni ular ichidagi ramziy harakatlarning qo'llanish darajasi orqali ham anglab olish mumkin. Jumladan, urf-odat o'z ichiga ramziy va ramziy bo'lмаган harakatlarni to'la qamrab olsa, marosim faqat ramziy xarakterdagi xatti-harakatlarnigina qamrab oladi. Qolaversa, urf-odat muayyan xalq uchun, asosan, bir xil – o'zgarmas qoida, norma bo'lsa, marosim bir xil xalq doirasida keskin lokal farqlanishlarga ham ega bo'ladi<sup>2</sup>. Shuningdek, har qanday marosim o'zi mansub bo'lgan xalq urf-odatlarining tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Shu bois marosimdan urf-odat elementlarini qidirib topish mumkin, lekin urf-odatdan marosimni qidirib bo'lmaydi. Bu o'rinda biroz boshqacharoq tarzda, folklorshunos B. Sarimsoqov

<sup>1</sup> Sarimsoqov B. Marosim folklori... – B. 13.

<sup>2</sup> Sarimsoqov B. Marosim folklori... – B. 13.

ta'biri bilan aytadigan bo'lsak, har qanday marosim urf-odat hisoblanadi, ammo har qanday urf-odat marosim bo'la olmaydi<sup>1</sup>.

Tadqiqotchi olimlar tomonidan o'zbek marosimlari ikkita katta guruhga – oilaviy-maishiy va mavsumiy marosimlarga bo'lingan. Biz mazkur ikki guruh marosimlar haqiqatdan ham marosimlarning asosiy uzvlaridan ekanligini rad etmagan va mazkur klassifikatsiya to'g'ri tasniflash ekanini e'tirof etgan holda marosimlar tasnifiga diniy marosimlarni ham kiritish lozim, deb hisoblaymiz. Chunki marosimlarni mohiyatan tahlil qiladigan bo'lsak, diniy marosimlar alohi-da mustaqil turkumni tashkil etishini anglash qiyin emas. Insonning hayot yo'li bilan bog'liq holda bajariladigan marosimlarning aksariyatini oilaviy urf-odat va marosimlar tashkil qiladi. Oilaviy-maishiy marosimlarni esa oilaning u yoki bu a'zosi hayotida-gi muhim voqealarning mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, quyidagilarga ajratib ko'rsatish mumkin:

- oilada farzand tug'ilishi va uning tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan urf-odat va marosimlar;
- nikoh-to'y marosimlari;
- oila a'zosini so'nggi yo'lga kuzatish, ya'ni dafn etish va ta'ziya bilan bog'liq urf-odat va marosimlar.

Marosimlar tarkibidagi ikkinchi katta turkum marosimlarga yilning turli fasllari bilan bog'liq mavsumiylar, ya'ni qishki, bahorgi, yozgi va kuzgi marosimlar kiradi. O'z navbatida, mazkur turkum marosimlarni quyidagicha ichki turkumlarga bo'lib tasnif etish mumkin:

1. Qishki marosimlar. Bu turkum marosimlarga yas-yasun, gap-gashtak, birinchi qor yoqqanda o'tkazildagan «qor yog'di» kabi marosimlar kiradi.

2. Bahorgi marosimlar. Bunga dastlabki «shox moylar» – dalaga qo'sh chiqarish marosimi, dastlabki

<sup>1</sup> Sarimsogov B. Marosim folklori... – B. 13.

urug'ni yerga tikish marosimi, Navro'z, sumalak sayli, «sust xotin», loy tutish, hasharlar kabi marosimlar kiradi.

3. Yozgi marosimlarga «Choy momo», qovun sayli, uzum sayli kabi marosimlar kiradi.

4. Kuzgi marosimlar. Bu turkum marosimlarga «Oblo baraka», shamol chaqirish va hosil bayrami marosimlari kiradi.

Marosimlarning uchinchi yirik turkumini diniy marosimlar tashkil qiladi.

Diniy marosimlarga hayitlar, mavlud, bibimush-kulkushot, bibiseshanba, bibichorshanba, zikr kabi marosimlar, ziyyaratgohlarda o'tkaziladigan marosimlar kiradi.

Urf-odat va marosimlar maishiy turmush va oila hayoti bilan bog'langan ijtimoiy hodisadir. Urf-odat va marosimlar jamiyat taraqqiyotining ilk davrlari danoq shakllanib, rivojlanib kelgan. Kishilar o'z hayotlari davomida ko'plab urf-odat va marosimlarda ishtirok etishga tortiladilar, bevosita uning qatnashchisiga aylanadilar.

Har qanday urf-odat va marosimlar muayyan etnosning boshqa etnoslardan farqlanib turishini ta'minlovchi muhim etnografik belgilardan biridir. Ayni vaqtida ushbu urf-odat va marosimlarda inoetnik jihatlar ham aks etib turadi. Negaki, har bir etnosga xos madaniyat mazkur etnosning boshqa etnoslar bilan uzoq davom etgan etnogenetik va tarixiy-madaniy aloqalari natijasining mahsulidir. Bunday jarayon ma'naviy madaniyatda ham, jumladan, urf-odat va marosimlarda ham namoyon bo'ladi.

## 21-§. O'zbek milliy mentaliteti

Dunyodagi har bir millatning, shu jumladan, o'zbeklarning ham aqliy-ruhiy qiyofasi, ya'ni milliy mentaliteti o'ziga xos tarixiy, etnik, tabiiy-iqlimiylar shart-sharoitlar doirasida shakllangani bois, uning jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy hodisalar, tarixiy jarayonlarga bo'lgan munosabati ham turlicha bo'lishi shubhasiz. Zero, milliy o'ziga xosliklar uzoq tarixiy davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jarayonlar, tabiiy-geografik o'rashuv, o'zaro etnomadaniy aloqalar, diniy mansubliklar asosida qaror topadi va aynan mana shular hamda xalqning ruhiy-psixologik qarashlari negizida qadimiy an'analar, urf-odatlar va marosimlar shakllanadi.

Mentalitet yuqorida qayd etilgan xususiyatlardan tashqari millatlarning aqliy-intellektual imkoniyatlari va ruhiy-psixologik o'ziga xosliklarini qamrab oлади. Xarakterdagи o'ziga xosliklarning negizini esa shu xalqning tarixiy tajribalari, urf-odatlari, marosim va ma'rakalarining yaxlit tizimi tashkil etadi. Boshqa-cha aytganda, ular mentalitetning harakatlantiruvchi kuchlari vazifasini o'taydi.

O'zbek xalqining milliy mentaliteti haqida so'z yuritishdan oldin shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, o'zbek xalqi 4 ta katta diniy-mafkuraviy bosqichni (buddaviylik, zardushtiylik, islom, kommunistik) o'z boshidan kechirganligi va har bir mafkuraviy-diniy ta'sirlar davri tugaguncha necha avlodlar almashganini va bu jarayonlarning millat fe'l-atvorida o'chmas iz qoldirganini unutmaslik kerak.

O'zbeklar o'ziga xos shakllanish jarayoniga ega xalqdir. Tarix guvohlik beradiki, o'zbek xalqi mazkur hududda yashagan tub yerli etnoslardan tomir olgan; ikkinchi ildizi esa qadimiy turkiy xalqlardan boshlan-

gan. Har ikkala asosiy ildizlarning birikishi – o'zaro sintezi o'zbek elatini va keyinchalik o'zbek millatini tashkil etgan.

O'zbek xalqining etnik jihatdan ko'p tarmoqli va sertomir ekanligi uning mentalitetida barcha urug' va ijtimoiy qatlamlar uchun umumiy jihatlar, jamoa manfaatlarini himoya qiluvchi fazilatning ayniqsa rivoj topishini taqozo etib kelgan. Xalqimiz fe'lidagi bag'rikenglik, hotamtoylik, mehmondo'stlik, o'zaro hamkorlikka moyillik, g'am-anduhli paytlarda nochor kimsalarga hamdardlik, yelkadoshlik fazilatlari ana shu jamoaviy yakdillikni ta'minlash, til va dil, fikr birligini saqlash ehtiyojlaridan tug'ilgan va sayqal topgandir.

Ikkinchi guruh sabablar doirasiga muayyan millat istiqomat qilib kelayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, jo'g'rofiy-hududiy va iqlimi omillar ta'sirini ko'rsatib o'tish joizdir. Ma'lumki, mamlakatimizning, asosan, tekislik va cho'llardan iborat keskin kontinental iqlimli jo'g'rofiy hududda joylashganligi, qahraton qish jazirama issiq, yoz bilan almashinishi, bahor va kuzining shiddat bilan kelishi va ketishi xalqimizning fe'l-atvorida aniqlik va lo'ndalikni, to'porilik, qaynoq mehrni, qattiqqo'llik va intizomni tarkib toptirgandir.

Xullas, xalqimizning intellektual ma'naviy qiyofasi – mentalitetiga baho berishda yuqorida muhim jihatlarni e'tiborga olish zarurdir.

O'zbeklarning Movarounnahr va Xorazm hududi da hamda ularga tutash mintaqalardagi o'troq dehqonchilik va hunarmandchilik madaniyatiga ega avtoxton xalq ekanligiga xalqimizning ona tabiatga, yerga, suvgaga, havoga, olovga bo'lgan cheksiz hurmati va ularni e'zozlash bilan bog'liq turfa xil urf-odat va marosimlari, an'anaviy dehqonchilik va hunarmandchilik udumlari, ko'p asrlik islom sharoitidan qat'i nazar, o'zbek xalqining turmush tarzida, urf-odatlar-

ida saqlanib kelayotgan son-sanoqsiz zardushtiylik elementlarida ayniqsa yaqqol ifodalangan. Shuningdek, bugungi kunda o'ziga xos tarzda rivojlanayotgan shaharsozlik va me'morchilik an'analarimiz, boy folklor namunalarimiz, yozma meros, adabiyot, san'atga bo'lgan qiziqishlarimiz, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash, koinot va zamin, inson va havo, o'lim va abadiyat haqidagi asotir va rivoyatlarimizda, asosan, o'troq madaniyat sohiblariga tegishli bo'lgan Navro'z, Mehrjon, Sada, Gul sayllari, Hosil bayrami kabi bayram va sayillarning davomiyligi yoki insonning qayg'uli onlari – motam marosimlarida maxsus o'lik xizmatchilari – g'assollar, go'rkovlar ishtiroki bilan bog'liq udumlarimiz, rasm-rusumlarimiz davom etib kelayotganligi fikrimiz dalilidir.

O'zbeklarning asosiy ildizi turkiylardan boshlanganligiga (turkiylikka xos jangovarlik, mardlik, lafz halolligi) bag'rikenglik, saxovatpeshalik, hojatbarorlik kabi xislatlarimizda o'zining yorqin ifodasini topgan. Biz buni ayniqsa xalqimizning to'y-tantanalaraga o'ta o'chligida, yillar mobaynida yig'ib-terib elga tarqatishdan zavq-shavq olishida, aza va yo'qlov marosimlarini uyushgan holda o'tkazishda, bola tug'ilishidan tortib to motam marosimlarimizgacha bo'lgan barcha marosim, urf-odatlarimizda keng jamoatchilik va mahalla ahlining doimo bosh-qosh bo'lishi kabi udumlarimizda kuzatamiz. Milliy mentalitetimizda turkiylarga xos jihatlar ma'naviy madaniyatimizda chillak, chavgon, uloq ko'pkari, kurash kabi milliy o'yinlarimizda, «qulqoqtishlar», «beshikkerti», «qalin», «to'qqiz» kabi rasm-rusum va udumlarimizda, qolaversa, otga bo'lgan o'ziga xos mehr va otning motam marosimlarida ishtiroki bilan bog'liq udumlarimizda ham o'z ifodasini topgan, desak xato emas.

Shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki, ming yillar davomida shakllangan milliy mentalitetimiz bizga

qo'shni bo'lgan boshqa xalqlardan muallaq holda, o'zga xalqlardan yashirincha rivojlanmagan. Aksincha, milliy mentalitetimizga biz bilan qo'shni bo'lib yashab kelgan boshqa xalqlarning ma'lum ma'noda ta'siri bo'lgan. Ayniqsa, o'zbek milliy mentalitetida forsiy xalqlar va arablarning ta'siri katta.

O'zbek milliy mentalitetiga xos jihatlardan yana biri jamiyat hayoti, insonlar turmush tarzining ko'proq an'ana urf-odatlar orqali boshqarilishidir.

O'zbek xalqi oila qurish an'analariga rioya qilishda, qiz uzatish yoki kuyov tanlashda ham quda bo'l-mish tomon xususida ma'lumotga ega bo'lib, ularning ijtimoiy kelib chiqishini, jamoada tutgan o'rnnini va obro'-e'tiborini hisobga oladi. Agar kuyov yoki kelin bo'l-mish tomonning aqli, odobi, husni-malohati bir hissa bo'lsa, ularning qarindosh-urug'lari, avlodning jamoadagi mavqeい va bu xususdagi jamoatchilik fikri ikkinchi, aksariyat hollarda hal qiluvchi omil vazifasini o'taydi. Farzandlarni yaxshiga qo'shish, bu borada xato qilib qo'ymaslikda jamoa, jamiyat ra'yini, ko'pchilikning kengashli fikri muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ham jamoatchilik fikrining shaxs turmush tarzi, taqdirini belgilashdagi ustuvorlik mavqeい beqiyosdir. Shu o'rinda «G'arb – qonunlar, sharq – urf-odatlar bilan boshqariladi», degan iborani eslamoq joiz. Darhaqiqat, sharqda, shu jumladan o'zbeklarning turmush tarzida ham ko'plab urf-odatlari qonunlar darajasida yuqori turadi. Jumladan, oila davrasida yoinki keng jamoatchilik o'rtasida o'tkaziladigan barcha marosimlarimizda mahallaning bosh-qosh bo'lishi, qo'ni-qo'shnichilik an'analarimiz, oila-turmush marosimlarimizdagi ko'plab urf-odatlar qonun darajasida bajariladi.

G'arbda shaxs jamoaga o'zligini yuzaga chiqarish, iste'dodi va imkoniyatlarini namoyish etish, muayyan maqsadlarga erishish vositasi sifatida qaraydi. Jamoa

insonning ichki, botiniy dunyosi, ruhiyati va shaxsiy hayotiga mutloq aralashmaydi. Sharqda esa butkul boshqacha manzarani kuzatamiz. Sharqda jamoaga asosiy e'tibor beriladi. Har bir urf-odat, marosim jamoa, mahalla ahli ishtirokida o'kaziladi. Jamoa insonni ijtimoiy nazorat ostida tutib turish, shaxsning jamoadagi muntazam ishtiroki uning umumiy axloqiy me'yorlar doirasida ish tutayotganining isboti sifatida talqin etiladi. Jamoadan ajralgan holda ish tutish insonning ijtimoiy begonalashuvi sifatida baholanadi.

Darhaqiqat, o'zbek xalqi jamoa manfaatlari, jamoatchilik fikri doirasida, an'ana va urf-odatlarga sodiqlik negizlarida birlashishga moyil va shunga intiluvchi xalqdir. Zero, an'analarning o'zi ham moatchilik fikrining barqarorlashgan ifodasidir.

Bugungi kunda o'zbek qadrini urf-odat va marosimlarimizning an'anaviy o'ziga xos tomonlari jonlanayotgan bir tarixiy jarayonda mentalitetimizdagi jamoaviylikka xos me'yoriy bog'liqlik fazilatini saqlagan holda, uning bir qadar individuallashuvi, unda javobgarlik hissini rivojlantirish, o'zi uchun o'zi hisob bera olish, mustaqil ish tutish, shaxsiy mas'ullik singari xususiyatlarni yanada takomillashtirish zarur. Shu o'rinda, afsus bilan aytish kerakki, o'zbek xalqining bir yuz ellik yillik mustamlaka davrida yo'qotgan qadriyatlari saqlab qolishga erishilgan qadriyatlardan bir necha hissa ko'p boldi. Rossiya imperiyasi hamda sovetlar mustamlakachiligi davrida xalqimizga xos bo'lgan hamjihatlik, jangovarlik, har ishda so'z va ish birligi singari fazilatlarga jiddiy zarar yetkazildi. Xalq orasida milliy birlikka intilishdan ko'ra guruhiy, etnik, mahalliy va hududiy ayirmachilikka berilish kuchaydi. Xalq milliy mentaliteti taqdirga tan berish, hamma narsaga rozi bo'lib ketaverish, loqaydlik kabi xislatlar avj oldi. Uzoq davom etgan sobiq sovet davlatining mafkuraviy tazyiqlari oqibatida ko'plab diniy va milliy qadriyatlаримиз е'tiborsiz qoldi, узоқ тарих-

ga ega bo'lgan muqaddas an'ana va marosimlarimiz bid'at, «eskilik sarqiti» deb kamsitildi, milliy udumlarimizning tarixiy asoslariga xolisona baho berildi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, o'tmishdan meros bo'lib o'tgan ana shunday salbiy holatlarga yangicha nigoh bilan qarash, ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratilgan g'oyat ulkan, beba ho ma'naviy, madaniy merosimizni, o'tmish tariximizni, qolaversa, umummiliy ma'naviy islohotlarni amalga oshirish asosiy vazifalardan biri sifatida e'tirof etildi va ular davlat siyosati darajasidagi g'oyat muhim vazifa qilib belgilandi. Bugungi kunda hayotiy zaruratning o'zi xalqimiz fe'l-atvori, mentalitetini yangilashga jiddiy e'tibor qaratishga undamoqda. Lekin, afsuski, bugungi kunda yer yuzida kechayotgan boshqa bir muhim jarayon – globallashuv jarayoni natijasida jahon xalqlari uchun umumiyl etiket, umumiyl fe'l-atvor, umumiyl mentalitet shakllanmoqda va bunga bevosita jahon miqyosida kechayotgan siyosiy, iqtisodiy va axborot borasidagi globallashuv ancha kuchli ta'sir qilmoqda. Bunday globallashuv, ya'ni bir xillashuv muayyan ijobiy natijalar berishi ga qaramasdan, ko'plab salbiy oqibatlarga ham olib kelmoqda. Bu sharqning gavhari bo'lgan o'zbek xalqining milliy mentalitetiga ham bevosita hamda bilvosita ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada globallashuv oqibatida o'zbeklarning milliy mentalitetiga xos ko'plab qadriyatları, marosim va udumları unutilishiga sabab bo'lmoqda. Xulosa tarzida aytadigan bo'lsak, butun jahon bo'yicha ulkan globalashuv jarayonlari kechayotgan bir vaqtda o'zbek milliy mentalitetini o'rganish uning nechog'lik umuminsoniy qadriyatlargacha mosligini kuzatish imkonini beradi. Qolaversa, xalqimizning qadimiy an'analar, azaliy urf-odat hamda marosimlarga ega bo'lishi o'ziga xos va o'ziga mos milliy mentalitetga ega xalq ekanligini tasdiqlab turibdi.

### **Seminar mashg'ulotlari rejasi:**

1. Madaniyatning etnik funksiyasi. Etnik madaniyatning o‘ziga xos himoya vositalari.
2. Etnos madaniyati va etnik madaniyat. Etnik madaniyat tuzilishi.
3. Etnik madaniyat va dunyo madaniyati.
4. Etnik stereotiplar, munosabatlari.

### **Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Madaniyatga ta’rif bering?
2. O‘zbeklarning milliy-etnik xususiyatlari qanday marosimlarda namoyon bo‘ladi?
3. Yaponlar va xitoylarning milliy xarakteridagi o‘xshashliklar va farqli jihatlat haqida ma’lumot bering?
4. Etnik madaniyatni shakllantiruvchi omillar haqida nimalar ni bilasiz?

### **Adabiyotlar:**

1. Карабаев У. Этнокультура. – Т.: Шарқ, 2006.
2. Козлов В. И. Этнос и культура (к проблеме соотношения национального и интернационального в этнографическом изучении культуры) // Сов. этнография, 1979, N 3.
3. Арутюнов С. А. Народы и культуры: развитие и взаимодействия. И., 1989.
4. Свод этнографических понятий и терминов. Под общей редакцией академика Ю. В. Бромлея и профессора С. И. Вайнштейна. – М.: Наука, 1995.
5. Etnos va madaniyat: an'anaviylik va zamonaviylik. “Akademik Karim Shoniyozov o‘qishlari” turkumida etnologlarning V Respublika ilmiy konferensiyasi materiallari. Toshkent, “Fan”, 2010.

6. Садохин А.П., Грушевицкая Т.Г. Этнология. Учебник для высших учебных заведений. –М., Academa, 2000.
7. Этнология(Этнография): учебник для бакалавров// ио. ред. В. А. Козьмина, В. С. Бузина. Москва, Изд. Юрайт, 2014.
8. O‘zbekiston etnologiyasining nazariy metodologik muammolari. – Т., «Navro‘z», 2014.
9. Ионов И. Н., Хачатуян В. М. Теория цивилизаций от античность до конца XIX века. СПб., 2002.
10. Etnomadaniyat. O‘quv qo‘llanma. – Т., 2008.

# **IKKINCHI QISM**

**JAHON XALQLARINING  
ETNOLOGIK TAVSIFI**

## VI BOB

### AVSTRALIYA VA OKEANIYA XALQLARI

- 22-§. Avstraliya va Tasmaniya xalqlari.  
23-§. Okeaniya xalqlarining tarixiy-etnologik tafsifi.  
24-§. Polineziya va Yangi Zelandiya xalqlari.  
25-§. Mikroneziya va Melaneziya xalqlari.

#### 22-§. Avstraliya va Tasmaniya xalqlari

**A**vstraliya (lotincha *australis* – janubiy) – janubiy yarim sharda joylashgan qit'a hisoblanadi. Avstraliya shimoldan janubga York burni bilan janubi-g'arbiy burun janubiy kengliklar oralig'ida 3200 kmga, g'arbdan sharqqa 4100 kmga, Stip-Poyit burni va Bayron burunlari oralig'ida cho'zilgan. Maydoni – 7682 kv. km (Tasmaniya, Kenguru, Melvill orollari bilan birga 7707.5 kv. km ga yaqin. 2014-yil 5-martdag'i ma'lumotlarga ko'ra, qit'a aholisi 23 mln 511 155 kishidan iborat bo'lib, ularning asosiy qismi sharqiy qirg'oq bo'ylaridagi shaharlarda yashaydi<sup>1</sup>.



<sup>1</sup> <http://ru.wikipedia.org/wiki>

Avstraliyaning davlat ramzida kenguri va tuyaqush tasviri aks etgan. Aynan mazkur hayvonlar ramzi gerbda aks ettirilishining ikki sababi bor. Birinchidan, bu jonzotlar Avstraliya faunasida keng tarqalgan bo'lsa, ikkinchidan, na tuyaqush va na kenguri orqaga qarab yurmaydi. Bu esa mazkur mam-lakatning doimo olg'a yurishini ramziy aks ettiradi.

Avstraliya qit'alar ichida eng kichigi bo'lib, janubiy tropik chizig'i materikning deyarli o'rtasidan kesib o'tadi. Materikni g'arb, shimol va janubdan Hind okeani, sharqda Tinch okeani, dengizlari o'rabi turadi. Qирг'оqlari unchalik egri-bugri emas, shimolda Kartentariya, janubda Katta Avstraliya qo'ltilari mavjud. Katta yarim orollari – Arnemlend va Keyp-York, Tasmaniya orolini Avstraliyadan kengligi 224 km li bo'g'ozni ajratib turadi. Avstraliyaning shimolida yirik orollardan Yangi Gvineya joylashgan. Avstraliyaning sharqiy sohili bo'ylab behisob marjon orollaridan tashkil topgan Katta to'siq rifi 2300 km masofaga cho'zilib yotadi. XVII asrgacha bu hududagi aborigenlar ibridoiy jamoa tuzumi sharoitida yashashgan.

Avstraliya haqidagi dastlabki noaniq ma'lumotlar yevropaliklarga portugal dengizchilari orqali XVI asrda yetib kelgan. Ammo Avstraliyaning shimoliy qismlarini ba'zi bir indonez qabilalari qadimdan bilsingan bo'lsa kerak. Avstraliyani 1606-yilda gollandiyalik Yanszon kashf qilgan va Yangi Gollandiya, deb atagan. Bir necha oydan so'ng ispaniyalik L. Torres Avstraliyaning Keyp-York yarim oroli shimolidagi bo'g'ozdan suzib o'tgan. Bu bo'g'oz keyinchalik uning nomiga qo'yilgan. Yava oroliga qatnab turgan golland dengizchilari 1640-yilda materikning g'arbiy, qisman shimoliy va janubiy sohillarini kashf qilganganlar. 1642-yilda A. Tasman Avstraliyadan janubroqda suzib, Tasmaniya orolini topdi va materikni Antrak-



*Jeyms Kuk  
(1728 – 1779)*

tidadan uzoqda joylashganligini isbotlagan. J. Kuk 1770-yilda Avstraliyaning sharqiyo sohillarini kashf etdi va uni Yangi Janubiy Uels, deb atadi. 1788-yildan Angliya hududi, deb e'lon qilingan. M. Flinders va N. Boden tadqiqotlari bilan Avstraliya janubiy sohillarining kashf etiliishi nihoyasiga yetgan. M. Flinders materikni Avstraliya («Janubiy yer»), deb atagan va XIX asrdan shu nom bilan atala boshlaydi.

Avstraliyaning ichki qismi yevropaliklarning chorva mollari uchun yaylov qidirish maqsadida o'rganilgan. Ko'plab geografik tadqiqotlar natijasida butun Avstraliyaning tabiat boyliklari, o'rganilishi qit'a xo'jaligini tez o'zlashtirilishiga olib keldi.

Qit'a nomini olgan mazkur hududda Avstraliya davlati joylashgan.

Avstraliya bugungi kunda dunyo bo'yicha eng rivojlangan mamlakatlardan biri bo'lib, jahon mamlakatlari orasida iqtisodiyotiga ko'ra 13-o'rinni, aholi soniga ko'ra yalpi ishlab chiqarish bo'yicha 6-o'rinni egallagan. Mazkur mamlakat insoniyat imkoniyatlari rivojlanishi indeksi bo'yicha dunyoda ikkinchi o'rinda bo'lib, aholi salomatligi, erkin iqtisodiyot, fuqarolar erkinligi va siyosiy huquqlarni himoya qilish bo'yicha ham dunyo reytingida eng oldingi o'rinda turuvchi mamlakatlardan biri sanaladi. Avstraliya qator xalqaro tashkilotlar va bloklarga ham a'zo davlat hisoblanadi. Chunonchi, Avstraliya BMT, G20, JST (Jahon savdo tashkiloti), Millatlar hamkorligi, Tinch okeani orollari Forumi kabi xalqaro tashkilotlarga a'zo hisoblanadi<sup>1</sup>. Avstraliya dunyodagi aholisi zich joylashgan davlatlar orasida 50-o'rinda turadi.

<sup>1</sup> Population clock. Australian Bureau of Statistics. <http://ru.wikipedia.org>

Yashil qit'aning hozirgi aholisining asosiy qismi Britaniya orolidan ko'chib kelganlarning avlodlari – inglizlar, islandlar, irlandlar bo'lib, ular avstraliyaliklar millatini tashkil etadi. Tub aholi va duragaylar Avstraliya aholisining 1,5 foizini tashkil etadi: armanlar, nemislar, greklar, gollandlar va boshqalar yashaydi. Bir necha yuz o'zbeklar ham istiqomat qildi. Rasmiy tili – ingliz tili. Aholisining o'rtacha zichligi – 1 kv. km ga salkam 2 kishi.

Avstraliya aborigenlarining ancha qismi mustamlakachilar tomonidan qirib tashlangan. 2006-yilda

o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish jarayonida 517200 kishi, ya'ni umumiy aholining 2,5 foizini mahalliy aborigenlar tashkil qilishi aniqlangan<sup>1</sup> (XVIII asr oxirida 250 – 300 ming bo'lsa, 1992-yilda 170 mingga yaqin edi). Ular qisman rezirvatsiyalar deb e'lon qilingan cho'l zonalarida yashaydi. Avstraliyaliklar katta ekvatorial (negroid-avstraloid) irqqa mansub. Bu irqdagilar qora tanli, keng burunli, yuz qismi turtib chiqqan, to'lqinsi-



*Australiya aborigeni*

mon sochli, badani va yuzi sertuk. Ular 500 dan ortiq qabilaga bo'lingan. Har bir qabila o'z tilida so'zlashgan. Avstriyaliklar ovchilik, temirchilik, baliqchilik bilan shug'ullanishgan. Avstriyaliklarning ilk ajdodlari Janubi-Sharqiy Osiyoridan (asosan Indoneziyadan) taxminan 40 ming yillar ilgari kelib joylashishgan. Ba'zan Avstraliyaning barcha aholisini avstriyaliklar, deb atashadi. Avstraliyaning asosiy aholisi, asosan, Buyuk Britaniyadan ko'chib kelganlarning avlodlari –

<sup>1</sup> <http://www.abs.gov.au/AUSSTATS>

ingliz-avstraliyaliklar bo'lib, ingliz tilining avstraliya shevasida so'zlashadi. Xristian dinining katolik, presbyterian mazhablariga e'tiqod qilishadi.

Avstraliya tillari – Avstraliya tub aholisining tillari. Papua tili, miriam va tasman tillari bundan mustasno, to'la o'rganilmagan. Tillarning umumiy soni (dialektlar o'rtasidagi farqning kattaligidan) 200 dan 600 gacha, deb hisoblanadi. Avstraliya tillari hududiy belgiga ko'ra, quyidagicha tasnif qilinadi: Shimoliy Kimberlin tillari (varora, kakoyimidir va boshqalar); Janubi-sharqiy avstraliya tillari (buandiq, kulin, kurlam va boshqalar); G'arbiy Avstraliya tillari (yungar, lorida va boshqalar); markaziy Avstraliya tillari (parikola, dieri, aranta va boshqalar) hamda Kvikkend va Yangi Uels tillari. Ularning lug'at tarkibi boy, ko'p ma'noli so'zlar ko'p. Mahalliy aholi orasida ko'pgina tillar barham topgan yoki yo'qolib bormoqda. Hozirda 70 ming kishigina mahalliy tillarni biladi.

*Australiyaliklarning mahalliy so'zlashuv tilida Avstraliya – Oz, «australiyalik»ni esa – Aussie deb aytildi.*

Avstraliya 6 ta shtat, 3 ta materik hudud va ko'plab mayda hududlardan tashkil topgan. Avstraliya shtatlariga Viktoriya (VIS), G'arbiy Avstraliya (WA), Kvinslend (QLD), Yangi Janubiy Uels (NSW), Tasmaniya (TAS) va Janubiy Avstraliya (SA) kiradi. Ikkita asosiy materik hududlarga Shimoliy hududi (NT) va Federal poytaxt mintaqasi (AST) kiradi.

Tasmaniya – Avstraliyaning janubi-sharqiy qirg'og'i yaqinidagi orol (materikdan Bass bo'g'ozi orqa-li). Atrofidagi orollar bilan Avstraliyaning Tasmaniya shtatini tashkil etadi. Shtat maydoni 68,4 ming kv. km. Aholisi 511700 kishi (2011) bo'lib, asosan, ingliz avstraliyaliklar. Poytaxti – Xobart shahri hisoblanadi. Shuningdek, Lonseston, Devonport va

*Abel Tasman*

Bern kabi shaharlari bor.

Orol 1642-yildagi Tasman ekspeditsiyasidan keyin yevropaliklarga ma'lum bo'lgan. 1788-yilda Angliya mustamlakasi, deb e'lon qilingan. 1853-yilgacha Van-Dimen Yeri, o'sha yildan Tasmaniya, deb atalgan. 1815-yildan Tasmaniyaga o'zini-o'zi boshqarish huquqi berilgan. 1901-yilda Avstraliya Ittifoqi tuzilgach, Tasmaniya shtat bo'lib kirdi.

Tasmaniyaliklar – Tasmaniyaning tub aholisi bo'lib, 1806 – 1876-yillar mobaynida ingliz mustamlakachilari tomonidan butunlay qirib tashlangan. Taxminiy ma'lumotlarga ko'ra, XIX asr boshida Tasmaniya aholisi bir necha ming kishi bo'lgan. Tasmaniyaning qabilaviy tillari va lajhalar, ularning ijtimoiy tuzumi, etnogenezi deyarli o'r ganilmagan. Tasmaniyada diniy e'tiqodlari haqidagi ma'lumotlar ham munozarali.

Qit'a aholisining kelib chiqishi fanda eng qiziqarli va nihoyatda murakkab muammodir. Chunki bu yerning tub aholisi juda arxaik ibridoiy tipdagi sodda, o'ziga xos madaniyatini bizning davrimizgacha saqlab qolgan. Bu qit'a aholisini o'r ganishning murakkabligi shundaki, tasmaniyaliklarning jismoniy tuzilishi, tili va madaniyati boshqa biron xalqqa o'xshamaydi, ya'ni boshqa xalqlarga qiyos qilish imkoniyati yo'q. Shuning uchun ularning etnogenezi to'g'risida bir yarim asr dan buyon tortishuvlar, turli mulohazalar davom etib kelmoqda. Ammo Avstraliya qit'asi antropogenezga kirmasligi, ya'ni odamzodning vatani emasligi aniq.

*Tasmaniyalik  
aborigen*



*Australyadagi saxaliy aborigenlar*

Demak, avstraliyalik va tasmaniyaliklarning qadimiy ajdodlari kelgindilar bo'lgan, degan xulosaga kelish mumkin. Keyingi yillarda o'tkazilgan ba'zi antropologik va arxeologik tadqiqotlarda ularning qayerdan va qachon kelganligi to'g'risida ba'zi ma'lumotlar ayon bo'ldi.

XIX asr o'rtalarida ayrim sayyoh olimlar (E. Eyr, J. Prichard) avstraliyaliklarni tasodifan qit'aga adashib yoki qullikdan qochib kelgan afrikaliklarning avlodi degan bo'lsa, ba'zi birlari Malayya arxipelagi va Yangi Gvineya orqali kelgan eng qadimiy okeaniyaliklar avlodi, degan fikrlarni aytishgan. 1870-yillarda beshinchi qit'a bilan tanishgan rus tadqiqotchisi va sayyohi N. N. Mikluxa-Maklay o'zining jiddiy kuzatishlari asosida avstraliyaliklar mustaqil irq degan xulosaga keldi. Mazkur fikrni antropologik tadqiqotlar ham qisman tasdiqlaydi. Avstraliyaliklar o'ziga xos antropologik tipni tashkil qiladi.

Ayrim tadqiqotchilar qit'aning tub aholisi negroid va yevropoid irqlar oralig'ida paydo bo'lgan deyishsa, boshqa olimlar avstraliyaliklarni katta negroavstraloid «ekvatorial» irqining maxsus tipi, deb hisoblaydilar. Ularning sochlari qora, yevropoidlarni kidek to'lqinsimon, soqol-mo'ylovlari va badan tuklari qalin, terisining rangi negroidlarnikiga o'xshashroq to'q jigarrang, kalla suyagi uzunchoqroq, peshonasi nishablik, qosh usti suyagi chiqqan, labi qalin va burni kengroq, bo'yi o'rtacha yoki balandroq.

Qit'aga aholining ko'chib kelish davri yuqori paleolitga to'g'ri keladi. Taxminan 18 – 19 ming yillar muqaddam Avstraliya qit'asi Osiyo bilan qo'shilgan bo'lib eng qadimiy Avstraliyaliklar Janubi-Sharqiy Osiyodan quruqlik orqali ko'chib kelganlar. Keyinchalik 12 – 13 ming yillar ilgari okean suvlarining ko'tarilishi natijasida beshinchi qit'a paydo bo'lgan. Shungacha aloqador bo'lib turgan qadimgi osiyolik ajdodlaridan ajralib qolgan avstraliyaliklar o'sha davr



*Aborigenlarning marosimi raqsi*

ijtimoiy tuzumi va madaniyatini to o'tgan asrgacha mustahkam saqlab qolganlar. Ammo aholining joylashuv jarayoni juda uzoq davrlarga cho'zilgan. Ular dastlab yashashga qulay bo'lgan sharqiy sohillarni egallaganlar, keyinchalik esa o'rta sahro qismi va g'arbiy hududlarga ham ko'chib o'ta boshlaganlar. Hatto mustamlakachilar kelguncha ham tub aholi qit'ani to'liq o'zlashtirib olmagan edi<sup>1</sup>.

Mahalliy aholi oziq-ovqatni, erkaklar va ayollar o'rtasidagi tabiiy mehnat taqsimotiga asoslanib, erkaklar, asosan, ov ishlari bilan, ayollar esa o'simlik mahsulotlarini yig'ish bilan shug'ullangan. Aborigenlar ratsionining 90 foizi ayollar tomonidan terilgan o'simliklardan tayyorlangan ovqatlar tashkil qilgan. Shuningdek, ayollar mayda hayvonlarni ham ovlangan.

Ov erkaklar ishi bo'lib, hayvonlarni ovlash ishlari bilan yoshi kichik erkaklar shug'ullangan. Yoshi 35-45 yoshli erkaklar esa, asosan, barcha urug' uchun zarur bo'lgan, jumladan, ovqat zahiralari bo'lgan hayvon va o'simliklarni mo'l-ko'l bo'lishiga qaratilgan muqaddas marosimlarni o'tkazish bilan shug'ullanishgan. Yosh ovchilarni magik marosimlarga o'rgatish orqali katta yoshli erkaklar ovlangan o'ljani ma'lum qismini konpensatsiya tarzida olgan. Go'sht, ayniqsa, alohida hayvonlar go'shti tan-siq ovqat tarzda qadrlangan. Lekin bu mahsulotlar uning ta'mi va yemishligiga qarab emas, balki ayollar va kichik yoshli erkaklarga qaratilgan ovqat ta'qiqi bilan bog'liq tizimiga bog'liq bo'lgan. Misol uchun ayrim tumanlarda faqatgina katta yoshli erkaklargina iguan-



*Bumerang*

<sup>1</sup> *Jabborov I. Jahon etnologiyasi asoslari. – T., 2007. 77-bet.*

lar va dyugonlar go'shtini yeishlari mumkin bo'lgan. Bu ta'qiplarga muqaddas miflar asos bo'lgan.

Uzoq vaqt davomida boshqa dunyo bilan aloqada bo'limganliklari tufayli avstraliyaliklarning tillari, yuqorida qayd qilinganidek, hech bir boshqa tillarga o'xshamaydi va yaqinligi ham yo'q. Har bir qabila o'z tili yoki shevasiga ega bo'lib, irqiy va madaniy jihatdan o'xshashlik mavjud bo'lsa-da, bir-birlarining tillarini tushunolmaganlar. Ba'zi tillar bir necha shevallardan iborat bo'lib, maxsus turkumni hosil qilgan.

Tub aholi tillarini lingvist A. Kepella olti yirik turkumga bo'ladi: 1) Janubi-sharqiy Avstraliya tillari; 2) Yangi janubiy Uels tili; 3) Shimoliy va Markaziy Kvinsland tili; 4) Markaziy va janubi-g'arbiy Avstraliya tili; 5) Arixemlend tili; 6) Shimoliy va shimoli-g'arbiy hududdagi juda ko'p boshqa tillar<sup>1</sup>.

Avstraliyaliklarda yana «signallar tili» ham mavjud bo'lib, narsalarni aniq belgilar yordamida ifoda laganlar. Misol uchun, o'z joylarini tashlab ketayotganlarida oyoqlari bilan qumga chiziq chizganlar va chiziqning uchiga xivich tiqib qo'yganlar. Chiziqning yo'nalishi va uning uzunligi shu guruhning qaysi to monga va qancha masofaga ketganligini bildirgan. Bu belgi o'z guruqlarining kechikib qolgan a'zolari va mehmonlar uchun ham qilingan. Shuningdek, xavf yoki motam signallari keng tarqalgan.

Avstraliyalik va tasmaniyaliklarning kiyimlari ni hoyatda yupun bo'lgan. Ko'pchilik qabilalar mutlaqo kiyimsiz, yalang'och yurganlar. Ba'zi janubi-sharqiy hududlarda opossum terisidan plash tikib yopinib yurganlar. Ammo erkagu ayol, asosan, bayram vaqtlarida turli bezaklar: boshiga toladan o'rov, qo'liga ip, bilaguzuk, bo'yniga munchoq, burniga buloqi sirg'a taqishgan, badanlarini bo'yab har xil patlar yopishtir ganlar yoki badanlarini maxsus jarohatlab, yo'l-yo'l

<sup>1</sup> Jabborov I. Jahon etnologiyasi asoslari... 78-bet.

naqshlar tilganlar. Tanani faqat bezak uchun emas, ba'zan terini saqlash uchun ham bo'yaganlar.

Ko'p hollarda mahalliy qabilalarning nomlari bo'lмаган bo'lsa-da, lekin ularning qо'shnilar tomonidan berilgan nomlari bo'лган. Chunonchi, aynan mazkur asosda paydo bo'лган etnonimlarda ularning joylashgan о'rni – *yalind'yara* (shimol), *gagarara* (sharq), *yabura* (janubi-g'arb) yoki ularning til xususiyatlari – *bidyand'yara* (ularning tilida «olib bor» so'zi «*bida*» tarzda qo'llanilgan) ifodalangan. Keyinchalik aynan shunday so'zlar qabila-urug' vakillari ning etnonimlariga ham aylangan.

O'z navbatida, shuni ham aytish kerakki, mahalliy aborigenlar tasavvurida qabilaga xos bo'лган umumiy jihatlar ularning diniy magik e'tiqodlari va marosimlari umumiyligi hisoblangan.

Urug' yoki fratriya ajdodining ayrim hayvon nomi bilan atalishi Avstralaliyada keng tarqalgan totemistik tasavvurlar bilan bog'liq. Ular orasida iqtisodiy tabaqalanish bo'lмаган. Har bir lokal guruh bir avlod sifatida yoshiga va jinsiga qarab bo'линган va mehnat taqsim qilingan. Erkaklar ishlab chiqarish qurollari yasaganlar, ov qilganlar, oilasini qо'riqlaganlar, ayollar esa terimchilik qilganlar, bola boqqanlar, ov va terim mahsulotlariga ishlov berib, ovqat tayyorlagانlar. Ijtimoiy mahsulotlar teng bo'линган, shaxsiy mulkni bilmaganlar. Ijtimoiy va nikoh-oila munosabatlari murakkab odat va dasturlarga asoslangan maxsus tizimga ega bo'лган.

Voyaga yetgan o'spirinlarni kattalar guruhiga o'tkazishda maxsus initsiatsiya marosimi amalga oshirilgan. Iqtisodiy yoki sotsial tabaqalanish bo'lмаганилиги tufayli avstraliyaliklar jinsiga qarab bo'линган. Shuning uchun ham, masalan, o'g'il bolalarni ovchilar guruhiga o'tkazish uchun bolaning yoshligidan tarbiyalashgan. Dastlab, ular voyaga yetgach boshqalar-

dan ajratib qo'yilgan va ba'zi taomlarni iste'mol qilish ma'n qilingan, tishlarini urib sindirish, badanini jarohatlash, o'tda tutatish kabi jismoniy sinovlardan o'tkazilgan. Bir necha yilga cho'zilgan initsiatsiya marosimlarida yoshlarni qabila urf-odatlari, afsona va rivoyatlari bilan tanishtirganlar, qariyalarni hurmatlash va tartib-qoidalarga qattiq rioya qilishni, ovchilik va boshqa kasb sirlarini egallash mahoratini o'rgatganlar. Initsiatsiya davri voyaga yetgan o'g'il bolalarni sunnat qilish marosimi bilan tugaydi.

Avstraliyaliklarning ma'naviy madaniyati, diniy e'tiqodi ishlab chiqarish kuchlarining darajasi va ijtimoiy tuzumiga mos kelgan. Ularning tasavvurida butun tevarak-atrof g'ayritabiiy kuchlar, turli maxluq va arvoхlar bilan to'la. Avstraliyani odatda totemizm vatani deydilar. Eng ibtidoiy din shakllaridan biri hisoblangan totemizm falfasasi bilan uyg'unlashib ketgan kishilar, urug' yoki qabilalar o'zlarini muayyan moddiy buyumlar, asosan, ayrim jonivorlar yoki o'simliklar bilan yaqin qavm-qardosh, deb biladilar va shunga ishonadilar.



*Abelam urug'i ajdodlar  
ruhi tasviri.*

Ularning tasavvurida butun tevarak-atrof g'ayritabiiy kuchlar, turli maxluq va arvoхlar bilan to'la. Avstraliyani odatda totemizm vatani deydilar. Eng ibtidoiy din shakllaridan biri hisoblangan totemizm falfasasi bilan uyg'unlashib ketgan kishilar, urug' yoki qabilalar o'zlarini muayyan moddiy buyumlar, asosan, ayrim jonivorlar yoki o'simliklar bilan yaqin qavm-qardosh, deb biladilar va shunga ishonadilar.

Shuning uchun ham ayrim urug'lar totemistik guruh hisoblanib, hayvonlar yoki o'simliklarning, ba'zan jonsiz buyumlarning nomi bilan atalganlar. Shu nomdag'i hayvon yoki o'simlikka – bobo, dada yoki aka-uka qarindosh, deb ishonilgani uchun ularni o'dirish, iste'mol qilish qattiq man etilgan. Qolaverса, totemizmning klassik shakli hukmron bo'lgan

qadimgi avstraliya qabilalari totemistik qabilalar urug'-aymoqlarga bo'linganlar. Har bir aymoq o'zaro biror-bir hayvon, o'simlik, ashyo (aksariyat holarda hayvon) bilan bog'langan. Bir totemga e'tiqod qiluvchilar o'rtasida o'zaro nikohga yo'l qo'yilmagan. Totem paydo bo'lishida tabiiy jinslarga bo'linish asosiy o'rinda turgan. Bu holat, o'z navbatida, jinsiy totemizm rivojiga ta'sir ko'rsatgan. Odatda, jinsiy totemizmda bir urug'dagi barcha erkaklar totemi alohida, ayollarniki alohida bo'lgan, ya'ni har bir jinsiy guruh qandaydir hayvon, o'simlik, ashyo bilan do'stona yo qarindoshlik munosabatlariga kirishgan. Jins totemizmida ko'pincha sut emizuvchi hayvonlar, qushlar va o'simliklar totem bo'lgan. Jins totemizmi otadan o'g'ilga, onadan qizga o'tib kelgan<sup>1</sup>.

Totemistik tasavvurlar, tadqiqotchi A. Elkin ta'biri bilan aytganda, hayvon va tabiat, koinot va olam haqidagi tasavvurlar mevasidir. U ijtimoiy guruhharga alohida rang beradi, uning mifologiyasiga ta'sir etadi, urf-odatlarini jonlantiradi, odamlarni o'z o'tishi bilan bog'laydi<sup>2</sup>.

Avstraliyaning hozirgi aholisi, yuqorida aytigandek, Angliya, Shotlandiya va Irlandiyadan kelganlarning avlodidir. Avstraliyaliklarga xos milliy o'zlikni anglashning shakllanishi bir necha bosqichlarda yuz bergen bo'lib, bu jarayon bevosita Avstraliya va Buyuk Britaniya o'rtasidagi o'zaro munosabatlar inqirozi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Birinchi jiddiy inqiroz XIX asrning 90-yillarida sodir bo'lgan bo'lib, bu davrda ko'plab kambag'al migrantlar avstraliyaga kelib o'zlarining turmush tarzini yaxshilashga harakat qilganlar. Lekin, bu yerga kelib yangi yerlarga ega bo'lib, tezda boyib ketishni istaganlar. Angliyadan ko'ra bu yerda hayot og'irligi va

<sup>1</sup> Токарев С. А. Ранние формы религии... – С. 81

<sup>2</sup> Элкин А. Коренное население Австралии. – М., 1952. – С. 131.

Buyuk Britaniya hukumati tomonidan ularga hech qanday yengilliklar berilmaganligini ko'rib mahalliy avstraliya qonunlarini yaratishga harakat qilganlar. Natijada 1901-yilda Avstraliyadagi mustamlakalar 6 shtatdan iborat federatsiyaga – Avstraliya Ittifoqiga birlashtirildi va u dominion maqomini oldi. 1906-yilda unga Britaniyaning Papua mustamlakasi (Yangi Gvineya orollarining janubi-sharqiy qismi), 1-jahon urushidan keyin esa (bu urushda Avstraliya qo'shnllari Britaniya armiyasi tarkibida jang qildi) Germaniyaning sobiq Yangi Gvineya mustamlakasi (Yangi Gvineya orolining shimoli-sharqiy qismi) va Nauru oroli (Millatlar Ittifoqi mandati ostidagi hudud sifatida) berildi. Ikkinchiji jahon urushi vaqtida Avstraliya gitlerchilarga qarshi koalitsiya tarafida harakat qildi. Biroq urush vaqtida ham avstraliyaliklar Buyuk Britaniya hukumati Avstraliyani xalqaro va harbiy himoya qila olmasligiga yana bir bor amin bo'lgan. Chunki ikkinchi jahon urushi vaqtida Avstraliya shaharlari yapon armiyasi tomonidan bombardimon qilingan.

1945-yildan Avstraliya BMT a'zosi bo'ldi va aynan ikkinchi jahon urushidan keyin mamlakat Buyuk Britaniya boshchiligidagi Hamdo'stlik tarkibida qolgan holda mustaqil davlatga aylandi. 1949-yildan boshlab mamlakatda rasman aholiga nisbatan «avstraliyalik» iborasi qo'llanila boshlandi va 1959-yildan esa rasmiy aholini ro'yxatga olish materialarida avvalgi «britaniyalik» nomi o'rniغا «avstraliyalik» nomi ostida odamlar ro'yxatga olindi. 1972-yildan boshlab esa Avstraliyaning rasmiy pasporti joriy etildi. 1970-yillar so'ngida rasmiy o'chov birliklari ham o'zgarib, mil o'rniغا kilometr, fut – metrga, funt o'rniغا esa kilogramm joriy etildi.

1975-yilda esa mamlakatning G. Uitlem boshchiligidagi leyboristlar hukumati Britaniya general-

gubernatori tomonidan iste'foga chiqarildi. Aynan shu holat avstraliyaliklarni imperiya tarkibida o'z o'rni va huquqiga ega emasligini yana bir tasdiqlab mahalliy aholi orasida Britaniyaga qarshi norozilik harakatini kuchaytirgan. Natijada 1984-yildan boshlab rasmiy marosimlarda Buyuk Britaniya gimni o'rni Avstraliyaning yangi gimni ijro etila boshlandi va nihoyat 1986-yilda qirolichcha Yelizaveta II o'z mustaqil qonunchiligi, boshqaruvin hukumati va sudi-ga ega bo'lishi borasidagi mashhur «Avstraliya akti»-ga qo'l qo'ydi. Lekin Avstraliya Britaniya millatlari hamdo'stligi tarkibida qolgan bo'lib, rasman hukumat boshlig'i Angliya qirolichasi hisoblanadi. O'tgan yillar davomida avstraliyaliklar yuqori rivojlangan iqtisodiyotni yaratdi va dunyodagi eng rivojlangan turmush tarziga ega mamlakat darajasiga ko'tarilishdi. Ularning milliy madaniyati o'zlariga xos an'analarga ega bo'lib, bu an'analar butun dunyo jamoatchiligi tomonidan e'tirof etilgan.

Bu holat bevosita ko'plab san'at va adabiyot namoyanda-larining ijodlarida, misol uchun Nobel mukofati sovrindori bo'lgan avstraliyalik yozuvchi Patrik Uaytning asarlari mi-soldida kuzatish mumkin.

Mamlakatning iqtisodiy mavqeい yirik industrial-agrar xarakteri bilan belgilana-di. Unda zamонавиy саноат-ning barcha muhim sohalari,

jumladan, elektrotexnika, ximiya, metallurgiya, mashinasozlik, rivojlangan qishloq xo'jaligi, ayniqsa, chorvachilik va hokazolar mavjud. Foydalanida-gan yerkarning 80 foizi yirik yer egalari qo'lida bo'lib,



*Patrik Uayt*

mamlakatda 174 mln dan ortiq qo'ylar va 24,1 mln. dan ortiq qoramol mavjud. Bir yilda o'rtacha 3,7 mln. tonna go'sht va 720 ming tonna jun yetishtiriladi.

Avstraliyaliklar turli davrlarda mamlakatga imigrant bo'lib ko'chib kelgan etnik guruhlar olib kirgan yangi tartiblardan minnatdor bo'lishlari kerak. Chunonchi, nemislar XIX asrdayoq Janubiy Avstraliyaga birinchilardan bo'lib uzumchilik va vinochilikni olib kirgan. Aynan mazkur shtatda hozirda ham eng mashhur uzum navlari yetishtiriladi va mashhur vino navlari tayyorlanadi. Aynan nemislar tomonidan qit'aning kichik shaharlarida dorixonalar, qandolat va sut mahsulotlari tarmog'ini yaratishgan. Greklar esa Kvinslend shtatida shakarqamish plantatsiyalarini rviojlantirishda muhim hissa qo'shgan. Agar qit'ada avvallari, asosan, ingлиз tilida gaplashuvchi emmigrantlar ko'p sonli bo'lgan bo'lsa, hozirda Avstraliyada 90 ta tilda (mahalliy astraliya aborigenlarini hisoblamaganda) 140 dan ortiq turli etnik guruh vakillari yashaydi.

Mamlakatda 6 yoshdan 15 yoki 16 yoshgacha (har bir shtatda har xil) majburiy ta'lif beriladi. Lekin tub joy aholining 40 foizi savodsiz. Davlatga va xususiy shaxslarga tegishli maktablar bor. Oliy ta'lif – pulli hisoblanadi. Avstraliyada jami 26 ta universitet, 35 ta kollej, 70 dan ortiq kundalik gazeta va 592 ta boshqa davriy nashrlar mavjud.

Avstraliya aholisining XX asrda shaharlashish ko'rsatkichi dunyoda eng yuqori o'rirlardan birini egallaydi. Agar bu asr boshlarida shaharlarda 50 foiz aholi yashagan bo'lsa, ikkinchi jahon urushidan keyin – 70 foiz, 1980-yillar boshlarida – 86 foizni va XX asr so'ngida esa – 90 foizdan yuqori ko'rsatkichni tashkil qilgan. 1991-yilda Avstraliya bilan O'zbekiston Respublikasi o'rtasida diplomatiya munosabatlari o'rnatalgan.

## Avstraliya bilan bog'liq faktlar

Mamlakatdagi ikki yirik – Sidney va Melburn shaharlari ulardan qay biri paytaxt bo'lishi mumkinligi borasida o'zaro kelishq olmaganlaridan so'ng 1824-yilda Kamberri qishlog'i o'rnila paytaxt shahar Kanberra ga asos solingan. Paytaxt yuqoridagi shaharlarni aynan o'rtasida joylashgan. Biroq, Avstraliya konstitutsiyasining 125-moddasiga ko'ra «Yangi Janubiy Uels shtati ichida, lekin Sidney shahridan 100 mildan kam bo'lмаган узоqlikda» qurilgan. Kanberra nomi aborigenlarning "ngambri" yoki "kamberi" so'zidan olingan.

– Qator shtatlari o'zlarining davlat bayramlariiga ega (lekin shunga qarmay mehnat qonunchiligini buzmasligik uchun barcha shtatlarda bayramlar soni bir xil qilingan).

– Avstraliya pul birligi (Avstraliya dollari, AUD) dunyodagi birinchi plastik pul hisoblanadi.

– Buyuk Britaniyadan muhojirlar kelishi saqlanib qolgan bo'lsa-da, mamlakatga eng ko'p sonli muhojirlar Xitoy va Hindistondan keladi.

## 23-§. Okeaniya xalqlarining tarixiy-etnik tavsifi

Okeaniya – Tinch okeanining markaziy va g'arbiy qismlaridagi orollar to'dasidan iborat bo'lib, uning tarkibiga 10 mingga yaqin, asosan, mayda orollar kiradi. Okeaniya Avstraliya bilan bir qit'a hisoblanadi. Orollarning umumiyligi maydoni 1. 26 mln kv. km. Shuning 80 foizi Yangi Gvineya va Yangi Zelandiya orollariga to'g'ri keladi. Aholisi 3 5162 670 kishini tashkil qiladi (2011-yil).

Okeaniyaning tarixiy madaniy rayonlarga bo'linishi uning geografik bo'linishga mos bo'lib, asosan, 3 ta yirik viloyatga: janubi-g'arbiy qismdagi «qora orollar», deb nom olgan Melaneziya (Yangi Gvineya, Bismark arxepelagi, Solomonov orollari, Santa-Krus, Yangi Gibridlar, Yangi Kaledoniya, Luayota, Fiji va boshqa mayda orollar), Osiyo sohillariga yaqin mayda orollardan iborat Mikroneziya (Marians orollari, Karolinsk, Marshall Gilbert orollari va ikkita ajratilgan – Oshen va Nauru orollari) hamda uning sharqiy va shimoli-g'arbidagi bepoyon Tinch okeanida tarqoq jöylashgan Polineziya – “ko'p sonli orollar”ga (Tonga, Saza, Taita, Markiz, Gavay, Tuamotu, Tubuai, Gambe, Xorn, Uollis, Tushu, Tokelau, Feniks, Layn, Kuka orollari, Pitkern, Pasxi kabi alohida orollar va boshq.) bo'linadi.

Antropologik va lingvistik jihatdan ham polineziyaliklar Janubiy Osiyoga borib taqaladi. Ular til va madaniy qiyofasi bilan umumiy xarakterga ega bo'lsa da, irqiy jihatdan negro-avstraloid va mongoloidlar aralashmasidan tashkil topgan o'ziga xos tipdan iborat. Malayya-polineziya til oilasiga kirgan indoneziya tiliga yaqin ekanligi ham polineziyaliklarning vatani Osiyo bilan bog'liq degan fikrni ma'qullaydi. Moddiy va ma'naviy madaniyat belgilarining ancha qismi ham polineziyaliklarni Indoneziya va Hindi-Xitoy (Malayziya) bilan bog'laydi.

Okeaniya orollarining yevropaliklarga ma'lum bo'lishi F. Magellan ekspeditsiyasidan (1521-yil) boshlandi. XVI asr oxirlarigacha ispan va portugal dengizchi sayyoohlari Mikroneziya, Solomon va Melaneziyadagi boshqa orollarni topdilar. 1642 – 1643-yillarda A. Tasman ekspeditsiyasi Yangi Zelandiya, Tonga va Fiji orollarini tadqiq qildi. XVII asr oxiri – XVIII asr boshlarida ingliz va fransuz dengizchi sayyoohlari Okeaniyaning markaziy va sharqiy qismidagi orol-



*Papular*

larga yetib boradilar. J. Kuk tomonidan Tuomotu, Tonga, Yangi Gebrid, Yangi Kaledoniya, Gavayi orllari, Kuk orllari va boshqalar kashf etildi. XIX asrda Okeaniyaning tadqiq qilinishiga I. F. Kruzenlitern, Yu. F. Lisyanskiy, F. F. Belinsgauzen, M. P. Lazerev, O. E. Kotsebu, F. P. Litke va boshqalar katta hissa qo'shdilar. N. N. Mikluxa-Maklay Okeaniyadagi Yangi Gvineya va boshqa orollar aholisining antropologiya va etnografiyasi, xo'jaligi to'g'risida ma'lum ma'lumotlar to'plagan.

Okeaniyaning tub aholisi 4 yirik guruhga bo'linadi: *papuaslar, melanizlar, polinezlar va mikronezlar*. Ular bir birlaridan tashqi qiyofasiga ko'ra farqlanib, turli irqlarga kiradi. Chunonchi, papuaslar va melanizlar avstroloid bo'lsalar polinezlar va mikronezlar mongoloid irqiga kiradi. Umuman olganda, Okeaniyaga yevropaliklar kela boshlagan vaqtida (XVI asr boshi) u yerda taxminan 3,5 mln aholi yashagan. Begunoh

o'ldirish, chetdan olib borilgan yuqumli kasalliklar va boshqalar natijasida aholi keskin kamaygan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida aholi soni tez o'sa boshladi.

Etnik tarkibiga to'xtalsak, okeaniyada irqi, tili, tarixi va madaniyati jihatidan o'zaro keskin farq qiluvchi xalqlar yashaydi. Ularni soni jihatdan ikki qismiga: mahalliy aholi va ko'chib borgan aholiga bo'lislumumkin. Okeaniyaning mahalliy aholisi polineziya, melaneziya va mikroneziya antropologik tiplarga mansub. Mahalliy aholining bir qismi malay-polinez tillarida, boshqa qismi papua tillarida so'zlashadi. Papua tillari bir necha guruhlarga bo'linadi. Lekin Okeaniya xalqlarining til guruhlari ularning mavjud etnik va madaniyati jihatidan yaqinligiga to'la muvofiq emas.

*Okeaniya tillarini* shartli ravishda ikki asosiy gruh: 1) okeaniya tarmog'iga kiruvchi austroneziya lingvistik oilasi, aynan bu tilda melaneziyaliklar, polineziyaliklar va mikroneziyaliklar so'lashadilar; 2) papuas tillari, bu turkumga hech bir mashhur tillar oilasiga kirmaydigan tillar kiradi. Yangi Gvineya papuaslari va unga tutash bo'lgan boshqa orollarda yashovchi mahalliy aholi aynan shunday tilda gaplashishadi.

Umuman olganda, Okeaniya tillari 21 guruhga, guruhlar esa guruhchalarga bo'linadi. Ko'pchilik Okeaniya tillarining fonologik tarkibi sodda: 3 qator portlovchi undoshlari: jarangli, jarangsiz va burun undoshlari bo'lib, hosil bo'lisl o'rniqa qarab 5 ga ajratiladi. Grammatik jihatdan Okeaniya tillari analitik tillarga mansub, har bir so'z turkumining o'ziga xos xususiyatlari bor. XIX – XX asr boshlarida bir necha o'nlab Okeaniya tillari uchun lotin grafikasi asosida yozuvlar yaratilgan, lekin bu tillar aksariyat adabiy til sifatida rivojlanmadi. Okeaniya tillarini o'rganish XIX asrda boshlanib, XIX asrning 50-yillarida avj ol-

gan bo'lsa-da, ularning ko'pchiligi hanuz tavsif etilmagan.

Okeaniyaning mahalliy bo'lmaidan xalqlari ingliz-yangi zelandiyalik, fransuz (Yangi Kaledoniya), amerikalik, yapon va filippinlik (Gavayi orollari), hind (Fiji orollari) va boshqalardan iborat.

Zamonaviy Okeaniya aholisining diniy e'tiqodi, asosan, xristianlik bo'lib, ular protestanlik yoki kataliklikka mansub hisoblanadi.

## 24-§. Polineziya va Yangi Zelandiya xalqlari

Tinch okeanining markaziy qismida keng, taxminan bir million kvadrat kilometr suv sathidagi son-sanoqsiz katta-kichik orollardan iborat Polineziya («Ko'p orollik») shimolda Gavayya arxipelagi, janubda eng katta qo'shorol – Yangi Zelandiya va sharqda Pasxa uchburchagi joylashgan. Asosan, vulqon va marjonlardan paydo bo'lgan Polineziya orollari (Yangi Zelandiyani hisobga olmaganda) 26 ming kvadrat kilometrdan ortiq hududga ega, shundan 17 ming kv. km faqat Gavayya arxipelagiga tegishli, 220 ta orol esa har bittasi bir kvadrat kilometrdan ham kam joyni egallaydi.

«Polineziya» so'zi ilk marta 1756-yilda fransuz yozuvchisi Sharl Bross tomonidan fanga olib kirilgan bo'lib, u dastlab Tinch okeanidagi barcha orollarga nisbatan qo'llangan. 1831-yilda esa fransuz savo-hatchisi, dengizchi, okeanshunos Jyul Dyumon-Dyurvil Fransuz geografiya jamiyatida qilgan ma'rzasida mazkur atamani ma'lum ma'noda chegaralash va hozirgi ko'rinishida qo'llashni taklif qilgan.

Polineziya hududiga Yangi Zelandiya (uning hududi 265 ming km<sup>2</sup>)dan tashqari 9 ta katta arxipelag – Gavayya, Samoa, Jamiyat orollari, Markiz, Tonga,

Tuamotu, Kuk, Tubuan, Ellis va boshqa juda ko'p yirik hamda mayda orollar kiradi. Yangi Zelandiyaada hozir 3,5 mln. dan ortiq aholi bo'lsa, umuman Polineziyada 4,5 mln. ga yaqin kishi yashaydi.

Polineziyaliklarning kelib chiqishi, Okeaniyaning boshqa xalqlaridan farqli tarzda, ma'lum ma'noda Amerika qit'asi bilan ham bog'liq bo'lgan.

Antropologik jihatdan tub polineziyaliklar, asosan, mongoloid, avstrolo-negroid va qisman yevropoidlarning aralashmasidan paydo bo'lganlar. Mazkur tiplar Polineziyaga Fiji arxipelagi, keyin Tonga va Samoa orollari orqali miloddan avvalgi ikki minginchi yilning o'rtalaridan boshlab kirib kela boshlagan. Ular o'ziga xos maishiy turmush va madaniyat asosida umumiyligi polineziya etnik birligini yaratib milodning birinchi va ikkinchi ming yilligi davomida asta-sekin butun Polineziyani egallab olganlar.

Ammo ayrim olimlar, dastavval mashhur norveg tadqiqotchisi Tur Xeyerdal, Polineziyaga odamlar birinchi bo'lib Janubiy Amerikadan, chunonchi, qadimda yuksak madaniyat markazi bo'lgan And tog'laridan ko'chib kelganlar, degan g'oyani ilgari surdilar. Tur Xeyerdal o'z fikrini isbotlash maqsadida 1947-yili beshta hamrohi bilan «Kontiki» nomli maxsus kemada Perudan Tuamotu orollarigacha sayohat qiladi. U juda ko'p manba to'playdi, ayniqsa, Pasxa va Markiz orollarida toshdan yasalgan katta haykallar, yozuv qoldiqlari, ayrim ekinlar va boshqa dalillarga tayanib, Polineziya orollarini, dastavval faqat Amerikadan kelgan kishilar egallagan, degan xulosaga keladi. Buning dalili sifatida hozirda unut bo'lib ketgan kulolchilik, temir ishlab chiqarish, to'qimachilik sanoati namunalarining ayrim orollarda (Markiz, Samoa, Tonga) topilganligini ko'rsatadi.

Polineziyaliklar nihoyatda mohir dengizchilar hisoblanishgan. Maori, taiti, tonga va fijiylar yasagan

yelkanli katta kemalarda o'nlab-yuzlab kishilar uzoq safarga chiqqanlar. Shuningdek, ular kuchli to'lqinlarga moslashgan yog'och balansirli va katta qo'sh kema – katamaranlarni ham yasaganlar. Bunday kemalarda yuzlab, minglab kilometr masofani suzib o'tish mumkin bo'lgan.

Ko'plab madaniylashgan o'simliklar va uy hayvonlari o'z davrida Osiyodan, keyinchalik Amerikadan va hatto Afrikadan ham olib kelingan. Okeaniyaliklar



*Kivi qushi – Yangi Zelandiyaning milliy ramzi*

uy hayvonlaridan faqat tovuq, cho'chqa, itni bilishgan bo'lib, bu uy hayvonlari ham turli orollarda bir vaqtning o'zida paydo bo'lмаган. Misol uchun, Pasxi oroli aholisi orasida faqat tovuq bo'lgan bo'lsa, Yangi Zelandiyada xonakilashtirilgan it bo'lgan.

Ov qilish bilan faqat katta orollarda, asosan, yovvoyi to'ng'iz va qushlarni ovlash bilan shug'ullanishgan. Shu bois Okeaniyaliklarning asosiy xo'jalik mashg'uloti tropik dehqonchilik, aniqrog'i, polizchilik bo'lib, bu mashg'ulotga qo'shimcha tarzda chorvachilik va baliqchilik bilan ham mashg'ul bo'lingan.

Hozir ham polineziyaliklarning ko'pchiligi tropik tipdag'i dehqonchilik: ildizli ekinlar – yams, taro, batata va, ayniqsa, mevali palma, banan daraxtlari: banan, pizanga ekish va baliqchilik bilan shug'ullanadilar. Uy hayvonlaridan tovuq, cho'chqa va it saqlaydilar.

Chorvachilik hozir Yangi Zelandiyada eng asosiy soha bo'lib, umumiy qishloq xo'jaligining 80 foizini tashkil qiladi. Dunyoda Yangi Zelandiya sariyog' ishlab chiqarish bo'yicha ikkinchi o'rinda turadi. Okean

sohillari va orollarda yashovchi aholining erkak qisimi, asosan, baliq ovlash bilan band. Ular qarmoq, sanchqi, to'r va hatto o'simlik zahari bilan ham ov qiladilar.

Orolliklarning ma'naviy madaniyati ham ancha boy bo'lgan. Ular tropik iqlimda ildizli poliz ekinlari va mevali daraxtlarni ekib parvarish qilishda agrotexnik tajribalardan xabardor bo'lganlar. Bepoyon okean markazida yashayotgan polineziyaliklar tevarak-atrofni yaxshi bilganlar, dengiz oqimi va shamol, yo'nalishiga quyosh, oy va yulduzlarga qarab eng uzoq masofaga ham sayohat qilganlar, uzoq-yaqin joylashgan arxipelag va orollar tabiiy geografiyasidan taxminan xabardor bo'lganlar. Bir kun hisobi kechaga qarab belgilangan. Pasxa orolida 20 ta taxtaga bitilgan ieroglyph yozuv saqlanib qolganligi beziz emas. Badiiy san'at namunalarini yog'och o'ymakorligi, haykaltaroshlik, tatuirovka qilish, qurollar, uy buyumlari va qurilish ishlari dagi turli naqshlar, har xil afsonaviy niqoblarda ko'rish mumkin. Ularda improvizatsiyalashgan ashula va raqslar, pantomima, musiqa, turli marosimlar va og'zaki ijod keng rivojlangan.



*Moai*

Diniy e'tiqodda buyuk tabiat xudolariga sig'inish kuchli bo'lgan. Butun Polineziyada to'rtta xudo – *Tane*, *Tu*, *Rongo*, *Tangaroa* – tabiat kuchlarini ifodalaydi. Shuning uchun ham, kosmogonik afsona va rivoyatlar keng tarqalgan. Shunisi qiziqliki, xalq ijodining asosiy ma'nosi olam va inson bepoyon Okeaniya orollarini izchillik bilan egallashi tarixi-

dan kelib chiqqan. Barcha afsona va rivoyatlarning bosh qahramonlari jasur dengizchilar, yangi yer va arxipelaglar axtaruvchi sayyoohlar ekanligi shundan. Tabu so'zi asli Polineziyada paydo bo'lib, uni dastlab Yevropaga atoqli dengiz sayyohi Kuk keltirgan. Tabu orolliklarda juda keng tarqalgan jamiyatdagi kasta (tabaqalanish) tizimini ifodalaydi<sup>1</sup>.

Polineziyada barcha orollarda qadrlangan ibodat-xona markazlari bo'lgan. Aynan mana shunday markazlardan biri Taiti arxepalagidagi Raztea orolidagi Opoada bo'lgan. Bu yerda kohinlar maktabi bo'lib, yon atrofdagi orollar aholisi o'g'llarini o'qishga olib kelgan. Opoada rasmiy marosimni o'tkazish maqsadida Polinezianing turli tomonlaridan kohinlar domiy ravishda yig'ilib turgan.

Polineziyaning yana bir farqli xususiyati shundaki, bu yerda «aslzoda ayollar» bo'lgan bo'lib, ular aka-singil bo'lsa-da, darajasiga ko'ra zodogon erkaklardan yuqori turgan. Ayollar qabilalardan bo'lishi mumkin hisoblangan. Lekin ularning o'z orolidagi erkakga turmushga chiqishi juda mushkul bo'lgan. Chunki doimo ham uning mavqeидаги erkak bo'lavermagan. Shu bois ko'p hollarda bunday ayollarni qo'shni orollarga turmushga berishgan.

Polineziyada o'zaro ichki nikoh bo'lgan. Yosh oilalalar orasida kelin-kuyov orasida kimning eri ko'p bo'lsa u tomonida yashagan. Ko'p farzandli oilalar baxtli oila hisoblangan.



*Maorilarning  
milliy libosi*

<sup>1</sup> Jabborov I. Jahon etnologiyasi asoslari... 97-bet.

Mustaqil davlat hisoblangan (1907-yildan dominion huquqiga ega) Yangi Zelandiyaning 3,5 million-dan ortiq aholisining asosiy qismi yangi zelandiyalik inglizlar va maorilar (15 foiz) ga bo'linadi. Bundan tashqari, polineziyaliklar, ingliz, shotland, irland, xitoy, hind va boshqa xalqlar ham yashaydi. Rasmiy tillar – ingliz va maori tillari. Dindorlarning aksariyati – protestantlar. Shahar aholisi 85 foiz. Yirik shaharlari: Vellington, Oklend, Kraystcherch.

Yangi Zelandiyaga X – XIV asrlarda maorilar kelib joylashgan. Yevropaliklardan birinchi marta 1642-yilda gollandiyalik dengizchi A. Tasman borgan. 1769 – 1770-yillarda ingliz dengizchi sayyohi J. Kuk orollarni tadqiq qilgan. XIX asr boshlarida yevropaliklarning dastlabki aholi punktlari paydo bo'ldi. Ayni vaqtda maorilarga tegishli yerlarni bosib olish jarayoni boshlangan. 1840-yil dastlabki ingliz muhojirlari Vellington shahrini barpo etgan. 1840-yildan Angliya Yangi Zelandiyani o'z mustamlakasiga aylantirdi. 1843-yil maorilarning ingliz mustamlakachilariga qarshi

qurolli qo'zg'oloni boshlangan. 1872-yilga kelib maorilarning qarshiligi to'la bostirilgan. 1907-yil Yangi Zelandiya dominion maqomini oldi. 1-jahon urushi davrida Yangi Zelandiya Buyuk Britaniya tomonida bo'ldi. Urushdan so'ng Yangi Zelandiya Germaniyaning sobiq mustamlakalari bo'lган G'arbiy Samoa va Nauruni Buyuk Britaniya va Avstraliya bilan birlgilikda boshqarish uchun mandat oldi. 1926-yilgi



*Maori qabilasi sardori  
(XIX asr)*

imperiya konferensiyasi va 1931-yilgi Vestminster statuta bilan tasdiqlangan qarorlar asosida Yangi Zelandiya tashqi va ichki ishlarda to'la mustaqillikka ega bo'ldi. Ammo 2-jahon urushigacha Buyuk Britaniya Yangi Zelandiyaning barcha tashqi aloqalarini nazorat qilib turdi. 2-jahon urushida Yangi Zelandiya antifashistik koalitsiya tomonida bo'ldi. 1945-yildan BMT a'zosi. 1992-yil 19-martda O'zbekiston Respublikasi suverenitetini tan olgan va diplomatiya munosabatlari o'rnatgan. Milliy bayrami 6-fevral – Vaytanga kuni (1840).

**Xo'jaligi.** Yangi Zelandiya – qishloq xo'jaligi yusak darajada rivojlangan industrial-agrar mamlakat. Yalpi ichki mahsulotda qishloq xo'jaligi 9 foiz, sanoat 25 foiz, xizmat ko'rsatish tarmog'i 66 foizni tashkil etadi.

Qishloq xo'jaligining asosi – sut, go'sht va go'sht jun chorvachiligi mashhur hisoblanadi. 47,5 mln. qo'y, 9 mln. qoramol boqiladi. Yangi Zelandiya sari-




*Yangi Zelandiya qo'ylari*

yog‘, go‘sht, jun va pishloq eksport qilish bo‘yicha dunyoda oldingi o‘rinlarda turadi. Yem-xashak ekinlari, bug‘doy, arpa, suli, dukkakli don ekinlari, sabzavot ekinlari ekiladi. Meva, jumladan, kivi yetishtiriladi. Bog‘dorchilik (sitrus mevalar, olma, nok, shaftoli, gilos), tokchilik rivojlangan. Baliq va kit ovlanadi. O‘rmonda yog‘och tayyorlanadi.

Sanoatida oziq-ovqat va yengil sanoat rivojlangan. Qora va rangli metallurgiya, mashinasozlik, yog‘och-sozlik va sellyuloza-qog‘oz, kimyo, to‘qimachilik sanoati korxonalar mavjud. Alyuminiy, plastmassa, o‘g‘it, sement, chinni zavodlari bor. Kon sanoatida tabiiy gaz, temir rudasi, mis, qo‘rg‘oshin, rux, oltin, kumush, qo‘ng‘ir va toshko‘mir, titan (magnetit qumi) qazib olinadi. Mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati, avtomashinalarni yig‘ish va ta’mirlash korxonalaridan iborat. Keyingi yillarda AQSh, Yaponiya va Avstraliya sarmoyasi yordamida bir qancha qog‘oz va yog‘ochni qayta ishlash korxonalar, al-yuminiy zavodi qurilgan.

Ta’lim 6 yoshdan 15 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun majburiy va bepul. Davlat maktablari bilan birga xususiy maktablar ham bor. O‘qish muddati boshlang‘ich maktablarda 6 yil, oraliq maktablarda 2 yil, 8 yillik maktab (boshlang‘ich va oraliq)dan keyingi bosqich o‘rta maktab (o‘qish muddati 3 yil). Kollej va oliy o‘quv yurtlarida o‘qish pulli bo‘lib, mamlakatda 7 ta universitet va texnika institatlari bor.

**Me’morchiligi va turarjoylari.** Ingliz mustamlakachilar kelgunga qadar maorilar to‘g‘ri burchakli, ikki nishabli tomi o‘tlar bilan yopiladigan yog‘och uylardan iborat qishloqlarda yashagan. XIX asrning ikkinchi yarmidan aniq reja bilan (Krastcherch,Oklend) yoki tabiat manzarasi bilan uyg‘unlashtirib qurilgan (Wellington) shaharlar qad ko‘tara boshladi. Ma’muriy bino va ibodatxonalar



*Australiyadagi Kanaki qabilasi uyi*

avval neoklassitsizm va neogotika uslubida, XX asrning 20–30-yillaridan zamонави shakllarda qurildi. 1960–1970-yillardan yangi qurilish materiallari va konstruksiyalar qo'llanila boshladi. Bir qavatli uylar inglizlarnikiga o'xshatib qurilsa ham, o'ziga xos mahalliy xususiyatlarga ega.

## **25-§. Mikroneziya va Melaneziya xalqlari**

Melaneziya (grekcha – *μελας* va *νησος* – *qora orollar*) – Tinch okeanidagi orollar guruhi bo'lib, unga Yangi Gvineya, Bismark arxipelagi, Yangi Gebrid, Santa-Krus, Loyalti va Solomon orollari, Fiji, Yangi Kaledoniya va boshqa mayda orollar kiradi. Melaneziya Avstraliyadan shimiliy sharqda joylashgan bo'lib, uning yer maydoni 940000 km<sup>2</sup>, aholisi – 6 mln. 500 ming (2012-yil) kishini tashkil qiladi.

Tadqiqotchilarning fikricha, dastlabki odamlar Melaneziyaga ming yillar muqaddam kelgan. N. N. Mikluxa-Maklay fikricha, Avstroosiyo, shu jumladan, Melaneziya dastlab yagona «papuas irqi» aholisi tomonidan egallanib, keyin Okeaniyaga tarqalgan. Bugungi kun olimlari ham mazkur fikrni davom ettirib, o'zaro yaqin antropologik tiplarning uzoq davr ichida davom qilgan migratsiyasi natijasida hozirgi aholi tipi paydo bo'lgan, deb tasdiqlamoqdalar. O'ziga xos til, madaniyati va antropologik tipi bilan ajralib turgan Melaneziya aholisi bunga dalil bo'la oladi.

Melaneziyaliklar – xalqlar guruhi (eng yiriklari: fiyjilar, kanaklar va boshqa). Melaneziyaning tub aholisi melanez tillari guruhida so'zlashadi. Dindorlari – protestantlar, katoliklar; an'anaviy diniy e'tiqodlariga sig'inuvchilar ham bor. Ular o'ziga xos melaneziya irqiga mansub bo'lib, mazkur irq – katta ekvatorial (negro-avstraloid) irqning tarmog'iga kiradi. Ko'p belgilari bilan (yuz tuklarining ko'pligi, qosh usti suyagini o'sganligi bilan farqlanadi).



*Yangi Giveneya  
papuasi*

XIX asrdan boshlab Polinezianing deyarli barcha orollarini Yevropa mamlakatlari bosib olganligi bois bu yerda fransuz va ingliz tillari ona tili yoki davlat tiliga aylangan. Misol uchun, Meleneziyada yangi so'zlashuv va keyinchalik yozma tillar, jumladan, pijnin tili shakllangan. Chunonchi, bu til avvallari ingliz va fransuz tillarining buzilgan shakli bo'lgan bo'lsa, hozirda mustaqil yangi tilga aylangan va o'z alifbosi, adabiyotiga ega bo'lib, qator mamlakatlarning hatto davlat tiliga ham aylangan.

Shuningdek, mintaqqa yevropaliklarning kirib keliishi bilan mazkur orollarga spirtli ichimliklar va bu yerlarga xos bo'lмаган yuqumli kasalliklar ham kirib kelgan. Bu mahalliy aholi orasida o'lim soni ortishiga sabab bo'lgan. Natijada ma'lum bir orolda mahalliy aholi umuman qolmagan bo'lsa, boshqasida kanaka (polinizitsilik terib termachilar) nufuzi bir necha bora kamayib ketgan.

**Xo'jaligi.** Mustamlaka arafasida papuaslar va melaneziyaliklar xo'jalik jihatdan deyarli bir darajada turganlar. Ularning xo'jaligida eng bosh soha tropik tipdagi dehqonchilik va dengiz baliqchiligi bo'lgan. Tirikchilik, asosan, dehqonchilik mahsulotlari – ildiz mevali o'simliklar va mevali daraxtlar o'stirishdan iborat bo'lgan. Quruq joylarda emas, namroq yerda taro, kokos xurmasi, non daraxti, banan, keyin paydo bo'lgan kofe, kakao, sholi, choy va hokazo hozirgacha ham asosiy ekinlar hisoblanadi. Yil bo'yi yerga ishlov berilib, tropik iqlimga xos ekin ekilgan. Yerni oddiy yog'och bilan kovlab, kesagini yog'och bel bilan hamda qo'lda maydalangan va urug' sochilgan. Yerga ishlov berishda erkak-ayol teng ishlagan. Ekish, yaganalash va yig'im-terim, asosan, ayollar zimmasida bo'lgan. Sohillarda yashovchi baliqchilar bilan savdolashib dehqonchilik mahsulotlarini ayirboshlaganlar. Baliq ovlash bilan erkaklar shug'ullangan. Baliqchilikda suyak va chig'anoqdan yasalgan turli qarmoqlar, to'r va savatlar, eni ikki metr, uzunligi 300 metrli to'rlar, sanchqi va hatto o'q-yoylardan foydalanilgan. Chorva kam bo'lib, uy hayvonlaridan it, cho'chqa, tovuq saqlangan va ularni, asosan, bayramlarda so'yganlar. Go'shtni «yer o'chog'ida» toshni qizdirib yoki olov yoqib kulida pishirganlar, ba'zan qaynatib ham yeganlar.

**Turarjoylar.** Melaneziyaliklar va papuaslar, asosan, o'troq bo'lib, urug' jamoa shaklida kichik qishloqlarda istiqomat qilganlar. Ularning uylari,



*Fidjiylarning an'anaviy uyi*

odatda, har xil tipdagi yengil ustunlarga qurilgan, to'g'ri burchak yoki doirasimon shaklda cho'qqaytirilgan bo'lib, tomlari palma yoki daraxt yaprog'i bilan qalin qilib yopilgan. Sohillarda ba'zan qoziqoyoqlar o'rnatilgan uylar ham bo'lgan. Oddiy turar uylardan tashqari har bir qishloqda erkaklar bo'sh vaqtlarida to'planadigan, ba'zan turli naqshlar bilan bezatiladigan hashamatli jamoa uyi («erkaklar uyi») qad ko'targan. An'anaviy transport vositasi kema bo'lgan. Ular bir-ikki odam sig'adigan qayiqchadan tortib 40 taga yaqin odam sig'adigan yog'och kemalargacha ega bo'lganlar. Kemalar eshkakli va ba'zan uchburchakli chipta yelkanli bo'lgan.

**Kiyim-kechaklari.** Papuas va melaneziyaliklarning kiyimlari, tropik iqlimga moslashgan bo'lib, asosan, erkaklar fartukli belbog' va ayollar esa o'simlikdan tikilgan kalta yubka, ba'zi joylarda yaqin davrlargacha tayloq ham kiyib yurishgan. Qattiq yog'ingarchilik vaqtlarida qalin yaproqlardan

yoping'ich shaklida tikilgan kiyimni yelkaga yopib yurganlar. Ammo kiyimlarga nisbatan turli bezaklar ko'p bo'lgan. Ayniqsa, erkaklar bezaklarni ko'proq os-gan, sochlarini turli xilda taragan. Bambukdan yoki cho'plardan taroqlar yasab, ba'zan ularni ham bezak sifatida ishlatganlar.

**Oilaviy va jamoaviy hayoti.** Mustamlaka arafasida ijtimoiy munosabatlar ona urug'inинг oxirgi davriga to'g'ri keladigan tuzum darajasida bo'lgan Yangi Gvineyada, masalan, urug'-jamoa munosabatlari mustahkam bo'lsa, Fiji orollarida sinfiy jamiyat endi kurtak otgan edi. Katta orollarning aholisiga qabilalarga bo'lingan, urug' jamoasi esa uning asosini tashkil qilgan. Mulk shakli biroz murakkab: yer jamoaniki bo'lsa-da, undan foydalanish individual xarakterga ega, har kim, hatto bola ham, o'zi ekkan mevali daraxtiga ega bo'lgan. Uy va uning jihozlari, qurollar shaxsiy mulk, katta kemalar esa jamoaga tegishli bo'lgan. Meros ona urug'i tomonidan hisoblangan. Jamoa mustaqil iqtisodiy hujayra bo'lib yashagan va qabilalararo munosabatlar natural savdo va nikoh shaklida amalga oshirilgan. Janubiy va sharqiy orollarda (Yangi Kaledoniya, Fiji va hokazo) yashovchi melaneziyaliklar jamoasida ijtimoiy tabaqalanish natijasida badavlat shaxslar, zodagonlar va urug' boshliqlari paydo bo'lgan. Ular jamoa mulkining bir qismini egallagan, ayrim jamoa a'zolarini o'zlariga qaram qilib olganlar, urushlarda asirlarni qul qilganlar, bo'ysungan qabilalarga soliq solgan.

«Erkaklar ittifoqi» hukmron zodagonlarning qudratli quroli bo'lgan. Mazkur ittifoq tabaqalariga bo'lingan va eng yuqori tabaqadagi ittifoqqa a'zo bo'lish uchun katta badal to'lashi va maxsus boy mafrosimlar o'tkazishi shart bo'lgan. Chunki yuqori tabaqadagi ittifoq a'zolari katta imtiyozlarga ega bo'lib, o'ziga xos mustabid hokimiyat vazifasini bajargan-

lar, aholini qo'rqitib, boyliklarini tortib olganlar. Butun Melaneziyada keng tarqalgan mashhur Duk-duk nomli erkaklar ittifoqi aslida initsiatsiya marosimlari bilan bog'liqdir.

Initsiatsiya marosimi Yangi Gvineya va melaneziyaliklarda tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan. Erkaklar qatoriga qabul qilinish uchun yoshlikdan tayyor-garlik ko'rilgan, o'spirinlar maxsus ajratilgan tarbiyachilar qo'liga topshirilgan, turli og'ir sinovlardan o'tkazilgan: masalan, bola do'pposlangan, tatuirovka qilingan, ovqat va uyqudan mahrum etilgan. O'spirinlar faqat «erkaklar taomi» – banan, shakarqamish va o'rmon mevalarini iste'mol qilishlari shart bo'lgan. Ayollar qo'lidan ovqat yeyish, ular o'stirgan daraxt mevasini tamaddi qilish qat'iyan man qilingan. Xul-las, butun marosim o'g'il bolani onasidan, umuman ayollardan ajratib, erkaklar dunyosiga jalg qilishdan iborat bo'lgan. Ba'zan sinov va udumlar turli qo'shiq va raqslar, surnay navolari ostida o'tkazilgan.

Migratsiyaning kuchayishi natijasida ayrim orol-larning etnik tuzilishi ancha o'zgargan, tub aholi soni kamayib, kelgindilar ko'payib ketgan. Eski qabilaviy tuzum asta-sekin yemirilib, qabila boshliqlari mustamlakachilarining ma'muriy malaylariga aylangan. Fiji orolida serunum yerlarni egallagan mustamlak-achilar plantatsiya xo'jaligini tuzib shakarqamish eka boshlaganlar. Ular ishchi kuchiga muhtoj bo'lib, qo'shni orollardan va Hindistondan juda ko'p yollanma ishchilarni olib kelganlar. Orol aholisining deyarli 50 foizini hozirda hindlar tashkil qiladi, tub aholi esa undan ham oz qolgan.

Polineziyalarnig milliy madaniyati taraqqiyotini yangi bosqichi ikkinchi jahon urushidan keyin ko'plab mamlakatlarning, jumladan, G'arbiy Samoa (1962), Tonga (1970), Tuvalu (avvalgi Ellisa orollari, 1978) milliy mustaqillikka erishish jarayoni bilan

bog'liq. Umuman olganda hozirda Yangi Gvineyada papuaslar va melaneziyaliklar 2,8 milliondan ortiq. Ammo ularning ko'pchiligi noqulay sharoitda, tropik o'rmonlarda va botqoqlik qirg'oqlarda yashaydilar. Mahalliy tub aholining ozodlik kurashi natijasida papuaslar Yangi Gvineyasi o'z-o'zini boshqarish huquqiga ega bo'ldi va 1975-yilda mustaqil davlat deb e'lon qilingan. Kuka oroli ham mustaqil boshqaruv huquqini olgan.

Yangi zamонавија jarayonlar an'anавија madаниyatning qayta tiklanishi va yangi ma'navија qадриятларнинг shakllanishiga turtki berdi. Bu yo'lда ikki tilda, ya'ni, Polinezija va Yevropa tillari(ingliz yoki fransuz tillari)da ijod qilinadigan yosh polinezija adabiyoti muhim rol o'ynamoqda. So'nggi yillarda Tinch okeani mintaqasida kelib chiqishi maori bo'lgan Iximaeri, Xoni Tuvari, Patritsiy Greys va samoalik Albert Vendt kabi yozuvchilarning asarlari keng ommalashmoqda. O'z asarlarida mazkur mualliflar qadimgi polinezija liklarning odatlarini dunyo jamoatchiligiga yangicha talqinda yetkazishga harakat qilishmoqda. Qolaversa, ular Polinezija madaniyatining hozirgi holati va kelajagiga alohida e'tibor qaratishmoqda.

**Mikroneziya.** Mikroneziya, asosan, marjon va vulqonlardan paydo bo'lgan juda ko'p kichik orollardan iborat. Bunga Tinch okeanining g'arbiy qismida joylashgan Marshall, Karolin, Marian orollari va Gilbert arxipelagi kiradi. Nihoyatda keng hudud (14 mln. km. kv)da tarqoq joylashgan mazkur orollarning umumiy maydoni 3,5 ming km<sup>2</sup> ga ham yetmaydi. Ammo geografik mavqeい nuqtai nazardan Mikroneziya Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan Polinezija va Melaneziya orolig'ida joylashganligi juda qulay.

Aholisi soni – 200 ming kishi atrofida bo'lib, yuz yil avval bir necha o'n xalqlardan iborat bo'lgan. Aynan mazkur hudud etnomadaniy jihatdan ham rang-ba-

rang bo'lganligi bois etnologlar ikki viloyatga: G'arbiy Mikroneziya(Marian, Yap, Palau orollari) va Sharqiy Mikroneziya (Mariq va Gilbert orollari)ga bo'lishadi. Karolin orollari madaniyati esa o'rtaliqni tashkil qiladi.

Bu hudud madaniyatida Indoneziya va Filippin (Mariandsagi sholi bilan bog'liq madaniyat, hunarmandchilik, to'qimachilik va boshqa) Okeaniyaga xos bo'limgan noyob ko'rinishlar uchraydi. Sharqiy Mikroneziya tili va madaniyatiga ko'ra Polineziyaga yaqin hisoblanadi.

Antropologik jihatdan Mikroneziya aholisi melaneziyalik va polineziyaliklarga yaqin mongoloid va negroid irqining aralashmasidan paydo bo'lgan tipdir. Ular o'rta bo'yli, jigarrang tanli va bir oz jingalak sochli. G'arbiy Mikroneziyada mongoloid qo'shimchasi borligi seziladi.

Mikroneziyaliklarning xo'jaligida serunum yerlar kam bo'lganligi tufayli faqat kokos palmasi, shakarqamish, non daraxti o'stiriladi. Aholisi, asosan, baliqchilik bilan kun ko'radi. G'arbiy Mikroneziyada sug'orish dehqonchiligi asosiy rolni o'ynasa, sharqiy qismida baliqchilik eng muhim soha hisoblangan.

### Seminar mashg'uloti rejasi:

1. Avstraliya va Tasmaniya xalqlarini o'rganilish tarixi.
2. Okeaniya xalqlarining tarixiy-etnik tavsifi.
3. Polineziya va Yangi Zelandiya xalqlarining an'anaviy turmush tarzi, xo'jaligi va madaniyati.
4. Melaneziya va Mikroneziya xalqlarining etnografik xususiyatlari.

### **Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Avstraliyaning dunyo xalqlari xo‘jalik-madaniy tasnifiga ko‘ra xo‘jalik-madaniy hartiasiga tavsif bering?
2. Avstraliya xalqlari diniy e’tiqodlari va ijtimoiy uyushmalar taraqqiyotini aniqlang?
3. Okeaniyaning asosiy tarixiy-etnografik viloyatlariga ta’rif bering?
4. Mikroneziya xalqlarining madaniyati qo‘shni hududlar madaniyatidan qanday o‘ziga xos ko‘rinishlari bilan farqlanadi?
5. Avstraliya va Okenaniya mintaqasidagi zamonaviy etnomadaniy jarayonlar haqida ma’lumot bering?

### **Adabiyotlar:**

1. Австралия и Океания: история. экономика, этиогенез. – М., 1978.
2. Бутинов Н. А. Паиуасы Новой Гвинеи (Хозяйство, общественной строй). – М., 1988.
3. Кабо В. Р. Дорога в Австралию: Воспоминания. М.: Восточная литература, 2008.
4. Малиновский Б. Избранное: Аргонавты западной части Тихого океана. – М., 2004.
5. Основы этнологии: Учебное пособие / Под ред. проф. В. В. Пименова. – М.: Изд-во МГУ, 2007.
6. Пучков П. И. Формирование население Меланезии. – М., 1968.
7. Пучков П. И. Этнические развитие Австралии. – М., 1987.
8. Пучков П. И. Этнические ситуация в Океании. – М., 1983.
9. Роуз Ф. Аборигены Австралии. – М., 1989.
10. Salimov T. Avstraliya va Okeaniya xalqlari (O‘quv-uslubiy qo‘llanma). – Т., 2003.

## VII BOB

### **OSIYO XALQLARI ETNOLOGIYASI**

*26-§. Osiyo xalqlarining tarixiy-etnologik tavsifi.*

*27-§. G'arbiy Osiyo xalqlari.*

*28-§. Markaziy Osiyo xalqlari.*

*29-§. Janubiy Osiyo xalqlari.*

*30-§. Janubi-Sharqiy Osiyo xalqlari.*

*31-§. Sharqiy Osiyo xalqlari.*

#### **26-§. Osiyo xalqlarining tarixiy-etnologik tavsifi**

**O**siyo (yunoncha Asia, ehtimol ossuriycha Asu – Sharq) – Yer yuzidagi eng katta qit'a (butun quruqlik maydonining 30 foizini egallagan). Yevro-siyo materigining bir qismi bo'lib, mazkur qit'a fanda geografik va tarixiy-etnografik jihatdan olti qismga bo'lib o'rganiladi: G'arbiy yoki Old Osiyo, Markaziy Osiyo, Janubiy va Markaziy Osiyo, Janubi-Sharqiy Osiyo, Sharqiy va Shimoliy Osiyo yoki Sibir xalqlari.

Osiyo shimoliy yarim sharning barcha geografik mintaqalarini o'z ichiga oladi va Malay arxipelagi qisman janubiy yarim sharga kirib borgan. Osiyoni materikning eng chekka nuqtalari: shimolda Shelyuskin burni, janubda Pegay burni, sharqda Dejnyov burni, g'arbda Bobo burni hisoblanadi. Osiyo shimoldan Shimoliy Muz okeani, Sharqdan Tinch

okeani, janubdan Hind okeani, janubi-g'arbdan Atlantika okeani (dengizlari: O'rta, Egey, Marmar, Qora, Azov, Kaspiy, Orol) bilan o'ralgan. Bering dengizi Osiyoni Amerikadan ajratib turadi. Suvaysh burni Osiyoni Afrika bilan tutashtiradi. Yevropa bilan Osiyo chegarasi shartli ravishda Ural va Mug'ojar tog'laringin sharqiy etagidan, Elba daryosi, Kaspiy dengizi, Kuma va Manich daryolari bo'ylab o'tadi. Maydoni 43,4 mln. km<sup>2</sup> (Kavkaz bilan); shundan 8 mln. km<sup>2</sup> yarim orollar (Yamal, Taymir, Shukotka, Kamchatka, Koreya, Hindixitoy, Hindiston, Arabiston, Kichik Osiyo), 2 mln. km<sup>2</sup> dan ortig'i orollardir ( Shimoliy Yer, Yangi Yer, Vrangel, Kuril, Saxalin, Yapon, Ryukyu, Tayvan, Xaynan, Malayya, Andaman, Shri-Lanka, Kipr). Osiyo dunyoda mutlaq balandliklari farq qiladigan katta qit'adir. Dunyodagi eng baland cho'qqi (Himolay tog'idagi Jomolungma cho'qqisi, 8848m), eng chuqur botiqlar – ko'l bo'lib qolgan botiqlar ham (eng chuqur joyi 1620 m bo'lgan Baykal ko'li, dengiz sathidan 392 m past bo'lgan O'lik dengiz), ochiq botiqlar ham (mutlaq belgisi – 154 m bo'lgan Turfan soyligi) Osiyodadir.

BMT qabul qilgan tasnifga ko'ra Osiyo quyidagi subregionlarga bo'linadi:

- ◆ Sharqiy Osiyo (Xitoy, Janubiy va Shimoliy Koreya mamlakatlari, Mongoliya, Yaponiya);
- ◆ G'arbiy Osiyo (Ozarbayjon, Armaniston, Bahrayn, Gruziya, Isroil, Iordaniya, Iraq, Yaman, Qatar, Kipr, Quvayt, Livan, BAA, Ummon, Falastin hududi, Saudiya Arabistoni, Suriya, Turkiya);
- ◆ Janubi-Sharqiy Osiyo (Bruney, Sharqiy Timor, Vietnam, Indoneziya, Kambodja, Laos, Malayziya, Myanma, Singapur, Tailand, Filippin);
- ◆ Janubiy Osiyo (Afg'oniston, Bangladesh, Butan,

Hindiston, Eron, Maldiv, Nepal, Pokiston, Shri-Lanka);

♦ Markaziy Osiyo (Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston).

Osiyoda 4,227 mln. aholi yashaydi (2012) va bu ko'rsatkich yer yuzining 60,6 foiz aholisini tashkil etadi. XXR va Hindiston mamlakatlarining aholisi qo'shib hisoblaganda butun dunyo aholisining 40 foizni tashkil qiladi. Mintaqadagi 7 davlat 100 mln. dan ortiq aholiga ega (yuqorida nomlari zikr qilingan mamlakatlardan tashqari – Indoneziya, Pokiston, Bangladesh, Yaponiya va Filippin).

Hozir Osiyoda etnik taraqqiyot jihatidan turli pog'onada turgan mingdan ortiq xalqlar yashaydi. 1 mln. dan ortiq 90 xalq 2400 mln. kishidan iborat bo'lib, butun Osiyo aholisining 97,4 foizini tashkil qiladi. Shulardan oltitasi 50 mln. dan ortiq, 21 tasi 10 mln. dan to 50 mln. ga yaqin aholiga ega bo'lgan xalqlardir.

Qit'ada aholi notekis joylashgan bo'lib, 1 km<sup>2</sup> dagi aholining o'rtacha zichligi 87 kishini tashkil qiladi. Bu o'rinda Yaponiya (1km<sup>2</sup>da 336 kishi), Livan (430 kishi), Koreya (493 kishi), Shri-Lanka (795), Hindiston (314). Janubiy va Markaziy Hindistonda-gi sohillar va yirik daryolarning vodiylari, Yaponiyaning janubida, Gang daryosi bo'yida va Braxmaputra etaklarida, Hindiston yarim orolining janubiy sohili, Mekong daryosi vodiysi, Yava orolida 1 km<sup>2</sup>da 1000 – 1500 kishi, ba'zi joylarda undan ham ko'p kishi to'g'ri keladi. Shu bilan birga Markaziy Osiyoning ko'p joylarida aholi juda siyrak. Cho'llarda (Rub-ul Xoli, Dashti Kabir, Taklamakon, Gobi) va Tibet, Himolay, Hindiqush tog'larining baland joylarida aholi deyarli yashamaydi.

*Osiyoda uch irq – mongoloid (xitoyliklar va boshq), yevropoid (G'arbiy Osiyo xalqlari) va negroid (Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo xalqlari) vakillari uchraydi. Osiyoning etnik tarkibi ham rang barangdir.*

*Mazkur qit'a xitoy, hind, tibet-mo'g'ul, Mavaroun-nahr, Vavilion va boshqa ko'plab qadimgi sivilizatsiyalar vatani hisoblanadi.*

Osiyoda yer yuzida keng tarqalgan har uch irq – mongoloid (xitoyliklar va boshqalar), evropoid (G'arbiy Osiyo xalqlari) va negroid (Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo xalqlari) vakillari ham uchraydi. Osiyoning etnik tarkibi ham rang barangdir.

Mazkur qit'a xitoy, hind, tibet-mo'g'ul, Mavaroun-nahr, Vavilion va boshqa ko'plab qadimgi sivilizatsiyalar vatani hisoblanadi.

G'arbiy Osiyo, Janubiy, Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyoning asosiy qismlarida insoniyat tarixining ilk davrlaridayoq odamlar yashagan. Quyi paleolit davrida Janubi-G'arbiy Osiyoda, hozirgi tipdagi odam (*Homo sapiens*) qaror topgan. Osiyoning katta qismida odamlar yuqori paleolit va mezolit davrida yashay boshlagan. Osiyodan odamlar Amerika, Avstraliya va Okeaniyaga o'tgan. Osiyoda yevropoid, mongoloid, avstraloid irqlari kelib chiqqan. Aholining ko'p qismi 55,4 foiz mongoloid irqining turli guruhlariga kiradi. G'arbiy Osiyo, Shimoliy Hindiston, Markaziy Osiyo xalqlari (o'zbeklar va tojiklar) yevropoid irqiga mansub. Bir qancha kam sonli xalqlar avstraloid irqi vakillaridir. G'arbiy Sibir pasttekisligi, Janubiy Ural, Oltoy, Shimoliy Hindistondagi bir qancha xalqlar (130 mln. ga yaqin) yevropoid-mongoloid aralash irqiga mansub. Osiyo aholisining etnik tarkibi nihoyatda xilma-xil. Bu yerda ko'plab til oilalari va guruhlariga mansub bir necha yuz xalq yashaydi.

Osiyoda eng qadimiy ibtidoiy odam ajdodlaridan Yavadagi pitekantrop, Xitoydag'i sinantrop odamlari dir. Laos va Vietnam gominidlari g'arbiy hududlardan bir mln. yillar muqaddam ko'chib kelgan. 200 – 400 ming yillar avval yashagan paleoantrop (neandertal) vakillarining suyaklari Osiyoning ko'p joylarida (masalan, Falastin va Iroqda) topilgan. So'nggi paleolit va mezolit davriga mansub hozirgi irqlar shakllangan. Janubi-Sharqiy qismida avstraloidlar, Sharqiy Osiyoda Tinch okean mongoloidlari paydo bo'lgan. Asli neolit davridayoq hozirgi tipdagi odamlar keng hududlarda joylashgan G'arbiy va Janubiy Osiyodan Markaziy, Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyoga ko'chgan va neandertaloid avlodlari bilan aralashib, hozirgi sharqiy etnoslar paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. O'sha davrdan boshlab hozirgi etnoslarning ajdodlari shakllana boshlagan.

Yevropoid irqining Old Osiyo va hind-pomir guruhlari qatoriga butun Janubi-G'arbiy va Janubiy Osiyo, Arabiston, Arabiston yarim oroli va hozirgi Turkiyadan tortib to Afg'oniston, Pokiston, Shimoliy Hindiston va Bangladesh xalqlarigacha kiradi. Maxsus armanoid guruhiga o'zining katta burni va badanning serjunligi bilan ajralib turadigan Osiyo arablari, yahudiylar, armanlar, kurdlar va greklar kiradi. Yamanda armanoidlar bilan Afrikadan kelgan negroidlar aralashib, o'ziga xos guruhnini tashkil qiladi. Hind-pomir guruhiga eronlik (fors)lar, tojiklar, turkmanlar, ozarbayjonlar, pushtunlar va Afg'oniston, Pokiston, Shimoliy Hindiston xalqlari kiradi. Yevropoid va avstraloid oralig'ida paydo bo'lgan «Janubiy Hind» yoki «dekan» irqiy tipi Janubiy Hindiston, Shri-Lankada uchraydi. Janubiy yevropoid va mongoloidlarning duragaylashishi natijasida uyg'urlar va boshqa turkiy elatlar, xitoy musulmonlari xuey (dungan)lar o'ziga xos irqiy tipni hosil qilgan. Osiyo xalqlarining ayrim

yevropoid belgilari Birma va Indoneziya xalqining ba'zi elatlarida uchraydi. Qisman avstraloid irqining maxsus guruhini Shri-Lanka veddalari, Hindixitoy, Indoneziya va Janubiy Xitoyning ayrim mayda elatlari, pakana bo'yli negritoslar (Janubi-Sharqiy Osiyodagi andamaliklar, malakkadagi semanglar va Filippindagi aetolar) tashkil qiladi. Yaponiyaning qadimiy aholisi hisoblangan aynlar ham o'ziga xos tip hisoblanadi. Butun Sharqiy va Markaziy Osiyodagi mongoloidlar janubiy, sharqiy va Tinch okean guruhlardan iborat.

Hozirgi Osiyoning etnolingvistik qiyofasi, asosan, miloddan avvalgi II mingyillikklardan boshlab shakllana boshlagan. O'sha davrda Kichik Osiyoning g'arbida ellin tillari, sharqida kartvel va arman tillari, O'rta dengiz sharqida esa aramey tillari hukmronlik qilgan. Shimoliy Hindistonga Markaziy Osiyodan kelgan hind-oriy xalqlari Ganga tekisliklarida yashagan aholi bilan qisman aralashib, ularni butunlay siqib chiqarib (ayniqsa, dravid va munda tillarida so'zlashuvchi xalqlarni) qadimiy Harappi madaniyatini negizida yangi etnolingvistik guruhlarga asos solganlar. Eroniy tildagi xalqlar ham markaziy osiyolik etnoslar bilan mahalliy hind-dariy xalqi bilan aralashib, butun Eron va Afg'onistonda, g'arbda Mesopata-miyagacha, sharqda Shimoliy Hindistongacha tarqalgan. Yangi etnoslarni paydo qilgan Xuanxe vohasida dastlabki davlat yaratgan in va chjou qabilalari janub tomon tarqalib mahalliy tan va indoneziya qabilalari bilan aralashib qadimiy xitoy xalqining shakllanishi-ga sabab bo'lgan. Mazkur etnik guruhlari milodning boshlanishi arafasida Hindixitoy yarim oroliga borib vet qabilalari negizida eng qadimgi Vietnam davlat birikmasi (Aulak)ni yaratgan. Hozirgi Manchjuriyadan oltoy til oilasiga old, janubdan indoneziya tillariga old xalqlarning Koreya va Yaponiyaga kelib

mahalliy tub aholi (Koreyada paleosiyoliklar, Yaponiyada, asosan, aynlar) bilan aralashib ketishi natijasida o‘ziga xos yangi etnoslarga asos solingan.

Osiyo etnolingvistik jihatdan qancha rang-barang bo‘lmasin, aholisining uchdan ikki qismi dunyoda eng ko‘p sonli bir tilda so‘zlashadigan etnoslarni tashkil qiladi (xitoy, hind, yapon, bengal, arab va forslar).

Osiyo mamlakatlari aholisining milliy tuzilishi va etnik xarakteriga qarab to‘rt guruhga bo‘lish mumkin. Birinchi guruhga milliy jihatdan bir xil bo‘lib, tub xalqi umumiy aholining 95 foizini tashkil qiladigan Yaponiya, Koreya, Bangladesh va ko‘pchilik Arab mamlakatlari kiradi. Ikkinci guruhga tub xalq butun aholiga nisbatan 70 foizni tashkil qiladigan Vietnam, Birma, Kambodja, Turkiya, Suriya, Iroq, Xitoy, Shri-Lanka, Singapur singari davlatlar kiradi. Uchinchi guruhga aholisining yarmidan ko‘pi tub xalq, qolgani boshqa turli etnoslardan iborat mamlakatlar kiradi (Eron, Afg‘oniston, Pokiston, Malayya, Laos). To‘rtinchi guruhga esa ko‘p millatli mamlakatlar kiradi. Masalan, bunday mamlakatlarda – Hindiston va Indoneziyada 150 dan ortiq, Filippinda 100 ga yaqin turli xalq va elatlar yashaydi. Ba’zi davlatlarning etnik tuzilishi shunchalik murakkabki, ayrim xalqlar bir necha mamlakatlarga bo‘linib ketgan. Masalan, kurdlar Turkiya, Eron, Iroq va Suriyada, beluiyilar Afg‘oniston, Eron va Pokistonda, panjobliklar Pokiston va Hindistonda yashaydilar. Butun Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari bo‘ylab yirik guruh bo‘lgan xitoy emigrantlari joylashgan.

Osiyo mintaqasida xitoy-tibet til oilasiga oid xalqlar butun aholining 40,2 foizini, hind-yevropaliklar 28,4 foizini, avstroneziya til oilasi 7,9 foizini, dravidlar 6,6 foizini, yaponlar 4,6 foizini, avstroosiyo oilasi 3 foizini, oltoy oilasi 2,6 foizini (shu jumladan, turkiy tilda gaplashuvchilar 2,2 foizini), tay oilasi 2,4

foizini, koreyslar 2,3 foizini, semit-xamitlar 1,9 foizni tashkil qiladi. Oltoy til oilasiga oid turkiy, mo'g'ul va tungus-manchjur tillarida so'zlashadigan etnoslar g'arbda Bosfor bo'g'ozi va Marmar dengizidan tortib, sharqda Tinch okeanigacha cho'zilgan hududlarda joylashgan.

Osiyoning xo'jalik-madaniy tiplari ham juda qadim – tosh asridayoq paydo bo'lib, tabiiy sharoitga moslashgan. Tog'li va tog' etaklaridagi nisbatan qurg'oq issiq hududlardagi aholi yuqori paleolit davrlidan yirik hayvonlarga ov qilishdan mayda joni-vorlarni ovlashga va yemishli o'simlik va mevalarni, ildizmevali ekinlarni terib-termachlashga o'tadi. Bu madaniyatga xos ishlab chiqarish qurollari uzunchoq chaqmoq toshlardan sindirib olingen turli shakldagi yassi tosh parchalaridan iborat bo'lgan. Janubi-Sharqiy Osiyoning namli tropik va subtropik hududlarida (Hindixitoy, Janubiy Xitoy, Malayziya) tosh qurollariiga qaraganda bambukdan yasalgan qurollar muhim rol o'ynagan. Tabiatni issiq va namli changalzor (jungli)da yirik tosh qurollar ishlatilgan. Shimoliy qurg'oq dasht hududlarda va qisman dengiz sohillarida (g'arbda Eronning sharqida, Xuanxe vohasigacha) dasht hayvonlarini ov qilish, terib-termachilik va baliqchilik kabi xo'jalik tiplari shakllana boshlagan, aholisi o'troq va yarim o'troq terimchi ham baliqchilarga, ikkinchidan daydi ovchilarga bo'lingan. Sibirda bug'uchilik va ovchilik asosiy xo'jalik tiplari bo'lgan.

Taxminan 10 ming yillar muqaddam Janubi-G'arbiy Osiyo tog' etaklarida qadimiylar dehqonchilik paydo bo'la boshlagan, mahalliy aholi yovvoyi o'simliklarni terib-termachlashdan parvarish qilishga, yovvoyi hayvonlarni ov qilishdan ularni xonakilashtirishga o'ta boshlagan. O'sha davrlardayoq butun Janubi-sharqiy Osiyoda eng qadimgi chopqi dehqonchiligi paydo bo'la boshlagan. Keyinroq (mil. avv. VIII – V

mingyilliklarda) Eron, O'rta yer dengizi, Hindiston, Shimoli-Sharqiy Osiyo, Indoneziyada dehqonchilik o'choqlari paydo bo'ladi.

Miloddan avvalgi VII – VI mingyilliklarda Janubiy Osiyo, Hindixitoy, Xitoyda dehqonchilik va chорvachilik mustaqil xo'jalik sohasiga aylanib, sun'iy sug'orish, metallurgiya va savdo rivojlanan boshlagan, sinfiy jamiyatlar paydo bo'la boshlagan. Keyingi davrda (ayniqsa, IV – II mingyilliklarda) bu yerda quldorlik tuzumiga asoslangan ilk davlatlar tuziladi, yozuv, ilm-fan, badiiy hunarmandchilik, monumental qurilish, haykaltaroshlik kabi sohalar rivoj topadi. Osiyo qit'asi ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi, ayniqsa, sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik xo'jaligining takomillashuvi, har tomonlama ravnaq topa boshlagan shahar-davlatlarning paydo bo'lishi tufayli jahoning qadimiy madaniyat o'choqlaridan biriga aylanadi.

Mazkur madaniyat markazlari qadimgi davrda paydo bo'lib hozirgacha saqlanib kelgan. Iroqdagi dabdabali Bobil xarobalari, Hindistondagi Adjanta va Ellora ibodatxonalari, Maxendjodaro va Xarappi madaniyati, Suriyadagi kishini haya jonga soladigan Palmira vayronalari, Kambodja changalzor(jungli)lari idagi afsonaviy Angkor-Vata ibodatxonalari, Nepal-dagi gumbazli Svayambunaxt va Bodiaxt muqaddas budda inshootlari va boshqa noyob obidalar bunga yorqin dalil bo'la oladi.

Mintaqada eng taraqqiy qilgan industrial davlatlar Xitoy, Koreya respublikasi va Yaponiyadir. 1990-yillar boshlarida "Osiyoning to'rt ajdari" nomini olgan Gonkong, Janubiy Koreya, Singapur va Tayvan kabi mamlakatlarning iqtisodiy gullab-yashnashi barqaror tus oldi. Chunonchi, Janubiy Koreya po'lat quyish va kemasozlik sohalarida bugungi kunda yetakchi o'rinda turibdi. Elektronika sohasi bo'yicha ham mazkur

mamlakat jahon bozorida yetakchi o'rinni egallab turibdi. Industrial bazaning yaratilishi rivojlanayotgan erkin mamlakatlarda iqtisodiy va siyosiy mustaqililikni mustahkamlaydi hamda ijtimoiy va madaniy taraqqiyotga ega bo'lgan yo'lni ochib beradi. Bunga Turkiya, Quvayt, Arab mamlakatlari, Indoneziya, Singapur, Hindiston va O'zbekiston misol bo'la oladi.

Osiyo aholisining hozirgi diniy qiyofasi qadimiy davrlarda, ayniqsa, o'rta asrlarda shakllangan. Hozirgi davrgacha yetib kelgan dinlarning ko'pchiligi (iudaizm yoki yahudiylik, zardushtiylik, induizm, jaynizm, buddizm, daosizm, konfutsiylik, nasroniylik, sintoizm, islom, sikxizm) Osiyoda paydo bo'lgan va keyinchalik butun jahonga tarqalgan. Masalan, miloddan avval shakllangan yahudiylik, yangi erani rasmiylashtirgan nasroniy dini, yoki o'rta asr boshlarida kirib kelgan islom dini ham paydo bo'lgan vatanidan tashqari juda ko'p mamlakatlarga, bir qancha qit'alarga yoyilib ketgan.

Dastlab milodning boshlarida Kichik Osiyo, Mesopotamiya va Janubiy Arabistonda turli politeistik dinlar hukmron bo'lgan. Arabiston yarim orolining shimoli va markaziy qismlarida hatto urug'-qabilaviy shaklidagi dinlar ham saqlanib kelgan. Falastinda hukmronligini o'rnatgan yahudiylik (iudaizm) endigina monoteistik tusga kira boshladi. Eron, Afg'oniston, Markaziy Osiyo hamda Kavkazorti sharqida zardushtiylik dini tarqalgan. Hindistonda, ayniqsa, uning shimolida, braxmanizm dinini buddizm siqib chiqargan va Shri-Lanka (Seylon)da qaror topgan. Janubi-Sharqiy Osiyo va Malayya orollarida, asosan, turli mahalliy politeistik xarakterdagi dinlar, qisman oddiy urug'-qabilaviy ibodatlar tarqalgan. O'sha davrlarda Xitoyda ham har xil sinfiy jamiyatga xos mahalliy diniy e'tiqod, ayniqsa, ajdodlarga sig'inish muhim rol o'ynagan.

Milodning II ming yilligi oxirlariga kelib Old Osiyo deyarli musulmonlashgan. Nasroniy dini juda tor doirada (Kichik Osiyo, Armaniston, Kipr, qisman Suriya, Livan va Falastinda) saqlangan. Islom bu davrda asta-sekin zardushtiylikni ham yengib Eron, Sharqiy Kavkazorti, hozirgi Afg'oniston, Markaziy Osiyo va Hindistonning g'arbiy qismidagi mintaqalarga tarqaladi. Asli Hindistonning ko'pchilik hududida qadimiy yirik dinlardan braxmanizm islohotlashgan holda yangi nom (induizm) bilan tiklanadi. Shri-Lanka va Hindixitoyda buddizm o'z hukmronligini saqlab, Malayya arxipelagida buddizm bilan induizm keng yoyiladi. Xitoyda «uch din» tizimi (sanszyabuddizm, konfutsiylik, daosizm), Koreyada mahalliy diniy e'tiqodlar bilan birga buddizm, nasroniylik va xitoy dinlari, Yaponiyada milliy din hisoblangan sintoizm bilan buddizm ildiz otgan. Buddizm Markaziy Osiyodan, hozirgi Sinszyan va Tibetga o'tgan va aynan shu yerlarda mustahkam asos topgan.

So'nggi ming yillikda Osiyoning diniy qiyofasida bir qadar o'zgarishlar ro'y bergan. Masalan, Old va Markaziy Osiyo yana ham ko'proq musulmonlashgan, nasroniylik faqat Kipr aholisining ko'pchiligidagi saqlangan bo'lib, boshqa joylarda juda kamayib, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari (Malayziya va Indoneziyagacha) va hatto Shimoliy Osiyo – Sibirgacha yetib boradi, Sinszyandan esa buddizmni siqib chiqaradi. O'z navbatida buddizm ham sharqqa tarqalib Hindixitoy va Tibetda o'z hukmronligini mustahkelaydi. Hindistonda, asosan, induizm va islom, Yaponiyada sintoizm va buddizm o'z mavqeini saqlab qolgan.

Osiyo dinlari o'rta asrlarga kelib, asosan, shaklanib bo'lgan. Hozirgi davrda islomning shia mazhabi Eron, Iroqning janubiy qismida, zeydizm nomi bilan Yaman Arab respublikasida hukmron din hisoblan-

di. Sunniy mazhab butun Janubi-G'arbiy va Markaziy Osiyo mamlakatlarida (Isroil, Livan va Kiprdan tash-qari) ko'pchilik aholining diniy e'tiqodi hisoblanadi.

Afg'oniston, Pokiston, Bangladesh, Malayziya va Indoneziya aholisining ham ko'pchiligi musulmonlardir. Hindistonda (ayniqsa, Kashmir shtatida) va Xitoyda (Sinsiyan-Uyg'ur muxtor viloyatida uyg'ular, Nineya-Xuey muxtor hududida dunganlar) musulmonlar ko'p. Maldiv orollarida, Shri-Lanka (mavrlar) va Birmada (arakanlar), Kambodja va Vietnamda (chama), Filippinda (moro) va Janubiy Tailandda ham qisman musulmonlar yashaydi.

Induizm, asosan, Hindiston, Nepal, Bangladesh va Shri-Lanka (taillar)da tarqalgan. Induizmning mazhabi sifatida ajralib chiqqan joynizm va sikxizm hindlarning milliy dinlariga aylangan. Hindistonda paydo bo'lgan buddizm vatanni tark etib (xinayana mazhabi) hozir Birma, Tailand, Kambodja, Laos va Shri-Lankada, lamaizm shaklida Nepal, Butan, Mo'g'uliston va Tibetda hukmron din bo'lib tanildi. Buddizmning mahayana mazhabi Xitoy, Koreya, Yaponiya va Vietnamga tarqalgan.

Nasroniy dini Filippinlar orasida hukmron bo'lib, Livan, Janubiy Hindiston (Kerala shtati) va Indoneziyaning ba'zi joylariga qisman tarqalgan. Qadimiy dillardan zardushtiylik, mazdaizm, mitroizm qoldiqlari ayrim etnik guruhlarda, Turkiya, Eron, Iraq, Bombey va Gujaratda saqlangan. Dinning ta'siri qanchalik kuchli bo'lmasin Osiyo qit'asining ko'p mamlakatlarida qisman sekulyarizatsiya jarayoni ham ro'y bermoqda.

## 27-§. G‘arbiy Osiyo xalqlari

G‘arbiy yoki Old Osiyo xalqlari katta tarixiy-etnografik hududni tashkil qiladi. Unda joylashgan 30 ga yaqin katta-kichik mamlakatlar juda keng hududni, ya’ni butun qit’aning taxminan 25 foizidan ortiq yerni egallaydi. Aholisi 240 mln. kishidan iborat yoki butun Osiyo aholisining 10 foizini tashkil qiladi. Ayrim mamlakatlarda aholi ro‘yxati mutlaqo o’tkazilmaganligi tufayli kishi soni ham taxminiy olinadi. Ma’lumotlarga ko‘ra, Turkiyada 77 mln. (2013-yil), Eronda 75 mln. (2013-yil), Afg‘onistonda 33 mln. ga yaqin (2011-yil), Iroqda 33 mln. (2012-yil), Saudiya Arabistonida 28 mln. (2010-yil), Yaman Arab Respublikasida 25 mln. (2012-yil), Birlashgan Arab Amirliklarida 8,6 mln. (2010-yil), Isroilda 7,6 mln. (2012-yil), Iordaniyada 6,4 mln. (2013-yil), Livanda 4,2 mln. (2007-yil), Quvaytda 2,8 mln. (2010-yil), Ummonda 2,9 mln. (2010-yil) kishi, Kiprda 1,1. mln. (2010-yil), Bahraynda 1,3 mln. (2010-yil) va Qatarda 1,9 mln. (2010-yil) aholi yashaydi. Mintaqaning taxminan 80 foiz aholisi Turkiya, Eron, Afg‘oniston, Iroq va Saudiya Arabistonida joylashgan.

Antropologik jihatdan G‘arbiy Osiyo xalqlari, asosan, yevropoid irqiga oid. Ularga xos belgilar: sochi va ko‘zi qora, badani bug‘doy rangli, burni o‘rtacha, labi kichkina yoki biroz qalinroq. Ayrim old osiyolik yoki armanoid tipidagilar bosh suyagi va burnining kattaligi (burgutsimon burunli), yuzi va badanining sermo‘yligi bilan ajralib turadi. Aksincha, o‘rta den-giz tipi yoki hind-pomir tipi kam mo‘y, mayin yuzliligi va nozik labi, burnining kichikligi kabi belgilari bilan farq qiladi. Birinchi, ya’ni old osiyo tipiga, asosan, turklar, o‘troq arablar, kurdlar, armanlar va yahudiyalar, ikkinchisiga, ya’ni hind-pomir tipiga Afg‘oniston




*Nemrut. Turkiya*

xalqlarining ko‘pchiligi va qisman eron aholisi, uchinchi – o‘rta dengiz tipiga g‘arbiy turklar va ko‘chmanchi arablar kiradi. Ba’zi etnoslar (xazoriylar, turk va arablar) da qisman mongoloid, ayrim guruuhlar (Janubiy Arabiston arablari)da negroid, Afg‘oniston va Eron bragunlarida avstraloid belgilari sezildi.

Mazkur mintaqada joylashgan 12 ta arab mamlakatlarida yashovchi xalqlar, qo‘shni Isroil, Turkiya va Erondagi arablar semit tillarida so‘zlashadilar. Ammo adabiy va rasmiy davlat tilida so‘zlashadigan tiplar orasida farq bor, xalq ichida, asosan, uch sheva (Suriya, Iraq va Arabiston) mavjud bo‘lib fanda aniqlangan semit tipidagi G‘arbiy Osiyo aholisining 30 foizini tashkil qiladi. Eroniy tillarda forslar, push-tunlar, tojiklar, kurdlar, balujiylar, lurlar, baxtiyorlar, xazoriylar va boshqa ayrim etnik guruuhlar so‘zlashadi. Ular butun aholining 40 foizga yaqin qismini tashkil etadi. 20 foizdan ortiq aholi turkiy til oilasiga mansub (turklar, ozarbayjonlar, o‘zbeklar, turkmanlar, qashqarlar va ayrim mayda guruuhlar). Boshqa tillarda gapiradigan xalqlardan Kiprdagi greklar, ko‘p mamlakatlarda tarqoq holda joylashgan armanlar, gruzinlar, lazlar, hindlar va boshqa elatlar bir xil til oilasiga mansub vakillardir. Ammo G‘arbiy Osiyodagi hozirgi til turkumlarining bittasi ham mahalliy tub tillarga kirmaydi, semit-xamit, hind-yevropa va turk tillari kirib kelgunga qadar bu hududlarda uzoq o‘tmishda yo‘qolib ketgan qadimgi davlatlarning tillari tarqalgan edi. Shulardan tarixda ma’lumlari

shumer, elamit, kassit, lo'libey, kaspiy, kavkaz tillari-ga yaqin bo'lgan hatti, xurrit va urartu tillaridir.


Mazkur tillarning paydo bo'lishi, tarqalishi va joylashuvi bilan mahalliy xalqlarning etnogenezi va etnik tarixi bevosita bog'lanib ketgan. Yuqorida qayd qilganimizdek, G'arbiy Osiyo jahonning eng qadimiy madaniyat o'choqlaridan biri bo'lgan. Falastinda mil. avv. IX – VIII mingyilliklardoq dehqonchilik va chorvachilik rivojlanana boshlagan. Mesopatamiya va G'arbiy Eronda mil. avv. IV – V ming yillar muqaddam irrigatsiya dehqonchiligi paydo bo'lgan, Kichik Osiyo, Shimoliy Mesopatamiya va qo'shni vohalarda o'sha davrlarda metallurgiya bo'lganligi aniqlangan. Mil. avv. II – I ming yilliklarda yuqori madaniyatli mulkdorlik davlatlari – Arman yassi tog'ligi va Janubiy Kavkazortida, Urartu, Mesopatamiyada, qadimgi Bobil podsholigi, G'arbiy Eronda Elam, Kichik Osiyoda Xetta, Levantada Finikiya shahar-davlatlari, Janubi-G'arbiy Arabistonda Mani ham Saba va bosh-



*Qadimgi Persopl xarobalari*

qa davlatlar paydo bo'lgan. Ularda monumental binokorlik, badiiy hunarmandchilik, yozuv, fan va ababiyot rivojlangan. Finikiyaliklar yaratgan alifbo hozirgi yozuv tizimlarining negizidir. Bu yerda eng qadimiy monoteistik dirlar: nasroniy, iudaizm va islom shakllangan. O'rta asrlarda ham yuksak madaniyat yaratgan arab, xorazmiylar, saljuqiy va g'aznaviyilar kabi yirik davlatlar hukmronlik qilgan.

Hozirgi G'arbiy Osiyo xalqlarining ko'pchiligi ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan turli darajada tursa ham, tili va irqiy jihatdan farqlansa ham uzoq tarixiy davr ichida o'zaro yaqin munosabatda bo'lib, bir-birlariga o'tkazgan ta'siri natijasida madaniy-maishiy jihatdan umumiy xususiyatlarga ega bo'lib qolishgan. Etnik tuzilishi jihatidan Turkiya aholisi nisbatan ancha bir xil, uning 87 foiz, ya'ni 65 mln. dan ortig'i turklar 12 mln. kurdlar, qolgani mayda elatlar (yuryuklar, arablar, lazlar, gruzinlar, armanlar, adigeylar, turkmanlar, greklar va boshqalar)dir.



*Afg'oniston o'zbek  
musiqachilarini*

Mintaqada eng ko'p millatli mamlakatlar Eron va Afg'oniston hisoblanadi. Lekin Eron polietnik davlat bo'lsa-da, mamlakat aholisining etnik tarkibi borasida rasmiy ma'lumotlar berilmagan. Shunga qaramay, AQShda nashr qilinadigan «Dunyo faktlari

kitobi» ma'lumotnomasiga ko'ra, mamlakat aholisi forslar (61 foiz), ozorilar (16 foiz), kurdlar (10 foiz), lurlar (6 foiz), arablar (2 foiz), belujlar (2 foiz), turkman va turklar (2 foiz)dan tashkil topgan<sup>1</sup>. Afg'onis-

<sup>1</sup> <https://www.cia.gov/library/publications/the-world-factbook/fields>.



*Sulton Ahmad jo'me masjidi. Turkiya*

tonda esa 30 ga yaqin xalq istiqomat qiladi. Mamlakatning janubiy va shimoli-sharqiy qismida eroniylardan so'zlashadigan, shimoli-g'arbida turkiy tillarda so'zlashuvchi xalqlar yashaydi. Mamlakat aholisining taxminan 39,4 dan 42 foizgacha qismini push-tunlar, tojiklar 27 dan 38 foizgacha, xazarlar 8 dan 10 foizgacha tashkil qiladi. Mamlakatdagi aholisi nufuziga ko'ra to'rtinchchi o'rinda o'zbeklar turadi va ular umumiy aholining taxminan 9,2 foizni tashkil qiladi. Shuningdek, Afg'onistonda aymoqlar, turkmanlar, belejlar ham istiqomat qilishadi va ular umumiy aholi nufuzini  $4,3 - 0,1$  foiz,  $1 - 3$  foiz yoki  $0,5 - 2$  foiz tashkil qilsa boshqa etnik guruhlar esa 1 foizdan to 4 foizgacha tashkil etadi<sup>1</sup>.

**Memorchiligi va turarjoylari.** G'arbiy Osiyo xalqlari moddiy madaniyatining o'ziga xos xususiyati mahalliy tabiat va iqlim sharoiti bilan belgilanadi.

<sup>1</sup> <http://ru.wikipedia.org/wiki/Афганистан>.

Ammo barcha elatlarga xos umumiy belgilari ham mavjud. Old osiyoliklarning asosiy qismi qishloqlarda istiqomat qiladi. Ba'zi qishloqlar qal'a ko'rinishida bo'lib, devor bilan o'ralgan. Qishloq markazida bozor, masjid, oshxona yoki choyxona joylashgan. Uylari, asosan, loydan, paxsa yoki somon aralashtirilgan guvaladan, xom yoki ba'zan pishgan g'ishtdan yoki betondan qurilgan. Ayrim tog'li hududlarda qo'rg'on shaklida toshdan tiklangan uylar ham uchraydi. Tomlari tekis, qamish va tuproq bilan yopilgan va somon aralash loy bilan suvalgan. Qadimgi madaniyat markazi hisoblangan yirik shaharlarda g'isht va toshdan qurilgan dabdabali ko'shk-ayvonlar, hashamatli saroylar, ajoyib arxitektura inshootlari qad ko'targan.

Turkiya hududida miloddan avvalgi va milodning ilk davrlariga taalluqli me'moriy yodgorliklar ko'p. Yunoniston, Vizantiya, Arab mamlakatlari, O'rta Osiyo davlatlarining me'moriy tajribalarini ijodiy o'zlashtirgan saljuqiylar va usmoniylar imperiyalari me'morlari muhtasham, go'zal binolar – hashamatli saroy, masjid, madrasa, maqbara, gumbazli hammom, go'zal favvoralar buniyod etgan. XV – XVI asrlarda me'mor Xoja Sinon (1490 – 1588) yangi kompozitsiyalar yaratib, hayratga sazovor 400 dan ziyod bino barpo etdi. Istanbuldagi Sulaymoniya masjidi, Ahmadiya masjidi, Salim masjidi ular orasida eng mashhurlaridandir. Usmoniylar imperiyasining inqirozi davri me'morchiligi mahobatliligi bilan ajralib turadi. XX asrning 20-yillari oxiridan shahar qurilishini rejali tarzda olib borishga kirishilgan, ayrim shaharlar (Anqara va boshqa shaharlar)ning bosh rejasi tasdiqlangan. 30-yillardan zamonaviy binolar qurish uchun xorijdan me'morlar jalg qilindi. Keyinchalik xalqaro tajribani milliy an'analar bilan uyg'unlashtirishga erishgan milliy kadrlar yetishdi. Mahalliy qurilish mahsulotlari industriyasi rivojlandi.

Ammo bu yerda uy-joylarning namunaviy loyihalari ommalashmadi. Katta shaharlarda mahobatli osmon-o'par binolar qurishga, me'morchilikda turli-tuman uslub va yo'naliislarni joriy etishga kirishildi.

Eronda vodiylarda sinch qilib guvaladan qurilgan tekis tomli, bir xonali, oynasiz tuynukli fors xalq uylari keng tarqalgan. Paksadan yoki xomg'ishtdan gumbaz shaklida qurilgan bir necha xonali uylar ham ko'p uchraydi. Janubda dehqon uylari toshdan yoki qamishdan qurilgan bo'lsa, shimolda gilyonlar va mozandaronliklar uyining tomi cho'qqaygan, somon yoki cherepitsali yog'och uylar ham quradilar. Tog'li hududlardagi kurdlar toshdan yoki xomg'ishtdan, o'rtasida ustunga o'rnatilgan somon va tuproq bilan yopilgan tuynuk tomli, devor oralig'iga taxmon yoki tokchalar qurilgan uylarda yashaydilar. Uyning o'rta-sida o'choq bo'lib, u muqaddas hisoblangan. Afg'onlarda va Qandahor hududida, yog'och yetishmasligidan gumbaz tomli, xomg'ishtli uylar uchraydi.

Uy jihozlarini ijtimoiy sharoitga qarab har xil: o'zi-ga to'q oilalarda turli idish-tovoq, kigiz-gilamlar, zamonaviy uy-ro'zg'or buyumlari va mebellar, nochor-roq xonadonlarda esa supa yoki taqir yerga to'shal-gan chipta, bo'yra, ba'zan kigiz yoki palos, sopol yoki mis idishlar, tunuka va qumg'onlar, qovoqdan yasal-gan buyumlar va savatlar bo'ladi. Alhol, turklarning an'anaviy intererida mebel mutlaqo yo'q. Yotib turadi-gan va ovqatlanadigan joyiga chipta (kosir) yoki palos to'shaladi, ko'rpa-yostiq taxmonda, kiyim-kechak sandiqda saqlanadi. Idish-tovoqlar o'choq yaqini-dagi tokchaga terib qo'yiladi. Ovqat qozon osilgan temir sepoyada yoki o'choqda pishiriladi. Eronda va Afg'onistonnda dehqonlar to'shak chiptada palos yoki jun ko'rpa yopinadilar, o'rtada o'choq (kursi), sovuqda sandal qo'yilib katta ko'rpa bilan yopiladi. Afg'onlarning uy-ro'zg'or buyumlari, idish-tovoqlari devorda qu-

rilgan taxmon va tokchalarda yoki ba'zan osma xur-junlarda saqlanadi. Ayrim o'troq aholi yashaydigan joylarda arqon to'rli yog'och karavot, ba'zan kursi va stollarni ham uchratish mumkin. Uyni kechasi yor-itish uchun qorachiroq yoki moychiroq ishlataladi. G'arbiy Osiyo aholisining 60 foizi qishloqlarda joy-lashgan bo'lsa-da, urbanizatsiya darajasi qit'aning boshqa qismiga nisbatan ancha baland. Ko'pchilik mamlakatlarning shahar aholisi 30 foiz, ayrim mam-lakatlarda esa undan ham yuqori foizni tashkil qiladi. Masalan, Isroilning 80 foiz, Turkiya, Quvayt, Qatar va Bahrayn aholisining 70 foizi shaharlarda yashay-di. Turkiya shahar aholisi jadal tarzda ko'payib borayotgan mamlakatlardan biri bo'lishi bilan birga shahar aholisi, asosan, yirik shaharlarda yashashadi. Misol uchun, Turkiyaning asosiy shaharlari bo'lgan Istanbulda 1990-yil 12,7 mln. aholi yashagan bo'lsa 2010-yilda 17,8 mln. aholi, mamlakat poytaxti bo'lgan Anqarada 1990-yilda 5,7 mln. aholi yashagan bo'lsa, 2010-yilga kelib aholi nufusi 6,4 mln. ga ko'paygan. Shu bilan birga mamlakat sharqida, ayniqsa, shimo-li-sharqda aholi soni birmuncha kamayib borayot-ganligini kuzatish mumkin. Misol uchun, Sharqiy Anatoliyada 1990-yil 235 ming kishi yashagan bo'lsa, 2009-yilga kelib 220 ming kishi istiqomat qilgan<sup>1</sup>.

Afg'oniston va Yaman respublikasida shaharda yashaydigan aholi 10 foiz dan kamroqni tashkil qila-di. Bu holat mahalliy aholining moddiy hayotida, ayniqsa, uy qurish va jihozlanishi, kiyimi va ovqatiga o'z ta'sirini o'tkazgan. Shaharlarda, masalan, aholi zamonaviy dabdabali ko'shk va saroylar bilan birga ko'p qavatli, sanuzel va kommunikatsiya o'rnatilgan shinam kvartirali uylarda ham istiqomat qiladi.

**Milliy kiyimlari.** Mintaqada yashovchi xalqlar-ning kiyimlarida juda ko'p umumiylilik mayjud.

---

<sup>1</sup>[http://lwowich.ucoz.ru/statja\\_pro\\_turciya.pdf](http://lwowich.ucoz.ru/statja_pro_turciya.pdf).

Erkaklari ko'ylak va keng ishton, ustidan engsiz nimcha yoki chakmon kamzul, chopon, qishda po'stin, boshlariga do'ppi, teri telpak yoki salla, arablar kufiya kiyadilar. Oyoq kiyimlari etik, maxsi-kavush yoki sandaldan iborat bo'lib, ba'zan ko'proq oyoq yalang ham yuraverishadi. Ayollari keng ko'ylak va shalvar shaklidagi to'piqqacha lozim, boshlariga ro'mol yoki shol o'rashadi, ayrimlari esa (Eron va Afg'onistonda) tashqariga chiqqanda yuzlariga paranji yoki chodir yopinib yurishadi. Ular kiyimlari, ko'ylaklariga turli taqinchoqlar, qo'l va quloqlariga bilaguzuk, sirg'alar osishadi. G'arbiy Osiyo mamlakatlarida an'anaviy-milliy kiyimlar shahar aholisida juda kam saqlangan, asosan, zamonaviy Yevropa kiyimlari kiyiladi. An'anaviy kiyimlarni qishloq va tog'li joylarda ko'proq kuzatish mumkin.

**Taomlari.** G'arbiy Osiyo xalqlarining taomlari ham ularning tabiiy-geografik sharoiti, tarixiy xususiyati va xo'jalik faoliyatiga qarab farqlanadi. Tarixiy-ijtimoiy jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan Eron, Turkiya va Afg'oniston o'troq aholisining etnik va diniy munosabatlarida ham anchagina umumiyliklar mavjud. Bu holat ularning taomlarida ham o'z ifodasini topgan. Ammo o'troq aholi bilan ko'chmanchi yoki yarim ko'chmanchi aholining taomlari bir-biridan farq qiladi. Barcha etnoslarning taomlari nihoyatda rang-barang bo'lsa-da, dehqonlarning har kungi ovqati, asosan, non, sabzavot va sut mahsulotlaridan iborat. Non mahsuloti, masalan, turk dehqonlarida umumiy taomning to'rtadan uch qismini tashkil qiladi. Eron va Afg'oniston dehqon aholisining ham asosiy oziq-ovqati nondir. Afg'onistonning ayrim tog'li joylarida nonni bug'doy, arpa, ba'zan makka yoki suli unidan, quritilgan tut tolqonidan pishiradilar.

Non yopilishi (o'troq aholi, asosan, tandirda, ko'chmanchi elatlar o'tga qo'yilgan tunuka (sajda) shakliga



*Turk taomlari*

qarab farq qiladi. Eng keng tarqalgan xamir taomlar uchun turli yarim tayyor mahsulotlar tayyorlanadi, ayniqsa, an'anaviy ugra (reshta) kesilib, oftobda quritilib, maxsus xaltalarda yoki ko'zada saqlangan. Don yormasi yoki undan har xil bo'tqa (masalan, turklarda bulg'ur, do'lma) yoki kurdлarda bug'doy bo'tqasi (savor, xarisa, samani) keng tarqalgan. Bo'tqani yog', go'sht, piyoz va sarimsoq bilan pishiradilar. Umuman yorma an'anaviy taomlarning asosini tashkil qiladi. Muqaddas don hisoblangan guruchdan ikki xil palov pishiriladi: qaynatilgan suvga tuz bilan guruch solib, pishgandan keyin eritilgan sariyog' solib damlanadi yoki sovuq suvga guruch, tuz va yog' qo'shib birga qaynatiladi. Guruch pishib chiqqandan keyin pishirilgan go'sht yoki tovuq, maxsus tayyorlangan sarimsoqli go'sht, ziravor va piyoz qayla qo'shiladi. Sut mahsulot-

lari ham ko‘p iste’mol qilinadi. An’anaviy go‘shtli tao-mlardan eng qadimiylari qo’llama, tandirkabob yoki qo‘yikabob (qo‘yni so‘yib terisi bilan qo‘rda pishirish), chevirma kabob, shish kabob, qiyma kabob, burlbel (qo‘y go‘shtini suv va qatiq bilan qaynatish), har turli qovurmalar. Suyuq ovqatlardan bir necha xildagi sho‘rva (turkcha cho‘rbo, forscha obgo‘sh) keng tarqal-gan bo‘lib, unga, asosan, non to‘g‘rab iste’mol qilinadi. Turli sabzavotlar (pomidor, bodring, rediska, piyozi, sarimsoq, qalampir va hokazo) xom va pishgan holda, yangi va quruq mevalar (olma, o‘rik, nok, uzum, anjir, shaftoli, xurmo va hokazo) ko‘p iste’mol qilinadi. Choy va kofe asosiy ichimlik hisoblanadi. Bayramlarda dasturxonga turli shirinliklar (holva, shakarli bodom, yong‘oq yoki xurmoli pecheniy, har xil mevali murab-bolar) qo‘yiladi. Mehmon kutganda dasturxonda non serob bo‘lishi shart, aks holda non kam bo‘lsa, meh-monga hurmatsizlik hisoblanadi. Sohillarda, ko‘l va daryo bo‘ylarida yashaydigan aholi turli baliqlardan har xil taomlar pishiradi, dengiz toshbaqasi va uning tuxumini ham iste’mol qiladilar. Afg‘onlar marinka balig‘ini qo‘y yog‘ida sixda kabob qilib pishirib yey-dilar, ba’zan qiltiriqlaridan ajratib qo‘y go‘shti, piyozi, tuxum, har xil yemishli ildizlar bilan aralashdirib taom tayyorlaydilar.

O‘troq arablarning an’anaviy taomlari, ko‘chman-chi aholinikiga yaqin bo‘lsa-da, nisbatan biroz farq qiladi. Dehqon (falloh)ning har kungi taomi o‘simplik va sut mahsulotlari: non, bedil va qatiq. Non har bir oilada haftada ikki marta yopiladi. Ko‘pchilik dehqon hovlisida balandligi 60 sm li gumbaz shaklida quril-gan tandirda taxminan diametri 30 – 35 sm keladi-gan qalin non yopiladi. Nonni bug‘doy, arpa, ba’zan makka yoki oq jo‘xori (durra) unidan tayyorlanadi. Yamanliklar hatto bug‘doy, durra, arpa va yosmiq uni aralashmasidan ziravor qo‘shib qora non (kidam-adi)



*Arab taomlari*

yopadilar. Ular nonni muqaddas hisoblab isrof qilishni katta gunoh, deb biladilar. Suriyalik, livanlik, iordanlik yoki Saudiya Arabistonи aholisi bo'tqani bug'doy yormasidan, yamanliklar durra yormasidan qaynatib, tomda quritib burgul tayyorlab olishadi. Odatda, burgul bo'tqasi qayla, eritilgan mol yoki o'simlik yog'i va qatiq bilan iste'mol qilinadi.

Arab dehqonlari badaviylardan ham kamroq go'sht iste'mol qiladilar. Go'shtli taomlar, asosan, bayramlarda, tantanali kunlarda pishiriladi. Bunday vaqtida arablarning sevimli taomlaridan kubba (go'sht yoki baliq bilan ziravorli pishirilgan varaqi), ustiga go'sht solingan burgul bo'tqasi, har xil kaboblar, palov (qaynatilgan guruch ustiga maxsus tayyorlangan mayiz, qovurilgan qo'y go'shti bilan dasturxonga tortiladi), barag-do'lma, sabzavotdan qiyma solingan do'lma, go'sht, pomidor va baqlajon bilan bamiya va ziravor solib tayyorlanadigan marag, maxallibi, maxshi (qiy-

ma, guruch, har xil o't va ziravor bilan pishiriladigan mayda qovoq) va boshqa taomlar dasturxonni bezaydi. Yozda va kuzda arablar har xil sabzavot (qovoq, loviya, pomidor, baqlajon, bodring, piyoz, sarimsoq, qalampir, ismaloq, karam kabilar), turli meva (xurmo, uzum, o'rik, olxo'ri, anor, olma, anjir, bodom), qovun, tarvuz iste'mol qiladilar. Barcha oilalarda xurmo eng asosiy va kundalik taom hisoblanadi. Undan yuzga yaqin taom tayyorlash mumkin. Kundalik ovqatga qo'shiladigan zaytun ham turli xilda tayyorlanadi. Zaytun yog'i arablarning fikricha, juda foydali hisoblanadi. Shuning uchun uni ovqat bilan yoki non botirib iste'mol qiladilar, ba'zan ichiladi ham. Suriya, Iroq, Yaman va Saudiya Arabistonida kunjit va paxta yog'i ham iste'mol qilinadi. Arablarda kofe, choy, xunaynu keng tarqalgan ichimliklardir. Arab mehmondo'stligini ifodalaydigan asosiy ichimlik kofe (qahva). Kofening eng oliv sorti o'stiriladigan Yamanda kofe tayyorlash ham katta san'at hisoblanadi. Uzum sharbatini iste'mol qilish qadimiy davrlardan qolgan bo'lib, hatto uni madh etish adabiyotning maxsus janri sifatida qabul qilingan.

So'nggi 80 yil ichida Turkiya ma'naviy va madaniy hayotida katta o'zgarishlar yuz berdi. XX asrning 20-yillaridayoq Mustafo Kamol Otaturk islohotlari natijasida ko'p xotinlilik man qilingan, ayollar erkaklar bilan birga saylash va saylanish huquqiga ega bo'lgan, fuqarolik nikohi qabul qilingan. Shaharlarda ayollar ishlab chiqarishga jalg etilgan, ularning davlat ishlarida, ijtimoiy, ilmiy va madaniyat sohalarida salmog'i ortgan. O'g'il tug'ilishi oilada katta bayram (o'g'il holvasi), unda qarindosh va qo'shnilarini chaqirib holva va sharbat tayyorlab mehmon qiladilar.

G'arbiy Osiyo xalqlarining ijtimoiy turmushida ja-moatchilik an'analari bir qadar mustahkam saqlangan. Ularning butun ijtimoiy hayoti jamoa to'planadi-

gan maxsus maydonlarda yoki hovlilarda, ko'chalar-da va bozorlarda o'tadi. Eron va Turkiyada hammom, Arab mamlakatlarida qahvaxona o'ziga xos ijtimoiy klub vazifasini bajaradi. Bu yerda erkaklar to'planib bo'sh vaqtlarini qahva, choy ichib suhbatda o'tkaza-dilar.

Ma'naviy madaniyatida barcha elatlari o'rta asrlar davomida shakllanib kelgan arablar va mahaliy xalqlarning o'zaro ta'siri ostida umumiyligi madaniy an'analarini hozirgacha saqlab kelmoqda. G'arbiy osiyoliklarning ko'pchiligi (turklar va kurdlardan tashqari) arab alifbosini qabul qilgan, tillarida arab so'zlarining ta'siri juda kuchli, o'quv tizimi, adabiyot, tasviriy san'at islom g'oyalari va aqidalari talabiga moslashgan. Ammo har bir etnos o'ziga xos juda boy madaniy an'anaga ega, qadimiy ajoyib adabiyot va san'atning turli janrlari, arxitektura va badiiy hunar-mandchilikning go'zal, noyob namunalarining ijodkoridir. Jahonga tarqalgan «Ming bir kecha» ertaklari, Xo'ja Nasriddin latifalari, Go'ro'g'li nomi bilan bog'liq tarixiy dostonlar, mashhur «O'g'uznomasi» (XI – XII asrlar) va nasihatgo'y donishmand Ko'rkud rivoyatlari, xalq baxshi (o'zan)larining ajoyib san'ati sho'x laparlar (turkcha mani), satirik (toshlama) va lirik (turku) ashulalar, eronliklarning misli yo'q mumtoz she'riyati (Firdavsiy, Umar Xayyom, Hofiz, Sa'diy kabi buyuk siymolarning asarlari), afg'onlarning harbiy raqslari (atan) va eronliklarning boy repertuarli xalq teatri, qadimiy an'anaga ega sharq musiqasi va tomoshalari umuminsoniyat madaniy xazinasining durdonalariga aylangan. Xalq ijodida rang-barang jozibador kuy va o'yinlar alohida o'rinni egal-laydi. Buyuk san'at namunalariga aylangan qadimiy an'analarini o'zida mujassamlashtirgan o'rta asrlarda yaratilgan osmono'par dabdabali ko'shk va saroylar, go'zal masjid va maqbaralar, bog'u chamanlar hozir-

gacha kishini hayratda qoldiradi. Buyuk hunarmandlar yaratgan turli naqshlar, zargar va misgarlarning betakror bezaklari ajoyib san'at namunalaridir.

## 28-§. Markaziy Osiyo xalqlari

Markaziy Osiyo – Yevroсиyo materigining O'rta qis-midan, g'arbda Kaspiy dengizi qirg'oqlaridan, sharqda Xitoygacha, shimolda G'arbiy Sibir tekisligidan, janubda Nishopur, Safedko'h va Hindikush tog'la-ri gacha cho'zilgan yirik tabiiy-geografik o'lkadir. U materik ichkarisida, Atlantika okeanidan 4 ming km, Shimoliy Muz okeanidan 2,5 ming km, Tinch okeani-dan 5,5 ming km va Hind okeanidan ming km ga ya-qin masofada joylashgan.

Arxeologik va antropologik ilmiy tadqiqotlar Markaziy Osiyo mintaqasi bir necha ming yillar davomida murakkab etnik jarayonlar, katta va kichik guruhlarning aralashuv makoni bo'lib kelganligini ko'rsatadi. Antropolog tadqiqotchilar fikricha hozirgi kunda Markaziy Osiyoning tub aholisi, asosan, ikki katta irqqa: mongoloid va yevropoid irqiga mansubdir. Mongoloid irqiga qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, yev-ropoid irqiga bo'lsa o'zbek, tojik, turkman va boshqa xalqlar kiradi. Lekin ayrim etnik guruhlarda aralash tiplar ham uchraydi. Markaziy Osiyo xalqlarining antropologik qiyofasi miloddan avvalgi 1 mingyillikda shakllana boshlagan.

Markaziy Osiyo xalqlarining ko'pchiligi Oltoy oila-sining turkiy tillar guruhiga kiradigan til va sheva-larda so'zlashadi. Bu guruhga o'zbek, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, turkman, uyg'ur, tatar tillari kiradi. Turkiy tilda so'zlashadigan aholi butun mintaqqa xalqla-rining taxminan 60 foizidan ortig'ini tashkil etadi.

Umuman olganda turkiy tillarda so'zlashuvchilar-ning umumiy soni 130 million kishidan ortiq.

Markazidy Osiyoda yashovchi aholi shahar va qish-loqlarda istiqomat qiládi. Oxirgi ma'lumotlarga ko'ra, mintaqada shahar aholisining nufuziga ko'ra eng ko'p sonli aholi O'zbekistonda yashaydi va 15 mln. kishi, ya'ni mamlakat aholisining 51 foizi shaharlarda yashaydi. Ikkinchı o'rinda Qozog'istonda, ya'ni 9,1 mln. kishi shaharlarda istiqomat qiladi. Turkmanistonda – 2,5 mln., Qирг'изистонда 33,9 foiz (1,9 mln. yaqin) aholi yashasa, Tojikistonda umumiy aholisining 26,5 foizi, boshqacha aytganda 2 mln. aholi shaharda yashaydi.

Umuman olganda, hozirgi kunga kelib mintaqada jami 65,6 mln. kishi, ya'ni umumiy aholining 43,8 foizi shaharlarda istiqomat qiladi.

O'zbeklar Markaziy Osiyoning eng qadimgi va nufuziga ko'ra eng ko'p sonli xalqlaridan biri hisoblanadi. O'zbek xalqi o'zining ko'p asrlik boy tarixiga ega. O'zbeklar nafaqat O'zbekiston Respublikasi aholisining asosiy qismini tashkil etadi, balki O'rta Osiyodagi eng ko'p sonli xalqdir. Ma'lumotlarga ko'ra o'zbeklarning umumiy soni 30 milliondan ko'p. O'zbeklar alohida etnik jamoa (elat) bo'lib, O'rta Osiyoning markaziy viloyatlari – Movarounnahr, Xorazm, Yettisuv, qisman Sharqiy Turkistonning g'arbiy mintaqalari va Janubiy Turkistonda shakllangan. O'zbek xalqining asosini hozirgi O'zbekiston hududida qadimdan o'troq yashab, sun'iy sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullanib kelgan mahalliy sug'diyalar, baxtarlar, xorazmiylar, farg'onaliklar, sak-massagетlar, qang'lar kabi etnik guruhlар tashkil etgan. Shuningdek, Janubiy Sibir, Oltoy, Yettisuv, Sharqiy Turkiston hamda Volga va Ural daryosi bo'yalaridan kelgan etnik komponentlar ham o'zbeklar etnogenezida ishtirok etganligi tarixdan ma'lum. Bu qabila va elat-

lar, asosan, turkiy va sharqiy eroniy tillarda so'zlashganlar.

Ma'lumki, mil. avv. III asrda Sirdaryoning o'rta oqimida turkiy va sug'diyilar ittifoqi asosida Qang' davlati tashkil topgan. Qang' davlati davrida Mavarounnahr va unga tutash mintaqalardagi xalqlarning iqtisodiy, siyosiy va etnomadaniy aloqalarining tobora rivojlanib borishi natijasida turkiyzabon etnoslar ustuvorlik qilib, yangi turkiy etnoslardan biri – qang'ar elati paydo bo'ldi va o'ziga xos uyg'unlashgan madaniyat shakllandi. Tarixiy va arxeologik asarlarida bu madaniyat «*Qovunchi madaniyati*» nomini olgan. Antropolog olimlarning ta'kidlashlaricha, aynan shu davrlarga kelib, O'rta Osiyoning vodiy va vohalarida yashovchi sug'diyilar va qang'arlarning tashqi qiyofalarida hozirgi o'zbek va voha tojiklariga xos antropologik tip to'liq shakllangan.

O'zbeklar etnogenezida qatnashgan navbatdagi etnik komponentlar Janubiy Oltoy va Sharqiy Turkistondan ko'chib kelgan yuechji qabilasining bir tarmog'i bo'lib, ular mil. avv I – milodiy IV asrlarda Kushon sultanatiga asos solgan kushonlar hamda milodiy III – V asrlarda O'rta Osiyoning markaziy viloyatlariga Janubiy Sibirdan, Jung'oriyadan, Sharqiy Turkistondan siljigan xioniy, kidariy va eftaliylardir.

Shuningdek, o'zbeklar etnogeneziga faol ta'sir o'tkazgan turkiy etnik komponentlar asosi *Turk xoqonligi* (VI – VIII asrlar) davrida O'rta Osiyoning markaziy mintaqalari (Toshkent, Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo vohalari, Farg'ona vodiysi) va Xorazmga kelib joylashib, ma'lum bir tarixiy davr mobaynida, bu etnik komponentning aksariyat qismi o'troqlashdi. Turk xoqonligi davrida kirib kelgan turkiy komponentlar va mahalliy aholi o'rtasidagi etnik-madaniy munosabatlarning rivoji hududdagi etnik jarayonlar taraqqiyotiga katta ta'sir o'tkazdi.

Ushbu turkiy qatlam madaniy yutuqlarining mahalliy madaniy-xo'jalik an'analar bilan jadal uyg'unlashuvi yuz berdi. Bu davr turkiy va sug'diy simbiozning hal qiluvchi bosqichlaridan biri bo'lgan.

VIII asrdan arab va ajam (arab bo'lмаган yaqin va O'rta Sharq) xalqlarining O'rta Osiyoga kirib kelishi mintaqadagi etnik jarayonlarga katta ta'sir etmagan. Bu davrda aholi etnik tarkibida ma'lum bir o'zgarishlar bo'lgan bo'lsa-da, Movarounnahrdagi o'troq va yarimo'troq turkiyzabon aholi, sug'diyalar va Xorazmning tub yerli aholisi o'z hududlarida qolib, arablar (VII – VIII asrlar), keyinchalik somoniylar (IX asr) hukmronligi ostida yashaganlar.

Umuman olganda, IX asrdan boshlab Movarounnahr mintaqasida yaxlit turkiy etnik qatlam, jonli turkiy til muhiti vujudga kela boshladi va o'z navbatida sug'diyalar va boshqa mahalliy etnoslarda ham turkiylashish jarayoni jadallahsgan. Elshunos olim K. Shoniyozovning qayd etishicha, IX – X asrlarda tig'iz etnogenetik jarayon natijasida ko'plab turkiy qabila va urug'larning o'troq hayotga o'tishi jadal davom etgan. Bu asrlarda Movarounnahr va Xorazmda turkiy etnik qatlam kuchli etnik asosga ega bo'lgan. Akademik A. Asqarovning ta'kidlashicha, bu kuchli etnik qatlam asosining aksariyat ko'pchiliginini o'troqlashgan turg'un turkiy etnoslar tashkil qilgan.

*Qoraxoniylar* davrida (X – XI asrlar) Movarounnahr va Xorazmda siyosiy hokimiyat turkiy sulolalariga o'tishi munosabati bilan o'zbek xalqi etnogenezinining yakuniy bosqichi boshlandi. G'arbiy Qoraxoniylar davlati doirasida hozirgi o'zbeklarga xos turkiy etnos qaror topdi va aynan mazkur davrda elatni belgilovchi hudud, til, madaniyat, tarixiy qismatining umumiyligi, etnik o'zlikni anglash, etnosning uyushqoqligi ma'lum bir davlat doirasida bo'lishi, din umumiyligi va bir qancha shu kabi boshqa et-

niķ alomatlar shakllangan. Bu davrda o'zbeklarning umum elat tili qaror topdi. Movarounnahr va unga tutashgan mintaqalarda yashovchi turkiyzabon aholi; qarluq, chigil, yag'mo, tuxsi, xalach, arg'in, o'g'uz, qipchoq, uz, qang'li, singari urug'lar o'zlarini bir xalq (elat) sifatida anglay boshlaganlar. Umuman olganda, XI – XII asrning birinchi yarmida elat shakllanishidagi muhim ahamiyatga ega bo'lgan aksariyat etnik alomatlar o'z maromiga yetib, o'zbeklar xalq sifatida shakllangan.

XIII asr boshlarida Chingizzon istilosи davrida mo'g'ul qo'shinlari tarkibida ko'p sonli turkiy etnoslar ham kirib keldi. XV asrga qadar esa ushbu etnoslar ning deyarli ko'p qismida mahalliy aholi bilan aralashuv jarayoni sodir bo'ldi va ular shakllangan o'zbek elatining keyingi taraqqiyotida ma'lum darajada iz qoldirdilar.

*Chig'atoy ulusi* tilining rivojlanishi hamda keyinchalik *Amir Temur va temuriylar* davrida iqtisodiy va madaniy taraqqiyot natijasida Movarounnahrda adabiy til takomillashib, «turkiy» yoki «chig'atoy» tili deb nomlangan. Ayniqsa taraqqiy etgan o'zbek adabiy tili *Alisher Navoiy* davrida eng yuqori nuqtaga ko'tarildi. Ammo xalqning jonli tili ko'p dialektli bo'lib, adabiy til shakllanishida uchta asosiy sheva – *qarluq*, *qipchoq* va o'g'uz dialektlari asos bo'lgan. Ma'lumki, shakllangan o'zbek elatining Temur va temuriylar davridagi etnik tarixi va etnomadaniy taraqqiyotiga barlos, jaloyir, qavchin, arlot, qipchoq kabi etnik guruhlar ham faol ta'sir qilgan.

O'zbeklar etnik tarixida XV asr oxiri – XVI asrlar ham muhim davr hisoblanadi. Ushbu bosqichda O'rta Osiyoga mang'it, qo'ng'irot, nayman, uyg'ur, saroy, qatag'on, qushchi, do'rmon, kenagas, qirq, yuz, ming, bahrin va boshqa Dashti Qipchoq etnik guruhlarining navbatdagi to'lqini kirib kelishi kuchaygan. Natijada Movarounnahr aholisining etnik qiyofasida mo'g'uliy

irq alomatlari ham faollashgan. Dashti Qipchoqdan ikki daryo (Amudaryo va Sirdaryo) oralig'i va Xorazmga kelib o'rnashgan etnik guruuhlar «o'zbek» nomi ostida mahalliy aholi etnik rang-barangligini birmuncha ko'paytirgan bo'lsalar ham, lekin uning etnik tarkibini tubdan o'zgartirib yubormagan. Ushbu etnoslar shakllangan o'zbek xalqining tarkibiga kelib qo'shilgan navbatidagi etnik komponent edi, xolos. Ular Movarounnahr va Xorazm aholisining turmush tarzi, an'analari, madaniyati, xo'jalik faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan yangi tipdagi madaniy qatlam hosil qilgan. Ayniqsa, Zarafshon vodiysi va O'zbekistonning janubiy mintaqalari aholisi orasida bu nisbat kuchli seziladi. Mahalliy aholiga ular «o'zbek» nomini berishgan va bu nom Movarounnahr va unga qo'shni viloyatlar aholisi uchun rasmiy ravishda umumiy nom bo'lib qolgan.

Temuriylar davlati o'rnida dastlab XVI asr boshlarida vujudga kelgan Buxoro va Xiva xonliklari va XVIII asr boshlaridan Qo'qon xonligining vujudga kelishi natijasida yagona tarixiy makonda yashagan xalqlar siyosiy jihatdan turli davlatlar tasarrufiga tushib qolgan bo'lsa-da, bu holat o'zbek elati birligiga putur yetkaza olmagan. Siyosiy chegaralar bo'lismiga qaramasdan uch davlat tarkibidagi aholi o'zaro doimiy etnik, iqtisodiy va madaniy aloqada bo'lib kelganlar.

O'rta Osiyo xalqlarining XIX asr oxiri – XX asr boshlarida tarixiy taqdiri va taraqqiyot bosqichlari Rossiya imperiyasining mustamlakachiligi davri bilan bog'liq. Keyinchalik mintaqada Sovet hokimiyatining o'rnatilishi bilan O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish o'tkazilib, beshta milliy res-



XIX asrdagi o'zbek




XIX asrdagi  
o'zbek ayoli

publikalar tashkil etildi. Mahalliy xalqlarning milliy taraqqiyoti davom etayotgan bir pallada 1924-yili milliy chegaralanish o'tkazilgan. Shu bilan shakllangan elatlar taraqqiy etayotgan tarixiy makon sun'iy ravishda bo'lib yuborildi. Mintaqaga xalqlarining assimilyatsiya, konsolidatsiya jarayonlariga jiddiy ta'sir o'tkazilishi va keyinchalik «soviet xalqi» nomli yagona etnik birlikni yaratish haqidagi nazariyaning amalga oshirilishi borasidagi olib borilgan siyosat ham

o'zbeklarning milliy-etnik qiyofasiga, mentalitetiga rahna sola olmadi. Albatta, keyinchalik mintaqada vujudga kelgan barqarorlik nisbatan o'zbeklarning etnik-madaniy taraqqiyotiga sezilarli ta'sir o'tkazdi.

O'zbeklarning millat sifatida rivojlanish jarayoni O'zbekiston mustaqillikka erishgan sanadan boshlab yangicha mazmun kasb etdi. Tarixiy tomirlaridan kuch olgan o'zbek xalqi madaniyati, milliy tafakkuri, urf-odatlari, turmush tarzida o'ziga xos uyg'onish va yangilanish pallasiga qadam qo'ydi. O'zbeklarning moddiy va ma'naviy madaniyati o'ziga xos va boydir. Uning eng yaxshi tomonlari an'anaga aylanib, hozirgacha saqlanib kelmoqda.

**Dehqonchiligi.** O'zbeklar ajdodlari qariyb eng qadimgi zamonlardan buyon yerga ishlov berish bilan tirikchilik qilib keladi. Don-dun, meva-cheva, poliz, rezavor ekadi. Markaziy Osiyoning barcha voha va vodiylarida yirik va mayda daryo irmoqlari, ko'l va buloqlari atrofidagi sug'orib dehqonchilik qiladigan, lalmi, yaylov, qir, adir, tepaliklari deyarli dehqonchilik yerlariga aylanib ketgan. Ekinlarni sug'orish uchun daryo, ko'llardan, irmoq va buloqlardan foydalilanilgan va ariq, zovurlar qazilgan.



*O'zbekiston qovun-tarvuzlari*

Sug'orib dehqonchilik qilinadigan yerlarda qishloq jamoalari mavjud edi. Jamoa bir qancha oila urug'lari dan tashkil topgan bo'lib, ayrim jamoalar 4 – 5 qishloq odamlarini o'ziga birlashtirgan. Bunday jamoalar birgalikda muayyan ishlarni bajarar edi. Jamoaning alohida ariq – kanallari bo'lar, kim nima ish qilishi, qachon, qaysi navbatda sug'orishi, nimani qayerga ekishi bilan bog'liq masalalar oldindan kelishib va belgilab olinardi.

Jamoalar g'allakor, sholikor, paxtakor tumanlarda tuzilar edi. Jamoa a'zolari – dehqonlarning mehnati, bir necha uslubda tashkil etilgan. O'z vositalari bilan ishlaydigan oilalar mustaqil ishlar edi. Ish kuchi yoki asbob-jihozlari yetishmagan bir necha dehqon birlashib jamoaviy mehnat qilar edi. Oila a'zolari bilan haqbay ishchilar birgalikda mehnat qilishlari ham mumkin bo'lgan.

O'zbekistonning ko'pchilik yerlarida donli ekinlardan jo'xori, makkajo'xori, dukkakli ekinlardan mosh, loviya, sholi yetishtirilgan.

Dehqonchilikning eng yirik sohasi paxtachilik bo'lgan. Ayniqsa, Rossiya Turkiston yerlarini bosib olganidan keyin paxta maydonlari yanada kengaygan. Turkiston sovet hukumatining asosiy paxta xomashyo bazasiga aylanib qoldi. Jaydari g'o'za o'rni-ga nisbatan tez pishar, serhosil, tolasi uzun amerika g'o'za navi ekiladigan bo'ldi.

Turkistonda ilk bor pomidor, kartoshka, qand lavlagisi, karam, bulg'or garimdorisi, baqlajon va boshqalar ekila boshlangan.

Polizchilik, rezavorchilik keng tarqalgan xilma-xil ko'katlardan tortib piyoz, sabzi, qizilcha, turp, sholg'om, rediska, qalampirgacha yetishtirilgan. Poliz ekinlaridan qovoqning xilma-xili, qovun, tarvuz, handalak, bodring, tarrak ko'p ekilgan.



Paxta dalasi



*O'zbekiston uzumlari*

Qishloqlarda, shahar hovli joylarida, bog'-rog'lar ko'p bo'lgan. Olma, o'rik, anor, shaftoli, nok, olxo'ri, gilos, olcha, behi, bodom, pista, yong'oq, tut daraxtlanidan mo'l hosil olingan.

O'zbekiston qovuni va uzumlarining o'nlab ajoyib navlari va ularning shirin-shakarligi bilan dong chiqargan. Ho'l mevalaridan tashqari quruq mevalar ni yetishtirish ham butun mamlakatda keng tarqal-gan edi.

**Chorvachiligi.** O'zbeklar xo'jaligining muhim tar-moqlaridan yana biri chorvachilik bo'lgan. Markaziy Osiyoda, Dashti Qipchoqdan ko'chmanchi o'zbeklar ko'chib kelmasdan oldin yashayotgan, ko'chman-chi turkiy qabilalarining ko'pchiligi, chorvachilik bilan shug'ullanar edi. O'zbek qabilalari orasida turk o'zbeklar, laqaylar, qarluqlar, qo'ng'irotlar, asl chorvador qabilalar bo'lgan. Qo'ychivonlarning piri Cho'pon ota hisoblangan. Qo'ychilik, chorvachilikning

asosiy va e'zozlanib kelinayotgan sohasiga aylan-gan. Bu sohada qorako'lchilik bosh o'rinda turgan. Qo'y-qo'zilar erta bahordan kech kuzgacha yaylovlar-da boqilgan.

Qo'y zotlari ichida qorako'l qo'ylardan keyin hisor qo'ylari nihoyatda qimmatli bo'lgan. Ular O'zbekistonning janubiy tumanlarida boqib ko'paytirilgan. Jaydari qo'ylari O'zbekistonning deyarli barcha tu-manlarida boqilgan. Ayrim hollarda qo'y-qo'zisi, moli ko'p chorvadorlar o'z mollarining bir qismini muayyan shart bilan tog'li qirg'iz cho'ponlariga berishgan.

Qo'y-qo'zidan tashqari, echki, uloq, buzoq, ho'kiz ham boqilgan.

Chorvachilikda yana yilqichilik ham katta ahami-yatga ega edi. Ammo yilqichilarni, asosan, laqay chor-vador o'zbeklar boqishgan. Qorabayir va laqay zot ot-lari ko'plab yetishtirilgan.

O'zbekistonning cho'l-sahro, dasht-biyobonlarda yashayotgan aholisi tuyachilik bilan ham shug'ullangan. Ko'proq, Buxoro vohasi atrofidagi yerlarda, Qarshi cho'lida bu soha juda rivojlangan. Janubiy tumanlarda bir o'rkachli, shimoliy tumanlarda qo'sh o'rkachli tuyalar boqilgan.

**Pillachilik.** O'zbeklar xo'jaligining yana bir azaliy tarmog'i bu pillachilikdir. Markaziy Osiyo, shu jum-ladan O'zbekiston yerlariga ipak qurti milodning IV asrida Xitoydan keltirilgan.

Ipak qurtini boqish va uning pillasidan sifatli xomashyo tortish juda ko'p mehnat talab qiladigan murakkab, og'ir ish bo'lganligi uchun, pillachilik bilan nisbatan kam shug'ullangan. Mayda kosib-hu-narmandlar ipakdan ro'mol, darparda, har xil uy ji-hozlari, popuklar tayyorlashgan. Pillachilik Buxoro, Farg'ona, Qo'qon, Marg'ilonda ayniqsa keng rivojlan-gan. Bu yerlarning pillalari Turkistonning barcha



Zardo'z qizlar

shahar, qishloqlariga olib borib sotilgan va oldi-sotdida juda yuqori baholangan.

**Hunarmandchilik.** O'zbek xalqi juda qadimdan kosib-hunarmand bo'lgan. «Yigit kishiga qirq hunar ham oz» degan ajoyib maqoliga amal qilib, o'zbek yigit va qizlari bolalik,

o'smirlik davrlaridanoq biron hunarni egallahsga harakat qilishgan. Deyarli har bir qishloq, shaharda gi 5 – 10 mahallaning birida o'z nonvoysi, tegirmonchisi, qassobi, duradgori, sartaroshi, taqachisi, temirchisi, yamoqchisi, ip yigiruvchisi, to'quvchisi, ko'nchisi, tikuvchisi mavjud edi. Olis qishloqlarda bir yo'la bir necha hunarga qo'l uradigan hunarmandlari bo'lgan.

Ip yigiruvchi va to'quvchi hunarmandlar nihoyatda ko'p bo'lgan. Qariyb har bir xonadonda xotin-qizlar, ayniqsa, keksa onaxonlar ko'p kunlarini charxda ip yigirish bilan o'tkazganlar. Qishloqda, shaharda charxi, urchug'i yo'q biron xonadon bo'lмаган. Paxta, yo jundan tola olish, ip yigirishdan tortib yigirilgan ipdan xonadon ehtiyojlariga qarab har xil kiyim-kechak, uy-ro'zg'or buyumlarini tikishgacha bo'lgan ishlarning hammasini xonadonning ayollari bajarishgan: biri urchuqda tola olib, biri charxda ip yigirgan, ipni kerakli rangga bo'yagan. Ba'zan bir ayolning o'zi ayni vaqtda ip yigiruvchilik, bo'yoqchilik, bichuvchilik, to'quvchilik va tikuvchilik vazifalarini ado etgan. Kiyim-kechakka, uy-ro'zg'or buyumlariga talab, ehtiyoj orta borgani sayin bu ishlarda ixtisoslashish jarayoni kuchayadi, mehnat taqsimoti kengaygan, charxchi, bo'yoqchi, bichuvchi, tikuvchi, to'quvchi kabi ixtisosliklar ko'paygan.

*Kulol usta*

To'quvchilik, chitchi va ipakchi mutaxassisliklarga bo'lingan. Biri faqat chit, bo'z to'qish bilan, ikkinchisi ipak gazlamalar to'qish bilan kun kechirgan. Ular bilan o'zaro hamkorlikda chitgarlar (gazlamalarga gul bosib beradigan mutaxassislar) ishlagan.

Shoyi ipak gazlamalarni o'simlik moylari bilan har xil rangga bo'yalgan. Tikuvchilik sohasida mehnat taqsimoti mavjud bo'lgan: to'nchi, tikuv-

chi, mashinachi, telpakchi, mahsido'z, po'stindo'z, do'ppido'z.

**Kulolchilik.** O'zbekistonning turli hududlarida ko'p yillar davomida olib borilgan va davom ettirilayotgan arxeologik qazilmalar vaqtida kulolchilik namunalari topilgan. Xorazm, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlaridan, Toshkentdagi Shoshtepa, Oqtepadan chiqqan sopol buyumlar kulolchilik O'zbekiston diyoridagi eng qadimiy amaliy san'at turlaridan biri ekanligiga yorqin dalil bo'la oladi.

Asrlar davomida rivojlanib kelgan bu amaliy san'at turining o'z milliy hususiyatlari bilan ajralib turgan va mashhur bir qancha maktablari va markazlari bo'lgan. Zangori kulollik deb atalgan sohalari mavjud edi.

Xorazm zangori kulollikning asosiy markazlari dan biri hisoblangan. Ko'hna Xorazmda uchta qadimiy zangori kulollik maktabi bo'lgan: Madir kulollik maktabi, Kattabog' maktabi, Ko'hna Urganch maktabi. Garchi hammasi ham zangori kulollik buyumlari ishslash bilan band bo'lsa-da, naqsh shakllari uslubi jihatidan bir-biridan ancha farq qilgan.



*O'ymakorlik uslubida  
bezatilgan ustun*

rog'ochga o'yib solgan naqshlari kishining diqqatini o'ziga tortadi.

Toshkent naqqoshlari qo'lidan chiqqan bir tavaqali va qo'sh tavaqali eshiklar, darvozalardagi naqshlar o'ymakorlik san'atining kamolotidan dalo-lat beradi.

**Kashtado'zlik.** O'zbek xalqi amaliy san'atining eng nafis, eng jozibali turlaridan biri kashtado'zlik.

Toshkent, Samarqand, Buxoro, Rishton kulolchili-gi mahsulotlari ham azaldan juda e'zozlanib kelingan.

**O'ymakorlik.** Yog'och, ganch va boshqa narsalar ni o'yib, naqsh solish san'ati borasida ham o'zbek eli juda qadimdan shuhrat qozongan. O'tmishda Qo'qon hamda Xiva o'ymakorlik maktablari butun Markaziy Osiyo hududida ma'lum va mashhur bo'lgan. Buxoro va Samarqand o'ymakor ustalari ishlagan namunalar rang-barangligi, ganchning nimrang, ko'kish, to'q sarg'ish, qizil lojuvard ranglar bilan hamohangligi bilan ajralib turadi. Qo'qon, Xiva ustalari yong'oq, chinor, qay-



*Palak*

Kundalik hayotimiz, ro'zg'orimizni kashtado'zlik buyumlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Mehmonxonaga osiladigan falaklar, taxmon, dokcha, ko'rpa-yostiqlar, karovat ustiga yopiladigan, devorga osiladigan rang-barang, bejirim, serjilo kashtalar xonadonimizga o'zgacha tus, ko'rk bag'ishlaydi. Turli gazlama ayollar sarpolariga tikilgan gul, bezaklar ularning yanada yorqin va go'zal bo'lib ko'rinishiga olib keladi. Kashtado'zlik, asosan, o'simliklar tasviri, ya'ni islamiy naqshlar hisobiga boyidi, ayniqsa shoyi iplar bilan gul chizish uslubi kashtado'zlikda muhim o'rin egallaydi.

O'zbek chevarlari kashtado'zlikda xilma-xil choklarni qo'llashadi: bosma chok, qanda-xayol, iroqi yo'rma va hokazo. Kashta, gul tikib bezatilgan buyumlarning turi ko'p: shohi so'zana, darpech, falak va boshqalar.



An'anaviy o'zbek uyining ichki interyeri

**Turarjoylari.** O'zbeklarning an'anaviy turarjoylari qadimdan o'ziga xos bo'lib, ular yashagan mintaqaning tabiiy-geografik sharoiti bilan bog'liq bo'lgan. Turarjoylar barpo etishda qurilish konstruksiyasi va uslubi, loyihasi va bezaklari bilan ajralib turgan, mustaqil va o'ziga xos Farg'ona, Buxoro, Xiva va Shahrисабз me'morchilik yo'nalishlari mashhur bo'lib kelgan. Uy-joy qurilishida o'zbeklarda ba'zi bir o'ziga xoslik saqlansa-da, umumiy yagona me'morchilik tipi keng tarqalgan bo'lib, qadimiy uylar, odatda, ko'cha va qo'shni tomoni derazasiz devor bilan o'rالgan hovlilardan iborat bo'lgan. Barcha turarjoy va xo'jalik xonalarining oynalari ichkari tomonga qaratilgan. Hovli ikki qismga – bolalar va ayollar uchun ichkari hovli hamda nomahram erkaklar va mehmonlar uchun mehmonxona tarzida hashamatli xonalardan iborat tashqari hovliga bo'lingan. Hunarmandlarning uylarida do'kon va shogirdlar yashaydigan xonalar ham tashqarida joylashgan. Eng ko'p tarqalgan ikki xonali uy variantlaridan biri sifatida dahliz va katta uydan iborat bo'lgan uylarni ko'rsatish mumkin. Bunday uy-joylar, odatda, oldi ham ayvonli va ayvonsiz qilib qurilgan. O'rtacha oilalarda esa mehmonxona sifatida uyning bir hujrasi ajratilgan. Aholi o'rtasida an'anaviy paxsa uylar qurish bilan birga naqshinkor ganchli binolar qurish ham mavjud bo'lgan.

Odatda, uylarning tarhi oila a'zolarining soniga qarab bir necha uy (xona), dahliz va ayvondan iborat bo'lgan. Hovlida esa xo'jalik uchun omborxona, hojatxona va molxona bo'lgan. Shaharlarda yoki aholi zich joylashgan qishloqlarda mehmonxona, odatda, ikkinchi qavatda – bolaxonada joylashgan. Ayniqsa Toshkent, Buxoro, Samarqand va Urgut shaharlari-da juda shinam mehmonxonalar qurilgan. Bu kabi mehmonxonalardan to'y-hashamlarda, motam marosimlarida ham keng foydalanilgan. Bundan tashqari

qish paytlari mehmonxonalarda mahalla erkaklari to'planishib gap-gashtaklar o'tkazganlar. Hozirgi kunga kelib zamonaviy uylarning qurilishi ancha takomillashgan bo'lib, uylarning qurilishidagi milliy an'analar zamonaviy ko'rinishlar bilan o'zaro uyg'unlashgan. Bugungi uylar muayyan reja asosida turli qulayliklar bilan qurilmoqda.

Shahar va yirik qishloqlar yana bir qancha mahallaga bo'lingan. Ba'zi joylarda (Toshkent, Andijon, Farg'ona, Qo'qon, Marg'ilon, Namangan, umuman, Farg'ona vodiysi shaharlarida) mahalla, ayrim yerlar (Samarqand, Buxoro, Shahrисabz, Qarshi va boshqa shaharlarda) guzar, deb yuritilgan. Har qaysi mahalla yoki guzarda aholining hovli joylari mahalla (guzar), ko'cha, tor ko'cha yoki berk ko'chalarga, orqa tomoni bilan qo'shni (guzar)ga qaratib solingan. Shu tariqa har bir mahalla (guzar) bir-biridan uy devorlari bilan ajralib turgan. Ilgari har mahallaning o'z darvozasi bo'lgan.

30 – 80 xonodon, odatda, bir mahallaga uyushgan. Mahallaning o'z machiti bo'lgan. Shahar kengayishi bilan mahallalarning soni ham ortib boravergan. Buxoroda 220, Shahrисabzda 52 mahalla (guzar), Xivada esa yirik ilot bo'lgan.

Ko'p shaharlar, mavzelar, shahar chetidagi qishloqlar bilan bir-biriga ulanib ketgan edi. Mavze, qishloq odamlari ham muayyan bir ish bilan shug'ul-anishgan.

Yirik qishloqlar ham shaharlardagidek mahalla, guzarlarga bo'lingan. Har bir fuqaro masjidga qatnagan. Shuning uchun bu mahallalar yoki qishloqlar aholisini «masjid – qavm» deyishgan.

**Kiyim-kechaklari.** O'zbeklarning usti-boshi asrlar davomida ko'p marta o'zgarib, yangilanib va takomillashib kelmoqda, har bir davr, zamonning o'ziga xos, milliy, an'anaviy kiyim-kechagi bor.

O'zbekiston hududida yashagan eng qadimgi ajdodlarimizning kiyimlari ham dunyoning boshqa mintaqalaridagi qadimgi kishilar kiyimlari kabi tabiiy iqlim, turmush sharoitlari va urug'-qabila an'analarini asosida shakllangan.



*Milliy kiyimdagisi o'zbek qizi*

XIX – XX asrlar boshida o'zbek milliy kiyimlari majmui shakllanib ulgurgan edi. Bu davrda O'rta Osiyoning boshqa mintaqalari, shuningdek, O'zbekistonda ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi, savdo aloqalarining taraqqiy etib kengayishi va Ros-

siya imperiyasi tomonidan o'lkaning mustamlaka qilib olinishi natijasida mintaqaga fabrika gazlama-larining keng miqyosda kirib kelishi va, o'z navbatida, yangi inoetnik kiyim-boshlar nusxalari paydo bo'lishiga olib keldi. Ayniqsa, tikuv mashinasining kirib kelishi kiyimlar tayyorlash jarayonida o'ziga xos «inqilobi» hodisa bo'ldi.

O'zbeklarning an'anaviy kiyim-boshlari ichida erkaklarning milliy liboslari alohida ajralib turgan. Kiyimlari (to'n, ko'ylak, yaktak, ishton va boshqalar) yaxlit bichimli, bichimi to'g'ri, keng va uzun bo'lib, eni buzilmagan bir bo'lak mato yarmidan bir-biriga ulab uzunasiga tikilgan, yon qismi esa etagiga qarab kengayib borgan. Dastlab erkaklar ko'ylagi uzun, tizzadan pastga, keyinroq esa belning yarmisiga tushadigan qilib tikilgan. Umuman, O'zbekiston hududida erkaklar orasida bir nusxadagi to'n, ko'ylak-yaktak, ishton, do'ppi, salsa, telpak, kavush-mahsi, etik, choriq, turli yordamchi kiyimlar kiyilgan. Erkaklar ko'ylagi



*Milliy kiyimdag  
o'zbek bola*

Farg'ona vodiysida uzun, tik yirmoch – qiyiq joyi uzunroq mato bo'lagidan bichilib, burchak-burchak qilib, 2 qiyiq kesilgan hamda uchlari keng olinib tikilgan. Boshqa xil bichimdag'i ko'yylaklarda yirmoch yotiq, u yelkadan bu yelkagacha olingan. Bunday ko'yylaklar «mullavachcha» ko'yylak deyilgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida mammakatning turli mintaqalari da kalta, tik yoqali «no'g'ay yoqa ko'yylak», «bo'g'ma yoqa» ko'yylaklar kiyish ommalashgan bo'lib, ularni dastlab shahar aholisi, ayniqsa, savdo ahli kiygan. O'zbeklar orasida bo'z, ipak, ip gazlamalar dan tikilgan oldi ochiq yaktak ko'yylaklarni yoshlar va qarilar birdek yoqtirib kiyishgan. Erkaklar ishtonni yuqori qismi keng, pojchalari tor-

roq tikilib, to'piqqacha tushib turadi, yuqori qismiga ishtonbog' o'tkazish uchun milkiga gir aylana baxyachok qilingan. Sovuq fasllarda ishton ustidan astarli yoxud astarsiz shim kiyilgan, u asosan, ip gazlama va jun gazmollardan tikilgan. Chopon (to'n), joma, kamzul, jelak, chakmon erkaklarning mavsumiy kiyimlari qatoriga kirgan. To'n (chopon)lar avra-astarli holda paxta solib qavilgan. Oldi ochiq uzun bo'lган. Yurganda, otga minganda, yerda chordona qurib o'tirganida qulay, ixcham bo'lishi uchun yon tomonlariga kesik-yirmoch qo'yilgan, belbog' bog'langan. To'nlar

avrasi beqasam, kimxob, baxmal, shoyi, satin, chit va boshqa matolardan tikiladi.

To'nlar mahalliy xususiyatlarga ko'ra ham farqlangan. Farg'ona vodiysi, Toshkent va Xorazmda gavdaga yopishib turadigan sirma – qavima choponlar ko'proq rasm bo'lgan bo'lsa, Buxoro, Samarqand, Shahrisabz va boshqa joylarda qimmatbaho matolardan zardo'z to'nlar tikilib, yoqasi, etagi va yeng uchlariga turli rangdagi zar iplarda kashta tikib, atrofiga gavhar toshlar qadab bezatilgan. Bunday to'nлarni xon va amaldorlarga sovg'a qilishgan. Umuman, xalqimiz orasida hurmatli kishilarga, ustozlarga, quda va kuyovlar, aziz mehmonlar va boshqalarga to'n kiygizish udumi saqlanib qolgan.

Chopon ustidan bog'lanadigan belbog' bo'z, chit, satin, beqasam kabi matolardan tikilgan.

Erkaklarning milliy oyoq kiyimlaridan etik, kovush-mahsi, choriq, takaki etik, mukki, toshtovon, choriq – poypush kabi oyoq kiyimlar mavsumiy hisoblangan. Qo'nji tizzagacha bo'lgan poshnali etiklar no'g'ay etik, qora etik deb yuritilgan.

XX asrning 1-choragida ayollar kiyimlarining yoqalari, asosan, vertikal va gorizontal ko'rinishda bo'lgan. Ko'ylak yoqalari etnogenetik emas, balki funksional ahamiyat kasb etgan: vertikal yoqali ko'ylaklar chaqaloqlarni emizishda qulay bo'lgani uchun, asosan, ona bo'lgan ayollar kiygan. Bunday ko'ylaklar «onalik ko'ylagi» yoki «ayol ko'ylak» deyilgan. 20 – 30-yillarga kelib, «ko'krak burma» ko'ylaklar ommaviy urf bo'lgan. «Ko'krak burma» ko'ylaklar dastlab Toshkentda paydo bo'lgan. 50-yillarga kelib, ayollar va qizlar ko'ylagi orasidagi farq yo'qolib vertikal ko'rinishdagi ko'ylaklar rasm bo'la boshlagan. 80-yillarda «ko'krak burma», yoqali, yengi kalta atlas ko'ylaklarni kiyish rasm bo'ldi.

XX asrning 20 – 70-yillarida sodir bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlar natijasida an’anaviy milliy kiyimlar tarkibiga yevropacha ruzsumdagi kiyimlar kirib kelgan. Buni milliy ko‘ylaklar bilan birga yevropacha shim bilan kiyiladigan kiyimlarda ko‘rish mumkin. Ayniqsa, bu davrda erkaklarning oyoq kiyimlarida yevropacha bichimdagi poyabzallar keng rasm bo‘lishiga qaramay maxsi, etik kabi oyoq kiyimlar o‘zining an’anaviy ko‘rinishi ni saqlab qolgan va, asosan, keksalar orasida ko‘proq tarqalgan. Bu davrda erkaklarning maxsus ish kiyimi yaratildi, o‘g‘il bolalar kiyimlarida ham evolyutsion jarayon sodir bo‘lgan bo‘lib, milliy kiyimlar Yevropa kiyimlari bilan uyg‘unlashgan holda kiyilgan. 60 – 70-yillarga kelib ayol va erkaklarning fabrikalarda ishlab chiqarilgan turli shakldagi poyabzallari-yozgi tuflilar, qishki etiklar ommaviy rasm bo‘lgan.

Ayollar kiyimlarining nafisligi, xilma-xil, go‘zal bo‘lishiga mohir o‘zbek zargarlari tayyorlagan taqinchoq va zeb-ziynatlar yanada ko‘rk qo‘shgan.

Ko‘ylaklarning yirmochi ko‘ndalang yoki «yelka yoqa», «qozoqi yoqa», «vaqvaqa yoqa», «qaytarma yoqa» turlarini ko‘proq qariyalar va kelinlar kiyigalar. Yelka yoqa ko‘ylaklar yirmochining chekkalariga turli xil jiyak, chiroz, shiroz, tasma yoki turli rangdagi ipak iplardan yo‘rma usulda kashta tikib chiqilgan. Kiyim shakllari milliy yo‘l-yo‘l, sidirg‘a va gulli matolar bilan moslashgan, old etagi, yeng uchi, yoqasi gulli jiyak bilan hoshiyalangan. Ayollar ust-boshining ikkinchi asosiy bo‘lagi lozim bo‘lib, poychasi torayib kelib, yuqori qismi qayrilib – baxiyalanib orasidan ishtonbog‘ o‘tkazilgan. Odatda, lozimning ko‘ylak ostidan ko‘rinadigan qismi qimmat va chiroyliroq matodan, ko‘rinmaydigan tepa qismi arzonroq matodan tikilishi bilan erkaklar ishtonidan ajralib turadi. Uyda kiyiladigani oddiy, arzon matodan, ko‘chalik esa

shoyi, atlas, parcha ipakli, qimmatbaho matolardan tikiladi. Ayollarning ustki kiyimlari paxta solib qavilgan ayollar to'ni va paxtasiz avra-astardan iborat yengil xalat ko'rinishida bo'lib, turlicha nomlangan: Toshkentda – peshvo, mursak, Xorazmda – misak, Samarqandda – mulisak, kaltacha, Farg'onada – munisak, munsak, Buxoro, Shahrisabzda kaltacha, deb atalgan. Mursak 3 qismdan – bo'y, yon va yenglar dan iborat bo'lib, yon qismi to'g'ri, uzun, qo'lтиq ostiga to'plangan, to'plangan qism «cho'chcha» deb atalgan.

XIX asr oxiridan o'zbeklar orasida kamzul va nimcha kiyish odat tusiga kirgan. Kamzul yoqalari tik, bo'g'iq, badanga yopishib turadigan uzun, belburma syurtukni eslatib, ortida qiyiq joyi – yirmochi, qaytarma yoqasi bo'lмаган. Qora rang matodan, asosan, satindan yoki kostyumbop qalin ip gazlamalardan tikilgan, ular ko'yvak ustidan kiyilgan.

**Bosh kiyimlari.** Erkaklarning yozda ham, ko'klam, kuzda ham, hatto mo'tadil sovuq kezlarda ham asosiy bosh kiyimi do'ppi bo'lган. Do'ppi qachon va qayerda paydo bo'lgani haqida hozircha aniq ma'lumot yo'q. Lekin do'ppiga o'xshagan uchli, cho'qqi bosh kiyim juda qadimdan ishlatilib kelinayotgani ma'lum. Chorsi hamda yumaloq do'ppilar nisbatan ancha kech qo'llanila boshlangan. Taxminan XIX asrning 20-yil larida keng tarqala boshlagan, degan fikr mavjud.

Ommaviy bosh kiyimini Farg'ona viloyatida do'ppi, O'zbekistonning boshqa viloyat va tumanlarida to'ppi, deb yuritilgan. Do'ppilar shaklan uch xil bo'ladi: cho'qqisimon



*O'zbek do'ppilari*

(konussimon) shaklda (qulog), yumaloq, sharsimon (araqchin) va yassi, usti tekis (tus do'ppi).

Yumaloq do'ppilar orasida Urgut do'ppisi ayniqsa jozibali. U o'zining bayramonaligi, yorqinligi bilan kishi diqqatini jalg qiladi.

Respublikamizning har qaysi viloyat va tumanlari da shu yerning o'ziga xos milliy urf-odatlariga monand do'ppilar tikiladi. Masalan, Surxondaryo qishloqlarida piltado'zi uslubida tikilgan do'ppi kiyiladi. Do'ppilar ichida Qo'qon va Marg'ilon do'ppilari odmiligi va rasoligi bilan ajralib turadi. Bu do'ppilarda choklari nisbatan ancha kam.

Qish kunlari erkaklar mo'yna telpak kiyishgan. Bu kiyim qulohga o'xshab tikiladi. Mo'yna telpaklarning turi ko'p bo'lgan. Ular bir-biridan bichimi va tikilishi jihatidan farq qilgan. Samarqand bilan Buxoro tevarak-atrofidagi qishloqlarda kalta mo'ynali telpak kiyilgan. Samarqand telpagining astari yumshoq, arzon, mo'yna ko'pincha qo'y, ba'zan tulki mo'ynasidan tikilgan.

60-yillarga kelib, O'zbekistonda ilk bor kiyim andozalarini rejalash boshlandi. Natijada fabrikada tikilgan yangi bichimdagи kostyum-shimlar kirib kelgan. Bu davrda mintaqada erkaklar kostyum-shimlarini milliy bichimda oldi va yoqasi kashtalangan ko'ylaklar bilan kiyganlar, 70-yillarda yoshlar orasida pastki qismi keng qilib tikilgan klyosh-shimlarni yoqalari keng, havo o'tkazmaydigan neylon ko'ylaklar bilan kiyish ommaviy tus olgan. Qo'lga soat taqish urf bo'lgan. 80-yillar tanaga yopishib turuvchi sherst va jinsi shimlar hamda yoqasi birmuncha kichkina bo'lgan paxtali hamda trikotaj ko'ylaklar kiyilgan. Yoshlar, ayniqsa, o'quvchilar orasida oq ko'ylak va qora shim kiyish ommalashgan. Qishda esa erkaklar fabrikalarda tayyorlangan palto va plashlar, boshga telpak kiyib. sharf o'rashgan. Oyoqlariga ham fabri-

kada ishlab chiqarilgan paypoq, poyabzallar kiyishgan.

90-yillar boshlarida yoshlar orasida G'arb mammalakatlarida ishlab chiqarilgan krossovkalarni kiyish ommaviy lashgan va mahalliy poyabzal korxonalarida ham krossovkalar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Bolalar kiyimlari ham kattalarnikiday davrga qarab o'zgarib borgan. Asta-sekin kiyimlar vazifasi ham o'zgargan va ayrim kasb egalari bilan bog'liq (ishchilar, shifikorlar, sotuvchilar, sartaroshlar, o'qituvchilar kiyimlari va boshqalar) holda maxsus kiyimlar shakllandi.

Mustaqillikdan so'ng tarixiy milliy an'analari-miz va rasm-rusumlarimizga, milliy liboslarimizga bo'lgan e'tibor keskin oshdi. Ayniqsa, ayollar milliy matolar – shoyi, atlas, adres, baxmallardan tikilgan kiyimlar kiya boshladilar.

Hozirgi zamon liboslarida yevropacha uslubi bo'lsa-da, milliy an'analarning davomiyligi saqlanib qolmoqda. Masalan, shahar va qishloqdagi ayollar zamonaviy ko'ylaklarni an'anaviy xonatlaslardan tikib kiyadilar. Erkaklar do'ppisi, chopon an'anaviy ustki libosga aylangan.

**Taomlari.** O'zbeklar kundalik ovqat sifatida bug'doy, arpa, guruch, no'xat, mosh, zig'ir, kunjut kabi don; sabzi, piyoz, sholg'om kabi sabzavotlar; kadi, qovun, tarvuz kabi poliz mahsulotlarini keng iste'mol qilganlar. Azaldan milliy taomlarni tayyorlash uchun chorva-qo'y, qoramol, echki yog'lari, kunjut, zig'ir va sariyog' (sut mahsulotlaridan olingan), paxta yog'i ishlatilib kelinadi. Ovqatlanishda, ayniqsa, shaharliklarning asosiy taomlari sut mahsulotlaridan: qatiq, suzma, tvorog yoki chakki (zardobi olingan qatiq yoki kefir hisoblanib) qaymoq va boshqalardan iborat bo'ladi. Samarqand, Toshkent viloyatlarida va Farg'ona vodisida taomga juda ko'p zira va zirk ish-



*O'zbek taomlari*

latiladi, ular taomga nozik ta'm va hid beradi. Go'shti sabzavot va yormali quyuq taomlari za'faron, kash-nich qo'shib tayyorlangan. Umuman, o'zbek milliy taomlari o'zining lazzatligi, quvvatliligi va servita-minligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, palov, sho'rva, mastava, shavla, moshxo'rda, moshkichiri, shilpildoq va boshqalar keng tarqalgan. Ba'zi quyuq taomlar (palov) tayyorlashning o'nlab usullari mavjud. Non tayyorlash ham o'zbek pazandachiligidida alohida o'rin tutadi. Buxoro, Samarqand va Toshkent viloyatlari-da non yopishda kunjut, arpabodiyon, sedanani keng qo'llaydilar.

Non o'zbeklarda tandirda yopiladi. Tandir turli joylarda turlicha quriladi. Xorazm vohasi janubiy tu-manlarida yashayotgan aholi tandirni og'zini oldinga sal qiyshaytirib o'rnatishadi. Turkmanlarga qo'shni yerlarda yashayotganlari tandirni turkmansasiga, ya'ni yerga tikkasiga og'zini osmonga qaratib qurila-

di. Farg'ona vodiysi, Toshkent vohasida esa tandirni ko'pincha yerdan odam bo'yi baravari ko'tarib, og'zini ro'para qilib qo'yishadi.

Arpa, bug'doy unidan xilma-xil taom tayyorlangan: yorma, talqon, non, qatlama, chalpak, atala, bo'g'ir-soq, kesgan osh, chuchvara va boshqalar.



*Qoraqalpoq milliy kiyimi*

da, Rossiyada, Afg'onistonda, Eronda bir necha ming qoraqalpoqlar yashaydi.

Qoraqalpoq tili – turkiy tillarning qipchoq guruhi-ga mansub tillardan; qozoq va no'g'oy tillari bilan birgaliga qipchoq tillarining qipchoq-no'g'oy guruhchasi tashkil etadi. Qoraqalpog'iston Respublikasining davlat tili (o'zbek tili bilan birga). Asosan, Qoraqalpog'istonda, shuningdek, Xorazm, Navoiy, Buxoro viloyatlari hamda Qozog'iston va Turkmanistonning unga qo'shni hududlarida, Rossiya va Afg'onistonda

*Sumalak*. Erta ko'k-lam kezlari Navro'zi olam boshlangan vaqtidan butun O'zbekiston miqyosida, shu jumladan, qo'shni xalqlar tomonidan ham keng tayyorlangan.

**Qoraqalpoqlar** – Markaziy Osiyodagi xalq bo'lib, O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasida yashaydi (504 301 kishi, 2000-yillar o'rtalari). Shuningdek, Farg'ona, Xorazm, Navoiy, Buxoro viloyatlari, qo'shni Turkmaniston, Qozog'iston-

tarqalgan. Qoraqalpoq tili, asosan, 2 ta: shimoli-sharqiylariga janubi-g'arbiy lahjalarga bo'linadi; bu lahjalar fonetik jihatdan o'zaro farqlanadi.

Olimlar fikriga ko'ra, qoraqalpoq so'zi qipchoq tiliga mansub bo'lib, o'g'uz-pecheneg qabilalarining boshlariga kiyib yurgan qalpog'ining shakli va rangiga qarab berilgan nomdir. Qoraqalpoq xalqining shakllanishida ishtirok etgan barcha urug' va qabilalari ikki asosiy tarmoq aris (shoti)ga bo'linadi: o'n to'rt urug' arisi va qo'ng'irot arisi.

Qoraqalpoqlar qadimda Sirdaryoning o'rta va quyi oqimida joylashgan yerlarda dehqonchilik, chorvachilik va baliqchilik bilan shug'ullanib kelganlar. Ular azaldan chorvador xalq bo'lib, keyinchalik esa dehqonchilik bilan ham shug'ullana boshlagan. Dehqonchilikda, asosan, g'allachilik rivojlangan. Daryolar va ko'llar atrofidagi yerlarga bug'doy, arpa va tariq, sholi, jo'xori, zig'ir, kunjut, beda, poliz ekinlari ekilgan.

Qoraqalpoqlar, asosan, qoramol va yilqi boqishgan. Yozda yaylovlarda, qish kunlari esa qo'lda boqilgan. Qoramollarni – podachi, yilqilarni – yilqishi, ushoq mollarni esa qo'ychi yoki cho'ponlar boqqan. Qishda chorva, odatda, shox, butoq va qamishlardan tiklangan qo'ralarda yoki bostirmalarda, molxona, sayisxona, yilqilar esa yerto'lalarda saqlangan.

Qoraqalpog'istonning shimoliy tumanlarida tuytin, qo'ldauli urug'lari yashayotgan yerlarda aholi, asosan, baliqchilik bilan shug'ullangan. Baliq ovlash uchun qamishlardan qaza deb ataladigan moslama tayyorlangan. Sol, qayiqlarda baliq ovlangan.

Qoraqalpoq ayollarining kiyimi ko'ylak, ishton (lozim), ish kiyim, kamzul, yengsiz chopondan iborat bo'lgan. Boshlariga do'ppi kiyishgan, ro'mol o'rashgan, yana jegde yopib yurishgan.

Bayram ko‘ylaklari Buxorodan olib kelingan ola shoyidan tikilgan. Ko‘ylakning tugma tikiladigan ikki tomonida yoqasidan beligacha, yenglari, etagiga xilma-xil rangli ipdan chillak shaklida keng kashta tikilgan. Bunday ko‘ylaklar xalqali ko‘ylak deyilgan. Azador ayollar gulsiz ko‘k ko‘ylak kiyishgan. Qoraqalpoq ayollarining bosh kiyimlari boshqa xalqlarnikidan yaqqol ajralib turadi. Ayniqsa, kimishek va savkali deb ataladigan bosh kiyimlari juda qiziqarlidir.

**Taomlari.** Qoraqalpoqlarda nonning har xil turi yopilgan: bug‘doy noni (shurek), jo‘xori (zog‘ora) non, qotirma non, gulshe (kumesh), ya‘ni qo‘r non (qo‘rda pishirilgan). Qoraqalpoqlar nonni qo‘rda, qozonda, tandirda pishirishgan. Tandir og‘zini yuqoriga qaratib qurishgan. Suyuq ovqatlarning turli xilini tayyorlaydilar; jarma – tuyilgan arpa, bug‘doy, jo‘xori donidan pishiriladi: jo‘xori go‘ja, so‘k oshi (so‘kni, avvalo, suvda pishirib olib, so‘ngra yog‘da qovurishadi). Tan-siq taomlaridan sirgurunch, shovla, palovdir.

**Uy-joylari.** Turarjoylar qoraqalpoqlar yashayotgan joy sharoitlariga va tabiiy, iqlim sharoitlariga qarab har xil qurilgan. Ularning har qanday sharoitga mos kelaveradigan, eng yaxshi ko‘rgan uyi o‘tovdir. Uni qoraqalpoqlar qora uy, deb yuritishadi. Bundan tashqari qoqra nomi bilan ma’lum bo‘lgan loysuvoq uylari ham bo‘lgan. Ayrim hollarda yerto'lalarda yashashgan, yirik boylarning katta hovlilari bo‘lgan. Bunday hovlilar paxsa bilan qurilib, chor atrofi devor bilan o‘rab chiqilgan.

**Tojiklar** (ushbu etnos tojikcha – tochik, forscha – تاجیک, doriy tilida – [tɔ:dʒɪk] deb nomlanadi) Markaziy Osiyodagi qadimgi xalqlardan biri bo‘lib, Tojikiston Respublikasining asosiy aholisi (4 mln. 898 mingdan ortiq, 2001), O‘zbekistonda (1 mln. 165 mingdan ortiq, 2000-yil, asosan, Buxoro, Samarcand shaharlari, Urgut atroflarida, Surxondaryo, Sher-

boddaryo, Katta va Kichik O'radaryo bo'yłari, Qash-qadaryoning yuqori oqimi, Qarshi vohasi, Nurota tog'lari, Jizzax shahri, Farg'ona vodiysining So'x daryosi bo'yłari, Farg'ona, Qo'qonning janubiy qism-lari, Namangan tog' tizmalari etaklari), Qirg'izistonning Tojikiston bilan chegaradosh hududlarida ham tojik qishloqlarini uchratish mumkin, Afg'onistonda (3 mln. 700 ming), Xitoyning g'arbida, Eron Xurosonida, Rossiyada, Qozog'istonda va Turkmanistonda, shuningdek, Pokistonda yashaydilar. Tojiklarning umumiy soni 10 mln. dan ortiq.

Tojiklar, asosan, islom dinining sunniy mazhabiga, Badaxshon vohasi aholisining aksariyati esa shia mazhabining ismoiliya oqimiga e'tiqod qiladi.

Tojikiston tojiklari shimoliy va janubiy tojiklarga, har bir guruh geohududiy kelib chiqishiga qarab yana bir qancha guruhlarga bo'linadi. Chunonchi: xo'jandlik, ko'loblik, garmlik, pomirlik, darvozlik, romitlik, vaxonlik, gazimaliklik, yovonlik va hokazo. Yaxsuv va Qizilsuv daryolari atrofida, tog' etaklari va tog'larda qadimdan yashab kelayotgan tojiklar o'zlarini tojik ko'lobi deyishadi. Yaxsuv daryosining yuqori qismidagi yerlarda joylashgan tojiklar yaxsuvliklar nomi bilan ataladi.

**Xo'jaligi.** Tojiklarning azaliy mashg'ulotlaridan biri dehqonchilik hisoblangan. Sug'orma dehqonchilik qilinadigan va lalmikor yerlari bo'lgan. Lalmi yerlarda, asosan, arpa ekilgan. G'andum (bug'doy), arzan (tariq), jo'xori, loviya, no'xat, mosh, zig'ir, lavlagi, piyoz, sabzi, qovoq, qalampir va boshqa ekinlar yetishtirilgan.

Tojiklar chorvachilik bilan ham shug'ullanishgan. Tojikiston Respublikasining barcha hududlarida, ayniqsa, tog' yon bag'irlarida chorvachilik rivojlangan: qoramol, qo'y, echki, parranda, yilqi boqiladi.

Aholi o'rtasida yigiruvchilik va to'quvchilik hunarlar keng tarqalgan. Paxta tolasi, qo'y junidan ip yigirib, gazlama to'qilgan. To'qish uchun urchuq va charx ishlatilgan. Bo'z gazlamani, asosan, erkaklar to'qishgan. Har bir xonadon ayoli o'z oila a'zolari uchun zarur kiyim-kechakni o'zi tikkani. Ayollar uyda o'tirib, do'ppi tikishgan.

So'zana, atlas va duxoba ko'rpa, har xil xalta, ko'ylak, belbog', salla va boshqa uy-ro'zg'or buyumlari, kiyim-kechaklar chiroyli, rang-barang gul, kashtalar bilan bezatilgan. Kelinchaklar yuziga tutiladigan nafis parda-ro'yiband, shuningdek, uchburchak shakldagi guldor tumorchalar nafis va go'zalligi bilan ajralib turadi.

**Uy-joylari.** Tojiklar nafaqat keng va obod vodiy-larda, shu bilan birga tog'larda va tog' etaklarida ham yashashadi. Shuning uchun ham ularning uy-joylari ham turlicha. Tojikistonning shimoliy tekisliklarida joylashgan tojiklar bilan Ko'lob va Hisor atrofidagi yalanglik hamda tog' etaklarida yashayotgan aholining uy-joylari bir-biridan ancha farq qiladi.

Tog'lik tojiklar uylarining hovlilari bo'lmaydi. Uyning devorlari qalin qilib quriladi. Tomi ham ancha baquvvat, og'ir bo'ladi. Aks holda qor ko'chkilari, qattiq shamol uchirib ketishi mumkin bo'lgan. Uning poydevori katta bo'lib, og'ir toshlar terib chiqildi, so'ngra tosh yoki paxsadan devor quriladi. Osti keng, qalin, ust tarafiga torayib boradi. Uyning usti shox-butalar bilan yopilib, qalin tuproq solinadi, so'ngra somon suvoq qilinadi.

Ba'zi yerlarda uyning bir xonasi ikkiga bo'linadi. Birinchi bo'lagining sathi biroz baland qilib quriladi. Bu bo'lakni ro'yi bola deyiladi. Bu yer o'tirib ovqatlanadigan, dam oladigan, yotadigan joy hisoblanadi. Ikkinci past bo'lagida o'choq (mo'risi bilan, ombor-xona va boshqa xo'jalik xonalari bo'ladi. Shuningdek,



*Milliy libosdagi tojik qizi*

tojiklarning Zarafshon vodiysining yuqori qismidagi, Yag'nob daryosi atrofidagi, Qorategindagi uy-joylari ham bir-biridan ancha farq qiladi.

**Kiyim-kechaklari.** Tojik erkaklarining yozgi kiyimi ko'ylak, cholvar, chopon, belbog' va do'ppidan iborat. Erkaklarning ko'ylagi kurtayi kiftak deyiladi. Ayollar ko'ylagiga qaraganda, yenglari torroq va kaltaroq bo'ladi. Ko'krak oldi yumaloq kesiladi. Kurtayi yaxtagi, deb ataladigan xili ham bor. Ishtonlari ayollariniki singari bog'ichli qilinadi. Ust tarafi keng, osti tor, ayollarnikiga nisbatan kaltaroq qilib tikiladi. Ko'ylakni ishtonning ustidan tushirib yurishi. Ustidan belbog' – loki yoki chorusu bog'lanadi. Yozgi chopon uzun, tizzadan tushib turadigan, yenglari qo'llarini yopadigan qilib, satranji deb ataladigan, ko'pincha yo'l-yo'l matodan tikiladi. Qish kunlari qavilgan paxtali to'n va chakmonda yuriladi. Norigza nomli keng cholvor kiyiladi. Oyoqlariga ham teridan tikilgan choriq yoki oshlangan charmdan tayyorlangan mo'KKI kiyilgan. Bosh kiyimlari har joyda har xil bo'ladi. Ko'pincha cho'qqaygan uzun do'ppi kiyib yuriladi.

Tojik ayollarining kiyim-kechagi turli xil bichimda bo'lib, yashash joyiga qarab har xil matodan turli ko'rinishda tikiladi. Ayollar ham ko'ylak, cholvar, qovilgan chopon kiyib, boshlariga ro'mol o'rashadi.

Ayollar cholvorini ozor yoki poyjamo, deb ham atashadi. Chopon, jamo, ro'mol, sobadaqa, deb yuritilgan. Ko'ylak ustidan kamzul kiyish odat tusiga kirgan. Ko'ylaklarning yoqasi qay tarzda tikilganiga qarab bir necha xilga bo'linadi: peshchokak, par-pari, qozoqi, o'zbaki. Qiz bolalar bilan yosh juvonlar yoqasi, yenglarining uchi, etagiga har xil kashta tikilgan ko'ylak kiyishadi. Boshga ro'mol o'raydilar. Keyingi vaqtarda ko'proq toqi do'ppi rusum bo'lgan. Tojik ayollarini kiyadigan do'ppilar orasida Toshkent, Kitob, Samarqand, O'ratega, Xo'jand, Darvoz do'ppilari uchraydi. Bu do'ppilar turli-tuman, ko'proq qizil, zangori, sariq, ko'k pushti, oq iplardan tikilgan. Bir-biridan guli, bezagi bilan farq qiladi. Qorategin va Darvoz tojik ayollarining an'anaviy kiyimlari kurta – ko'ylak, ezor, yoki poychama-ishton, choma-to'n, bosh kiyimlaridan ro'mol(numol), soba, dokadan iborat bo'lgan.

Oyoq kiyimi maxsi, uchli kalish, tufluidan iborat. Sovuq kunlari xilma-xil rangli ipdan qo'lda to'qilgan paypoq – jurob kiyiladi.

Ayollarning bezak-taqinchoqlari, asosan, zirak, uzukdan iborat. Sochlariiga oddiy yoki qora ipdan yasalgan chura – kokil taqishadi. Kokil uchiga xilma-xil rangli ipdan popuk va munchoq osiladi.

**Turkmanlar**, asosan, hozirgi Turkmaniston hududida yashaydi. Turkmanlarning nufuzi taxminan 4,5 mln. kishini tashkil qiladi (2012).

Turkman xalqining shakllanish jarayoni mo'g'ullar istilosidan keyingi davr (XV asrlarda) tugaydi. XV asrga kelib turkman xalqining shakllanish davri nihoyasiga yetgan. Bu davrda turkman etnosiga, ayrim o'g'uz bo'lмаган turkiy qabilalar, jumladan, qipchoqlar ham qisman kelib qo'shilgan. Turkmanlarda urug'larga ajratish saqlanib qolgan. Ulardan eng yiriklari tekellar, yomut (yovut)lar, ersari, salir-



*Milliy libosdagi turkman  
(XX asr boshlari)*

yasi tomonidan bosib olingach, etnik birikishi jarayoni tezlashgan, ammo qabilaviy bo'linish saqlanib qolgan. Yirik qabilalaridan teke turkmanlari Murg'ob havzasasi va Tajanda, yomut (yovut)lar Kaspiy bo'ylarida va Xiva xonligida, ersarilar Amudaryo vodisida, salirlar, sariqlar, go'khan, chovdurlar Xiva xonligida, birgalikda yashashgan. Xo'jalik madaniy jihatidan turkmanlar ko'chmanchi (chorvador) va o'troq dehqon (chumur)larga bo'lingan.

Amudaryo qirg'oqlarida yashovchi ba'zi qabilalar: no'xurli, anauli, murchali, bayatlar qadimdan chorvachilik bilan shug'ullanib kelishgan. XVI – XVIII asr boshlarida turkmanlarning shimoliy hududlarga ko'chib o'tishi ularning hayotida dehqonchilikning rolini oshirdi. Bu yana turkmanlarni o'troq hayotga o'tishiga olib keldi. XVIII asrda dehqonchilik chorvachilik bilan birga turkmanlarning asosiy mashg'ulotiga aylandi. Bu sohalarning xususiyatlari, ya'ni ularning nima bilan shug'ullaninishi tabiiy sharoit, urf-odat va an'analardan kelib chiqib mashhur bo'lishgan.

lar, sariqlar, go'khan va chavdirlar hisoblanadi.

XVIII – XIX asrlargacha turkmanlar yuqorida ta'kidlab o'tilgan yetti yirik qavmga bo'linishni saqlab qolgan edi. Bu toifa, o'z navbatida, to'rt elga bo'lingan: gara, bekovul, ulugdepe va gunesh.

XIX asrning 80-yillarida Turkmaniston Rossiya imperi-

Turkmanlar dunyoga o‘z otlari, ayniqsa, axalteke otlari bilan juda mashhurdir.

**Xo‘jaligi.** Turkmanlar chorvador xalq bo‘lganligi tufayli chorvachilik bilan bog‘liq kasblar bilan ham shug‘ullanishgan. Bularga teri oshlash va jun mahsulotlari, gilamdo‘zlik, palos tayyorlash va kiyim-kechak tikish kirgan.

Turkman gilamlari Markaziy Osiyodan tashqarida ham ko‘chmanchi madaniyatning mashhur namunasi hisoblanadi. Turkman gilamlarining ajralib turishi hamda xalqining badiiy ijodi bu gilamlarda aks ettilganligi uning mashhurligini ta’minlaydi.

Turkman gilamlariga xos bo‘lgan xislatlaridan yana biri shuki, unda samoviy, mifologik va etnik markerlar joy oladi. Ba’zida esa to’shaladigan gilamlarda nishonlar tizimi yoki o‘ziga xos qabilaviy emblemalar joy oladi. Eng ko‘p tarqalgan nishonli kompozitsiya geliviydir. Eng qiyini esa darvoza kompozitsiyasi. Darvoza kompozitsiyasi ko‘p komponentli naqshlar va bir qancha arkalardan iborat. Turkman gilamlari kompozitsiyalarida dekorativ «Ansi» tasvirlarida dunyoning yaratilish tasvirlari o‘z ifodasini topgan.

**Kiyimlari.** Turkman erkaklarining usti-boshida, qadimiy milliy urf-odat, an'analar ta’siri deyarli sezilmaydi. Ammo xotin-qizlarning milliy kiyimlarida farq bor. Bundan tashqari qaysi xalq bilan uzoq vaqt qo‘ni-qo‘schnichilik qilib kelganiga qarab turli turkman qavm odamlarining kiyimida, ichki va tashqi ta’sir yaqqol sezilib turadi. Ayniqsa, Kavkaz xalqlari, eroniylar ta’siri kuchli. Xiva turkmanlari kiyim-kechagida o‘zbek bilan qozoqlarning milliy kiyimi an'analari o‘z ifodasini topgan. Sariq turkmanlari Buxoro vohasi aholisi kiyim-kechaklariga o‘xhash kiyim kiyib yuradilar.

Turkman erkaklarining kiyimi balaq (ishton), yengi uzun ko'ylak, qavilgan chopondan iborat bo'lib, boshiga kerlin yoki kubanka (tepasi, eni ensiz), tel-pak, oyog'iga choriq, cho'ponlari esa yelken kiyadi. Ayollar balaq (uzun ishton), ko'ylak, yengsiz kemzor (kamzul), oldi guldor qavilgan to'n – chabit, boshiga bo'riq, bog'mach, o'ramak xasaba, top on va boshqa bosh kiyimlarini, oyog'iga kovush yoki poshnali poy-abzal kiyadi.

Erkaklarning ko'ylagi oldin yoqasiz tikilgan bo'lsa, endilikda tik yoqali ko'ylak kiyish odat bo'lgan. Lekin turli qavm erkaklari bilan ayollarning usti-boshi, bir-biridan ma'lum darajada yo bichilishi, tikilishi yoki tashqi bezagi bilan birmuncha ajralib turadi. Masalan, erkaklar kiyadigan don, chopon, chakmonlar garchi tikilishi jihatdan hamma yerda bir xil bo'lsa ham, matoning rangi, ko'rinishi, nomi bilan turli-tuman bo'ladi. Ilgari to'nni uzun yenglari qo'lni yopib turadigan qilib tikilar, yon tomonlarini kesib cho'ntak o'rnatilgan. To'nning etagi, yoqasi, cho'ntaklari chetiga tasma, uqa tikilgan. To'nlardan xivali don, girmizi don, astaroma chopon – oqtoy xillari keng tarqalgan edi. Chakmonni tuya junidan qilishgan. Sovuq kunlari chopon bilan to'n yoki po'stin – ichmek kiyishgan. Dengiz yoqasida yashaydigan yomut (yovmut)lar, ilgari kurt bichim to'n kiyishni yoqtirar edilar (kurda-chicha bichimda bo'lgani uchun shunday deyilgan).

**Qozoqlar** – Qozog'izston Respublikasining asosiy aholisi (6,54 mln. kishidan ziyod) hisoblanadi. Shuningdek, bu xalq, asosan, O'zbekistonda (808 ming kishi), Turkmaniston (87 ming kishi), Qirg'iziston (37 ming kishi), Tojikiston va RF (635,9 ming kishi), XXR (1 mln. 115 ming kishi (1990-yillar o'rta-lari), Mo'g'uliston (125 ming kishi) va boshqa mam-lakatlarda yashaydi. Umumiy soni 9,42 mln. kishi.

Rasmiy tili – qozoq tili. Dini islom dini bo'lib, asosiy aholi sunniy musulmon hisoblanadi.

Qozoqlar, asosan, «Janubiy Sibir» tipiga kiradilar (bu tip o'ziga ham mongoloid, ham yevropeoid belgilari oladi). Janubiy Sibir tipi mo'g'ul qiyofa irqqa mansub, ko'zlari qisiq, yuzlari yumaloq, tanasi oq sariq-malla, puchuq burun, panjalari kalta, jussalari mayda, bosh chanog'i braxikefal (dumaloq). Bepoyon dashtliklar, ot-ulov, tuya ularning jonu dili, erkin, ozod, hayot turmush tarzi bilan suyagi qotgan.

Qozoq tili bir qancha qadimiy qabilalar tili hamda boshqa tillar asosida tashkil topgan bo'lib, uch asosiy shevaga bo'linadi: *g'arbiy, shimoli-sharqiy va janubiy*. G'arbiy sheva *alshin qabilalar ittifoqi* tilidan paydo bo'lgan. Shimoli-sharqiy sheva *arg'in, nayman, qiray, qipchoq, qo'ng'iroq* qabilalarining umumiyligi tilidan kelib chiqqan. Hozirgi qozoq adabiy tili ana shu shevaga asoslangan. Nihoyat, janubiy sheva *uysin, jaloyir, qang'li, dulat* va boshqa qabilalar tilidan yuzaga kelgan.

Qozoqlarning qabila-urug'lari tarixan *uch guruhi*-ga *bo'linib*, alohida hududlarda yashaganlar. Katta, o'rta va kichik juz. Bu juzlarga kiruvchi qabilalar va urug'larining har qaysisi Qozog'istonning muayyan hududida juda qadimdan o'rnashib kelgan.

Qozoqlarning qabila, urug'-aymoq bo'lib yashash urf-odati uzoq asr mobaynida davom etgan. Qozoqlar orasida to'ralar alohida o'rin tutgan. Ularning ajdodlari Chingizzon shajarasiga borib taqaladi, deb hisoblanadi. Shuning uchun ular o'zlarini oq suyek (oq suyak)lar deb ataydilar.

Dehqonchilik qozoqlar uchun ikkinchi darajali bir ish, deb hisoblanib kelingan. Lekin Qozog'istonning ayrim yerlari, chunonchi Yettisuvda, Qoratov yon bag'irlarida, Shuy, Talas, Sirdaryo sohillari bo'ylab, Irtish daryosining yuqori oqimi atrofida Markaziy Qozog'istonning ayrim yerlari, jumladan, Qarqarali tu-

manida yashayotgan aholi qadim zamonlardan buyon dehqonchilik qilib kelgan.

Qozoq ahli ovchilik va baliqchilik bilan ham qisman shug'ullangan. Ko'proq tulki ovlashgan. Tulki terisidan bosh kiyim tikishgan. Savdo-sotiq olib borilgan. Juda qadimdan hududda sayga ovlashgan. Qator qilib qopqon ichiga qamab tutishgan. Ba'zan ot bilan quvib yurib charchagan hayvonni so'yil bilan urib ovlashgan.

Baliqchilik bilan daryo va ko'llar atrofida yashayotgan aholi shug'ullangan.

XIX asrda qozoqlar uchun kichik oila xos bo'lib, u ota-onva voyaga yetmagan bolalardan tashkil topgan. Mazkur oilada patriarchal munosabatlari qaror topgan bo'lib, xotin ustidan eri, kichiklar ustidan kattalar hukmronlik qilar edi. Oila boshlig'i – erkak kishi atrofida oilaning barcha a'zolari yuziat va odat qoidalariga amal qilib, jipslashib yashar edilar. Bu munosabatlар qozoqlarning oilaviy munosabatlarini tartibga solib turar edi.

**Qirg'izlar.** Qirg'izlarning asosiy qismi Tyanshan va Issiqko'l oralig'ini makon tutib, bu yerdagи bir necha turkiy qabilalar bilan birlashtirilgan. Qirg'iz xalqi tarkibiga, shuningdek, Yettisuv va Movarounnahrning turkiy qabilalari, jumladan qarluqlar va uyg'urlar, keyinchalik mo'g'ul qabilalari qo'shilgan. Bu davrda qirg'izlarning tipi bo'yicha mo'g'uliylashishi va tili bo'yicha turkiylashish jarayoni nihoyasiga yetgan.

Mo'g'ullar qirg'izlarning shakllanishida ikkinchi qatlam hisoblanadi. Bu qirg'izlarda bugungi kunda mo'g'ul tilli urug'-qabilaviy nomlarning saqlanishi bilan tasdiqlanadi (mo'g'ul, baarin, kereit, markit va boshqalar).

Yenisey-Irtish daryo oralig'ida qimak (qimoq) qirg'iz qabilalari va ularga yaqin qarindosh bolgan sharqiy qipchoq qabilalari uchunchi asosiy guruh hi-

soblanadi. Mazkur guruhning harakati XIII asrda mo‘g‘ullar bosqiniga qadar mavjud mahalliy aholining qoldiqlari va kelgindi mo‘g‘ullarning siqib chiqarilishi yoki singib ketishiga sabab bo‘ldi. Aynan qimoq-qipchoq qabilalari so‘nggi ikki massiv asosida xalq sifatida Tyanshan qirg‘izlarining qiyofasini belgilab berdi.

Qirg‘izlarda dehqonchilik Farg‘ona pasttekisligi va uning atroflaridagi yerlarda azaldan rivojlanib kelgan. Issiqko‘l atrofi, Shuy hamda Talas daryolari, shuningdek, boshqa yerlarda ham dehqonchilik bilan qadimdan shug‘ullanib kelishgan. Qolgan yerlarda dehqonchilik yaxshi rivojlanmagan. Asosan sug‘orib dehqonchilik qilishgan. Ariqlar, novlar, to‘g‘onlar qurib suv keltirishgan. Lalmikor yerlardan ham foydalanishgan.

Qirg‘izlar qadimdan alohida, bir-biridan ancha olisda, 2 – 3 oila bo‘lib yashashgan. Chorva mollarini yaylovlarga olib chiqib ketib, har bir xo‘jalik ajralgan holda kun kechirishgan. Sovuq tushib, yog‘ingarchilik boshlanadigan vaqtlargaga kelib, oldingi qishloq joylariiga qaytishgan. Qarindosh-urug‘lar bir ovul bo‘lib yashashgan. Ovullar orasi bir chaqirimgacha borgan.

Qirg‘izlarning hammasi deyarli o‘tovlarda yashashni ma’qul ko‘rgan. O‘tovni qirg‘izlar bo‘z uy, qora uy yoki qirg‘iz uy deyishadi.

**Kiyim-kechaklari.** Qirg‘izlarning ust-boshi nihoyatda xilma-xil bo‘lib, o‘ziga xos milliy jihatlari bilan keskin ajralib turadi.

Erkaklarning kiyimi, asosan, ishton, ko‘ylak, to‘n, chopon, bosh kiyimi, poyabzaldan iborat. Ko‘ylagi ochiq ko‘ylak xilda bo‘lib, bichilishi va tikilishi jihatdan to‘nga o‘xshaydi. Keyinchalik oldi faqat ko‘kragigacha ochiq tik yoqali ko‘ylak kiyilgan. Bu qozon tararlari ko‘ylagini eslatadi. Ko‘pgina qirg‘iz erkaklari boshida oppoq namat telpagini ko‘rish mumkin. Erkaklar ishtonni charmdan tikilgan. Ishtonni turli joyda

har xil nom bilan atashgan: chalbar, qanday, jargaq shim.

Qirg'iz xalqi kiyim-kechagidagi milliy an'analar, asosan, ayollar ust-boshida yaxshi saqlanib kelmoqda. Hozirgi ayollar ko'ylagi (ko'ynuk) bichimi bo'yicha avvalgilardan keskin farq qiladi: ancha kalta, ochiq yoqali, ba'zan tik yoqali, burma, ko'proq, qizil, pushti rangli gazlamalardan tikiladi. Ko'ylak ustidan har xil gul, bezak solib tikilgan o'ngur kiyib olishadi.

Xotin-qizlar albatta nimcha, kamzul kiyganlar (poyjen, kamzul, ba'zi yerlarda kiyamzur deb ham ataladi). Bu yoqasiz, o'mizi keng yoki tik yoqali qilib tikiladi. Ayrim hollarda kumush tugmachalar qadashtadi.

Qirg'iz ayollari, xususan, janubiy tumanlarida yashayotgan xotin-qizlar ko'ylak ustidan belga taxlangan guldor ro'mol yoki keng tasma (beldik) yoki bezkur bog'lab olishadi. Qirg'izlarning oyoq kiyimlari orasida echki tivitidan ishlangan namat etik ayniqsa diqqatga sazovordir. Undan boshqa choqoy, deb ataladigan pastak etigi ham bor. Keksalar poshnasiz – mazsi (maxsi) ni kalish bilan kiyib yuradilar. Etik, maxsi ichidan namat baypoq, guldor jorob kiyadilar.

**Taomlari.** Qirg'izlar mavsumga qarab xilma-xil rejimda ovqatlanishga odatlanishgan. Lekin taomlarining xili unchalik ko'p emas. Ilgarilari un va don ko'pincha yetishmasligi (dehqonchilik bilan kam shug'ullanganliklari) sababli, asosan, sut va go'sht mahsulotlari bilan tirikchilik qilishgan. Kun issiq kezlari sut va sut mahsulotlarini ko'p iste'mol qilishgan. Qishda esa un, don, shuningdek, pishloq, sariyog', sho'rtak suzma ishlatishgan.

Ko'pchilikning kundalik taomi har xil suyuq oshdan iborat bo'lgan. Qirg'iz tilida aytganda maqsim bilan jarma ichishgan. Maqsim – suli talqoni yoki tuyilgan arpa unidir. Jarma tayyorlash uchun arpa yoki

bug'doyni yog'och kelida tuyib, qaynab turgan suvgan solingan. Atala sovuganidan keyin ozgina solod – o't, un qo'shilgan. Arpa, bug'doy, makkajo'xori, ayrim hollarda choy ichilgan. Oshqovoqdan sho'rva, chuchvara pishirilgan yoki o'zini qaynatib dimlab yegilgan. Tandirda non yopilib, buursoq pishirilgan, kurd (suzma), pishloq tayyorlangan. Kul qo'rida kumuch, choymo tokoch, jupqa, non, qattama (qatlama), toytokoch, quymoq, kesma osh, sirguruch va boshqa taomlar pishirishgan. Sho'rva, beshmarmoq, quuroq, quurma, kuygan o'pka, olobo, kulchatoy taomlari ham bor. So'nggi vaqtda jarkop, manti, lag'mon urf bo'lmoqda.

**Markaziy Osiyo arablari** – mintaqa davlatlarida yashovchi, o'zlarini arab, deb yurituvchi kichik xalq hisoblanadi. Ajdodlari VII – XIV asrlar davomida Markaziy Osipyoga kelishgan. Ular ko'pgina hollarda o'zlarini, o'zbek, turkman va tojik millati tarkibiga



*Milliy libosdagi arab qizi*

kiritishadi. Markaziy Osiyo arablarining aksariyati *Zarafshon bo'ylari, Samarqand shahri atroflaridan tortib, Qorako'l sohiligacha bo'lgan oraliqdagi shahar va qishloqlarda, shuningdek, Sherobod, Surxon, Kofirnixon, Vaxsh, Qizilsuv, Jilg'a daryolarigacha bo'lgan yerlarda yashashadi*. Farg'ona vodiysining shimoli-sharqiy tomonida ham arablarning bir guruhi yashaydi. Ular Buxoro, Qarshi, Xo'jand, Kattaqo'rg'on kabi yirik shaharlarda, Koson, Nurota, Sherobod va boshqa tumanlarda ham istiqomat qilishadi. Bir so'z bilan aytganda, arablar butun O'zbekiston, Turkmaniston va Tojikiston bo'ylab yoyilib ketgan. Ular, asosan, ikki guruuhga bo'linadi: shayboniy va sanoniy. Umuman, bularning hammasini qo'shib, Markaziy Osiyo arablari deyish mumkin.

Markaziy Osiyo arablarining aksariyati o'z ona tillarini unutishgan. Hozirda ular o'zbek yoki tojik tilida gaplashadi. Ular orasida, asosan, ikki sheva: Buxoro va Qashqadaryo shevasi keng tarqalgan. Arab tili ikkinchi til sifatida ayrim qishloqlarda hozirgacha qo'llanib kelinmoqda. Ularning shevalarida mahalliy aholi tilining ta'siri juda kuchli.

Arablarning o'zları ota-bobolari arab mamlakatidan emas, balki Afg'onistonning shimolidan kelib joylashgan, deb hisoblaydi. Qisman Balxdan (*Sanoniy qabilasining odamlari*), qisman Axchi, Andxo'ydan (*shayboniylar*). Qashqadaryo, Samarqand, Kattaqo'rg'on arablarinig aytishicha, ularning avlod-ajdodlarini Amir Temur olib kelgan, boshqalari esa, arablar Mavarounnahr yerlarini istilo qilgan davrdan ancha burun kelishgan, deb hisoblashadi. O'zbekistonda arablar nomi bilan bog'liq ko'plab joy nomlari mavjud.

**Lo'lilar yoki jo'gilar** – ko'chmanchi xalq bo'lib, jahondagi barcha mamlakatlarda tarqoq holda yashaydi. Lo'lilarning ikki asosiy guruhi: Yevropa lo'lilari va Markaziy Osiyo lo'lilari bor. Lo'lilar katta yevropoid

irqining hind o'rta dengiz guruhiga kirib, ularning ko'plab lajhalarini mavjud.

Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, lo'lilarning dastlabki guruhlari milodning boshlarida – V – VII asrlarda va keyingi davrlarda Shimoliy Hindistonda tarqala boshlagan. Ularning ayrim guruhlari Hindistondan Belujiston – Afg'oniston – Eron – Kavkaz – Turkiya orqali Yunonistonga, ikkinchi yo'l Hindiston – Eron orqali Markaziy Osiyoga tarqalgan.

Markaziy Osiyo lo'lilari o'zlarini mo'g'at, tub aholi ularni lo'li, jo'gi, mazang deb atashadi. Azaldan Samarqand, Buxoro, Toshkent, Farg'ona, Qo'qon, Qarshi kabi shaharlar atroflari va ularga tutash qishloqlarda yashaydilar. Ular o'zbek va tojik tillarida so'zlashadilar, ammo tojik tili ularning turmushida asosiy til hisoblanadi. Markaziy Osiyo lo'lilari, mo'g'at yoki arabcha, deb ataladigan o'zlarining maxsus so'zlashuv tiliga ham ega. Markaziy Osiyo lo'lilari, asosan, o'ziga xos sheva bilan tojik tilida so'zlashadilar. Ya'ni ularda argo (o'ziga xos jargon) ham bor. Ammo Tojikistonning Dushanbe, Hisor, Ko'lob, Qo'rg'on tepe kabi tumanlarida, shuningdek, O'zbekistonning Buxoro viloyatida istiqomat qilayotgan lo'lilarning ba'zilari o'zbek tilida gaplashadi.

**Buxoro yahudiylari** – Markaziy Osiyo yahudiy-lari (o'zlarini yegudim, idn, israel, bani israel, yahudiy-tojik, deb atashadi) Markaziy Osioning turli shaharlarida yashovchi etnik guruh. Buxoro yahudiylari atamasi birinchi marta XVI asrda paydo bo'lgan. Ularning o'tmishdagi umumiyligi soni haqida aniq ma'lumot yo'q. Ingliz missioneri Volf amir Nasrulloxon hukmronligi davrida (1826 – 1860) Buxoroda 10 ming yahudiy yashaganligini ko'rsatib o'tgan. Aholini ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra, 1926-yilda O'zbekisonda 18172, 1982-yilda esa 28369, shu jumladan, Buxoroda 4200 Buxoro yahudiylari yashagan.

O'zbekistonda Buxoro yahudiylari, asosan, Buxoro, Samarqand, Qo'qon, Xatirchi, Shahrisabz, Andijon, Marg'ilon, Toshkent shaharlarida yashaganlar. Ularning tili yahudiy-tojik tili bo'lib, *tojik tilining janubiy guruhiga kiradi*.

Buxoro yahudiylarining Markaziy Osiyoda qachon paydo bo'lganlari munozarali. Markaziy Osiyo qadimgi afsonalariga ko'ra, yahudiylarning ajdodlari Bobildan kelishgan. Ayrim ma'lumotlarda mo'g'ullar istilosi davrida yahudiylarning bir guruhi Erondan Shahrisabz, Buxoro, Samarqandga ko'chib kelgan va Markaziy Osiyoning boshqa hududlarida o'rashgan, deb ta'kidlanadi.

Marg'ilon, Toshkent va boshqa shaharlarga yahudiylar XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida kelishgan. Farg'ona shahriga ilk bor XX asrda ko'chib o'tishgan. Keyinchalik mahalliy yahudiylar – yahudiyxon mahalliy nomi bilan yuritilgan.

**Tatarlar.** Tatarlarning asosiy qismi Tatariston Respublikasida yashashadi. Tatarlar Rossiya Federasiyasing Boshqirdiston, Mari Respublikasi, Mordoviya, Udmurtiston, Chuvashiston respublikalari, Nijniy Novgorod, Kirov, Penza va boshqa viloyatlarida ham yashaydi. Shuningdek, turkiy tilda so'zlashuvchi Sibir (Sibir tatarlari), Qrim (Qrim tatarlari) va boshqa qavmlarni ham tatarlar deb atashadi. Turkiy tillardan biri – tatar tilida so'zlashadi. Dindorlari – sunniy musulmonlar. Dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanishadi.

Birinchi marta «tatar» etnonimi VI – IX asrlarda Baykal ko'lining janubi-sharqiy sohillarida yashovchi ko'chmanchi mo'g'ul qabilalari orasida uchragan. Mo'g'ullar istilosi davrida (XIII asr)da «tatar» nomi Yevropaga ma'lum bo'lgan. Turkiy tilli qabilalarning Ural yoni va Volga bo'yiga kirib borishi milodiy III – IV asrlarga to'g'ri kelib, xunnlar va boshqa

qabilalarning Sharqiy Yevropaga istilosiga davri bilan bog'liq. Tatarlar ugor-fin xalqlari bilan aralashib ketgan. V – VII asrlarda turkiy qabilalar Turk xoqonligi bosqini munosabati bilan G'arbiy Sibir, Volga bo'yisi va Ural yoni mintaqalariga qayta kirib kelishgan. VII–VIII asrlarda Azov bo'yidan Volga bo'yiga bulg'orlar kelib, turkiylar va mahalliy ugor-finlar bilan birga Volga-Kama Bulg'oriyasi davlatini tuzganlar. XV – XVI asrlardagi davlatlar (*Qozon, Astraxon, Qrim, Sibir va boshqa xonliklar*) davrida tatarlarning alohida guruhlari – O'rta Volga bo'yisi va Ural yoni (*Qozon tatarlari, misharlar*), Astraxon tatarlari, Sibir tatarlari, Qrim tatarlari va boshqa tatarlar shakllana boshlagan.

**Koreyslar.** Koreyslar XIX asr o'rtalaridan Rossiya shahar va qishloqlariga ko'chib o'ta boshlashgan. Qashshoqlik, og'ir hayotga barham bera olmagan kambag'al koreyslar tirikchilik uchun qulay shart-sharoitlar qidirib o'zga yurtlarga, birinchi navbatda Xitoy va Rossiyaga o'z oilalari bilan yoki yolg'iz o'zlari qochib



*Koreys ayollari sholi dalasida*

borganlar. 1920-yilgacha vaqtı-vaqtı bilan koreyslar sovetlar mamlakatiga ko'chib o'tishgan. XX asrning 20-yillarri oxiriga kelib sobiq ittifoq hududida yashayotgan koreylarning ko'pchiligi shu davlat fuqaroligiga o'tdilar.

O'zbekistonda koreyslar ko'proq Toshkent viloyatining Bo'ka, Piskent, To'ytepə, Oqqo'rg'on, Olimkent, Ohangaron kabi o'nlab shahar va ular atrofidagi qishloqlarda joylashgan. Koreylarning boshqa viloyat hududlarida ham uchratish mumkin. Xorazm, Samarqand, Andijon viloyati, Qoraqalpog'iston Respublikasida ham yashashadi.

Qozog'istonga ko'chib o'tgan koreys oilalari, asosan, Qizil O'rda va Alma-Ati viloyatlarida o'rnashgan. Koreylarning aksariyati 2 til (o'z ona tili va rus tili) da gaplashishadi, ba'zilari esa 3 tilni, ya'ni mahalliy tilni ham bilishadi.

1937 – 1939-yillarda sovet tuzumi zo'ravonlik bilan Rossiyaning Uzoq Sharq o'lkasidan 74500 koreyslarni O'zbekiston hududiga ko'chirdi. Bunga asosiy sabab Sovet ittifoqi bilan Yaponiya o'rtasidagi munosabatlarning keskinlashuvi bo'lgan. O'sha davrda Koreya yarim oroli Yaponiya tomonidan bosib olingan bo'lib, tub koreys aholisi bilan Uzoq Sharq hududidagi koreylarning etnik kelib chiqishi bir edi. O'zbek xalqi koreylarga nisbatan o'zining mehmondo'stligi va bag'ri kengligini ko'rsatdi. Ularni uy-joy, ish bilan ta'minladi, ularga maishiy xizmat, madaniy o'choqlar yaratdi, bolalarining o'qishi, ta'lim olishi uchun maktablar ochdi.

**Uyg'urlar.** Hozirgi paytda Markaziy Osiyo aholisiga aylanib qolgan uyg'urlar Qozog'istonda, Qirg'izistonda, O'zbekistonda, qisman Turkmaniston va Tojikistonda ham istiqomat qilishadi.

Qozog'istonda uyg'urlar butun bir katta tuman ni egallagan. Issiq Shilik, Shunja, Panfilov shahri



*Milliy libosdagı  
uyg'ur qızı*

hududlarida, Norinko'l, Ili tumanlarida, Alma-Atida va Shimkent shaharlari da ham ko'plab uyg'urlar yashaydi. Qirg'izistonda Bishkek, To'qmoq, O'sh shaharlarida, shuningdek, ayrim qishloqlarda ham uyg'ur oilalari, Turkmanistonning Bayramali, Mari tumanlarida va Tojikistonning ayrim hududlarida yashashadi. O'zbekistonda uyg'urlar Farg'ona vodisining Andijon shahri va Asaka, Izboskan, Paxtaobod tumanlarida joylashgan.

1921-yilgacha uyg'urlar qayerda yashayotganliklariga qarab har xil nom bilan atalgan: qoshg'arlik, turfonlik (iduqutlik), oq suyaklik, yarkanlik, andijonlik va hokazo. 1921-yilda uyg'urlarning Toshkentda bo'lib o'tgan qurultoyida barcha uyg'urlarni yagona nom bilan atashga qaror qilindi.

Qoshg'aristonidan Ili vodisiga ko'chirilgan va davlat yerlarida dehqonchilik bilan shug'ullana boshlagan uyg'urlar taranchi deb ataladigan bo'ladi. «Taran» so'zi omoch, shudgor ma'nolarini anglatadi. Shunday qilib, Yettisuv uyg'urlari taranchilar, Farg'ona vodisi yerlaridagi uyg'urlar esa qoshg'arliklar nomini oлади.

Markaziy Osiyoroda ancha davrdan buyon yashayotgan hozirgi uyg'urlar, XVIII – XIX asrlarda va XX asr boshida Xitoyning Sinszyan viloyati, qadimgi Jung'oriston hamda Qoshg'ariston davlatlari yerlaridan Xitoy, Manjur quvg'inidan qochib kelib, mahalliy aholi, ya'ni o'zbeklar, qozoqlar, qirg'izlar bilan



*Milliy libosdagi dungan qizlari*

qo'shilib, chatishib ketgan yangi uyg'ur avlodlari hisoblanadi.

**Dunganlar.** O'zlarini loxuey, xuey yoki chjunyanjin, deb atashib, asosan, Markaziy Osiyoda yashaydilar. Qozog'iston, Qirg'iziston, qisman O'zbekistonda ham yashaydi. Dungan tilida gaplashadi. Dunganlar Xitoydagи xuey xalqi bilan etnogenetik jihatdan yaqindir. Dunganlar rus grafikasiga asoslangan o'z yozuviga ega. Islomning sunna va shia mazhablariga e'tiqod qilishadi. Dungan ajdodolarining kelib chiqishi fanda hali uzil-kesil hal qilingan emas. Ba'zi olimlar dunganlar arablar bilan aralashgan xitoylar, ba'zililar esa Xitoya kelib o'rashib qolgan fors, turk qabilalari, deb hisoblaydilar. «Dungan» nomi Sinszyan viloyatida XVIII asrda paydo bo'lib, Xitoyning ichki viloyatlaridan ko'chib kelib, o'troqlashib qolgan harbiy xizmatchilar, savdogarlar, hunarmandlar va boshqalarni ifodalagan (ba'zan «Dungan»ning etimologi-

yasini tungan – hammasi Gansudan yoki duvinuanjin – «Xitoyda yashovchilar» deb talqin etadilar). Xitoyning Gansu, Shensi, Lanjou va boshqa viloyatlarida yashaganlar. 1861 – 1878-yillarda Xitoyning shimoli-g‘arbida Sin sulolasi zulmiga qarshi dehqonlar qo‘zg‘oloni bo‘lib o‘tdi. Qo‘zg‘olonda dunganlar va boshqa xalqlarning kambag‘al tabaqasi asosiy kuch edi. Qo‘zg‘olon yengildi, natijada 1877 – 1878, 1881 – 1884-yillarda dunganlar to‘da-to‘da bo‘lib Qozog‘iston va Qirg‘iziston yerlariga qochib o‘ta boshladi va shu yerlarga o‘rnashib qoldi. XX asr boshlarida dunganlar xalq bo‘lib shakllandı, tili, madaniyati, adabiyoti va o‘z matbuotiga ega bo‘ldi. Dunganlar, asosan, dehqonchilik (bug‘doy, sholi, jo‘xori, qand lavlagi, tamaki va hokazo ), bog‘dorchilik hamda hunarmandchilik bilan shug‘ullanadi.

Xitoy shevasida gaplashuvchi dunganlar haqida olimlar o‘rtasida turli fikrlar bor. Ba’zi tadqiqotchilar dunganlar turkiy qabilalar – xunnlar, turk-tukyu, uyg‘urlarning avlodlari deb hisoblasalar, boshqalari esa ularni mo‘g‘ul istilosi davrida Markaziy Osiyodan Xitoya olib ketilgan mahalliy xalqlarning bola-chaqalari, deb uqtiradilar. Uchinchi guruh olimlar fikricha, dunganlar musulmon dinini qabul qilgan xitoylik tub xalq. Ko‘pchilik, keyingi fikrga qo‘silmoqda.

Xitoy olimlari bu xususda o‘zgacha fikrda. Ular ning dalil isbotiga qaraganda dunganlar bir vaqtlar Xitoya Markaziy Osiyo taraflaridan kelib qolgan va mahalliy xitoy aholisining tili, madaniyati, turmush tarzini singdirib olgan turkiy, arab yoki eroniy aholi.

Ular, asosan, uch guruh bo‘lib kelishgan. Har qaysi guruh Xitoyning ma’lum bir viloyatidan, O‘sh, Qora-ko‘l va Soquluq atrofidagi yerlarda o‘rnashgan. Dunganlarning ko‘pchiliginı Xitoyning Gansu viloyatidan ko‘chib kelgan uyg‘urlar tashkil etadi. Jambul viloya-

tining Qorakunuz va Sho'rtepa qishloqlarida yashayotgan dunganlar, asosan, Shansi viloyatidan kelgan. Qolganlari Shansi, Lanchjou, Inchuan va Xitoyning bu shahar qishloqlariga qo'shni yerlardan chiqqan dunganlardir.

## 29-§. Janubiy Osiyo xalqlari

Janubiy Osiyo tabiiy-geografik va tarixiy-etnografik jihatdan ancha murakkab va xilma-xil. Mazzkur mintaqqa Hindiston yarim oroli shimolida Himolay-Hindiqush tog' tizmasi bilan o'ralgan, janubda Hind okeani suvlari bilan yuvilgan, g'arbiy qismida Dekan yassi tog'lari Konkana vodiysi sohili bo'yiga cho'zilgan, sersuv Hind va Ganga daryolaridan paydo bo'lgan serhosil vodiyyidan iborat o'ziga xos tabiiy iqlimli hududni tashkil qiladi. Katxiyavar yarim orolidan shimoli-sharq tomon cho'zilgan Aravalli tog' tizmlarining g'arbida joylashgan bepoyon suvsiz Tor yoki Buyuk Hind sahrosi, Rajaston dashti va Sind tekisliklari ham o'ziga xos tabiat manzarasini yaratgan. Agar Assam va Himolay tog'ining janubiy etaklarida jahonning eng sernam vohasi joylashgan bo'lsa, o'sha kenglikdagi Sind dashtlarida ayrim yillari bir tomchi ham yomg'ir yog'maydi. Ammo Brahmaputra, Hind, Ganga kabi buyuk Osiyo daryolari bilan birga Jamna, Maxanadi, Kistna, Godovori nomli yirik daryolarning oqishi bu yerda sug'orma dehqonchilik xo'jaligi uchun qulay sharoit tug'dirgan. Eng qurg'oq hind tekisliklarida o'simlik dunyosi ancha qashshoq va siyrak, namli tropik iqlimli hududlarda esa har xil daraxtli o'rmonlar uchraydi.

2012-yilgi ma'lumotlarga binoan, Janubiy Osiyoning 4,5 mln. km<sup>2</sup> hududida 1 660 mln. dan ortiq aholi yashagan. Shundan eng ko'pi Hindistonda : 1 258

mln.), Pokistonda (193,93 mln.), Bangladeshda (152,4 mln.), Shri-Lanka (21 mln.) va Nepalda (31 mln.) istiqomat qiladi. Eng kam aholi Butanda (750 ming) va Maldiv Respublikasida (324 ming) joylashgan.

Antropologik jihatdan janubiy osiyoliklar, asosan, katta yevropoid irqiga mansub bo'lib, o'ziga xos janubiy tarmoqni tashkil qiladi. Ular uchun qora qo'ng'i-roq sochlar, qo'y ko'zlar, qirra burun, ancha cho'zinchoq yuz xarakterli belgilardir. Bu yerda negroid va mongoloid irqlari bilan aralash tiplarni, shimal va shimoli-sharqda mongoloid, Janubiy Hindiston va Shri-Lankada veddoid, dravid va hatto avstraloid-negritos tiplarini ham uchratish mumkin. Past bo'yli pigmey tipidagi andamanliklar jismoniy tuzilishi bilan ajralib turadi. Umuman, hozirgi etnoslarda veddoid belgilari sezilarli darajada.

Janubiy Osiyoning lingvistik tuzilishi nihoyatda murakkab, bu yerda eng ko'p tillar, yuzlab shevalar uchraydi. Keyingi klassifikatsiyaga binoan Janubiy Osiyoda 180 dan ortiq til turkumi, faqat Hindistonning o'zida esa ba'zi ma'lumotlarga ko'ra 1652 til va shevalar mavjud. Qolgan aholi dravid, tamil, munda, kam sonli monkxmer va tibet-birma tillarida so'zlaydigan xalqlar, eroniy va dariy til vakillaridir. Hozirgi davrda hind-yevropa tillaridan rasmiy tillar Hindiston Respublikasida hindi, Pokistonda urdu, Bangladeshda bengali, Nepalda nepali, Shri-Lankada singali, ayrim shtatlarda mustaqil shevalar, eroniy tillaridan pushtu, balujiy, Kashmirda ko'pchilik aholi dariy tilda so'zlashadi. Ingliz tili Hindiston Respublikasining ikkinchi rasmiy tilidir.

Janubiy Osiyoga mustamlakachilar – portugallar, gollandlar, inglizlar XV – XVI asrlardan boshlab kela boshlaiydi. 200 yillik mustamlakachilik mahalliy xalqlarning etnik tuzilishiga ta'sir qilmagan bo'lsa da, int'istamlakachilar o'z hukmronligini to'la o'rnata

bilgan, ma'muriy-siyosiy jihatdan ancha o'zgarishlar kiritgan, tub aholining sotsial-iqtisodiy va madaniy hayotida juda fojiali salbiy iz qoldirgan. Ozodlik, mustaqillik uchun ko'tarilgan ko'p qo'zg'olonlar shafqatsizlik bilan bostirilgan. Faqat 1947-yilda hindistonliklarning qahramonona ozodlik kurashi tufayli mustaqillik qo'lga kiritilgan. Shri-Lanka (ilgarigi Seylon) ni XVI asrda Portugaliya bosib olgan. XVII asr o'rta larida Gollandiya tasarrufiga o'tgan. XVIII asr oxirlarida esa Buyuk Britaniya mustamlakasiga aylan gan. 1948-yili Shri-Lanka mustaqillikka erishadi, ammo iqtisodiy va qisman siyosiy jihatdan Angliya ta'sirida qoladi.

Har bir xalqning shakllanishi jarayonida o'zi ga xos xususiyatlar paydo bo'ladi, ammo muayyan hududda va tabiiy-iqlim sharoitda uzoq davr birga yashab kelgan turli xalq va elatlar ko'p asrlik iqtisodiy va madaniy munosabatlar tufayli xo'jaligi va madaniyatida umumiy belgilarini ham shakllantirib kelganlar.

Janubiy Osiyodagi eng yirik davlatlardan biri bu Hindiston bo'lib, u shimolda Himolay tog'lari, g'arbdan Arabiston dengizi, sharqda Bengaliya qo'lltig'i bilan o'ralgan. Hindiston ma'muriy jihatdan 28 shtat (state) va 7 ittifoq hudud (territory)ga bo'linadi. Mazzkur mamlakatda turli tillarda so'zlashuvchi bir necha yuz millat, elat va qabilalar yashaydi. Aholisining 72 foizi hind-yevropa tillarining hind-oriy tillari guruvida so'zlashuvchi xalqlar – hindustoniylar, marathlar, bengallar, bixarlar, gujarotlar, oriyalar, rajastxonilar, panjobilar tashkil etadi. Kashmirilar dari til guruhiga kiradi. Hindiston janubida, asosan, dravid tillarida, shimoliy va shimoli-sharqida tibet-birma tillarida so'zlashuvchi xalqlar yashaydi. Shahar aholisi 30 foizni tashkil qiladi.

Mamlakat aholisining 80 foizi hinduiylik diniga, 14 foizi islomga, 2,4 foizi xristianlikka va 2 foizi sikhizmga e'tiqod qiladi. Hindistonning Mumbay (13 073 926), Dehli (11904217) Bangalor (5 281 927), Kalkutta (5 080 019), Chennay (4 376 400), Ahmadobod (3 819 497), Haydarobod (3 665 106) kabi shaharlari yirik shaharlar hisoblanadi.

Hindiston agrar-industrial mamlakat bo'lib, qishloq xo'jaligida mayda dehqon xo'jaliklari ustunlik qiladi. Mamlakatda 8 mln. dan ortiq fermer xo'jaligi bor. Qishloq xo'jaligi dehqonchilikka ixtisoslashgan. Asosiy ekinlari – sholi, bug'doy, tariq, dukkakli don ekinlari va moyli o'simliklar yetishtiriladi. Hindiston shakarqamish, yeryong'oq, choy, jut, kanakunjut, paxta yetishtirish bo'yicha dunyoda oldingi o'rinalarda turadi. Shuningdek, kauchuk, kofe, makkajo'xori, tamaki, qalampir, ziravorlar (murch, kardamon, mushk, dolchin va hokazo) yetishtiriladi. Hindistonda kokos palmasi, banan, sitrus va boshqa mevali daraxtlar ham o'stiriladi. Chorvachilida qoramol, qo'y, echki, cho'chqa, yilqi, tuya, parranda boqiladi. Pillachilik rivojlangan. Baliq va dengiz hayvonlari ovlanadi. O'rmon xo'jaligida qimmatbaho yog'och tayyorlanadi.

Hindistonda hosil yiliga ikki marta olinadi. Shuning uchun qishloq xo'jalik yili ikki mavsumga ajragan: iyun-oktabr oylari yozgi (harif) va oktabr-aprel qishki (rabi), Harif mavsumida, asosan, sholi, suli, makka va hokazo, rabi mavsumida esa bug'doy, arpa, dukkakli va yog' ekinlari ekiladi.

Uy hayvonlari (qoramol) saqlashda Hindiston jahonda birinchi o'rinni egallaydi. Bu hol mamlakat farovonligi bilan bog'liq emas, balki diniy e'tiqod bilan belgilanadi. Chunki induizm dinida jonivorlarni o'ldirish gunoh hisoblanganligi tufayli molni so'yish man qilingan. Faqat musulmon davlatlar – Pokis-

ton va Bangladeshda mol go'shti ishlatiladi. Maxsus chorva xo'jaligi G'arbiy Pokistonning ko'chmanchi aholida, Hindistonning Maysur shtatida mavjud. Bu yerda, asosan, hayvon kuchi sifatida va sut mahsulotlari ishlab chiqarish uchun qoramol, echki, qo'y, cho'chqa, Pokistonning g'arbiy hududlarida esa tuyu va ot boqiladi. Janubiy Osiyoning ayrim hududlari da og'ir ishlarda, masalan, yog'och tayyorlashda, fil kuchidan foydalaniladi. Hindistonning shimoliy va markaziy qismida joylashgan, tog' etaklarida, Nepal va Shri-Lankanining janubidagi tog'li joylarida primitiv dehqonchilik bilan bir qatorda chorvachilik, ovchilik, daryo va dengiz sohillarida baliqchilik, o'rmon va to'qayzorlarda yig'im-terimchilik bilan kun kechirayotgan xo'jaliklar ham ko'p uchraydi. Mintaqaning shimoliy qismida choy va jut plantatsiyalari ko'proq, markaziy vohalarida paxta, Janubiy Dekon



*Hindlarning milliy nikox to'y macrosimi*

va Shri-Lankada kofe, kauchuk va kokos plantatsiyalari muhim sohaga aylangan.

Butun Janubiy Osiyoda qadimdan hunarmandchilik nihoyatda rivojlangan. Ayniqsa, turli nozik matolar to'qish (mashhur kashmir ro'mollari, hind to'qima mahsulotlari), metall, yog'och va suyakdan badiiy buyumlar yasash, asl tosh va metallardan yaratilgan ajoyib bezaklar, turli xildagi va rang-barang naqshli, o'ymakorli mahsulotlari ishlab chiqarish ancha o'sgan edi. Ammo ko'p yil davom etgan ingliz mustamlakachiligi hunarmandchilikka ham katta putur yetkazdi. Jahonda ip-gazlama ishlab chiqarishda birinchi o'rinda turgan mamlakatlardan hisoblangan Hindiston XIX asrlardayoq Angliya fabrikantlarining mahsulotlari bilan mamlakatning to'ldirib tashlanishi natijasida mahalliy to'qimachilik inqirozga uchrab, yuz minglab hind to'quvchilari kundalik tirikchiligidan mahrum bo'lib o'limga hukm qilingan edilar. Hindiston mustaqillikka erishib Respublika tashkil topgandan keyin badiiy hunarmandchilik qaytadan ravnaq topa boshladi va milliy iqtisodiyotning muhim sohasiga aylandi. Hukumat maxsus hunarmandchilik ishlari bo'yicha Butun Hind boshqarmasini tashkil etib hunarmandlarni zarur xomashyo bilan ta'minlab, ularning mahsulotlarini sotishda katta yordam bermoqda.

Janubiy Osiyo mamlakatlari mustaqillikni qo'lga kiritganlaridan keyin, qisqa muddat ichida mustamlakachilardan meros qolgan iqtisodiyotni qayta qurish ishida ancha muvaffaqiyatlarga erishdilar. Masalan, Hindistonda o'tkazilgan proteksionizm va iqtisodiyotda davlat boshqaruvining turli shakllarini keng joriy qilish (davlat sektorini litsenziyalash, narx-navo, eksport, import va hokazolar ustidan nazorat o'rnatish) da industrilashtirish yo'li sanoat ishlab chiqarishining o'sishiga yordam berdi. Og'ir industriya va energeti-

kaning ilgari mutlaqo bo'lмаган yoki nihoyatda sust rivojlangan tarmoqlari, ayniqsa, tez o'sa boshladi.

Janubiy Osiyo xalqlarining oila va nikoh munosabatlari diniy e'tiqodiga qarab farq qiladi. Musulmonlarning maishiy-oilaviy turmushi yuziatga asoslangan, induistlarniki esa patriarchalchilikni yoqlab kelgan kasta qoidalariga tayanadi. Ko'p xalqlarda beva qolgan ayol eri yosh olsa ham ikkinchi marta turmushga chiqishga haqqi yo'q bo'lgan. Ayrim elatlarda ona urug'i munosabatlarining qoldiqlari saqlangan. Masalan, Janubiy Hindistonagi nayri xalqida meros ona tomonidan belgilanadi, ayollar erkaklar bilan teng huquqda. Albatta, mazkur tartiblar erkin bozor munosabatlarining ta'siri ostida asta-sekin yemirilib borgan.

**Me'morchiligi.** Janubiy Sharqiy Osiyo xalqlari memorchilik an'analari uzoq tarixiy davrlarga borib taqaladi. Xususan, bu borada Hindiston memorchilik maktabi o'ziga xos tarixga ega bo'lib, mil. avv. III – I ming yilliklardayoq mudofaa, xo'jalik va turarjoy



*Delhi shahridagi Qutib Minor (XVI asr)*

binolari, bog‘ va suv havzalari bo‘lgan yirik shaharlar (Sanghol, Lothal, Mathura, Pataliputra) qurilgan. Mil. avv. IV – II asrlarda ulkan qal‘a, saroylar (Pataliputradagi podsho Ashoka saroyi), diniy ashyolariga mo‘ljallangan inshoot – stupalar, memorial ustun (stambxa)lar, g‘or ibodatxonalar (Karlida, mil. avv. I asr; Ajantatsa, mil. avv. II asr – milodiy VII asr.) va monastirlar, ehromlar yaratilgan. Milod boshlarida budda ibodatxonalarining yangi turlari (Sangida yer ustiga qurilgan to‘rt ustunli peshayvondan iborat kub shaklidagi ibodatxona, V asr; Ellorda yaxlit qoyatoshni o‘yib ishlangan ibodatxona, VIII asr) paydo bo‘ldi.

XIII asrdan Dehli sultonligi davrida yirik saroy ansamblari, masjid, gumbazsimon maqbara, minoralar (Dehlidagi Qutib Minor deb atalgan minorali Quvvat ul-Islom masjidi, 1193-yildan qurila boshlangan) hamda mustahkam qal‘a devorlari bilan o‘ralgan shaharlar qurildi. Boburiylar davlati tashkil bo‘lgach, Hindiston me’morchiligi yuksak cho‘qqilarga erishdi: shahar va qal‘a qurilishi san‘atining ajoyib namunalari yaratildi (Agra, Ajmer, Ollohaboddagi qal‘alar, «Fatehpur-Sekri» shahar-qal‘asi, 1569 – 84), qubbasimon maqbaralar (Dehlidagi Xumoyun maqbarasi, 1565; Agra shahri yaqinidagi Tojmahal) qurildi. Qurilishda marmar eng ko‘p ishlatilgan.

Baromi (Rojasthan), Kanarak (Orissa), Kajuraxo (Madhya-Pradesh)dagi ibodatxonalar hind me’morchiligining beba ho yodgorliklariga aylandi. XIX asrda eski shaharlar (Kalkutta, Madras, Bombay) rivojlandi va Yevropa me’morchiligi uslubidagi inshootlar bunyod etildi. Mustaqillikka erishilgach, mamlakatni industrlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan qurilishlar avj olgan. Lekin qishloqlarda uylar kasb va tabaqalarga bo‘lingan holda qurilgan. Qishloq markazida jamoa kengashining uyi qad ko‘taradi, unda har bir kasta o‘z xudolari va umumiylar xudolar



*Milliy libosdagi hind qizlari*

haykalchalarini o'rnatib ibodat o'tkazadilar. Har bir oila turarjoy, omborxona va molxonadan iborat hovliga ega. Hovli uylarining turlari har xil bo'lib, ular loydan, yog'ochdan, toshdan, tekis toqli, oynasiz qilib qurilgan. Ayniqsa, sohillarda qad ko'targan shaharlar ko'p qavatlari chiroyli muhtasham binolari bilan ajralib turadi. Shahardagi o'ziga to'q sanoat markazlarining tevarak-atrofida minglab tartibsiz tiklangan ishchi baraklari va kulbalari ham nihoyatda katta hududni egallaydi.

**Janubiy Osiyo xalqlarining kiyimlarini ikki turga bo'lish** mumkin: tikilgan va o'rama. Erkaklarida dxoti, deb atalgan beldan bog'lanib but orasidan o'tkazib o'ralgan ishtonga o'xhash libos, ayollarda uzun matodan bel va oyoqlarini bekitib o'ralgan ko'ylakka o'xhash kiyimlar (sari) keng tarqalgan. Dxoti va sari ustidan kalta kamzul bilan ko'ylakcha, ayollar kofta, qo'shimcha yubka yoki sharovar kiyishadi. «Oliy» kasta vakillari va ko'pchilik shahar ahli, odatda, keng va uzun, dehqonlar esa kalta belbog' shaklidagi dxoti

kiyadilar. Bel va oyoq o'ralgandan qolgan uzun matonning uchi bilan ayollar ko'kragini bekitadilar, ba'zan boshlariga ro'mol qilib yopinib yuradilar. Erkaklar boshiga salsa o'raydi, ayollar ro'mol yopinadi va har xil bezaklar taqadi, atir-upalar bilan o'ziga pardoz beradi. Keng ommada jez va kumushdan, badavlat kelinlar uchun oltin va qimmatbaho toshlardan ishlangan, oyoq va qo'llariga taqiladigan bilaguzuklar, qishloqlarda jez, shisha va suyakdan, hatto ayrim o'simlik donalarini quritib tizma munchoqlar va boshqa turli bezaklar yasaladi. Ba'zi xalqlarda erkaklar ham har xil bezaklar taqadi. Bolalarga, o'spirin qizlarga, kelin-kuyovlarga mo'ljallangan ko'pgina bezaklar tumor sifatida taqiladi. Ayrim ayollar o'z bezaklarini butun umr yechmaydilar.

Sharqiy osiyoliklarning taomlari ham tabaqlanadi. Ko'pchilik aholining har kungi taomi xamir mahsulotlari, ayniqsa, non va har xil dondan pishirilgan suyuq bo'tqa, atala yoki sho'rva, o'simlik (araxis, kandir, kunji yoki kokos) yoki ziravorda tayyorlangan loviya va sabzavotdan iborat. Qatiq, choy va kofe asosiy ichimlik hisoblanadi. Choyni, asosan, sut bilan shirchoy qilib ichiladi. Hindistonda go'sht va mol yog'i kam iste'mol qilinadi. Diniy aqidalar asosida mol (sigir) go'shtini iste'mol qilish man qilingan, sariyog' eritilgan holda ishlatiladi. Ko'p xalqlarda erkak va ayollar alohida-alohida ovqatlanadi. Odatda, qishloq aholisi kuniga ikki marta, dala ishlari vaqtida uch marta tanovul qiladi. Hindlarda oshxona muqaddas hisoblanadi. Ovqatni qo'l bilan yeydilar, qozon-tovoqlari, asosan, misdan, to'ylarda ishlatiladigan sopol idishlar esa faqat bir marta ishlatilib, keyin tashlab yuboriladi. Don, suv va sut-qatiqlar uchun sopol idishlardan foydalaniladi.

Unni odatda qo'l tegirmonida, Himolay etaklari-da suv tegirmonida chiqarilib, bug'doy, suli makka,



*Hind milliy taomlari*

arpa, ba'zan guruch unidan, Shimoli-Sharqiy Panjobda qorabug'doy (grechixa) unidan tandirda non (lavad) yopiladi. Non yopilish usuliga qarab turlichay ataladi: chapati, pxulka, rotla, bxakri hamda qalin qilib tovada sariyog'da qovuriladigan yoki yupqasi (Gudjaratda) kxakra, deb yuritiladi. Guruchdan tayyorlanadigan taomlar eng sevimli va keng tarqalgan ovqat hisoblanadi. Qand yoki shinni va yong'oq qo'shilgan shirguruch bayramlarda pishiriladigan tansiq taomdir. Pokiston va Shimoliy Hindistonda, ayniqsa, musulmonlar orasida keng tarqalgan sevimli taom palov (pulou) va shavla (biryoni). Hind palovi qo'y go'shti, tovuq, baliq, sabzi va no'xatdan, har xil ziravor qo'shib pishiriladi, guruchi alohida yog'da qovurib olinadi, shavlasi esa, aksincha, guruchni ivitib masallig'i bilan birga damlanadi. Shavлага, odatda, yong'oq, mayiz, qovurilgan piyoz qo'shildi. Induislar, ayniqsa, jayna mazhabidagilar faqat

vegeterian taomlarni iste'mol qiladilar. Hind musulmonlari cho'chqa va mol go'shtini iste'mol qilmaydi, asosan, qo'y go'shti va parranda ishlataladi. Pokiston, Shimoliy Hindiston va Bangladeshda har xil go'shtli taomlar, ayniqsa, kaboblar (sich kabob, kufta, shabdeg) tayyorlanadi. Bengallar, tamil va boshqa dravid xalqlarida baliqdan turli taomlar tayyorlanadi. Shri-Lankada ham baliqni har xil turshak va achchiq ziravorlar, piyoz va sarimsoq bilan pishirib iste'mol qiladilar, singallar ham go'shtni (ko'proq mol go'shtini, kamroq qo'y va echki go'shtini) qovurib, qaynatib turli o'tlar, qalampir va sirka bilan iste'mol qiladilar. Shri-Lankada ham eng sevimli taomlar guruchdan jekfrut mevasi bilan pishiriladi. Tovuq go'shti ham eng obro'li taom hisoblanadi. Ammo barcha go'sht, baliq, tovuq va sabzavotga guruch qo'shib tortiladi.

Janubiy Osiyo xalqlarining yaratgan dabdabali go'zal monumental arxitektura, dekorativ haykaltaroshlik, mohir o'ymakorlik, tasviriy san'at kabi san'at namunalari jahon madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan. Bu yerda o'zlarining qadimiy yozuvlari asosida aniq fanlar, falsafa va adabiyot yaxshi rivojlangan, noyob xalq og'zaki ijodi asarlari, teatr, musiqa va xoreografiya san'ati yuksak mavqega ega.

Uzoq asrlar davomida janubiy osiyoliklarning siyosiy xo'jalik va madaniy yaqin munosabatlari o'ziga xos umumiy ma'naviy madaniyatni yuzaga keltirgan, umumiy xalq ijodiyoti namunalari yaratilgan. Masalan, qadimiy hindularning muqaddas yozuvlari, vedda gimnlari, buddizm adabiyoti, «Mahabhorat» va «Ramayana» kabi epik asarlar, hikoyalar to'plami, ertaklari va «Panchatantra» masallari, «Katakali» nomli teatrlashtirilgan tomoshalari, jozibador kuylari va xoreografik raqslari butun Sharqiy Osiyo xalqlarining umumiy ma'naviy boyliklaridir. Ularning kundalik hayotini qo'shiq va raqssiz tasavvur qilish qiyin. Barcha bayramlar, marosimlar, to'ylar va ko'p mehnat

faoliyati kuy, qo'shiq va raqslar bilan nishonlana-di, qo'g'irchoq teatri, fokuschilar va masxarabozlar o'z san'atlarini namoyish qiladilar. Hozirgacha o'rta asrlarda yaratilgan mo'jizali Tojmahal maqbarasi, afsonaviy naqshlar va haykallarga boy Banoras ibo-datxonalarini va boshqa arxitektura namunalari, Ajanta g'or ibodatxonalaridagi rasmlar, turli rivoyatlar ni aks ettirgan haykallar va o'yma naqshlar kishini hayratda qoldiradi. Xalq tabobati va farmokologiyasi yaratgan davolash usullari va dori-darmonlar, yo'g ta'limoti va boshqa xalq aql-zakovati yaratgan ijobiy tajribalar jahonga mashhur.

Janubiy Osiyo xalqlarining diniy tasavvurlari turlicha bo'lib, bu yerdagi eng yirik dinlar hinduizm, islom va buddizmdir. Masalan, Hindistonda aholining 83 foizi hinduislar, 11 foizi musulmonlar, 3 foizga yaqini nasroniylar, 2 foiz sikxalar, 1 foiz buddistlar va

jaynistlar. Nepal aholisining ham ko'pchili-gi hinduislar (89 foizi). Pokistonda musulmonlar butun aholining 97 foizini, Bangladeshda esa 80 foizini, hinduislar 18 foizini tashkil qiladi. Shri-Lanka aholisining 66 foizi buddistlar, 19 foizi hinduislar, 8 foizi nasroniylar va 7 foizi musulmonlar.

Hindiston – bud-dizmning vatani. U mil. avv. VI asrlarda quldarlik jamiyatida keng mehnatkash omaning kasta tuzumi-



*Buddha haykali*

ga, shafqatsiz jabr-zulmga qarshi tenglik g'oyasini ko'tarib chiqqan diniy e'tiqod sifatida paydo bo'lgan edi. Buddizm qo'shni mamlakatlarga (ayniqsa, Nepal va Shri-Lankaga) tez tarqalgan. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra taxminan 500 mln. kishi buddiizm diniga e'tiqod qiladi. Boshqa ma'lumotlarga ko'ra, konfertsiyalar statistikasi bo'yicha yirik mutaxassis D. B. Barretta ma'lumotlariga ko'ra, 1996-yilda butun dunyo bo'yicha buddistlar – 325 mln. kishi bo'lgan (bu butun yer yuzi aholisining 6 foizini tashkil qiladi). Bu ma'lumotda buddizm bilan boshqa dinga e'tiqod qiluvchilarni (avvalo Xitoyda) hisobga olinmagan. Ko'rsatilgan buddizm diniga e'tiqod qiluvchilar orasida Osiyoda – 322 mln. kishi (mazkur qit'a aholisining 9 foizi), Amerikada – 1,5 mln, Yevropada – 1,6 mln, Avstraliya va Okeaniyada – 200 ming, Afrikada – 38 ming kishini tashkil qilgan.

Janubiy Osiyo mintaqasida keng tarqalgan dillardan biri hinduizm dinidir. Hinduizmga e'tiqod qiluvchilar, asosan, Hindistonda yashaydi, Pokiston, Bangladesh, Nepal, Shri-Lankada, shuningdek, Janubiy Afrikada, Janubi-Sharqiy Osiyoda ham uchraydi. Hinduizmga jami 780 mln. kishi e'tiqod qiladi (2003). Bu din milodiy eraning 1-mingyilligida shakllangan. Hinduizm veda dini va brahmanizm rivojlanishi va unga keyinchalik xalq e'tiqodi, urf-odatlari, marosimlari singib ketishi jarayonida paydo bo'lgan bo'lib, o'rta asrlarda hukmron mafkuraga aylangan.

Hinduizmning asosida jonning yangi shaklga kiriishi (sansara) haqidagi ta'limot yotadi. Unga ko'ra, kishi o'lgandan keyin joni (ruhi) yangi o'simlik, hayvon yoki inson tanasiga kirib oladi va qayta tug'iladi. Yangi ruhning qay darajada bo'lishi karma qonuniga, ya'ni kishining hayot davridagi xulq-atvori, xatti-harakatiga bog'liq.

Hinduizmning asosiy maqsadi – insonni mana shu qayta tug'ilish zanjiridan, azob-uqubatidan xalos qi-

lish, ya’ni mokshaga erishishdan iborat bo‘lgan. Hinduizmdagi turli diniy-falsafiy ta’limotlarda mokshaga erishishning yo’llari va vositalari ishlab chiqilgan.

Hinduizmga e’tiqod qiluvchilar vafot etganlari-da yerga ko‘milmaydi, balki olovda kuydiriladi. Hinduizmga ko‘ra shunday qilinsa marhum poklanadi, gunohlari bu dunyoda qoladi. Olov u dunyoga gunohlardan xoli bo‘lgan jonning o‘zini olib ketadi. Bu dinning aqidalariga ko‘ra, odamzod yaratilishidayoq ijtimoiy jihatdan tengsiz yaratilgan. Shuning uchun bu tengsizlikni real hayotda tugatishning iloji yo‘q. Chunki unga ta’sir etishga qodir bo‘lgan kuchning o‘zi yo‘q.

Hinduizmda ajdodlar ruhiga topinish alohida o‘rin tutadi. Vafot etgan ajdod xudoga tenglashtiriladi. Ajdodlar ruhi bu dunyoda yashayotgan qarindosh-urug‘larini qo‘riqlaydi, ularning oilasi va hayotini muhofaza qiladi.

Hinduizmning muqaddas kitobi vedalar, «Mahobxarata» (ayniqsa uning «Baha-gavadgita» va «Ramayana» qismlari) va boshqalar Hinduizmda asosiy xudolar – Shiva, Vishnu, Brahmaga sig‘iniladi. Ularning ko‘rinishi sifatida ko‘plab mahalliy xudolar e’tirof etiladi. Hinduizmda tog‘lar, daryolar (xususan, Gang), o‘simlik (mae, nilufar), hayvonlar (maymun, fil, ilon va, ayniqsa, sigir) muqaddas sanaladi va ularغا topiniladi.

Hindistondagi diniy marosimlar ibodatxonalarda, uylardagi mehroblar yonida, muqaddas joylarda ado etiladi. Hozirgi hinduiuzmning 2 oqimi – vishnuizm va shivaizm keng tarqalgan.

### 30-§. Janubi-Sharqiy Osiyo xalqlari

Yevroosiyo qit’asining janubi-sharqiy qismidagi Hindixitoy yarim orolida va qo‘shni Malayya arxi-

pelagi orollarida o'ziga xos madaniyatga ega bo'lgan turli elatlar yashaydi. Taxminan 4,6 mln. km<sup>2</sup> hududa bir necha yirik mustaqil davlatlar joylashgan. Uning aholisi 2012-yilgi ma'lumotlarga ko'ra 324 mln. dan ortiq. Eng katta yarim orol (jahonda maydoni jihatdan uchinchi o'rinda) hisoblangan Hindixitoyda Vietnam (89,730 mln.), Laos (6,374 mln.), Kombodja Xalq Respublikasi (14,478 mln.), Birma (32,6 mln.) va Tailand qirolligi (46 mln. ) joylashgan. 15 mingdan ortiq orollardan tashkil topgan Malayya arxipelagida esa katta hududni egallagan Indoneziya (148 mln. ) va Filippin (45 mln.) respublikalari, Malayziya Federasiyasi (13,5 mln.), Singapur Respublikasi (2,4 mln.) kabi davlatlar mavjud.

Tarixiy-geografik jihatdan ham Janubi-Sharqiy Osiyo o'ziga xosdir. Hali to'liq o'rganilmagan bo'lsa-da, mezolit davridayoq bu yerda muayyan madaniy birlik paydo bo'lgan. O'tkazilgan tadqiqotlardan ma'lum bo'ldiki, Tailandning tog' vodiylari (arvoqlar g'ori)da mil. avv. VIII – IX mingyilliklarda ilk dehqonchilik xo'jaligi bo'lgan. Odamlar tog' vodiylarini, dengiz sohillaridagi tekislikni sholikorlik dehqonchiligi uchun qulay bilib, u yerlarni egallay boshlaganlar. Bunday xo'jaliklar dastlab neolit davridayoq qit'aning sharqiy qismida paydo bo'ladi, birinchi marta sholikorlik madaniyati qit'ada tay va avstroneziya xalqlari tomonidan egallangan va qo'shni o'lkalarga ham tarqalgan. Sug'orishga asoslangan qo'shli omoch dehqonchiligi milodning boshlariga kelib butun mintaqada tarqalgan. Bronza tishli omoch asli dongshon nomli madaniyat (mil. avv. VIII – VII asrlar) obidalarda topilgan. Hozirgi moddiy va ma'naviy madaniyat xususiyatlari ham o'sha davrlardan shakllana boshlagan va hozirgacha o'z xususiyatlarini, asosan, saqlab qolgan.

Antropologik jihatdan Janubi-Sharqiy Osiyo xalqlarining deyarli hammasi mongoloid tipidagi Janubiy Osiyo kichik irqiga oid. Paleoantropologik ma'lumotlarga qaraganda paleolit va mezolit davrlarida mahalliy aholining bir qismi avstroloid guruhini tashkil qilgan yoki o'ziga xos aralashma tipidan iborat bo'lgan. Shuning uchun ham hozirgacha Janubi-Sharqiy Osiyo aholisining etnik qiyofasi ancha murakkab.

Qit'a qismida yashovchi eng katta etnos – vettinamliklar 89 mln. dan ortiq kishidan iborat. Tili va madaniyati jihatidan ularga yaqin bo'lgan miangler respublikaning turli vohalarida joylashgan. Vetlarning g'arbi, butun Hindixitoy yarim orolida tay tilida so'zlashadigan xalqlarning katta guruhi yashaydi. Shulardan eng ko'p sonlilari kxontanlar yoki Tailand siamlari, lao (laoslik) va shan (birmalik) xalqlardir. Vetlar va taylarga irqiy, xo'jalik va madaniy belgilari bilan myao-yao guruhiga oid xalqlar yaqin turadi. Bularning hammasi lingvistik jihatdan mon-kxmer til oilasiga kiradi. Asli kxmer tillarida Kambodjaning tub aholisi, Vietnam, Laos va Tailand kxmerlari, Birma va qisman Tailandda yashovchi mon (talain)lar, Malakkadagi senon va semanglar so'zlashadi. Xitoy-tibet til oilasiga oid katta til guruhining vakillaridan birmaliklar va ularga yaqin koren, kaya, kachin va boshqa xalqlardir. So'nggi lingvistik ma'lumotlarga qaraganda bu yerda 300 dan ortiq tillar va 1000 ga yaqin shevalar mavjud bo'lib, shularning 96 foizi avstroneziya til oilasiga tegishli. Yavaliklar (60 mln.), sundlar, madurlar, minengkabau, bugi, makasara, filippinlardan tagal, ilok, bilok, visayya kabilar ham shu til oilasi vakillaridir. Til va millatlarning shakllanish jarayoni mustamlakachilik davrida biroz sustlashgan bo'lsa-da, ammo har holda davom qilib kelgan.

Faqat XX asrning 40 – 50-yillaridan boshlab, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlaridan ko‘pchiligi mustaqillikka erishgandan so‘ng bu jarayon ancha kuchaydi. Yirik millatlar shakllana boshlab hozirgi etnik qiyofa paydo bo‘ldi. Mintaqaning tub aholisidan tashqari kelgindi xalqlar ham anchagina qismni tashkil etadi. Masalan, turli mamlakatlardan kelib joylashib qolgan xitoylar, tamillar va boshqa dravid xalqlarining vakillari, bengalliklar va boshqa hindariy xalqlar, butun mintaqadagi mamlakatlarda tarqoq holda o‘rnashgan 1,2 mln. dan ortiq Malayziya, Birma va singapurliklar va boshqalar. Bu yerlarga yevropaliklar juda kam darajada kirib kelganlar.

Qadimiy tarixiy davrlarda Osiyo qit’asi Avstraliya bilan birikkan bo‘lib beshinchi qit’aga odam o‘sha tabiiy ko‘prik orqali ko‘chib tarqagan. Mahalliy xalqlarning etnogenezi ham uzoq o‘tmishdagi etnik guruhlarning migratsiyasi bilan bevosita bog‘liqdir. Hindixitoy yarim orolida qadimiy davrlarda hozirgiga nisbatan mon-kxmer tilida so‘zlashadigan qabilalar ko‘proq bo‘lgan. Indoneziya va Filippin orollarida negro-avstroloid xalqlar joylashgan bo‘lib papuas va melaneziya tiplari bilan chatishib ketgan. Milodning boshlarida shimoliy va sharqiy tomondan ko‘plab kela boshlagan mongoloid elatlar monkxmerlarni siqib chiqara boshlaydi va hozirgi vet, tay, lao va birma tillariga asos soladi. O‘z navbatida, Malakka va Indoneziya orollarining aborigen aholisini qit’adan bir necha to‘lqinda ko‘chib kelgan mongoloid aralash qabilalar sohillardan ichki o‘rmonzorlarga ko‘chishga majbur qilgan. Yava va Sumatra orollariga milodning boshlarida Janubiy Osiyodan kelib joylashgan kelgindilar mahalliy xalqlarning siyosiy va madaniy hayotida muhim rol o‘ynagan. Ular induizm va budizm dinlari, yozuv va boshqa madaniy an’analarning keng tarqalishiga sabab bo‘lgan. O‘sha davrlardayoq

bu yerda dastlabki davlatlar paydo bo‘ladi, bu davlatlar o‘rta asrlarga kelib ancha taraqqiy etadi va dehqonchilik, savdo, hunarmandchilik, fan va san’at ancha rivojlanadi. VII – VIII va, ayniqsa, XIV asrlarda Indoneziya va Malayziyaga, qisman Filippinga (moro xalqiga), Vietnam va Kambodja (tyamlar)ga islom dini tarqala boshlagan.

XVI asrdan boshlab Hindixitoyga dastlab portugaliyaliklar, keyin gollandlar va ingлизлар keladi. XIX asrda Indoneziyaning ko‘p qismi Gollandiyaning mustamlakasiga aylanadi: Malakka, Birma, Kalimantanning shimoliy qismini Angliya; Vietnam, Kampuchiya, Laosni esa Fransiya bosib oladi. Mustamlakachilik davrida missionerlar nasroniy dinini o‘rnatishga intilib Filippin orollarida ma’lum darajada muvaffaqiyat ham qozonganlar.

Janubi-Sharqiy Osiyoning serunum tuprog‘i, namli va issiq iqlimi qadimiy davrlardan dehqonchilik xo‘jaligini, ayniqsa, sholikorlikning keng tarqalishiga sabab bo‘lgan. Yuqorida qayd qilinganidek, sholikorlik bu yerda neolit davrida paydo bo‘lib, dastlab uni tay va avstroneziya xalqlari egallagan. Endi sug‘orma omoch dehqonchiligi Janubi-Sharqiy Osiyo aholisining asosiy mashg‘uloti bo‘lib, ko‘p joyda yiliga ikki marta hosil olinadi. Ular sholidan tashqari dukkakli va ildizmevali ekinlar, makka, bog‘dorchilik va sabzavot ekinlari yetishtiradilar. Texnik ekinlardan kau-chuk va kofe daraxtlari, kokos palmasi ham ekiladi. Ishlab chiqarish qurollari deyarli bir xil: oddiy yog‘och omoch va tishli mola bilan yerga ishlov beradilar, haydalgan yerga yog‘och bilan kovlab urug‘ soladilar yoki tayyor ko‘chat ekiladi, hosilni o‘roq yoki pichoq bilan o‘rib, xirmonni tayoq bilan yoki mol yuborib yanchadilar. Asosiy ekinlardan, masalan, Vietnamda, sholi, makka, kauchuk daraxti, ildizmevali ekinlar, choy va paxta ekiladi. Laosda qizil shilliq sholi,

bog'dorchilik, sabzavotchilik, qisman chorvachilik va baliqchilik rivoj topgan. Birmada poliz ekinlari, bog'dorchilik qishloq xo'jaligining asosini tashkil qiladi, sholidan tashqari ba'zi joylarda choy, kofe daraxti, shakarqamish, kokos palmasi va banan ekiladi. Kambodjada sholikorlik bilan baliqchilik muhim soha bo'lsa-da, kauchuk kabi qimmatbaho daraxtlar ham yetishtiriladi. Indoneziya va Filippinda sholi, makk'a, loviya, baliq, sabzavot, meva, shakarqamish, kofe kabi ekinlar keng tarqalgan. Orollarida baliqchilik muhim rol o'yinaydi. Guruch, baliq, sabzavot, meva, o'simlik yog'i kabi mahsulotlar butun mahalliy aholining tirikchiligidir. Go'sht kam, asosan, bayramlarda iste'mol qilinadi, ko'proq parranda, nomusulmon aholi esa cho'chqa go'shtini iste'mol qiladi.

XIX asr oxirlari – XX asr boshlarida ko'p orollar ning botqoq va tog'li joylarida daydi ovchi va terimchi guruhlar yashagan. Malakkadagi semangi va senonlar, Sumatradagi kubu va qisman sakaya, Kalimantandagi punan va bukitlar, Filippindagi aeta va boshqa qabilalarning asosiy tirikchiligi tropik o'rmonlardagi yemishli o'simliklarni terib, mayda hayvonlarni ovlashdan iborat bo'lgan.

Bugungi kunda ham ushbu mintaqaga jahondagi plantatsion xo'jalikning eng rivojlangan hududlaridan biri hisoblanadi. Bu yerda dunyoda tayyorlanadigan kokos yong'og'ining yarmi, kopranning 70 foizi, natural kauchukning deyarli o'ndan to'qqiz qismi ishlab chiqariladi. Kauchuk, asosan, Malayziya va Indoneziyada yetishtiriladi. Jahan bozorida yog' palmasi, shakarqamish, choy, kofe, har xil ziravorlar muhim ahamiyatga ega. Aholining ko'p qismi plantatsiya xo'jaliklarida band, ular davlatga katta daromad keltiradi. Eksport mahsulotlari yirik plantatsiyalar dan tashqari mayda xo'jaliklarda ham yetishtiriladi. Masalan, Malayziyada ishlab chiqariladigan kau-

chukning 50 foizini, Indoneziyada 70 foizdan ortig'ini mayda dehqon xo'jaliklari yetishtirib beradi.

Dehqon xo'jaligidagi taomlar, asosan, o'simlik mahsuloti (guruch, tariq, makkajo'xori, sabzavot) dan tayyorlanadi. Guruch turli usulda pishiriladi, katta idishlarga suzilib, qayla bilan tortiladi va qo'l bilan yeylimadi. Mintaqada go'sht kam iste'mol qilinadi. Hindixitoy aholisi baliqdan pishirilgan taomlarni iste'mol qiladi. Sut va sut mahsulotlari deyarli iste'mol qilinmaydi. Qishloqlarda (Tailandda) qurbaqa, ko'rshapalak, ilon, qisqichbaqa, ipak qurtini ham iste'mol qiladilar. Orolliklar ko'proq o'simlik, baliq, parranda va turli mevalarni iste'mol qiladilar.

**Yirik shaharlari va turarjoylari.** Garchi Janubbi-Sharqiy Osiyo aholisining asosiy qismi qishloqlarda yashasa-da, mintaqada aholisi soni 1 mln. dan oshiq bo'lgan ko'plab shaharlar bor. Avvalo bu qator poytaxt shaharlar: Bangkok, Xanoy, Kuala-Lumpur, Jakarta, Manila shaharlaridir. Rangun, Pnompen, Vyentyan shaharlari kattaligi va shahar aholisi nufuziga ko'ra birmuncha kichikroq hisoblanadi. Shuningdek, mintaqada Xoshimin, Danang, Bandung, Surabayu va boshqa shaharlar ham mashhur hisoblanadi.

Tailand poytaxti Bangkok ko'pmillatli shahar tarzda nom qozongan. Mazkur shaharning doimiy aholisi 5 mln. ga yaqin. Siamlar bilan birga shaharda kelib chiqishi hindistonlik bo'lgan kiashlar alohida katta-katta mavzelarda istiqomat qilishadi. Shuningdek, bu yerda ko'plab yaponlar, xitoylar, yevropaliklar, amerikaliklar ham yashaydi. Bangkok – yirik dengiz porti hamdir. U yirik industorial shahar bo'lib, metallni qayta ishlovchi, yengil sanoat, oziq-ovqat va neftni qayta ishlovchi zavod va fabrikalar joylashgan. Bangkok o'zining hunarmandchilik mahsulotlariga ixtisoslashgan bozortlari bilan ham ma'lum va mashhurdir.



*Vetnamlik savdogarlar*

Bu shaharda Chakri qirolligining saroyi, Po (Chetun), Radjabopit, Benchamabopit kabi buddaviylik ibodatxonalari o'ziga xos diqqatga sazavor joylar bo'lib, aynan mazkur inshoatlar tufayli minglab sayyoohlar Tailand poytaxtiga tashrif buyuradilar. Shahar atrofidagi ko'plab tabiiy qo'riqxonalarda ko'plab kamyob hayvonlar va egzotik o'simliklar saqlanib qolgan.

Vietnam poytaxti – Xanoy shahri ham yirik megapolis bo'lib, ayrim manbalarga ko'ra V yoki VIII asrda bunyod etilgan (XI asrdan Vietnam davlati poytaxti bo'lgan). Bu shaharda 3 mln. ga yaqin aholi yashaydi. Xanoy – Xongxa daryosi bo'yidagi yirik port shahar bo'lishi bilan birga mamlakatning eng yirik iqtisodiy va madaniy markazlardan biridir. Bu shaharda mashinasozlik, metallni va yog'ochni qayta ishlash, kimyo sanoati bilan birga mahalliy hunarmandchilik ham taraqqiy qilgan. Xanoylik hunarmandlar kumushdan turli-tuman taqinchoqlar yasash bilan nom

qozongan. 1918-yilda Xanoy universitetiga asos solingan. Shaharning diqqatga sazavor yodgorliklari qatoriga Dyen-Bo va Adabiyot ibodatxonasi kiradi.

Jakarta shahri Indoneziya poytaxti bo'lib, 350 yil davomida Niderlandiyaning Ost-Indiya kompaniyasiiga qarashli shahar bo'lgan va Bataviye deb nomlangan. Bu shahar markazida banklar, boy do'konlar, muzei va maktablar joylashgan yirik ko'p qavatli binolar bilan birga XVII – XVIII asrlarda qurilgan ko'plab zinch uylar ham saqlanib qolgan. Shaharda «malay» stilida qurilgan ko'plab masjidlar ham bor.

Janubi-Sharqiy Osiyo xalqlarining uy-joylari, qishloq va qarorgohlari har xil. Ko'l, dengiz, daryo sohilalarida joylashgan, dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholi rejali qurilgan qishloqlarda yashaydilar. Hozirgacha aholining bir qismi suvdagi kemalarda istiqomat qiladilar. Tog'li joylarda yashovchi aholi atrofi bambuk yoki tikanli devor bilan o'ralgan kichkina qishloqlarda joylashgan. Ko'p xalqlarning uylari umumiy xarakterda bo'lib, bambuk va xurmo yog'ochlaridan tiklangan, turli yaproqlar bilan yopilgan va yerdan birmuncha ko'tarilgan poldan iborat. Betak, dayak kabi qabilalarda katta oila, ba'zan jamaoa joylashadigan hashamatli uylar bo'lgan. Filipinda ilgari maxsus jamoaning kengash uylari qurilgan. Uylar, asosan, polga to'shalgan chipta, devorlariga osilgan ro'zg'or buyumlari bilan jihozlangan. Shaharda yashovchi boy oilalarning uylarida zamonaviy mebellar bor. Tog' va botqoqlik o'rmonlarda daydi ovchi va terimchi qabilalar bambuk va xashaklardan tiklangan yengil uylarda yoki pono qo'yib istiqomat qiladilar.

**Kiyim-kechaklari.** Azaldan janubi-sharqiy osiylarlarda o'rama kiyim keng tarqalgan. Masalan, ilgari Vietnamda belbog', keng shim, kalta kurtka yoki



*Indoneziyadagi buddha haykali*

xalat erkaklarning an'anaviy kiyimi bo'lgan bo'lsa, hozir ko'pchilik yevropacha kiyimga o'tgan. Ayollar ko'kragi ochiq kofta, uzun ishton, qishda kurtka yoki xalat, boshiga somon shlyapa, oyog'iga esa sandal kiyganlar. Laosliklar, asosan, xitoycha kiyangan, kalta keng shim, kurtka va sandal, ayollari esa to'pig'idan qo'llig'igacha mato bilan o'rab belbog' boylagan. Tailandliklar keng matoni belga o'rab, uchini butini orasidan o'tkazib ishtonga o'xshatib kiygan, birmaliklarning erkak va ayollari keng matoni yubka qilib o'ragan, ustiga yaxtak ko'ylak yoki kurtka kiygan, boshiga shlyapa yoki qiyiqcha yopingan, oyog'iga teri sandal kiyishgan yoki, umuman, yalangyoq yurganlar. O'rmonlarda yashovchi ovchi qabilalar, asosan, dub daraxtidan to'qilgan etakcha belbog' yoki yubka kiyganlar. Barcha xalqlarda turli bezaklar, ayniqsa, elatlarda esa tatuirovka qilish, tishni qoraga bo'yash kabi pardozlar bo'lgan.

**Oilaviy turmush tarzi.** Oilaviy turmush va ijtimoiy tuzumi jihatidan mazkur xalqlar har xil darajada turgan. Uzoq vaqtlar Hindixitoy va Indoneziyaning ko‘p qismida patriarxal oila va turmush munosabatlari saqlanib kelgan. Ijtimoiy tuzumga va oilaviy turmushga din (buddizm, islom, nasroniy) ta’sir qilgan. Ayrim qoloq elatlar – ovchi-terimchi qabilalarda urug‘-jamoa munosabatlari hali ham mustahkam saqlangan. Ular ma’lum hududga ega bo‘lib, urug‘chilik, hatto ona urug‘i qoldiqlarini saqlab qolgan, ijtimoiy va oilaviy munosabatlarni qabila boshliqlari va jamoa boshqargan.

Janubi-Sharqiy Osiyo xalqlarining ma’naviy madaniyati, san’ati va folklori juda boy. Ma’lumki, bu yerda o’rta asrlardayoq ma’rifat ancha taraqqiy qilgan, diniy va badiiy adabiyot tarqalgan. Ammo mustamlakachilik siyosati tufayli an’anaviy madaniyat inqirozga uchragan edi. Qadimdan Vietnamda har xil epik asarlar, musiqa, raqs va qo’shiqlar rivoj topgan. Tailandda har xil xalq teatrлари – imo teatri, qo‘g‘irchoq va niqob teatrлари tarqalgan. Kambodjada va Birmada balet juda mashhur, epos janriga asoslangan xalq tomoshalari va soya teatri (ayniqsa, Indoneziya-da vayang-nurvo nomli) katta obro‘ qozongan.

Shuni alohida qayd qilish lozimki, Janubi-Sharqiy Osiyo xalqlari orasida hukmron bo‘lgan eng yirik dinlarning barchasi mahalliy diniy e’tiqodlar, xalq urf-odatlari va milliy bayramlaridan keng foydalanim ularga diniy tus bergen. Masalan, butun mintaqada tarqalgan qishloq xo‘jaligi bayram marosimlari, bahor faslida ajdaho shaklidagi kemalarda o’tkaziladigan poygalar, dehqonning yordamchisi sabr-toqatli va mehnatkash qo’tos obrazi, mard va topqir quyon syujeti (yo‘lbars va timsohlar ustidan g‘olib chiqadigan) diniy tasavvurlar bilan chatishib ketgan. Oilaviy va ijtimoiy bayramlar doimo turli taomlar, rang-barang kuy va raqlar, ommaviy tomoshalar bilan nishonlangan.

## **31-§. Sharqiy Osiyo xalqlari**

Osiyo qit'asining eng ko‘p sonli xalqlari sharqiy qismida joylashgan. Juda keng hududni egallagan bu mintaqaga Xitoy, Mo‘g‘uliston, Koreya va Yaponiya davlatlari kiradi.

Mintaqaning tabiatи va iqlimi rang-barang bo‘lib, turli xo‘jalik-madaniy tiplarning shakllanishiga sabab bo‘lgan. Shimoliy qismi Sibirdagi qahraton sovuqli kontinental iqlimdan janubiy issiq tropik sohillar-gacha cho‘zilgan bu katta hududda juda boy o‘simplik va hayvonot dunyosi mavjud. Bepoyon qumlik, sahro va dashtlar, sovuq iqlimli tog‘li va noyob vodiylarga ega. Markaziy qismi ham maxsus etnogeografik viloyatni tashkil qiladi. Bu yerda qadimiy davrlardan ural-oltoy til oilasiga oid mo‘g‘ullar va turkiy xalqlar (Sinszyan aholisi), xitoy-tibet tillaridagi tibetliklar va dunganlar yashaydi. Sharqiy Osiyo aholisi, asosan, xitoy-tibet til oilasiga oid, yaponlar va koreyslar o‘ziga xos til turkumini tashkil qiladi, qolgan mayda etnik guruhlar monkxmer, tay va boshqa til oilalarining vakillari. Antropologik jihatdan butun Sharqiy Osiyo xalqlari katta mongoloid irqnинг ayrim shahobchalariga oid.

### **31. 1. Xitoy va xitoy xalqi**

Xitoy Xalq Respublikasi (xitoycha Shjanxua jenmin gunxego), XXR – Sharqiy Osiyoda joylashgan davlat. Dunyoda aholisi eng ko‘p va maydoni jihatidan eng yirik davatlardan biri. Sharqda Tinch okeanning Sa-riq, Sharqiy Xitoy va Janubiy Xitoy dengizlari bilan o‘ralgan. Maydoni 9,6 mln. km<sup>2</sup>. Aholisi 1 mlrd. 300

mln. 750 ming kishi (2010). Poytaxti – Pekin shahri. Ma'muriy jihatdan 23 ta provinsiya (Xitoy Tay-peyi ham shu hisobga kiradi), 5 ta muxtor rayon va markazga bo'ysinuvchi 4 ta shahar (Pekin, Shanxay, Tyanszin, Shunsin)ga bo'linadi.

Xitoy – ko'p millatli davlat bo'lib, mamlakat aholisining 95 foizini xitoylar, qolgan qismini turli til guruh va oilalarga mansub bo'lgan 56 ta xalqlar tashkil qiladi. Xitoylarning ko'pi mamlakatning sharqiy qismida yashaydi. Xueylar (7 mln. ga yaqin) ham xitoy tilida so'zlashadi. Xitoyning shimoli-g'arbida turkiy tillar guruhiiga kiruvchi xalqlar – uyg'urlar, qozoqlar, qirg'izlar, salorlar va boshqa xalqlar, shimoliy va shimoli-sharqidagi dasht va chala cho'llarda mongoloid guruhiiga kiruvchi xalqlardan mongollar, dunganlar, tular, shimoli-sharqida tungus-manjur xalqlari, g'arbi (Tibet) va janubi-g'arbida tibet-birma xalqlari, janubda tai tillarida so'zlashuvchi xalqlar yashaydi. Sinszyanning janubi-g'arbida Pomir tojiklari ham bor.

Xitoy xalqining etnogenezi va etnik tarixi nihoyatda qadimiy boy tarixga ega bo'lishi bilan birga murakkab hisoblanadi. Chunki mazkur xalq turli etnik va etnografik guruhlardan tashkil topgan. Xitoylarning qadim ajdodlari Xuanxe daryosi bo'yalarida yashagan, deb faraz qilinadi. Keyingi yillarda o'tkazilgan antropologik, tarixiy-arxeologik tadqiqotlar va etnolingvistik ma'lumotlar Sharqiy Osiyo xalqlarining shakllanish tarixini umumiylasavvur qilishga imkon beradi. Miloddan avvalgi V – IV mingyillikkarda Sharqiy Osiyoda bir necha neolitik madaniy markazlar paydo bo'lgan. Hozirgi Xitoyning sharqiy sohillari (Szansu va Shjeszan provinsiyalari)da kashf etilgan Sinlyangan madaniyati keyinchalik «sharqiy» nomli etnoslarning paydo bo'lishiga zamin yaratgan. O'sha

davrarda Xuanxe daryosining bosh shoxobchasi Veyxe vodiysida mashhur Yanshao neolitik dehqonchilik madaniyati paydo bo'lib, xitoy xalqining eng qadimiy ajdodlari, bir qismi esa tibet-birma etnoslarining shakllanishiga sabab bo'lgan. Yanshaoliklar daryo sohillarida yarim yerto'lalarda va ustunlarga o'rnatilgan sinch uylarda yashab, dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanganlar.

III mingyilliklarda sharqiy osiyoliklar O'rta Xitoy tekisliklarida yashovchi janubiy qabilalar bilan aralashib ilk Xitoy tiliga asos solingan. Keyingi ming yillikda qadimiy xitoy qabilalari – sya va shan (in)lar yirik qabilaviy ittifoqlar tuzib dastlabki sinfiy jamiyatlar negizidagi ilk davlatlar (eng kuchligi shan, keyin chjou)ni yaratgan. Ular qo'shni turli irqdagi etnik guruhlar bilan yaqin aloqada bo'lganlar. Shan davrida ieroglyph tipida yozuv paydo bo'lgan, uning jez idishlari va folbinlar fol ochadigan maxsus suyaklar (folbin suyaklari)ga yozilgan namunalari bizgacha yetib kelgan. Keyinchalik bu yozuv qo'shni Koreya va Yaponiyaga tarqalgan.

Xuanxe vodiysining o'rta qismida taxminan 6 ming yil avval xitoy etnosining asosi va mahalliy Sharqiy Osiyo sivilizatsiyasi shakllana boshlagan. Aynan bu davrdan xitoylar (xan)ning dastlabki etnik jamoasi asosi va dehqonchilik madaniyati shakllangan. Bu holat mahalliy an'anaviy dehqonchilik madaniyati shakllanishiga asos bo'lgan.

Xitoyning shimoliy va shimoli-g'arbiy rayonlari-dagi quriq kontinental iqlim o'ziga xos subregionda chorvador ko'chmanchi madaniyat shakllanishiga asos bo'lgan.

Mamlakatning deyarli barcha aholisi mongoloid irqining Tinch okeani shoxiga mansub hisoblanadi. Biroq agar janubiy qismda joylashgan Janubiy Osiyo

kichik irqiga kirsa, shimoliy qismida yashovchi aholi esa Uzoq Sharq tarmog'iga kiradi. XXRning markaziy va qisman shimoliy provinsiyalari orasida nisbatan ko'p qorishuvni kuzatish mumkin. Mazkur mintaqada mo'g'uliy elementlar aks etgan – burni turtib chiqqan, qisqa yuzli xitoy tipi tarqalgan.

Xitoyning sharqi va janubiy qismida aholi birmuncha zinch joylashgan bo'lib, ayrim rayonlarda 1 km<sup>2</sup> ga ming kishidan ortiq aholi to'g'ri keladi.

Mil. avv. I mingyillikning boshlariga kelib O'rta Xitoy tekisliklarida uzoq vaqt davom etgan qadimgi xitoy etnosining shakllanish jarayoni tugaydi va ular o'zlarini «xuasya», deb atay boshlaydi. Qadimiy xitoylar etnik birligining paydo bo'lishi o'sha davrlarda Xuanxe va Yanszi daryolari vohalaridagi davlatlarning birlashishiga dastlabki turtki berdi. Oqibatda miloddan avvalgi III asrlarga kelib markazlashgan Sin va Xan imperiyalari yuzaga kelgan. Janubiy Xitoyda qadimdan har xil qabilalar yashagan. Miloddan avvalgi davrning so'nggi asrlarida xitoylar janubga harakat qilib, mahalliy qabilalarni asta-sekin xitoylashtiradi.

So'nggi 20 yil ichida Taklamakon cho'li atrofida 5 – 6 mingyillik tarixga ega bo'lgan jasadlar, mato bo'laklari, sopol idish va boshqa ashyolarning topilganligi Xitoyning g'arbiy hududida ham nihoyatda qadimgi madaniyat bo'lganligidan dalolat beradi.

XX asr o'rtalaridan boshlab Xitoy jadal tarzda industrializatsiyalashdi. Shunga qaramay qishloqlarda yashovchi aholining kompakt holda joylashuvi va ularning nufusini yuqori bo'lishi ming yillarda rivojlanib taraqqiy etib kelgan etnik an'analarning, yoki ayrim mutaxasislar aytganidek, xitoy *superetnosi* madaniyati barqaror davom etishiga sharoit yaratgan.

Xitoy etnosining konsolidatsiyasiga xanlarning turli xan bo'limgan etnik guruuhlar bilan o'zaro etnoslararo aloqalari asos bolgan. Bu o'rinda shuni ham unitmaslik lozimki, Xitoyni 2 marta (XIII asrda mo'g'ullar va XVII asrda manjurlar) bosib olishgan, XX asrning birinchi yarmida xitoyliklar yapon intervensiyasiga duchor bo'lgan.

Xitoy xalqining birligi faqat til va hududiy umumiyligidagina aks etgan. Biroq muomalada xitoy tilida fonetik va leksik tarkibiga ko'ra farqlanuvchi ko'plab lokal dialektlar uchraydi. Chunonchi, janubda yashovchi xitoylar ko'p hollarda shimolliklar tilini yomon tushunishadi va hatto ayrim hollarda umuman tushunishmaydi. Lekin yozma til qat'iy bir xildagi ieroglyphlardan tashkil topgan sintaksis asosida qurilganligi mamlakatning barcha hududlarida yashovchi aholi uchun birday tushunarli bo'lishga imkon yaratgan.

An'anaviy xitoy aholisi *to'rtta asosiy ijtimoiy guruhlarga* bo'linadi. Bu *amaldorlar* (hukmdorlar, zodagon, aslzodalar) bo'lib, mamlakat ichidagi siyosiy va ma'muriy boshqaruvni nazorat qilgan. Amaldorlar o'zlarining xizmat faoliyatları davomida bir provinsiyadan ikkinchi provinsiyaga ko'chib yashashlari mumkin bo'lgan.

Aholi ijtimoiy qatlaming asosiy qismi (90 foizga yaqini)ni dehqonlar tashkil qilgan bo'lib, ular xitoy madaniyatiga klassik yozma merosi asosida kirgan va aynan ular millat asosi hisoblanadi.

Keyingi qatlam *hunarmandlar* bo'lib, ular an'anaviy texnikaning yuqori bo'lishini ta'minlab bergen. Xitoyning hunarmandchilik madaniyati – bu juda murakkab va yuqori tashkillashtirilgan majmua hisoblanadi. Ishlab chiqarishda shahar markazlarida profesional sexlarga birlashgan uncha ko'p bo'lma-



*Shanxay shahri*

gan jamoadan tashkil topgan ustalar yoki bitta usta ishtirok qilgan.

Xitoy jamoatchiligi orasida eng obro'li tabaqalaridan biri bu savdogaralar hisobalangan. O'z navbatida, shuni ham aytish kerakki, oxirgi o'n yilliklarda amalga oshirilgan islohotlar mamlakatdagi ijtimoiy aloqalar xarakteriga (bozor munosabatlari shaklini joriy qilish tufayli), jumladan savdogorlar faoliyatiga jiddiy ta'sir qildi va ularning ijtimoiy mavqeい ko'tarildi.

Sharqiy Osiyo xalqlarining ko'pchiligidagi yaqin davrlargacha klan (patronimiya) tashkilotlarining qoldiglari saqlangan bo'lib, u ijtimoiy ong va oilaviy turmushga zo'r ta'sir qilib kelgan. XIX asr oxirlari – XX asr boshlarida Xitoyda patronomiya va patriarchal tartiblari ijtimoiy va oilaviy munosabatlarni belgilab turgan. Qishloq jamoasi tuzumi patronim tashkilot («szunszu») an'analari qavmu qarindoshlar yer mulki, umumi ajdodlar ibodati bilan xarakterli bo'lgan. Ko'pchilik «szunszu» shajara kitobiga ega. Har kishi muayyan «familiya» (sin)ga tegishli hisoblangan.

Ularda ekzogam nikoh saqlangan: Sun familiyasidagi yigit Sun familiyasidagi qizni olishga haqqi yo'q. «Sin» urug' («shi»)larga bo'lingan (asli «shi» katta patriarxal oila tipi), oila boshlig'ining hukmi mustahkam, ayollar esa butunlay erkaklarga qaram bo'lgan. Nikoh yoshlikda o'tkazilgan. Ijtimoiy va oilaviy turmushga buddizm, daosizm, konfutsiylik dirlari, qisman tarqalgan islom va nasroniylik ta'sir qilgan. Shaxsiy (individual) ism tartibi koreys va yaponlarda ham mavjud bo'lib, asli urug' tuzumini aks ettirgan.

**Xo'jaligi.** Zamonaviy Xitoy industrial-agrar mam-lakat hisobalanadi. 1949-yil xalq inqilobidan so'ng xalq xo'jaligini tiklash ishlari boshlangan va dastlabki 5 yil ichida yuksak natijalarga erishilgan. Ammo undan keyingi 20 yildan ortiq davr ichida iqtisodiyoti nihoyatda qiyin ahvolga tushib qoldi. 1978-yilda boshlangan iqtisodiy islohotlar mamlakat iqtisodiyotini rivojlanish yo'liga olib chiqdi. Iqtisodiy o'sish sur'ati yiliga o'rta hisobda 8 – 10 foiz, xususiy mulkchilikka asoslangan tarmoqlarda 30 foiz ga oshdi. 1980-yillar oxirida yalpi ichki mahsulot hajmi 2 baravar ko'paydi, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash muammosi hal bo'ldi. 1990-yillar oxirida yalpi ichki mahsulotda sanoatning ulushi 49 foiz, qishloq xo'jaliginiki 19 foiz, xizmat ko'rsatish tarmog'iniki 32 foizni tashkil etdi.


Sanoatida ko'p tarmoqli mashinasozlik (stanoksozlik, qishloq xo'jaligi va transport mashinasozligi, traktorsozlik, avtomobilsozlik (2003-y. 4 mln. 443 ming 700 dona avtomobil ishlab chiqarildi), elektron energetikasi va boshqa sanoat jihozlari, elektron buyum va priborlar, shuningdek, velosiped, tikuv mashinalari, soat va boshqalar ishlab chiqarish), kimyo, qora metallurgiya muhim mavqega ega. Sanoatning asosiy tarmoqlaridan – to'qimachilik (ip-gazlama – 1996-y. 22,1 mlrd. metr ip, shoyi, jun gazlama ishlab chiqarilgan), oziq-ovqat sanoati rivojlangan. Hu-

narmandchilik ham katta ahamiyatga ega (eng qad. tarmoqlari – yigiruv-to'quv, keramika – chinni va fayans – va uy-ro'zg'or buyumlari ishlab chiqarish). Xitoy badiiy-hunarmandchilik buyumlari bilan ham mashhur. Hunarmandchilik ham qadimdan taraqqiy topgan, ipak qog'oz, chinni, lak mahsulotlari, metall buyumlar yasash keng tarqalgan. Szindechjen chinni manufakturasida tayyorlangan mahsulotlar chet elga chiqarilgan va jahonga mashhur bo'lgan. XVI asrdan badiiy kashtado'zlik va to'quvchilik rivojlandi.

**Transport vositalari:** yengil ikki g'ildirakli odam tortib yuradigan kolyaska-riksha, mol qo'shilgan yoki dastak arava; janubda, suv yo'llarida yelkanli qayiq (jo'nka) ishlatilgan. Xo'jalikda ishchi kuchi sifatida, asosan, qo'tos va ho'kiz ishlatilgan. Hozirda esa eng zamonaviy avtomobillar, tezyurar poyezdlar va samolyotlar asosiy transport vositasi hisobalanadi.

Xitoylarning asosiy mashg'uloti qadimdan dehqonchilik bo'lib, mil. avv. III mingyillikda yuzaga kelgan va yanshao madaniyati bilan bog'liq bo'lgan. Dastavval mahalliy aholi suli ekkan, keyin sholi eka boshlaganlar. Don ekinlaridan: gaolyan, dukkakli ekinlar, cho'miza, loviya ekiladi; choy plantatsiyalari, pillakashlik va ipak ishlab chiqarish uch ming yildan buyon ma'lum. Yerga ishlov berishda yog'och yoki temir tishli omochdan foydalanganlar, ekinni tishli temir o'roq bilan o'rib, molga tepkilatib yoki yog'och bilan yanchganlar. Qadimdan ekin ekadigan seyal-kalar ham paydo bo'lgan. Ammo hosildor yer taqchil bo'lganligi uchun chopqidan ko'proq foydalanilgan. Irrigatsiya rivojlangan, dalalar ni ariq tortib o'z oqimi bilan, ba'zan chig'ir o'rnatib sug'organlar.

Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerning 93 mln. getktari (mamlakat hududining 10 foiz) ishlana-di, 49 foiz sug'oriladigan yerlar. Ekin maydonining 2/3 qismini sholi, bug'doy, batat, kartoshka egallaydi,



*Jui Tui qadimgi Xitoy ibodatxonasi*

18 foiz ga texnika ekinlari (paxta, soya, yeryong'oq, choy, tamaki, jut, shakarqamish, qandlavlagi va bosh-qalar) ekiladi. Shuningdek, tariq, arpa, grechixa ham yetishtiriladi. Xitoyning janubidagi dengiz sohillari va Sichuan soyligida shakarqamish, sharqiy va markaziy tumanlariida choy o'stiriladi. Tropik, subtropik va mo'tadil mintaqalarda ko'p tarmoqli bog'dorchilik (sitrus mevalar, ananas, banan, mango, olma, nok va hokazo) rivojlangan. Xitoyning ba'zi bir yirik rayonlari chorvachilikka ixtisoslashgan. Xitoyda cho'ch-qachilik, parrandachilik rivojlangan, ish hayvonlari ko'paytiriladi. Ichki Mo'g'uliston, Sinszyan-Uyg'ur muxtor rayonining shimoliy qismi va Tibetda yaylov chorvachiligi (qo'ychilik, qoramolchilik, yilqichilik) asosiy o'rinda turadi. Ularda chorvachilik dehqonchilikka qo'shimcha sifatda rivojlangan. Qoramol, janubda buyvol (ho'kiz) ishchi kuchi sifatida, go'shtga esa cho'hqa, ushoqmol, parranda ishlatilgan.

Yanszi va Shjuszyan daryolari havzalarida tut ipak qurti, Shimoli-Sharqiy Xitoyda va Shandunda dub ipak qurti boqiladi. Xitoy dunyoda tabiiy shoyi yetishtiruvchi yirik davlatlardan biri. Xitoy baliq va boshqa dengiz hayvonlarini ovlashda dunyoda oldingi o'rirlardan birida turadi. Chuchuk suv havzalarida va sholipoyalarda baliqchilik ham keng tarqalgan. Xitoyda yog' och tayyorlanadi, yovvoyi o'simlik mevalari va shifobaxsh o'tlar yig'iladi.

**Me'morchilik va an'anaviy turarjoylari.** Xitoy hududida mil. avv. 4 – 1 mingyillikka oid manzillar saqlangan. Mil. avv. 2 mingyillikda devorlar bilan o'ralgan, ibodatxona va saroylari bor shaharlar paydo bo'ldi (poytaxt Anyan shahri, saroyi xarobalari). Sinchli binolar qurilgan. Mil. avv. 1 ming yillik o'rtalariда me'morchilik va shaharsozlik prinsiplari shakllandi. Mamlakat markazlashgan yagona Sin davlatiga birlashtirilgach (mil. avv. 221 – 207), Buyuk Xitoy devorining asosiy qismi qurildi. Sin va Xan davrlari (mil. avv. 206 – mil. 220)da 2 – 3 qavatli uylar, yirik saroylar barpo etildi. Mil. avv. III asrgacha murakkab konstruksiyali ulkan saroylar, katta ko'prik, maqbara, darvozalar qurildi (Sichuan provintsiyası, Yaan uezzidagi Gaoi syue). III – VI asrlarda buddizm ta'siri natijasida ko'p pog'onali ibodatxona – pagodalar yuzaga kelgan. (Xenan provinsiyasida, 523). VII – XII asrlarda xitoy me'morchiligi shakllarning qat'iyligi va mahobatliligi bilan ajralib turadi. Bu davrda Loyan, Shan'an shaharlarlari, saroy va ibodatxona majmualari (Utayshan tog'laridagi Foguan ibodatxonasi, 857), pagodalar (Sianya yaqinidagi Dayanta yoki «Yovvoyi g'ozlar» katta pagodasi, 652). Sun davlati davrida Xitoy me'morchiligiga shakllarning nihoyatda nafis va mutanosibligi xos (Kayfindagi Teta yoki «Temir» pagoda, 1041 – 48). Mo'g'ullarning Yuan sulolesi hukmronligi davri (XIII – XIV asrlar)da yuanlar

davlati poytaxti Dadu (keyinchalik Pekin)da binolar ansamblı qayta qurıldı, saroy majmuaları yaratıldı.

Mo‘tadil iqlimdagı qo‘l (chopqi) dehqonchiligi bilan shug‘ullanuvchi xalqlarda dastlab yarim yerto‘lalar, keyinchalik loydan qurilgan uylar, namli issiq iqlimdagı aholisida yerdan ko‘tarilgan polli ustunlariga o‘rnatilgan uylar xarakterli. Eng ko‘p tarqalgan

ustunli sinch uylar xitoy, koreys, yapon, tay va monkxmer xalqlariga xos bo‘lsa, xomg‘isht va toshdan qurilgan uylar uyg‘urlar, tibet va iszu xalqlarida ko‘p uchradidi. Ustunli uylarda loydan qurilgan o‘choq, ko‘pchilik qismida (yapon va xitoylarda) doimiy o‘choq o‘rniga manqal ishlatiladi, shimoldagi xitoylarning uylari maxsus mo‘rili supa (kan) bilan qizitiladi. Baland tog‘larda yashovchi ko‘chmanchi chorva elatlarning uylari, asosan, kigiz yoki jun mato bilan qoplan-gan chodirdan iborat.



*Milliy kiyimdagı  
xitoy ayoli*

Ko‘pchilik chorvador ko‘chmanchi aholi yig‘ma yog‘och sinchlardan qurilgan va kigiz bilan yopilgan o‘tovlarda yashaydi. Masalan, xitoylarning uylari yog‘ochdan 2 – 3 xonali sinch qilib, orasiga xom yoki pishgan g‘isht terilgan, tomi va devorlari somon va yaproq bilan yopilgan. Odatda, yog‘langan qog‘oz yopishtirilgan bir-ikkita deraza qo‘yilgan. Xitoylarning qishloq uylari fanza, deb ataladi. Xona o‘rtasida kichkina devorlari doim isib turadigan o‘choqqa qozon qo‘yiladi.

Asosiy ro'zg'or buyumlari yog'och yoki sopol idishlar, stol, yotib-turish uchun bo'yra (ko'rpa-to'shak o'rnida) dan iborat. Qishloqlar, asosan, yo'l va suv bo'yida joy-lashgan.

XIX asrning 2-yarmida Shanxay, Tyanszin, Nankin, Guanchjou kabi yirik shaharlarda Yevropa tipidagi eklektik binolar paydo bo'ldi (Ixeyuan bog'idagi Sinyanfan saroy paviloni, Pekindagi kutubxonasi). XX asrning 80-yillaridan zamonaviy qurilish konstruksiyalari milliy me'moriy an'analar bilan uyg'unlashtirilib, yirik bino va inshootlar bunyod etildi.

**Milliy kiyimlari va taomlari.** Xitoy an'anaviy kiyimlarida erkak va ayollarniki kam farq qiladi. Ular, asosan, keng shim (ishton), yaxtak ko'ylak (kofta) va engsiz kamzul (kurtka) kiyadilar. Qishki kiyimi



*Milliy kiyimdagagi  
tibetlik*

paxtali shim-kurtka va xalat, bosh kiyimlari esa teri qalpoq, yozda ro'mol yoki shlyapadan iborat. Qo'shni koreys erkaklari ham keng shim, kurtka, yomg'irda plash, oyog'iga sandal, boshiga somon shlyapa kiyadilar. Ayollari esa keng lozim, keng yubka, yaktaksimon kofta, oyog'iga to'qilgan yoki kigiz sandal kiyib yuradilar. Qariyalari oq kiyim, yoshlari rang-barang matolardan tikilgan kiyimlar kiyadi. Xitoyliklarning taomi, asosan, guruch, har xil donlardan yorma, turli

sabzavotlar, baliq va molyuskalardan iboratdir. Ular da eng sevimli ichimligi choy hisoblanib, u faqat issiq

holda ichiladi. Xitoy taomi ikki komponentga bo'linadi: Chjushi («asosiy taom») va fushi («ikkinchi darajali taom»). Shjushiga turli xamir taomlar (manti, ugra osh, chuchvara, varaqi, patir), guruch, suli va bug'doy yormasi, dukkakli ekinlardan pishiriladigan ovqatlar kiradi. Fushiga, asosan, sabzavot, go'sht va baliqdan tayyorlanib, chjushiga garnir sifatida tortiladi. Fushiga ko'proq sabzavot ishlatiladi. Mol, cho'chqa go'shtlari, janubda it (o'rta asrlarda it go'shtidan tayyorlangan taom butun Xitoyda eng sevimli hisoblangan) va qurbaqa go'shti keng iste'mol qilinadi. Janubiy Xitoyda baliq va dengiz mahsulotlaridan turli taomlar tayyorlanadi, shuningdek, tovuq va o'rdak go'shtini tanovul qilish keng tarqalgan.

**Tibet (xitoycha Sitszan)** – Xitoyning janubi-g'arbiy qismidagi o'ziga xos tarixiy etnografik jihatlari bilan ajralib turuvchi ma'muriy birlik hisoblanadi. Maydoni 1,2 mln. km<sup>2</sup>. Aholisi 2,52 mln. kishi (1998). Ma'muriy markazi – Lxasa shahri. Aholisining aksari qismini tibetlar, shuningdek, ularga yaqin syan, nu, dulun, abor, lishmi, dafla xalqlari tashkil etadi. Tibet-birma guruhlari tilida so'zlashadi; buddizm-lamaizm diniga e'tiqod qiladi. Tibetning asosiy tub aholisi tibetliklar bo'lib, ular o'zlarini pyoba, deb ataydilar. Tibetliklarning deyarli barchasi XXR (Tibet avtonom rayoni, Gansu, Sinxay, Sichuan, Yunnan viloyatlari-da, bir qismi Hindiston, Nepal, Butanda yashaydi. Tibet tilining turli shevalarida so'zlashadi.

Tibetliklar milodiy VII asrning I yarmidan yozuvga ega bo'lgan. Qadimdan kitob bosib chiqarish (ksilografiya) mavjud. Tibetliklarning ajdodlari jun va syan qabilalari (mil. avv. II mingyillik oxiridan ma'lum) bo'lgan; syanlar tibetliklar etnogenezining asosiy negizini tashkil qilib, turli davrlarda xitoylar, turkiylar, saklar va boshqa etnik guruhlarni o'ziga singdirgan. Tibetliklar mashg'ulot turiga qarab tog'lik

o'troq dehqonlar (Tibetning yarmidan ortig'i), yarim-o'troq dehqon-chorvadorlar va ko'chmanchi-chorvadorlarga (asosan, yak, ot, qo'y va echkilar) bo'linadi. Hunarmandchilik (kulolchilik, to'qimachilik, metallni qayta ishslash) taraqqiy etgan. Tibetliklar orasida yaqin vaqtlargacha poliandriya va poliginiya saqlanib qolgan.

Tibetlik erkak va ayollar teridan tikilgan shim va jun xalat kiyadilar. Ayollari bosh kiyimlariga har xil tangalar, chig'anoqlar qadaydilar. Ularning asosiy taomlari qo'tos go'shtidan pishiriladi va sut mahsulotlari iste'mol qilinadi, don ekinlaridan talqon (szamba) tayyorlanadi, bayramda guruch yoki bug'doy unidan non pishiriladi. Qo'tos transport vazifasini o'taydi. Tibetliklarning sevimli ichimligi choy. Unga eritilgan sariyog' va tuz solib szamba bilan ichadilar. Har xil hunarmandchilik kasblari – temir va yog'och buyumlar yasash, chit va gilam to'qish, o'ymakorlik (toshga, yog'ochga) keng tarqalgan.

Bu yerda hozirgacha teokratik boshqarish shakli saqlanib kelmoqda. Har bir tibet oilasi bir bolasini monax qilib monastirga berishi shart bo'lgan. Budizmning asosiy tarmoqlaridan biri lamaizm hukmron din hisoblanadi. XVII asrda tibetda lamaizmning «sariq qalpoqliklar» mazhabi hokimiyatni qo'lga olib, 1951-yilgacha hukmronlik qilgan. So'nggi yillarda tibetliklarning sotsial-iqtisodiy va madaniy hayotida ancha o'zgarishlar ro'y berdi.

**Me'morchiligi.** Tibetning muhim san'at yodgorliklari zamindorlik munosabatlari avj olgan davrlarda yaratildi. O'rta asr Tibet me'morchiligi mamlakatning yovvoyi va cho'l tabiatini bilan mutanosib ravishda o'zining keskinligi va mahobatliligi bilan ajralib turadi. Tog' cho'qqilariga qal'a-qasrlar qurilgan. Tog' etaklari va cho'qqilarida joylashgan monastirlar bir necha qator devorlar bilan o'ralgan bo'lib, bosh ibo-

datxona shimolga qaragan, atrofida maydonlar, yon bag'irlarda amfiteatr ko'rinishida monaxlar uy-joylari bo'lgan. Lxasadagi Potala saroy-qal'asi o'rta asrning o'ziga xos me'moriy obidasi hisoblanadi.

Tibetda XX asrga qadar manzarali bezak san'atining kashtachilik, jezdan ibodat va maishiy buyumlar, musiqa asboblari tayyorlash, gilamlar to'qishning an'anaviy turlari saqlanib qolgan.

**O'zbekiston – Xitoy aloqalari.** O'zbekiston hududi Buyuk ipak yo'lining chorrahasi bo'lganligi tufayli ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar bir necha ming yillik tarixga ega. Ammo birinchi Xitoy elchisi Shjan Syanning qadimgi Farg'ona (Davan, Dayuan) davlatiga kelishi mil. avv. 128-yil. da yuz bergan. Ushbu voqeani ikki davlat o'rtasidagi diplomatik aloqaning boshlanishi, deb hisoblash mumkin. Elchi vataniga qaytib borgandan so'ng, xitoyliklar nafaqat Farg'ona, balki butun O'rta Osiyo haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lgan. Shuning uchun ular elchini g'arbg'a boradigan Buyuk ipak yo'lini ochgan shaxs, deb bilishadi. Shjan Syandan keyin hozirgi O'zbekiston hududiga kelib ketgan elchilar va budda rohiblarining soni ko'paygan. Qadim zamondan beri O'zbekiston va Xitoy o'rtasida ijobiy ahamiyatga ega bo'lgan savdo va boshqa munosabatlar rivojlangan. O'tgan o'rta va qadimgi asrlarda hozirgi O'zbekiston hududida yashagan ko'p kishilar Xitoya borib faoliyat ko'rsatganlar. Ular nafaqat savdo ishlarida, balki qurilish, fan va texnika sohasida ham nom chiqarishgan. Ayniqsa, Xitoyda tashkil topgan va Yuan deb nomlangan mo'g'ullar sulolasi davri (1279 – 1368)da Mahmud Yalavoch, Umar Shamsiddin va boshqalar davlat ishlarida, Jamoliddin Buxoriy, Kamoliddin, Muhammad Buxoriy, xorazmlik Ahmad Fanakatiy va boshqalar matematika va astronomiya sohasida ulkan ishlar qilib, Xitoyda mashhur bo'lganlar. XIII–XIV asrlarda bir qator tabi-

blar Xitoyda faoliyat ko'rsatgan, ular yordamida Ibn Sinoning «Tib qonunlari» xitoy tiliga tarjima qilingan va u xitoy tabobati durdonasi hisoblangan «Xueyxuey yaofan» («Musulmon dorivorlari») hamda «Bentsao ganmu» («Giyoh dorivorlar qonuni») asarlarining yaratilishida asos bo'lgan. O'zbekistonliklar Xitoyda islomning tarqalishiga ham katta hissa qo'shishgan. Shu zamonlarda Samarqanddan borgan va o'g'uz qabilasining solor urug'i avlodidan bo'lgan 40 dan ortiq oila Sinxay viloyatiga joylashgan. Ularning avlodni ko'payib hozirda XXRda mavjud bo'lgan 56 xalq (milat)ning birini tashkil qiladi.

So'nggi yillarda O'zbekiston bozorlarida Xitoy molalarining ko'payganligini kuzatish mumkin. Xitoydan O'zbekistonga texnika, elektronika, elektr jihozlari, xalq iste'mol mollari, choy va ziravor, optika priborlari va apparatlari, transport vositalari, to'qimachilik mahsulotlari, kiyim-kechak, poyabzal va boshqalar keltiriladi. O'zbekiston Xitoya rangli metallar va ulardan tayyorlangan buyumlar, mineral yonilg'i, neft va neft mahsulotlari, paxta va ipak tolasi, plastmassa va boshqalar yuboradi. Ayni vaqtida O'zbekistonda Xitoy investorlari ishtirokida tuzilgan 122 ta korxona ro'yxatdan o'tgan.

Ikki tomonlama hamkorlikning rivojlanishiga 1998-yil 1-dekabrda tuzilgan «O'zbekiston – Xitoy» do'stlik jamiyati munosib hissa qo'shib kelmoqda.

### 31. 2. Koreya va koreyaliklar

Koreya (koreyscha Choson – Tonggi tarovat) – Sharqiy Osiyodagi mamlakat. Asosan, Koreya yarim oroli va uning materikka tutashgan qismida hamda 3,5 mingga yaqin orolda joylashgan. Koreyani sharqdan Yapon dengizi, g'arbdan Sariq dengiz o'rabi olgan,

janubda Koreya bo'g'ozni uni Yaponiyadan ajratib turadi. Dengiz chegaralari 8,7 ming km. Shimolda Xitoy va Rossiya Federatsiyasi bilan chegaradosh hisoblanadi. Quruqlik chegaralari 1,3 ming km. maydoni 219 ming 20 km<sup>2</sup>. Koreya yarim oroli hududida Koreya Respublikasi va Koreya demokratik respublikasi nomli ikki mustaqil davlat joylashgan bo'lib, ularning aholisi 73 mln. 5 ming kishi. Shundan, KXDR da 24 mln. 41 ming kishi (2011-yil) va Koreya Respublikasi-da 49 mln. 24 ming kishini (2012-yil) tashkil etadi.

Koreyslar Osiyo mintaqasining qadimgi xalqlaridan biri hisoblanadi. Antropologik klassifikatsiya-ga ko'ra, koreyslar mongoloid irqining sharqiy osiyo shaxobchasi dagi manjur-koreys tipiga mansub hisoblanadi. Til bo'yicha klassifikatsiyaga ko'ra, koreys tili turk, mo'g'ul, tungus-manjur bo'limi, shuningdek, koreys va yapon tillarini birlashtirgan oltoy tillari oilasiga kiradi. Ba'zi adabiyotlarda esa bu tilni ural-oltoy tillar oilasi deb ham yuritiladi.

Evolyutsion antropologik ma'lumotlarga qaragan-da, manchjur-koreys tipi, *paleoosiyoliklarning Tinch okeani* (avstroneziyaliklar) va kontinental hududlarda yashovchi mongoloid guruhlar bilan o'zaro qori-shuvi natijasida paydo bo'lgan.

Paleoosiyoliklar yoki qadimgi aborigenlar Shimoliy va Shimoli-Sharqiy Osiyoning kam sonli xalqlari bo'lib, ular Shimoliy va Shimoli-Sharqiy Sibir, Kuril orollari, Saxalin va Yaponiyada yashagan. Ularga nivxlar, eskimoslar, yukagirlar, ketlar, aleutlar va aynlar kiradi. Shu bilan birga chukchalar, koryaklar, itelmenlar ham mazkur guruhga taalluqli bo'lib, ular shimoli-sharqiy paleoosiyolik guruhini tashkil etadi.

Ayrim mutaxassislarning fikricha, koreyslar etnogenezida Oltoy tog'lari hududlari va Markaziy Osiyoga tutash hududlarda yashovchi qabilalar ham ishtirok etgan. Ular bir necha ming yillar ilgari Man-

juriya, Xitoyning ayrim hududlari, Sibir va Primore o'lkalariga qarab siljigan. Koreya yarim oroliga kelgan qabilalarning ayrimlari mahalliy xalqlarni siqib chiqargan bo'lsalar, boshqalari esa mahalliy xalq bilan singishib ketganlar. Siqib chiqarilgan aholining katta qismi Yaponiya, Saxalin, Kamchatka, Sharqiy Sibir qirg'oqlari va Arktika hududlariga ko'chib o'tgan.

Ko'plab ko'chmanchilarining kirib kelishi Koreya yarimoroli xalqining moddiy madaniyatida, xususan, kulolchiligiga qator o'zgarishlarni olib kirgan. Olimlarning fikricha, silliq, tekis sopol buyumlar Sibir mongoloidlarining (mil. avv. V – IV mingyillik) baykal shaxobchasi orqali, taroqsimon sopol buyumlar shimoli-sharqiy paleosiyoliklardan (mil. avv. IV–III mingyilliklar atrofida), bo'yoqli kulolchilik namunalari esa mongoloid irqining Sharqiy Osiyo tipi orqali kirib kelgan. Koreyadagi dolmenlar madaniyati Janubi-Sharqiy Osiyoda ilk dafn marosimlari bilan bog'liq an'analarga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Koreya yarimoroliga bronza davri madaniyati Manjuriya va Sibirdan kirib kelgan. Olimlar mazkur madaniyatning uzatuvchilari tarzida, tungus-mongoloid guruhini ta'kidlaydilar. Temirning kirib kelishi esa Xitoydan kelgan ko'chmanchilar bilan bog'liq bo'lgan. Koreya yarim oroliga xalqlarning ko'chib kelishi bilan bog'liq yana ko'plab qarashlar mavjudligi, koreys halqi etnogenezini to'liq izohlash imkonini bermaydi.

Eramizgacha bo'lgan I mingyillikda Koreya yarimoroli va unga tutash hududlarda koreyslarning ilk ajdodlari va qadimgi koreys qabilalari shakllangan bo'lib, ular janubiy va shimoliy guruhlarga bo'lingan. Shimoliy qabilalar yozma manbalarda *tun-i* («sharqiy g'ayritabaalar», «sharqiy varvarlar» yoki «sharqiy kamonchilar») nomini olgan bo'lib, ularga tungus-man-chur qabilalariga yaqin bo'lgan qabilalar va paleoo-

siyoliklar kirgan. Aynan mazkur guruhgaga Koreya yarim orolining shimoli va Xitoyning shimoli-sharqida joylashgan *choson*, *emek*, *puyo*, *okcho*, *koguryo* va boshqa qabilalar kirgan. Janubiy qabilalarga esa «uch xon» (*maxan*, *chinhan*, *pyonhan*) hamda *kaya*, *saro* va boshqa qator qabilalar kirgan bo'lib, ular avstroneziya xalqlariga yaqin xalqlar bo'lib, yarim orolning markaziy hamda janubiy qismida yashagan. Zamonaviy koreyslar esa etnos va millat tarzida shimaliy va janubiy qabilalarning qo'shilishidan paydo bo'lgan.

Ikkinci jahon urushidan so'ng 1945-yil avgustda Koreya yarim orolining 38-paralleldan shimoliy qismi Sovet Armiyasi tomonidan ozod qilinishi va shu yil sentabr oyining boshlarida AQSh qo'shinlari Koreyaning janubini ishg'ol qilishi natijasida ittifoq-chilarining qarorida 38-parallel Sovet va Amerika qo'shinlari o'rtaсидаги chegara chizig'i bo'lib qolishi belgilangan. 1945-yil dekabrida sobiq SSSR, AQSh va Buyuk Britaniya tashqi ishlar vazirlarining Moskva kengashi Koreyani vasiylikka olish haqida qaror qabul qildi. 1948-yil 15-avgustda Seulda Koreya Respublikasi (KR), 9-sentabrda Pxenyanda Koreya Xalq Demokratik Respublikasi (KXDR) tuzilganligi rasmiy ravishda e'lon qilindi. Mamlakatni birlashtirish borasida KXDR bilan Koreya Respublikasi o'rtaсидаги keskin o'zaro qarama-qarshilik oqibatida ikkala tomonning aybi bilan ko'p martalab qurolli to'qnashuvlar bo'ldi. Bu mojarolar 1949-yilning 2-yarmidan boshlab, ayniqsa, shiddatli tus oldi, natijada 1950-yilda to'la miqyosli urush harakatlari boshlanib ketdi. O'sha yili 25-iyunda BMT Xavfsizlik Kengashida SSSR vakili qatnashmagan paytda KXDRni Koreya Respublikasiga qarshi tajovuz qilishda ayblovchi qaror qabul qilindi va 2 kundan keyin BMT ga a'zo dav-

latlarni Koreya Respublikasiga shoshilinch yordam berishga chaqiruvchi yana bir qaror qabul qilindi.

Xalqaro kuchlar tomonidan KXDRga tahlikali xavf tug'ilgach, Xitoy xalq ko'ngillilari (salkam 1 mln. kishi) Shimoliy Koreyaga yordamga keldi. Shiddatli janglardan keyin 1951-yil o'rtalarida ikkala tomon urushda g'alaba qozonish imkoniy yo'qligini anglab, mudofaaga o'tdi va muzokara boshlashga majbur bo'ldi. 1953-yil 27-iyulda Koreyada yarash to'g'risida bitim imzolandi. KXDR bilan Koreya Respublikasi o'rtaida 4 km kenglikda qurolsiz mintaqasi o'rnatildi.

Uch yillik urush mamlakatni abgor qildi, uning iqtisodiyotiga katta putur yetkazdi. Millionlab kishilarning oilalari bo'linib ketdi. Bu birodarkushlik urushi Shimol bilan Janubning ajralishini yanada kuchaytirdi.

1970-yillarning boshlaridan KXDR bilan Koreya Respublikasi o'zaro munosabatlarni tartibga solish yo'llarini izlash va mamlakatni qayta birlashtirishga erishish maqsadida muloqot qilib keldi. 1991-yil sentabrda ikkala koreys davlati BMTga qabul qilindi. O'sha yil dekabrda KXDR bilan Koreya Respublikasi o'rtaida yarashish, hujum qilmaslik, hamkorlik va mol ayirboshlash haqida bitim, 1992-yil fevralda Koreya yarim orolining parchalanmasligi to'g'risida Qo'shma deklaratsiya imzolandi. Nihoyat, 2000-yil iyunida Koreya Respublikasi prezidenti KXDR ga tashrif buyurdi va Shimol bilan Janub o'rtaida iliq munosabatlar va hamkorlik boshlashga qaror qilindi.

Shimoliy Koreyaga nisbatan Kim Te Jun o'zaro munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan «oftob tafti» siyosatini olib bordi. Shimoliy Koreyaga gumanitar yordam ko'rsatildi, Kimgansan tog'ida (KXDR) erkin turistik zona yaratildi, ajralib qolgan oilalar o'rtaida uchrashuvlar tashkil etildi, ikki mamlakat temir yo'llarini birlashtirish ishlari boshlab yuboril-

di va hokazo. 2000-yilning 13–15-iyunida Pxenyan shahrida ular va Shimoliy Koreya rahbari Kim Chen Ir o'rtasida tarixiy uchrashuv bo'lib o'tdi. 2000-yil noyabrda Kim Te Junga tinchlik uchun Nobel mukofoti topshirildi.

2002-yilgi prezidentlik saylovlarida Koreya Respublikasi prezidenti etib No Mu Xyon, 2007-yilda – Li Myon Bak, 2012-yil dekabrda esa – Pak Kin Xe saylanadi, u birinchi ayol – prezident (Pak Shjon Xining qizi) hisoblanadi.

Hozirgi paytda Janubiy Koreya dunyoning yirik iqtisodiy klubi (G – 20) a'zosidir. 1996-yildan mamlakat Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti a'zosi (IHTT). 1962-yildan 2011-yilga qadar Janubiy Koreyaning YaIM 2,3 mlrd. dollardan 1,5 trln. dollargacha o'sdi (dunyoda 12-o'rinda), YaMM esa aholi boshiga 87 dollardan 31,7 ming dollarga ko'tarildi. Mamlakat YaIMning umumiy hajmidan ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish, iste'mol elektronikasi va xotira chiplarini ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda yetakchi o'rnlarda, kema va korabl ishlab chiqarish bo'yicha 2-o'rinda, avtomobil ishlab chiqarish bo'yicha 5-o'rinda, tekstil mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha 7-o'rinda. Janubiy Koreyaning ikki marta Xalqaro ko'rgazma o'tkaziladigan joy sifatida (EKSPO, 1993- va 2012-yy.), Olimpiya o'yinlari (1988 va 2018-yy.), futbol bo'yicha jahon championati (2002-yilda Yaponiya bilan birga), uning vakili Pan Gi Munning esa BMT Bosh kotibi etib saylanganligi ham ko'rsatib turibdi.

Koreyslar o'zlarini Choson saram – Choson mamlakati odamlari deb atashadi.

Tarixdan ma'lumki, bir necha asrlar davomida koreyslarning nomlari bir necha marta o'zgargan. Uning qadimgi nomlaridan biri – *kore soram* («Koreya mamlakati odamlari») bo'lib, bu nom Kore (918 – 1392) davlati nomi bilan bog'liq. Bugungi kunda bu

etnonim sobiq sovet ittifoqi, xususan, O'zbekistonda yashovchi koreyslarga nisbatan qo'llaniladi. O'rta asrlardan to XX asr o'rtalariga qadar *choson saram* («Choson mamlakati odamlari») etnonimi keng tarqalgan bo'lib, bu Li (1392 – 1910) sulolasi hukmronlik qilgan Choson mamlakati nomi bilan bog'liq. Shuningdek, bu nom qadimgi koreys davlati (milodgacha bo'lgan VII – II asrlardagi qadimgi Choson davlati) nomini ham takrorlagan. Yuqorida ta'kidlanganidek, 1945-yil KXDR tashkil qilingandan so'ng bu mamlakatda yashovchilarni *choson saram* (siyosiy nom bilan bog'liq) etnonim va Koreya Respublikasi aholisini esa – *xanguk saram* («Xan mamlakati odamlari») etnonimi qo'llanila boshlangan.

XX asrning so'ngida KXDR va Koreya Respublikasi industrial-agrar mamlakatga aylandi: ularning, ayniqsa, Koreya Respublikasi ishlab chiqarishida yuqori texnologiyalar qo'llanilmoqda. Aynan iqtisodiy taraqqiyoti tufayli Koreya Respublikasini «Osiyoning yosh yo'lbarsi», deb ham nomlashadi.

Asosiy mashg'ulotlari sholikorlik, Chorvachilik, baliqchilik, ipakchilik, hunarmandchilik bilan ham shug'ullanishadi.

Yarim orolning shimoliy qismida va qisman materikda Koreya Xalq Demokratik Respublikasi, yarim orolning janubiy qismida Koreya Respublikasi joylashgan.

Koreya – bir millatli mamlakat; aholisining 99 foizdan ortig'i koreyslar. Dindorlari buddaviylik, konfutsiylikka va, qisman, xristian diniga e'tiqod qiladi. Rasmiy tili – koreys tili.

Koreyaning aksar qismi tog'lik. Shimolda Shimoliy Koreya tog'lari (bal. 2744 m gacha) va katta yassi tog'lar, Koreya yarim orolining sharqida Sharqiy Koreya tog'lari, janubda shu tog'larning janubi-g'arbiy tarmoqlari,  $36^{\circ}$  sh. k. dan janubda esa Janubiy



*An'anaviy koreys turarjoyi*

Koreya tog'lari bor. Koreya hududining 1/4 qismini pasttekislik va tekisliklar tashkil etadi. Yer yuzasi ning 70 foizdan ko'prog'i o'rmon va butazorlar bilan qoplangan.

Koreyslarning assosiy kasbi dehqonchilik. Ular, asosan, bug'doy, sholi, arpa, gaolyan, loviya va yog' ekinlari, kartoshka va batat ekadilar. Texnik ekinlardan paxta, tamaki, jenshen va tut daraxti o'stiradilar. Chorva kam rivojlangan, asosan, cho'chqa, qora mol (ishchi kuchi sifatida), parranda, go'sht uchun it parvarish qilinadi. Baliqchilik katta rol o'ynaydi.

**Moddiy madaniyati.** Neolit davridan yarim yerto'la qoldiqlari, milod boshlaridan sag'analar, daxmlar, VII asrdan Kyonju yaqinidagi Shxomsonde rasadxonasi qolgan. VIII asrdan shaharlar, shu jumladan, poytaxt – Kyonju jadal qurila boshladi, ibodatxona majmualari, pagodalar (g'or shaklidagi Sokkuram ibodatxonasi, Pulguks majmuasi) barpo etildi. Koryo davlati davrida murakkab shaklli, naqshin pagoda va monastirlar qad ko'tardi, dunyoviy inshootlar (hukmdorlarning saroylari) buniyod etildi. Li sulolasiz zamonalarda qurilgan muhtasham majmualar yog'och

hamda tosh o'ymakorligi va naqqoshligi usulida bezatildi. Diniy inshootlar hashamat bilan ziynatlandi. Xalq esa tosh, loy va yog'ochdan yasalgan pastqam uylarda yashardi. Imoratlarni janubga, ya'ni oftobga qaratib qurish urf bo'ldi. Yaponiya mustamlaka hukmronligi davri (1910 – 1945)da Yevropa va Yaponiya me'morchiligi ruhida imoratlar qurildi.

Zamonaviy Koreya uchun ming yillar davomida davom etib kelayotgan milliy an'analari rivojlangan dunyo madaniyati bilan uyg'unlashuvi xos bo'lib, XX asrning ikkinchi yarmida Koreya moddiy madaniyatining rivojlanishiga jadal urbanizatsiya jarayonlari katta ta'sir qilgan. Oxirgi o'n yilliklarda XX asrning birinchi yarmigacha nafaqat Koreya qishloqlarida, balki shaharlarida ham keng tarqalgan bir qavatli ular o'zini ko'p qavatli binolar egalladi. Ayniqsa, Seul, Inchxon, Tejon, Tegu, Kvanju, Pusan kabi yirik megapolis shaharlarning tashqi qiyofasi butkul o'zgardi.



Koreys milliy taomlari



*Hanbok – Koreys milliy kiyimi*

Koreys uylari tabiiy sharoitiga qarab turli xilda: tog'li yerlarda to'p uylar, vohalarda to'g'ri ko'chali uylar qurilgan. Sinch ustunli uylar kam uchraydi. Tog'li joylarda yog'ochdan, vohada toshdan yoki guvaladan qurilgan 2–3 xonali uylarning deraza, eshiklari qog'oz bilan bekitilgan. Ko'p uylarda isitiladigan supa (kan), o'tirib-turish va yotish uchun polda chipta to'shalgan, faqat ovqat vaqtida stol kiritiladi. Uy-ro'zg'or buyumlaridan sopol, yog'och, mis idishlar mavjud. Kiyimlar sandiqda saqlanadi.

Koreyslarda ham asrlar davomida asosiy taomi tuzsiz qaynatilgan guruch (pap) bo'lgan. Guruchni maxsus idishlarda past olovda pishirib damlaganlar. Mayda guruch (oqshoq), arpa, bug'doy, tariq, chumiza va makkadan atala pishiradilar. Guruch va bug'doy unidan manti va lag'monga o'xhash taom (kuksu) tayyorlanadi. Loviyaning ayrim turlaridan maxsus ziravorli qayla (chan yoki kanchan) guruchga va bosh-

qa ovqatlarga qo'shib beriladi. Go'sht va baliqdan turli taomlar tayyorlanadi. Toza baliqni xom holida ham iste'mol qiladilar (qalampir, sirka, loviya qaylesi va ziravorlar qo'shilgan xom baliq taomi xve deyiladi). Krab, molyuska, trepana, tipratikon go'shti dengiz suvida pishiriladi yoki yog'da qovuriladi. Sabzavotdan har xil taomlar va salat (chxe) tayyorlanadi, meva, yovvoyi o'tlar, ildizlar va daraxt gullari oziq-ovqatda muhim o'rinni egallaydi. Bayramlarda cho'chqa, mol, it va parranda go'shtidan turli ovqat pishirilgan. An'anaviy taomlarga sut mahsuloti kirmagan. Choy ham ilgari uncha ichilmagan, uning o'rniga do'lana yaprog'i bilan zanjabilni damlab ichganlar.



*Milliy kiyimdagи koreys oilasi*

**Koreyslarning an'anaviy milliy kiyimlari** kiyilishiga ko'ra: kundalik; kunduzgi, bayram, marosimiy kabi guruhlarga bo'lingan. Kiyimlardagi ijtimoiy farq uning materialida aks etgan.

An'anaviy milliy erkaklar kiyimi o'ng tomonga bog'lab qo'yiladigan kalta kamzul (*chogori*) va keng ishton (*padi*) dan iborat bo'lgan. Ustki kiyim, odatta, oq rangli matodan (qishda paxta qo'shib) tikilgan. Ishtonlar belga keng va uzun belbog' bilan bog'langan bo'lib, uning to'piqqacha bo'lgan qismida oq matodan paypoq(*posol*) bo'lgan. Erkaklarning milliy kiyimining ajralmas qismi bu boshga kiyiladigan ot yoldan yoki bambukning ingichka plastinidan qora rangda to'qiladigan shlyapa (*kat*) bo'lgan.

Ayollar kiyimlari uzun yoki qisqa yengli kalta koftasi (*chogori*), keng ishton va beldan yuqorisiga uzun bog'ich bilan bog'lanadigan yig'ilgan yubkasi(*chxima*) dan iborat bo'lgan. Bolalar kiyimlari ham xuddi kattalarnikiga o'xshash bo'lgan.

Asrlar davomida koreyslarning kiyimlaridagi sevimli rang oq rang bo'lgan. Shu bois ham adabiyotda Koreyani shoirona tarzda «oq laylaklar» mamlakati deyilgan. Oq rang bugungi kunda ham koreyslarning sevimli ranggi hisoblanadi. Biroq KXDRda ham, Koreya Respublikasida ham oq rangli kiyim kundalik hayotdan chiqib ketgan. Mahalliy aholining asosiy qismi hozirda zamонавиy bichimdagi Yevropa kiyimlarini kiyadi. Bugungi kunda ayollarning an'anaviy kiyimi birmuncha saqlanib qolgan.

**Oila va oilaviy marosimlari.** Koreyslarda qarindoshlik munosobatlari tizimida otalarning ekzogam tizimi, koreyscha *pon* («asos» «ildiz») saqlanib qolgan bo'lib, bu guruhga kiruvchi yaqin qarindoshlar hisoblanib ular orasida nikoh munosbatlari ta'qilangan. Har bir oilada oila shajarasiga oid kitob (*chokpo*) mavjud.

Urbanizatsiya jarayonlarida ota-onada va bolalar hamda qaynotada va qaynonadan iborat kichik oilalar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Oldinlari ota-onalar, odatda, oilada katta o'g'ilni yashash uchun qoldirgan bo'lsa, hozirda bu tartibga doimo ham amal qilinmaydi. Koreys oilasining o'ziga xos tomoni yoshi kattalarga, ayniqsa otaga, agar u vafot etsa, katta akaga bo'lgan hurmatda ko'rish mumkin. Ota-onalarning eng muhim vazifasi bolalariga yaxshi tarbiya va bilim berish hisobalanadi. Ikkinchisi jahon urushiga cha bo'lgan davrda koreys oilalariga ham ko'pfarzdilik xos bo'lgan bo'lsa, urushdan keyingi yillardan boshlab oilada bir yoki ikki farzand bo'lishi an'anaga aylangan.

Oilaviy munosabatlarni mustahkamlashda oilaviy bayramlarning o'rni katta bo'lib, ularning orasida bola tug'ilganiga bir yosh to'lishi bilan o'tkaziladigan bayram va 60-yoshlik (*xvangap*) hamda 70-yillik (*koxi*) yubileyalar muhim ahamiyat kasb etgan. Mazzkur oilaviy bayramlarni o'tkazish ko'plab yangi innovatsiyalar bilan boyib bormoqda.

Koreyslarning zamонавиј никоҳ то'йлари давлат никоҳ то'йлари сарояларидаги о'tkaziladi va unda kelinkuyov yevropacha kiyimlar kiyadilar. To'ydan keyin kelinkuyov to'y sayohatiga borishadi.

An'anaviy xalq bayramlari quyosh – oy taqvimi asosida o'tkaziladi. Oy taqvimi asosidagi yangi yil, bahor bayrami (*Xansik*), yoz bayrami (*Tano*), kuz bayrami (*Shusok*) saqlanib qolgan. Barcha taqvimiylar bayramlarda agrar kultlar va ajdodlar e'tiqodi yorqin namoyon bo'ladi. Bugungi kunda ham kuzdag'i hosil bayrami – Shusok katta bayram tarzida o'tkaziladi va bu kun barcha koreyslar yaqinlari davrasida bo'lib, o'tgan ajdodlarining qabrlarini ziyorat qiladi.

**Koreyaning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi.** Koreya qadimidan ilm-fan yuksak darajada

rivojlangan mamlakat bo'lgan. VI – VII asrlardayoq astronomiya va meteorologiya kuzatuvlari olib borilgan, murakkab inshootlar qurilgan. 632 – 647-yillarda Sharqiy Osiyoda eng qadimgi rasadxona minorasi – Shxomsonde barpo etilgan. 718-yilda Koreyada soat kashf qilingan. 682-yilda Sillada «Kuk-xak» davlat oliy bilim yurti ochilgan va 717-yildan tibbiyat, matematika, 794-yildan astronomiya o'qitila boshlagan. XI – XIII asrlarda chinni idishlar va asboblar ishlab chiqarish rivojlangan. Shu davrda koreyslar xitoy ksilografiyasini o'rganib, shu usulda 6 ming jild-dan iborat budda qonunini nashrdan chiqardi. 1234–1241-yillarda bosmaxonalarda metall harflar ishlatala boshladи.

XV asr o'rtalaridan amaliy fanlar rivojlandi. Koreya olimlari «Dehqonchilik ilmi» nomli asarda o'sha davr agronomiya bilimlari haqida ma'lumot bergenlar. Yan Son Ji va boshqalar Koryoning tarixiy geografiyasi xaritasini tuzishdi (1451). 1445-yilda tibbiyat ensiklopediyasi yozildi.

Musiqa ijtimoiy hayot va diniy marosimlarda muhim rol o'ynagan. III – IX asrlarda saroyda xor va cholg'u ansamblari konsertlar bergen, musiqiy tomoshalar ko'rsatilgan. VI asrдан komungo, tegim, pxiri, kaya-gim singari torli cholg'u asboblar keng tarqalgan. Qadimda 60 turdag'i cholg'u asbobi bo'lib 45 turi hozirgacha saqlanib qolgan. Son Xyon va boshqalar koreys musiqa ensiklopediyasi – «Musiqa-shunoslik asoslari»ni tuzgan (1493). Imperator saroyi huzurida xonanda va sozandalar, raqqos va raqqosalardan iborat ansamblar bo'lgan. XVI asrning 2-yarmidan boshlab, urushlar va bosqinchiliklar ta'sirida koreys musiqasi tushkunlikka uchragan, faqat xalq qo'shiqlari janri rivojlangan. XIX asrning 2-yarmida musiqali drama janri – chxangik rivojlanib, keyinchalik milliy opera paydo bo'ldi. XX asr boshlarida

Koreyaga Yevropa musiqasi kirib kela boshlagan.

Koreyslarning dunyo madaniyatiga qo'shgan buyuk hissalaridan biri shundaki, ular Guttenberg Germaniyada bosma kitobni yaratishdan 200 yil avval XII – XIII asrlardayoq kitob bosish uchun qo'llaniladigan metal shriftlarni kashf qilishgan. Shuningdek, aynan koreyslar birinchilardan bo'lib X–XIV asrlarda jenshen o'simligini madaniylashtirishgan. Bulardan tashqari dunyoga koreys yakkakurash janggi *taekvondoni* olib kirgan.

Koreys xalqini, aniqrog'i Janubiy Koreyaning hozirgi imijining eng muhim qismi «koreys to'lqini» yoki xallyu, deb nomlanuvchi koreys madaniyatining butun dunyoga yoyilishi hisoblanadi. Eng avvalo, bu xorrida mashhurlikka erishgan «Qish sonatasi», «Saroy javohiri» va shu kabi koreys seriallaridir. Koreys rejissyorlari (Kim Ki Duk, Pon Shjun Xo, Li Shjon Xyan, Shen Shji Yan, Son Xe Son) yetakchi xalqaro kinofestivallarda nufuzli mukofotlarni qo'lga kiritishdi. Koreys estrada qo'shiqchilari esa dunyoga mashhur bo'la boshladи. Jumladan, Sayaning «Gangnam style» (2012-y.) klipi You Tube tarixidagi eng ko'p ko'rilgan klipga aylandi (uni 1 mlrd. dan ortiq kishi tomosha qilgan) va bir necha marta Ginnesning rekordlar kitobiga kirdi.

### **31. 3. Mo'g'uliston va mo'g'ullar**

Mo'g'uliston (Mongol Uls) – Osiyoda joylashgan davlat. Maydoni 1565 ming km<sup>2</sup>. Aholisi 2 mln. 647 ming kishi (2010). Ma'muriy jihatdan 18 ta aymoq (viloyat)ga, aymoqlar somon (tuman)larga bo'linadi. Ulan-Bator, Darxan va Yerdenet shaharlari mustaqil ma'muriy birlik bo'lib, bevosita markaziy hokimiyat organlariga bo'ysunadi.



*Morinxureda musiqa chalayotgan mo'g'ul musiqachisi*  
pasayib boruvchi tekisli kontinental. Qishisovud

Mo'g'uliston aholisining 90 foizdan ortig'ini mo'g'ul-lar tashkil qiladi. Mamlakat shimalida buryatlar, shimali-g'arbda qozoqlar, tuvalar yashaydi. Rasmiy tili – mongol tili. Dindorlari budda dinining lamaizm yo'nalishiga e'tiqod qiladi. Shahar aholisi 60 foiz bo'lib, yirik shaharlari Ulan-Bator, Darxan, Yerdenet shaharlari hisoblanadi.

Mo‘g‘ullar (o‘zlarini mongol deb ataydi) Mo‘g‘uliston tonda yashaydigan asosiy xalq bo‘lib, o‘tgan asrning o‘rtasida mo‘g‘ullar yashagan hududning janubiy qismi XXR tarkibiga kiritilib, unga Ichki Mo‘g‘uliston deb nom berilgandan so‘ng, ular Mo‘g‘uliston mo‘g‘ullari va XXR mo‘g‘ullariga bo‘linib ketgan.

«Mo'g'ul» etnonimi Chingizzon davrida tarixga kirib kelgan bo'lib, u tarkibi murakkab bo'lgan qabilalar ittifoqi nomini anglatgan.

Mo'g'uliston hududi ak-sari qismining balandligi 1000 – 2000 m. Yirik tog' tizmalari: Mo'g'uliston Oltoyi (balandligi 4362 m gacha), Gobi Oltoyi, Xangay va Xentey. Tog' tepalari, asosan, yasi. Janubi va janubi-sharqi Gobi cho'lining bir qismidan iborat. Bu yerda vulqon tepalar qad ko'targan. Shimoli va shimoli-g'arbida bir necha soylik va vodiylar bor. Mo'g'ulistonning sharqiy qismi shimoli-sharq, janubiy va janubi-sharq tomon

kadir. Iqlimi quruq, keskin  
q, kam qorli, serquyosh.

Mo‘g‘ullarning kelib chiqishi masalasida ham turli fikrlar mavjud. Ayrim xitoy manbalarida mo‘g‘ullarning kelib chiqishi turkiy bo‘lib, ularning ilk ajdodlari tatar (tat, dadan)ga borib taqaladi, deb ko‘rsa tiladi. Xorijiy olimlarning aksariyati, jumladan, ayrim Yaponiya va Xitoy tadqiqotchilari mo‘g‘ullar hunnlarning avlodi, deb hisoblaydi. Mo‘g‘ul olimlari, jumladan, Suren Badalax (Suri – badalaxa) qadimgi turkiy xalq bo‘lmish «di»larning avlodi, mil. avv. III asrda govchilardan ajrab chiqqan muoge qabilasi mo‘g‘ullarning ilk ajdodidir, deb hisoblaydi. Hozirgi zamon xitoy olimlari ichida mo‘g‘ullar tunguslardan (dungxu – sharqiy xo‘rlar demakdir) kelib chiqqan degan fikr chuqur o‘rnashib bormoqda.

Xitoy manbalariga qaraganda, mo‘g‘ullar nillun-mo‘g‘ul (sof mo‘g‘ul) va xamuxe-mo‘g‘ul (omuxta, ya’ni aralashgan mo‘g‘ul) kabi 2 toifaga bo‘linadi. 1-toifaga dastlab 30 qabila kirgan. Bular ichida ko‘k ko‘zliklar ko‘p uchrab turgan. Shingizzonning otasi Yasugay bahodir (Asugay-batur) tobe bo‘lgan avlod ham ko‘k ko‘z bo‘lgan. Shu bois u xitoy manbalarida «danyan chiyati» (ko‘KKO‘Z chiyat) deb nomlangan. Bular tarkibiga kirgan qabilalarning eng yiriklari tatar (dadon-aluxay, dutaut, alchi va chagan kabi yirik qabilalardan tashkil topgan ittifoq), qiyot (kele), nayman, jaloyir, merkit (meerchiti, vuduyivuti, melichi, meliji) va boshqalar bo‘lgan.

XII asrning 1-choragida tatar va boshqalar Shingizzon boshchiligidagi o‘zlarining g‘arbidagi va janubidagi qo‘shnilarini (kidanlar, qipchoqlar, uyg‘urlar, naymanlar, keraitlar, merkitlar (marqitlar) va tangutlarni) bo‘ysundirib, yirik davlatni barpo etganlar. Mo‘g‘ul elati shu davrda shakllangan. Shu sababli mo‘g‘ul nomi XIII asrdan boshlab Shingizzonga tarafador va tobe barcha kabila va elatlarning umumiy nomiga aylangan.

XIV asr ko'chmanchilikka asoslangan mo'g'ul sal-tanatining gullagan davri hisoblanadi. Ayni zamonda mo'g'ullar xalq sifatida shakllangan. XV asr boshlari-da ma'lum siyosiy voqealarga ko'ra, mo'g'ullarning g'arbiy qismi (4 katta qabiladan iborat bo'lgan oyrot-lar, derben oyrot) ajralib chiqib, 1635-yilda o'z davlati – Jung'or xonligi (1635 – 1758) ni tashkil etgan va Markaziy Osiyodagi yirik kuchga aylangan. XVI asr o'rtalarida esa sharqiylar mo'g'ullar shimoliy (xal-xaliklar) va janubiy (uzumchinlar, ordoslar) kabi qism-larga bo'linib ketgan.

XVI – XVII asrlardan mo'g'ullar lamaizmga e'tiqod qila boshladi. XVII asr boshlarida Mo'g'ulistonni manjurlar bosib olgan. Mo'g'ullar deyarli 3 asr (1691 – 1911) mobaynida milliy asoratda yashagan-lar. 1921-yilda g'alaba qilgan Xalq inqilobidan keyin mo'g'ullar sotsializm g'oyasiga berilib o'z davlatini Mo'g'uliston Xalq Respublikasi, deb e'lon qilganlar. 1992-yildan bu davlat Mo'g'uliston, deb ataldi.

XXRda yashaydigan mongol elatlari (xochinlar, barinlar, ordoslar, uzumchinlar va boshqalar) o'z nomlarini saqlab kelmoqda.

**Xo'jaligi.** Mo'g'uliston – agrar-industrial mam-lakat. Yalpi ichki mahsulotda sanoatning ulushi 34 foiz, qishloq xo'jaligining ulushi 16 foizni tashkil eta-di.

Mo'g'ullar asrlar davomida chorvachilik bilan shug'ullanib kelgan. Asosan qo'y, ot, tuya va qisman qoramol boqqanlar. Har bir guruh aholi ma'lum bir yerda ko'chib yurgan. Qadimdan erkaklarning sevimi-li mashg'uloti ovchilik hisoblangan: tulki, bo'ri, yum-ronqoziq kabi hayvonlarni, ilgari jayron (dzeren)ni ov qilganlar. Hozir jayron ovi man qilingan. Mo'g'ullar metall, teri, yog'och buyumlari yasash, kigiz bosish va to'qimachilikni bilganlar.



*Milliy kiyimdag  
mo'g'ul ayoli*

XX asrning 20-yillaridan boshlab asta-sekin qishloq xo'jaligining tarmoqlari, jumladan, dehqonchilik vujudga keldi. Bug'doy, kartoshka, sabzavot, yem-xashak yetishtirila boshladi. Chorvachilikda qo'ychilik yetakchi o'rinda; qoramol, echki, tuya, yilqi, mamlakatning ayrim joylarida qo'tos, bug'u, shahar atrofida cho'chqa va parranda boqiladi. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan chorva mol jihatidan mo'g'ullar dunyoda oldingi o'rirlardan birini egalelaydi. 1991 – 1992-yillar sobiq 255 qishloq xo'jalik birlashmasi (kooperativlari) aksiyadorlik kompaniyalariga (salkam 400 ta) aylantirildi. Mamlakatda chorvani xususiylashtirish, asosan, tugallandi. Chorva mollarning 90 foizi xususiylashtirildi. Ilgari dehqonchilik hamda sof zotli va duragay chorva mollari yetishtirish bilan shug'ullanib kelgan ko'p davlat xo'jaliklari o'rniga ham aksiyadorlik kompaniyalari tashkil etildi.

Mo'g'ullar ham keng shim, uzun xalat va teri etik kiyadilar. Qishda po'stin, malaxay, junli matodan tikilgan va to'qilgan kiyimlar keng tarqalgan. Ko'chmanchi chorvador xalqlar (mo'g'ullar)ning taomlari, asosan, go'sht va sut mahsulotlaridan iborat. Yozda ko'proq sut mahsulotlari, xamir taomlari, qisman

sabzavot va baliqdan tayyorlangan mahsulotlar qishga g‘amlanadi, qishda esa ko‘proq go‘sht mahsulotlari, pishloqning har xil turlari, yog‘ va xamir ovqat iste’mol qilinadi. Go‘sht, qovurilgan va xom holatda ham iste’mol qilinavergan. Mo‘g‘ullar va tibetliklar molning qonini ichganlar, ichak-chovog‘idan turli taomlar, qazi, hasip tayyorlaganlar. Sigir, echki, qo‘y sutidan uzoq saqlanadigan mahsulotlar (yog‘, qurt, pishloq, qatiq, suzma) tayyorlaganlar, tuya va qo‘y suti choy bilan ichilgan, yilqi sutidan qimiz, tuya sutidan shubet tayyorlanadi. Sut va qimizdan tashqari quvvati 9° dan 30° gacha bo‘lgan maxsus aroqlar ham tayyorlangan (mo‘g‘ullarda besh xil ichimlik turi: arxi, arz, xorz, sharz, dun mavjud).

Butun Sharqiy Osiyoda xalq og‘zaki ijodi tadrijiy rivojlanish bosqichlaridan o‘tgan: har xil doston va ertaklar, afsona va latifalar, raqs va qo‘shiqlar keng tarqalgan. O‘ziga xos teatr, balet va sirk rivojlangan.



*Ulan-Bator shahridagi Gandantegchinlen  
ibodatxonasi*

Musiqa ham o‘ziga xos bo‘lib, masalan, Xitoyda musiqa tarbiyasi davlat ixtiyoridadir. Tasviriy san’at asrlardan asrlarga gurkirab o‘sgan, rivojlangan, ayniqsa, rassomlik, gravyura, badiiy to‘qish, haykaltaroshlik qadimdan ma’lum bo‘lib, me’morchilik va diniy inshootlarda o‘zining yorqin ifodasini topgan. Hali-hanuz dostonlardagi qadimiy qahramonlik obrazlariga juda iliq munosabatda bo‘linadi. Masalan, mo‘g‘ul va turkiy xalqlarning eposida kuylangan Geserxon yoki jasur bahodir Xon-Xulug bilan Oldoy-margan kurashlari va ular mingan ot obrazlari mil. avv. I ming yillikka oid «Hayvon stili»dagi dekorativ bezaklarda aks ettirilgan. Xitoy folklori («Uch podsholik» turkumi), inszu («Ashma» dostoni) va boshqa xalqlarning ijodida qahramonlik kurashlari muhim o‘rinni egalelaydi. Eng qadimiy antologiya namunalari (xitoylarning «Shitszin» va «Yuefu», yaponlarning «Manyosyu» va «Kokinsyu» to‘plamlari) xalq og‘zaki ijodi yuksak darajaga ko‘tarilganligidan darak beradi. Sharqiy osiyoliklarda xalq poetik ijodi bilan musiqa san’ati uzviy bog‘langan. Hozirgacha keng tarqalgan myao xalqlaridagi boy marosim va sevgi qo’shiqlarini, muhabbat lirkasini musiqasiz tasavvur qilish qiyin.

### 31. 4. Yaponiya va yaponlar

Yaponiya (yaponcha Nippon, Nixon) – Sharqiy Osiyoda, Tinch okeandagi orollarda joylashgan davlat. Yaponiya hududida 6,8 mingga yaqin orol bo‘lib, shimoli-sharqdan janubi-g‘arbga qariyb 3,5 ming km ga cho‘zilgan; eng yirik orollari: Xokkaydo, Xonsyu, Sekoku va Kyusyu. Shimoldan Oxota dengizi, sharq va janubi-sharqdan Tinch okeani, g‘arbdan Yapon

va Sharqiy Xitoy dengizlari bilan o'ralgan. Maydoni 377,8 ming km<sup>2</sup>. Aholisi 127 mln. 78 ming kishi (2009). Poytaxti – Tokio shahri bo'lib, bu shahar dunyodagi eng yirik megapolislardan biri hisoblanadi. Mamlakat poytaxtida 13 mln. dan oshiq odam istiqomat qiladi. Yaponiya ma'muriy jihatdan 47 ta prefekturaga bo'linadi.

Yaponiya mo'tadil, subtropik va tropik mintaqalar da joylashgan. Qirg'oq chizig'inining umumiyligi 30 ming km ga yaqin. Xonsyu orolining janub sohili, Sekoku va Kyusyu orollarining qirg'oqlarida qo'ltilq ko'p; bu yerda murakkab qirg'oq chizig'iga ega bo'lgan Ichki Yapon dengizi joylashgan.

Aholisining 99 foizidan ko'pi yaponlar. Xokkaydo orolida mamlakatning eng qadimgi aholisi – aynlar (50 ming kishi atrofida) saqlanib qolgan. Shuningdek, koreys, xitoy va boshqa xalqlar ham yashaydi. Ras-



*Fudziyama tog'i*



*Tokiyo shahridagi Yaponiya parlamenti binosi*

miy til – yapon tili. Asosiy dinlari – sintoizm va budizm; konfutsiylik va daosizm aqidalari katta ta'sirga ega. Xristianlik, islom va hinduizmga e'tiqod qiluvchilar ham mavjud. Xristianlik XVI asr o'rtalaridan, islom XIX asr oxiridan kirib borgan; xristianlar 1,5 mln. ga yaqin, musulmonlar 100 ming kishi. 1935-yil Tokio va Kobe shaharlarida dastlabki masjidlar qurilgan. 1956-yildan Yaponiya musulmonlar uyushmasi va 1966-yildan Yaponiya islom markazi mavjud. Hozirda mamlakatda 58 ta masjid faoliyat olib boradi.

Aholining 77 foizi shaharlarda yashaydi (2002). Yirik shaharlari: Tokio, Yokogama, Osaka, Nagoya, Sapporo, Kobe, Kioto.

Yaponiya hududida qadimgi odam izlari paleolit davriga oid. Taxminan mil. avv. 8000 – 3000-yillarda neolit davri madaniyati – dzyomon (idishlarga bitilgan ipsimon naqshlarga qarab nomlangan) mavjud bo’lgan. O’sha davr moddiy yodgorliklarini o’rganish Yaponiyaning qadimgi aholisi, asosan, Janubi-Sharqiy Osiyodan kirib borganini ko’rsatadi. Mil. avv. 2 mingyillik mobaynida janubiy mo‘g’ul tipidagi qabilalar kelgan. Mil. avv. 1 ming yillik arafasida Yaponiada asosiy qismini aynlar tashkil etgan etnik aholi tarkib topdi. Mil. avv. V – IV asrlarda dehqonchilik, chorvachilik rivojlangan, metall qurollar qo’llanilgan. Milodning boshlarida ijtimoiy tabaqalanish kuchaydi; qulchilik paydo bo’ldi. IV asr o’talarida tashkil topgan yirik qabilalar ittifoqi – Yamato asosida ilk Yapon davlati tarkib topdi. V asrdan ieroglif yozuvni, VI asrdan buddizm tarqaldi.

Yapon xalqining etnogenezi haligacha to’liq aniqlanmagan. Yaponlar o’zlarini nixondzin – qu-yoshli o’lka odamlari, deb atashadi. Antropologik jihatdan mongoloid irqiga mansub. Yaponlarning o’ziga xos etnik xususiyatlari ayrim mayda orollarda va Ryukyu arxipelagida yashovchi aholida saqlanib qolgan. Yaponlar qabila sifatida mil. avv. 1 mingyillik o’talarida janubdan Koreya yarim orolidan Yapon orollariga eneolit davri madaniyati (Yayon madaniyati)ni tarqatuvchi katta guruhning ko’chib kelishi natijasida shakllangan.

Yaponlarning eng qadimgi madaniyati neolit davriga oid umumiy «dzemon» nomi bilan ma’lum bo’lib, kelgindi aholisi aynlar, indoneziyalik va qit’adan kelgan koreyslar bilan aralashib murakkab etnik guruhni yuzaga keltirgan. Milodning I asrlarida Yaponiya-

da jamoa-urug' tuzumi yemirila borib, sinflar paydo bo'ladi va VII asrda ilk davlat tashkil topadi. O'sha vaqtda Yaponiyaga Xitoyning ta'siri kuchli bo'lgan, yozuvi va madaniy belgilari ko'chib o'tgan. Asli yapon va koreys xalqlarining mustaqil millat sifatida shakllanishi VII – XII asrlarga to'g'ri keladi. Yapon elati Osiyorning qadimgi sivilizatsiyalari (Xitoy, Koreya, Hindiston) ta'sirida rivojlangan.

**Xo'jaligi.** Yaponiya – iqtisodiy qudrati bo'yicha jahonda AQShdan keyingi o'rinda turadigan yuksak darajada rivojlangan industrial-agrar mamlakat. Sanoat ishlab chiqarishning umumiy hajmi bo'yicha jahonda oldingi o'rnlardan birini egallaydi. Ulkan korxonalar bilan birga mayda korxonalar ham mavjud (ayniqsa, yengil va oziq-ovqat sanoatida). Yaponiya iqtisodiyoti chetdan keltiriladigan xomashyo va yoqilg'iga asoslangan. Yalpi ichki mahsulotda sanoatning ulushi 38 foiz, qishloq, o'rmon xo'jaligi va baliq ovlashniki 2 foiz, xizmat ko'rsatish tarmog'iniki 60 foizni tashkil etadi. Yalpi ichki mahsuloti 4,3 trillion AQSh dollariga teng (2003).

Yaponiya aholisini yoshiga qarab tahlil qilganda dunyo bo'yicha eng ko'p sonli keksa yoshlilar yashashini kuzatish mumki. Chunonchi mamlakatda so'nggi ma'lumotlarga ko'ra, 65 yoshdan yuqori bo'lganlar mamlakat aholisining qariyb 24 foizini, 15-65 yoshdagilar 63 foizni va 14 yoshgacha bo'lganlar 13 foizni tashqil qiladi.

Qishloq xo'jaligida hosildorlik bo'yicha dunyo-da oldingi o'rnlardan birida bo'lib, u yuqori darajada mexanizatsiyalashgan va avtomatlashtirilgan. Iqtisodiy faol aholining 4,2 foizi qishloq xo'jaligida band. Hududining 12,9 foiz yoki 4,8 mln. gektari-da dehqonchilik qilinadi. Dehqonchilikda asosiy ekin – sholi (2002-y. 11 mln. tonna sholi yetishtiril-



*Yaponiyadagi sintoizm ibodatxonasi*

gan). Shuningdek, kartoshka, sabzavot, oz miqdorda bug'doy va dukkakli don ekinlari ekiladi. Mevachilik, bog'dorchilik, chorbog' xo'jaligi rivojlangan. Chorvachilikda qoramol, cho'chqa, parranda boqiladi; pil-lachilik va baliqchilik rivojlangan. Yaponiyada 3000 dan ortiq baliq ovlash portlari bo'lib, dunyo bo'yicha ovlanadigan baliq va dengiz jonivorlarining 15 foizi shu portlarga to'g'ri keladi.

**Moddiy madaniyati.** Qadimda yaponlarning turarjoylari yarim yerto'lalar bo'lgan hamda uning tomi yog'och va qamish bilan yopilgan. Milodning boshlari-da yog'och sinchli uylar qurila boshlagan. VI asrda buddizm tarqalishi munosabati bilan xitoy va koreys me'morchiligi uslubida monastir, pagoda, ibodatxona va saroylar bunyod etilgan (Nara shahridagi Xoryudzi monastiri, VII asr Kito shahri yaqinidagi Byodoин saroyi, XI asr). VIII asrda Xitoy shaharsozligi uslubida Xeydzyokyo (hozirgi Nara) va Xeyan (hozirgi Kito) shaharlariga asos solindi, XIV – XVI asrlarda land-shaft me'morchiligi, xitoycha bog'-parklar bunyod

etish san'ati, qal'a va saroy devorlariga rasm chizish rivojlandi. XVI asrdan shahar mudofaa inshootlari xandaq va g'isht devorlar bilan o'raldi. Shu davrda hozirgacha saqlanib qolgan an'anaviy yapon turarjoyi shakllandı. XVI asrdan Edo (hoz. Tokio) shahrida qurilish avj oldi. XIX asr oxiridan shaharsozlik rivojlandi, sanoat korxonalari qurish ko'paydi, qurilishda g'isht, keyinchalik temir-beton va metall ishlatila boshlandi. Yapon me'morlari (Tatsuno Kingo, Katayama Otokuma) binokorlikda Yevropa uslubidan foydalandilar yoki an'anaviy yapon uysozligi shakllarini G'arbiy Yevropa me'morchiligi shakllari bilan uyg'unlashtirdilar. XX asrning 20-yilari oxiri Le Korbyuze ta'sirida funksionalizm uslubi yoyila boshladı. Ikkinchi jahon urushi yillari (1939 – 1945) Yaponiya shaharlari vayron bo'ldi; 50-yillardan qurilish keng ko'lamda avj



*Yaponiya poytaxti – Tokiyo shahri*

oldi. Milliy me'morchilik shakllarini zamonaviy konstruksiyalar bilan uyg'unlashtirish natijasida yapon me'morchiligi jahonga mashhur bo'ldi (Xirosimadagi Tinchlik memorial parki, 1949 – 1956; Okayama shahridagi Kurasiki shahar zali, 1960; Kofudagi Yamansi binosi, 1966; hammasining me'mori Tange Kendzo; Tokio shahridagi Metropoliten festival xoll, 1960 – 1961, me'mor Mayokava Kunio; Tokioning Sindzyukurnidagi maydon ansambl va transport – yo'lovchilar tuguni, 1960 – 1967, me'mor Sakakura Jundzo; Kioto shahridagi Xalqaro konferensiyalar markazi saroyi, 1966 – 1970-yillar boshi, me'mor Satio Otani). 18-yozgi olimpiada o'yinlari (1964) va «EKSPO – 70» ko'rgazmasining o'tkazilishi munosabati bilan yirik shaharlar, jumladan, Tokio va Osaka markazlari rekonstruksiya qilindi, Tokioda ikki olimpiada majmuasi (Yoyogi, me'mor Tange Kendzo; Komadzava, me'morlar Murata Masasiko va Ashixara I.), Osakada bosh pavilon ko'rgazmasi (me'mor Tange Kendzo) qurildi. 1960-yillar oxirida yuksak seysmik

hududligiga qaramay, osmono'par binolar bunyod etildi (Tokio, Osaka va boshqa shaharlarida). Yaponiyada milliy me'morchilik an'analarining rivojlanishi K. Maekava, Yo. Taniguti, K. Tange, K. Kurokava va boshqa mashhur me'morlar faoliyati bilan bog'liq.

Yaponiya shaharlari zamonaviy shaklda qurilsa-da, ammo zilzilaga bardosh beradigan sinch uylar shahar va qishloqlarda ko'p. An'anaviy uylarning poli, odatda, yerdan ko'tarilgan



*Milliy kiyimdag  
yapon bolalari*



Yapon oilasi

ustunlarga qoqiladi. Ichki tuzilishi bambukli ko'chma devorlardan qurilgan bo'lib, zarur vaqtda kengaytirilgan (ya'ni devorlari har tomoniga suriladi) xonalari har xil rasmlar bilan bezatiladi. Mebel deyarli yo'q, idishlar taxmonlarga joylandi, uyning bir qismini qog'oz bezaklar, yog'och oymakorligi bezaydi. Yevropa madaniyatining ta'siri kuchli bo'lsa-da, yap-

onlar milliy an'analarga qat'iy amal qilib kelmoqdalari.

**Kiyim-kechaklari.** Yaponlarning kiyimlari ham xo'jalik-madaniy xususiyatlariga qarab belgilanadi. Masalan, otga minishga qulay bo'lgan oddiy shimni ko'chmanchi chorvachi xalqlar kashf etgan va keyinchalik butun o'troq aholiga tarqalgan. Sharqiy Osiyo ko'chmanchilarining kiyimlari – chakmon va po'stin, malaxay va baland teri yoki kigiz etik ham qo'shni o'troq aholiga o'tgan. Issiq iqlimli hududda yashovchi xalq erkaklarida etakcha belbog', ayollarida yubka bo'lgan. Ammo hozirgi barcha elat va xalqlar milliy kiyimlarini saqlab qolganlar.

Yapon erkak va ayollarining asosiy kiyimi uzun, keng yengli, belbog'li xalat (kimono)dan iborat. Ular ko'pincha boshyalang yuradilar, ba'zan dalada somon shlyapa, oyog'iga yog'och tagcharmlı poyabzal (geta) yoki sandal kiyadilar. Butun Sharqiy Osiyoda hozirgi



*Sushi – yapon milliy taomi*

yevropacha kiyimlar keng tarqalgan. Milliy kiyimlar, asosan, qishloqlarda, to'y marosimlari va bayramlarda ko'proq kiyiladi. Ammo eng taraqqiyashgan, industrial mamlakat hisoblangan Yaponiyada milliy kiyim ancha mustahkam saqlanib kelmoqda.

**Taomlari.** Yapon taomining asosini guruch tashkil qiladi. Guruchni ko'proq hech nima qo'shmay (go'xan), tuzsiz qaynatib iste'mol qiladilar. Har xil ugra oshlar (bug'doy unidan – udon, qora bug'doy xamiridan – soba va hokazo) keng iste'molda bo'lib, u syusyoku, ya'ni «asosiy taom» (xitoylardagi chjushi kabi), deb ataladi. Unga turli qo'shimcha taomlar (fukus-yoku) beriladi (ayniqsa, o'tkir loviya souslari turp bilan aralashtirib). Baliq va boshqa dengiz hayvonlari (krab, dengiz tipratikoni, molyuska, kalmar, langust, trepanga, sakkizoyoq va hokazo)ni pishirib yeydilar. Mol, qo'y, cho'chqa, parranda va it go'shtidan turli qovurma taomlar tayyorlanadi. Ovqatga har xil ziravorlar, to'g'ralgan achchiq turp, sarimsoq, xantal,

zanjabil va boshqa o'simliklar qo'shiladi. Yaponlar, asosan, ko'k choy ichadilar, qora (qizil) choy faqat yevropaliklarning ta'sirida tarqalgan. XX asr o'rta-larigacha mol go'shti va sut mahsulotlarini iste'mol qilish gunoh hisoblangan.



*Marosim kiyimidagi  
yapon qizchasi*

Yaponiyadagi diniy vaziyat o'ziga xos bo'lib, aholining faqatgina 30 foizi o'zlarini qaysidir bir din bilan bog'laydilar. Mahalliy aholining ko'pchilik qismi ma'lum bir vaziyatlarda ikki yoki uch din bilan bog'liq marosimlarni bajarishadi. Chunki mavjud marosimlarni bajarmaslik jamoatchilikda millatga va ajdodlar xotirasi-ga hurmatsizlik tarzida baholanadi. Sintoiz («xudoga yo'l») milliy din bo'lib, unga ibodat

80 ming ibodatxonalarda bajariladi va ko'p hollarda ularning har birini o'zlarining ilohlari, e'tiqod obyekti, o'z bayramlari, marosimlari va mifologiyasi mavjud.

Zamonaviy yaponlar farzand tug'ilganining 1 yoki 30-kunini va konfirmatsiya (15-noyabrda – ushbu yilda 3, 5 yoki 7 yoshga to'lganlar) sintoizm ibodatxonalarida bayram tarzda nishonlashadi. Nikohlar ham ibodatxonalarda bo'ladi. Lekin keyingi vaqtarda protestant ruhoniylar ishtirokida(nafaqat cherkovlarda, balki mehmoxonalarning marosim zallarida) o'tkazish keng rasm bo'lmoqda.

Yapon oilasida erkaklar juda katta hurmatga sazavor bo'lib, u oila boshlig'i, etakchisi "Kachou" asosiga qurilgan. Oilaning davomiyligi katta o'g'il bilan bog'liq bo'lib, ayrim hollarda katta o'g'il oilani yetarli darajada ta'minlay olmasa yoki nufuzli oliv o'quv yurtiga kira olmasa, buni o'zi uchun engkatta fojea, deb hisoblaydi. Shu bois hozirgi kunga qadar yaponlar orasida dengizchilar, harbiylar, rassomlar, san'atkorlar, oshpazlar, sake ichimligi tayyorlovchi oilalar dinastiyalari davom etib kelmoqda. Oldinlari, ayniqsa, qishloqlarda *dodzoku* – kelib chiqishi bir aj-dodga borib taqaluvchi urug'-aymoq yoki patronimik jamoalar ko'plab bo'lgan. XX asrda qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish urug'-aymoq jamoalarining oldingi rolining pasayishiga va unutilishiga olib keldi.

Yaponiyada asosiy bayram bu yangi yil bo'lib, bu bayram yangi yil kirib keladigan kun avvalidagi tayyorgarliklar, yangi yil bezaklarini tayyorlash, vaqtinchalikka uyda ibodat mehrobini tayyorlash, yangi yil kirib kelgandan keyingi marosimni o'tkazish va yakunida «tondoyaki» – maxsus yangi yilni kutib olib foydalilanigan bezaklarni ibodatxonadagi katta gulxanda yoqish bilan yakunlanadi. Avvallari yangi yil fevral oyining o'rtaida, ya'ni oy taqvimi bo'yicha birinchi oyning dastlabki kunida nishonlanadi. Hozir esa boshqa bayramlar kabi yangi yil yangi vaqtga, ya'ni melodiy yil hisobiga ko'ra 1-yanvarda bayram qilinadi. Aynan yangi yil kirib kelishi bilan deyarli barcha yaponlar sintoizm dini ibodatxonalariga borishadi. Ko'plab boshqa taqvimiylar bayramlar orasida kuzgi tengkunlikda bayram qilinadigan *o-xigan* – avf etish bayrami; iyul oxirida(ayrim joylarda avgust o'rtalari-da) o'tkaziladigan *o-bon* – ajdodlar ruhini marhamat qilish kuni; 3-mart – qizlar kuni; 5-may – o'g'il bolalar kuni; 13-dekabr – imperator tug'ilgan kuni bayram qilinadi.

Ma'lumotlarga ko'ra, 1920-yillarda Yaponiyaga borib qolgan Volgabo'yи tatarlari orasida o'zbeklar ham bo'lgan. Ular Tokio shahrida masjid qurilishi va islom dinining yoyilishida o'z hissalarini qo'shishgan.

Sharqiy Osiyo xalqlarining madaniyatiga beqiyos ta'sir o'tkazgan dinlardan biri buddizmdir. U avval Xitoya, keyin Yaponiya va Koreyaga milodning bir-inchi asrlaridayoq tarqalgan. Yangi sharoitga tez moslashadigan buddizm dini mahalliy vaziyatga qarab o'zgarib, yangi, turli mazhablarni yaratgan. Barcha kelgindi dinlar, shu jumladan, buddizm ham, mahalliy diniy tasavvurlar bilan chatishib o'ziga xos sinkretik diniy e'tiqodlarni yuzaga keltirgan. Masalan, xitoy xalq tasavvurlarida buddizm e'tiqodi qadimiy konfutsiylik – axloq-etika ta'limotining belgilari va ko'p xudolik – daosizm g'oyalari bilan aralashib ketgan. Yaponiyada mahalliy zaminda yaratilgan sin-toizm dini bilan buddizm ta'limoti qo'shilib o'ziga xos diniy tasavvurlarni paydo qilgan. Janubi-G'arbiy Xitoya mahalliy qabilaviy dinlar ham saqlangan. Koreyslarda ham diniy e'tiqodlar va ibodatlar turli ibtidoiy tasavvurlar bilan aralashib ketgan. Bu yerda qadimgi tabiatga sig'inish va animistik tasavvurlar shomonizm belgilari bilan chatishib ketgan. Koreya-ga IV – VI asrlarda kirib kelgan buddizm X asrda davlat diniga aylanadi. XIV asrga kelib konfutsiylik davlat dini deb e'lon qilinadi. XVI asrlarga kelib buddizmning lamaizm mazhabi eski dinlarni siqib chiqara boshlaydi. Sharqiy Osiyo xalqlarining taqdirida diniy e'tiqodlar muhim rol o'ynamagan.

### **Seminar mashg'ulotlari rejasি:**

1. G'arbiy Osiyo xalqlarining etnografiyasi.
2. Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatি.
3. Janubi-Sharqiy Osiyo xalqlari.
4. Sharqiy Osiyo xalqlari etnologiyasi.

### **Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Osiyo qit'asi boshqa qit'alardan nimasi bilan farqlanadi?
2. Osiyo sivilizatsiyasi nimasi bilan ma'lum va mashhur?
3. Koreys, xitoy va yapon madaniyatlarining o'ziga xosligi va o'xshash jihatlari haqida ma'lumot bering?
4. Osiyodagi zamonaviy etnomadaniy jarayonlar boshqa qit'alardagidan nimasi bilan farq qiladi?

### **Adabiyotlar:**

1. *Doniyorov A., Bo'riyev O., Ashirov A. Markaziy Osiyo xalqlari etnografiyasi, etnogenezi va etnik tarixi.* – T., 2011.
2. Индонезия, Малайзия, Филиппин. – М., 1982.
3. Историко-географический атлас Сибири. – М-Л., 1966.
4. Малые народы Индокитая. – М., 1982.
5. *Xan V. S. Korea tarixi.* – Т., 2013.
6. *Шпажников Г. А. Религии стран Юго-Восточной Азии.* – М., 1980.
7. Этнические процессы и состав населения в странах Передней Азии. – М., 1963.
8. Этнические процессы в странах Южной Азии. – М., 1976.
9. *Bhagwat S. B. Foundation of geology.* – Global Vision Publishing Ho, 2009. – Т. 1.
10. *World Geography.* – Rex Bookstore, Inc., 2007.

## VIII BOB

### AFRIKA XALQLARI

32-§. Afrikaning tarixiy-etnologik tavsifi.

33-§. Shimoliy Afrika xalqlari.

34-§. G'arbiy va Markaziy Afrika xalqlari.

35-§. Sharqiy Afrika xalqlari.

36-§. Janubiy Afrika xalqlari.

#### 32-§. Afrikaning tarixiy-etnologik tavsifi

**A**frika kattaligi jihatidan Osiyodan keyin 2-o'rinda turadi va umumiy maydoni 29,6 mln. km<sup>2</sup>, orollari bilan 30,3 mln. km<sup>2</sup>. Afrikaning aholisi 2009-yilda 1 milliarddan oshgan. XX asrning boshlarida Afrika aholisi atiga 130 mln, 1650-yili taxminan 100 mln. atrofida, milodning boshlarida esa 30 – 40 mln. atrofida bo'lgan. Aholi sonining o'sishi bo'yicha qit'a dunyoda eng birinchi o'rinda bo'lib, 2004-yilda u 2,3 foizni tashkil qilgan. Oxirgi 50-yilda Afrikada o'rtacha umr ko'rish darajasi biroz oshgan bo'lib, 39 yoshdan 54 yoshga ko'tarilgan. Afrikaning ko'plab mamlakatlarida yoshlар aholining asosiy qismini tashkil qiladi. Misol uchun, Botsvanada asosiy aholining yarmidan ko'pini yoshlар tashkil qiladi. Aholi qit'a bo'ylab notekis joylashgan. Qit'aning janubida-gi cho'l hududlarda 1 km<sup>2</sup> ga 1 kishi to'g'ri kelsa, Gvineya ko'rfasi va Buyuk Afrika ko'llari bo'ylarida yuz barobar ko'p aholi yashaydi. Ko'plab afrikaliiklar,



*Afrikaning siyosiy xaritasi*

asosan, qishloqlarda yashaydi, lekin yildan yilga shahar aholisi ham ko'payib bormoqda. Chunonchi, bu qit'ada ham bir necha millionli shaharlar bor. Jumladan, Lagos (Nigeriya) – 10 mln. atrofida aholi; Kinshasa (Kongo Demokratik Respublikasida – 8 mln. oshiq; Dakar (Senegal), Nayrobi (Keniya) va Yoxannesburg (JAR)da – 2 mln. dan oshiq; Akkra (Gana), Addis Abiba (Efiopiya) va Dar-as-Salam (Tanzaniya) – taxminan 2 mln. ga yaqin; Xarare (Zimbabva) – 1,5 mln. dan oshiq; Konakri (Gvineya) va Bamako (Mali) – mln. atrofida aholi yashaydi. Shahar aholisi qit'adagi turli mamlakatlarda turlicha bo'lib, Chad, Burundi va Markaziy Afrika Respublikasida asosiy shahar aholisi poytaxtda yashaydi. Janubiy Afrika

Respublikasining 60 foiz aholisi, G'arbiy Afrikada – 25 foizdan yuqori, Sharqiy Afrikada – 20 foizga yaqin aholi shaharlarda yashaydi. Afrikada urbanizitsiya jarayonlari darajasi juda yuqori bo'lib, shaharlarda yangi ish o'rinnlarining yaratilishi bilan birga Afrika qishloqlarida bo'layotgan qurg'oqchilik va qashshoqlik hisobiga shahar aholisi jiddiy tarzda ko'payib bormoqda. Afrika aholisining 42 foizini muslimmonlar, 22 foizini xristianlar va 36 foizini mahalliy an'anaviy dinlarga e'tiqod qiluvchilar tashkil qiladi.

Afrikaning deyarli o'rta qismidan ekvator chizig'i o'tgan. Shimoldan janubga tomon qariyb 8 ming km ga cho'zilgan. Shimoliy qismining eni 7500 km (Almadi burnidan Xafun burnigacha). Janubiy qismining eni 3100 km. Shimolda O'rta dengiz, g'arbda Atlantika okeani, sharqda Hind okeani va Qizil dengiz bilan o'ralgan. 120 km. li Suvaysh bo'yni orqali Osiyo bilan tutashgan. Yevropadan Afrikani Gibraltar bo'g'ozi ajratib turadi (eng tor joyi 13 km).

Tarixdan ma'lumki, Shimoliy Afrika qirg'oqlari miloddan avvalgi II asrdan boshlab misrliklarga ma'lum edi. Milodgacha bo'lgan VI asrda materik qirg'oqlari bo'ylab finikiyaliklar suzib chiqqanlar. Milodiy boshlarida indoneziyaliklar Madagaskar orollarini kashf etib, uning sharqiy qirg'oqlarini egalladilar. Arablar o'rta asrda Shimoliy Afrikani egallagach, uning sharqiy qismiga borganlar.


Afrikaning g'arbiy qirg'oqlari portugallarning Hindistonga boruvchi dengiz yo'llarini qidirish vaqtlaridan ma'lum bo'lgan. 1443 – 1444-yillarda N. Trish-tan Mavritaniya qirg'oqlarini kashf etdi. Shu davrdan boshlab qul sotish ishlari boshlandi. XV asrdagi B. Diash, Vasko da Gamalarning Afrikaga sayohatlari ma'lum. XVI asrda materik qiyofasi ma'lum bo'lgan edi. Materik ichki qismlarini XVI – XVIII asrlarda portugallar, ingлиз va fransuzlar o'rgana boshladilar.

XIX asrdan boshlab materik ichki rayonlari yanada mukammal o'rganila boshladi (D. Livingston, G. Bart, J. Spik, G. M. Stenli, R. Kays va boshqalar ekspeditsiyalari).

Afrika va uning xalqlari to'g'risidagi ba'zi ma'lumotlarni Movarounnahr xalqlari qadimdan bilganlar. Afrika qit'asini Muhammad Muso Xorazmiy (IX asr) o'zining «Surat ul-arz» («Yer shakli») asarida tilga olgan. Afrikadagi xalqlar, ularning urf-odatlari, mashg'uloti va boyliklari to'g'risidagi ma'lumotlar dastlab ensiklopedist olimlardan Ahmad Farg'oniy asarlarida, Abu Rayhon Beruniyning «At-Tafhim» («Tushuntirish»), «Qonuni Mas'udiy», noma'lum muallifning «Hudud ul-olam», Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk», Muhammad Najib Bakronning (XIII asr.) «Jahonna» kabi asarlarida uchraydi. Beruniy chizgan dunyo xaritasida Afrika qit'asining ham shakli bor. Afrikaning tabiiy boyliklari va xalqlari to'g'risidagi mufassalroq dalillarni biz Hofizi Abru (1361 – 1430)ning jug'rofiy asarlarida, Mahmud ibn Valining «Bahr ul -asror» («Sirlar dengizi») asarida ko'p uchratamiz.

Qit'ada, eng katta – ko'p millionli millatlar (misrliklar, jazoirliliklar, marokashlar, amxara va h. k), katta xalq va elatlar (xausa, fulbe kabilalar) bilan birga mayda terimchilik va ovchilik bilan kun kechiruvchi daydi ibtidoiy qabilalar ham yashaydi. Hozirgi Afrikada taxminan 300 – 500 ta xalq va elatlar mavjud.

Antropologik jihatdan Afrika aholisi uchta – *yirik irq, o'rta* va *aralash* tiplardan iborat. Qit'aning shimolida Saxroi kabinning janubigacha yevropoid irqiga oid qora ko'z, to'lqinsimon qora soch, bug'doy mayiz tanli, uzunchoq yuzli, bir oz burgutsimon qirra burunli arablar, barbarlar yashaydi. Efiopiya va Somali yarim orolida o'rta irq hisoblangan, terisi biroz qoramfirroq, yuzi kichikroq, labi qalinroq, o'rta yoki



Afrikadagi turli xalqlar (*Tuoreg, Fulba, Mursi, Dogong, Masa, Tvea, Hausa, Zulus va Bushmen*)

novcha bo'yli amxara, galla, tigre va boshqa xalqlar joylashgan. Afrikaning asosiy aholisi hisoblangan ko'p sonli asl negroidlar Saxroi Kabirdan janubda G'arbiy va Markaziy Sudanda, Nilning yuqori qismida, Kongo vohasida, Sharqiylar tropik Afrikada va qit'aning janubida katta hududda tarqalgan. Ular qop-qora tani, qora ko'zi va spiral (burama) sochlari, iyagi biroz oldinga cho'zilgan (pragmatizm), qalin labi, keng va puchuq burunli, ko'sa soqol va kam tukli belgilari bilan ajralib turadilar. Katta negroid irqi ichida uzun bo'yli (180 sm. ga yaqin) va nihoyatda qora rangli

nilotlar tipi Nil daryosi yuqori oqimlarida va Buyuk ko'llar atrofida uchraydi. Kongo vohasining tropik o'rmonlaridagi pakana bo'yli (o'rtacha 141 – 142 sm.) biroz qoramtilroq tanli, sersoqol, puchuq burunli, labi kichikroq pigmeylar ham boshqalardan farq qiladi. Jismoniy tuzilishi jihatidan Afrikaning eng janubiy qismida yashayotgan bushmenlar va gottentotlar maxsus antropologik tipni tashkil qiladilar. Ular asli negroid belgilaridan tashqari ba'zi mongoloid belgilari (yalpoq yuzli, sarg'ish tanli) va steatopigiya (sag'riga nisbatan ko'proq yog' to'planib osilganroq) ko'rinishi, badan va yuzga erta ajin tushishi bilan boshqa irqlardan ajralib turadilar. Madagaskar aholisi ham negroid va mongoloid irqlari aralashmasidan paydo bo'lgan maxsus tiplardan iborat.

Afrika qit'asi til jihatdan to'rtta katta til oilasi: *semit-xamit* yoki *afroosiyo*, *niger-kordofa*, *nil-saxara* va *koysan tillariga* bo'lingan. O'z navbatida ular ham katta-kichik turkum va guruhlarga bo'lingan. Shularidan eng ko'p sonli semit-xamit til oilasiga oid xalqlar semitlar, barbarian kushitlar, chadlar qit'aning 1/3 qismini tashkil qiladi.

Mazkur til oilasiga kirgan arab tilida gapiradigan aholi (misrliklar, jazoirliliklar, tunisliklar, liviyaliliklar va h. k.). XII – XIII asrlarda Arabiston yarim orolidan ommaviy ko'chib kelib mahalliy ko'p sonli tub elat va xalqlar (qadimiy misrlik va barbarlar) bilan aralashishi natijasida paydo bo'lgan. Ular hozir 100 mln. kishidan ortiq bo'lib, Afrika aholisining 1/5 qismini tashkil qiladi. Eng qadimiy tub aholi avlodlaridan barbarlar faqat Mag'rib tog'liklarida va Sahroi Kabir vohalarida saqlanib qolgan. Ammo ularning ko'pchili-gi (kabillar, tuareqlar, rif va h. k. ) hozir asl tillarini yo'qotib, arab tilida gapiradilar.

Semit guruhiga kirgan eng yirik xalqlardan amxara, tigray va tigre hozirgi Efiopiya millatining negizini

hosil qiladi. Xamit-semit til oilasiga oid kushid turkumiga amxara xalqiga yaqin galla, Efiopiya janubida yashovchi sidamo va somali xalqlari kiradi. Semitga oid chad guruhiga kiradigan nigeriya xalqlari va ularga yaqin xausa, bade, bura va boshqalar qit'aning ancha hududini egallaydi.

Nil-saxara til oilasi uchta yirik guruh – songai, saxara va shari-nilga bo'linadi. Mazkur oilaga uchta o'ziga xos tilga ega kichik elatlar – maba, fur va koma kiradi. Songai turkumidagi xalqlar Niger daryosining o'rta oqimidagi davlatlar – Mali, Niger, Yuqori Volta va Nigeriyada, Saxara turkumiga oid xalqlar Chad ko'li atrofida va Markaziy Saxaraning cho'l qismida hamda qisman Nigeriyada yashaydilar. Shari-nil til turkumidagi xalqlar Yuqori Nil vohalarida, Viktoriya va Rudolf ko'llari atrofi (Sudan Respublikasi, Uganda, Keniya)da joylashgan.

Afrikaning janubi-g'arbiy qismida, asosan, Namibiya, Botswana va Angolada, o'ziga xos koysan til oilasiga oid xalqlar – bushmenlar, guttentotlar va tog'lik damaralar yashaydi. Ular o'tmishda Janubiy Afrikaning juda keng hududini egallagan, ammo XVIII – XIX asrlarda ko'pchilik qismini yevropaliklar qirib tashlagan, qolganlari Kalaxari cho'llariga haydalgan. Koysan tillariga Sharqiy Afrika (Tanzaniya)dagi sandave va xatsa nomli elatlar ham kiradi.

So'nggi yillarda qilingan arxeologik kashfiyotlar Afrika tarixining uzoq o'tmishiga oid katta bir davrni oydinlashtirib berdi. Avvaliga Janubiy va Sharqiy Afrikada avstralopiteklar 4 – 2,5 mln. yillar avval yashaganligi aniqlanib, qit'a qadimiy odamning vatani ekanligi tasdiqlandi. Ilk paleolit davriga oid ibridoiy makonlar Luis Liki va keyinchalik uning o'g'li tomonidan Tanzaniyada Olduvay jarligida topilganligi, Efiopiyanada Chad va Rudolf ko'llari atrofida, Janubiy Afrikada 60-yillardan keyin qilingan kashfi-



*Nigeriyadagi Nok madaniyati  
(Milodgacha bo'lgan VI asr)ga oid*

*haykalcha*

yotlar Afrika qit'asida miloddan avvalgi 10 mingyilliklardan boshlab yuksak madaniyat yaratilganligini isbotlab berdi. Olduvay, Stellenbosh va boshqa madaniyatlar antropologik ma'lumotlar bilan birga, qit'aning sharqiy va janubiy qismida qadimiy tosh davrida keng hududda ancha takomillashgan tosh quollar yaratgan va qoyalarga har xil rasmlar yasagan ko'p sonli aholi yashaganligini aniq tasdiqlagan edi.

Afrika xalqlari qadimiy davrlardan to

hozirgacha ijtimoiy taraqqiyotdan chekkada qolmay, tadrijiy rivojlanishda bo'lganlar. Ammo keyinchalik ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ancha orqada qolib ketishi ga mustamlakachilarining zulm va ta'qibga qurilgan siyosati, qul savdosi va quldorlik sabab bo'lgan.

Afrika qit'asining etnik tuzilishini bir necha tarixiy-madaniy viloyatlarga bo'lib o'rGANILADI. Ular keng hududlarda joylashgan, ammo etnografik jihatdan umumiylar birlikka ega bo'lgan mintaqalardan iborat. So'nggi klassifikatsiyaga asoslanib butun qit'a aholisi tabiiy sharoiti, etnik qiyofasi, tarixiy taqdiri va ijtimoiy-iqtisodiy darajasi jihatdan Shimoliy Afrika, G'arbiy va Markaziy Afrika, Sharqiy va Janubiy Afrika xalqlariga bo'lingan.

Afrikadagi zamonaviy davlatlar chegaralari mustamlaka yillarida tuzilganligi bois ko'plab xalqlar turli mamlakatlar hududida qolib ketgan. Chunonchi, yevelar Togo va Ganada; xausalar – Nigeriya va boshqa mamlakatlarda; tuareqlar – Mali, Mavritaniya, Jazoirda; senufolar – Mali va Kot-d'Uvarda; kongolar – Kongo Respublikasi, Kongo Demokratik Respublikasi va Angolada yashaydi.

Fulbelar G'arbiy Afrika mamlakatlarida savanna belbog'i bo'ylab tarqalib ketgan. Ayrim tillar ham til uzatuvchisi bo'lgan xalqlar yashayotgan mintaqalar dan kengroq yoyilgan bo'lib, o'ziga xos etnoslararo muloqot tiliga aylangan. Masalan, G'arbiy Afrikada xaus tili, lingala tili – Markaziy Afrikada, suaxil tili – Sharqiy Afrikada o'zaro muloqot tili hisoblanadi.

Afrika qit'asini ilmiy asosda o'rganish borasida Rossiya FA 1959-yilda tashkil etgan Afrika institutida ham salmoqli ilmiy ishlar olib boriladi. Tadqiqotlar yo'nalishiga ishlab chiqarish kuchlari, o'lkashunoslik, sivilizatsiya muammolari, xalqaro va Afrika mamlakatlariaro muammolar, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, «islom omili», xotin-qizlar masalalari, mintaqadagi ilm-fan, ta'lim, moliya-kredit munosabatlari kabi yo'nalishlar qamrab olingan. Mazkur institut jahondagi eng yetakchi ilmiy dargohlardan bo'lib, o'zining «Африканский риною» («Afrika bozori») jurnalini, referativ to'plamlar, kichik ensiklopediyalar, ma'lumotnomalar nashr etadi va «Азия и Африка сегодня» («Osiyo va Afrika bugun»), «Восток» («Sharq») jurnallarida Afrikaga oid muammolarni tadqiq va tahlil qiladi.

G'arb olimlari Afrikaning siyosiy va iqtisodiy masalalarini, undagi siyosiy jarayonlarni o'rganib keng taxlil qildiilar, ilmiy monografiyalar nashr etdilar. Xususan, ingliz olimlari Kravford Yuong, Jon Rayt, Martin Kramer, Jonaxan Birman, Rayt Ferst, Lillian

K. Xarris, fransuz olimlari Daniel S. Papplarning nomlarini ta'kidlash o'rinnlidir.

O'zbekiston olimlari XX asrning 60 – 80-yillarida, eng avvalo, Afrika xalqlarining milliy-ozodlik harakati bilan bog'liq masalalarni tadqiq etgan bo'lsa, 90-yillarda esa ushbu mintaqaning dolzarb hayotiy muammolarini o'rganishdi. Hozirda o'zbekistonlik afrikashunos olimlar Afrikaga taalluqli siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, mafkuraviy, harbiy masalalarni tadqiq etmoqdalar. 1991-yilda tashkil topgan Toshkent davlat sharqshunoslik institutida talabalar Afrika mamlakatlari tarixi, iqtisodi, ichki va tashqi siyosatini o'rganishlari natijasida Afrika sohasida mutaxassis bo'lib yetishmoqdalar. Afrikashunoslikka, shuningdek O'zMU da, Strategik va mintakalararo institutda ham qisman e'tibor qaratilmoqda. Milliy mustaqillik sharoitida O'zbekiston – Afrika munosabatlari bir maromda rivojlanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Afrikaning Misr, Liviya, Mali, Marokash, JAR, Mozambik, Jazoir, Tunis, Botswana, Sudan, Efiopiya, Jibuti, Gvineya, Gabon, Benin, Ekvatorial Gvineya, Zambiya, Nigeriya, Gana, Chad, Kabo-Verde va boshqa mamlakatlari bilan diplomatik munosabatlarni o'rnatdi. O'zbekistonning Afrika mamlakatlari bilan siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, madaniy aloqalari yangicha ahamiyat kasb etmoqda.

### **33-§. Shimoliy Afrika xalqlari**

Shimoliy Afrika qit'adagi o'ziga xos tarixiy-madaniy mintaqa hisoblanadi. Bu yerning madaniyati O'rta yer dengizi mamlakatlari madaniyatiga o'xshash bo'lib, VII asrdan boshlab Yaqin Sharq (Old Osiyo) madaniyati kirib kelgan. Bu mintaqada 200 mln. dan ortiq aholi istiqomat qiladi. Shimoliy Afrika



*Katta Sfinks va Xefren piramidasи*

xalqlarining diniy e'tiqodidagi umumiylilik, ya'ni islom diniga e'tiqod qilishlari bilan birga ularning yagona tabiiy-geografik muhitda yashashi xo'jalik hayoti, turmush tarzi va madaniyatida umumiylilikka olib kelgan.

Afrikaning shimolida, asosan, arab tilida gapiradi-gan xalqlar yashaganligi uchun uni Arab Afrikasi deb ataganlar. Aslida bu yerdagi xalq va elatlar qadimiy aborigen aholisining avlodlaridir. Hozirgi davrda Shimoliy Afrika xalqlariga Misr, Sudan va katta Mag'rib (Tunis, Jazoir, Marokash, Liviya, Mavritaniya, G'arbiy Sahroi Kabir) aholisi kiradi.

Shimoliy Afrikadagi davlatlar va etnik chegaralar umumiy emas. Masalan, tuaregilar nafaqat Jazoir va Mavritaniyada, balki Mali va Nigeriyada, somalilar – Somali, Efiopiya va Keniyada yashaydi.

Qadimiy yunon mualliflarining asarlarida Mag'rib aholisini liviyaliklar deb tilga olinadi. Ularning bir

qismi ko'chmanchilik bilan tirikchilik qilib kelgan qabilalardan, ikkinchi qismi dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholidan iborat bo'lgan. Miloddan avvalgi II ming yillikda finikiyaliklar Shimoliy Afrika sohillarida asos solgan Utiku, Karfagen kabi davlatlar bilan o'z mustaqilligi uchun urushlar olib borganlar. Liviyalik qabilalarning tinimsiz kurashlari Numidiya va Mavritaniya davlatlarini yuzaga keltirgan edi. Rim imperiyasi Karfagenni qo'nga kiritishi bilan (miloddan avvalgi II asr o'rtalari) bu ikki podsholik ham yemiriladi. Shu bilan lotin manbalarida Liviya va Numidiya nomlari ham yo'qolib, mahalliy aholi mavrlar va keyin arablar kelishi bilan barbarlar deb atala boshlangan.

Mintaqaning Yevropa mamlakatlari tomonidan mustamlaka qilingan davrda ma'muriy boshqaruva va madaniyat tili Yevropa tillarida bo'lgan. Jumladan, Tunis, Mavritaniya va Marokashda fransuz tilida, Misr, Sudan va shimoldagi Britaniya Somalisida ingлиз tilida, italyan tili – Liviyada, G'arbiy Saxara va Morokashning Ispaniya mustamlaka qilgan hududlarida ispan tilida so'zlashilgan.

Mintaqada Yevropa mustamlakachiliga barham berilgandan so'ng, ayniqsa so'nggi yillarda, davlat tili tarzida arab tili qabul qilindi. Yevropa tillarining o'rniqa arab adabiy tili keng tarqalmoqda. Shuningdek, ayrim berber tillarini rasmiy til tarzda e'tirof etishga qaratilgan harakatlar ham bo'lmoqda. Ayniqsa, bu borada o'z tilida adabiyotlar yarata olgan qabilalar muvoffaqiyatli til siyosatini olib borishmoqda. Efiopiyyada davlat tili – amxars tili deb e'lon qilinishi mamlakatdagi boshqa xalqlar, ayniqsa, oromolar noroziligiga sabab bo'ldi. Somalida davlat tili somali tili bo'ldi.

Mintaqada 4 ta yozuv tartibiga: arab alifbosi, efiopiyyacha bo'g'inli yozuv, lotincha (somali, oromo va

boshqalar) va tuareg ayollar orasida saqlanib qolgan qadimgi tifinag yozuviga amal qilinadi.

Shimoliy Afrika aholisi diniy e'tiqodiy munosabatlar tizimida birmuncha umumiylikka ega bo'lib, asosiy aholisi (masalan, Jazoirda – 90 foiz, Tunis va Mavritaniyaning barcha aholisi) islom dinining sunniylik mazhabiga e'tiqod qiladi.

*Shimoliy Afrika hududida ko'plab tabiat va 'madaniyat yodgorliklari mavjud bo'lib, ularning asosiy qismi Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan. Chunonchi, yer yuzidagi eng qadimgi shaharlardan biri – Memfis harobasi, Giza (Misr)dagi piramidalar; Fesa (Marokko)da yaxshi saqlanib qolgan o'rta asr shahar mahallari va Tassilin-Jazoir (Jazoir) da tosh davriga oid qoyatosh rasmlari jahon merosiga kiritilgan. Liviyada esa Leptis-Magna nomli qadimgi shahar qoldiqlari saqlanib qolgan.*

Misr xalqi eng qadimiy yuksak madaniyat yaratgan etnosidir. Misrliklar miloddan avvalgi IV ming-yilliklarda yoq sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilikni bilganlar. Arxeologik kashfiyotlarga, xraniologik dalillarga qaraganda (topilgan ibridoiy kishilarning suyak qoldiqlari asosida) antropologik jihatdan Misrning eng qadimiy aholisi miloddan avvalgi III ming yillikda Nil vodiysida paydo bo'lgan dastlabki Misr davlatining aholisidan farq qilmaydi. Hozirgi misrliklar ham buyuk madaniyat yaratgan ajdodlaridan irqiy jihatdan kam farqlanadilar. 1952-yili iyul oyida Misr qiroli Farruh taxtdan ag'darilib, Respublika e'lon qilinishi natijasida hozirgi misr millatinig rivojiga keng imkoniyat yaratilgan.

Misrdan janubda joylashgan Sudan xalqi ham milliy ozodlik kurashiga bel bog'lab, 1956-yili 1-yanvarda mustaqillikka erishgan va o'z davlatini Res-

publika deb e'lon qilgan. Sudanliklar (Qadimgi Nubiya) misrliklar singari yuqori madaniyat yaratgan qadimiy elatlardan. Nubiya to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar miloddan avvalgi III ming yilliklarida Misr solnomalarida tilga olinadi. Miloddan avvalgi XVI – X1V asrlarda hatto Nubyaning ancha qismi Misr provinsiyasi hisoblangan. Bir-ikki asrlardan keyin bu yerda mustaqil Napata davlati paydo bo'ladi va miloddan avvalgi IX asrga kelib u Nil vodiysini bosib olib, qisqa davr Misr ustidan hukmronlik qiladi. Keyinchalik Sudanda quldarlik davlati tashkil topdi.

Milodning VI asrlarida nasroniy dini tarqalib, o'rta asrda Nubiya davlatining rasmiy dini deb e'lon qilindi. Bu yerda arablar XIII asrdan boshlab bir-ikki asr davomida asta-sekin arab tilini tarqatib, nasroniylikni siqib chiqaradi, islom dini hukmron bo'ladi. Arab-lashtirish va islomni singdirish birmuncha qiyinchilik bilan kechgan.

Shimoliy Afrika xalqlarining xo'jaligi jahondagi eng qadimiy dehqonchilik va chorvachilik bilan bog'liq bo'lib, ularning ajoyib an'analari hozirgacha yetib kelgan. Ammo dehqonchilik bilan chorva xo'jaliklarining nisbati turli hududlarda o'zaro farq qiladi. Nil vodiysi va dengiz sohillaridagi serunum yerlarda, asosan, dehqonchilik, sahro va yarim dasht hududlarda yarim ko'chmanchilik asosiy xo'jalik tarmog'i bo'lib, daryo va dengiz sohillaridan uzoqlashgan sayin chorva dehqonchilikdan ustun turadi. Agar misrliklar va sudanliklar uzoq davrdan beri sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullansa, Janubiy Sudanda chopqi dehqonchiligi bilan baliqchilik, Mag'rib mamlakatlarida (ayniqsa, qirg'oq bo'yи Atlas tog'larida) dehqonchilik bilan bog'dorchilik va qoramolchilik, bepoyon sahro hududlarida faqat ushoqmolchilik bilan kun kechiradilar. Yirik chorva yaylovlari juda kam bo'lganligidan uncha rivojlanmagan, ko'p joyda qoramol ishchi kuchi sifatida saqlangan xolos.

Tarixiy etnografik nuqtai nazardan Misr dehqonchiligi muhim ahamiyatga ega bo'lib, uni o'rganish umuman dehqonchilikning kelib chiqishi va taraqqiyotini bilishga imkon beradi. Eng qadimiy neolit davrida paydo bo'lgan va qisman hozirgacha saqlanib kelgan sun'iy sug'orish tizimi Yuqori Misrdagi daryo toshqinlaridan foydalanib ekin ekishdan iborat bo'lgan. Nil vodiysida ilgari bir necha ming gektar maydonni qismlarga bo'lib, rosh bilan chek solingan va ikki metrgacha yetadigan daryo toshqini shu yerlarni to'ldirib bir yarim oygacha suv saqlagan. Suv singib qaytgandan keyin Nilning serunum loyqasiga urug' sepilgan. Odatda, bug'doy, arpa, loviya, beda va boshqa ekinlar ekilgan va qish bo'yи o'sib yozga borib hosil olingan.

XIX asrga kelib sug'orish tizimi ancha rivojlangan, Misrni Angliya o'zining to'qimachilik sanoati uchun paxta bazasiga aylantirish maqsadida fallohhlar ku-chi bilan asr boshlaridan ekin dalalarini kengaytirib, to'g'onlar va yangi kanallar qurdirgan. Sudanda ham Oq va Ko'k Nil oralig'idagi Gezirada doimiy sug'orish tizimi qurilib, serunum yerlarda paxta plantatsiyalari yaratilgan.

Yil bo'yи sug'orish imkoniyati paydo bo'lishi bilan qishloq xo'jalik ekinlarining turlari ham ko'paygan. An'anaviy don va paxta ekinlaridan tashqari fallohhlar sholi, shakarqamish, makka, suli, zig'ir, turli sabzavot va poliz ekinlari, molga yem uchun beda (bersim) kabilarni ekkanlar. Yerni haydashda qadimiy temir uchli omoch ishlatilgan, unga ho'kiz, qo'tos, eshak, xachir yoki tuya qo'shilgan. Yerga ishlov berishda chopqidan foydalanilgan, hosil o'roq bilan o'rilgan va maxsus xoda yoki chanaga o'xshash yog'ochga ishchi hayvon qo'shib yanchilgan. Agar Misrda, asosan, don, paxta va sabzavot ekilsa, Marokashda makka, Tunisda zaytun daraxti, Janubiy Mag'ribda xurmo ekilgan,

dengiz sohillarida bog'dorchilik rivojlangan, bu yerda uzum, anjur, bodom, sitrus o'simliklari va sabzavot o'stirilgan.

Shimoliy Afrikaning qishloq aholisi qadimdan turli uy hunarmandchiligi bilan ham shug'ullangan. Ular qo'lda va charxda sopol buyumlar yasaydilar, bo'yra va chipta to'qiydilar. Chorvadorlar esa jundan har xil mato, gilam to'qiydilar, kigiz, teri poyabzal, egar kabi zarur buyumlar ishlab chiqaradilar. Shaharlarda yirik hunarmandchilik, ayniqsa, temirchilik, misgarlik, zargarlik, ko'nchilik, kulolchilik ancha rivojlangan. Sanoat keyingi yillarda o'sa boshlagan.

Arablarning moddiy madaniyati juda ko'p umumiylikka ega bo'lsa-da, ayrim o'lkalarda o'z xususiyatlarini saqlab kelgan. Misr fallohlari kichik qishloqlarda Nil vodiysining sug'orma joylarida yashaydilar. Ular xomg'ishtdan yoki guvaladan bir qavatli tekis tomli uy quradilar. Dehqon uylari, asosan, bir hujrali to'g'riburchak, oynasiz va tuynuksiz, yarmi supali pechka (mo'risiz o'choq, tezak bilan yoqiladi) egallagan bo'lib, shunga to'shalgan bo'yrada yotib turiladi. Boylar katta hovlilarda yashaganlar.

Fallohlarning an'anaviy kiyimlari oq yoki ko'k chitdan (butun bo'yiga) tikilgan uzun va keng yengli ko'ylak va kaltaroq ishton, sovuq paytlarda tuya junidan to'qilgan matodan chakmon, boshida do'ppi yoki salsa. Ayollar ham keng yengli yuqorisi bo'g'ma, tik yoqali uzun ko'ylak kiyadilar, boshida shol yoki ro'mol yopinadilar, turli rangdagi munchoqlar, misdan, kumush yoki oltindan ishlangan uzuk, sirg'a, bilaguzuk taqadilar. Mag'ribliklar, ayniqsa, sohillarda yashovchi shahar aholisi, asosan, yevropacha kiyinishga o'tgan. Ammo milliy kiyimlar ham saqlangan. Aholi qimmatbaho burnus (yaktak)ga o'xshash kiyim kiyadilar. Marokashda boshiga salsa o'ralsa, Tunisda ko'proq hoji do'ppi (fas) kiyiladi. Ayollar keng va uzun

ko'ylak ustiga plash yoki shol, yuziga oq yoki kulrang chachvon yopinadilar. Qishloqlarda shaharga nisbatan yuzini kamroq bekitadilar. Tuareg qabilalari-da, aksincha, erkaklar yuzini bekitib, ayollar esa ochiq yuradilar.

Misrliklar dini ilk urug'doshlik jamoalarida vu-judga kelgan. Diniy an'analar mustahkam va turg'un bo'lgan. Fetishizm, totemizm, ayniqsa, hayvonlarga topinish, Misrda uzoq vaqt davom etgan. Politeizm mavjud bo'lgan. Deyarli har bir ma'bud qandaydir hayvon ko'rinishida tasvirlangan. Masalan, Anubis ma'budi bo'ri, ma'buda Bast – mushuk ko'rinishida tasvirlangan. Keyinchalik ma'budlar insoniy qifo-fa olgan. Aholi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullana boshlagach, turli xil tabiat kuchlari-ni o'zida ifodalovchi ma'budlarga, jumladan, osmon (ma'bud Nut), Yer (ma'bud Geb), Quyosh (ma'bud Ra), Oy (ma'bud Tot) va boshqalarga sig'inish kuchaygan. Xapi ma'budi obrazida misrlik dehqonlar Nil daryosiga sig'inishgan. Misrda juda boy diniy va jodu kitoblari yaratilgan. Afsunlar, duolar, sharxlar, ma'budlarga iltijolar to'plam qilingan (maya, «Ehrom matnlari», «Sarqofa matnlari», «Murdalar kitobi» va bosh-qalar). Qadimgi Misr ilohiyoti antik dunyo dinlarida keng tarqalib, xristian aqidalari, urf-odatlariga katta ta'sir ko'rsatgan.

Oxirgi ma'lumotlarga ko'ra, Misrda 85 294388 kishi (2012-yil) bo'lib, dunyo bo'yicha aholi nufuziga ko'ra 16-o'rinda turadi. Aholining 98 foizi misrlik arablar, nubiylar, barbarlar, kopt (qibt)lar (mahalliy xristianlar)dan iborat. Hozirda Misrda 5 mln. atrofida xristianlar yashaydi. Misrning tub aholisi mamlakatga kelgan arablar bilan aralashib ketgan qadimgi misrliklarning avlodlaridir. Greklar, armanlar, italyanlar, ingлизлар, fransuzlar ham yashaydi. Asosan, islom dinining sunniylik yo'nalishida; xristianlar 10

foizni tashkil etadi. Aholining 43,9 foizi shaharlarda istiqomat qiladi. Eng yirik shaharlari: Qohira, Iskandariya, Port-Said, Ismoiliya, Tanta, Suvaysh, Al-Mansura, Damanxur, Al-Mahallat-ul-Kubro shaharlari hisoblanadi.


### **34-§. G'arbiy va Markaziy Afrika xalqlari**

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Afrika bo'yicha Iqtisodiy komissiyasi taklifiga binoan G'arbiy va Markaziy Afrikaga tabiat, etnik tuzilishi, tarixi va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining umumiy xarakteriga qarab 24 ta mamlakat kiritilgan. Etnik jihatdan bu yerda yashovchi xalqlarning ko'pchiligi G'arbiy Sudan va Bantu xalqlari degan nom bilan atalgan. Bularning ko'pchiligi XX asr o'talariga qadar Yevropa davlatlarining mustamlakasi bo'lib kelgan. Ayniqsa, ikkinchi jahon urushidan keyin butun Afrikani larzaga keltirgan milliy-ozodlik harakati juda ko'p xalqlarning mustaqil rivojlanishiga yo'l ochib berdi. Tarixiy «Afrika yili» nomi bilan kirgan 1960-yilda G'arbiy va Markaziy Afrikaning 15 ta mamlakati siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritgan edi. Shulardan eng kattalari Nigeriya va Zoir, keyin Senegal va Mali, Mavritaniya va Benin (ilgarigi Dagomeya), Niger va Yuqori Volta, Fil suyagi sohili va Togo, Chad va Gobon, Markaziy Afrika va Kongo Xalq Respublikasi, Kamerun va S'erra-Leone. 1965-yilda Gambiya, 1968-yili Ekvatorial Gvineya, 1973-yilda Gvineya-Bisau, 1975-yil Yashil orollar buruni va Angola mustaqil respublika deb e'lon qilindi. Bu mamlakatlarda hozir muhim etnik jarayon ro'y bermoqda<sup>1</sup>.

G'arbiy va Markaziy Afrika aholisi turli antropologik va lingvistik guruhlardan iborat bo'lib, o'zlari-

---

<sup>1</sup> Jabborov I. Jahon etnologiyasi asoslari... 220-bet.



*Tuareg qabilasi qizi*

ning xo'jalik faoliyati, madaniyati va dirlari bilan biroz ajralib turadilar. G'arbiy Afrikaning shimolida Mali va Niger hududida yashovchi tuareglar katta yevropoid irqining O'rta yer dengizi tipiga mansub. Yevropoid belgilari Markaziy Afrikaning shimoliy hududlaridagi tubikanuri kabi elatlar da ham biroz seziladi. Qolgan barcha xalqlar katta negroid irqiga tegishli. Ammular ayrim tiplarga bo'lingan. Masalan, badanining rangi, labining qalinligi, prognatizm, bo'yisi va boshqa belgilari bilan Senegal tipi (volof xalqi), niger tipi (mandingo xalqi), chad tipi (xausa xalqi), Sahroi Kabir tipi (sara xalqi), pakana bo'yili negeril tipi (pigmeylar) bir-biridan ajralib turadilar.

G'arbiy Afrikaning etnolingvistik qiyofasi juda rang-barang. Bu yerda hozir bir necha til oilalari va juda ko'p turkumlarga mansub etnoslar yashaydi. Afroosiyo til oilasiga kiradigan barbar va tuareglar hamda chad turkumiga mansub xausalar bilan birga niger-kordofa, nil-saxara, benue-kongolez til oilalari ga tegishli juda ko'p xalq va elatlar keng hududda joylashgan. Markaziy Afrikaning etnolingvistik xaritasi ancha yaxlit, umumiylukka ega, asosan, bantu tillari-



*Nigeriyalik bolalar*

da gapi radigan xalqlardan iborat. Bantu xalqlari miloddan avvalgi I ming yillikning o'rtalarida Markaziy Afrikada paydo bo'lib, bu yerda qadimdan yashab kelgan pigmey va bushmenlarni siqib chiqarganlar.

Okeandan uzoqda magistral transport yo'llaridan chekkada joylashgan Markaziy Afrika xalqlarining an'anaviy mashg'uloti dehqonchilik va chorvachilik bo'lib, 80 foiz aholining hozirgacha asosiy tirikchilik manbai hisoblanadi. Qishloq xo'jaligida jamoachilik munosabatlari saqlanib kelmoqda.

Mahalliy dehqonchilik tropik iqlimga moslashgan bo'lib, ekinlardan sholi, makka, suli, batuta, shakarqamish, loviya ekiladi, tropik o'rmonlarda yams, manioka, taru, yeryong'oq (araxis), non daraxti, banan, qovun, qovoq, sitrus va meva daraxtlari o'stirildi. Muhim an'anaviy «etnik» mahalliy ekinlardan sholi gvineya-liberiya zonasida yashovchi xalqlarga xos bo'lib, odatda, sug'orilmay ekiladi. Sholikorlik

Niger va Gambiya daryolarining sohillarida 3,5 ming yillar muqaddam paydo bo'lib, boshqa joylarga tarqalgan. Uni daryo yoqasidagi pastlik suv toshqini serob yerlarda yoki ko'pincha ekvatorial iqlimli namli ser-yomg'ir tropik o'rmonlarda ekadilar. G'arbiy Afrikada sholidan yiliga 400 ming tonnaga yaqin hosil olinadi.

Gvineya bo'g'oziga yaqin joylashgan mamlakatlar-da kakao, kofe, banan, geveya, ananas, kokos palmasi kabi o'simliklar o'stiriladi. G'arbiy Afrikada jahonda yetishtiriladigan kokosning 2/3 qismi, butun qit'adagi kokosning 90 foizi o'stiriladi. Gambiyada yeryong'oq, Nigeriya va Dagomeyada xurmo, Fil Suyagi sohilida kofe (jahonda uchinchi o'rinda, qit'aning 90 foiz hosili), Liberiya va Nigeriya xurmo moyi ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Markaziy Afrikada ham yirik plantatsiya xo'jaliklarida eksport uchun xurmo yog'i, kauchuk, banan, shakarqamish, kofe, kakao, tamaki, yeryong'oq (araxis) va paxta yetishtiriladi. Bu yerda o'rmon ko'p bo'lganligi tufayli qimmatbaho daraxt turlari ham eksport qilinadi (butun qit'adagi bu tur mahsulotning 1/3 qismi Markaziy Afrikada tayyorlanadi). Jahon bozorida okume, maxogani, iroko kabi daraxtlar yuqori baholanadi. Yuqori Gvineyaning tropik o'rmonlarida yashovchi yoruba, ibo, oshanti kabi xalqlar don ekinlariga uncha e'tibor bermaganlar, asosan, yams, manioka, taro, yeryong'oq, banan, citrus va boshqa meva daraxtlari yetishtirganlar. Bolof, serer, mandingo, xausa kabi qadimiy dehqon-chilik kasbiga ega xalqlar esa, asosan, don ekinlari – jo'xori, suli, makka, bug'doy, suv serob joylarda sholi ekkanlar. Chorvachilik sust taraqqiy etgan. Faqat Xausa, Mandingo sohillarida yashovchi ayrim etnik guruhlarda uy hayvonlari saqlangan. Ular ovchilik va baliqchilik bilan ham shug'ullanganlar.

Chorvachilik faqat shimoliy va janubiy hududlarda fulbe, tuareg xalqlarida keng tarqalgan. Ko'chmanchi



*Nigeriya chorvadorlari*

va yarim ko'chmanchi turmush tarzida yashovchi bu xalqlar, asosan, zebu, kichkina ho'kiz – ndama, ot, tuya, qo'y va echki boqib kun kechiradilar. Janubiy kenglikning 10 daraja pastida Gvineya savannasida qoramol boqish mumkin emas, chunki sese pashshasi molga qirg'in keltiradi. Shuning uchun fulbe xalqlarining ko'chish hududi ham mazkur kenglikning shimalida cheklangan. Qoramollar, asosan, Sudan, sohil mamlakatlari – Mali, Yuqori Volta va Nigeriyada mavjud. Dehqonchilik xo'jaliklarida ham qisman mol saqlanadi, uni faqat bayramlarda va diniy marosimlarda so'yadilar.

Gvineya xalqlari, Ganadagi ashanti, Nigeriyadagi yoruba, Kamerundagi bamuma kabi xalqlarda badiiy hunarmandchilik nihoyatda rivojlangan. Ular sopoldan, jez va fil suyagidan juda ajoyib haykallar yasaganlar. Benin hunarmandlari hayvonlarning

kichkina, podsholar va ajdodlarining yirik hajmdagi haykallarini jezdan quyish malakasiga ega bo'lganlar. Ular hatto ko'shk va saroylarni bezaydigan turli rasm, bezak va haykallar yasay olganlar. Bantu xalqlari turli xildagi chipta va savatlar to'qishda katta mahoratga erishganlar. Yog'och o'ymakorligida G'arbiy Afrika xalqlaridan oldinga chiqadigani yo'q.

Hozir G'arbiy va Markaziy Afrikaning iqtisodiy taraqqiyotida qazilma boyliklarning ko'pligi muhim ahamiyatga ega. Yaqin davrgacha bu yerda og'ir sanoat bo'lмаган. Mustaqillikka erishilgandan keyin, ayniqsa, yirik port shaharlarida asta-sekin sanoat korxonalari paydo bo'la boshlaydi. Masalan, Dakara, Abidjan, Jantil, Luanda, Port-Xarkorte va Zarrida neft ishlab chiqarish zavodlari, Gvineyada alyumin uchun zarur loy tuproq zavodi, Nigeriyada simob eritish zavodi, Gana va Kamerunda alyumin zavodi, Zoirda kon sanoati va olmos kovlab olish korxonalari (jahonda eng katta olmos koni), Kongoda qo'rg'oshin va oltin konlari, Gabonda marganes va uran konlari, Kamerunda boksit, Gobon va Kongoda yuqori sifatlari temir ishlab chiqarish korxonalari paydo bo'ldi. Ni-hoyatda boy va rang-barang mineral resurslarning to-pilishi mazkur mintaqada eng muhim sanoat tarmoqlarining rivojini ta'minlamoqda. Markaziy Afrikada yog'och ishlab chiqarish, to'qimachilik, oziq-ovqat sanoati sohalari ham rivojlangan. Og'ir sanoatning asosiy mahsulotlari eksportga ishlaydi.

G'arbiy va Markaziy Afrika aholisi turmush tarzi va tabiiy sharoitga moslashgan uylarda yashaydilar. Barcha mamlakatlar, asosan, agrar xo'jalikka ega bo'lganligi tufayli aholining ko'pchilik qismi qishloqlarda joylashgan. Ammo G'arbiy Afrika qadimiy shahar madaniyatiga ega bo'lib, bu yerda o'rta asrlar dayoq 70 ga yaqin shahar mavjud bo'lgan. Mintaqada keyingi davrlarda shaharlar ko'payib, migratsiya jarrayoni ancha kuchaygan.

Gvineya sohilida yashovchi xalqlar yog'ochdan qurilib, loydan urilgan to'rtburchak shaklidagi tekis somon tomli uylarda yashaydilar. Masalan, yoruballarda uylari ichkariga qaratilgan bir necha hovlilar mavjud. Uylarning devorlari bezatilgan, ustunlariga o'yma naqshlar berilgan. Gana xalqining uylari ichkari va tashqariga bo'lingan, hovlilar devor bilan o'ralgan. Ko'chmanchi fulbe va tuareqlar ko'chishga qulay teri yoki chipta yopilgan chodirlar tiklaganlar. Malidagi songai xalqlari o'ziga xos somon chiptalar bilan egilgan chiviqlarga birkitilgan uylarda yashaydilar. Bunday uylar toshqin kelganda ko'chirishga qulay bo'lgan.

Mahalliy aholining kiyimlari ham tabiiy sharoitga moslashgan. Sudan sohilliklarining erkaklari keng ko'ylak va sharovar (cholvir), ayollari yubkaga o'xshash beldan pasti to'piqqacha bir necha marta o'ralgan rangli chitdan iborat kiyim kiyadilar. Tog' etaklarida yashovchi fulbe qabilalarisovugandan saqlanib ko'ylak-ishton ustiga jun matodan tikilgan



*Afrika dehqonlari*

plash yopinganlar. Tropik o'rmonlarda yashovchi aholining ko'pchiligi oddiy belbog' bilan cheklangan. Poyabzal deyarli kiyilmaydi, faqat sahroda issiq qum-dagi qabilalar sandal kiyganlar. Tuareglarning erkaklari boshdan-oyoq qora matoga o'ranadilar. Shahrarda Yevropa kiyimlari tarqalgan.

Dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholining taomlari, asosan, guruch, suli, manioka va sabzavotlar, guruch, qo'ziqorin, sabzavot, go'sht yoki baliq bilan pishiriladi, sulidan atala, maniokadan non pishiradilar. Chorvador fulbe, asosan, sut mahsulotlarini iste'mol qiladilar, suli yoki makkadan atala pishirib, yog' qo'shib yeylimdilari.

Odatda, Afrikani ajdodlar ibodatining klassik namunasi deb hisoblaydilar. Bu bejiz emas, chunki butun Afrikada, ayniqsa, uning g'arbiy va janubiy qismida ajdodlarga sig'inish nihoyatda keng tarqalgan. Ammo bu yerda islam va nasroniy dinlari ham muhim o'rinni egallaydi. G'arbiy Afrikaga islam IX – X asrlarda kela boshlagan va mahalliy dinlarni siqib chiqara boshlaydi. Hozir bu yerdagi aholining 32 foizi (61 mln. dan ortiq kishi) musulmon, taxminan 18 foiz (21,4 mln. kishi) nasroniy dinida (XIX asrda tarqala boshlagan), qolgani mahalliy diniy e'tiqodlarga rioya qiladi. Masalan, Liberiyada aholining 3/4 qismi, Fil Suyagi sohilida 2/3 qismi, yuqori Volta va Sanada 3/4 qismi, Nigeriya va Gvineya-Bisauda yarmiga yaqini mahalliy a'anaviy dinlarga, ayniqsa, ajdodlar arvohiga sig'inadilar. Sunna mazhabidagi islam G'arbiy Afrikaning, asosan, shimolida va sohil zonasida, ayniqsa, Senegal, Gambiya, Gvineya, Mali, Niger kabi mamlakatlarda hukmron dinga aylangan. Masalan, Nigerda 96 foiz aholi, Sinegal va Gambiyada 80 foiz aholi musulmon. Mahalliy a'anaviy diniy e'tiqod va ibodatlarga rioya qiluvchilar G'arbiy Afrikada 38 foiz (52,3 mln. dan ortiq kishi)ni tashkil qiladi. Markaziy

Afrikada esa mahalliy dindagilar 14 foiz dan ortiq aholi (19,2 mln. kishi)ni tashkil qiladi. Ammo islomga nisbatan nasroniylik ko'proq tarqalgan va ancha mustahkam saqlangan. Markaziy Afrika aholisining 20 foizdan ortig'i (23,7 mln. kishi) nasroniy dinida. Bularidan tashqari, mintaqada nasroniy-afrika aralashma diniy e'tiqodlar ham keng tarqalgan. Bunday sinkretik dinlar ta'siriga G'arbiy Afrikaning 26 foiz aholisi, Markaziy Afrikaning 17 foiz aholisi o'tgan.

G'arbiy va Markaziy Afrika xalqlarining badiiy hunarmandlik san'ati naqadar yuksak bo'lsa, uning og'zaki ijodi, o'yin va musiqa san'ati ham shunchalik rivojlangan. Ajoyib arxitektura namunalari, go'zal ko'shk va saroylar, afsonaviy obrazlar tasviri berilgan haykal va ustunlar, quyma metall va o'yma yog'och san'ati namunalari bilan bir qatorda, beqiyos og'zaki adabiy merosni avlodma-avlod saqlab kelgan baxshi (griot)lar, ashulachi va raqqosalar jahon madaniyatiga munosib hissa qo'shib kelmoqdalar. Hozir ham xalq ijodi zaminida paydo bo'lgan professional arxitektorlar va adabiyotchilar, aktyor va raqqosalar, musiqachi va ashulachilar, rassom va haykaltaroshlar o'zlarining go'zal san'atlarini xalqaro festivallarda, konsert dasturlarida namoyish qilmoqdalar, ol-qishlarga, hurmat-e'tiborga sazovor bo'lmoqdalar.

### **35-§. Sharqiy Afrika xalqlari**

Afrika qit'asining sharqiy qismida bir xil irqda-gi o'ziga xos maishiy turmush va madaniyat yaratgan turli etnoslar yashaydi. Bu yerda mustamlaka bo'lмаган yagona davlat – Efiopiya, jahon olmos bozorida yetakchilik qilayotgan Janubiy Afrika Respublikasi va Namibiya joylashgan. Sharqiy Afrikaga (Efiopiyadan tashqari) Somali, Jibuti, Keniya, Ugan-

da, Tanzaniya, Ruanda, Burundi, Zambiya, Malavi mamlakatlari kiradi.

Yevropoid va negroid irqlari o'rtalig'ida shakllangan efiop irqiga tegishli xalqlar, asosan, semit-xamit (afroosiyo) tillarida gapiradilar. Efiopiyada yashovchi eng katta xalqlar amxara va oroma, janubi-sharqiy hududlardagi somalilar va boshqa elatlar semit til oilasiga mansub. Markaziy qismi va janubi ko'p sonli galla, sidamo, kushit tilida gapiradigan xalqlardan iborat. Ular, asosan, dehqonchilik bilan shug'ullanadilar.

Efiopiya eng qadimiy dehqonchilik markazlaridan bo'lib, uning markaziy va g'arbi-shimoliy qismlarida haydaladigan yerlariga, asosan, g'alla ekilgan. Yaylovli chorva xo'jaligi chopqi dehqonchiligi bilan birga rivojlangan hududlar g'arbiy, janubiy qismida mavjud. Asosiy ekinlardan bug'doyning ayrim turlari, teffa (mayda urug'li don), durra (jo'xori turi), makka, arpa, suli, sholi, loviya turlari, no'xat, chechevitsa, nut, paxta ekiladi. Efiopiyada kofe yetishtiriladi va u (kefa provinsiyasi nomi bilan bog'liq) eng sevimli ichimlik sanaladi. Turli sabzavot ekinlari: qalampir, piyoz, sarimsoq, karam, bodring, qovoq ham yetishtiriladi. Keyingi vaqtarda pomidor, lavlagi, rangli karam, sabzi ham keng tarqalgan. Bog'dorchilik rivojlangan, apelsin, limon, mandarin, anor, banan o'stiriladi. Dehqon xo'jaligida qo'l to'qimachiligining ommaviylashgani, eksportning ko'payishi natijasida paxta muhim ekinlardan hisoblanadi.

*Kofe – Efiopiyaning iftixori hisoblanadi. Shu bois bu yerdin, xuddi xitoy va yaponlarning choy marosimlari habi kafe hamda kofe ichish bilan bog'liq urf-odatlar keng targalgan.*

**Turarjoylari.** Efiopiyaning shimoliy va sharqiy hududlarida yashovchi aholi ta'g'riburchak shakl-

ida mayda tosh va shag‘aldan tuproq va tezak aralash loydan qurilgan tekis tomli uylarda yashaydilar. Ko‘chmanchi chorvadorlar (masalan, somaliliklar) o‘ziga xos panjara sinch devorlarga tuxum shaklida qalin quruq xashak yopilgan, ustiga tuyu yoki ho‘kiz terisi qoplangan uylarda yashaydilar. Keyingi yillarda ko‘chmanchilarning o‘troq turmush tarziga o‘tayotgan qismi tukuli uylarni tiklamoqdalar.

**Kiyim-kechaklari.** Kiyimlari an‘anaviy, erkaklar chitdan uzun tik yoqali ko‘ylak, tor ishton kiyadilar, ustiga shamma (chopon) yopinadilar, sovuqda koşhonli jundan tikilgan burnus kiyadilar. Ayollarning kiyimlari ham uzun tor yengli ko‘ylak, shamma va burnusdan iborat. Odatda, ayol va erkaklar bosh va oyoq yalang yuradilar, ayollar ba’zan ro‘mol yopinadilar. Faqat sahroda qaynoq qumda yurish uchun teri sandal kiyiladi. So‘nggi vaqtarda Yevropa kiyimlari keng tarqala boshlagan.

Bayramlarda hamma oq liboslar (Efiopiyada oq rang sevimli) kiyib bezanadilar. Butun hayot ochiq havoda o‘tadi. Hovlida ovqat pishiriladi, chit to‘qiladi, ip yigiriladi, non yopiladi va kofe qaynatiladi.

Efiopiyada aholisi 75 mln. kishi bo‘lib, uning yarmidan ko‘pi (66,5 foizi) nasroniy dinida (asosan, amxara, tigray, qisman oromo, agou va boshqa xalqlarda), qolgani (28 foizi) musulmonlar (somali, afari, chorva oromo, tigra, badja, voyta, jabirti kabi xalqlar) va mahalliy an‘anaviy dindagi (5 foizi) elatlar va etnik guruhlar (asosan, g‘arbiy, shimoliy va janubi-g‘arbiy hududlarda) ajdodlarga sig‘inish, animizm kabi e’tiqodlar saqlangan.

Somali yarim orolida yashovchi shu nomdagi aholining (5,5 milliondan ortiq kishi) turmush tarzi efiopiyaliklarnikiga ancha yaqin.

Somalilarning asosiy qismi (janubiy hududlarda 60 foiz va shimolda 90 foiz) ko‘chma chorva xo‘ja-



*Somali taomlari*

liklardan iborat, ular biroz dehqonchilik bilan ham shug'ullanadilar. Ayniqsa, tuyakashlik keng tarqalgan. O'ndan ortiq tuya, bir-ikki yuz qo'y va echkiga ega bo'lgan kishi badavlat hisoblanadi. Ayrim boy oilalar bir necha yuz va hatto mingta tuyaga ega. Somalilar guruhlarga bo'linib, ko'pincha qavmu qarindosh oilalar birikib ko'chib yurganlar. Uzoq davrga mo'ljallanib qurilgan makon (guri)ni qoldirib, o'spirin va yoshlar tuyakashlik qilib, uzoq joylarga ko'chib bir necha oygacha poda bilan yashagan. O'troq holatda faqat aholining 1/3 qismi yashaydi. Bular, asosan, vodiylarda joylashgan dehqonlar, hunarmandlar, savdogarlar va sohillardagi baliqchilar.

Dehqonchilikda faqat xo'jalikka zarur ekinlar (makka, kunjit, yeryong'oq, loviya, paxta) ekiladi. Ek-sport uchun plantatsiyalarda banan, shakarqamish yetishtiriladi.

Somali aholisining 99,8 foizi islom dinida. Ular barcha musulmon bayramlarini va navro'z (somali-

cha dabisht bayrami)ni tantanali ravishda nishonlaydilar.

Sharqiy Afrikaning yirik mamlakatlaridan 2012-yil ma'lumotlariga ko'ra Keniya (37,8 mln.), Uganda (30,9 mln.), Tanzaniya (37,8 mln.) aholisining etnik qiyofasi rang-barang. Masalan, Keniyada yashovchi aholining asosiy qismi (95 foiz) negroid irqda, ayniqsa, nilot tipi ko'pchilikni tashkil qiladi. Bu yerda bantu, nilot, kushit tillarida gapiradigan turli elatlar yashaydi. Ulardan bantu tilidagi etnoslar (kikyuyu, embu, kamba, taraka, luxya, kasik, pakomo, iverine, suaxili va h. k). Nilot til turkumiga oid xalqlar (aholining 30 foizi)dan eng kattasi jaluo yoki luomlgari ko'chmanchi chorvador bo'lib, keyin o'troq dehqonchilikka o'tgan. Hozirgacha yarim ko'chmanchilikda yashab kelayotgan nilotlar ko'p. Ularning tasavvurida yerga ishlov berish, ya'ni dehqonchilik qilish nomunosib kasb. Bunday fikrdagi masai samburu, turkana, teso nomli chorvador qabilalar hozir ham qadimiy odatlariga binoan ayricha yashaydilar.

Afrika, arab va hind madaniyatlarining ko'p asrlig yaqin aloqalari va aralashmasida paydo bo'lgan yorqin va original suaxili madaniyati umumjahon mohiyatga ega bo'lgan va juda ko'p etnoslarga manzur tushgan madaniyatga aylangan. Uy qurilishida, kiyimlarida, badiiy hunarmandlik mahsulotlariда, ma'naviy hayotida nihoyatda go'zal va rang-barang o'ziga xos xususiyatlarni saqlab kelgan. Keniya xalqlarining sohil qismi aholisi hozirgacha zargarlik, misgarlik, yog'och va suyak o'ymakorligi san'ati an'analarini davom ettirmoqdalar. Suaxilliklarning oq xalat (galabey)lari, kumush bilan kashtalangan chiroyli do'ppilari, ayollarning quyuq ko'k, o'ziga xos parda va choyshablari, turli taomlari sharqi-janubiy sohil aholisi orasida keng tarqalgan.

Tanzaniyada mahalliy bantu xalqlarining o'troq dehqonchilik madaniyati bilan hunarmandlik va sohil-lardagi suaxili savdogarlarining madaniy an'analari qadimiy davrlardan aralashib shakllanib kelgan. Uganda, Burundi, Zambiya xalqlarida ham bu jaray-on sezilarli darajada. Zambiyada bir necha o'n qo'shni qishloqlar birikib, bir jamoa (chifdom)ni tashkil qila-dilar. Odatda, 5 – 10 ming kishidan iborat chifdom boshida oqsoqol boshliq saylanadi. Mazkur jamo-alarning soni mamlakatda 400 ga yaqin. Tanzaniyada bola voyaga yetganda, nikoh va ko'mish marosimlar-ida qadimiy urf-odatlar saqlanib, ularni kohinlar va folbinlar boshqarib kelgan. Chorvador masai aholisi past ellipsis shaklidagi xashak va chiviqlardan tiklan-gan uylardan iborat 20 – 50 xonadonlik qishloqlarda jamoa bo'lib yashaydilar.

### **36-§. Janubiy Afrika xalqlari**


Janubiy Afrikaning etnik qiyofasi, lingvistik tuz-lishi va sotsial tuzumi turlicha ko'rinish kasb etgan. Tub aholi afrikaliklar mintaqaning 4/5 qismini tash-tili qiladi, janubiy qismida afrikaliklarning ko'pchiligi bantu xalqlaridan (taxminan umumiy aholining 78 foizi) qadimiy etnos hisoblangan bushmen va gutten-totlar 0,5 foiz hamda yevropaliklar metislar bilan 19 foiz, osiyoliklar 2 foiz nufuzga ega.

Turli mahalliy etnoslar mintaqada Mozambik, Zim-babve, Janubiy Afrika Respublikasi (JAR), Namibiya, Botsvana, Svazilend, Lesoto davlatlari, Madagaskar, Komor, Reyunon, Mavrikiy va Seyshel orollaridagi o'lkalar orasida tarqoq holda joylashgan. Mintaqada-gi mamlakatlar orasida o'zining ijtimoiy tuzumi va et-nik tarkibi jihatidan Mozambik Respublikasi alohida o'rin egallaydi.

Mamlakatda, chorva sust rivojlangan, sohillarda baliqchilik mayjud, ayrim xalqlar (makonde) ovchilik va asalchilik bilan ham shug'ullanadilar. Boshqa bantu xalqlaridagidek, badiiy hunarmandchilik, ayniqsa, misgarlik, zargarlik, o'ymakorlik keng tarqalgan. Makonde xalqi hunarmandlarining yog'och haykallari jahonga mashhur. Ularda pastki labi va burniga qalayi yoki ba'zan kumushdan uzuk taqish odati bo'lgan, har xil niqob kiyib raqsga tushish keng tarqalgan.

Aholining 2/3 qismi mahalliy an'anaviy diniy ibodatlarga, taxminan 16 foizga yaqini nasroniy diniga, 11,6 foizi islomga itoat qiladi.

Janubiy Afrikaning nisbatan rivojlangan ko'ptarmoqli xo'jalikka ega bo'lgan mamlakatlaridan sanalgan Zimbabve xalqlarida an'anaviy turmush tarzi unsurlari ancha saqlanib kelgan. Masalan, aholining 2/3 qismini tashkil qiluvchi shona xalqi hozirgacha derazasiz, doirasimon konussimon somon tomli uylarda yashaydilar, butun faoliyat va tirikchilik ochiq hovlilarda o'tadi. Ovqatlari dondan pishirilgan atala, sabzavot qaylesi, go'shtni faqat oilaviy yoki diniy bayramlarda iste'mol qiladilar. Teridan tikilgan belbog' yoki etakcha, ba'zan kandirdan to'qilgan etik kiyadilar. Ularda hozirgacha qadimiy qabilaviy tashkilot tartiblari saqlangan. Katta etnohududiy birikmadan iborat qabila jamoasi – «nika»ni oqsoqollar boshqaradi. Ular muayyan davrda jamoa mulki hisoblangan mulk – yerlarni qayta taqsimlash, hashar tashkil qilish, marosimlar o'tkazishga bosh bo'ladilar. Qishloq oilalarida har bir oila a'zosi hurmatiga qarab taom iste'mol qilishda o'z o'rnini aniq bilgan. Har qaysi kishi dala ishlardan tashqari uyida bir kasbni bilishi, masalan, chipta yoki savat to'qishni, sopol idish yasashni, o'ymakorlikni yoki boshqa bir kasbni egallashi shart bo'lgan. Ularning sevimli musiqa asboblari: turli nog'oralar, nay va surnaylar, o'ziga xos



*Janubiy Afrika bolalari*

yog'och rezonatorga o'rnatilgan tunikali instrument «mbira». Juda nozik geometrik naqshlar berilgan sopol buyumlar, to'qima mahsulotlar, applikatsiya usulida to'qilgan gilamlar shona xalqiga xos dekorativ san'at namunalaridir.

Botsvana aholisining 90 foizi bantu tilida gapi-radigan tevana xalqi, qolgani shona, gerero elatlari, Kalaxari ichkarisida bushmenlar daydilikda ovchilik va terimchilik bilan kun kechiradilar. Tevana aholisi, asosan, chorvachilik va qisman sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullanadilar. Ular juda mohir hunarmand, chiroyli yog'och va sopol buyumlar, teridan kiyim va gilamchalar ishlab chiqaradilar. Tevanalarning milliy kiyimlari teridan belbog'li etakcha (kaross) va telpakka o'xhash bosh, bo'yinni bekitadigan jundan to'qilgan bosh kiyim.

Etnik jihatdan o'ziga xos koysan til turkumiga mansub bushmenlarning qurol va buyumlari o'q-

yoy, o'qdon, yog'och so'qi va sopi tuyaqush tuxumi qobig'idan va yovvoysi hayvonlarning oshqozonidan ishlangan suv idishlaridir. Yo'y-o'qning uchi toshdan yoki qo'shni bantu va gutentotlardan almashib olgan metalldan yasalgan. Ular o'q-yoyni musiqa asbobi si-fatida ham ishlata biladilar. Sehrgarlik marosimlari-da musiqachilar chalqancha yotib kuy ijro etadilar. Bushmenlar ota urug'idagi qavm-qarindosh guruhlariga birikib, daydilik qilib ko'chib yuradilar. Ularda doimiy uylar bo'lmasdan, turarjoyalarida qumni kav-lab yoki yerto'la qilib somon to'shab yotganlar, ba'zan xashaklardan chayla tiklaganlar. Okavango vohasida bir necha o'troq bushmenlarning qishlog'i uchraydi. Ular yig'im-terim va ovchilikdan tashqari chopqi deh-qonchiligi bilan ham shug'ullanadilar.

Janubiy Afrika Respublikasi (JAR) juda katta hududda joylashgan (1,2 mln. kv. km.), uning aholi soni 43 million kishidan iborat (2012-yil), Namibiyaniki 1,8 mln. dan oshiq (hududi 824,3 ming kv. km.).

JAR taraqqiy etgan mamlakatlar qatoriga kiradi. Dastlab bu yerga XVII asr o'rtalarida gollandiyaliklar (burlar, ya'ni dehqonlar yoki afrikanerlar) kela boshlaydi. Ular tashkil qilgan firmalarda Osiyo (Yava) dan, Madagaskar va G'arbiy Afrikadan keltirilgan qullar ishlatilgan, keyinchalik mahalliy guttentotlar ni asir qilib ishlata boshlaganlar. XVII – XVIII asrlar da Janubiy Afrikaga Fransuz gugenotlari va nemislar ko'chib kelishgan.


Afrikaliklardan eng katta etnik guruh bantu (aholining 70 foizi), ayniqsa, zulu, kosa, suto, tivan va svazi xalqlari o'ziga xos madaniyatini saqlab kelmoqda. Hozirgi kunda bantu xalqiga mansub aholining umumiy nufusi 200 million kishini tashkil qiladi va ularning asosiy qismi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanadi. Bantu xalqi uyushmasiga: shonalar – 14 mln, ruandalar – 13 mln, zuluslar – 10,5



*Bantu qabilasi uyi*

mln, kongolar – 10 mln, makualar – 8,55 mln, kosalar – 7,9 mln, rundilar – 7 mln, chokve – 1,95 mln. kishi kiradi. Ularning ijtimoiy tuzumida ancha o'zgarishlar ro'y bergan. Katta patriarchal oilalar o'rniiga kichik oilalar paydo bo'lgan, diniy e'tiqodlar ancha o'zgargan, ko'pchilik aholi nasroniy diniga o'tgan (47 foiz), mahalliy an'anaviy dinlar aholining 1/3 qismida saqlangan, qurama nasroniy Afrika cherkovi va mazhablari tarafдорлари esa 13,7 foiz aholini tashkil qiladi. Islom bu yerga dastlab XVIII asrda Indoneziyadan musulmon qullar bilan kelgan va XIX asr o'rtaidan keyin ancha ko'paygan. Hozir aholining 1,4 foizi islom diniga e'tiqod qiladi.

Butun bantu aholisi Afrikada keng tarqalgan doira (qo'ra) shaklida qurilgan qishloqlar (kraal)da katta patriarchal oila bo'lib yashaganlar. Zulus va kosa xalqlarida ota urug'ining klassik namunasi so'nggi davrlargacha saqlangan bo'lib, katta oila jamiyatning iqtisodiy hujayrasi hisoblangan. Har bir qabila bir necha urug'larga bo'lingan, har bir guruh yer



*Afrika xalqlarining  
marosim niqoblari*

mulkiga ega va ayrim saylangan oqsoqol tomonidan boshqarilgan. Qoramol katta patriarchal oilaning mulki hisoblangan. Nikohda qoramoldan qalin to'langan. Kuyovbola qalin to'lashga urug'doshlaridan mol to'plagan. Bantu xalqlarida, asosiy boylik qoramol hisoblangan. Ularda sut mahsuloti ishlatilgan, go'shtni kam iste'mol qilganlar. Guttentotlarda chorvachilik bilan ovchilik birga olib borilgan, bushmenlar esa ovchilik va terimchilik bilan shug'ulanganlar.

Xalq ijodi, badiiy hunarmandchilik ancha rivojlangan. Janubiy Afrika bantulari chiroqli cho'zma usulda sopol buyumlar, o'yma naqshli yog'och idishlar, ho'kiz qo'shiladigan ayrishoxli yog'ochdan yasalgan chanalar, temir uchli nayza va boshqa qurollar ishlab chiqarganlar. Jo'shqin raqs va kuylar ularning eng sevimli tomoshalari, barcha tantana va marosimlarining eng muhim qismidir. Musiqa asboblari turli xilda, ammo katta-kichik nog'oralar («marimbo», «ngoma») doimo jo'r bo'lgan, yog'och, shox yoki qamishdan yasalgan surnay va naylar, kamonchali asboblari. Yomg'ir yog'dirish marosimida bantu xalqlarida o'yinkulgi, raqs-ashulalar bilan birga, qora qo'y yoki buzoq qurbanlikka so'yilishi shart bo'lgan.

Janubiy Afrika xalqlarining eng qadimiy madaniyatidan qoyalarga rasm chizish hozirgacha saqlangan. Fil, karkidon, ilon, ho'kiz, jirafa kabi hayvonlar, ov

marosimi va urush manzaralari bushmen rasmlarida tasvirlangan. Bo‘yoqlar, mineral rang va ko‘mirga mol yog‘i aralashtirib ishlangan. Keyingi qoya rasmlarida yelkanli kemalar, miltiqli shlyapa kiygan yevropaliklar ham tasvirlangan. Guttentot, geror va ovambo xalqlarining qoya rasmlari ham chuqur realistik va ta’sirchanligi bilan ajralib turadi. Ayrim qabilalarda chiroyli bezatilgan niqob yasash san’ati saqlangan.

Madagaskar Respublikasining aholisi 20 mln. (2012-yil) o‘zining etnik tuzilishi va turmushi bilan afrikaliklardan ajralib turadi. Tub aholi hisoblangan malagasiy (malgash)lar tashqi ko‘rinishi, tili, moddiy va ma’naviy madaniyati hamda urf-odatlari bilan Janubi-sharqiy Osiyo xalqlariga yaqin turadi. Ammo ularning orasida ham mongoloid, ham negroid tiplari uchraydi. Tillari malayya – polineziya oilasiga kiradi. Malagasiylar aholining 97 – 99 foizini tashkil qildi.

Madagaskar aholisi etnogenezi kam o‘rganilgan. Ayrim ma’lumotlarga qaraganda, bu yerga miloddan avvalgi X – VI asrlarda Janubi-Shärqiy Osiyo orollari dan mongoloidlar ko‘chib kelgan. Ular bu yerga ilgari kelib joylashgan bushmen va guttentotlarga yaqin aholi bo‘lib, Sharqiy Afrikadan kela boshlagan sohil bantulari bilan aralashib hozirgi malagasiy xalqining shakllanishiga asosiy zamin yaratgan.

Moddiy madaniyati jihatidan mazkur aholi Indoneziya xalqiga yaqin. Malagasiylar xuddi indoneziyaliklar singari yerga ishlov berib, sholi ekadilar, o‘xshash kiyim kiyadilar, temir eritish, puffak qurol ishlatish, balansirli kema ham xuddi indoneziyaliklarnikidek. Ko‘mish marosimi, sahna qurish, qabrlarga, devorlarga qushlarning tasvirlari yoki hayvon shakllarini o‘rnatish kabilar ham hindixitoy, filippin va polineziyadagiga nihoyatda o‘xshab ketadi. Malagasiylarning rivoyatlarida uzoq o‘tmish ajdodlarining sharqiy mamlakatlar bilan bog‘liq ekanligi to‘g‘risida hikoyalar bor. Umuman, Madagaskar aholisining tarixini, asosan, og‘zaki rivoyatlar, tarixiy

solnomalar orqali tiklash mumkin. Xullas, malagasiylar ajdodlari taxminan miloddan avvalgi I ming yillikda Janubi-Sharqiy Osiyodan kelib joylashgan va mahalliy aholi bilan aralashgan.

Aholining 98,8 foizi malagasiylar. Ular 18 ta etnik guruhlarga bo'lingan. Shularning ichida eng yirik guruhlardan: merina yoki merna (aholining 23 – 25 foizi), besimisaraka (15 – 16 foiz), besileu (13 – 14 foiz) va hokazo. Bundan tashqari mamlakatda chet elliklardan fransuzlar, hindiyalar, pokistonliklar, xitoylar, arablar, makua, suaxil va komorliklar yashaydi. Barcha elatlar G'arbiy Indoneziya shevasidagi bir-biriga yaqin dialektlardan iborat malasiya tilida gapiradilar. Aholi migratsiyasining orol ichida juda jiddiy bo'lganligi tufayli, etnik va til birligi tez sur'atlar bilan ro'y bergen, natijada umumiy malagasiy xalqining shakllanishiga zamin yaratilgan edi.

Hozir Madagaskarda yashovchi aholining 80 foizi qishloq xo'jaligida band. Bunday xo'jaliklarda eksportbop tovar mahsulotlari (vanil, qalampir, sharkqamish) yetishtirilgan. Eksport mahsulotlarini

yirik plantatsiya xo'jaliklarda ham ishlab chiqaradilar. Hozir gacha saqlanib kelgan an'anaviy qishloq jamoasi (fukunuluna) iqtisodiy hayotda muhim rol o'ynamoqda. Ijtimoiy munosabatlarni boshqarishda hududiy tashkilot vazifasini bajaruvchi fukulunulalarga saylangan umumiy kengash 5 yilgacha mahalliy oliy hokimiyat rolini ado etadi.

Asosiy oziq-ovqat mahsuloti sholikorlik bo'lib, butun sug'oriladigan yerning 95 foizi ni egallagan. Sholi ko'chatlarini



*Milliy bosh kiyimdagи  
malagasiy erkak*

kichik polizlarda yetishtirib, keyin dalalarga ekadilar. Ekinzorlarga suvni kanallar, kichik platinalar orqali yetkazib beradilar. Ba'zan yomg'ir suvlarini ham to'g'onlar qurib ekinga ishlatadilar. Odatda, botqoq holatiga kelgan dalalarga zebu (o'rkachli afrika ho'kizi) podasini haydab tepkilangan tuproqqa urug' sepadilar. Groining janubi-sharqiy qismida hozirgacha o'rmon (changalzor)larni chopib quritib kuydirilgan kulli tuproqqa ekin ekadilar. Yerga uzun dastali bukilgan temir uchli chopqi bilan ishlov beriladi. Sholini yilning oxirida, yomg'ir ko'p yog'adi-gan paytda ekib, aprelda yig'im-terim boshlanadi. Hosilni qo'lda yig'ib olib, toshga uring yoki mol yuborib xirmonda yanchiladi. Odatda, kuydirilgan yerga ikki yil ekin ekiladi, keyin 8 – 10 yil partav qilib qoldiriladi, yangi yer ochiladi.

Madagaskar aholisining yarmidan ko'pi (54 foizi) mahalliy an'anaviy dinlarga, ayniqsa, ajdodlarga sig'inish ibodatiga amal qiladilar. Odamning hayoti tug'ilishidan to o'limigacha urug' ibodati marosimlari va odatlari bilan to'la, hosil toplash va molning bolalashi ham turli urf-odatlar bilan nishonlanadi. Malagasiylarning turmushida dafn qilish va xotirlash marosimlari alohida o'rinni egallaydi. Xotira marosimlarida musiqa, ritual raqslar, miltiq otishlar, katta xarajatli xudoyilar va haftalab davom qiladigan ziyofatlar juda keng tarqalgan. Ayniqsa, qabr ustiga qo'yiladigan yodgorlik ustunlari chiroyli qilib o'rnatiladi, o'yma naqshlar va ho'kiz shoxlari bilan bezatiladi. Qarindoshlarni dafn qilish va xotirlash eng muhim odatlardan hisoblanadi. Shuning uchun sohil aholisida qabristonlarni obodonlashtirish, dabdabali sag'ana tiklash, qimmatbaho haykallar qo'yish odat tusiga kirgan. Malagasiylar o'limni hayotning davomi deb tasavvur qiladilar.

Orol aholisining 41 foiz qismi nasroniy diniga o'tgan bo'lsa-da, asl qadimiy an'anaviy marosimlar va

urf-odatlarga amal qiladilar. Ularning tasavvurida ajdodlarning arvohlari ular bilan birga uyda yashaydi, avlodlarning turmushini, xo'jalikda, kundalik hayotida va diniy marosimlarida an'anaviy udumlarga rioya qilishlarini kuzatadilar. Taxminan 10 foiz malagasiylar sunna mazhabidagi islom diniga, ozgina qismi esa shia mazhabiga itoat qiladilar.

Malagasiylarning tasviriy san'ati amaliy xarakterga ega bo'lib, tosh yoki yog'och o'ymakorligi, sopol idishlari va gazlamadagi tasvirlar, chipta va savatlardagi naqshlardan iborat. Ba'zan motam munosabati bilan ikki-uch kun tinmay bambukdan yasalgan noyob nohinli torli asbob, nog'ora va naylar ovozi ansambl ijrosida yangrab turadi. Og'zaki ijod ham ancha rivojlangan.

XX asr so'nggi choragi va XXI asr boshlarida jahon miqyosida kechayotgan globallashuv jarayonlari Afrikaga ham sezilarli ta'sir qildi. Ayniqsa, Afrika shaharlaridagi aholi turmushi va oilaviy marosimlari (tug'ilish, ism qo'yish, initsiatsiya, to'y, dafn va motam) o'zgarishlarga uchrab transormatsiyalashdi. Zamonaliviy antroponimlar (kishi ismlari) o'zining marosimiy ahamiyatini yo'qotib, Yevropa xalqlari va arablarga xos ismlar ommlashmoqda. Aynan Yevropacha familiyalar keng tarqalmoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sababli Afrikadagi qator halqlar initsiatsiya marosimlarini o'tkazmay qo'ydi. Yoki ayrim mintaqalarda ayrim o'zgarishlar bilan ramziy tarzdagina saqlanib qolgan. Ayniqsa, aralash aholi yashaydigan Afrika shaharlarida bu marosim yopiq, ma'lum bir etnik guruhgagina xos yashirin ahamiyatini yo'qtdi. Masalan, Zimbabavening Lusake shahrida babemba xalqi qizlarning initsiatsiya marosimi garchi etnik mansubligidan qat'iy nazar bir xil tarzda o'tkazilmoqda. Zamonaliviy Afrika jamiyatida xatna marosimiga boshqa etnoslardan bo'lgan tabib-

lar taklif etilmoqda, ayrim hollarda esa bu marosim kasalxonalarda jarrohlar tomonidan marosimlarsiz o'tkazilmoqda. Garchi aholi tomonidan xristianlik va islom dini qabul qiliniganganiga qaramay nikoh va motam marosimlari ham ayrim hollarda an'ana-viy tarzda bajarilmoqda. Jamoa orasida nikoh marosimlari o'tkazilib, nikohni qayd qilinsa yoki cherkov va masjidda nikoh o'qitilsa-da, qalin berish odati saqlanib qolmoqda. Shuningdek, motam marosimida dafn etishdan avval marhumni oxirgi yo'lga kuzatish uchun afsungarga murojoat etish holatlarini kuzatish mumkin. Mahalliy olimlarning fikricha, murakkab va ko'p sonli ishtirokchilar bilan o'tkaziladigan nikoh va motam marosimlari, garchi katta xaratjatlar evaziga tashkillashtirilishiga qaramay, shahar muhitida o'zi-ga xos etnik xussiyatlarni saqlab kelmoqda.

Zamonaviy Afrika shaharlariida hind, arman, turli Yevropa mamlakatlari (masalan, Angola va Mozambikda – portugal, Keniyada ingliz)ga xos inoetnik marosimlarning o'tkazilishini ham ko'rish mumkin.

### Seminar rejasi:

1. Afrikaning tarixiy-etnologik tavsifi.
2. Shimoliy Afrika xalqlari etnologiyasi.
3. G'arbiy va Markaziy Afrikaning etnik xususiyatlari.
4. Sharqiy Afrika xalqlari etnografiyasi.
5. Janubiy Afrika xalqlari xo'jaligi, madaniyati.

### Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar:

1. Afrika qit'asidagi xalqlar va tillarning xilma xilligini nima bilan izohlash mumkin?
2. Afrika sivilizatsiyasi haqida nimalarini bilasiz?

3. Misr madaniyatining o‘ziga xosligi nimalarda namoyon bo‘ladi?

4. Afrikadagi zamonaviy etnomadaniy jarayonlar boshqa qit’alardagidan nimasi bilan farq qiladi?

### **Adabiyotlar:**

1. Львова Э. С. Культура народов Тропической и Южной Африки: история взаимодействия и тенденции развития. – М., 1996.
2. Jabborov I. Jahon xalqlari etnologiyasi.– Т., 2005.
3. Культуры Африки в мировом цивилизационном процессе. – М., 1995.
4. Мир африканской деревни. – М., 1999.
5. Попов В. А. Этнография Африки (Цивилизации иprotoцивилизации Тропической Африки). СПб., 2001.
6. Традиционные и синкретические религии Тропической и Южной Африки. – М., 1986.
7. Традиционные культуры африканских народов – прошлое и настоящее. – М., 2000.
8. Этиология (Этнография): учебник для бакаларов// Под ред. В. А. Козьмина, В. С. Бузина. – М., Изд. Юрайт, 2014.
9. Surtin Ph., Feierman S., Thompson L., Vansina J. African History: From Earliest Times to Independence. N. Y., 1995.
10. Reader J. Africa: A Biography of the Sontinent. L., 1997.

## **IX BOB**

### **AMERIKA XALQLARI ETNOLOGIYASI**

- 37-§. Amerika xalqlarining tarixiy-etnologik tavsifi.*
- 38-§. Shimoliy amerikaning tub aholisi.*
- 39-§. Markaziy Amerika xalqlari.*
- 40-§. Janubiy Amerika xalqlari.*
- 41-§. Amerikaning zamonaviy etnik qiyofasi*

#### **37-§. Amerika xalqlarining tarixiy-etnologik tavsifi**

**A**merika qit'asi o'zining hududi bilan faqat Osiyodan bir oz kichikroq bo'lib, odatda, Amerika deyilganda ikki materik, ya'ni Shimoliy Amerika va Janubiy Amerikadan iborat qit'a tushuniladi. Ular orasidagi chegara, odatda, Daren bo'yni, ba'zan esa Panama bo'yni orqali o'tkaziladi. Dunyodagi eng katta Grenlandiya oroli va yon atrofidagi bir qancha boshqa orollar ham Amerika tarkibiga kiradi. G'arbiy yarim sharda, Atlantika va Tinch okeanlari orasida joylashgan. Shimoliy Amerikada ko'pincha Markaziy Amerika va Vest-Indiya orollari alohida ajratiladi. Umumiy maydoni 42,5 mln. km<sup>2</sup>. Aholisi 908 mln. 915 ming kishi (2013).

Amerikaning mahalliy aholisi bo'lgan hindularning kelib chiqishi uzoq vaqtgacha fanda sir bo'lib, turli faraz va mulohazalarni yuzaga keltingan. Ayrim

olimlar Amerika aholisi avtoxton, ya'ni shu yerda paydo bo'lgan degan fikrni yoqlab chiqqanlar. Ammo Amerikaga odamlarning Osiyodan kelganligi, uning shimoldan janubga tomon asta-sekin ko'chib tarqalganligi oxirgi vaqtarda tasdiqlangan. Bu ko'chish Bering bo'g'ozni bo'lмаган Osiyo va Amerika qit'asi qo'shilgan bir davrda ro'y bergan. So'nggi 40 yil ichida qilingan kashfiyotlarga tayanib, olimlarning ko'pchiliги bu yerda odam 30 – 25 ming yillar muqaddam paydo bo'lgan degan fikrga kelganlar. Atoqli antropolog L. Liki Amerikaga dastlab osiyoliklar hatto 50 – 100 ming yillar ilgari kela boshlagan degan fikrni ta'kidlagan. Ko'pchilik olimlar Janubiy Amerikaga esa odamlar dastlab 17 – 11 ming yillar ilgari kelgan degan fikrni quvvatlashadi.

Mahalliy amerikaliklarning ajdodlari butun qit'ada Shimoliy Alyaskadan janubdagagi Olovli Yergacha osiyoliklar ekanligini arxeologik dalillardan tashqari antropologiya tuzilishlari ham tasdiqlaydi. Ularning hammasi mongoloid irqiga mansub bo'lib, badanining kam tukliligi, qora ko'zliligi, keng yalpoq yuzliligi va yonoq suyagining chiqqanligi bilan umumiy o'ziga xos tipni paydo qilgan. Ammo hindular osiyo mongoloidlaridan baland bo'yligi, epikantus (ko'z qiyachig'i) ning kamligi va uzunchoqroq yuzi bilan ajralib turadi. Ular balki, ayrim olimlarning fikricha, o'zlarining osiyolik ajdodlarining antropologik tuzilishini saqlab qolgan. Hindulardan Shimoliy Amerika va Grenlandiyaga tarqalgan aleut-eskimoslar ancha ajralib turadi. Ularda mongoloid belgilari juda kuchli va hozirgi shimoli-sharqiy osiyoliklarga ancha yaqin. Demak, aleuteskimoslar Amerikaga kelgan aholining eng oxirgi oqimi bilan bog'liq.

Qolgan barcha hindular necha asrlar va hatto ming yillar davomida asta-sekin shimoldan janubga va keyin qit'aning ichki hududiga tarqalgan hamda

turli elat va xalqlarning shakllanishiga asos bo'lgan. Ba'zi umumiy belgilariga qarab ular, odatda, uch katta guruhga: shimoliy amerikalik, markaziy amerikalik va janubiy amerikaliklarga bo'linadi. Ular o'zaro faqat bo'yи va badan terisining rangi bilan farqlanadilar. Shimoliy Amerika hindulari bo'yining balandligi, ko'zining to'g'ri qiyig'i va burgutsimon burni bilan ajralib turadi.

Amerika mahalliy aholisining kelib chiqishiga oid fikrlar fandagi quyidagi xulosalarda o'z aksini topgan. 1) Amerika insoniyat paydo bo'lgan mintaqasi hisoblanmaydi; 2) Yangi Qit'aga odamzotning ko'chib o'tishi Shimoliy – 30 ming: yillardan avval Sharqiy Osiyodan ko'chib o'tgan; 3) Hindularning ajdodlari Amerikaga Bering bo'g'ozi orqali kirib kelgan.

Markaziy va janubiy amerikalik hindular eng qadimiy irqiylarini saqlab qolganlar, odatda, ular past bo'yli, ochiq jigarrang badanli bo'lgan. Badiiy adabiyotda, ayniqsa, F. Kuper asarlarida, hindularni «qiziltanlilar» deyilgan. Umuman olganda «qiziltanli» iborasi Yangi Angliyaga kelib o'rashgan britaniyalik mustamlakachilar orasida paydo bo'lgan. Aynan ular bilan beofaks (hozir mavjud emas) qabilasi qo'shni bo'lgan bo'lib, aynan mazkur qabila jangchilari o'zlarining badanlarini qizil tusli bo'yoq bilan bo'yagan. Natijada «qiziltanli» iborasi hindularni yevropalik, osiyolik va afrikaliklardan ajratuvchi irqiylar ko'rinish kasb etgan. 1992-yil bir guruh amerikalik hindular AQShni patentlar va savdo belgilari boshqarmasiga «qiziltanli» so'zini AQSh firmalari, sport komandalari, savdo belgilari tarzda qo'llashini ta'qilash borasida murojaat qilgan. Ularning fikricha, bu so'zni qo'llash huquqi aynan qiziltanli hindulargagina tegishlidir. Lekin «qiziltanli» so'zini yuridik tavsiflash imkonini bo'lmasaganligi uchun ularning murojaati qanoatlan-tirilmagan.

Amerika tubjoy aholisining tillari kam o'rganilgan. Ammo ular juda ko'p mayda til guruuhlariga bo'linib ketgan. Olimlarning aniqlashiga qaraganda, bu yerda hindularning taxminan ikki mingdan ortiq tillari mavjud bo'lib, ularni 110 ta til oilasiga bo'lish mumkin. O'z navbatida, mazkur tillar oilasi beshta yirik til guruuhlariga biriktirilgan: makrokarib, makroaravak, makrokechua, makromayya va baskdene. Balki bu klassifikatsiya hindularning ko'chib kelish jarayoni ni, ya'ni migratsiya to'lqinini aks ettirishi ham mumkin. Bularidan tashqari, o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan yana uchta til turkumiga biriktirilgan tarqoq qabilalar borki, ular Janubiy Amerikada joylashgan bo'lib, eng dastlabki migratsiya bilan bog'liqidir.

So'nggi davrlargacha ko'pchilik qabul qilgan klasifikatsiya asosida mahalliy tillar 20 ga yaqin til oilalariga biriktirilgan. Hozirgi davrda hindu tillarining asosiy qismi ayrim mamlakatlarning davlat tillari tomonidan siqib chiqarilgan yoki siqib chiqarish arafasida. Faqat eng yirik til oilalari – kechua, aymara, mayya va ularga yaqin tillar o'z mavqeini saqlab qolganlar. Umuman olganda, Shimoliy Amerikada yashovchi hindu qabilalarni quyidagi til guruuhlariga bo'linadi:

- na-dene (atapaksklar, tlinkitlar va iyaklar) shimaliy g'arbda yashagan;
- markaziy va shimoli-sharqiy rayonlarda yashovchi algonkinlar;
- alkonkinlardan janubda yashovchi siular;
- AQSh janubi-sharqidagi muskogilar;
- AQSh g'arbidagi penuti va xokalar;
- Tinch okeani AQSh va Kanada sohillarida yashovchi slelishlar va vakashilar;
- AQSh g'arbida va Meksikada yashovchi yuto-asetekilar;
- Meksikaning janubi-sharqida va Gvatemalada yashovchi mayalar;

– Janubiy Meksikada (mayalar bilan oto-mangelar orasida) yashovchi mixe-sokelar.

Ushbu oilalar, ayniqsa, penutlar va xokalarning tarkibi va chegarasi ma'lum ma'noda o'xshash hisoblanadi.

1826-yilda cheroki qabilasi sardori – Sekvoyya (Jorj Gess) cheroki alifbosini yaratgan, 1828-yilda esa cheroki tilida «Cheroki Feniks» gazetasini nashr qila boshlagan. Cho'lda yashovchi hindular piktografik yozuvdan foydalanganlar.

E'tiborli jihat shundaki, yuqoridaq tillarda Peru va Boliviyyada hatto maktablar va adabiyot mavjud. 1975-yil 27-iyunda birinchi marta Amerika qit'asida Peru hokimiyati kechua tilini davlat tili deb e'lon qildi. Paragvayda ispan tilini yengib o'tib, mavqeini tiklagan guarani tilida adabiyot va matbuot mavjud bo'lib, bu tilda radioeshittirishlar tayyorlanadi.

Hozirgi kunga kelib birgina AQShda besh millionga yaqin hindular yashaydi va ular mamlakat aholisining taxminan 1,6 foizini tashkil qiladi. Eng ko'p sonli hindular Kaliforniya (740 ming), Oklaxoma (415 ming) va Arizona (366 ming) shtatlarida yashaydi. Los-Anjeles – eng ko'p sonli hindular yashaydigan shahar hisoblanadi.

Oxirgi yillarda AQShda 565 hindu qabilalari ro'y-xatga olinib, bu qabilalar federal hokimiyat tomonidan rasman tan olingan. Rasmiy ro'yxatdan o'tish uchun mazkur qabilalar hindu bo'lмаган yevropa-liklar kelgunga qadar mustaqil faoliyat olib borgan bo'lishi va bu ularga o'zlarining milliy an'ana va yozma konstitutsiyasiga ega bo'lish imkoniyatini yaratib beradi. Shuningdek, AQSh qonunchiligiga ko'ra, o'zining bobosi yoki buvisi Amerikaning mahalliy aholisi bo'lib, ularning qabilasi zamonaviy AQSh hududida yashaganligini isbotlab bera olgan shaxsnigina hindu hisoblash mumkin. Umuman olganda,

hindular AQShda qator imtiyoz va huquqlarga ega bo'lib, ularning eng asosiylari:

- jamoat tashkilotlarini tuzish va o'zini o'zi bosh-qaruv jamoalari (oqsoqollar kengashini tuzish);
- jamoa yashovchi hududlarga mahalliy hakamlarni yuborish;
- soliq imtiyozlari va hukumat subsidiyalarini olishdir.

Taxminan ming yillar muqaddam Amerikaning shimoli-sharqiyo sohillarida va Grenlandiyada normannlarning yashaganligi («Vinland») aniqlangan. Aynan normannlar Grenlandiyaga o'rナashib olgach, XI – XIII asrlarda Nyufaundlend oroli, Labrador yarim orolining sohillari, shuningdek, Baffin dengizida 74 sh. k. gacha borganlar, lekin bu kashfiyotlar o'sha davrda yevropaliklarga ma'lum bo'lмаган. Shu bois ham Amerikaning mustamlaka qilinishi ispan hokimiyatni xizmatidagi genuyalik Xristofor Kolumbning 1492-yil 12-oktabrdagi kashfiyoti bilan bog'liq deb ta'kidlanadi. Buyuk sayyoh Hindistonga g'arbiy yo'lni izlab Karib dengizidagi Bagam arxipela-giga yetib kelib, uni G'arbiy Hindiston (Vest-Indiya) deb o'ylagan. Juda qiyinchiliklar bilan kashf etilgan o'lkani Salvador (ispancha «xaloskor») deb atagan. 1492 – 1503-yillar davomida Xristofor Kolumb yetakchiligida 4 ispan ekspeditsiyasi Bagama orollari, Kuba, Gaiti, Kichik Antil, Puerto-Riko, Yamayka orollari hamda Gonduras, Nikaragua, Kosta-Rika, Panama bo'yni sohillarigacha yetib kelgan bo'lsa-da, bu yerlarni hindlarniki degan fikrini o'zgartirmadi. Ammo uning ayrim zamondoshlari yangi kashf etilgan yerlar Osiyo emasligini tezda aniqlasalar, 1497 – 1498-yillarda J. va S. Kabot Shimoliy Amerikaning sharqiyo qirg'oqlari bo'ylab suzganlar. 1500 – 1501-yillarda portugal G. Kortirial va 1504-yilda fransuz dengizchilari San-Lavrentiy qo'ltig'igacha kirdilar.

1513-yilda ispanlar Florida yarim orolini kashf qilganlar. 1609-yil fransuz S. Shampalen Shimoliy Appalachi tog'lari, 1615 – 1648-yillarda uning agentlari Buyuk ko'llargacha yetib borganlar. 1648-yil F. Popov va S. Dejnyov Chukotka dengizidan Tinch okeanga o'tib, Shimoliy Amerika tor bo'g'oz orqali Osiyodan ajralib turganligini aniqlagan. Amerikani garchi X. Kolumb tomonidan kash etilgan bo'lsa-da, uning nomlanishi iste'dodli florensiyalik, ispan qiroli xizmatida bo'lgan sarkarda Amerigo Vespuchi nomi bilan bog'liq. 1497-yildan keyin u bir necha marta yangi qit'aga kelgan ekspeditsiyaga bosh bo'lgan. Vespuchi 1501 – 1502-yillardagi sayohatidan keyin: «Bu o'lkani Yangi Dunyo deb atash lozim. Shunki bizning ajdodlarimiz bu yerlar to'g'risida tasavvurga ega bo'lma-ganlar», – deb yozadi. Uning mashhur xatlarini o'qigan atoqli geograf va kartograf Martin Valdzemyuller 1507-yilda nashr qilingan «Kosmografiyaga kirish» asarida yangi ochilgan dunyo qismini «Amerigo yoki Amerika mamlakati», deb atashni hech kim man qilmaydi, deb yozgan edi. Shunday qilib, Kolumb kashf etgan yangi qit'a keyingi sayyoh nomi bilan tarixga kiradi. Lekin ayrim mutaxasislarning fikricha, mazkur qita nomini Amerigo Vespuuchchi nomi bilan nomlanishi birmuncha bahsli hisoblanadi. Shunonchi, 1908-yil Alfred Xaddni fikricha, mazkur nom Bris-tollik savdogar Richard Amerika nomi bilan bog'liq bo'lib, u 1497-yilda Nyufaundlendni kashf qilgan Jon Kabot ekspeditsiyasiga xomiylik qilgan. Boshqa bir taxminga ko'ra, Amerika qadimgi vestgot nomi bilan mashhur bo'lgan Amairik ismli ispan dengizchisi sharafiga qo'yilgan. Shuningdek, «Amerika» nomi qadimgi hindular tilidan olingan bo'lishi mumkin degan taxmin ham mavjud<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> <http://www.uhmc.sunysb.edu/surgery/america.html>

XVI asr boshlarida ispan istilochilar Shimoliy Amerikaning janubiy qismini bosib oladilar. Yangi dunyoning afsonaviy boyliklari to'g'risida hikoyalar ni eshitib, sayyoohlar ortidan kelgan ispan konkistadorlari hindularni ayovsiz qirib, talon-toroj qilgandalari. Ayniqsa, 1519-yilda Ernando Kortes yurishlari natijasida hozirgi Meksikada asteklar davlati bosib olinadi. 14 yil keyinroq Fransisko Pisarro boshchiliga ispan askarlari hozirgi Peru, Boliviya va Ekvador yerlaridagi davlatlarni o'zlariga bo'ysundiradilar.

Ispanlar ortidan boylik axtarib portugallar, inglizlar, fransuzlar va gollandlar kela boshlaydilar va Yangi Dunyoni bo'lib mustamlakaga aylantiradilar. Oqibatda Shimoliy Amerika Rio-Grande daryosining shimalidan ingliz va fransuzlar qo'liga, Meksika, Markaziy va Janubiy Amerika ispanlar hamda portugallarning qo'liga o'tadi. Vest-Indiya orollarini ispan, ingliz, fransuz va golland istilochilar o'zaro bo'lib olishgan. Hatto Daniya ham bir qismini egallagan. Oqibatda, hindular serunum yerlaridan mahrum bo'lib, bir qismi qulga aylangan, qolgan qismi esa qirilgan. Ispaniya, Portugaliya qirollari va cherkovlarning xazinalari boylikka to'lib ketgan. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, qisqa muddat, ya'ni, XVI asrning birinchi yarmi davomida 15 million hindular qirib tashlangan.

Odatda, Amerika xalqlarini o'rganish muqaddimasi ularni xo'jalik-madaniy mintaqaga yoki tiplarga bo'lish klassifikatsiyasi tamoyiliga asoslanadi. Bu tamoyil, asosan, tabiiy sharoitga moslashgan xo'jalik va maishiy turmush xususiyatlari bilan belgilanadi. Ammo biz Amerika tub aholisini, asosan, uch qisnga – Shimoliy, Markaziy va Janubiy Amerikaga bo'lib o'rganamiz.

### **38-§. Shimoliy Amerikaning tubjoy aholisi etnografiyası**

Keyingi davrda to'plangan arxeologik ma'lumotlar Shimoliy Amerika hududida ketma-ket izchil almashib, taraqqiy qilib kelgan hindular jamiyatining taxminan o'n bir ming yillik tarixini aniqlab olish imkonini yaratdi. Arxeologlar qit'ada ikkita eng qadimiy paleohindi madaniy an'analarini aniqlaganlar: 1) Markaziy dasht mintaqada joylashgan yirik qush ovchilari madaniyati; 2) Shimoli-G'arbiy Tinch okeani ovchi-terimchilari – kordiler madaniyati. Bu madaniyatlar miloddan avvalgi VIII ming yillikkacha davom qilib kelgan va butun qit'aga tarqalgan turli lokal madaniyatlarning negizini hosil etgan.

Ayniqsa, hindular tarixi qit'aning sharqiy qismi va janubi-g'arbida Shimoliy Amerikaning o'rmon zo-



*Amerika hindu qabilalari vakillari*

nasida (hozirgi Arizona va Nyu-Meksika shtatlari-da) jiddiy o'rganilgan. Ayni shu yerda hozirgi tarixiy va etnografik manbalarga kirgan yuksak darajadagi madaniyatli Shimoliy Amerika hindu qabilalarining shakllanish markazi bo'lgan va ularning keyingi taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatgan. Sharqiy o'rmon zonasida yashagan hindularning tarixiga oid uchta davr aniqlangan. Bu, birinchidan, mo'tadil iqlimli o'rmon va suv havzalari mahsulotlarini ovlab, yig'ib-terib o'zlashtirish xo'jaligiga ega bo'lgan arxaik davr (eramizdan avvalgi VIII – I mingyilliklar), shu zaminda paydo bo'lgan ikkinchi madaniyat janubiy Kanadadan to Meksika bo'g'ozigacha, Atlantikadan to Amerika dashtlarigacha katta hududga tarqalgan vudlend madaniyati ilgarigi madaniy an'anani davom qildirib, qo'shimcha dehqonchilik va kulolchilik bilan ajralib turadi (milodning VII asriga kelib, ayniqsa, Ogoyo daryosining vohasida, bu madaniyat nihoyatda gullaydi va dasht hududlarda X asrgacha, shimali-sharqiy qismida yevropaliklar kelguncha saqlangan). VII asr oxirlaridan boshlab madaniyat markazi asta-sekin Missisipi daryosining o'rta va pastki oqimi vodiylariga va Meksika bo'g'ozi sohillariga ko'cha boshlaydi. Missisipi madaniyati deb atalgan bu davr (VII – XV asrlar) ilgarigi madaniy yutuqlarni o'zida mujassamlashtirgan o'troq dehqonchilik xo'jaligi, qal'ali shahar va qo'rg'onlar, ibodat va saroy tipidagi inshootlar bilan ajralib turadi. Vudlend madaniyati dan missisipiliklar o'zining sopol mahsulotlaridagi yangi shakldagi naqshlar, yog'och, tosh va chig'anoqlardagi yuksak badiiy o'ymakorlik va naqqoshlik san'ati, metall buyumlar yasash mahorati bilan ham farq qilganlar.

Demak, yevropaliklar kelguncha Shimoliy Amerika da hindular yuksak madaniyat yaratganlar. Albatta, hindular jamiyati bu davrda sinfiy tuzumga

o'ta boshlagan. Tadqiqotchilar bu davrni ikki muhim bosqichga bo'ladilar: eng rivojlangan ibodat qo'rg'onlarini tiklash bosqichi (VII – XII asrlar) va qo'rg'on inshootlarining periferiya hududlariga tarqalish bosqichi, ya'ni yuksak hindu madaniyatining boshqa sharqiy o'rmon zonasi va dasht daryo vodiylariga zo'r ta'sir qilib, o'z hukmronligini to'liq o'rnatgan bosqichi (XII – XV asrlar). Mazkur madaniyat mahalliy an'analar bilan aralashib, o'ziga xos rivojlangan hindu dehqonchilik xo'jalik tipini hosil qilgan edi.

Arxeologik tadqiqotlarga qaraganda, Shimoliy Amerikada dehqonchilik dastavval miloddan avvalgi III mingyillikda janubi-g'arbiy hududlarda paydo bo'lgan. Shu asosda arxeologlar «kochiz», «monolon», «xoxokam» va «anasazi» deb atalgan hindu madaniyatining lokal tiplarini ajratadilar. Eng birinchi dehqonchilik madaniyatini Shimoliy Amerikada kochizliklar yaratgan bo'lib, ular dastlab makkajo'xori, keyinroq qovoq va loviya ekkanlar.

Kochizliklar yovvoyi o'simliklar yig'ish va ovchilik bilan ham shug'ullanganlar, g'orlarda yashaganlar.

I mingyillikka kelib kochiz madaniyati asosida makkaning yangi navlarini yaratganlar, yerto'lalarga ko'chgan va to'rtburchak doirasimon uylardan iborat qishloqlarga ega bo'lgan mogolon (miloddan avvalgi III asr – milodning XV asrlari) madaniyati paydo bo'la-di. Arizonaning janubi-g'arbiy qurg'oq hududlarida takomillashgan sug'orishga asoslangan dehqonchilik tizimi yaratilgan, o'ndan ortiq makka turlari, paxta, qovoq, loviya, tamaki, qalampir yetishtirgan xoxokam madaniyati (I – XVI asrlar) yana ham yuqori darajaga ko'tarilgan. Ularning loy va toshdan qurilgan katta (jamoa) uylardan tashkil topgan yaxlit qishloqlari (ispanlar «pueblo» deb ataganlar) zo'r mahorat bilan yasalgan badiiy sopol buyumlar va haykalchalar, paxta ip gazlamalar to'qish san'ati Markaziy Amerika

hindularining yuksak madaniyatga erishganligidan dalolat beradi. XIV asrga kelib birdaniga bu madaniyat vakillari butunlay yo'qolib, faqat bo'm-bo'sh pueblo (qishloq) larini va toshdan ishlangan ko'ptarmoqli sug'orish inshootlarini qoldirganlar.

Xoxokam va mogolon madaniyatidan 300 – 700 yillar keyin paydo bo'lgan anasazi nomli rivojlangan dehqonchilik madaniyati ancha takomillashgan va qo'shni elatlarga zo'r ta'sir o'tkazgan. Mazkur madaniyat izlari hozirgi AQShning Arizona, Nyu-Meksika, Yuta va Kolorado shtatlarida va qo'shni vohalarda to-pilgan. Anasazi madaniyati tarixi ikki davrga: «rivojlangan pueblo» (milodning VII – X asrlari) va «buyuk pueblo» (X – XIII asrlar)ga bo'lingan. Birinchi davr hindulari makka, qovoq, loviya, paxta ekkanlar, il-garigi savat idishlari o'rniغا geometrik ornamentli sopol idishlar yaratganlar, ko'pxonalik (6 – 14 hujrali) toshdan va xomg'ishtdan katta uylar tiklaganlar.

Hindu qabilalarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlansi ham turli darajada bo'lgan. Ularning ko'pchiligi mustamlaka arafasida ibtidoiy jamiyat tuzumining turli pog'onasida, qit'aning janubi-sharqiy va g'arbiy qismida qabilalar sinfiy jamiyatga o'tish darajasida bo'lganlar. XV asr oxiridan Shimoliy Amerikada oqtanliklar, ya'ni yevropaliklar (asosan, Fransiya, Ispaniya, Gollandiya va Angliyadan) kelishi bilan mustamlaka davri boshlanadi. XVIII asr boshlarida esa qit'aga ko'plab negrlar keltirilishi bilan Shimoliy Amerikaning etnik qiyofasi tubdan o'zgara boshlaydi.

XIX asr oxiriga kelib hindu qabilalarining ko'pchili-gi tor-mor qilinib, to'liq bo'ysundirilgan va rezervatsiyalarga joylashtirilgan edi. XV asrda jami 15 – 20 mln. hindular yashagan bo'lsa, hozir Shimoliy Amerikada yashovchi tub aholining soni 2,5 milliondan ortiq. Garchi hindular Amerikaning mahalliy aholisi bo'lsa-da, faqatgina AQShda 1924-yil prezident Kalvin Kulidj davridagina fuqarolik huquqini olgan.

**Arktika ovchilari va baliqchilar.** Arktikaning asosiy tub aholisi eskimos va aleutlar hisoblanadi. Alyaska va Shimoliy Muz okeani sohillarida, Labrador yarim oroli va Grenlandiyada qadim davrlardan eskimoslar yashagan. Eskimoslarning kelib chiqishi borasidagi qarashlarni ameriklik yoki osiyolik ekanligi bilan bog'liq tarzda ikki guruhga ajratish mumkin. Aynan ularning kelib chiqishlari amerikalik ekanligi bilan bog'liq qarashlar amerikalik va daniyalik olimlar tomonidan bildirilgan. Misol uchun, F. Boas eskimoslar etnik shakllangan hudud Gudzonova kechuvidan g'arbda, Alyaska eskimoslari esa sharqdan yaqinda ko'chib kelganlar deydi.

Eskimoslar Amerika Arktikasida va Subartikaning ma'lum bir qismida, Bering bo'g'ozidan tortib Grenlandiyagacha bo'lgan keng hududlarda yashaydi. Alyaska eskimoslari to'rt guruhga bo'linadi: Tinch okeani, materik (Alyaskani janubiy-g'arbi), nunivaksi (Nunivak oroli) va shimoliy Alyaska eskimoslariga bo'linadi. Kanada eskimoslari sakkizta hududiy guruhga: makenzi, koshter, netsilik, iglulik, Baffin Yeri eskimoslari, Kvebek eskimoslari, labrador eskimoslariga bo'linadi.

Alyaskadagi eskimos tili yupik (yarimorolning janubi va janubi-sharqida) va inupiak (Alyaskaning g'arbi, shimoli-g'arbida va shimolida) guruhiga bo'linadi.

Ular eskimos-aleut til oilasining eskimos shaxobchasida so'zlashtadi. Ular o'zlarini in-



*Milliy kiyimdagи  
eskimos ayol*



*Alyaska eskimoslari*

uit («odamlar») deb ataydilar. Aslida «eskimos» so‘zi algonkin tilida «xom go‘sht yeydiganlar», degan ma’noni anglatadi. Shunki, qadimiy davrlarda singa kasalidan saqlanish uchun xom go‘sht iste’mol qilningan. Ular azaldan kit, morj, qutb ayig‘i va shimol tulkisini ov qilish va baliq tutish bilan shug‘ullanib kelganlar. Ovchilik tufayli barcha zarur buyumlarga, ovqatga ega bo‘lganlar: go‘sht va yog‘ taomga ishlatilgan, terilar kiyimga, kema yasashga va uy-ro‘zg‘or ishlariga sarflangan, tulen va morj yog‘i bilan uylarni qizitib yoritganlar, suyaklaridan esa mehnat qurollari yasab, uy va kema qurishda ishlatganlar.

Eskimoslar jahondagi eng shimoliy xalq sifatida qutbning og‘ir sharoitiga juda moslashgan. Ularning ov vositasi va qurollari maxsus tulen va morj terilaridan yasalgan baydarka tipidagi kichik kema (kayak) va katta kema (umiak), uzun ipga bog‘langan yog‘och sopli sanchqi: tosh yoki suyak uchli nayza (ba’zan uni otadigan maxsus qurol ham ishlatilgan) va o‘q-yoy, turli xildagi tuzoqlar va suyakdan yasalgan qarmoqlardan iborat. Ba’zan qurol yasashda qo’shni janubiy

hindu qabilalaridan almashib olgan mis ham ishlatilgan.

Arktikada o'rmonlar yo'q bo'lganligi tufayli eski-moslar qishda zo'r mahorat bilan muzdan uy tiklaganlar. Iglu deb atalgan muz uylarda tulen terisi to'shalgan va devorlarga osilgan, yog'i bilan isitilgan, ham yoritilgan. Hozirgacha saqlanib kelgan bunday uylarda endi primus, kerosin yoki elektr lampa ham ishlatiladi. Ilgari go'shtni, asosan, xom holda iste'mol qilganlar. Qutbning qisqa yozida ayollar materikda o'sadigan turli yemishli ko'kat va ildizlar, klukva kabi tundra mevalarini yig'ib terganlar. Organizmga o'simlik taomlari yetmaganligi tufayli bug'u oshqozonida to'plangan yutqidan tayyorlangan ovqat eski-moslarning eng sevimli taomlaridan biri hisoblangan. Ba'zi eskimos oilalari qisqa yoz faslida materikka ko'chib konus shaklida teri yoki yog'och po'stlog'i bilan qoplangan chaylalar tiklaganlar. Ularning kiyimlari ham mahalliy sharoitga moslashgan boshdan-oyoq dengiz hayvonlarining terisidan yaxlit kombinezon shaklida tikilgan bo'lib, erkak va ayollarniki deyari farqlanmaydi. Ammo bolali ayollarning yegniga osilgan go'dakni solib, ko'tarib yuradigan teri xaltasi ham bo'lgan. Oyog'iga teridan tikilgan paypoq va etik kiyganlar. Ba'zan kiyimlari turli rangli terilar yoki jun bilan bezatilgan.

Hozirgi davrda eskimoslar, ayniqsa, Grenlandiya-da zamonaviy jihozlangan elektr va issiq suv bilan ta'minlangan ko'p qavatli uylarda ham yashaydilar; kiyimlari va taomlari ham ancha o'zgarib yevropa-lashtirilgan. An'anaviy transport vositasi sifatida chang'i va itlar qo'shilgan chanalardan foydalani-shadi. So'nggi yillarda motorli kema va chanalar, miltiq va temir qopqonlar keng qo'llanilmoqda.

Eskimoslarning ijtimoiy tuzumida XIX asrgacha urug'-jamoachilik munosabatlari saqlanib kelgan. Ular ikki-uch oiladan tashkil topgan kichik jamoadan



*Hindu koxin*

iborat bo'lib, ota urug'iga o'tish davrida yashaganlar. Ammo urug'-qabilachilik munosabatlari og'ir tabiiy sharoit tufayli uncha mustahkam bo'lмаган.

**Diniy e'tiqodlari.** Tabiiy iqlimning og'ir sharoiti eskimoslarning dinlarida ham o'z aksini topgan. Ular an'anaviy turmush tarzida animizmga e'tiqod qilgan bo'lib, tabiat kuchlari har xil tabiiy hodisalariga, turli arvoohlarga va «dengiz xo'jayini»ga sig'inish, sehrgarlik (magiya) ga ishonishgan. Har bir eskimos qishlog'ida yashovchi shaman ruhlar olami bilan odamlarni bog'lovchi hisoblangan. Nog'ara eskimoslarning muqaddas buyumi hisoblangan. «Eskimos o'pichi» nomli an'anaviy salomlashish dunyoga mash-hur imo-ishoraga aylangan. Hozir eskimoslar orasida nasroniy dini ko'p tarqalgan.

Eskimoslarda qadimiy davrlarda amaliy san'at rivojlangan bo'lib, hozirgacha suyakka nozik o'yma naqsh berish va suyakdan turli buyumlar yasash saqlanib kelgan. Ular o'ziga xos qabila hayotidan olingan ayrim voqealar va hayvonlarni ovlash manzaralarini zo'r mahorat bilan tasvirlagancha. Uzoq

qutb kechalari muz va qordan tiklangan qorong'i yog' chiroqli uylarda o'z xalqining kelib chiqishi to'g'risida rivoyatlar, quyosh, oy, tog' va muzliklar, turli hayvonlar, devlar to'g'risida afsona va ertaklar aytishganlar. Zamonaviy eskimos adabiyoti va she'riyati mavjud bo'lib, eng mashhur shoiri – Yu. M. Anko.

Kanadada yashovchi eskimoslar inutlar nomi bilan mashhur bo'lib, Nunavut hududida Shimoli-G'arbiy hududlardan mustaqil tarzda 1999-yil 1-apreldan o'zining avtonomiyasiga ega bo'lgan. Labrador orolda yashovchi eskimoslar ham o'z avtonomiyasiga ega. 2005-yildan boshlab esa Nyufaundlend va Labrador provinsiyalariga kiruvchi yarim orollarda ham Nunatsiavut (Nunatsiavut) nomli eskimos avtonomiyasi tuzilgan. Shuningdek, Kanada hududida yashovchi inuitlar og'ir tabiiy sharoitda yashayotganliklari uchun hukumatdan rasmiy to'lovlar olishadi. Xullas, so'nggi yarim asr davomida ro'y bergan o'zgarishlar tub aholining faqat moddiy turmushigagina emas, maishiy va ma'naviy hayotiga ham ijobiyligi ta'sir o'tkazdi. Ayniqsa, Grenlandiya eskimoslarida zamonaviy ma'rifat kurtak otib, ona tilida yozma adabiyotning turli janrlari paydo bo'ldi, gazeta va jurnal chiqa boshladi, radioeshittirishlar olib boriladi.

Tinch okeanida, Alyaska yarim orolidan janubga cho'zilib ketgan Aleut orollarida va Alyaskaning g'arbiy qismida eskimos-aleut til oilasiga oid qadimiy elatlari yashaydi. 1848-yilda rus missioneri N. Tijnov tomonidan eskimos tili alifbosi chop qilingan. Lotin grafikasidagi zamonaviy eskimos yozuvi 1932-yil yaratilgan.

Eskimoslarga maishiy turmush va madaniyati ya-qin aleutlar ham XIX asr boshlarida dengiz hayvonlari bilan ov qilib tirikchilik o'tkazganlar. Ularning ov qurollari eskimoslarnikiday, ammo teridan yasalgan baydarka, dengiz hayvonlarining ichagidan tikilgan

suv o'tmaydigan plash, yog'ochdan yasalgan shlyapa, o'ziga xos moddiy va ma'naviy madaniyat xususiyatlari bilan ajralib turadilar.

Aleutlarning tarixiy taqdiri eskimoslarniki singari Shimoliy Amerika, ayniqsa, AQSh kapitali bilan bog'liq. Ular XIX asr oxirigacha urug'chilik jamiyati darajasida turgan qabilalardan bo'lib, har qabila o'ziga tegishli ov qiladigan joylarda o'troq holda yashaganlar. Uylari yarim yerto'la shaklida katta oilaga mo'ljallangan bo'lib, unda 30 – 40 nafar qarindosh kishilar istiqomat qilgan.

Aleutlarning ozgina qismi hozirgacha Rossiyaga tegishli Komandor orollarida yashaydi. Ular shu bugunga kelib erkin iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojga erishdilar.

Shimoli-G'arbiy sohil hindulari shimolda Bering bo'g'ozidan janubdag'i Xuande-Fuka bo'g'ozigacha Tinch okeani sohillarida ko'p asrlar davomida o'ziga xos hindularning baliqchilik va ovchilik madaniyati shakllanib kelgan. Juda nam, yumshoq iqlimli, ni-hoyatda boy o'simliklarga va faunaga ega bo'lgan bu hududlar inson yashashi uchun ancha qulay bo'lgan. Bu yerda, asosan, tlinkitlar, kvakuitli, xayda, kaluza hindulari yashagan va ularning tirikchiligi dengizda va daryo quyi oqimida baliq ovlashdan iborat bo'lgan. Ular ba'zan tog' echkilari, bug'ular, dengiz hayvonlari, qushlar ovlaganlar, yovvoyi o'rmon mevalari va dengiz ko'katlarini ham terganlar. Ammo losos va sham baliq asosiy ov mahsuloti hisoblangan. Tlinkitlar dehqonchilik va chorvachilikni bilmaganlar, lekin ovda o'rgatilgan itdan foydalanganlar.

Mahalliy hindularning ovchilik san'ati ancha rivojlangan. Ayniqsa, baliqchilikda turli texnika va takomillashgan qurollar ishlatilgan. Ular yaxlit yog'ochdan o'yib yasalgan uch-to'rttadan yuztagacha kishi sig'adigan kemalarda sayohatga va ovga chiqqanlar.

Baliqni tosh, suyak, yog'ochdan va uning tolalaridan yasalgan har xil qarmoq, sanchqi, nayza, to'r, savatlar bilan turli to'g'onlar qurib ovlaganlar. Metalldan faqat misni bilganlar, undan ba'zi qurollar va bezaklar yasaganlar, pul o'rnida ishlatganlar. Ovqatni yog'och idishlarda o'tda qizdirilgan tosh solib pishirganlar.

Hindularda to'quv dastgohi bo'lgan. Ular yovvoyi qo'y va echkilarni haydab, qamab, junini qirqib, keyin bo'shatib yuborganlar, ipidan ajoyib plash to'qiganlar, ko'ylak tikanlar. Matoni o'simlik tolalaridan ham to'qiganlar, teri po'stin bilan ham yopinganlar. Yog'ochdan naqsh berilgan sovut yasaganlar, kadr daraxti tolasidan keng etakli shlyapalar to'qiganlar.

Xo'jalik va savdoning rivojlanishi natijasida mehnat taqsimoti ham paydo bo'lgan: kema yasash, kiyim tikish, uy-ro'zg'or va boshqa buyumlar ishlab chiqarish kasb hisoblangan. 15 – 20 metr balandlikka ega totem ustunlarini mahorat bilan o'yib bezatadigan ustalar bo'lgan.

Mahalliy hindular turmush tarzi o'troq xarakterga ega bo'lganligi tufayli yog'ochdan tiklangan uylardan iborat qishloqlarda istiqomat qilganlar. Uylari oy-nasiz, tuynukli va kichkina eshikli uzunasiga katta jamoa oilasiga mo'ljallanib tosh qurollar bilan yo'nigan yog'ochlardan qurilgan. Yoz faslida baliq ketidan daryolarning yuqori oqimiga ko'chib vaqtinchalik chaylalar tiklaganlar, qishda qishloqlarga qaytganlar. Baliqchilikda nihoyatda zo'r mahoratga ega bo'lgan tlinkitlar losos baliqlarini tejamkorlik bilan g'amlaganlar. Qo'shimcha mahsulot bozorga tushgan, savdo-sotiq ancha rivojlangan. XVIII asr oxiriga kelib, ona urug'i o'rniga ota urug'i tashkil topa boshlaydi. Patriarxal tipidagi katta oila jamoasi dual xarakterga ega bo'lib xususiy mulkka tayangan. Patriarxal nikoh tartiblari bilan birga, turli ona urug'i tartiblari ham saqlanib qolgan. Ammo urug' hisobi va meros

ota urug'iga o'tgan. Dehqonchilik xo'jaliklarida qishloq jamoasiga o'xshash patriarchal tipdag'i ko'p urug'li jamoalar paydo bo'lgan.

Shimoli-g'arbiy sohil hindularining hayotida potlach («o'yinchoq») nomli murakkab marosim muhim rol o'ynagan. Asli katta bazm sifatida bir necha kun, ba'zan oylab o'tkaziladigan potlach marosimida boy jamoa a'zolari va urug' boshliqlari o'z boyliklarini tarqatib bergenlar, hatto qullarini qurbon qilganganlar. O'z navbatida jamoa a'zolari ham bazm egasiغا katta sovg'alar qilishlari shart bo'lgan. Umuman urug' boshliqlariga urug'doshlari tomonidan har xil sovg'alar berib turish majburiy odat tusiga aylan-gan bo'lib, urug'chilik ichida dastlabki soliq (renta) shaklida namoyon bo'ladi. Shu yo'l bilan erkin jamoa a'zolarini o'ziga qaram qilishning iqtisodiy zamini yaratilgan. Potlach marosimida sarflangan xarajat va tarqatilgan boylik o'rni sovg'alar orqali yana tiklangan. Kim bazm va bayramni zo'r o'tkazsa, shu katta nom qozongan. Aslida potlach ibtidoiy jamoa tuzumidan sinfiy jamiyatga o'tish davriga xos marosim bo'lib, endi kurtak otayotgan iqtisodiy va sotsial tengsizlik, boylik va kambag'allikni ijtimoiy hodisa sifatida paydo bo'lganligini ifodalovchi marosimdir.

Mustamlaka davrida savdo-sotiq yana ham rivojlanib ijtimoiy munosabatlar chuqurlasha boshlaydi. AQSh hukmronligi o'rnatilgandan keyin mahalliy aholining asosiy tirikchilik manbai hisoblangan baliqchilik mustamlakachilar qo'liga o'tib, o'z yerlari dan haydalib rezervatsiyalarga ko'chirilgan hindular qashshoqlashib yollanma ishchi kuchiga aylanganlar.

**O'rmon ovchi qabilalari.** Shimoliy Amerikaning sharqi qismidagi subarktika o'rmonlarida Alyaska-ning ichki hududlari va Kanadaning tayga qismida algankin va atapask til oilalariga mansub ovchi, baliqchi va terimchi qabilalar yashaganlar. Ular,

asosan, yovvoyi bug‘u (karibu), los, ayiq, yovvoyi qo‘y va buqa (bizon), tulen, kit va boshqa o‘rmon hamda dengiz hayvonlarini ov qilganlar. Daryo va ko‘llarda baliq ovlaganlar, o‘rmonlarda turli yeishli va etildizli o‘simlik mahsulotlarini yig‘ib-terib kun kechirganlar.

Jonivorlarni ovlashda, asosan, suyak yoki tosh uchli o‘q-yoy, nayza, pichoq, palaxmon, turli tuzoq, qopqon va to‘rlardan foydalanganlar. Baliq ovida qarmoq, teri va o‘simlik tolasidan ayollar to‘qigan to‘r hamda savatlar ishlatilgan. Qishda tennis raketkasi-ga o‘xshash chang‘i va it qo‘shilgan yog‘och chanalar bilan ko‘chib ov qilganlar. Ko‘chmanchilik turmush tarziga moslashgan ovchi hindular konus shaklida o‘rtasida tuynukli teri va yog‘och qobig‘i bilan qoplan-gan, ko‘chishga qulay chaylalarda yashaganlar. Ayrim atapask qabilalari qishda yerto‘lalarda istiqomat qil-ganlar. Daraxt qobig‘idan uy-ro‘zg‘or buyumlari va hatto kema yasaganlar.

Karibu va los terisidan ayollar kiyimlar, maxsi (mokasin) va qo‘lqoplar tikkanlar, mayda jonivorlarning terisi va juni bilan kiyimlarni bezatganlar, bosh kiyimi to‘qiganlar. Ba’zan ishlab chiqarish qurollari va uy-ro‘zg‘or buyumlariga ham naqsh berilgan. Er-kak va ayollar, asosan, bir xilda yengi uzun ko‘ylaklar kiyganlar, qishda kapushonli po‘stin yopinganlar.

Hozirgacha algonkin va atapask qabilalarida ham matrilokal, ham patrilokal nikoh tartiblari saqlanib kelgan. Bir necha juft oilalardan tashkil topgan kich-kina urug‘-jamoa ko‘chib yurishga odatlangan. Ayrim vaqtarda bayram yoki diniy marosim munosabati bilan muayyan joyda bir necha nikohdagi guruhlar to‘planishgan. Odat bo‘yicha, nikohdan keyin ma’lum davr kuyov xotin urug‘ida joylashib, kelin haqi uchun xizmat qilishi keng tarqalgan. Jamoa ekzogamiya tartiblariga rioya qilishi shart bo‘lgan. Barcha qabi-lalarda muhim masalalarni muhokama va hal qilish-

da hamma teng huquqqa ega bo'lsalar-da, eng keksa donishmand kishilar rahbarlik qilganlar. Ichki jamoa munosabatlarida «har kim o'ziga o'zi xo'jayin» degan axloq qoidasiga rioya qilinadi.

Shimoliy o'rmon ovchi qabilalarida ibtidoiy din shakllari – totemizm, shomonlik, sehrgarlik, arvohlarga sig'inish keng tarqalgan. Ular homiy arvohlara kishilarga «kuch-quvvat», kasalliklarni davolashga, ov qilishga yordam beradi deb ishonganlar. Algonkin qabilalarda odamsimon xudolar va oadamxo'r Vindigo nomli bahaybat maxluq to'g'risida tasavvurlar, murakkab marosimlar, ayiqqa sig'inish e'tiqodi muhim o'rinni egallagan. Ko'p asrlar davomida amalga oshirilgan missionerlarning diniy tashviqoti ham zoe ketmagan. Mahalliy hindular orasida nasroniy dini ham tarqalgan. Nasroniylik, ayniqsa, nikoh munosabatlariga zo'r ta'sir qilib, hozir hindularda monogam nikoh o'rnatilishiga sabab bo'lgan. Atapask qabilalarida hindu va nasroniy diniy tasavvurlari, odat va odob qoidalari aralashmasidan tashkil topgan yangi diniy harakatlar ham paydo bo'la boshlagan.

**Kaliforniya hindulari.** AQShning Kaliforniya, qisman Nevada ham Yuta shtatlarida yaqin davrlarga-cha turli tillarda gapiradigan, ammo xo'jalik-madaniy birlikka ega bo'lgan qabilalar yashaganlar. Ular dehqonchilikdan bexabar bo'lsa-da, ovchilik va terimchilikka asoslangan an'anaviy xo'jaligi barcha zarur narsalar bilan ta'min qilib kelgan. Bu yerning tabiat mevali dub daraxtining juda ko'p turlarini, har xil yemishli o'simlik va ildizlarni, yovvoyi loviya, piyoz, yong'oq, daryo va dengiz hayvonlari kabi nihoyatda boy oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib bergen.

Mahalliy hindular, ayniqsa, dub mevalarini tozalab, quritib, yanchib, uning unidan atala pishirganlar. Dub mevasi uni asosiy taom bo'libgina qolmay, qabilalar orasidagi savdo mahsulotlarining muhim sohasi

ham hisoblangan. Ular har xil o'rmon o'simliklarining urug'lari, dengiz sohillari va ichki daryolardan moll-yuskalar, qisqichbaqa, baliq va boshqa jonivorlarni hamda suv o'simliklarini iste'mol qilganlar. Barcha qabilalar uchun oziq-ovqat yil bo'yi tabiatda mavjud bo'lsa-da, ularni yig'ib-terib ishlab chiqarish uchun doimiy mehnat talab qilingan. Asosiy ishlab chiqarish qurollari ovchilikda o'q-yoy, baliqchilikda sanchqi, savat, yaxlit daraxtdan o'yib yasalgan kema bo'lgan. Butun Kaliforniyada zo'r mahorat bilan savat to'qish keng tarqalgan. Ildiz va urug'larni yig'ib-terish uchun oddiy uchi yo'nilgan yog'ochdan foydalaniłgan. Tosh pichoq, turli chig'anoqlar, munchoqlar boylik hisoblangan. Asosiy kasbi terimchilik bo'lganligi tufayli mehnat taqsim qilinmagan. Lekin ovchilik bilan faqat erkaklar shug'ullanishgan.

Shimoliy Kaliforniya hindulari yarim yerto'lalar dan iborat kichik qishloqlarda yashaganlar. Qolganlari ko'chib yurishga qulay bo'lgan daraxt qobig'i



*Kaliforniya hindulari*

bilan yopilgan konus yoki gumbaz shaklidagi chaylalarda istiqomat qilganlar. Deyarli barcha qabilalar kiyimsiz yurganlar, ammo bayramlarda juda ko'p bezaklar taqilgan. Qizlar faqat voyaga yetgandan keyin o'simlik tolasidan yubka yoki teridan etakcha kiyganlar, erkaklar esa bug'u terisidan qilingan belbog' bilan cheklangan. Sovuqda egniga teri yoki ko'r pacha yopinganlar.

Shimoliy va markaziy hindularning ijtimoiy tuzumida qishloq jamoasi, ko'pchiligidagi fratrial tuzumi saqlanib kelgan. Ona urug'idan patriarxatga o'tish munosabatlariga xos tartiblar kuchli bo'lgan. Vohalardagi va tog' etaklaridagi hindular yirik qishloqlarda joylashgan bo'lib, ancha rivojlangan ijtimoiy va siyosiy tuzumga, murakkab diniy tizimga ega bo'lganlar. Totemizm va shomonlik keng tarqalgan. Yevropalik istilochilar XVIII asr o'rtalaridan o'z ta'sirlarini kuchaytiradilar. Ular dastlab sohilga yaqin vodiyarda missionerlik makonlarini o'rnatganlar, hindular bilan aloqani mustahkamlab, nasroniyashtira boshlaganlar. Mazkur aloqalar hindularning turmush tarzini yemirib, og'ir kasalliklarning tarqalishiga sabab bo'lgan. Ayniqsa, yuqumli kasalliklar minglab hindularning yostig'ini quritgan.

Irokezlar Shimoliy Amerikaning sharqiy qismida keyin paydo bo'lgan bo'lsa-da, arxeologlarning aytishi cha, bu yerda madaniyat besh ming yillar muqaddam tashkil topgan. Irokezlarning etnogenezi miloddan avvalgi 1 ming yillikda shakllana boshlagan vudlend madaniyati bilan bog'liq ekanligi aniqlangan.

Mahalliy hindular qadimdan mayda daraxtli o'rmon va to'qayzorlarni kuydirib, dehqonchilik qilib kelganlar. Ular qirqilgan daraxtlarni quritib yoqqanlar, chopqida, yog'och bel yoki yo'nilgan uchli yog'och bilan yerni kavlab, ishlov berib kul aralash tuproqqa urug' sepganlar. Irokezlarning asosiy ekinlari – mais

(makkajo‘xori), loviya va qovoq. Bu ekinlar («Uch opa-singil») bilan ularning diniy tasavvurlari ham bog‘liq bo‘lgan. Uy oldi tomorqada tamaki, tarvuz, no‘xot, kungaboqar, yer noki kabi boshqa ekinlar ham ekilgan. Ammo makkajo‘xorining har xil turlari irokezlarni zarur oziq-ovqat bilan ta’min qilib, hatto qo‘sishma mahsulot yetkazib bergen. Makkaga go‘sht qo‘shib, sopol idishlarda turli taomlar tayyorlaganlar. Zarang daraxti sharbatidan bahor faslida qand pishirganlar. Hindular yovvoyi meva, urug‘ va yemishli ildizlarni terishga juda mohir bo‘lganlar. Ko‘l bo‘yida yashovchi ayrim algonlik qabilalari yovvoyi sholini kemada yig‘ib, boshog‘ini yanchib, yog‘och bilan tuyib guruch olganlar.

Dehqonchilikda yerni chopib, ishlov berish erkaklar zimmasiga, boshqa barcha xo‘jalik ishlari ayol-larga yuklangan. Ovchilik ham erkaklar kasbi bo‘lib, ularga go‘sht, charm va teri yetkazib bergen. Bir guruh erkaklar kuz va qish oylarida o‘rmonlarga ketib ov qilib bahorda qaytib kelganlar. Ular bug‘ular, qunduz, suvsar va savsar kabi o‘rmon hayvonlarini va qushlarni ovlaganlar, kuz paytlarida asal yiqqanlar. Baliqchilik bilan ham shug‘ullanganlar. Hunarmand-chilik ancha rivojlangan, kulolchilikni bilganlar. Natijada savdo-sotiq rivojlangan.

Ishlab chiqarish qurollaridan dehqonchilikda, asosan, chopqi, toshbolta, mis tig‘li pichoq, nayza va o‘q-yoy, cho‘qmor tayoq (tosh o‘rnatilgan maxsus qurol-tomagavk) va palaxmon, daraxt qobig‘idan yasalgan kema, sanchqi, to‘r va savatlardan foydalanishgan. Turli naqsh berilgan sopol chilimlar irokez-larga xos.

Teriga ishlov berish, ayniqsa, bug‘u terisidan baxmal charm (zamsha) ishlab chiqarish juda rivojlangan. Kiyimlari qunduz va suvsar terisidan tikilgan. Erkaklarning kiyimi zamsh plashi va yubkadan ibo-

rat, oyog'iga mokassin (maxsi), to'pig'i va beliga getra, uzun yubka va ko'ylak kiyganlar, plash yopinganlar va turli bezaklar taqqanlar.

Irokez qabilalarining jamoa uylari bir necha oilaga mo'ljallangan to'g'ri burchakli yog'ochdan tiklanib daraxt qobig'i bilan yopilgan. L. Morgan ta'rificha, bu «uzun uylar» 6 – 8 metr kenglikda, ichki tomoni dahliz bilan ikkiga bo'lingan, devor bo'ylab uzunasiga yarim metr ko'tarilgan yog'och supalarda eni 4 metr keladigan «xonalar» har bir oilaga ajratib qurilgan. Ba'zan bunday uylarda butun bir urug' yashagan. Yangi kelin-kuyovlarga shu uy yoniga cho'zib yangi xona qo'shib qurilgan. Dahliz o'rtasida to'rt oilaga mo'ljallangan bir necha o'choq o'rnatilgan. Qozon mehmondorchilik belgisi hisoblangan. Har qishloqda mazkur «uzun uylar» soni 10 – 30 tagacha yetgan. Ayrim algonkin qabilalarining uylari egilgan maxsus daraxt shoxlaridan gumbaz yoki to'rtburchak shakkida tiklanib yog'och qobig'i yoki chipta bilan yopilgan. Qishloqlar 500 dan to 1000 kishigacha yetadigan aholiga ega bo'lgan.

Hindu qabilalarining jipsligi irokezlarning 1570-yilda paydo bo'lgan mashhur «Beshta qabila ittifoqi» yoki «Irokezlar ligasi»da o'z ifodasini topgan edi. Bunga eng kuchli qabilalardan beshtasi – Mogauk (Shaqmoqtosh), Oneyda (Granit yoki Xarsangtosh), Onondaga (Tog'liklar), Kayyuga (Trubka yoki sohiliklar) va Seneka (Buyuk tepaliklar elati) birikkan. Ittifoq 50 urug' oqsoqol (saxem)laridan iborat maxsus umumiy kengashga ega bo'lib, unda urush va tinchlik, qabilalararo munosabatlar kabi muhim masalalar hal qilingan. Harbiy ishlarni boshqarish uchun Kengash 2 ta lashkarboshi saylagan. Irokezlar ligasi juda zo'r kuchga ega bo'lgan.

AQShning mustaqillik uchun olib borgan urushi dan keyin irokezlar qattiq mag'lubiyatga uchrab

o‘z ona yerlarini tashlab ketishga va asta-sekin mol qo‘rasidek o‘ralgan maxsus rezervatsiyalarga ko‘chishga majbur bo‘ladilar. Ammo ayrim qabilalar partizanlik urushini davom ettirganlar. Urug‘-qabila munosabatlari yemirilib, monogam oila paydo bo‘ladi, bir vaqtlar dahshatli kuchga ega bo‘lgan irokezlar grajdaniqlik huquqlaridan mahrum holda kambag‘al fermer va ishchilarga aylanadilar. Shimoliy Amerikaning algonkin va musgok tillar oilasiga mansub qabilalarning ham taqdiri fojiali tugagan. Mazkur qabilalardan tashkil topgan ittifoqlar (ayniqsa, kuchli Krik Konfederatsiyasi) ham yemirilib, 1820-yillarda AQSh hukumati tomonidan g‘arbiy tomondagi noqulay joylarga zo‘rlik bilan ko‘chirilgan. Irokezlarning bir qismi Kanadaga ko‘chib, rezervatsiyalarga joylashgan.

**Preriya (dasht) ovchi qabilalari.** Uzoq davrlar Missisipi daryosi tarmoqlarining shimoli-sharqiy qismidagi o‘ziga xos tabiatli bepoyon dashtu biyobon (preriya) da odam kam yashagan. Bu yerda XVIII asr boshlarida Shimoliy Amerikaning Sharqiy qismida yashagan mustamlakachilar tomonidan siqib chiqarilgan hindu qabilalar Missisipining g‘arbiga ko‘chib kelib, o‘z navbatida, mahalliy ko‘p sonli yarim o‘troq ovchi va dehqon aholini siqa boshlaydi. Mahalliy qabilalar asta-sekin preriyaga ko‘cha boshlaydi. Ular turli til turkumiga mansub, ayniqsa, siu, algonkin, yuto-astek va atapask qabilalaridan iborat bo‘lgan. Mazkur elatlar tillarining xilma-xilligiga qaramay, umumiy madaniy birlikka ega bo‘lganlar.

Mustaqillik uchun kurashdan keyin boshlangan bozor munosabatlarining gurkirab o‘sishi natijasida qo‘shimcha yerlarga muhtojlik paydo bo‘ladi. 1803-yilda AQSh kongressi hatto hindularni sharqiy hududlardan g‘arbga – Missisipi orqasiga ko‘chirish rejasini tasdiqlagan edi. Bu reja 1816 – 1850-yillarda amal-

ga oshirilib, Amerika tarixida «hindularni ko'chirish» davri, deb atalgan. Aslida hindularni zo'rlik bilan qabila boshliqlarini sotib olib va mast qilib turli nayranglar bilan shartnama tuzib – «rasmiylashtirib» ona yerini tashlab, g'arbiy dasht hududlarga joylashishga majbur qilganlar. Shartnama tuzishga qarshi bo'lgan qabilalarga qarshi «adolat urushini» e'lon qilib, quroq kuchi bilan haydab chiqarganlar. Ayniqsa, hozirgi Jorjiya, Merilend, Janubiy Karolina shtatlarining hindularini ko'chirish vahshiyona zo'rlik bilan amalgal oshirilgan. Krik, chokta, chikaso kabi qabilalarning «ko'z yoshi yo'li» deb atalgan ko'chishi Amerika tarixining eng fojiali sahifalaridan bo'lib, hindu xalqiga eng katta musibat keltirgan, yo'lida ochlik, sovuq va zo'rlikdan minglab kishilar qirilib ketishiga sabab bo'lgan.

Preriya hindularining asosiy kasbi yovvoyi ho'kiz (bizon)larni ov qilishdan iborat edi. Bizon go'shti va yog'i taomga, terisi kiyim, poyabzal va chaylalarga ishlatilgan. Hindular dastlab piyoda, it yordamida, o'q-yoy va ba'zan nayza bilan jamoa bo'lib ov qilganlar. Shaxsiy ov qilish man qilingan, bu tartibni buzganlarni qattiq jazolaganlar. Yevropaliklar kelgandan so'ng paydo bo'lgan otlar XVIII asr o'rtalaridan ovchilarning muhim yordamchisiga aylanadi. Mustamlakachilardan ajralib yarim yovvoyi holatga tushgan yilqi (mustang)ni qayta o'rgatib, ovda va yuk tashishda foydalagan. Terimchilik, mo'yna va qush ovlash, baliqchilik ham muhim soha hisoblangan.

Metallni bilmaganlar, o'q-yoy va nayza uchlari, bolta va boshqa qurollarni tosh, suyak va shoxdan, uy-ro'zg'or buyumlarini teri va yog'ochdan yasaganlar. Hayvonlarni ba'zan bo'ri yoki bizon terisi bilan niqoblanib, maxsus to'r bilan yoki chuqur qazib butun yoz bo'yli ov qilganlar.

Dasht ovchi hindularining ijtimoiy tuzumi matriarxatdan patriarxatga o'tish davriga to'g'ri keladi. XIX asrning oxirlarigacha ko'p qabilalarda matrional joylanish va nikoh tartiblari saqlanib kelgan. Yevropaliklar bilan aloqalarning kuchayishi, yilqichilikning paydo bo'lishi ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishiga jiddiy ta'sir qila boshladi, ijtimoiy tabaqalanish rivojlanib ota urug'i hukmronligi kuchayadi. Ovchilikda muhim rol o'ynagan ot boylik belgisi bo'lib qoladi. Yuzlab otlarga ega bo'lgan jamoa a'zolari kambag'al urug'doshlarini eza boshlaydilar. Bosqinchilik bilan shug'ullanuvchi otryadlar paydo bo'ladi, oqibatta urush boylik orttirish manbaiga aylanadi. Harbiy ishga e'tibor kuchayib, qabila boshlig'i qilib mashhur lashkarboshilarni saylash odat bo'lgan.

Ma'naviy madaniyatida ham ancha o'zgarishlar ro'y beradi. Kiyimlarga, uylarni bekitadigan terilarga, uyo-ro'zg'or buyumlariga naqsh berish juda rivojlangan. Piktografik rasmlar bilan yilda o'tadigan muhim voqealarni tasvirlovchi solnomalar yozilib borilgan o'ziga xos kalendarga ega bo'lganlar. Tabiat kuchlarini ilohiyashtiruvchi arvoхlar orasida ham tabaqalanish natijasida eng muhim va ikkinchi darajali avliyolar paydo bo'ldi. Eng katta marosimlar quyosh ibodati bilan bog'liq, undan keyingi pog'onada turgan yer, suv, olov, havo kabi tabiat kuchlariga hatto bizon, it va boshqa hayvonlarning ruhlariga sig'inganlar. Diniy marosimlarni o'tkazishda duixonlik va tabiblik bilan shug'ullanuvchi shomonlar ajralib turadi. Boy folklor mavzulari ham diniy rivoyatlar bilan sug'orilgan. Tasviriy san'at rivojlangan. Chaylalarga yopiladigan terilarda, zamsh kiyimlarda va boshqa buyumlarda kishi va hayvon timsollari tasvirlangan.

Dashtli hindularning yerlarini tortib olish XIX asrda kuchaydi. Mustamlakachilar «yovvoyi g'arb» deb hisoblagan dasht joylarni ham bosib olib, mahalliy

aholini o‘z yerlaridan, ko‘pchiligin esa rezervatsiyalarga haydagan. 1830-yildan kela boshlagan «oq tanli» ovchilar bizonlarni ommaviy ravishda qirib (oxirgi yovvoyi bizon 1881-yili o‘ldirilgan) hindularni asosiy hayot manbaidan mahrum etgan.

**Me’morchilik.** Yevropaliklar Amerikaga kelmaslaridan oldin hindularning o‘ziga xos me’morchiligi bo‘lgan. Irokezlar «uzun uylar» deb atalgan turarjoylar yaratgan bo‘lsalar, Pueblo hindulari «pueblo» qishloq uylarini qurbanlar. Preriya hindularining uylari ko‘chib yurishga moslashgan, konus shaklida yog‘ochdan qurilib, bizon terisi bilan yopilgan va to‘shalgan. Uyning o‘rtasida o‘choq – gulxan yoqilgan. Har bir oila alohida o‘zi uchun chayla tiklagan, qavmu qarindoshlarning chaylalari bir-biriga yaqin doirasi mon o‘rnatilib, o‘rtada qabila kengashiga mo‘ljallangan maxsus katta chayla (chodir) tiklangan.

Ingliz, golland va fransuz mustamlakachilari AQShga Yevropa an’analarini keltirdilar. Dastlabki binolar barokko uslubida qurilgan. Ular sodda bo‘lib, naqshlar kam ishlatilgan. XVIII – XIX asrlarda AQSh me’morchiligidagi klassisizm uslubi hukm surdi. Bu uslubda davlat va jamoat binolari (Vashingtondag‘i Oq uy, Nyu-Yorkdagi Eski ratusha-shahar idorasi), ibodatxona va boshqalar qurilgan. Keyinroq quramalik va dabdabalilik kuchaygan bo‘lib, bunga misol tarzda Vashingtondag‘i Kapitoliy (kongress) binosini keltirish mumkin. Fuqarolar urushidan so‘ng AQSh me’morchiligi yuksalish yo‘liga o‘tdi. AQShning bir qancha iste’dodli me’morlari – T. Richardson, J. O. Ryoblin, U. O. Reblinglar qurilish texnikasi rivojiga katta hissa qo‘shgan (Bruklin ko‘prigi). XX asrda AQSh me’morchiligi, asosan, texnika va iqtisod sur’atiga bog‘liq holda rivojlandi. XX asrning 20 – 30-yillarida Amerikaning bir qancha shaharlarida (Nyu-York, Los-Anjeles, Chikago va boshqalar) nihoyatda baland

binolar qurildi. Amerikaning eng iste'dodli me'morlari – L. Salliven va F. L. Rayt yangi texnika imkoniyatlarini estetik tushunishga intilganlar. L. Salliven ko'p odam sig'adigan katta binolar uchun po'lat to'sinli konstruksiyani ishlab chiqqan, F. L. Rayt esa kichik bino loyihalari ustida ishladi, ayni vaqtda bir necha baland hamda ba'zi ma'muriy binolar loyihasi ham 30-yillar o'rtalarida chizilgan. 2-jahon urushi yillari AQShda yig'ma qurilish rivojlangan. Urushdan so'ng «Po'lat va alyuminiy» me'morchiligi rag'batlantirildi, me'moriy shakllarning «universal uslubi» taraqqiy etdi (L. Mis van der Roe asarlari). 50-yillarning oxirida yangi klassisizmning yangicha nusxasi paydo bo'ldi (E. D. Stoun, M. Yamasaki kabi me'morlar). 60 – 80-yillar inshootlari hajmining kattaligi, geometrik miqyoslarining salmoqliligi, me'moriy yo'nalishlarining betartibligi bilan ajralib turadi (Nyu-Yorkdagi Xalqaro savdo markazining 412 m balandlikdagi 110 qavatli minorasi, me'morlar M. Yamasaki, E. Rot. Chikagodagi «Sire va Robak» savdo konsernining 442 m balandlikdagi minorasini misol tarzda keltirish mumkin.

**Amerika millatining shakllanishi.** Shimoliy Amerika aholisi etnik tarixining, bu yerda yashovchi zamonaviy millatlar shakllanishining o'ziga xos tomonlari shundaki, mintaqada yashovchi zamonaviy millatlar turli qabila va qabila uyushmalarining etnik konsolidatsiyasi natijasida emas, balki materikka turli tarixiy davrlarda Yevropa va Afrikadan ko'chib kelgan aholining mahalliy aholi bilan o'zaro qorishuvi natijasida shakllangan. XVII asrdan boshlab hozirgi kungacha Yevropadan AQSh va Kanadaga 45 millionga yaqin odam ko'chib borgan. Ularning ayrimlari o'z mamlakatlariga qaytib ketgan bo'lsa-da, lekin aksariyati umrbod mazkur qit'ada qolib ketganlar hamda Shimoliy Amerikaning 150 mln. aholisi o'sha ko'chuvchilarning avlodlaridir.

Amerika Qo'shma Shtatlari (AQSh)ning umumiy yer maydoni 9,5 mln. km<sup>2</sup> bo'lib, aholisi 320 mln. kishidan iborat (2013-y). Yirik shaharlari: Nyu-York, Chikago, Los-Anjeles, Filadelfiya, Xyoston, Detroyt, San-Frantsisko, Vashington, Boston, Dallas, Klivlend, Baltimor shaharlaridir.

1775 – 1783-yillarda Shimoliy Amerikada mustaqillik uchun urush davomida 1776-yil 4-iyulda federal davlat – AQShga asos solingan va u respublika deb e'lon qilingan. Jorj Vashington AQShning birinchi prezidenti bo'lgan. Mamlakat shimolida sanatoat va fermerlik, janubda quldarlikka asoslangan dehqonchilik rivojlangan. G'arbdagi hindu qabilalari ni haydab yuborish va yangi yerlarni o'zlashtirish hisobiga AQSh hududi tez kengaya borgan. 1803-yilda Fransiyadan G'arbiy Luiziana «sotib olindi», 1819-yilda Ispaniya Floridaning bahridan o'tdi, 1836-yilda Meksikadan Texas tortib olindi. XIX asr mobaynida hozirgi Kaliforniya, Arizona, Nyu-Meksiko, Nevada shtatlarining hududlari, Kolorado va Vayoming shtatlarining bir qismi qo'shib olindi. Shimol burjuaziyasi bilan janub plantatorlari o'rtasidagi ziddiyat AQShda 1861 – 1865-yillar fuqarolar urushiga olib keldi, unda prezent A. Linkoln boshchiligidagi shimol shtatlari g'alaba qozondi. Urush davomida yer ulushlari haqida (1862), quldarlikni bekor qilish to'g'risida (1865) qonunlar qabul qilindi. Fuqarolar urushidan so'ng mamlakat iqtisodiyoti jadal rivojlana boshladi. 1867-yilda AQSh Rossiya imperiyasidan Alyaska va Aleut orollarini sotib oldi; XIX asr oxirida Filippin, Gavayi, Puerto-Riko va boshqa orollarni, 1903-yilda Panama kanali zonasini qo'lga kiritdi. Ikki asr bo'sag'asida AQShga ko'chib kelishning yangi to'lqini boshlandi. Muhojirlarning aksariyati Janubi-Sharqiy Yevropadan bo'lgan.

Amerika millati, asosan, Shimoliy Amerikada mustaqillik uchun kurash arafasida va shu kurash davomida shakllangan. AQShga muhojir bo'lib kelgan turli-tuman etnik guruhlar assimilyatsiyalashgan bo'lib, amerikaliklar qiyofasiga, tili va madaniyatiga o'z hissalarini qo'shgan. 1861 – 1865-yillardagi fuqarolar urushi arafasida AQShga ko'p irland va nemislar kelgan. XIX asr oxirlarida esa G'arbiy Yevropa bilan bir qatorda Sharqiy va Janubiy Yevropadan, Osiyodan muhojirlarning kela boshlashi amerikaliklarning etnik xilma-xilligini kuchaytirdi. Birinchi jahon urushi davrida (1914 – 1918-yillarda) Meksikadan, Lotin Amerikasining boshqa mamlakatlaridan ham juda ko'p muhojirlar kelgan. Birinchi jahon urushidan keyin chet ellardan ko'chib kelish qonuniy cheklab qo'yilgach, kelgindilar soni kamaya boshladi.

Umuman olganda, amerikalik millati uch asosiy etnik tarkibiy qismidan: AQSh amerikaliklari, muhojirlar va tub joy aholisi bo'lgan hindulardan tashkil topgan. AQSh aholisining 82,8 foizni asli kelib chiqishi yevropaliklar, 12,6 foizni afrikaliklar, 3,6 foizni osiyoliklar, 1 foizni hindular, eskimoslar, aleutlar tashkil etadi. Mazkur mamlakat aholisining 80 foizi shaharlarda yashaydi. AQSh amerikaliklari millat sifatida, asosan, XVIII asrning ikkinchi yarmida Yevropaning turli mamlakatlaridan kelgan muhojirlarning aralashib ketishi natijasida tarkib topgan. Afroamerikaliklar AQSh amerikaliklarining o'ziga xos irqiy-etnografik guruhi bo'lib, ular XVII – XIX asrlarda mamlakatga olib kelgan afrikalik qullarning avlodlaridir. Afroamerikaliklar ko'p asrlar davomida ayirmachilik va kansituvga duchor qilinishiga qaramay, afrikaliklarning oq tanlilar bilan jismoniy aralashuvi sodir bo'ldi. Duragaylar afroamerikaliklar umumiy sonining anchagini qismini tashkil etadi. AQShda meksikanlar, italyanlar, nemislar, fransuzlar, shved-

lar, norveglar, gollandlar, yaponlar, polyaklar, xitoylar va boshqa xalqlar ham yashaydi. Ko'pgina milliy guruh (polyak, italyan va boshqa)lar o'z mamlakatlari madaniyatlarini qisman saqlab qolganlar, lekin ingliz tilida so'zlashadilar.

AQShda 5 mingga yaqin o'zbek istiqomat qiladi. Ular, asosan Nyu-York, Vashington, Nyu-Jersi shtatlarida, Filadelfiya shahrida hamda mamlakatning boshqa shtat va shaharlarida yashaydi. Ular turli kasb hamda tijorat ishlari bilan shug'ullanadilar. Hozirgi amerikalik o'zbeklarning ota-bobolari 1917-yilgi oktabr to'ntarishidan keyin bolsheviklar tazyiqidan qochib, avval Afg'oniston va Xitoya o'tib ketganlar. 1950-yillarda esa, Pokiston, Saudiya Arabistoni, Turkiya orqali AQShga borib qolishgan. Ikkinci jahon urushi davrida turli yo'llar bilan u yerga borib qolgan o'zbeklar ham uchraydi.

### **39-§. Markaziy Amerika xalqlari**


Markaziy Amerika – Shimoliy Amerikaning janubiy qismi. Meksika tog'ligining janubiy etagidagi Balsas botig'idan Daren bo'ynigacha davom etgan (ba'zan mazkur mintaqaning chegarasini Teuantepek va Panama bo'yinlari orqali o'tkazadilar). Uzunligi 2400 km. Eni Panama bo'ynida 48 km. Yukatan yarim orolida 960 km. G'arbdan Tinch okeani, shimolda va sharqdan Meksika qo'lting'i va Karib dengizi bilan o'rالgan.

Markaziy Amerika hududida Meksikaning janubi-sharqi qismi, Gvatemala, Salvador, Gonduras, Nikaragua, Kosta-Rika, Panama, Beliz davlatlari joylashgan. Umumiy maydoni 770 ming km. Aholisi taxm. 45 mln. kishi (2001). Mintaqadagi 47 ta yodgorlik YUNESKO ro'yhatiga kiritilgan bo'lib ulardan 31 tasi Meksika hududida joylashgan.



*Markaziy Amerika hindulari qayig'i*

Amerika qit'asining AQSh bilan Meksika chegarasidan janubiy qismini, odatda, Lotin Amerikasi deb ataydilar. Lotin Amerikasi davlatlarining 2/3 qismida ispan tili rasmiy til deb qabul qilingan. Braziliya (mintaqa aholisining qolgan 1/3 qismi)da portugal tili tarqalgan. Faqat 3 foiz aholi yashaydigan kichkina davlatlarda fransuz (Gaiti), ingliz (Gayana, Trenidad, Barbados, Yamayka, Bagam va boshqa orollarda) va golland (Surina) tillari hukmron. Mamlakatlar tillari va tarixiy taqdiri bilan umumiylukka ega bo'lsa-da, o'zining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, etnomadaniyati va xo'jalik xususiyatlari bilan farq qiladilar. Masalan, Argentina, Braziliya, Meksika va Venesuela ancha taraqqiy qilgan zamонавиy mamlakatlar qatoriga kiradi. Aksincha, rivojlanmagan Gaiti iqtisodiy ko'rsatkichlariga qaraganda, yuqorida qayd qilingan mamlakatlarga nisbatan orqada qolgan. Yoki eng katta hududga ega bo'lgan Braziliya Salvadorga nisbatan 400 hissa ko'p maydonni egallaydi, qo'shni Gana aholisiga nisbatan 150 hissa ko'proq aholiga ega.



*Gvatemaladagi Tikal pramidasasi*

Lotin Amerikasi aholisining etnik qiyofasi ham turlichcha. Uzoq davr ichida mahalliy aholi bilan kelgindi yevropaliklar va millionlab qul qilib keltirilgan afrikaliklar avlodlarining aralashmasidan paydo bo'lgan hozirgi mamlakatlarning o'ziga xos milliy madaniyati, mehnat va xalq ijodi an'analari shakllangan. Markaziy Amerikaning zamonaviy aholisi kelib chiqishi hindu-ispan bo'lganlarning qorishuvidan tashkil topgan. Chunonchi, bu borada Salvador, Nikaragua, Gondurase, Gvatemala aholining yarmio'z ona tillarida so'zlashuvchi hindulardan iborat. Kosta-Rikada esa mustamlakachi ispanlarlarning avlodlari mahalliy hindular bilan deyarli qorishmagan. Panamada esa aholining ko'p qismini qora tanlililar tashkil qiladi (12 – 15 foiz). Hindularning turli qavmlari, shu jumladan, mayyalar bo'lgan bo'lib, ular 300 yildan to 900 yilgacha asosiy aholi bo'lgan. Dastlabki

yevropalik mustamlakachilar afrikalik qullarni sotib olgan va aynan mazkur qullar avlodlari hozirgi kungacha Nikaragua, Belizea va Panamada yashashadi. Garchi Belizada rasmiy davlat tili ingliz tili bo'lsa-da, mintaqaning deyarli barcha hududlarida ispan tili-da so'zlashadi. Shuningdek, ko'plab odamlar mahalliy hindu tillarida ham so'zlashadilar. Mintaqaning rang-barang tabiatni ham ularning xo'jalik-madaniy tiplari va madaniyatni xususiyatlariga mislsiz ta'sir o'tkazgan. Nihoyatda ko'p tabiiy boyliklarga ega bo'lgan mazkur mintaqani «jahonning xazinasi» deb ham ataganlar.

Mahalliy aholi o'tmishda yuksak madaniyat yaratib, faqat Lotin Amerikasigagina emas, balki jahon madaniyatiga ham ulkan hissa qo'shganlar. Hindu qabilalari jahonda birinchi bo'lib kartoshka, pomidor, makkajo'xori, manioka, paxta, kungaboqar, kakao va boshqa muhim ekinlarni kashf etganlar. Ular dastlab kauchuk shirasidan foydalanish, kurare zaharini ishlab chiqarish va tibbiyotda foydalanishni o'rganganlar, gamakni kashf qilib jahonga yoyganlar. Go'zal qadimiy me'morchilik, katta hashamatli shaharlar va dabdabali piramidalar, afsonaviy o'yma va bo'rtma rasmlar bilan bezatilgan ko'shku saroylar, turli shakl va hajmdagi go'zal haykallar, rang-barang bo'yoqli idish va buyumlar, tilladan quyilgan har xil haykallar hindularning mo'jizakor san'at sohiblari ekanligidan dalolat beradi. Lotin Amerikasi hindulari yaratgan kuy va o'yinlar ham uzoq elatlarga tarqalib shuhrat qozongan. Bu yerda yevropaliklar kelgunga qadar ilk sinifiy jamiyat, yuksak san'at va hunarmandlikka ega bo'lgan davlatlar paydo bo'lgan.

**Meksikaning tubjoy aholisi.** Tadqiqotchilarning fikricha, hozirgi Meksika hududiga odamlar 15–12 ming yillar muqaddam kela boshlagan. Ular Tinch okean sohillari bo'ylab kelganlar, keyin ichki

vodiylarni egallaganlar. Dastlab Meksikada ovchilik, baliqchilik va terimchilik bilan shug'ullanuvchi mayda daydi qabilalar yashagan. Miloddan avvalgi IV ming yilliklardan boshlab dehqonchilik yuzaga keladi va birinchi bo'lib makka, loviya va qovoq eka boshlaydilar. II mingyillikka kelib dehqonchilik asosiy xo'jalik sohasiga aylanadi. O'sha davrdan boshlab Meksika hududida yuksak madaniyat yaratgan elatlar yashaydi.

Miloddan avvalgi I mingyillikning oxirlarida va milodning birinchi asrlarida bu yerda neolit darajasidagi almeklar va sapoteklarning dehqonchilik madaniyati shakllangan edi. Bu madaniyat Quyosh va Oyga atab qurilgan dabdabali piramidalar, devorlari rasmlı ibodatxonlar va zodagonlarning saroylari, tosh to'shangan, ko'chalar loydan qurilgan uyli mavzelari bilan ajralib turadi. Ularning o'rniga kelgan tolteklar to XII asrgacha tevarak-atrofdagi elatlarga o'z ta'sirini o'tkazib kelgan.

IX – X asrlarga kelib mazkur madaniyatlar asta-sekin inqirozga uchrab, Mexiko vodiysida yangi elatlar – tenochka yoki astek qabilalari paydo bo'la boshlaydi. Ular XIV asr boshlarida shimoli-g'arbiy hududlardan bostirib kirib qadimiy madaniyat markazlarini egallab o'z tillarini saqlab qolganlar. Asteklar qudratli davlat birikmasiga asos solgan va eski madaniy an'analarni davom qildirganlar. Ular kuchli qo'shinga ega bo'lgan va qisqa muddat ichida qo'shni qabilalarni bo'ysundirib soliq to'lashga majbur qilgan.

Asteklar o'ziga xos sug'orish va melioratsiya tizimiga asoslangan dehqonchilik xo'jaligini yaratganlar, loviya, pomidor, batata (shirin kartoshka), kakao, tamaki va paxta ekkanlar. Yer o'g'itlangan, yo'nilgan yog'och bilan ishlov berib ekilgan. Maxsus qamishdan sol yasab, ustiga tuproq to'kib, suzadigan

orolchalarda dehqonchilik qilganlar. Paxta va agava tolasidan ip yigirib turli mato to'qiganlar. Uy hayvonlaridan it va kurka saqlaganlar. Bug'i, quyon, yovvoyi qushlarni o'q-yoy, nayza, tuzoq bilan ov qilganlar, ko'l va daryolarda baliq tutganlar. Mis va toshdan bolta, nayza uchi va pichoqlar, naqsh berilgan charxsiz sopol idishlar, oltindan har xil bezaklar yasaganlar. Hunarmandchilik nihoyatda rivojlangan bo'lsa-da, ammo mehnat taqsimoti bo'lмаган. Zarur buyumlar oilalarda ishlab chiqarilgan.

Katta shaharlar hunarmandchilik va savdo markazlariga aylandi. Masalan, qudratli asteklar davlatining poytaxti Tenochtitlan katta ko'lning o'rtasidagi orolda qurilgan va o'zining go'zalligi, ulug'vorligi va hashamatliliqi bilan ispan istilochilarini hayratda qoldirgan. Moktesuma I (1440 – 1469) boshqaruvi davrida shahar aholisi suv toshqinidan himoya qilish uchun to'g'onlar barpo etgan, toshdan piramidalar, ibodatxona va saroylar qurbanlar. XVI asr boshida shahar hududi 12 km<sup>2</sup> ga yetgan.

Poytaxtni ko'l sohili bilan uchta 10 metr kenglikdagi damba bog'lab turgan, ikkita maxsus tarnov orqali suv o'tkazilgan. Ko'l atrofida asosiy ekin dalalari joylashgan, qishloqlar ham dalalar bilan o'rалган.

Bu yerda turli tillar va etnik guruahlarga mansub 10 mln. ga yaqin odam istiqomat qilgan. Davlat boshqaruvi markazlashgan bo'lib, davlatni Yevropadagi katta imperiyalar bilan qiyoslash mumkin.

Markaziy boshqaruuv ko'rinishlarini oliy hukmdor ni ilohiyashtirish, boshqaruuv devoni, professional armiya, yagona davlat tili (kechua), ko'p sonli aholini majburiy ko'chirish, choparlar va qo'riqlanadigan yo'lbekatlaridan iborat bo'lgan aloqa tizimi misolida ko'rish mumkin. Qiziqarli tomoni shundaki, aynan mana shunday katta mamlakatni boshqaruuv tizimida yozuv madaniyati bo'lмаган.

Asteklarning uylari, odatda, qamishdan qurilib, devorlari loy bilan suvalgan, tomi somon bilan yopilgan. Boy tabaqalar uylarini xomg'ishtdan tekis tomla va ichki hovlili qilib qurbanlar. Poytaxtdagi ba'zi uylar ustunlarga tiklangan. Piramida shaklidagi ibodatxona va jamoa inshootlari toshdan dabdabali qilib qurilgan, haykallar va o'yma naqshli toshlar bilan bezatilgan. Qishloq jamoasi (kalpulli) umumiy yerga ega bo'lgan va bu yerlarni ayrim oilalarga taqsim qilganlar.

Erkaklarning kiyimlari etakli belbog' va plashdan iborat, ayollar yubka, yengsiz uzun ko'ylak kiyinlar. Poyabzal teridan tikilgan yoki agavadan to'qilgan sandaldan iborat. Kiyimlari bezatilgan, bilak va burunuzuklar osganlar, badanni bo'yaganlar. Taomlari ham turli xilda har xil ziravor aralashtirib xushxo'r qilingan. Makkadan toshyorg'ich bilan un chiqarib taom pishirganlar. Asteklar shokoladni kashf etg'anlar. Ammo ular «chokolat»ni ichimlik sifatida iste'mol qilganlar.

**Mayya davlati.** Milodning boshlarida Yukatan yarim orolining janubiy qismida hozirgi Gvatemala hududida bir qancha mayda shahar-davlatlar paydo bo'ladi. Mayya sivilizatsiyasi rivojining cho'qqisi eramizning IV – VII asrlariga to'g'ri keladi. Mayyalar juda murakkab ibodatxonalar qurgan bo'lib, ularning atrofida turarjoylar joylashgan edi. Ehromlardan eng kattasi bo'lgan Tikal atrofida 40 000 kishi yashaydigan shahar joylashgan. Hamma binolar toshdan qurilgan. Bu Mayya davlatning bosh kenti, amalda poytaxti bo'lgan.

Mayya jamiyatini jangchi-ruhoniylarning zodogon sinfi boshqargan. Ular mayyalarning eng oliv diniy yetakchilari, ayni paytda harbiy lashkarboshilar ham bo'lib, qo'shni hamjamiyatlar bilan doimiy urushlar

olib borardilar. Aholining katta qismi dehqonlardan iborat bo'lib, ular hosilning bir qismini zeb-ziynatlar ichida yashovchi zodogon hukmdorlarga berishlari kerak edi.

V – VI asrlarga kelib bunday davlatlarning soni yana ham ko'payadi va shimoliy hududlarga tarqaldi. Ular o'zaro kurashib turganlar. Ammo janubi davlat – shaharlarning ko'pchiligi XI asrga kelib birdaniga bo'shab qoladi. Yukatan yarim orolining shimolida o'sha davrda mayya xalqlarining bosh shahri Mayapan kuchayib yuksak madaniyat yaratgan qudratli davlatga aylangan va ispanlar istilosigacha o'z hukmronligini saqlab kelgan.

Mayya ancha rivojlangan dehqonchilik xo'jaligiga ega bo'lgan. Ular o'rmonlarni toshboltalar bilan kesib, daraxtlarni kuydirganlar, kul bosgan dalani yog'och bilan kavlab urug' sepganlar. Asosiy ekin makkajo'xori hisoblangan. Undan tashqari loviya, pomidor, qalampir, qovoq va paxta ekilgan. Go'shtga it va kurka



*Maya pramidasasi*

boqilgan, o'q-yoy, nayza va puflab otadigan naycha bilan ov qilib ham go'sht g'amlangan. Bاليقچilik va asalchilikni bilganlar. Mayya hindulari birinchi bo'lib kakao daraxtini o'stirib, mevasidan ichimlik tayyorlaganlar.

Mayya davlatida ruda bo'lмаганидан metall qu-rollarni, ayniqsa, temir bolta va nayza uchlari, mis bilan oltin qotishmasidan yoki sof oltindan yasalgan bezaklarni Meksikadan va qo'shni mamlakatlardan keltirganlar. Paxta va agava tolalaridan nozik matolar to'qilgan, ulardan plash, yubka va boshqa kiyimlar tikkanlar, charxsiz sopol idishlar yasab, ularga turli naqshlar berilgan. Savdo-sotiq ancha rivojlangan, loviya va kakao urug'lari pul vazifasini bajargan. Qul savdosi ham bo'lgan.

Mayya davlati boshida cheksiz huquqqa ega bo'lgan hokim («xalach vinik» – buyuk odam) turgan. Oliy kohin uning o'ng qo'li va maslahatchisi hisoblangan. Xalach vinik soliq toplash va qozilik qilish uchun qishloqlarga maxsus boshliq (batab) tayinlangan. Astronomiya va boshqa bilimlarni yaxshi egallagan kohinlar zo'r kuchga aylangan.

Mayya yuksak madaniyat yaratgan xalqlardan. Ular o'ziga xos yozuvni kashf etib, ma'lum bilimlarni chuqur egallaganlar. Ayniqsa, aniq bilimlar, chunonchi, astronomiya va matematika nihoyatda rivojlangan. Mayyaliklar yil hisobini daqiqalargacha aniqlab kalender tuzganlar. Ularda yil 365 kunga bo'lingan, kalender 20 kunlik oydan va 13 kunlik haftadan iborat bo'lgan. Ieroglif tizimiga asoslangan mayya yozuvlarida kohinlar turli afsonalar, duo va tarixiy solnomalar yozib qoldirganlar. Shu yozuvda har 20 yilda tarixiy voqealar bayon qilingan maxsus tosh ustunlar o'rnatilgan. Nihoyatda go'zal san'at bilan tasvirlangan o'yma va bo'rttirib yasalgan ajoyib rasmi murakkab ibodat va turmush inshootlari hozirgacha kishini maftun qiladi.

Mayya xalqining diniy tasavvurlari sinfiy munosabatlarni muqaddaslashtirgan juda murakkab serhasham marosim va ibodatlardan iborat bo'lgan. Muqaddas kitoblar fikus qobig'idan ishlangan qog'ozlarga yozilgan va rangli rasmlar bilan bezatilgan. Afsus, deyarli barcha qo'lyozmalar ispan mustamlakachilari tomonidan kuydirilgan. Asosiy e'tiqodlari dehqonchilik bilan bog'liq aholi osmon, yomg'ir, o'simlik va boshqa tabiat hodisalarini ifodalovchi xudolarga sig'inishga asoslangan.

## 40-§. Janubiy Amerika xalqlari

**Inklar davlati.** Janubiy Amerikadagi And tog'larining hozirgi Kolumbiya, Ekvador, Peru, Boliviya, Shimoliy Chilida, ya'ni juda katta hududda kechua til oilasiga mansub turli elat va qabilalardan tashkil topgan Ink davlati bo'lgan. Bu yerda I ming yillikda kechua va aymara tillaridagi ko'plab mayda qabilalar yashagan. Rivoyatlarga qaraganda, XIII asrga kelib shu qabilalardan Kusko vohasida joylashgan Inklar kuchayib 1438-yildan qabilalar ittifoqiga bosh bo'ladi va oliy kasta deb taniladi. Boshqa barcha elatlar unga bo'ysunib soliq to'lab turgan.

Ink davlatida aholi, asosan, dehqonchilik bilan shug'ullangan. Asli And tog'larida dehqonchilik xo'jaligi miloddan avvalgi uch minginchi yillikda paydo bo'lgan. Inklar miloddan avvalgi VI asrda shakllangan chanapata madaniyatining merosxo'rlaridir. Ular markazlashgan sug'orish tizimini yaratganlar, asosan, makka va kartoshka ekkanlar. Kartoshkaning ko'p turlari, Yevropaga ilk bor shu yerdan olib borilgan. Dalalar tosh bilan berkitilgan kanallar orqali sug'orilgan, suv omborlari to'ldirilgan. Yerga



*Inklarning oltin haykalchalari*

jez uchli maxsus tayoq (taklya) va tosh, bronza uchli chopqi bilan ishlov berilgan, hosil jez o'roq bilan o'rillgan. Umuman 40 ga yaqin ekin turlarini bilganlar.

*Andlik hindular* Amerika qit'asidagi chorvachilikni bilgan yagona elatlardan hisoblangan. Kechua va aymara xalqlari lama va alpaka nomli hayvonlarni qo'lga o'rgatib yuk tashishda foydalanganlar, go'shti, yog'i, terisi, juni, suyagini xo'jalikda keng ishlatganchalar.

Lamaning yovvoyi turini uch yilda bir marta mol qo'ralari-ga haydab, qamab, junini qirqib, keyin erkinlikka chiqarib yuborganlar. Go'sht uchun dengiz cho'chqasi va o'rdaklarni ovlaganlar. Uy hayvonlaridan faqat itni saqlaganlar.

Ink davlatida hunarmandlik rivojlangan. Ular metallni ruda konlaridan qazib olganlar. Mis, ku-

mush, oltin, simob va boshqa rangli metallarni, hatto jez ishlab chiqqanlar, turli quroq (o'roq, bolta, pichoq), bezaklar va diniy buyumlar yasaganlar. Sharxsiz naqsh berilgan ajoyib sopol idishlar va haykalchalar ishlab chiqqanlar, paxta va jundan chiroyli nozik matolar to'qiganlar. Hech qanday qorishmasiz yirik kesilgan tosh bo'laklardan dabdabali ibodatxona va qasrlar tiklaganlar. Oddiy kishilarning uylari toshdan yoki xomg'ishtdan qurilgan, qamish yoki somon bilan yopilgan, oynasiz va chipta eshikli kichkina xonalardan iborat.

Inklar g'ildirakli transport bo'lmasa ham yo'llarga katta e'tibor bergenlar. Bizning davrimizgacha yetib kelgan dengiz sohili va tog' etaklarida qurilgan tog' yo'llari, tunnel va ko'priklar hozirgacha kishini hayratda qoldiradi. Ular yengil sol kemalarda uzoq masofalarga sayohat qilganlar. Pulni bilmaganlar, ammo natural savdo-sotiq rivojlangan. Hokimlar eng



*Keshva qabilasi vakili*

mohir ustalarni poytaxtga to'plaganlar. Bo'ysundirilgan qishloqlardan yosh qizlarni zo'r lab keltirganlar va to'rt yil davomida to'qimachilik va boshqa kasblarga o'rgatganlar, keyin ular 30 yoshigacha erga tegmasdan ink zodagonlariga xizmat qilganlar.

Asosiy ijtimoiy hujayra qishloq jamoasi (aylu) hisoblangan. Yer bosh hokimning mulki hisoblansa ham har yil jamoa a'zolari (oilalar)ga taqsim qilib berilgan. Oliy hokimga («Inka dalasi») va kohinlarga («Quyosh dalasi») maxsus yerlar ajratilib, uni jamoa a'zolari ishlab hosilini yig'ib bergenlar.

Davlat tuzumi o'ziga xos despotizmga asoslangan quldarlik imperiyasi hisoblangan. Inklar yuqori tabaqqa deb tanilgan va ular mehnatdan ozod bo'lib boshqa qabilalar hisobiga yashaganlar. Soliqdan kechua qabilasi ham ozod bo'lgan, boshqa qabilalar inklarga qaram bo'lib soliq to'laganlar, qul yetkazib bergenlar. Ammo urug'chilik munosabatlari (fratriylik) saqlangan. Inklar hatto kiyim va bezaklari bilan ajralib, hukmron kastaga aylangan, hokimlar va kohinlar ham ulardan saylangan. Oliy Inka (Sana Inka) quyosh o'g'li hisoblangan, unga boshqalar itoat qilgan.

Ink davlatida politeistik (ko'p xudolik) dirlari keng tarqalgan. Quyosh ibodati eng muhim hisoblangan, shuning uchun Sana Inka ham xudo darajasiga ko'tarilgan. Ona yerga, tabiatga sig'inganlar, Makka va Kartoshka xudolari bo'lgan, ajdodlar arvochlari ga ham sig'inganlar. Katta bayramlarda yoki ofat kelsa asirlardan yoki bo'ysundirilgan qabilalarning bolalaridan qurbanlik qilganlar. Kohinlar diniy mafrosimlardan tashqari astronomik kuzatishlarni ham olib borganlar. Inklarda ikki xil yil hisobi – Quyosh (366 kun) va Oy (354 kun) kalendari bo'lgan. Tarix va genealogiya bilan shug'ullanuvchi maxsus donishmand (amauta)lar bo'lgan. Tabibchilikdan tashqari xirurgiya tajribasiga ega bo'lganlar, trepanatsiya qि-

lishni bilganlar, ieroglyph yozuvi bilan birga o'ziga xos rangli iplardan tuzilgan tugma yozuv ham bo'lgan. Ammo noyob yozuv namunalarini ispan istilochilarini butunlay yo'q qilganlar.

Chilining janubiy hududlarida bir necha guruuhlariga bo'lingan araukan qabilalari yashaydi. Ular ham inklar singari dehqonchilik bilan shug'ullanganlar, kartoshka, mais, loviya, suli ekkalar, chorvachilik va terimchilikni bilganlar, qisman ovchilik ham qilganlar. Kiyimlari gazlamani ikkiga buklab, o'tasini bosh sig'adigan qilib kesib olingan plash (pancho) shaklida bo'lib, uning tagida teridan shim kiyganlar. Har xil chig'anoq va metalldan yasalgan bezaklar taqishgan. Araukanlar qamishdan to'qilib, loy bilan suvalgan konus shaklidagi somon yoki qamish toqli uylarda yashaganlar. Ijtimoiy tuzumi matriarxatdan ota urug'iga o'tish davriga to'g'ri keladi. Ular inklarining qattiq ta'sirida bo'lgan va madaniyatining ko'p tomonlarini, jumladan, metall ishlab chiqarishni, tugma yozuvni qabul qilib olganlar. Chili davlati araukanlarni 1883-yili katta kuch bilan o'ziga bo'ysundirgan. So'nggi davrlargacha ular ba'zi jamoatchilik munosabatlarni saqlab kelganlar. Hozir ko'pchilik araukanlar rezervatsiyalarga joylashgan.

**Tropik o'rmon hindu qabilalari.** Janubiy Amerikaning shimoli-sharqiy va markaziy qismlarida mustamlaka arafasida aravak, tupi-guarani va karib til oilasiga mansub turli qabilalar yashagan. Ular nihoyatda qoloq ibridoij jamiyat darajasida turgan o'troq elatlardir. Asosiy kasbi tropik dehqonchilik bo'lib, mayda butazorlarni toshboltalar bilan qirqib kuydirganlar, kul aralash tuproqqa yog'och tayoq bilan kavlab makka, batata, loviya, tamaki va paxta ekkalar.

Amazonka va Orinoka daryolarining tropik o'rmonlarida ov qilganlar, daryo va ko'llarda baliq tutgan-

lar. Toshboltalar ham qurol, ham savdo vositasi rolini o'ynagan. Ovda parli o'q-yoy, suyak, chig'anoq va yog'ochdan yasalgan turli qurollar ishlatilgan. Maymun va qushlarni ovlashda uchi kurara nomli o'simlik zahari surtilgan bambukdan yasalgan pufak naycha qurol (sarbakan) ishlatilgan. Umuman mahalliy hindular mahorat bilan o'simlik zaharlaridan foydalanganlar. Baliq ovida turli to'r va savat ishlatilgan, yog'ochdan kichik kemalar yasaganlar. Baliqni o'q-yoy va sanchqi bilan ham ovlaganlar.

To'r to'qishda tropik o'rmon hindulariga teng kela-digani yo'q. Yog'ochga osib qo'yadigan karavot—gamakni kashf qilib butun dunyoga shu nom bilan taqdim qilgan, bezgak kasalini davolashda eng zarur darmon – xinin daraxtini kashf qilgan ham o'rmon hindularidir. Ular doirasimon yoki to'rtburchakli palma yaprog'i va butoqlar bilan yopilgan uyarda yashaganlar. Devorlari ham butoqlardan to'qilgan yoki bo'yra bilan ustunlarga berkitib loy suvalgan.

Amazonka va Orinoka vohalaridagi hindular urug'-jamoa bo'lib yashaganlar va umumiy xo'jalikka ega bo'lganlar. Oilalar matrilokal tipidagi juft nikoh tartibida bo'lsa ham guruh nikoh qoldiqlari saqlangan. Ov qiladigan va baliq tutadigan umumiy hudud jamoa mulki hisoblangan, ov teng taqsim qilingan. Har qishloq o'zini o'zi boshqaruvchi jamoaga ega bo'lib, unga oqsoqol rahbarlik qilgan. Har bir qabilada erkaklar ittifoqi mayjud bo'lgan. Qabilalararo aloqalar tabiiy sharoit tufayli uncha mustahkam bo'lman.

Diniy tasavvurlari ham moddiy sharoitga bog'liq bo'lgan. Tevarak-atrofdagi tabiat yaxshi va yomon arvoхlar bilan to'la, ularni yumshatish uchun xudoyilar qilib turish zarur, degan aqidaga rioya qilganlar. Shomonizm keng tarqalgan, shomonlar arvoхlar bilan vositachi bo'libgina qolmay, tabiblik ham qilgan-

lar. Diniy marosim va bayramlarda oddiy musiqa asboblari (shox, nay) jo'rligida turli raqslarga tushganlar, badanlarini bo'yaganlar, qush pati, yong'oq, tish va boshqa buyumlar bilan bezanganlar.

Yevropaliklar kelishi bilan tropik o'rmon hindulari ovga qulay joylarini tashlab changalzor o'rmonlarining ichkarisiga chekinishga majbur bo'lganlar. Ammo XIX asr oxirlarida kauchuk yig'ish uchun kelgan mustamlakachilar hindularni yana ham siqib noqulay joylarga ko'chishga majbur qilganlar.

**Sharqi-Janubiy Braziliya va Pampa hindulari.** Braziliyaning qalin o'rmonlarida va qurg'oq yassi tog'larda botokuda, jes va boshqa til turkumiga mansub turli qabilalar yashagan. Ular dehqonchilikdan xabardor bo'lsa ham, asosan, terimchilik, ovchilik va baliqchilik bilan kun kechirganlar. Bir necha katta oilalardan tashkil topgan lokal guruuhlar qirlarda, kichkina yerlarda manioka, botata ekib, hosilini yig'ib-terib olgandan keyin boshqa joylarga ko'chib terimchilik qilganlar. Ularning asosiy qurollari o'q-yoy va nayza, ayollar oddiy yog'och bilan kavlab yemishli ildizlar, urug' va mevalarni terganlar, erkaklar bug'u, tuyaqush va boshqa har xil mayda hayvon va qushlarni ovlaganlar, sanchqi va to'r bilan baliq tutganlar. Ularda toshdan yasalgan bolta va pichoqlar ham bo'lgan.

Botokuda qabilalari qarorgohlarida butun guruhga mo'ljallangan palma yaproqlari bilan yopilgan katta chaylalar tiklangan. Suv saqlaydigan savatlari, maxsus uy-ro'zg'or buyumlari bo'lgan. Ular kiyimni bilmaganlar, badanlarini bo'yab bezaganlar, quloqlariga va lablariga yog'och uzuk osganlar.

Mazkur qabilalarning ijtimoiy tuzumi kam o'rganilgan bo'lsa-da, urug'chilik tuzumida yashaganliklari aniq, ular dual tashkilotga ega bo'lganlar, guruhiy nikoh va ekzogamiya tartiblari saqlangan. Urug' ja-

moasida ona urug‘i tartiblari (urug‘ hisobi va hokazo) saqlangan, ammo erkaklar ittifoqi ijtimoiy hayotda muhim rol o‘ynagan. Diniy tasavvurlari qo‘shni tropik hindularnikidek tabiiy kuchlarga sig‘inishdan iborat bo‘lgan.

XVIII – XIX asrlar davomida Braziliya o‘rmon hindu qabilalari portugallar tomonidan qirilgan. Ular rezervatsiyalarga ko‘chirilib ochlik va kasalliklarga chidamay o‘lib ketganlar. Ikkinci jahon urushi arafasida botokuda qabilalarida bir necha o‘nlab kishi qolgan bo‘lsa, jes til oilasiga mansub qabilalarda hech kim qolmagan. Tirik qolgan hindular kauchuk plantatsiyalarida xizmat qilganlar. Ular qalin o‘rmonlarda turli xomashyo (smola, kauchuk, xinin daraxti qo‘big‘i, noyob qushlarning patlari va h.k.) yetkazib beriganlar va o‘z mehnatiga arzimaydigan haq olganlar.

**Pampa hindulari.** Janubiy Amerikaning janubidagi keng dasht hududlarida qadimdan Patagoniya bepoyon tekisliklarini pampa deb ataydilar. Bu hududda har xil tilda gapiradigan ovchi qabilalar (asosan, chon, araukan, texuelyache) yashagan. Ular dastlab piyoda, yevropaliklar kelgandan keyin otda guana aka (lamaning yovvoyi bir turi) ov qilganlar. Ov qurollari o‘q-yoy, bo‘la (teri xaltaga tosh solib ikki-uchtasini arqon uchiga bog‘lab palaxmonga o‘xshatib hayvonga otganlar, oyog‘i yoki bo‘yniga o‘ralgan bo‘lsa uni qo‘lga tushirgan) bilan tez yuguradigan guanakani, tuyaqush va bug‘ularni ovlaganlar. Ular turli o‘simgilik, urug‘ va ildizlarni ham yig‘ib-terganlar.

Pampa ovchilari manzillarida daydi turmushga moslashgan bekitma yoki guanaka terisi bilan qoplan-gan chaylalarda yashaganlar. Terilardan zo‘r mahorat bilan ishlov berib belbog‘li plash yopinganlar, ot yoki guanaka oyoq terisini shilib xomligicha mahsiga o‘xshash poyabzal qilib, sovuq va yomg‘ir paytlarida ustiga teri kavush kiyganlar. Shunga qarab ispanlar

pampa ovchilarini «patagonlik» (katta oyoqli)lar deb ataganlar.

Patagonliklar 30 – 40 oiladan iborat qavm-qarindoshlar guruhini tashkil qilgan. Guruh boshida oqsoqol turgan va jamoa o'tkaziladigan ovni boshqargan. Qarorgohlar patrilokal tipda bo'lgan, kelin uchun qalin to'langan. Asosiy mulk – ot va qurol – erkakka tegishli, uy-ro'zg'or buyumlari yengil yog'och va teridan yasalgan. Eri o'lgan beva xotinga meros qolmagan, o'likdan qolgan barcha buyumlar yo'q qilingan. Initsiatsiya marosimlari juda tantanali bayram kiyimlarida (bo'yalgan teri, par, hayvon shoxlari bilan) chaylalar bezatilib, turli raqslar, nog'ora va surnaylar bilan o'tkazilgan.

Diniy tasavvurlar totemizm va animizm bilan bog'liq. Shomoniylit ham ma'lum, shomonlar vazifani xotinlar bajargan, erkak shomonlar ayollar kiyimi ni kiyinishi shart bo'lgan. Ajdod arvohlariga sig'inish kuchli bo'lgan.

**Amerika hindularining dunyo sivilizatsiyasi-ga qo'shgan hissasi.** Dunyo xalqlari hindular orqali juda ko'plab madaniyat turlarini o'zlashtirganlar. Chunonchi, aynan hindular orqali dunyo xalqlari makkajo'xori, kartoshka, pomidor, kungaboqar, manioka, kakao, tamaki, qalampir, loviya, yeryog'oq kabi ko'plab madaniylashgan o'simliklarni yetishtirish va ulardan foydalanish madaniyatini o'rgandi.

Birgina kartoshkaning Yevroosiyo mintaqasi-ga tarqalishi mintaqada bu davrda sodir bo'lgan ocharchilikning kamayishiga sabab bo'lgan bo'lsa, makkajo'xorini yetishtirishni o'zlashtirish esa chorva uchun doimiy ozuqa zahirasini tayyorlash imkoniyati ni berdi.

Amerika hindulari uy hayvonlarini ham yetishtirgan bo'lib, ular orasida bugungi, kunda uy kurkasi va dengiz cho'chqasi keng tarqalgan.

Psixologiya va sotsiologiya sohalaridagi fundamental kashfiyotlardan so'ng hindular madaniyatiga bo'lgan qiziqish keskin ortgan. Fransuz antropologi Levi-Bryul va Levi-Strosslar hindular orqali zamonaviy odam ongini o'rgangan. Karl Gustav Yung va uning davomchilari (Jozef Kempbel) hindular mifologiyasi orqali ong osti tafakkur va arxitiplarni tad-qiq qilgan.

#### **41-§. Amerikaning zamonaviy etnik qiyofasi**

Hozirgi Amerika qit'asi o'zining rang-barang ta-biati singari turli xildagi etnik qiyofaga ega. Kashf etilgandan so'ng besh asrlik tarixi davomida qit'aga juda ko'p xilma-xil elat va xalqlar kelib uning etnik tuzilishida tub o'zgarishlarga sabab bo'lgan. Ular-ning geograflk joylashishda ham katta o'zgarishlar ro'y bergan. Hozir AQSh va Braziliyada 100 dan ortiq turli xalqlar, Kanada, Meksika va Argentinada 50 dan ko'proq, Boliviya, Venesuela, Peru, Kolumbiya va Chilida 25 ga yaqin xalq va elatlar yashaydi. 30 dan ortiq xalq bir milliondan ko'p aholiga ega.

Til jihatdan hozirgi Amerika aholisini olimlar ikki katta guruhga bo'ladilar, kelgindi hind-yevropa tillari (asosan, ingliz, ispan, fransuz) va mahalliy hindu tillari (mayya, astek, aymara, kechua, guarani, penuti, chibcha va hokazo). XVI – XVIII asrlar davomida Afrikadan zo'rlik bilan millionlab keltirilgan turli elatlar (bantu, yoruba, xuasa, eva va h.k.) ham qit'aning etnik qiyofasiga muayyan ta'sir o'tkazgan. Hozirgi Amerika qit'asining ayrim mamlakatlarida negrlar hatto ko'pchilikni tashkil qiladi.

Yevropa mustamlakasi natijasida ko'p asrlik murakkab etnik jarayon ro'y berib tub aholining faqat lingvistik va antropologik tuzilishidagina emas, uning

turmush tarzida ham jiddiy o'zgarishlar sodir bo'lgan. Albatta, mazkur jarayon tabiiy bir holat bo'lmasdan, balki zo'rlik va vahshiylik bilan amalga oshirilgan. Mustamlakachilarning hindularni ochiqdan-ochiq qirib tashlash siyosati Amerika tarixining eng fojiali sahifalaridan hisoblanadi. Istilochilar keltirgan qirg'in, og'ir mehnat va turli yuqumli kasalliklar millionlab hindularning yostig'ini quritgan. Ayniqa, Vest-Indiya aholisi XVI asrning bиринчи yarmidayoq fojiali taqdirni boshdan kechirgan, oqibatda hindular o'sha davrda deyarli butunlay qirilib ketgan. Faqat ko'p sonli qadimiy madaniyat yaratgan xalqlar (aymara, guarani, Janubiy Meksika hindulari) va Janubiy Amerikaning ichki to'qayzorlarida, Amazonka va Oriniko daryolarining vohalaridagi tropik o'rmonlarda yashaydigan hindular qisman etnik hududini hamda madaniy xususiyatlarini saqlab qolganlar.

Yevropaliklarning etnik tarixi ancha murakkab va notekis. Ular Amerika qit'asining turli qismida turlicha joylashganlar. Dastlab Shimoliy Amerikaga kishilar Angliya, Irlandiya va Shotlandiyadan kela boshlagan. XIX asr o'rtalarigacha bu yerga ko'proq Shimoliy, G'arbiy Yevropa mamlakatlarning vakillari ko'chib kelganlar. Kelgindilarning ko'pchiligi irqiy tomoniga kam e'tibor qilib mahalliy qabilalar bilan nikoh tuzganlar. Keyinchalik Germaniya va Shvetsiyadan emmigrantlarning to'lqini bir oz kuchaygan. XIX asrning ikkinchi yarmida Avstro-Vengriya, Italiya va hatto Rossiyadan, keyin Yaponiya va Xitoydan ham odamlar ko'chib kelgan. Ammo emmigrantlar qit'aning qulay joylarini axtarib turli yerlarga joylashganlar. Yevropaliklar ko'pincha AQSh va Kanadaning sharqiy va markaziy qismlari hamda Markaziy va Janubiy Amerikaiga tarqalgan bo'lsalar, yaponlar va xitoylar, asosan, Tinch okeani sohillariga joylashgan.

AQShning aholisi qurama bo'lib, uning asosiy tili inglizcha, faqat 10 foiz aholi o'z ona tilida gapiradi. Bir necha asrlik assimilatsiya natijasida hozirgi ingliz tillik Amerika millati shakllangan. Shunisi qiziqki, qit'ada yashovchi roman-german tillarida so'zlashadigan kishilarning soni shu tillarning vatanidagi aholiga nisbatan bir necha marta ko'p bo'lgan. Massalan, ingliz tilining vatani Angliyada 56 mln. kishi gapirsa, Amerikada ingliz tilida 200 mln. ga yaqin kishi gapiradi. Ispaniyada 36 mln. dan ortiq kishi ispancha gapirsa, shu tilda gapiradigan kishilar Amerikada 200 mln. dan oshadi. Portugaliya tili vatanida 10 mln. ga yaqin portugalcha gapirsa, Braziliyada shu til 115,5 mln. aholining tiliga aylangan. Ummam, qit'adagi aholining ko'pi roman tillarida (ispan, portugal va fransuz – 54 foizdan ortiq) va german tilli xalqlar (ingliz tilli 35 foiz), qolgan aholi hindular va boshqa kelgindi mayda millatlardan iborat.

Amerikaning etnik tarixida irqiy jihatdan negrlar alohida o'rinni egallaydi. Ular XVI asrning I chora-gidan boshlab Afrikadan minglab keltirilgan. Uch asr davomida zo'rlik bilan, asosan, Vest-Indiya va Braziliyaga plantatsion xo'jaliklarda ishlatish uchun qul qilib keltirilgan son-sanoqsiz negrlar mahalliy etnik jarayonga o'z ta'sirini o'tkazgan, albatta. Negrlar dastlab yuzlab keltirilsa, XVII asrda bir necha mingdan iborat bo'lgan, XIX asr boshlarida 1 mln., 1860-yillarda 4 mln. ga yaqin negr kuch bilan olib kelingan. Hozir AQSh aholisining 12 foizi, Lotin Amerikasining 9 – 10 foiz aholisi negrlardir. Ular, asosan, antropolologik va ba'zi milliy xususiyatlarini saqlab, joylashgan o'lkalardagi asosiy tillarni egallaganlar.

Butun Amerikada 3 – 4 asrlik murakkab assimilatsiya va konsolidatsiya jarayoni natijasida turli qurama etnik guruhlar paydo bo'lgan. Bu yerdagi Ispaniya va Portugaliya mulklariga ko'chib kelgan ispaniyalik

va portugaliyalik dvoryanlarning avlodlari «kreollar» deb nom qozongan. Ular mahalliy boy tabaqalar hisoblanib qon-qarindoshlik aloqalarini o'rnatganlar. Kreollar metropoliya aholisi bilan bir oz ziddiyatda bo'lib, ayrim huquqlar (masalan, hukmronlik qilish) dan mahrum bo'lishgan. Shuning uchun ular XIX asrning 1 choragidan mustamlakachilik tugagan dan keyin mustaqillik uchun kurashda bosh bo'lib, yangi paydo bo'lgan respublikalarda hokimiyatni o'z qo'llariga olganlar.

Aslida irqlarning aralashuvi mustamlakachilik davrida boshlangan. Natijada juda ko'p metislar paydo bo'lgan. Ular yevropaliklar bilan hindularning avlodlaridir. Ba'zan metis hindu ayoliga uylanib fanda «salto atras» (orqaga sakrash) deb atalgan avlod ham paydo bo'lgan. Metislar, ayniqsa, Meksikada, Janubiy Amerikaning g'arbiy sohillarida, Markaziy Amerika mamlakatlarida, Kolumbiya va Venesuelada ko'p.

Yevropaliklar bilan negrlar aralashmasidan paydo bo'lgan avlodlar «mulat»lar deyilgan. Ular negrlar ko'proq bo'lgan joylarda tarqalgan. Vest-Indiyada bunday avlodlar hatto maxsus atamalar bilan atalgan. Masalan, avlodda 1/4 qismi negr hisoblansa, «kvarteron», 1/8 qismi «oktron», 1/16 qismi «musti», 1/32 qismi «mustefino» deb nom berilgan. Mazkur tizim asosida kishining ijtimoiy o'rni belgilangan. Agar «oq tanli» bilan «mustefmo»dan bola tug'ilsa, u oq tanli deb tanilgan va erkinlar qatoriga kirgan (hatto ota-onasi qul bo'lsa ham).

Markaziy Amerika, Kolumbiya va Ekvadorda hindu bilan negrlar nikohidan paydo bo'lgan avlodlarni «sambo» deb ataganlar. Bulardan tashqari, XIX asrning 30-yillarida qullik man qilingandan keyin Amerikaga Hindiston va Xitoydan shartnoma asosida yollanma ishchilar keltirila boshlandi. Ularning ko'pchiligi Vest-Indiya mamlakatlariga joylashib,

yangi etnik guruhlarning shakllanishida ishtirok etganlar.

Hindularning hozirgi geografik joylashuvi ham notekis. Agar Shimoliy Amerikada eskimos va hindularning soni 1,5 mln. dan ortiq bo'lsa, Vest-Indiya va Urugvayda sof hindular mutlaqo yo'qolib ketgan, Kosta-Rika va Argentinada juda kam qolgan. Lotin Amerikasida yashovchi aholining 55 foizini metislар tashkil qiladi, Meksikada esa metislар aholining 4/5 qismidan iborat. «Oq tanlilar» faqat Argentina, Urugvay va Kosta-Rikada ko'pchilik aholini tashkil qiladi, qolgan Lotin Amerikasi mamlakatlarida nisbatan kam. Antropologik va etnografik ma'lumotlar ga ko'ra, butun Lotin Amerikasida sof yevropoid («oq tanli») irqiga oid tiplar aholining 1/5 qismini tashkil qiladi, xolos. Ayrim davlatlarda, masalan, Dominikan Respublikasida esa aholining ko'p qismi mulatlardan iborat.

Shimoliy Amerikada juda ko'p fransuzlar, italyanlar, nemislар, slavyan xalqlari va boshqa millatlar yashaydi. Masalan, Kanadada fransuzlar aholining 1/3 qismini tashkil qiladi. XIX asr oxirlaridan boshlab Lotin Amerikasidagi mamlakatlarga arablar Livan va Falastindan ko'chib kela boshlaganlar.

Hozirgi Amerika mamlakatlarida barcha elat, qabila va xalqlar millat bo'lib shakllanmoqda. Muayyan iqtisodiy, hududiy, ruhiy va ma'naviy madaniyat birligi negizida Amerika, Kanada, Meksika, Braziliya, Venesuela, Kuba, Kolumbiya va boshqa o'nlab zamonaviy millatlar paydo bo'lmoqda. Amerika aholisining, ayniqsa, Markaziy va Janubiy qismida joylashgan davlatlarning tarixiy taqdiri, til birligi, bir din (katoliklik) ga taalluqli ekanligi va tabiiy sharoitining nisbatan yaqinligi mazkur jarayonni ancha tezlashtirmoqda. Lekin Shimoliy Amerika bilan Lotin Arnerikasi orasidagi sotsial-iqtisodiy, etnik va madaniy tafovutlar qit'a aholisining o'ziga xos

xususiyatlarini belgilab, ularning demografik rivojiga ham zo'r ta'sir qilib kelmoqda. Hozirgi davrda Lotin Amerikasining aholisi Shimoliy Amerikaga nisbatan uch hissa tez sur'atlar bilan o'smoqda. Lotin Amerikasi jahonda eng yosh mintaqa, uning aholisining yarmidan ko'pi 20 yoshga ham yetmaydi. 1960-yillarda Amerikaning shimoliy qismi bilan Lotin Amerikasi aholisining soni taxminan teng bo'lgan bo'lsa, 1975-yilga borib shimolga nisbatan 1/3 qism ko'paygan. XX asr oxiriga kelib, Lotin Amerikasining aholisi shimolga qaraganda taxminan ikki baravar oshdi. Bunday hodisa qit'aning etnik qiyofasiga ham ta'sir qilmay qolmaydi, albatta.

### **Seminar mashg'ulotlari rejasi:**

1. Amerika xalqlarining tarixiy-etnologik tavsifi.
2. Shimoliy Amerikaning tub aholisi etnografiyasi.
3. Markaziy Amerika xalqlari tavsifi.
4. Janubiy Amerika xalqlari etnologiyasi.

### **Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Amerika qit'asining o'ziga xos tabiiy-geografik xususiyatlari haqida gapirib bering?
2. Yevropaliklar kelgunga qadar Amerika qit'asida qanday davlatlar bo'lgan?
3. Amerika hindulari jahon sivilizatsiyasiga qanday hissa qo'shgan?
4. Amerikadagi zamonaviy etnomadaniy jarayonlar boshqa mintaqlardagidan nimasi bilan farq qiladi?

### **Adabiyotlar:**

1. Америка после Колумба. – М., 1992.
2. Коренное население Северной Америки в современном мире. – М., 1990.
3. Население Нового Света: проблемы формирования и социокультурного развития: Сб. статей. – М., 1999.
4. *Нитобург* Э. Л. Церковь афро-американцев в США. – М., 1995.
5. Тропою слез и надежд. Книга о современных индейцах США и Канады / Отв. ред. В. А Тишков и др. – М., 1990.
6. Эскимосы // Народы России. Атлас культур и религий.
- М.: Дизайн. Информация. Картография, 2010.
7. *Файнберг* Л. А. Индейцы Бразилии. – М., 1975.
8. *Уайт* Д. М. Индейцы Северной Америки. Быт, религия, культура / Пер. с англ. – М.: Центриолиграф, 2006.
9. *Куприенко* С. А. Источники XVI-XVII веков по истории инков: хроники, документы, письма / Под ред. С. А. Куприенко. – К.: Видавець *Куприенко* С. А., 2013.
10. *Куприенко* С. А. Америка первоначальная. Источники по истории майя, науа (астеков) и инков. – К.: Видавець, 2013. – 370 с.

## X BOB

### YEVROPA XALQLARI

42-§. Yevropa aholisining tarixiy-etnologik tavsifi.

43-§. G'arbiy Yevropaning roman-german va anglo-saks xalqlari.

44-§. Yevropadagi slavyan xalqlari.

45-§. Janubiy va Shimoliy Yevropa xalqlari.

#### 42-§. Yevropa aholisining tarixiy-etnologik tavsifi

Yevropa (yun. Europe, osuriy tilida «ereb» – g'arb) – qit'a, Yevrosiyo materigining g'arbiy qismida joylangan bo'lib, umumiy yer maydoni 10507 ming km<sup>2</sup>; 730 ming km<sup>2</sup> ni orollar tashkil etadi. Qit'a Shimoliy yarim sharda joylashgan, Osiyo bilan chegarasi shartli ravishda Ural tog'lарining sharqiy etagi, Emba daryosi, Kaspiy dengizi, Kuma-Manich botig'i orqali va Don daryosining quyilish joyidan o'tkazilgan. Shimoldan Shimoliy Muz okeani va uning dengizlari (Kara, Barens, Oq, Norvegiya) bilan, g'arb va janubdan Atlantika okeani va uning dengizlari (Boltiq, Shimoliy, O'rta, Marmar, Qora va Azov) bilan chegaralangan. Yevropa hududining 25 foizini yarim orollar tashkil etadi, ularning eng yiriklari: Kola, Skandinaviya, Yutlandiya, Bretan, Pireney, Apennin, Bolqon, Qrim yarim orollari tashkil qiladi. Yevropa aholisi taxminan 830,4 million kishini (2010-yil) yoki Yer yuzi aholisining taxminan 11 foizini tashkil qiladi. Yevropa aholiining tabiiy o'sishi nisbatan sekin



*Yevropa mamlakatlарининг сиёсиy xarитаси*

bo'lishiga qaramasdan aholining o'rtacha yoshi boshqa qit'alardagiga qaraganda yuqori hisoblanadi.

Zamonaviy Yevropa mamlakatlari aholisi soni va yer maydoniga ko'ra o'zaro farqlanadi. Qit'adagi aholisi soniga ko'ra eng kam sonli nufuzga ega mamlakat – San-Marino bo'lib, bu mamlakatda 28 200ishi istiqomat qilsa, eng ko'p sonli mamlakat Rossiya Federatsiyasida esa 143 mln. aholi yashaydi. Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan ko'plab mamlakatlar (yigirma to'rt)da aholi soni 8 mln. dan kam bo'lib, 7 ta mamlakat (San-Marino, Lixtenshteyn, Andorra, Islandiya, Malta, Lyuksemburg va Kipr)ning 1 mln. dan kam aholisi bor. 10 ta mamlakatda 8 – 20 mln. gacha, 4

ta mamlakatda – 20 – 50 mln. (Ruminiya – 22 mln. Polsha – 38 mln. Ispaniya – 40 mln. Ukraina – 49 mln.) aholi yashaydi. Yevropa Ittifiqiga kirgan mamlakatlarning yarmida 50 mln. dan ko'p aholi: Italiya (56,3 mln.), Fransiya (59,6 mln.), Buyuk Britaniya (60 mln.) va Rossiya Federatsiyasiida (143 mln.) istiqomat qiladi.

Yevropa qit'asida yashovchi xalqlar butun jahon madaniyati tarixida muhim rol o'ynagan. Ular eng qadimgi zamonlarda, ayniqsa, qadimgi Gretsya va Rim davrlaridan boshlab deyarli olamga tarqalgan bugungi Yevropa madaniyatiga asos solgan elatlarining avlodlaridir. Bu qadimiy madaniy meros, buyuk geografik kashfiyotlardan keyin uyg'onish davrlaridan boshlab sivilizatsiyaning gurkirab o'sishi natijasida qayta tiklanib, boshqa qit'alarga ham tarqalgan edi. Zamonamiz madaniyatini Yevropada paydo bo'lgan qadimgi Gretsya va Rim madaniyatlarisiz tasavvur qilish qiyin.

Yevropada odamning uzoq davrlarda paydo bo'lishi, aholining zichligi, sanoat va qishloq xo'jaligining gurkirab o'sishi uning tabiiy sharoitining ancha o'zgarishiga sabab bo'lgan. Yevropaliklarning hayotida va tabiatida yirik sanoat markazlarining shakllanishi, bir-biriga chatishib ketgan ekin dalalari va qishloqlarning, sun'iy or'monlar va turli transport vositalarining yaratilishi muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Hozirgacha Yevropa mamlakatlari ko'pining okean va dengizlar bilan bog'liq bo'lishi ularning iqtisodiyoti va madaniyatida katta rol o'ynab kelmoqda. Ayniqsa, dengiz savdosi, okean va dengiz mahsulotlaridan foydalanish bu mamlakatlarning taraqqiyotiga beqiyos ta'sir qilib kelgan.

Insoniyat Janubiy Yevropa va uning o'rta qismini eng qadimiy davrlardan o'zlashtira boshlagan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, aksariyat Yevropa mam-

lakatlarida ilk paleolit davridan odamlar yashagan. Fransiya g'orlarida topilgan tosh quollar, arxeologlarning ta'rificha, bu yerda ketma-ket paleolit madaniyati shakllanib kelganligini tasdiqlaydi. So'nggi yillarda Ispaniya shimoli-sharbidagi tog'dagi g'ordan topilgan ikki insonning skeletini tadqiq qilish matijasida bundan 7000 yil oldin yashab o'tgan insonlar ekanligini aniqladilar. Ispaniyaning Barselona shahridagi Evolyucion biologiya instituti mutahassislar o'zlarining tadqiqotlari asosida Ovro'poda 7000 yil oldin yashagan, ovchilik va meva-cheva terib yashagan odamlarning badani qora va ko'zлari ko'k bo'lgan, degan xulosaga kelganlar. DNK tekshiruvlariga ko'ra, bu odamlarning ko'zлari moviy bo'lsa-da, sochlari qora yoki mallarang, badanlari esa qora bo'lgan. Aynan bu fikr fandagi yevropoliklarni ajdodlari ko'k ko'z, sariq sochli va badani oq bo'lgan degan qarashni xato ekanligini tasdiqladi.

Ma'lumki hozirgi kungacha ko'plab tarixiy-arxeologik tadqiqotlarda tahminan 45000 yilcha oldin Afrikadan Yevro'poga ko'chganlaridan keyin odamlarning badani oqarib boshlagan deb hisoblab kelinar edi. Shuningdek, "avvallari Afrikadan ultrabinafsha nurlar kam shimoliy kengliklarga ko'chib o'tilgandan keyin inson terisida D vitamini sintezi tufayli teri tez oqara boshlagan deb hisoblanar edi. Lekin oxirgi tadqiqotlardan shu narsa aniq bo'layaptiki, bunday qarash to'g'ri bo'lмаган. Ispaniyadagi Evolyutsion biologiya instituti tadqiqotchilari rahbari Karles Laluesa-Foksning fikricha, bu odamlar Yevropoda 40 ming yil avval yashashgan, lekin ularning terisi qoraligicha qolgan. Aynan Ispaniyadagi g'ordan topilgan insonlarning DNKsini o'rganish orqali olimlar, bu odamlar asosan oqsilli ovqatlar iste'mol qilishgan, sut va tarkibida krahmal moddasi bor mahsulotlarni yemagan degan hulosaga kelganlar. Sut va krahmalli

yeguliklarni odamlar dehqonchilikni o'rganganlari-dan keyin iste'mol qila boshlaganlar.

Ibtidoiy ajdodlar dastlab yirik hayvonlarga ov qilib kun kechirganlar, g'orlarda, chayla va yerto'lalarda yashaganlar, toshlardan, yog'och va suyakdan turli qurollar yasaganlar, teridan kiyim tikishni bilganlar. Ular kichik urug' turkumlarga bo'lingan, qoyalarga rasmlar chizishgan, turlicha xo'jalik shakllari yaratganlar. Masalan, Boltiq bo'yida, asosan, baliqchilik (moglemos madaniyati), Shimoliy dengiz sohillarida dengiz terimchiligi (kyokke-meding madaniyati), ichki hududlarda bug'u ovchiligi (tardenuaz, svider kabi madaniyatlar) xo'jaliklari paydo bo'lgan.

Yevropa madaniyatining keyingi rivojida neolit davri katta ahamiyatga ega. Miloddan avvalgi IV – II mingyilliklarini o'z ichiga olgan bu davr tosh qurollarini ishlab chiqarishning takomillashishi, o'q-yoyning kashf etilishi, kulolchilik va to'qimachilikning paydo bo'lishi, asta-sekin dehqonchilik va chorvachilik xo'jaliklarining vujudga kelishi, o'troq aholiga xos qishloqlarning tashkil topishi bilan belgilanadi. Turli hududlarda mahalliy tabiiy sharoitga moslashgan madaniyatlar shakllanadi. Ammo turli madaniyat yaratgan elatlarning qaysi tillarda gapirganligi hozirgacha noaniq. Faqat miloddan avvalgi ikkinchi ming yillikdan boshlab butun Yevropa qit'asiga hind-yevropa tillarida gapiradigan qabilalar tarqala boshlaydi. Ular asta-sekin janubda Bolqon yarim orolini va Krit orolini, keyin (miloddan avvalgi 1 mingyilliklarda) Italiyaning ko'p qismini egallaydilar. Eng katta to'lqin (kelt qabilalari) G'arbiy Yevropaga yetib hozirgi Fransiya va Belgiyaga joylashgan. Pirenay yarim oroliga kelgan keltlar iberlar bilan aralashib «keltiber» aholisiga asos solgan, Britaniya orolini egallagan.

Hind-yevropa tillari miloddan avvalgi II – I ming-yilliklarda butun Yevropaga tarqalgan. Lekin milodgacha bo'lgan 1 mingyillikda mintaqda hind-yevropa tillariga kirmagan aholi yashagan. Italiyada etrusklar, Piriney yarim orolida iberlar shular jumlasidan bo'lgan. Hozirgi kunda Ispaniyaning shimolida va Fransiyaning ayrim chegara hududlarida yashovchi basklar hind-yevropa tillarigacha bo'lgan davrdagi til davomchilari bo'lib, ularni Yevropadagi biror-bir zamonaviy tillarga qarindoshligi yo'q. Umuman olganda, bu tilning asli kelib chiqishi qanday ekanligi haligacha qorong'u. Keyingi xalqlarning buyuk ko'chiши davrida ko'hna Yevropa aholisi yana ham ko'proq aralashib ketgan. Sharqdan ko'chib kelgan gunlar, avarlar, bulg'or va vengerlar mahalliy hind-yevropa xalqlarini harakatga keltirgan. O'sha davrda german qabilalari g'arb tomon siljib keng hududda joylashgan, Dnepr va Visla voхalarida yashagan slavyan qabilalari esa Bolqon yarim oroliga va Sharqiy Yevropaga ko'chib kelib o'rashgan. Bu etnik jarayon keyin ham davom qilib, hozirgi Yevropa xalqlarining shaklanishiga asos solgan edi.

XX asrning 50-yillarida Yevropa yirik migratsiya jarayonlarini boshdan kechirdi. Ular davomida O'rta yer dengiz mamlakatlari G'arb va Shimolni arzon ishchi kuchi bilan ta'minlab turdilar. Ma'lum bir davr mobaynida Turkiya, Shimoliy Afrika, Yunoniston, Janubiy Ispaniya va Italiyadagi aholi muhojirligi qo'llab-quvatlangan. Chunki rivojlangan davlatlarda ishchi kuchi o'ta tanqis edi. Avval mustamlakachi bo'lgan davlatlarga sobiq kaloniyalardan katta muhojirlar oqimi kela boshladi – birinchi o'rinda Fransiyaga(jazoirliklar), Gollandiyaga (indoneziyaliklar) va Buyuk Britaniyaga, G'arbiy Yevropaga ishchi kuchi migratsiyasi, taxminan, 20 yil avval iqtisodiy o'sishdan so'ng, kamaydi. Bu muhojirlarning deyarli bar-

chasi joylashib fuqarolik qabul qilishlariga qaramay, etnik guruhlarning vakillari o‘z yuridik huquqlarini cheklanishiga duch kelmoqdalar. Ba’zi davlatlarda ishchi kuchining vaqtinchalik migratsiyasini tashkil etish borasida qonunlar qabul qilindi. Lekin ular bugungi holatga umuman to‘g’ri kelmaydi.

Boshqa davlatlarda (masalan, Fransiya, Germaniya) muhojirlarga nisbatan huquqlarni cheklash siyosati olib borildi. Masalan, ular yaqin qarindoshini olib kirish huquqidan mahrum edilar.

Ko‘pchilik G‘arbiy Yevropa davlatlarida muhojirlarni o‘z davlatlariga qaytarish kompaniyalarini o’tkazishlar; ular ishini yo‘qotsa yoki qonunni buzsa, deportatsiya qilinar edi. Bu holat ayniqsa migrant yoshlar siyosati uchun xavflidir, chunki ular G‘arbiy Yevropada tug‘ilganlar va endi o‘zlari umuman tanimaydigan davlatga ko‘chib borish majburiyatiga duch kelmoqdalar<sup>1</sup>.

### **43-§. G‘arbiy Yevropaning roman-german va anglo-saks xalqlari**

Yevropa xalqlarining ko‘pchiligi hind-yevropa – slavyan, german, roman va kelt tillarida gapiradilar. Slavyan til turkumiga g‘arbiy slavyanlardan chexlar, slovaklar, polyaklar va janubiy slavyanlardan serblar, bolgarlar, xorvatlar, slovenlar, chernogorlar, makedoniyaliklar va bosniylar; Sharqiy slavyanlarga esa ruslar, beloruslar, ukrainlar kiradi. Roman til turkumiga janub va g‘arbda yashovchi italyanlar, fransuzlar, vallonlar, ispanlar, portugallar, ruminlar, moldovanlar kiradi. Qadimgi davrda keng tarqalgan kelt tilida gapiradigan elatlarning avlodи hozir faqat Irlandiyada, qisman Shotlandiyada, Angliya va Fran-



*Milliy kiyimdagi nemis musiqachilari*

siyaning Bretan yarim orolida yashaydi. Keltlarning ko'p qismi Rim imperiyasi hukmronlik qilgan davrda roman tillari bilan aralashib, keyinchalik german qabilalari tarqalishi bilan german tiliga singib ketgan. German xalqlariga nemislar, avstriyaliklar, gollandlar, flamandlar, shvedlar, norvegalar, daniyaliklar, islandlar, inglizlar va qisman shveytsariyaliklar kirdi. Hind-yevropa tillarida greklar va albanlar ham gapiradi. Vengerlar yoki madyarlar, finnlar, soamlar va loparlar finnougor til oilasiga mansub. Bolqon yarim orolida yashovchi turklar va gagauzlar esa turkiy tillarda gapiradilar. Faqat Malta orolida arab tili saqlangan.

G'arbiy slavyanlardan polyaklar X asrga kelib polyaklar, vislyanlar, pomoryanlar, mazovsha va sileziyaliklardan tashkil topgan davlat hududida xalq sifatida shakllangan. O'sha davrlarda Buyuk Moravya knyazligi chegarasida chex, slovak, morava qabi-

lalari birlashib hozirgi Chexiya va Slovakiya xalqlariga asos solgan edi.


Hozirgi bolgar xalqi V – VI asrlarda Bolqonga kelgan janubiy slavyan qabilalari bilan mahalliy frakiy aholisi hamda VII asrlarda Sharqdan bosib kiran va o‘z nomini bergen turkiy tildagi ko‘chmanchi bulg‘orlarning aralashishi natijasida paydo bo‘ladi.

Yugoslaviya xalqlarining slavyan ajdodlari VII asrlarda juda keng hududda Qora dengiz qirg‘oqlaridan Adriatikagacha joylashgan. Ular qadimiy mahalliy illiriya va frakiyalik roman xalqlari bilan to‘qnashib qisman siqib chiqargan yoki aralashib ketgan. Ammo Yugoslaviya xalqlari ketma-ket Vizantiya, Vengriya, Avstriya, Turkiya davlatlari tomonidan istilo qilinib, faqat 1918-yilda mustaqil davlat bo‘lib birikdilar.

Hozirgi eng katta millatlardan hisoblangan nemis xalqining etnik asosini mil. I mingyillik o‘rtalarida Reyn va Oder daryolari oralig‘ida yashagan qadimgi german qabilalari: franklar, sakslar, bavarlar, alemanlar, tyuringlar, tevtonlar, kimvrular qabilalari ittifoqlari tashkil etgan. Bu ittifoq namoyandalari X asrga kelib o‘zlarini – «tevtonlar» deb atay boshlaganlar. Nemislар IX asrda elat bo‘lib shakllangan. Nemis xalqining shakllanishi jarayonida (XII – XIII asrlar) g‘arbiy slavyan (polab) va Boltiqbo‘yi qabilalari (prusslar va ularga qardosh litva qabilalari) ham qatnashgan. 1871-yilda Prussiya yetakchiligidida Germaniyaning siyosiy va iqtisodiy birlashuvi nemis millatining shakllanishini, asosan, nihoyasiga yetkazgan. Nemislarning aksariyati yuksak rivojlangan sanoat va xizmat ko‘rsatish sohasida band.



*Yevropaning eng qadimgi  
aholisi vakillari samoab  
bolalari*



*Kortreyk (Belgiya)*

German tiliga yaqin inglizlarning kelib chiqishi-da ham dastlab Britaniya oroliga mil. av. 1 ming yil-lik o'rtalarida ko'chib kelgan kelt qabilalari (brittlar va b.) muhim rol o'ynagan. Mil. V – VI asrlarda bu yerlarga materikdan german qabilalari – angllar, sakslar, yutlar kelib o'rashdilar. Ular keltlarning bir qismini o'zlariga singdirdi, bir qismini esa Shotlandiya, Uels va Kornuoll tog'lariga siqib chiqardilar. VII – X asrlarda anglosaks elati vujudga keldi. Angliya 1066-yilda normannlar tomonidan bosib olindi. XIII – XIV asrlarga kelib anglosakslar va normanlar yagona ingliz xalqiga uyushdi. XVI asrda ingliz jonli va adabiy tili vujudga keldi. XVII – XIX asrlarda Angliya boshqa qit'alardagi ko'pgina mamlakatlarni o'z mustamlakasiga aylantirdi. Ko'plab inglizlar mustamlaka mamlakatlariga ko'chib bordilar. Natijada

inglizlar ko'pgina xalqlar – amerikaliklar (AQSHda), avstraliyaliklar, yangi zelandiyaliklarningt shakllanishida asosiy komponentlardan biri bo'ldi.

Inglizlarning hayoti va ijtimoiy turmushida an'anaviy xususiyatlar ko'p saqlanib qolgan. Fransuz xalqining shakllanishida ham kelt tilida gapiradigan gallar asosiy rol o'ynagan. Ular miloddan avvalgi I asrlarda rimliklar tomonidan bosib olingan va romanlashtirilgan. Keyin vestgot, burgund va frank kabi german qabilalari fransuz xalqining tarkibiy qismi bo'lib roman elatlari bilan aralashib ketgan. Frank qabilalaridan esa fransuz xalqining nomi kelib chiqqan.

Italyan xalqiga dastavval miloddan avvalgi 1 ming yillikda Appenin yarim oroliga kelib joylashgan italiy qabilalari, ayniqsa, latinlar asos solgan. Rim imperiyasi yemirilgandan keyin V asrlardan boshlab bir necha yuz yillar davomida varvar qabilalari bosib keladilar va yuksak madaniyatli italiyaliklarga qo'shib singib




*Brandenburg darvozasi (Germaniya)*

ketadilar. Milodning ikkinchi ming yilligiga kelib, hozirgi italyan xalqi shakllana boshlaydi.

Pireney yarim orolida eng qadimgi aholi iberlar va basklar yashagan. Ular bilan miloddan avvalgi 1 mingyillikda kelgan keltlar, keyinchalik Rim imperiyasi bosib olgandan so'ng lotin tilida gapiradigan elatlar aralashishi natijasida hozirgi ispan va portugal xalqlari paydo bo'ladi. Ammo hozir ham Pireneyda qisman Fransiyada yashovchi qadimiy basklarning avlodlari o'z tillarini saqlab qolganlar. Ular o'ziga xos ona tilidan tashqari qaysi mamlakatda yashasa, masalan, Ispaniyadagilar ispan tilini, Fransiyadagi basklar fransuz tilini ham to'liq egallaganlar.

Yevropada qadimiy davrlardan mahalliy tabiiy sharoitga moslashgan yevropoid irqining har xil tiplari joylashgan. Aslida bu yerda ikkita irqiy tip farqlanadi: oqtanli, malla rang sochli, ko'k ko'z (blondin) belgilari bilan ajralib turgan shimoliy yevropoid va qora sochli, qora ko'zli (brunet) tipidagi janubiy yevropoid irqlari. Mazkur tiplarning o'rta tipi (shaten) ikkalasining belgilarini saqlagan. Keyinchalik Yevropaga mo'g'ullarning kirib kelishi ayrim etnoslarda qisman o'z ta'sirini qoldirgan. Bunga Skandinaviyada yashovchi mongoloid belgilariga ega bo'lgan loparlar misol bo'la oladi. Keyingi yillarda Yevropa mamlakatlarida, ayniqsa, Angliya, Fransiya va Germaniya Federativ Respublikasida, ko'plab negroidlar paydo bo'lgan. Ularning ancha qismi mahalliy xalqlar bilan aralashib mulatlar guruhini yaratgan.

**Xo'jalik hayoti va moddiy madaniyati.** Murakkab etnik jarayonlar Yevropa aholisi xo'jaligida va moddiy madaniyatida ham o'z aksini topgan. Bu yerda yashovchi turli xalq va elatlar o'ziga xos umumiy xususiyatlar bilan bir qatorda umumiy Yevropa madaniyatini yaratganlar. Yevropa xalqlarining



*Yevropa ekin maydonlari*

xo'jalik shakllari deyarli bir xil. Chunki butun Yevropa, asosan, mo'tadil iqlim zonasida joylashgan. Eng qadimiy davrlardan neolit va bronza zamonida paydo bo'lgan dehqonchilik xo'jaligi barcha xalq va elatlarining iqtisodiyoti hamda turmushini belgilab bergen va ko'p asrlardan beri xo'jalik hayotining negizini hosil qilgan.

Masalan, Italiya va Janubiy Fransiya vinochiligi, Angliyaning qo'rg'oshin konlari, Venetsianing shisha ishlab chiqarish sanoati qadimiy Rim va Vizantiya an'analarini o'rta asrlarda ham davom qildirgan. Lekin ilk o'rta asrlardagi umumiy iqtisodiy tushkunlik XIV – XVI asrlarga kelib muayyan tarixiy sabablarga ko'ra butun Yevropada sotsial-iqtisodiy taraqqiyotni juda tezlashtirib, xo'jalik jihatdan butun jahondagi mamlakatlarga nisbatan oldinga o'tib olish imkoniyatini yaratib bergen. Shubhasiz, uning iqtisodiyoti, yuqorida qayd qilinganidek, peshqadam bo'lishiga qit'aning qulay geografik joylashishi, keng

miqyosda dengiz sohillari va juda ko‘p qulay aloqa vositasini bajaruvchi daryolar, nisbatan boy tabiiy sharoitning mavjudligi muhim rol o‘ynagan. Oqibatda, buyuk geografik kashfiyotlardan keyin Yevropa mamlakatlari so‘nggi to‘rt asr davomida butun dunyodagi xo‘jalikka bosh bo‘lib, jahon bozorining rabbari sifatida tanilgan. Faqat cheksiz musibat, qirg‘in va xarobalik keltirgan ikkinchi jahon urushi tufayli, jahon bozori xo‘jaligining peshqadami vazifasi AQSh bilan Yaponiyaga o‘tdi.

Urushdan keyin Yevropada bir necha mustaqil mamlakatlarning paydo bo‘lishi uning xo‘jalik taraqqiyotiga muayyan ta’sir ko‘rsatdi. Hozirgi davrda Yevropaning xo‘jalik hayoti, avvalo, uning industriyasi bilan belgilanadi. Jahondagi 22 ta eng yirik industrial davlatlarning 12 tasi ushbu mintaqada joylashgan: Belgiya, Buyuk Britaniya, Ispaniya, Italiya, Fransiya, Niderlandiya, Shveytsariya, Shvetsiya, Chexiya, Slovakiya, Ruminiya. Ammo ayrim davlatlarda boshqa sohalar rivojlangan. Masalan, Avstriya, Shveytsariyada sanoatga nisbatan xizmat ko‘rsatish sohasi milliy daromadning asosini tashkil qiladi, Skandinaviya xo‘jaligining hukmron sohasi baliqchilik hisoblanadi yoki Daniya, Niderlandiya, Fransiya va Vengriya rivojlangan sanoatga ega bo‘lsa-da, eksport mahsulot yetishtiradigan yirik qishloq xo‘jaligiga ega mamlakatlardir. Hozirgi Yevropa sanoatining barcha sohalari yuksak rivojlangan, ammo, eng yirik tarmog‘i mashinasozlik hisoblanadi. Yevropadagi davlatlar hissasiga jahondagi mashina va uskunalar ishlab chiqarishning uchdan ikki qismi to‘g‘ri keladi. Eng ko‘p eksport mahsulotlaridan har xil stanoklar, elektrotexnika va to‘qimachilik uskunalar, ilmiy va nazorat o‘lchov asboblari, yengil va yuk avtomobilari, traktorlar va boshqa mashinasozlik tovarlari. Yevropa kemasozlik va maishiy elektronika asboblarni eks-

port qilishda Yaponiyadan, samolyotozlik, hisoblash mashinalari, radio va teleapparaturalar ishlab chiqarishda AQShdan orqada, xolos. Jahon bozorida Yevropaning mayda mashinasozlik mahsulotlari, AQShning yirik mashinasozlik mahsulotlariga nisbatan yuqori turadi.

Britaniya eksportining 90 foizini sanoat ta'minlaydi. Ikkinchı jahon urushidan keyin sanoat tuzilmasida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi: konchilik, qora metallurgiya, yengil va oziq-ovqat sanoati, shuningdek, kemasozlik va avtomobilsozlik kabi tarmoqlar ulushi kamaydi; energetika, elektr mashinasozligi va kimyo sanoatining ulushi oshdi. Atom, elektron, aerokosmik, neftni qayta ishlash va neft kimyosi tarmoqlari katta ahamiyat kasb etdi. Mashinasozlik – sanoatning muhim tarmog'i, avtomobil, samolyot, raketalar, kemalar, sanoat korxonalari uchun kompleks asbob-uskunalar, ilmiy apparatlar va asboblar, radio elektronika va elektronika mahsulotlari ishlab chiqarish ayniqsa ajralib turadi. Traktorozlik, stanoksozlik, neftni qayta ishlash, kimyo (plastmassa va sintetik smolalar, dori-darmonlar, ma'danli o'g'it, bo'yoqlar, kimyoviy tolalar, sintetik kauchuk, sulfat kislota ishlab chiqarish), to'qimachilik, oziq-ovqat sanoati rivojlangan. Yengil sanoatning poyabzal tikish, tikuvchilik va boshqa tarmoqlari bo'yicha yirik korxonalar mavjud. Mashinasozlik markazlarining ko'pi Janubiy va Markaziy Angliyada joylashgan, ularning eng muhimlari – London, Birmingham, Koventri, Luton, Sheffild shaharlarida qora metallurgiyaning asosiy markazlari – Janubiy Uels, Yorkshir va Xamber-sayd, Shimoliy Angliya va Shotlandiyada, rangli metallurgiya korxonalari – Midlend, Janubiy Uels, Taynsayd va Londonda. Atom sanoati korxonalari Shimoli-G'arbiy Angliya va London atrofida joylashgan. Kimyo sanoati korxonalari Katta London, Lankashir,

Cheshir, Shimoliy dengiz va Bristol qo'ltig'i sohillarida, to'qimachilik sanoati korxonalari Lankashir va Yorkshirda joylashgan.

Texnika taraqqiyoti sohasida Germaniya sanoati dunyoda oldingi o'rinnlardan birini egallaydi. Germaniya iqtisodiyoti yuksak texnologiyalardan foydalananish tufayli farmatsevtika mahsulotlari, eng yangi organik kimyoviy moddalar va sun'iy materiallar, tibbiyot elektronikasi, optika va o'lchov asboblari ishlab chiqarishda, yangi avtomobillar yaratish va mashinasozlikda, telekommunikatsiya, atrof-muhitni muhofaza qilish texnologiyalari sohasida dunyoda yetakchi o'rinda turadi. Germaniya dunyodagi tashqi savdo aylanmasi hajmi bo'yicha AQShdan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Germaniya chetga, asosan, avtomobillar, stanoklar, mashinalar, kimyo mahsulotlari va elektr texnika buyumlari chiqaradi. Mazkur mamlakatda qadimgi va go'zal an'analarga ega bo'lgan hunarmandchilik rivoj topgan.


So'nggi yillarda G'arbiy Yevropa kimyo sanoati nihoyatda tez sur'atlar bilan o'sa boshlagan. Yevropaning ayrim mamlakatlari jahon bozorida plastik materiallar, sintetika va sun'iy tolalar, farmatsevtika, lak va bo'yoqlar, azot o'g'itlar kabi kimyo mahsulotlarini chiqarishda birinchi o'ringa ko'tarilgan. Ayrim mamlakatlar (Shveytsariya, Belgiya, Niderlandiya) tor sohada mutaxassislashsa-da (asosan, farmatsevtika va neft mahsulotlari ishlab chiqarishda), tashqi bozorga ishlab chiqarayotgan mahsulotlarining uchdan ikki qismini yetkazib beradi.

Nihoyatda zich aholiga ega bo'lgan G'arbiy Yevropa dehqonchilikka mos yerkardan ancha siqilgan va unga muhtoj bo'lsa-da, yuqori mahsulotli qishloq xo'jaligini tashkil qilishga tuyassar bo'lgan. Yevropa qishloq xo'jaligi aholining oziq-ovqatga, dastavval inson uchun eng muhim bo'lgan go'sht, sabzavot va

meva mahsulotlariga ehtiyojini qondirish imkoniyatini yaratgan. Bu imkoniyatga qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni industirlashtirish, kimyolashtirish va mexanizatsiyalash orqali erishilgan. Umuman, Yevropada qishloq xo'jalik ishlab chiqarish sanoatga nisbatan sekinroq rivojlangan bo'lsa-da, urushdan keyingi yillar ichida uning hajmi o'rtacha ikki-uch hissa o'sgan. Ko'pgina Yevropa mamlakatlarida chorvachilikka alohida e'tibor qaratiladi. Hatto dehqonchilik chorvachilikka bo'ysundirilib, yem-xashak yetishtirish asosiy tarmoqqa aylangan. So'nggi yillarda yem-xashakka dehqonchilik mahsulotlaridan tashqari baliqchilik mahsulotlari ham ishlatilmoqda.

Yevropa dehqonchiligi mamlakatlar orasida ekildigan ekinlari bilan bir oz farq qiladi, xolos. Misol, markaziy qismidagi mamlakatlarda, asosan, bug'doy, arpa, suli, so'nggi asrlardan boshlab kartoshka; janubiy hududlarida, ayniqsa, Ruminiya va Bolgariyada makkajo'xori, Italiyada sholi va boshqa don hamda poliz ekinlari ekiladi, bog'dorchilik va uzumchilik juda keng tarqalgan. Janubiy Yevropada uzumzorlar, zaytun daraxti, anjirzorlar ko'p uchraydi. Gretsiyada paxta va tamaki yetishtirish muhim xo'jalik sohasi hisoblanadi. Shimolda qadimiy davrlardan uzumchilik, bodom va har xil mevalar ko'p yetishtiriladi. Zaytun ekinlari ellenlar tomonidan Pireney yarim oroliga qadim davrlardan keltirib ekilgan, hozir Ispaniya zaytun yog'i ishlab chiqarishda jahonda birinchi o'rinda turadi, uzumzorlar maydoni bo'yicha ikkinchi o'rinda, uzum yetishtirish va vino ishlab chiqarishda uchinchi o'rinda (aholi jon boshiga hisoblaganda vino ishlab chiqarishda Portugaliya birinchi o'rinda) turadi.

Chorvachilik hamma xalqlar orasida tarqalgan. Italiya, Karpat, Bolqon va Alp tog'li hududlarida qo'ychilik muhim xo'jalik sohasidir. Skandinaviya mamlakatlarida, fransuzlar, irlandiyaliklar, valiyalar



### *Yevropa sigirlari*

va britanlarda qoramol chorvasi rivojlangan va shu asosda sut mahsulotlari ishlab chiqarish taraqqiy etgan. Chorvachilikda, asosan, go'sht va sut olinadi, turli yuqori sifatli mahsulotlar yetishtiriladi. Kelt xalqlari dehqonchilikda, asosan, yem-xashak yetishtirish bo'yicha ixtisoslashganlar. Yevropada bug'uchilik bilan shug'ullanadigan yagona xalq saamlar hozirgacha yarim ko'chmanchi holatda yashaydi. Finlarning an'anaviy xo'jaligi qoramol boqish, go'sht, sut mahsulotlarini ishlab chiqarishdan iborat. Ular-da erkin dalalarning uchdan ikki qismi yem-xashak ekinlari bilan band.

Angliyada qo'ychilik rivojlangan bo'lib, qo'y juni asosiy eksport mahsulotlaridan biri bo'lgan. Shuning-dek, Ferar orollarida ham qo'ychilik taraqqiy qilgan. Chunki mazkur mintaqani tabiiy iqlimi dehqonchilik uchun birmuncha noqulay hisoblanadi.

Dengiz sohillarida yashovchi norveglar, islandiya-

liklar, gollandlar, shuningdek, Markaziy va Shimoliy dengiz aholisi – nemislar, inglizlar, grek va ispanlar hayotida baliqchilik eng muhim xo‘jalik sohasi bo‘lib, ularning asosiy tirikchilik manbaidir. Finlarda esa ko‘l va dengiz baliqchiligi bilan birga ovchilik ham rivojlangan. Hunarmandchilikning badiiy sohalari har bir Yevropa xalqida qadimdan rivojlanib kelgan va ular, asosan, shaharlarda sex tartibida joylashgan. Qishloqlarda esa dehqonchilik ehtiyojini qondiradigan kasblar rivojlangan. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan ishlab chiqarishining paydo bo‘lishi bilan yirik fabrika-zavodlar vujudga keldi. Eng qadimiy zamonlarda paydo bo‘lib hozirgacha o‘sib kelayotgan shaharlar Yevropaning o‘ziga xos madaniyatini yuzaga keltirgan va butun jahonga tarqatgan. G‘arbiy Yevropada urbanlashtirish tufayli shaharlarda hozir butun aholining beshdan uch qismi joylashgan. Belgiya, Shvetsiya va Germaniya shahar aholisi beshdan to‘rt qismini tashkil qiladi. Janubiy Yevropa mammakatlarida sanoat jihatdan kam rivojlangan Portugaliya va Gretsiyada butun aholining taxminan 40 foizi shaharlarda joylashgan. Ayrim o‘lkalarda shahar tipiga besh ming aholiga ega bo‘lgan qarorgohlar (Niderlandiya, Avstriya, Belgiya), ayrim joylarda esa (Germaniya, Fransiya va Norvegiyada) ikki mingdan va ba’zilarida hatto ikki yuztadan ortiq aholiga ega bo‘lgan qishloqlar (Daniya, Shvetsiya, Finlyandiya) kiritilgan. Yevropa qishloqlari ham qadimiy davrlarda paydo bo‘lgan. Ular o‘zining joylashishi, qurilish tiplari va shakli bilan bir-birlaridan farq qiladi. Tor, zich, to‘p bo‘lib qurilgan uylardan iborat qishloqlar o‘tmishda Janubiy Polsha, Germaniya, Ispaniya, Bolqon yarim oroli va boshqa yerlarda paydo bo‘lgan. Shexlarda, ba’zan nemis va polyaklarda ham qadimgi chorva aholisining qo‘ra tevaragida joylashganidek, markazida maydonli doirasimon qurilgan qishloq-

larni hali ham uchratish mumkin. To‘g‘ri ko‘chali qishloqlar kam bo‘lgan. Ayrim mamlakatlarda uylari yo‘l bo‘yida qurilgan qishloqlar, xutor tipidagi ayrim hovlili qarorgohlar ham uchraydi. Qishloq markazida qad ko‘targan cherkov tevaragida doirasimon shaklda tartibsiz qurilgan uylar ham saqlanib qolgan.

Qishloqlar hozir ham o‘zining shakli va tiplari bilan farqlanadi. Butun Yevropada bir hovlili yoki ikki-uch hovlili qishloqlar ko‘p uchraydi. Ayniqsa, Fransiyaning tog‘li hududlarida, Shimoliy Ispaniyada, Shimoliy Italiyada, Germaniyaning shimoli-g‘arbida, Norvegiyada va Angliyaning shimolida bir hovlili qarorgohlar ko‘p uchraydi. Markaziy Yevropa, Fransiya, Italiya va ichki Ispaniyaning tekisliklarida qadimiy jamoa hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘p hovlili qishloqlar hozirgacha saqlangan.

Agar qishloqlarni qurilish ashyolariga qarab tasniflasak, butun Yevropani taxminan ikki qismga bo‘lish mumkin: janubiy qismida uylar, asosan, toshdan, Shimoliy qismida yog‘ochdan qurilgan. Ammo Shimoliy Yevropaning ayrim mamlakatlari, masalan, Angliyada, qadimdan tosh uylar, ba’zan janubida



*Fransiya qishlog‘i*

ham (ayniqsa. o'rmonlar ko'p bo'lgan davrda) O'rta dengiz sohillaridagi mamlakatlarda yog'ochdan qurilgan qarorgohlar uchraydi. Masalan, Qadimgi Fransiyaning klassik arxitekturasida ilgari ishlatilgan yog'och ustunlari o'rnini tosh ustunlar egallagan va nihoyatda ajib san'at namunasiga aylangan. Tosh qurilishining namunalari hozirgacha O'rta dengiz sohillaridagi mamlakatlarda va Fransiyaning g'arbiy qismida uchraydi.

Qishloqlardagi zamonaviy uylar shaharlardagi kabi pishiqliq isht, beton va shunga o'xshash hozirgi qurilish materiallaridan qurilmoqda. Yashash xonalarining xo'jalik hujrasi bilan birligi yoki xo'jalik inshootlarining ayrim qurilishi bilan bir oz farq qiladi. Masalan, Germaniya, Alp tog'lari va Janubiy Fransiyada, asosan, turarjoy va xo'jalik qurilishi bir joyda joylashgan. Skandinaviya mamlakatlari, Shimoliy Fransiya, Bolqon yarim oroli mamlakatlarida xo'jalik inshootlari kishi yashaydigan uylardan ayrim holda qurilgan.

Uylarni jihozlash milliy an'analar bilan bog'liq bo'lib, umumiy buyumlardan, har xil yog'och mebellar, temir, shisha, chinni va sopol idishlar, turli bezakkalar va pardalar bilan bezaganlar. Yevropa mebeli va servislari hozirgacha jahon miqyosida namuna bo'lib kelmoqda. Yevropa xalqlarining kiyimlari eng oddiy paleolit davridagi etakchalardan to hozirgi zamonaviy kiyimlargacha bo'lgan davrni bosib o'tgan. Endi butun Yevropaga tarqalgan shahar sarpolari deyarli barcha yerdan milliy kiyimlarni siqib chiqargan, Yevropa kostyumlari o'zining noqulayligiga qaramay hatto issiq tropik mamlakatlarga ham tarqalmoqda. Xalq kiyimlarini, asosan, bayramlarda, festival yoki karnavallarda, xor va ansamblarda uchratish mumkin. Ilgari, ayniqsa, o'rta asrlarda har bir tabaqa o'zining kiyim turiga ega bo'lgan. Hozir milliylik, tabaqalinish kiyimlarda sezilmaydi.

**Taomlari.** G'arbiy Yevropa xalqlarining milliy xususiyatlari ko'proq taomlarida namoyon bo'ladi. Massalan, roman xalqlarida italyanlarda sevimli taomlardan makaron mahsulotlari juda keng tarqalgan. Ularda kunduzgi ovqatning birinchisi pomidor qaylasи yoki yog' va suzma, ba'zan qiyma go'sht solingan xo'rda. Dehqon sho'rvasi (dzuppasi)ga loviya va sabzavot solib pishiriladi va non to'g'raladi. Keyin polenta (makkajo'xori atalasi), qovurilgan sabzavot, salat, meva, suzma iste'mol qilinadi. Kunduzgi ovqatga al-batta uzum vinosi yoki sevimli ichimlik – kofe beriladi. Fransuzlarning milliy taomlari nihoyatda boy va rang-barangligi bilan mashhur. Taomlarida sabzavot va yemishli ildizli mahsulotlar, quyon va parranda go'shti, janubda kaptar go'shti muhim ahamiyatni egallaydi. An'anaviy sevimli taomlardan qaynatilgan o'simlik yog'iga pishirilgan go'sht bilan bifshteks va kartoshka, piyoqli qaynatma sho'rvaga pishloq solish keng tarqalgan. Provansda qalampirli turli baliqlardan pishirilgan sho'rva (buyabez) ancha obro' qozongan. U yerda dengiz jonivori – ulitkani sarimsoq va non bilan iste'mol qilishni yaxshi ko'radilar.



*Italyan pitsasi*

Janubda har xil zaytun va dorivorlar taomga ishlatalidi. Kuniga ikki marta taomga uzum vinosi berish shart. Umuman, fransuzlar vino ichishda va tayyorlashda jahonda birinchi o'rinni egallaydilar. Qadimgi kelt xalqlarida, masalan, Buyuk Britaniyada, Yevropa taomlaridan uncha farq qilmasa ham, o'ziga xos milliy taomlar, ayniqsa, don solib pishirilgan sho'rvalar, suli atalasi, gel va irlandiyaliklarda baliq va sutli taomlar mavjud. Ular sho'rvaga qo'y yoki mol ichak-chavog'i va qatqorinlarini solib, suli uni bilan pishirib (xaggis) qalampir, piyoz solib yeyishni yaxshi ko'rardilar. Eng sevimli ichimliklari pivo (el) va viski hisoblanadi. Janubiy xalqlar ko'proq sabzavot (karam, pomidor, sarimsoq, piyoz, sabzi, kartoshka) va mevani iste'mol qiladilar. Vengerlarda cho'chqa go'shtidan turli taomlar tayyorlanadi. Slavyan xalqlarining taomlaridan xamir ovqat mahsulotlari ko'proq o'rinni egallaydi. Dengiz va daryo sohillarida yashovchi elatlari baliqdan turli xil taomlar tayyorlaydilar.

**Ijtimoiy-maishiy turmushi, oila-nikoh munosabatlari va madaniyati.** Yevropa xalqlarining ijtimoiy hayotiga urbanizatsiya katta ta'sir o'tkazmoqda. Hozir jahonda Yevropa qit'asi eng urbanizatsiyalashgan, hatto AQSh va Yaponiyaga nisbatan ham shaharlarning zichligi yuqori turadigan mintaqadir. Mazkur jarayonning xususiyatlaridan biri eng yirik shaharlar tevaragida katta aholining to'planishidir. G'arbiy Yevropaning yarmidan ko'p aholisi 100 ming kishidan ortiq aholiga ega bo'lgan shaharlarda joylashgan, uchdan bir qismi 500 ming kishilik shaharda yashaydi. Oqibatda bir-biriga tutashib ketgan sanatoat-aglomeratsiya tipidagi shaharlar yuzaga kelgan. Bunga misol qilib Rur, London, Parij, Berlin, Rim, Amsterdam, Rotterdam kabilarni ko'rsatish mumkin. Masalan, London aglomeratsiya chegarasida 8631 mingdan ortiq kishi, Parij aglomeratsiyasida 10 mln.

620 ming kishi (2011) yashaydi. Ayrim mamlakatlarda, hatto qo'shni aglomeratsiyalar qo'shilib, yirik urbanizatsiyalashgan markaz (megalopolis)larni yaratgan. Masalan, Angliyada eng katta megalopolisga bir-biriga chatishib ketgan London, Birmengem, Manchestr, Liverpul va boshqa shaharlar yoki Germaniyada Reyn-Rur, Reyn-Mayn kiradi. Bunday megalopolislardan taxminan 50 ming kv. km. hududga va 30 – 35 mln. aholiga ega bo'ladi.

Hozirgacha professional teatr dan, keyingi yillarda paydo bo'lgan romantik, naturalistik va modernistik teatrlardan tashqari ommaviy teatrlashgan xalq tomoshalari an'analari barcha Yevropa mamlakatlari da saqlangan.

#### **44-§. Yevropaning slavyan xalqlari**

Slavyanlar Yevropadagi yashovchi etnik va til jihatdan birlashuvchi, kelib chiqish tarixiga ko'ra qadimgi xalqlar hisoblanadi. Bugungi kunda slavyanlar Janubiy va Sharqiy Yevropaning keng hududlaridan tortib Rossiyaning Uzoq Sharq mintaqasigacha yoyilgan. Shuningdek, slavyanlar G'arbiy Yevropa davlatlarida, Amerika, Kavkaz va Markaziy Osiyoda ham yashaydi. Slavyanlarning umumiy nufusi – 300 – 350 mln. kishidan iborat.

Slavyanlar G'arbiy slavyanlar (polyaklar, cheklar, slovaklar, kashublar va lujichanlar), janubiy slavyanlar (bolgarlar, serblar, xorvatlar, bosniyaliklar, makedonlar, slovenslar, chernogorlar) va Sharqiy slavyanlar (ruslar, ukrainlar va beloruslar)ga bo'linadi.

Sharqiy slavyanlar tili va madaniyati bir-biriga yaqin, rus, ukrain va belorus xalqlaridan iborat va ular joylashgan hududlar. Yer kurrasining qariyb 1/6 qismini tashkil qiladi. 2010-yilgi ma'lumotlarga binoan,

bu hududda 133 mln. ga yaqin ruslar, 45,5 mln. dan ortiq ukrainlar, 10 mln. ga yaqin beloruslar istiqomat qilishgan. Xorijiy mamlakatlarda, ayniqsa, AQShda, Kanada va Yevropada Sharqiy slavyanlarning so'nggi bir asr davomida ko'chib ketgan (emmigrant) avlodlari tarqoq holda yashashadi. Masalan, AQShda va boshqa mamlakatlarda XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida kelib joylashgan emmigrant ruslar va ularning avlodlari 1,5 mln. dan ortiq, ukrainlar (asosan, AQSh, Kanada va Argentinada) 1,6 mln. dan ko'proq.

Iraqiy jihatdan ular katta yevropoid irqiga mansub bo'lib, o'zaro bir necha tiplarga bo'linadi. Janubiy Ukraina va Qora dengiz sohillarida yashovchi aholi qora qosh va qora ko'zli atlanto-qora dengiz tipiga kiradi. Sharqiy Yevropa tekisliklarida istiqomat qiluvchi rus, ukrain va beloruslar malla rang (shaten) tipidagi irqiylarni tashkil qilsa, Shimoliy hududlarda yashovchi qismi katta yevropoid irqining belomor-baltilka tipiga oiddir. Sharqiy viloyatlarda yashovchi ruslarda hatto mongoloid belgilari ham seziladi.

Sharqiy slavyan til turkumiga kirgan rus tili ikki shevaga bo'lingan: biri shimoliy rus va ikkinchisi janubiy rus shevalaridan iborat bo'lib, faqat talafuzi bilan farqlanadi. Ukrainian va belorus tillari ham rus tiliga ancha yaqin. Uchalasi ham hind-yevropa til oilasining slavyan turkumining Sharqiy slavyan shoxobchasini tashkil qiladi.

O'zlarining kelib chiqishi, madaniyati bilan Sharqiy slavyanlar Yevropadagi g'arbiy va janubiy slavyanlar bilan ko'p umumiylilikka ega.

Arxeologik kashfiyotlarga qaraganda, slavyanlarning etnogenezi miloddan avvalgi III – II mingyilliklarda Markaziy, Shimoliy va Sharqiy Yevropada paydo bo'lgan hind-yevropa qabilalari bilan bog'liq. Slavyanlarning qadimgi ibtidoiy makonlari Markaziy

Dnepr bo‘ylari va Yuqori Dnestr, Shimolda Karpat etaklari va Visla vohasida joylashgan, Oder va Elba qirg‘oqlarida ham slavyanlar joylashgan deb ehtimol qiladilar. Dastlab Sharqiy slavyanlar Qora dengiz shimolida joylashgan «antlar» nomi bilan tilga olinadi. Keyinchalik slavyan qabilalar ancha faol ravishda tevarak-atrofga ko‘chib Yevropaning ko‘p qismiga tarqaladi. Milodning birinchi ming yilligi o‘rtalariga kelib Sharqiy slavyanlar Sharqiy Yevropada joylasha boshlaydi. Janub tomon ko‘chib, Dnepr bo‘ylab Dunay sohillarigacha katta hududni egallab olganlar. Shimoli-g‘arb tomon ketgan qismi letto-litva qabilalar bilan qo‘snilikda, Shimolda esa Ilmen va Chud ko‘llariga yetib Volga-Oka daryo o‘rtalarida o‘troq, bo‘lib joylashgan.

Milodning I ming yilligi oxiri – II ming yilligi boshlarida rus solnomalarida tilga olingan qadimgi qabila turkumlari (polyanlar, drevlyanlar, dregovichlar, radivichlar, vyatichlar, volyanlar, slaven va boshqalar)ning birikib aralashib ketishi natijasida qadimgi rus xalqi paydo bo‘ladi. Bu jarayon oqibatida butun Sharqiy slavyanlarni qadimgi Rus davlati Kiyev Rusi tevaragida jipslashtiradi. O’sha davrda Dnepr bo‘yida joylashgan rus yoki ros qabila ittifoqi Kiyev davlatining paydo bo‘lishida katta rol o‘ynagan. Bu qabilalarning nomi mahalliy Ros daryosi nomi bilan bog‘liq bo‘lib, rus xalqining nomi ham ana shundan kelib chiqqanligi ehtimol. Qadimgi rus xalqi o‘zining umumiy tili, madaniyati, yozuvi va adabiyotiga ega bo‘lgan.

XIV asrdan boshlab qadimgi rus elati zaminida uchta yaqin qarindosh, ammo mustaqil – rus, ukrain va belorus xalqlari shakllana boshladi. Keyinchalik Buyuk Moskva knyazligi atrofida jipslashgan rus xalqi markazlashgan davlatga ega bo‘lib rus adabiy tilini paydo qiladi. XVI – XVII asrlardan boshlab

Moskvaning siyosiy ta'siri kuchayib qudratlashgan Rus davlati kam aholiga ega bo'lgan shimoliy va janubiy hududlarga, Ural va Sibir tomonlarga uzlusiz ravishda bostirib kirib o'zining etnik hududini ancha kengaytiradi. Ruslar quyi Volga bo'yi va Shimoliy Kavkazni ham egallaganlar. XVIII – XIX asrlarda Rossiya chegarasi Baltika bo'yi, Qora dengiz sohillari, Kavkazorti, Markaziy Osiyo va Uzoq Sharq hududlarigacha cho'zilgan. Albatta, bosib olingan yerkarta imperiya hukmronligini ta'minlash maqsadida ruslar ko'chirib keltirilgan va ularga moddiy, ijtimoiy imtiyozlar berilgan, turmush shart-sharoitlari yaratilgan. Ular mahalliy xalqlar bilan yaqinlashib xo'jalik va madaniy jihatdan tub aholiga bir qadar ta'sir ko'rsatganlar, o'z navbatida, boy mahalliy xo'jalik tajribasi va madaniyat yutuqlarini o'zlashtirganlar.

Rossiyada bozor munosabatlarining paydo bo'lishi va rivojlanishi (XVII – XIX asr o'rtalari) jarayonida rus xalqi asta-sekin millat sifatida shakllangan.

Ruslarning ulkan hududda turli tabiiy sharoitlarida joylashganligi ularning ikki turkumga – shimoliy va janubiy rus (velikorus)larga bo'linishiga sabab bo'lgan. Ular faqat tili, ya'ni so'zida «u» yoki «o» ishlatalishi («окающие» yoki «акающие») bilan farq qiladilar. O'tmishda moddiy va ma'naviy madaniyatida ham ba'zi farqlovchi xususiyatlar mavjud bo'lgan. Asrlar davomida ruslar yuqorida qayd qilinganidek, Volga orqasiga, Ural va Sibirga asta-sekin siljib g'ayritabiiy sharoit va elatlar orasiga tushib, mahalliy madaniyatni singdirib o'ziga xos etnografik guruhlarni paydo qilganlar. Masalan, shimolga – Oq va Barenev den-gizlari sohillariga ko'chib borgan pomorlar, asosan, dengiz ovi va baliqchilik bilan shug'ullanib, o'ziga xos moddiy madaniyat va maishiy turmush yaratgan. Janubiy va sharqiy chegara hududlariga joylashtirilgan harbiy xizmatdagi ruslardan «kazak» deb nom olgan maxsus etnografik guruhlari (don kazaklari, ural

kazaklari, kuban kazaklari, sibir kazaklari, amur va ussuri kazaklari) paydo bo'lgan edi. O'rta Ural o'rmonlarida joylashgan kerjaklar; pechora pastki oqimidagi pustozerlar va ustilemlar; Kaluga – Bryansk – Orlov o'rmonlaridagi polexlar; Sibir va Shimoldagi starojil aholisi (kolimaliklar, russko-ustinliklar, markovchilar, kamchadallar) kabi mayda guruh ruslar ham o'ziga xos madaniy-maishiy xususiyatlarini saqlab tevarak-atrofidagi xalqlarning madaniy an'analarini qabul qilib olganlar.

Ayrim etnografik guruhgaga staroobryadliklar (Altaydagagi «polyaklar», Qozogistonning Buxtarma daryosi sohillaridagi «kamenshiklar», Zabaykaledagi «semeyskiy»lar)ni kiritish mumkin.

Hozirgi davrda Rossiya aholisining asosiy qismi – 95 foizini ruslar tashkil qiladi.

Ruslardan keyingi Sharqiy Yevropadagi eng katta millat ukrainlar bo'lib ular, asosan, Ukrainada joylashgan. Respublikadan tashqarida qo'shni Rossiya Federatsiyasining Voronej va Rostov viloyatlarida Krasnodar o'lkasida, Moldaviyada, Markaziy Osiyo respublikalarida ukrainlar yashaydi. AQSh, Kanada va Argentinada yashovchi ukrainlarning soni yuqorida aytganimizdek 1,6 mln. dan ortiq.

45,7 millionli (2010-yil) ukrain xalqi ruslar va beloruslar singari qonu qarindosh sharqiy slavyan qabilalaridan tashkil topgan qadimiy umumrus elatlariidan ajralib chiqqan etnosdir.

Tarixdan ma'lumki, IV – VII asrlarda vujudga kelgan O'rta Dnepr bo'ylaridagi tarqoq sharqiy slavyan qabilalari (vizantiyalik mualliflar ularni venedlar, antlar va sklavinlar deb ataganlar) XIX asr o'rtalarida qabila ittifoqlari va knyazliklarga birlashib, Kiyev Rusini vujudga keltirdilar. 1239 – 1240 - yillarda bu davlat mo'g'ullar tomonidan bosib olinib, Oltin O'rda mulkiga aylantirildi. Rusning boshqa qismidan ajralib qolgan Ukraina yerlari XIII – XIV asrlarda polyak,

litva, venger va boshqa chet el hukmdorlari qo'l ostida bo'ldi. Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlash kerakki, «Ukraina» nomi dastlab janubiy-g'arbdagi ayrim rus yerlariga taalluqli bo'lib, «kray» – chekka yoki chegara ma'nosini anglatgan. XVI asr oxiri – XVII asr boshlarida u barcha Ukraina yerlariga tarqalib, ukrain xalqining etnik nomiga aylangan. XV asrda Ukrainianing janubiy qismi va Qrim yarim orolida Qrim xonligi tashkil topdi.

1569-yil Ukraina hududining aksari qismi birlashgan litvapolyak davlati – Rech Pospalita tarkibiga kiritildi. 1648-yil B. Xmelnitskiy boshchiligidida ukrain xalqining ijtimoiy va diniy-milliy istibdodga qarshi ozodlik kurashi boshlandi va u milliy inqilobga aylanib ketdi. Ukraina getmanligi mustaqil davlatga aylandi. 1654-yil murakkab tashqi siyosiy va harbiy vaziyatda B. Xmelnitskiy Moskva bilan harbiy ittifoq tuzdi, unda mustaqil getmanlik hokimiyatini saqlab qolish ko'zda tutildi. Shu tariqa u Ukraina getmanligini tashqi siyosiy jihatdan tan olinishiga erishdi. XVIII asrning 2-yarmida o'ng sohil Ukraina Rossiya imperiyasi tarkibiga kirdi. Polsha hududi 3 marta (1772, 1793 va 1795) taqsimlanganidan so'ng ukrain yerlari 2 imperiya – Rossiya va Avstriya-Vengriya tarkibiga o'tib qoldi.

XIX asrning 20 – 30-yillarida Ukrainada milliy uyg'onish jarayoni boshlandi. 1921-yil Ukraina SSR e'lon qilindi va u 1922-yil 30-dekabrda SSSR tarkibiga kirdi, G'arbiy Ukraina yerlari Polsha tarkibiga kirdi. Avvaliga, XX asrning 20-yillarida sovet Ukrainasiga ukrainlashtirish siyosati o'tkazildi. Biroq 20-yillar oxiri – 30-yillar boshlarida bu siyosat to'xtatildi. 1991-yil 24-avgust kuni Ukraina mustaqilligi e'lon qilindi. Milliy bayrami – 24 avgust – Mustaqillik kuni hisoblanadi.

Ukrain va belorus aholisi ancha zich hududda joyalashgan bo'lib, ular ruslardek mayda etnografik turkumlarga bo'linmagan. Sharqiy tog'li hududlarda yashovchi aholi – lemkkalar, gutsullar va verxovinlar, Polesdagi pole shuklar ba'zi xususiyatlari bilan ajralib turadi, xolos. Shunday qilib, XVI asrga kelib ukrain xalqining shakllanishi tugallanadi. XVII – XVIII asrlarda Ukraina Rossiya tarkibiga qo'shilishi natijasida milliy shakllanish kuchayadi.

Beloruslar ham, asosan, hozirgi hududida joyalashgan bo'lib, ozgina qismi qo'shni Rossiya, Qozog'iston va Boltiqbo'yi respublikalarida yashashadi. Beloruslarning etnik negizini sharqiy slavyan qabilalari bilan birga qisman aralashib ketgan litvalik etnik elementlar tashkil qiladi. VX asrlarda mazkur qabilalar boshqa sharqiy slavyanlar bilan birga Qadimiy Rus davlatiga kirib qadimiy rus xalqining tarkibiy qismini tashkil qilgan. Bu davlat inqirozga uchragandan keyin belorus yerlari Buyuk Litva knyazligiga qo'shildi, 1569-yilda esa Rech Pospalita ixtiyoriga o'tadi. Shet yei bosqinchilariga qarshi kurash jarayonida belorus xalqi shakllanib, XVI asrda etnik birlik yuzaga keladi. XVIII asrda belorus yerlari Rossiya tarkibiga kirdi.

Bugungi kunda 10 millionli belorus xalqi ichida ayrim guruhlar (pole shuklar va litvinlar) ham saqlangan bo'lib, ular ba'zi maishiy turmush va madaniy xususiyatlari bilan o'zaro ajralib turadi.

**Xo'jaligi.** Albatta, sharqiy slavyan xalqlarining kelib chiqishi, tili va joylanishidagi umumiyliliklar ularning xo'jaligi, maishiy turmushi va madaniyatida ham o'z aksini topgan. Rus, ukrain va beloruslar hayotida umumiy belgilarning shakllanishida shubhasiz umumiy geografik sharoit ham muhim ahamiyatga ega. Ular o'zlarining qadimgi ajdodlarining dehqonchilik madaniyatini meros qilib olgan Bu yer-

da dehqonchilik miloddan avvalgi IV mingyilliklarda paydo bo'lib butun viloyatlarga, Shimoliy Tayga o'rmonlariga, janubiy dashtga tarqalgan. Oddiy bir tishli omochlardan to ikki tishli omochga va murakkab g'ildirakli pluggacha ega bo'lganlar. Donni o'roq chalg'i bilan o'rganlar. Ular, asosan, javdar, suli, arpa, bug'doy, sholg'om, dukkakli ekinlar, keyinroq (XVIII asrlardan boshlab) makka, pomidor, kungaboqar va kartoshka ekkанlar. Texnika ekinlaridan zig'irpoya va kanop ekilgan. Sharqiy slavyanlarda chorvachilik dehqonchilik bilan bog'liq bo'lgan. Chorva mollaridan qoramol, qo'y-echki, cho'chqa, ot va parranda saqlangan. Moldan ishchi kuch sifatida foydalanganlar. Ukrainianada, ayniqsa, Karpat hududlarida qo'ychilik asosiy xo'jalik sohasi hisoblangan. Daryo va dengiz sohillarida yashovchi aholi baliqchilik, shimolda va Sibirda ovchilik, o'rmonlarda esa asalarichilik bilan ham shug'ullanganlar, asta-sekin Sharqiy Yevropa aholisida o'ziga xos kompleks xo'jalik-dehqonchilik, chorvachilik bilan ovchilik, terimchilik va baliqchilik paydo bo'lgan.

Dehqonchilikda tuproq va iqlim sharoitiga qarab ikki xil tipni ajratish mumkin. Dasht va o'rmonli dasht zonasida dam berilgan partav yerli xo'jaliklar keng tarqalgan. O'rmon joylarda boshqacha tipdagi xo'jaliklar yuzaga kelgan. Ular ham ochiq partav yerlardan, ham o'rmon ichidagi daraxtlarni kuydirib ochilgan yerlardan foydalanganlar. Ikki-uch yil foydalangandan so'ng bu yerlar ozib kuch-quvvati qolmagach, yangi yerlar ochilgan. XI – XII asrlardan boshlab uch paykalli almashib ekish joriy qilingan.

XIX asrda ovchilik va baliqchilik dastlabki ahamiyatini yo'qotib yordamchi xo'jalik yoki havaskorlik sohasiga aylangan. Ammo ovbop hayvonlar va baliqlar ko'p bo'lgan joylarda, katta ko'l va qalin o'rmonlarda bu soha muhim o'rinni egallab kelgan.

Bozor munosabatlari taraqqiy qilishi bilan natural xo'jalik yemirilib, mayda hunarmandchilik inqirozga uchraydi. Industrial xo'jalikning paydo bo'lishi rus, ukrain va belorus xalqlarining hayotida, ularning turmush tarzida jiddiy o'zgarishlarga olib keldi.

**Turarjoylari.** Aholining joylashishi, qishloq tiplari va uylari, ularning xususiyatlari, geografik sharoiti, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy omillar bilan belgila-nadi. Hozirgi sharqiy slavyan xalqlarining joylashishi shahar va qishloq tipida namoyon bo'lib, ular orasi-da tafovut kun sayin kamayib bormoqda. Qishloqlar yiriklashib, ularning shakli, obodonlashishi shaharga yaqinlashgan. Ammo ko'p qishloqlarning arxitekturasi, qurilishi va tipologiyasida an'anaviy belgilar ham saqlanib qolgan. Rossiya va Ukrainianing janubiy viloyatlari juda katta, bir necha ming hovlili qishloqlar daryo bo'ylarida joylashgan, markaziy hududlar da o'rtacharoq, 10 – 15 dan 100 – 150 hovliga yaqin, shimolda esa kichik, bir necha hovlili qishloqlar mavjud. Dasht hududlarda aholi uzunasiga yo'l bo'ylab, ko'cha mavze tipida yoki chalkash ko'chalardan iborat to'p uyli qishloqlarda istiqomat qilgan. Bunday an'anaviy qishloqlar qatorida yoki ornida yangicha qurilish inshootlari qad ko'tarishi urushdan keyingi asosiy yo'nalish bo'ldi.

Janubdagagi uylar an'anaviy usulda somon, yog'och, loydan qurilib oqlangan. Odatda, ular ikki-uch xonali bo'lib, hovlida xo'jalik inshootlari tiklangan. Markaziy rus hududlarida yoki Belorus o'rmonlarida asosiy qurilish ashyosi yog'och bo'lganligi tufayli ko'proq pastroq yog'och uylar tiklangan, xo'jalik inshootlari uyga yaqin qurilgan. Shimoldagi uylarning xususiyati, aksincha, turarjoy xonalari va xo'jalik hujralari hammasi bir joyda joylashgan katta dabdabali hov-lilardan iborat. Uylarning jihozlanishi deyarli bir tipda bo'lgan. Albatta zamonaviy texnikaga tayangan

xo'jaliklarning paydo bo'lishi hamma yerda an'anaviy qishloq va uy qurilishiga jiddiy o'zgarishlar kiritgan edi.

**Kiyim-kechaklari.** Xalqlarning etnografik xususiyatlari ko'proq milliy kiyimlarida namoyon bo'ldi. Yaqin davrlargacha sharqiy slavyanlarning xalq kiyimlari uyda to'qilib tikilgan. O'zlari zig'irpoya va kanop o'stirib tolasidan ip yigirganlar, jun va teridan turli kiyimlar tikanlar. Ayollar oila uchun zarur bo'lgan kiyimlarga o'zlari ip yigirib mato to'qiganlar va kiyim tikanlar. Ustki kiyim, odatda, umumiyoq ko'rinishga ega bo'lib, erkak va ayollarniki uncha farqlanmagan. Masalan, choponga o'xshash kaftan, jun chakmon, keng tikilgan armak va po'stin. Qo'y terisidan po'stin (kojux yoki shuba) tikib kiyilgan. Ayollarning ko'ylak va ichki kiyimlari turli xilda. Kiyim tikishda yomon ko'z, yovuz kuchlardan saqlaydigan turli irimlarga rioya qilganlar. Bayram, to'y va motam kiyimlari har xil bo'lgan.



*Milliy kiyimdagagi rus qizlari*

Kiyimlarida rus, ukrain va beloruslarning o'ziga xos umumiylig bilan bir qatorda o'zaro farqlanuvchi xususiyatlari ham mavjud bo'lgan. Erkak va ayollarning ko'ylagidagi asosiy farq erkaklarniki tizzagacha, ayollarda esa bir oz uzunroq bo'lganidadir. Ayol kiyimining bichimi har xil. Ammo milliy va makhalliy sarpolarning xususiyatlari faqat to'y marosimlari, badiiy havaskorlar to'garagi konsertlari va katta bayramlarda namoyish qilinadi. Aslida hozir butun sharqiy slavyanlarda milliy an'anaviy sarpo o'rniiga barcha elatlarda Yevropa uslubidagi shahar kiyimi tarqalgan.

Shuni alohida qayd qilish lozimki, ilgari kiyimlarining turi qadimiy etnomadaniy guruhlarning joylanishiga to'g'ri kelgan. Masalan, katak-katak yubkasi-mon kiyim hind-yevropa guruhlari joyalashgan hududda tarqalgan. Shunga o'xshash olabayroq yo'l-yo'l yubkalar Shimoliy hududlarda yashaydigan fin-ugor tilidagi milliy guruhlarga xosdir. Mazkur kiyimlar, odatda, jun matodan tikilib, rang-barang kashtalangan va bezatilgan.

Etnografik jihatdan ayollarning bosh kiyimlari diqqatga sazovor. Masalan, qizlar bilan erga chiqqan ayollarning bosh kiyimi va soch o'rami jiddiy farqlangan. Qizlar bir o'rim soch qoldirgan, nikoh vaqtida kiyiladigan bosh kiyim eng muhim va tantanali odatlar bilan bog'liq bo'lgan. Janubiy muzofotlardagi rus, ukrain va belorus ayollariga boshiga gulchambarlar taqish hamda gulchambar shaklda ro'mol o'rash ham odat bo'lgan. Ayollar ro'mol o'rasha yoki bosh kiyimi kiysa sochini butunlay qoplashi zarur bo'lgan. Hozir esa turli-tuman soch turmag'i juda keng tarqalgan.

Ayollar kiyimidagi bezaklar ham diqqatga sazovordir. Turli naqshlar bilan kashtalangan yoki tikilgan sarpolar muayyan fikrni ifodalagan. Hozirgacha yetib kelgan ayrim naqsh obrazlarida eng qadimiy e'tiqod-

lar bilan bog'liq personajlar yoki sehrgarlik belgilari tasvirlangan, ibridoiy irimlar va odatlar aks ettirilgan.

Rus, ukrain va belorus xalqlarining ma'naviy hayoti uzoq davr hukmron pravoslav dini bilan belgilangan. Ular orasida turli mazhablar paydo bo'lgan (staroobryadchiklar, pyatidesyatniklar, duxoborlar va hokazo). Dehqon ahli orasida nasroniy dini yuzaki qabul qilingan, asli har xil sehrgarlik tasavvurlari, muqaddas joylarga sig'inish, qadimgi slavyan xudolariga, Ilyos payg'ambar, Georgiy, Vlasiy kabi avliyolarga ibodat qilish juda keng tarqalgan. Tabiat fasli bilan bog'liq turli diniy marosimlar o'tkazilgan (maslenitsa, sochelmk, troitsa, Ivan Kupala bayrami va hokazo). Dehqonlarning tasavvurida butun olam har xil alvasti va devlar, suv parilari, arvoхlar va ajinalar bilan to'la. Ular ayrim hayvonlar (ayiq, qarg'a, tovuq va h.k.) bilan bog'liq tasavvurlarga ega bo'lganlar. Ibtidoiy diniy e'tiqod va marosimlarning eng ko'p tarqalgan belgilarini qadimiylar xudolar obrazini pravoslav cherkovi muqaddaslashtirishga majbur bo'lgan. Masalan, qadimiylar xudolaridan Avliyo Nikolay endi hunarmand va savdogarlarning homiysi, Avliyo Georgiy Pobedonoses mol va cho'ponlarning homiysi yoki Paraskeva Avliyo Pyatnitsa ayollar va ayol kasbu kori homiysi deb tanilgan. Ibtidoiy tasavvurlar folkorda ham saqlangan (ertaklarda), oilaviy-maishiy urf-odatlarda ham namoyon bo'lgan.

Amaliy san'atda ham ajoyib namunalar yaratilgan. Bayramlarda, boshqa tantanalarda kiyiladigan kiyimlar juda boy va rang-barang naqshlar bilan kashtalangan. Ukrain uylarining devorlari go'zal naqshlar bilan bezatilgan bo'lsa, ruslarning yog'och uylari nozik o'ymakorlik san'ati bilan ajralib turgan. Uy-ro'zg'or buyumlari, sopol idishlar ham turli naqshlar bilan bezatilgan. XVIII – XIX asrlarda

ayrim viloyatlarda jahonga mashhur badiiy hunarmandchilik markazlari paydo bo'lgan (Polex, Xoxlama, Fedoskino).

## **45-§. Janubiy va Shimoliy Yevropa xalqlari**

Boltiqbo'yi, Shimoliy viloyatlarning bir qismi, O'rta Povolje, Prikame va janubi-g'arbiy hududlarda o'ziga xos moddiy va ma'naviy madaniyat yaratgan turli xalq va elatlar yashagan. Ushbu xalqlar shariq slavyanlar bilan qo'shni bo'lganligi tufayli o'zaro ta'sir doirasida turganlar va ko'p tomondan umumiy belgilarga egadirlar. Antropologik jihatdan noslavyan xalqlar, asosan, katta yevropoid irqining turli tiplariga oid. Ammo Volgabo'yi xalqlari mariylar, udmurtlar, chuvashlar, tatar va, ayniqsa, boshqirdlar orasida, qisman shimoldagi loparlarda mongoloid belgilari seziladi.

Til jihatdan noslavyan xalqlar bir necha turkumga bo'linadi. Eng ko'pi finno-ugor turkumiga tegishli fin tilida gapi-radigan estonlar, korellar, livlar, vepslar, saamlar, udmurtlar, mordvalar, komiziryan va komi-permyaklar. Litva, latish xalqlarining tillari hind-yevropa til oilasining maxsus lettolitva shoxobchasiga, moldovanlar esa roman turkumiga tegishli. Bu yerda turkiy tilda gapiradigan xalqlar chuvashlar, tatarlar, boshqirdlar, gagauz va karaimlar yashaydi. Qalmiqlar esa oltoy til oilasining mo'g'ul shoxobchasiغا kiradi.

Mazkur xalq va elatlarning etnogenezi va etnik tarixi ham turlicha. Shuning uchun tarixiy-madaniy jihatdan ular bir necha jabhalarga bo'linib o'rganiladi. Shularning ichida tarixiy, etnik va madaniy jihatdan ancha umumiy belgilarga ega bo'lgan Boltiqbo'yi xalqlari ajralib turadi.

Boltiqbo'yida, asosan, uch xalq yashaydi: ma'lumotlarga ko'ra, litvaliklar (o'z nomi «listuvyan») 4,2 mln. dan ortiq kishi, latishlar («latvieshi») 1,4 mln. dan ko'proq va estonlar (o'z nomi «eestlased») 1 mln. Litvaliklar o'z respublikasidan tashqari qo'shni Latviya, Belorussiya va Rossiyaning Shimoli-g'arbiy qismida, AQSh, Kanada, Urugvay, Argentina, Avstraliya va Polshada (jami 320 mingga yaqin emmigrant) yashaydi. Latishlar ham qisman qo'shni hududlarda (Estoniya, Litva, Rossiya va Belorussiyada) joylashgan. 60 mingga yaqin latishlar AQSh, Kanada va Avstraliyada yashaydi. Estonlar esa, asosan, o'z respublikasida va ozgina qismi tashqarida (Leningrad, Pskov va Omsk viloyatlari, Latviya, Ukraina, Abxaziya) joylashgan.

Boltiqbo'yiga odam eng qadimiy davrlardan kelib joylashgan. Bronza davridayoq (miloddan avvalgi II mingyilliklar) hozirgi Latviya hududiga janubdan qadimgi ajdodlari letgollar, sellar, zemgallar va kureyshlar kelib tarixiy jihatdan hali aniqlanmagan mahalliy elatlar bilan aralashib ketgan. Latish xalqining shakllanishi XII – XIII asr boshlaridagi nemis salbchilari istilosи tufayli to'xtab qolgan va faqat XVI asr boshlariga yetib tugallangan. XIX asr o'rtalarida latish millati shakllanadi. Qadimiy etnik guruhlaridan latgallar bir oz madaniy-maishiy xususiyatlari ni saqlab qolganlar. Latishlar bilan to'liq aralashib ketgan mayda etnik guruh – livlar kundalik maishiy hayotida eski tillaridan ham foydalanadilar.

Litva xalqining qadimiy ajdodlari ham Nyamunas va Daugava daryolari havzasiga miloddan avvalgi II ming yillikning boshlarida kirib kelgan turli boltiq qabilalaridan iborat bo'lgan. Asli litva etnosi XI – XII asrlarda shakllana boshlagan va uning shakllanishi da mazkur qabilalardan tashqari litva yoki aukshayt elati, jmud yoki jemayti, skalva, nadrava, qisman yat-

vyaglar, kursheylar va zemgallar ishtirok etgan. Etnik konsolidatsiyaning paydo bo'lishiga XIII asrning birinchi yarmida tuzilgan Litva davlati va Tevton ordeni bilan olib borilgan ko'p asrlik kurash muhim rol o'ynagan edi. 1795 va 1815-yillar Litva yerlari ning asosiy qismini Rossiya imperiyasi o'z tarkibiga qo'shib olgan. Litva millati ham latishlar singari XIX asr o'rtalarida shakllangan.

Latvianing shimolida qadimiy davrlardan eston xalqi-ning ajdodlaridan rus solvnomalarida tilga olingan chud nomli fin tilida gapiradigan qabilalar yashagan. Ular hozirgi Estoniya hududida miloddan avvalgi III ming yillikda paydo bo'lganlar, keyinroq boltiq, skandinav qabilalari, 1 ming yillik oxirlaridan sharqiy slavyanlar bilan aralashib ketgan va eston xalqining negizini tashkil qilgan.

Eston xalqining etnik jarayonida ishtirok etgan



*Estonlarning  
milliy kiyimi*

setu yoki setikez nomli etnografik guruh hozirgacha ajralib turadi. XIII asrdagi nemis istilochilariga qarshi ozodlik kurashi milliy jipslashish jarayonini kuchaytiradi. 1750-yilgi Shimoliy urushdan keyin Estoniya Rossiya tomonidan bosib olingan va o'sha davrdan harakatga kelgan ozdlik kurashlarida tobilanib eston millati shakllana boshlagan. Boltiqbo'yi xalqlari maishiy turmushi, moddiy va ma'naviy madaniyatining shakllanishida, bir

tomondan, sharqiy slavyan xalqlarining, ikkinchi tomondan, g'arbdagi qo'shnilar nemis, shved kabi german xalqlarining ta'siri o'tgan. Ayniqsa, sharqiy slavyan xalqlari bilan uzoq davrlar davomida Boltiqbo'yi xalqlari yaqin munosabatda bo'lganligi tufayli o'zaro madaniy ta'sirlar kuchli bo'lgan. Keyinchalik Litvaning Polsha tasarrufiga o'tishi natijasida bu yerda polyaklarning ta'siri kuchayadi va katolik dini tarqaladi.

Sanoatning gurkirab o'sishi shahar aholisining ko'payishiga olib keldi. Boltiqbo'yi shaharlarining ko'pchiligi ko'p asrlik tarixga ega. O'rta asrdarda, ayniqsa, Latviya va Estoniyada shaharlarda, asosan, nemislar yashagan va ularning qo'lida hunarmandlik ham savdo markazlashgan. Bozor iqtisodiyotining yangi shakllari paydo bo'lishi bilan shaharlar mahalliy tub aholi hisobiga o'sa boshlaydi. Hozir shahar aholisi qishloq nisbatan ancha ko'p.

Boltiqbo'yi mamlakatlaridagi qishloqlar qo'shni slavyanlarnikiga o'xshash zich uylar yoki xutor (qo'rg'on) tipidagi hovlilar turkumidan iborat. Qo'rg'onlar, ayniqsa, Estonia va Latviyada nemislarning ta'sirida tarqoq holda qurilgan. Uylari, asosan, yog'ochdan ikki xonalik va dahlizlik qilib qurilgan. Estonia va Shimoliy Latviyada o'ziga xos somon tomli va pechkali baland yog'och uylar – bostirma keng tarqalgan. Uning xususiyati uyga qo'shilgan maxsus somon quritadigan va xo'jalik xonalari kompleksining mavjudligidir. Mulkiy munosabatlarning paydo bo'lishi bilan davlatmand oilalar shahar tipidagi g'ishtli uylar qura boshlagan.

Boltiqbo'yi xalqlarining an'anaviy milliy kiyimlari feodalizm davrida paydo bo'lgan. Ular faqat uyda to'qilgan matodan tikilgan. Erkaklar kiyiminining shakllanishida qo'shni nemislarning shahar madaniyati zo'r ta'sir o'tkazgan Rang-barang va xilma-xil

ayol kiyimlari, ayniqsa, chiroyli bo'lgan. Ayollarning milliy kiyimlari, asosan, turli yubka, kofta, ro'mol, etakcha va bezaklardan iborat. Butun Boltiqbo'yi aholisida bir necha xildagi an'anaviy kiyimlar mavjud bo'lgan.

Butun xalqning ma'naviy madaniyatiga nasroniy dinining ham ta'siri o'tgan. Boltiqbo'yi aholisi uchta diniy yo'naliishga itoat qilgan. Katoliklar ilgari Polshada uzoq vaqt hukmronlik qilgan hududlarda, Litva hamda Sharqiy Latviyadagi latgallarda tarqalgan. Lyuteranlik XVI asrdan boshlab nemis ruhoniylari tomonidan estonlar va g'arbiy latishlar orasida zo'rlik bilan o'rnatilgan. Rus viloyatlariga yaqin joylashgan aholi pravoslav diniga o'tgan.

Aholining aksariyat qismi milliy-madaniy an'analarining ko'p jihatlarini saqlab, rivojlantirib kelmoqda. Ayniqsa, hozirgacha yetib kelgan amaliy san'at namunalarini alohida qayd etish lozim. Professional kasb bilan chatishib ketgan, masalan, yog'och haykaltaroshligi, qahrabo mahsulotlari ishlab chiqarish, badiiy to'qimachilik va kashtachilik, teri va sopol buyumlar ishlab chiqarish kabi amaliy xalq ijodi yillar davomida yana ham ravnaq topdi. XIX asrda paydo bo'lgan ashula bayramlari, an'anaviy tusga kiran xor san'ati hozirgi vaqtda eng ommaviy va keng tarqalgan xalq ijodiyotiga aylandi.

Rossiyaning Shimoliy Yevropa qismida ruslardan tashqari karellar, vepsalar, saamlar (lopar)lar, komi-ziryanlar, komi-permyaklar va neneslar yashaydi. Shularning ichida antropologik jihatdan saam (lopar)lar aralash mongoloid va sof mongoloid irqiga xos, qolgan barcha etnoslar yevropoid belgilari bilan ajralib turadi. Neneslar esa sof katta yevropoid irqining vakillari.

Kareliya Respublikasi va Kaliningrad viloyatlarida 138 mingdan ortiq karellar (o'z nomi naryala) yashay-

di. Rus solnomalarida korela nomi bilan tilga olin-gan karellarning ajdodlari IX asrda Ladoga ko'lining g'arbiy sohillarida joylashgan. Ular XI – XII asrlar-da hozirgi Kareliyaning g'arbiy qismini egallab keyin shimoliy va sharqiy tomonga tarqalgan va mahalliy vepsalar bilan aralashib ketgan. XII asrda karellar rus davlatiga qo'shib ruslarning ta'siriga o'tgan. Karel xalqining shakllanishi XV asrdan boshlanadi.

Fin til turkumiga kirgan udmurt, komi, mordva va mariylarning qadimgi ajdodlari miloddan avvalgi III – II mingyilliklarda Sharqdan Volga-Kama sohillariga kelib joylashgan. Ularning bir qismi (eston-litva va karelo-finlar) miloddan avvalgi II – I mingyilliklarda Boltiqbo'yi va Kareliya tomonga o'tib o'nashgan. Milodning boshlariga kelib mazkur xalqlar etnik gruh sifatida shakllana boshlaydi. Vyatka va Kama daryolari oralig'ida joylashgan qabilalar udmurt xalqiga asos bo'lgan. Miloddan avvalgi I mingyillikda yuqori Kama va Vichegda vohasidagi finno-ugor qabilalardan komi-ziryan etnosi tashkil topadi. O'sha davrlardayoq Pechora va Vichegda vohasidagi mahalliy qabilalar bilan aralashib ketgan perm qabila birik-masi asosida komi-permyaklari paydo bo'lgan.

Shimoliy xalqlar ilk davrlardan (loparlardan tash-qari) dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullana boshlaganlar. Ularning xo'jaligida o'rmon ovchiligi, baliqchilik, asalarichilik muhim rol o'ynagan. Ijma daryosi bo'yidagi komiziryanlar neneslarning ta'siri-da qisman bug'uchilik bilan ham shug'ullanganlar. Yangi mulk munosabatlarining paydo bo'lishi har xil yollanma kasblarni yuzaga keltirgan edi.

Loparlarning xo'jaligi majmuiy xarakterda bo'lib bug'uchilik, baliqchilik va ovchilik birga qo'shib olib borilgan. Ilgari yil bo'yi bir necha marta oila bo'lib ko'chib yurgan loparlar o'tgan asr oxirlaridan boshlab faqat erkaklar ko'chmanchilik qilib, ayollar boshqa oila a'zolari bilan birga qishloqlarda qolgan.

Karel, veps, komi-ziryan va komi-permyaklarning moddiy madaniyatida umumiy belgilar saqlangan. Ularning uylari tarqoq uya shaklida bosh qishloq tevaragida joylashgan. Yog‘ochdan tiklangan uylar xo‘jalik hujralari bilan birga qurilgan. An’anaviy kiyimlar ham umumiy xarakterda: uzun yengli ko‘ylak, sarafan, boshida do‘ppi va qalpoq, ayollarda har xil ro‘mol va shol ro‘mollar bo‘lgan. Umuman kiyimlari qo‘shti ruslarnikiga o‘xshagan.

### **Seminar mashg‘ulotlari rejasi:**

1. Yevropa aholisining tarixiy-etnologik tavsifi.
2. G‘arbiy Yevropaning roman-german va anglo-saks xalqlari.
3. Yevropadagi slavyan xalqlari.
4. Janubiy va Shimoliy Yevropa xalqlari.

### **Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Yevropa nomi qanday paydo bo‘lgan?
2. Yevropa xalqlarini etnik tarixi haqida ma’lumot bering?
3. Nemis va ingliz xalqlarining shakllanish jarayoni haqida ma’lumot bering?
4. Yevropa xalqlaring dunyo sivilizatsiyasiga qo‘shtan eng muhim hissasi borasida gapirib bering?

### **Adabiyotlar:**

1. Громыко М. М., Буганов А. В. О воззрениях русского народа. – М., 2000.
2. Зорин Н. В. Русский свадебный ритуал. – М., 2001.
3. Jabborov I. Jahon xalqlari etnologiyasi.– T., 2005.

4. Европа на рубеже третьего тысячелетия. Народы и государства. – М., 2000.
5. Рожнова П. К. Русский народный календарь. – М., 2001.
6. Русские. – М., 1999. (Сер. Народы и культуры. )
7. Русский Север. Этническая история и народная культура XII – XX веков. – М., 2001.
8. Русские: семейный и общественный быт. – М., 1989.
9. Украинцы. – М., 2000 (Сер. Народы и культуры).
10. Этнические процессы в странах зарубежной Европы. – М., 1970.

## **DUNYO MAMILAKATLARI VA ULARNING NUFUZI**

### **AVSTRALIYA VA OKEANIYA**

<b>Mamlakatlar</b>	<b>Hududi (km<sup>2</sup>)</b>	<b>Aholisi (2013-yil)</b>	<b>Poytaxti</b>
Avstraliya	7 692 024	22 262 501	Kanberra
Vanuatu	12 190	253 208	Port-Vila
Kiribati	812	103 058	Janubiy Tarava
Marshall orollari	181	56 429	Majuro
Mikroneziya	702	106 104	Palikir
Hauru	213	9378	Yarin
Yangi Zelandiya	268 680	4 242 048	Vellington
Palau	458	21 000	Ngerulmud
Papua – Yangi Gvineya	462 840	7334 658	Port-Morsbi
Samoa	2832	188 540	Apia
Solomon orollari	28 450	478 000	Xoniaro
Tonga	748	120 898	Nukualofa
Tuvalu	26	10 544	Funafuti
Fiji	18 274	849 000	Suva

### **AMERIKA. SHIMOLIY AMERIKA**

<b>Mamlakatlar</b>	<b>Hududi (km<sup>2</sup>)</b>	<b>Aholisi (2013-yil)</b>	<b>Poytaxti</b>
Antigua va Barbuda	442	88 000	Sent Jons
Bagama	13 943	342 000	Nassau
Barbados	430	256 000	Brijtaun
Beliz	22 966	307 000	Belmopan
Gaiti	27 750	10 033 000	Port-o-Prens
Gvatemala	108 889	14 027 000	Gvatemala
Gonduras	112 492	7 466 000	Tegusigalpa

1	2	3	4
Grenada	344	104 000	Sent-Jorges
Dominika	751	67 000	Rozo
Dominikan Respublikasi	48 671	10 090 000	Santo- Domingo
Kanada	9 984 670	33 573 000	Ottava
Kosta-Rika	51 100	4 579 000	San-Xose
Kuba	109 886	11 204 000	Gavana
Meksika	1 964 375	112 322 757	Mexiko
Nikaragua	130 373	5 743 000	Managua
Panama	75 417	3 454 000	Panama
Salvador	21 041	6 163 000	San-Salvador
Sent-Lyusiya	539	172 000	Kastri
Sent-Vinsent va Grenadini	389	109 000	Kingstaun
Sent-Kits va Nevis	261	52 000	Baster
AQSh	9 629 091	311 630 000	Vashington
Trinidad va Tobago	5130	1 339 000	Port-of-Speyn
Yamayka	10 991	2 719 000	Kingston

## JANUBIY AMERIKA

Mamlakatlar	Hududi (km <sup>2</sup> )	Aholisi (2008-yil)	Poytaxti
Argentina	2 766 890	40 677 348	Buenos- Ayryes
Boliviya	1 098 580	8 857 870	La-Pas
Braziliya	8 514 877	191 908 598	Braziliya
Venesuela	912 050	26 414 815	Karakas
Gayana	214 970	770 794	Jorshtaun
Kolumbiya	1 138 910	45 013 674	Bogota
Paragvay	406 750	6 347 884	Asunson
Peru	1285220	27 925 628	Lima

1	2	3	4
Surinam	163 270	438 144	Paramaribo
Urugvay	176 220	3 477 778	Montevideo
Folkland orollari	12 173	2 967	Stenli
Gviana(Fransiya)	91 000	209 000	Kayenna
Chili	756 950	16 454 143	Santyago
Ekvador	283 560	13 927 650	Kito

## MARKAZIY AMERIKA

Mamlakatlar	Hududi (km <sup>2</sup> )	Aholisi (2013-yil)	Poytaxti
Beliz	2 2966	307 899	Belmopan
Gvatemala	108 890	14 373 472	Gvatemala
Gonduras	112 090	8 448 465	Tegusigalpa
Kosta-Rika	51 100	4 253 897	San-Xose
Nikaragua	129 424	6 017 084	Managu
Panama	75 517	3 661 868	Panama
Salvador	21 040	6 900 000	San-Salvador

## AFRIKA

Mamlakatlar	Hududi (km <sup>2</sup> )	Aholisi (2012-yil)	Poytaxti
Jazoir	2 381 740	35 200 000	Jazoir
Misr	1 001 450	80 898 000	Qohira
G'arbiy Saxara	252 120	267 405	Eloyun
Liviya	1 759 540	6 365 563	Tripoli
Mavritaniya	1 030 700	3 086 000	Nuakshot

1	2	3	4
Mali	1 240 000	13 218 000	Bamako
Marokko	446 550	32 382 000	Rabot
Niger	1 267 000	13 957 000	Niamey
Sudan	1 886 100	30 894 000	Xartum
Tunis	163 610	10 383 000	Tunis
Chad	1 284 000	11 100 000	Njamena
Kanar orollari (Ispaniya)	7 492 360	2 103 992	Las-Palmasde- Gran-Kanariya, Santa-Krus-de- Tenerife
Madeyra (Portugaliya )	828	247 161	Funshal
Benin	112 620	8 935 000	Kotonu, Porto- Novo
Burkina-Faso	274 200	15 746 232	Uagadugu
Gambiya	10 380	1 700 000	Banjul
Gana	238 540	24 233 431	Akkra
Gvineya	245 857	9 690 222	Konakri
Gvineya-Bisau	36 120	1 442 029	Bisau
Kabo-Verde	4 033	542 000	Praya
Kot-d'Ivuar	322 460	21 075 000	Yamusukro
Liberiya	111 370	3 489 072	Monroviya
Nigeriya	923 768	152 217 341	Obudja
Senegal	196 722	14 100 000	Dakar
Serra-Leone	71 740	5 363 669	Fritaun
Togo	56 785	6 300 000	Lome
Gabon	267 667	1 497 525	Librevil
Kamerun	475 440	17 795 000	Yaunde
Kongo Demokratik Respublikasi	2 345 410	67 758 000	Kinshasa
Kongo Respublikasi	342 000	3 999 000	Brazzavil

1	2	3	4
San-Toma va Prinsipi	1 001	163 000	San-Tome
Markaziy Afrika Respublikasi	622 984	3 799 897	Bangi
Ekvatorial Gvineya	28 051	650 000	Malabo
Burundi	27 830	8 988 091	Bujumbura
Jabuti	22 000	818 159	Jabuti
Keniya	582 650	37 953 838	Nayrobi
Puntlend (ta'n olinma-gan davlat)	116 000	3 900 000	Garove
Ruanda	26 338	10,186,063	Kigali
Somali	637 657	9 558 666	Mogadisho
Tanzaniya	945 090	37 849 133	Dodoma
Uganda	236 040	30 900 000	Kampala
Eritreya	117 600	4 401 009	Asmera
Efiopiya	1 104 300	75 067 000	Addis-Abeba
Janubiy Sudan	619 745	8 260 490	Juba
Angola	1 246 700	18 498 000	Luanda
Botsvana	600 370	1 639 833	Gaborone
Zambiya	752 614	12 935 000	Lusaka
Zimbabwe	390 580	13 349 000	Xarare
Komor	2 170	752 000	Moroni
Lesoto	30 355	2 125 266	Maseru
Mavrikiya	2 040	1 240 827	Port-Lui
Madagaskar	587 041	20 042 552	Antananarivu
Malaviya	118 480	15 400 000	Lilongve
Mozambik	801 590	21 397 000	Maputu
Namibiya	825 418	1 820 916	Vindxuk
Svazilend	17 363	1 141 000	Mbabane
Seyshel orollari	451	80699	Viktoriya
Janubiy Afrika Respublikasi	1 219 912	43 786 828	Keyptaun

## OSIYO MAMLAKATLARI

Mamlakatlar	Hududi (ming km <sup>2</sup> )	Aholisi (mln. kishi) (2012-yil)	Poytaxti
<i>G'arbiy Osiyo</i>	4729	193	
Armaniston	30	3,8	Yerevan
Bahrayn	0,7	0,72	Manama
BAA	84	3,3	Abu-Dabi
Iordaniya	89	5,2	Ammon
Iraq	439	23,6	Baqdod
Isroil	21	6,4	Tel-Avviv
Kipr	9	0,88	Nikosiya
Quvayt	18	2,3	Quvayt
Livan	10	4,3	Bayrut
Saudiya Arabistoni	2152	21,1	Ar-Riyod
Suriya	185	17,1	Damashq
Turkiya	776	66,3	Anqara
Ummon	213	2,4	Maskat
Falastin	6	3,3	Quddus
Yaman	529	18,0	Adan
Qatar	11	0,59	Doxa
<i>Markaziy va Janubiy Osiyo</i>	10780	1505	
Afg'oniston	653	26,8	Kobul
Bangladesh	144	133,5	Dakka
Butan	47	0,9	Tximpuxu
Maldiv Resp.	0,3	0,29	Male
Nepal	147	23,5	Katmandu
Pokiston	797	145	Islomobod
Tojikiston	143	6,2	Dushanbe
Turkmaniston	489	5,5	Ashxobod
Shri Lanka	66	19,5	Kolombo
Eron	1635	66,1	Tehron

1	2	3	4
O'zbekiston	448,4	30	Toshkent
Qirg'iziston	199	5,0	Bishkek
Qozog'iston	2720	14,8	Ostona
Hindiston	3291	1033	Dehli
<i>Janubi-Sharqiy Osiyo</i>	4500	519	
Bruney	6	0,35	Bandar-Seri Begavan
Vietnam	332	78,7	Xanoy
Indoneziya	1907	206,1	Jakarta
Kambodja	181	13,1	Pnompen
Laos	237	5,4	Ventyan
Malayziya	330	22,7	Kuala-Lumpur
Myanma	677	47,8	Yangon
Singapur	0,6	4,1	Singapur
Tayland	514	62,4	Bangkok
Filippin	300	77,2	Manila
Sharqiy Timor	15	0,77	Dili
<i>Sharqiy Osiyo</i>	11788	1503	
Koreya Respublikasi	99	48,8	Seul
KXDR	121	22	Pxenyan
Mo'g'uliston	1568	2,4	Ulan-Bator
Xitoy	9584	1273,3	Pekin
Yaponiya	378,0	127,1	Tokio

## YEVROPA MAMLAKATLARI

Mamlakatlar	Hududi (ming km <sup>2</sup> )	Aholisi (mln. kishi) (2011-yil)	Poytaxti
Albaniya	28 748	3 200 523	Tirana
Andorra	468	82 403	Andorra-la-Velya
Avstriya	83 858	8 469 929	Vena

1	2	3	4
Ozarbayjon	86 600	9 100 000	Baku
Belorussiya	207 600	9 735 382	Minsk
Belgiya	30 510	10 574 595	Bryussel
Bosniya va Gersegovina	51 129	4 048 500	Sarayevo
Bolgariya	110 910	7 621 337	Sofiya
Xorvatiya	56 542	4 637 460	Zagreb
Kipr	9 251	863 457	Nikoziya
Chexiya	78 866	10 256 760	Praga
Daniya	43 094	5 568 854	Kopengagen
Estoniya	45 226	1 315 681	Tallin
Farer orollari (Daniya)	1 399	46 011	Torsxavn
Finlyandiya	336 593	5 357 537	Xelsinki
Fransiya	547 030	65 165 983	Parij
Gruziya	69 700	4 461 473	Tbilisi
Germaniya	357 021	82 551 851	Berlin
Gretsiya	131 940	11 245 343	Afina
Gernsi	78	64 587	Sent-Piter-Port
Vengriya	93 030	10 075 034	Budapesht
Islandiya	103 000	304 261	Reykyavik
Irlandiya	70 280	4 434 925	Dublin
Men orollari	572	73 873	Duglas
Italiya	301 230	60 051 711	Rim
Jersi	116	89 775	Sent-Xelier
Latviya	64 589	2 366 515	Riga
Lixtenshteyin	160	35 322	Vadus
Litva	65 200	3 401 138	Vilnyus
Lyuksemburg	2 586	472 569	Lyuksemburg
Makadoniya Respublikasi	25 333	2 054 800	Skope
Malta	316	408 009	Valletta
Moldova	33 843	3 834 547	Kishinyov
Monako	1,95	32 087	Monako
Chernogoriya	13 812	598 258	Podgorisa
Niderlandiya	41 526	16 518 199	Amsterdam
Norvegiya	324 220	4 725 116	Oslo
Polsha	312 685	38 125 478	Varshava
Portugaliya	91 568	10 709 995	Lissabon
Ruminiya	238 391	21 398 181	Buxarest

1	2	3	4
Rossiya	17 075 400	141 800 000	Moskva
San-Marino	61	31 730	San-Marino
Serbiya	88 361	9 963 742	Belgrad
Slovakiya	48 845	5 422 366	Bratislava
Sloveniya	20 273	2 012 917	Lyublyana
Ispaniya	504 851	46 061 274	Madrid
Svalbard orollari (Norveg.)	62 049	2 868	Longyir
Shvetsiya	449 964	9 290 113	Stokgolm
Shveytsariya	41 290	7 507 000	Bern
Ukraina	603 700	45 996 470	Kiyev
Buyuk Britaniya	244 820	61 600 835	London
Vatikan	0,44	900	Vatikan

## ETNOLOGIYAGA OID ATAMA VA TUSHUNCHALARING IZOHLI LUG'ATI

**Avtoxton** (yunon. ) – mahalliy, jaydari, tub aholi mahalliy yer egasi bo‘lgan xalq, mamlakatning ibtidoiy aholisi, aborigenlar.

**Antropogenez** (yunon. ) – inson jismoniy qiyofasining shakllanishi, mehnat faoliyatining, shuningdek, jamiyatning kundalik rivojlanish jarayoni. Antropogenez haqidagi ta’limot antropoligiya tarmog‘i hisoblanadi.

**Antropologiya** (yunon. ) – odamning kelib chiqishi va evolyutsiyasi, odamzod irqlarining paydo bo‘lishi, odamning tana tuzilishidagi normal farq, tafovut, o‘zgaruvchanlik haqidagi fan. Antropologlar odamni uning suyak tuzilishi, teri va sochining rangi va boshqa tiplari, fiziologik, jinsiy va boshqa xususiyatlari ni o‘rganadi. Antropologiya ijtimoiy fanlarga juda yaqin turadigan biologiya sohasidir. Bu fanga doir fikrlar bundan bir necha ming yil ilgari paydo bo‘lganiga qaramay, u fan sifatida faqat XIX asrning ikkinchi yarmidan shakllana boshladi. Antropologiyaning muhim sohasi – odam organizmning tuzilishi va rivojlanishiga juda ta’sir qiladigan fiziologik, biokimiyoviy va genetik omillarini o‘rganadigan bo‘limi «Odam biologiyasi» degan umumiy nom bilan XX asrning o‘rtalaridan boshlab rivojlandi. Odamning paydo bo‘lishida faqat tabiat olaming qonuniyatlarigina emas, balki ijtimoiy omillar ham muhim rol o‘ynagan.

Antropologiyaning fan bo‘lib rivojlanishida tabiat va jamiyat to‘g‘risidagi fanlar ijobiy rol o‘ynadi. Zamонавији fan nuqtai nazaridan aytganda, antropologiya quyidagi uchta katta bo‘limdan iborat: 1) Odam morfologiyasi; 2) Antropologenez; 3) Irqshunoslik (etnik antropolgiya).

**Antropologik tip** – muayyan hududga mansub odamzotning tuzilishidagi irqiy turg‘un belgilarning shakllangan majmui. Bu atama bilan katta irqlar, ularning bo‘limlari ham ifodalanadi.

**Genealogiya** (*yunon. shajara*) – yordamchi tarix fanlaridan biri, XVII – XVIII asrlarda vujudga kelgan. Bilimlarning amaliy sohasi, shajaralar tuzish, urug‘ va oilalarning kelib chiqishi, ayrim shaxsning tarixiy va qarindoshlik aloqalarini o‘rganadi.

**Genezis** (*yunon.*) – kelib chiqish. Etnologiyada xalqlarning kelib chiqishi.

**Jamoa** (ar.) – kishilarning qavmiga uyushuv shakli. Jamoa, yalpi ibridoiy jamiyat tuzumiga xos bo‘lib, sinfiy jamiyatlarda ham turli ko‘rinishlarda saqlanib kelmoqda. Jamoa uchun ishlab chiqarish vositalari (ko‘pincha yerga) birgalikda egalik qilish, o‘zini o‘zi idora etish huquqidan to‘la yoki qisman foydalanishi xarakterlidir. Jamiyat tarqqiyoti jarayonida jamoaning shakli va mazmuni o‘zgaradi (urug‘ jamoasi, qishloq jamoasi, uy, oila jamoasi, qo‘schnichilik jamoasi yoki hududiy jamoa).

**Initsiatsiya** (lot.) – bag‘ishlash, ibridoiy davrda o‘smirlarni voyaga yetgan erkak va ayollar safiga o‘tkazish marosimi, islomda o‘g‘il bolalar sunnati initsiatsiya hisoblanadi.

**Innovatsiya** (lot.) – yangilanish, meros va an’analarning avloddan-avlodga o‘tishi natijasida madaniyatda vujudga kelgan yangi ko‘rinishlar.

**Integratsiya** (lot.) – tiklanish, to‘ldirish, turli xalqlarning birlashuvi, turli etnoslarning bir hududda etnik-madaniy aloqalarini o‘rnatish jarayoni.

**Iraq** (ar.) – ildiz, tomir, odamlarning kelib chiqishi, gavda tuzilishi va qiyofasi o‘xhash bo‘lgan tarixan tarkib topgan hududiy birligidir. Kishilarning tana tuzilishi, tashqi qiyofasi (teri, ko‘z va suyagining rangi, soqolining siyrak yoki qalinligi, bo‘y-basti, yuz tuzilishi, bosh suyagining shakli, qon guruhi) va boshqalariga qarab guruh-guruhgaga ajratiladi. Jahondagi barcha xalqlar to‘rtta katta irqga bo‘linadi: yevropoid (Yevrosiyo), mongoloid (Osiyo-Amerika), negroid va avstraloid (Okeaniya).

**Irqlar** – *Homo Sapiens* turi ichidagi sistematik guruhlar. Har bir irq o‘ziga xos irsiy belgilar, maslan, ko‘z, soch va teri rangi, yuz va bosh qutisiga binoan boshqa irqlardan farq qiladi. Hozirgi odamlar 3 ta: ekvatorial (negroid, avstraloid), yevropoid (yevrosiyo), mongoloid (osiyo-amerika), yoki 5 ta (negroid, avstraloid,

yevropoid, mongoloid, amerikanoid) yirik irqlarga bo‘linadi. Har bir irq ichida yana kichikroq irq, ya’ni kenja irq bo‘ladi. Masalan, ekvatorial irq, negr, negrill, bushmen irq, avstraliya va boshqa irqlarga; yevropoid irq esa Atlantika-Boltiq, Hind-O‘rtal dengizi, O‘rtal Yevropa va Arktika, Janubiy Osiyo va boshqalarga ajraladi.

Irqlar paleolitning so‘unggi davrlarida bundan 40 – 30 ming yil avval odam yer yuzini egallashi bilan shakllana boshladi. O‘sha davrda ko‘pchilik irq belgilari moslashish xususiyatiga ega bo‘lganligidan muayyan muhit sharoitida tabiiy tanlanish tu-fayli mustahkamlanib borgan. Masalan, ekvatorial irqda terining qora rangi ultrabinafsha nurlar ta’siridan himoyalovchi, burun qatagining keng bo‘lishi nam tropik iqlim sharoitida suv bug‘lanishini kuchaytiruvchi, tananing uzun bo‘lishi, tana yuzasini tana hajmiga nisbatan kengaytirish orqali termoregulyatsiyani amalga oshiruvchi vosita sifatida vujudga kelgan.

Barcha irqlar *homo Sapiens* ga xos bo‘lgan umumiy xususiyatlarga ega, ularning barchasi biologik va psixik jihatdan teng bo‘lib, evolyutsion rivojlanishning bir xil pog‘onasida turadi. Hamma irqlar madaniyat va sivilizatsiya eng yuqori darajada rivojlanishida bir xil imkoniyatga ega. Hozirgi zamon fani mavjud irqlar bir xil qobiliyatga ega emasligi, ular evolyutsiyasining turli bosqichlarida turganligi to‘g‘risidagi irqchilik g‘oyalarini inkor etadi. Irqlarni millat, «til guruhi» tushunchalari bilan aral-ashtirib yubormaslik lozim. Bitta millat tarkibida har xil irqlar va aksincha bitta irqning o‘zi turli millatlar tarkibiga kirishi mumkin.

**Konglomerat** (lot.) – birikish, qo‘shilish, bog‘lanish, to‘plan-gan turli toifa va elatlarning uyushtirilishidan tashkil topgan ijtimoiy-siyosiy tuzum. (Masalan, quidorlik, feodalizm davrida tuzilgan yirik davlatlar).

**Konsolidatsiya** (lot.) – mustahkamlayman, yiriklashuv, til va madaniyat jihatidan yaqin va qon-qardosh bo‘lgan xalqlarning yagona bo‘lib birlashuvi, etnoslarning bir-biriga yaqinlashib, qo‘silib ketishi.

**Magiya** (yunon.) – sehrgarlik, odamning o‘zini g‘ayri tabiiy kuchlar ta’sirida ko‘rsata olish qobiliyatiga asoslangan ish amallari.

**Madaniyat** (ar.) – inson qo‘li va aql-idroki bilan yaratilgan moddiy va madaniy boyliklar. Rus tilida «kultura» so‘zi aslida lotincha so‘z bo‘lib, «ishlab chiqarish», «yasash», «yaratish» degan ma’noni anglatadi. Madaniyat tushunchasi tarixiy davr (antik madaniyat), aniq jamiyat, elat va millati hamda faoliyati yoki hayotining o‘ziga xos sohalarini tavsiflash uchun qo‘llaniladi. Madaniyat moddiy va madaniy madaniyatga bo‘linadi. Moddiy madaniyatga xo‘jalik qurollari, uy-ro‘zg‘or buyumlari, kiyim-kechaklar, bezaklar, taomlar, idish-tovoqlar, turarjoylar va boshqalar kiradi. Ma’naviy madaniyatga esa oila-nikoh munosabatlari, urf-odatlar, marosimlar, e’tiqodlar, tasviriy san’at, folklor kabilarni o‘z ichiga oladi. Moddiy va ma’naviy madaniyat bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir.

**Marosim** (ar.) – diniy yoki an’naviy urf-odatlar munosabatlari bilan o’tkaziladigan ma’raka, yig‘in: tantana bilan uyuştiriladigan rasmiy yig‘in.

**Mikroetnos** – mahalliy xalq yoki millat ichida ba’zi jihatlari (shevasi, moddiy va ma’naviy madaniyati, diniy tasavvurlari) bilan ajralib turgan mayda etnografik guruhlar.

**Nikoh** (ar.) – er-xotinlikni yuziat yo‘li bilan rasmiylashtirish marosimi, mazkur marosimda mulla tomonidan amalga oshiriladigan shartnama. Erkak bilan ayolning huquqiy ravishda rasmiylashtiriladigan oilaviy ittifoqi. Erkak bilan ayolning bir-birlariga va bolalariga nisbatan huquqi va majburiyatlarini keltirib chiqaruvchi oilaviy ittifoqi.

**Tarixiy-etnografik viloyat** – ma’lum hududda joylashgan, uzoq tarixiy davr ichida moddiy va ma’naviy madaniyatda umumiylar xususiyatlardan yaratgan xalqlar maxsus tarixiy-etnografik viloyatlarga bo‘linadi. Moddiy madaniyatga tevarak-atrofdagi tabiiy-ekologik sharoitga moslashgan mehnat qurollari, uyulari, uy-ro‘zg‘or buyumlari, taomlari, kiyim-kechaklari kirsa, ma’naviy madaniyatga xalq yaratgan turli janrdagi asarlar, xalq amaliy bezakchilik san’ati, pardozi berish, diniy e’tiqod, urf-odatlardagi ba’zi umumiylar kiradi. Masalan, Amerika qit’asi eng katta ikki tarixiy-etnografik viloyat – Shimoliy Amerika va Latin Amerikasiga bo‘linadi. Etnik va madaniy xususiyatlari bilan

umumiylar belgilarga ega bo‘lgan ko‘p xalqlar maxsus janubiy Osiyo tarixiy etnografik region (mintaqa)ni tashkil etadi. O‘rta Osiyo va Qozog‘iston mintaqasi ham maxsus tarixiy madaniy viloyat hisoblanadi.

Mamlakatimizdagi Farg‘ona vodiysi (Farg‘ona, Andijon, Namangan viloyatlari), Janubiy O‘zbekiston (Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari)ni ham kichik tarixiy-etnografik region – mintaqalarga kiritish mumkin.

**Tillar klassifikatsiyasi** – jahon tillarini turli belgilariga ko‘ra o‘rganib, guruhlarga ajratish. Tillarning genetik (genealogik) klassifikatsiyasi ularning qarindoshchilik belgilariga asoslanadigan, ya’ni umumiylar o‘zak tildan kelib chiqqan tillarni o‘z ichiga oladi: hind-yevropa tillari, oltoy tillari, ural tillari oilasi va boshqalar. Tipologik klassifikatsiya, genetik yoki hududiy yaqinlikdan qat’iy nazar, til tuzilishi (morfologik, fonologik, sintaktik, semantik) belgilarning o‘xshashligiga asoslanadi. Shunga ko‘ra tillar izolyutsiyalovchi (amorf, tip) qadimgi xitoy, vietnam, yoruba (aglyutinatsiyalovchi) (aglyutinativ tip) turkiy tillar, ko‘pgina fin-ugor tillari (flektsiyalovchi) flektiv tip (rus tili)ga bo‘linadi. Ayrim olimlar inkorporatsiyalovchi (polisintetik) tillari (ayri paleosiyo tillari, kavkaz tillari)ni ham ajratadilar.

**Xo‘jalik-madaniy tiplar** – jahon xalqlarining ibtidoiy jamiyat davri (qadimgi tosh, bronza va temir asrlari)dagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, turlicha tabiiy sharoitda joylashishi va moslashishi ularning hayotida turli tipdagisi xo‘jalik-madaniyatlarni vujudga keltirgan edi. Xo‘jalik-madaniy tiplar dastavval muayyan jamiyatda ustuvor ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lib, har bir tarixiy davrda kishilarning tevarak-atrofdagi muhit bilan aloqa xarakterini belgilaydi.

Mazkur tiplar kishilarning mashg‘ulorti va ishlab chiqarish qurollari, turarjoylari va uy-ro‘zg‘or jihozlari, taomlari va kiyim-kechaklari, transport vositalari va boshqa tiplarga qarab, muayyan jamiyatning ijtimoiy tuzumini ham aniqlash mumkin. Ma’naviy madaniyat xususiyatlari, asosan, urf-odatlarda, tasviriy san’atda, e’tiqodi va folklorida yorqin namoyon bo‘ladi. Xo‘jalik-madaniy tiplarning birligi va o‘zaro bog‘liqligi muayyan ij-

timoiy-iqtisodiy taraqqiyot va bir-biriga yaqin geografik muhit bilan bog'liq bo'lib, o'zgaruvchan xarakterga ega.

Eng qadimgi davrlarda paydo bo'lgan etnoslarning xo'jalik-madaniy tipi issiq tropik va subtropik iqlimli o'lkalardagi ovchilik, terim-termachilik va sohillardagi baliqchilikdir. Namli tropik va subtropik joylarda ikkinchi madaniy-xo'jalik tipi, ichki issiq iqlimdagagi qo'l mehnatli dehqonchiligi tarqalgan bo'lib, bunga qisman ovchilik-terimchilik va baliqchilik xo'jaliklari ham yordamchi hisoblangan. Iqtisodiyot va texnika taraqqiyotiga yangi sifat yaratgan uchinchi madaniy-xo'jalik tiipi motiga dehqonchilik bilan chorvachilik qo'shilishi natijasida paydo bo'lgan edi.

Keyingi davrdagi fan-texnika taraqqiyoti butun jahondagi an'anaviy xo'jalik madaniy tiplarga jiddiy o'zgartirishlar kiritdi.

**Sivilizatsiya** – insoniyat jamiyatni ilgarilama harakatida erishilgan darajani hamda moddiy va ma'naviy qadriyatlarni o'zlashtirish usulini ifodalaydigan tushuncha.

**Etnik antropologiya va irqshunoslik** – antropologiyaning odamzot irqlarining kelib chiqish tarixi, sabablari va yer yuziga tarqalishi hamda xalqlarning antropologik tarkibini o'rghanuvchi sohasi. Millat va irq odamzod turlarining birligi, monogenizm va poligenizm, odamzod guruhlari va uning tarkiban antropologik bir xillik darajasini aniqlash, irqlarning klassifikatsiyasi, dunyo xalqlarining antropologik tarkibi, irqlarning hozirgi davrda tarqalishi va odamzod birligi, irqiy belgilarning o'zgaruvchanligi, irqlarning kerishuvi kabi masalalari ustida tadqiqot olib boradi.

**Etnik birlik** – kishilarning qabila, elat, millat va boshqa birliklaridan iborat bo'lgan, tarixan tarkib topgan alohida barqaror ijtimoiy guruhi. Etnik birlik tushunchasi etnografik jihatdan «xalq» ma'nosini anglatadi. Kishilar birlashuvining tabiiy nezioni hudud umumiyligi, shuningdek, ular tilining yaqinligi va umumiyligi etnik birlikning vujudga kelishiga asosiy shart hisoblanadi.

**Etnik guruh** – turmush va madaniyatning ayri elementlari (tili, moddiy va ma'naviy madaniyatidagi o'ziga xos xususiyatlari, dini va boshqalar)ni saqlagan xalq yoki millatning alohida

qismi. Etnik guruhga, odatda, elat yoki millatning boshqa milliy guruhlar bilan assimlyatsiyasi yoki elatga o'zining ayrim xarakterli belgilarini saqlagan holda qo'shilishi natijasida, shuningdek, xalqlning bir qismi asosiy etnik hududdan uzoq vaqt uzilib qolishi, migratsiya jarayonlari, davlat chegaralarining o'zgarishlari va boshqalar, yangi tabiiy-geografik sharoitga tushishi natijasida xo'jalik va madaniyatda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishi bilan paydo bo'ladi.

**Etnografik guruh** – ma'lum bir etnosning (elatning yoki millatning ajralmas qismi, uning tarkibidagi bo'linmalardan) biri bo'lib, o'zining ba'zi xususiyatlari bilan til lahjasi, xo'jalik faoliyati, tumursh tarzining ba'zi tomonlari bilan farq qilgan. Etnografik guruh, odatda, bir qabilaning, elatning yoki millatning ikkinchi bir xalq bilan aralashib, boshqa yerga borib, shu yerdagi xalq tarkibiga kirib, u bilan birga yashab kelishi natijasida vujudga keladi.

**Etnik jarayon** – etnik birlik (elat) bilan uning tarkibiga kirgan etnik guruhlar o'rtasidagi xo'jalik, iqtisodiy, madaniy aloqalarning uzlucksiz rivojlanib borishidir. Bu jarayon ikki xil – bo'linib ketishga va birlanishga moyildir.

**Etnogenetik jarayon** – bu jarayonda xalqning ilk ildizlari hosil bo'ladi. Bir qancha etnik guruhlar bir-birlari bilan yaqinlashib, qo'shib boradi. Etnik guruhlarning tashqi qiyofasi, tili, moddiy va madaniy madaniyati har xil bo'ladi. Uzoq davom etgan etnogenetik jarayonda ularning tashqi qiyofasida, tilida, moddiy va ma'naviy madaniyatida, fe'l-atvorida umumiylilik hosil bo'ladi. O'zbek xalqining etnogenetik jarayoni Qang' davlati doirasida (miloddan avvalgi III – milodiy V asrning o'rtalarida) o'tgan. Keyingi davrlarda bu jarayon rivojlangan.

**Etnik psixologiya** – sotsial psixologiya bo'limlardan bo'lib, turli milliy, xalq va etnik guruhga xos tipik psixik xususiyatlarini o'rganadi. O'z tekshirishlarida muayyan tadqiqot ob'ektining moddiy va ma'naviy madaniyati, ijtimoiy hayoti, an'analari, urf-odati, til xususiyati, diniy qarashlari, shuningdek, o'ziga xos tasavvuri, kayfiyati, ish-harakatlari tizimi va boshqalarga asoslanadi.

**Etnik tarix** – ma'lum bir xalqnning ilk ajdodlaridan boshlanib, elat shakllanishi, uning taraqqiyot etish bosqichlarini va elatning yemirilishi davrini o'z ichiga oladi.

**Etnogenez** (yunon) – xalqlarning kelib chiqishi, ilgari mavjud bo'lgan turli etnik komponentlar asosida yangi etnik birlikning tarkib topish jarayoni. Xalqlarning etnogenezini o'rganishda ular kelib chiqishining dastlabki davrigina emas, balki keyingi shakllanish tarixi ham, shuningdek, hozirgi zamon etnografik, lingvistik va antropologik xususiyatlari ham hisobga olinadi. Bunday murakkab jarayonni aniqlash, etnografiya, arxeologiya, antropoliya, tarix, tilshunoslik fanlari ma'lumotlaridan foydalananishni talab etadi, ya'ni etnogenez masalasi fanda kompleks o'r ganiladi.

**Etnogeografiya** (lot.) – etnologiyaning bir tarmog'i. Yer yuzi, alohida mamlakatlar va ularning hududlari aholisining tarkibi va joylashishini o'rganadi. Shuningdek, etnogeografiya qadimgi va hozirgi etnik birliklarning joylashishini tekshiradi va shu asosida etnik chegaralarni aniqlaydi. Etnogeografiyaga etnik geografiya va etnik demografiya kiradi. Etnogeografiya antropologiya bilan yaqin aloqada.

**Etnolingvistika** (yunon.) – tilshunoslikning etnologiya bilan bog'liq bo'lishi. Etnolingvistika xalq odatlari, tasavvurlari, madaniyati bilan tilning o'zaro aloqasi va ta'sirini o'rganadi. Shuningdek, tilda aks etgan madaniy dalillarni dini va maxsus tillarni, tabularni, etnik onomastikani va boshqalarni tahlil qiladi.

**Etnonim** (yunon.) – xalqlarning nomlarini anglatuvchi atama.

**Etnonimika** – qabila, xalq va boshqa etnik birliklarni o'rganadigan fan.

**Etnos** (yunon.) – elat, xalq. Etnologiyada urug', qabila, elat, xalq, millat etnos deb yuritiladi.

**Etnosentrizm** (yunon.) – insонning barcha hayotiy hodisalarini o'zi uchun namuna deb bilgan o'z etnik guruhi qadriyatlarini yuzasidan baholashga moyilligi; o'z hayot tarzini boshqalar ishidan afzal ko'rish.

## ETNOLOGNING MUHIM 10 VAZIFASI

(L. Y. Shternberg talqiniga ko'ra)

1. Etnologiya – barcha gumanitar fanlar gultojisi, chunki u xalqlarning o'tmishi va hozirgi kunini o'rghanadi.
2. O'z xalqing, dining va madaniyatingdan o'zingni yuqori tutma. Bilgingki, barcha insonlar imkoniyatiga ko'ra teng. Kimki bitta xalqini bilsa – bittani ham bilmaydi, kimki bitta dinni bilsa – umuman bittasini ham bilmaydi.
3. Fanni tahqirlama, etnografiyani shuhratparastlik bilan bulg'ama. Fanga katta g'ayrat-shijoat bilan yondashgan, inson va insoniyatni sevadigan kishigina haqiqiy etnograf bo'la oladi.
4. Olti kun ishla va yettinchi kun esa yakun qil. Jamiyat va fan oldidagi o'z qarzingni unutma.
5. Buyuk o'tmishdoshlaring, ilmiy va jamoat hayotidagi us-tozlaringni hurmat qil. Kelgusida seni ham xizmatlaringga ko'ra hurmatlasin.
6. Fanning faktlarini soxatalashtirish, yuzaki, noaniq kuzatuvlar va chillaki xulosalar bilan bevaqt zarar yetkazma.
7. Bir marta tanlagan mutaxasisliging – etnografiyani tashlama. Kimki etnografiya yo'liga kiribdi, undan chiqishi kerak emas.
8. Ko'chirmachilik qilma.
9. O'zingning yaqinlaring, o'zga xalqlar, ularning marosimlari, odatlari, fe'l-atvori haqida yolg'on ma'lumotlarni gapirma. Yaqinlaringni o'zingdanda ko'ra yaxshi ko'r.
10. O'rganayotgan xalqingni o'z madaniyatingga majburiy tarzda bog'lama: unga ehtiyyot bo'lib, diqqat-e'tibor bilan munosabatda bo'l, uning madaniyati qanday bosqichda bo'lishidan qat'iy nazar u rivojlangan madaniyat ko'rinishi darajasiga ko'tarilishiga o'zi harakat qiladi.

*O'quv nashri*

**Adhamjon Ashirov**

# **ETNOLOGIYA**

*O'quv qo'llanma*

*Ikkinchı nashr*

Muharrir *I. Shoymardonov*  
Badiiy muharrir *A. Aqilov*  
Texnik muharrir *B. Irisboyev*  
Musahhih *D. Ismoilova*  
Sahifalovchi *Sh. Do'smatova*

Lits. AI № 111. Bosishga ruxsat etildi 11.03.2014-y.  
Bichimi 84x108 1/32. Kegli 11.5 shponli.  
Shartli bosma tab'ogi 34,0. Hisob nashr tabog'i 31,5.  
Adadi 1 000. Shartnoma №15/14. Buyurtma № 312.

«YANGI NASHR» nashriyoti,  
100115, Toshkent sh., Chilonzor tumani,  
Chilonzor ko'chasi, 1-uy.  
тег: +99890 990-12-56

e-mail: adhashirov@yandex.ru

Original maket «Bilik-Print» MChJ  
korxononasida tayyorlandi.  
100115, Toshkent sh., Chilonzor tumani,  
Chilonzor ko'chasi, 1-uy.

«Shams Asa» MCHJ bosmaxonasida chop etildi  
Toshkent sh., Chilonzor tumani,  
Bunyodkor ko'chasi, 28-uy.



ISBN-978-9943-22-139-0



9 789943 221390